TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI



Toshkent, 2024-yil 28-mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2024-yil 28-mart)

Toshkent – 2024

UO‘K: 004.8+81’32
KBK: 81.1

Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 28.03.2024. – 493 b.

Mazkur to‘plamdan til tarixi va nazariy tilshunoslik bilan birga, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, terminologiya, til ta’limi va lingvistik ekspertiza kabi tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan nazariy va amaliy tilshunoslik vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Sirojiddinov Sh.S. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Taqrizchilar:

Jamoldinova O. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori, prefessor, f.f.d.

Xolmanova Z. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, professor, f.f.d.

Islamdjanova H. Toshkent davlat sharqshunoslik univeristeti, professor, f.f.d.

TASHKILIY QO‘MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jamoldinova Odinaxon Rasulovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo‘raqo‘ziyev Nodir Imomqo‘ziyevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Dadaboyev Hamidulla Aripovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Shahobiddinova Shohida Hoshimovna (Andijon davlat universiteti)

Abdushukurov Baxtiyor Bo‘ronovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Azimova Iroda Alisherovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Abjalova Manzura Abdureshetovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY’ATI

Dadaboyev Hamidulla Aripovich
Azimova Iroda Alisherovna
Abjalova Manzura Abdurashetovna
Muxammadiyeva Dilafro’z Axtamovna
O‘rozov Jumanazar Norqizilovich
Rixsiyeva Kamola G‘ofurovna
Xonnazarov Elyor G‘ofurovich
Xolmurodova Mushtariy Faxrutdin qizi
Mahkamova Durdona Nematovna
To‘xtasinova Mahliyoxon
Ne’matova Surayyo Shavkat qizi
Zaripov Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li
Ravshanova Nozima Axtam qizi
Azimova Munisa Ashur qizi

ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR – DAVR TALABI

Bugungi tezkor va shitobli zamonda dunyo tillarining taqdiri ularning axborot texnologiyalari talablariga qay darajada javob berishiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Bu esa tilshunoslikning taraqqiyotida ham uning boshqa fanlar bilan integratsiyasi o‘laroq bir qator zamonaviy yo‘nalishlarning rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter va korpus lingvistikasi, lingvistik ekspertiza kabi sohalarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ko‘lamidan ilm-fanda tilshunoslikning mazkur yo‘nalishlariga ehtiyojning katta ekanligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-son Farmonida davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash va o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish vazifalari qo‘yilgach, bu sohadagi ishlar yanada jadallashdi.

“Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari” mavzusida o‘tkazilayotgan ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiya ham sohada faoliyat yuritayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalarning yangi g‘oyalari va ilmiy yondashuvlarini bir joyga jamlagan holda tilshunoslik fanining rivojlanishida yana bir muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Anjuman doirasida, siz aziz ishtirokchilar, nafaqat o‘z bilim va tajribalaringizni baham ko‘rishingiz, balki sohaning yetakchi mutaxassislari bilan fikr almashishingiz mumkin bo‘ladi. Ushbu tadbirda Turkiya va Qozog‘iston Respublikalaridan xorijiy olimlarning ham ishtirok etayotgani juda quvonarli holat. O‘ylaymanki, bu yerda o‘rnatiladigan hamkorlik aloqalari kelajakdagi ilmiy loyihalar uchun yangi yo‘llar ochadi. Zero, bizning asosiy maqsadimiz – tilshunoslik sohasida global hamjihatlikni mustahkamlash va zamonaviy ilmiy yondashuvlar orqali tilshunoslikni yanada rivojlantirishdir.

Konferensiyaning muvaffaqiyatli va samarali o‘tishiga tilakdoshman. Umid qilamanki, bu uchrashuv sizlarga ilmiy va shaxsiy rivojlanishda yangi imkoniyatlar ochadi. Anjuman tashkilotchilariga, ishtirok etayotgan barcha olimlarga va xorijiy mehmonlarimizga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

Shuhrat Sirojiddinov,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

I SHU’BA. NAZARIY TILSHUNOSLIK

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA HOZIRGI UYG‘UR TILIGA OID TADQIQOTLARNING O‘RNI

Ho Lim Song
Samarqand davlat universiteti doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108434

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tillar guruhining janubi-sharqiy yoki qarluq lahjasiga mansub hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillari o‘rtasidagi ilmiy aloqalar borasida izlanishlar olib borilgan. Maqolada, asosan, o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb vazifalar muhokama qilinadi. Birinchisi, o‘zbek va uyg‘ur tilshunoslari o‘rtasida lingvistik terminlarning farqli qo‘llanilishi. Ikkinchisi, o‘zbek va uyg‘ur tillari o‘rtasidagi fonetik transkripsiyani birlashtirish masalasi. Oxirida “O‘zbek tili”ning ilmiy masofasini butun Turkistondagi turkiy tillarni qamrab oladigan darajada kengaytiradigan yangicha qarash kerakligi haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tilshunosligi, uyg‘ur adabiy tili, o‘zbek transkripsiyasi, Turkiston, lingvistik terminlar.*

Annotation. In this article, research was conducted on the scientific relations between the modern Uzbek and Uyghur languages, which belong to the southeastern or Qarluq dialect of the Turkic language group. The article mainly discusses current tasks in Uzbek linguistics. The first issue lies in the varying use of linguistic terms between Uzbek and Uyghur linguists. The second issue concerns the phonetic transcription differences between two languages. At the end, there is an opinion about the necessity of adopting a new perspective that will broaden the linguistic scope of the "Uzbek language" to encompass all Turkic dialects spoken in sedentary Turkestan.

Keywords: *Uzbek linguistics, Uyghur linguistics, Uyghur language, Turkistan languages, Uzbek transcription, linguistic terms*

Kirish. So‘nggi yillar o‘zbek tilshunosligida qiyosiy tilshunoslikning taraqqiy etishi natijasida turkiy tillarning leksik, morfologik va fonetik tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ishlar yuzaga keldi. Ammo dunyo turkiy tillari ichida bir-biriga eng yaqin qarindoshlik munosabatiga ega bo‘lgan, bir chig‘atoy turkiy tilidan kelib chiqqan ikki ajdod tili bo‘lmish o‘zbek va uyg‘ur tillari o‘rtasida bugungi kunda o‘zaro ilmiy aloqalar birmuncha susaygan. Bizningcha, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish nihoyatda zarur. Ammo hozirda o‘zbek

tilshunosligida uyg‘ur tiliga oid maxsus tadqiqotlarni uchratish juda qiyin. Masalan, o‘tgan 30 yil ichida F.Umarbekning morfologik tadqiqotidan tashqari biror monografiya yoki PhD darajali ilmiy ish mavjud emas [Умарбек, 1998]. Undan avval ham o‘zbek va uyg‘ur tillarini qiyosan o‘rganishga e’tibor sust bo‘lgan, bu o‘rinda sobiq ittifoq davrida K.K.Yudaxin (1950), I.Farmonov (1959), A.Matg‘oziyev (1973) kabi olimlarning ilmiy tezislarini hamda G‘.Saidvakasovning Farg‘ona vodiysidagi uyg‘ur lahjasini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlari (1976) ni sanab o‘tishimiz mumkin, xolos [Юдахин, 1950, 1958., Фармонов, 1959., Матғозиев, 1973., Садвакасов, 1976]. Hatto xorijiy tadqiqotchilar orasida ham mazkur mavzuga bag‘ishlangan ishlar juda cheklangan bo‘lib, faqatgina A.Yoqubning (2020) o‘zbek va uyg‘ur tillari morfologik jihatdan qiyosiy o‘rganilgan ishini esga olish joiz [Yakup, 2020]. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilshunosligidagi eng zaruriy ish, ya’ni, uyg‘ur adabiy tiliga oid tadqiqotlarning dolzarb vazifalari va ularning ahamiyatiga e’tibor qaratildi.

Asosiy matn. 1960-yillarda uyg‘ur shevasi bo‘yicha dala tadqiqotlarini olib borgan G‘.Saidvakasov Farg‘ona vodiysidagi uyg‘urlar tilidagi o‘ziga xos fonetik xususiyatlarni saqlab qola olmay, asta-sekin o‘zbekcha talaffuzga tobora ko‘proq o‘rganib borayotganligini misollar asosida tushuntiradi. Unda o‘zbek va uyg‘ur tillari o‘rtasidagi fonetik, morfologik hamda leksik farqlarni tushunish uchun asosiy ma’lumot beradi. Natijada, olim ta’kidlaganidek, “muammoni chuqur o‘rganish, albatta, uyg‘ur va o‘zbek tillaridagi alohida dialektik birliklarining shakllanish tarixini aniqlash va to‘g‘ri baholash imkoniyatini beradi” deb ikki til o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqotning ahamiyati esga olinadi [Садвакасов, 1976:270-273]. Biroq Saidvakasovning tadqiqidan buyon 50 yil o‘tib ketgan bo‘lsa-da, ikki tilni qiyosiy o‘rganish borasida asosiy muammolar hamon hal etilmagan.

Birinchidan, o‘zbek va uyg‘ur tilshunoslari o‘rtasida lingvistik terminlarning qo‘llanilishida bir-biriga mos kelmaydigan farqlanish muammosi mavjud. Masalan, o‘zbek tilshunosligida “fonema ottenkasi” degan termin ishlatiladi. Bu atama dastlab rus tilida turli rangdagi nozik farqlarni tasvirlash uchun foydalanadigan nom bo‘lib, fonemaning nutqdagi haqiqiy ko‘rinishlari, ma’lum fonemaning talaffuzdagi turli ko‘rinishlari shu fonemaning “ottenka”lari deyiladi. Ular umumiylikning (fonemaning) voqelanishida namoyon bo‘ladigan xususiyliklardir [Жамолхонов, 2009:18-19]. Aksincha, rus tilshunosligi ta’siridan holi bo‘lgan Shinjon-uyg‘ur tilshunoslari buni “shartli variant” deb atashadi. Masalan, uyg‘ur tilida [i] harfi ikki-uch xil talaffuz qilinadi. Birinchidan, o‘zi yolg‘iz bo‘g‘in bo‘lib kelsa yoki til tovushlaridan keyin kelsa /i/ talaffuz qilinadi. Ikkinchidan, oxiridagi urg‘uli

bo‘g‘indagi /i/ tovushi bo‘lsa /ɪ/ talaffuz qilinadi. Masalan, uyg‘ur tilidagi ئاپىسى /ɑpisɪ/ kabi. Uchinchidan, /q/, /ʁ/ qatorli uvular tovushlari bilan birga kelganda shu tovushning ta’sirida til o‘rni keng darajada keyiniga surilib oraliq, lablanmagan tor unli /ɨ/ yoki orqa qator /ɯ/ sifatida talaffuz qilinadi. Qisqasi, ottenka va variant bir xil ma’noni anglatuvchi turli xil atamalardir. Ikki til o‘rtasida qiyosiy tadqiqot olib borish uchun tadqiqotchi har ikki tomonning lingvistik terminologiyasini bilishi kerak. Qozog‘istondagi uyg‘ur tilshunoslari qo‘llayotgan atama o‘zbek tilshunosligiga, umuman, o‘xshash bo‘lsa-da, o‘zbek tilida “Uyg‘urcha tilshunoslik lug‘ati”ni tuzish o‘zbekshunoslikni rivojlantirish hamda ikki tomonlama qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun birinchi navbatdagi dolzarb vazifadir. Shuningdek, u o‘zbek olimlariga 1980-yillardan 2016-yilgacha Shinjonda o‘tgan 35 yil davomida olib borilgan turli turkologik tadqiqotlardan foydalanishga yordam beradi.

Ikkinchidan, o‘zbek va uyg‘ur tillari o‘rtasidagi fonetik transkripsiyani birlashtirish zarur. Xalqaro fonetik alifbo (XFA) jahon standartlariga mos fonetik transkripsiya tizimi bo‘lib, turkiy tillarni taqqoslashda so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rganishda foydalanish mumkin. Bugungi kunda uyg‘ur olimlari turkiy tillarning fonetik tizimini ifodalash uchun XFAdan foydalanadilar. O‘zbek tilshunosligida esa XFA kabi takomillashtirilgan baynalmilal fonetik transkripsiyadan emas, balki, har bir tadqiqotchi o‘ziga ma’qul transkripsiya tizimidan foydalanadi. Shuningdek, sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin turkiy davlatlar o‘z mustaqil yo‘lidan ketish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida hali ham ruscha transkripsiyadan keng foydalaniladi. O‘sha transkripsiyadagi nomuvofiqlik o‘zbek va boshqa turkiy tillarni qiyosiy o‘rganishga katta to‘siq bo‘lmoqda.

Birinchidan, XFA asosida o‘zbek va uyg‘ur tillarining fonologik xususiyatlarini taqqoslash ikki til o‘rtasidagi fonetik o‘xshashlik va farqlarni oson ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Kelajakda o‘zbek va uyg‘ur tillari uchun yagona bir xil yozuv zarur bo‘lsa, bu ikki til o‘rtasidagi fonologik farqlarni bartaraf etish uchun muqobil variantlarni taqdim etish zarur.

Uyg‘ur arab yozuvi(1984)	كەتتى قېچىپ قىلىپ ئالدامچىلىق ئايالىڭ
Uyg‘ur lotin yozuvi(2000)	Ayaling aldamchiliq qilip qéchip ketti.
XFA	/ɑjɒlɪŋ ɑldɑmt͡ʃilq qʰɯlɨp qʰet͡ʃip kɛtti/
O‘zbek arab-yozuvi(1925)	كېتتى قاچيب قيليب الداقچيلىق ايالنگ

O‘zbek lotin yozuvi(1995)	Ayoling aldoqchilik qilib qochib ketti.
XFA	/ajɒlɪŋ ɑldɑqt͡ʃilq qʰɯlɪp qʰɒt͡ʃɪp ketti/

1-jadval. O‘zbek va uyg‘ur tillarida so‘zlarning XFA asosidagi yozma ifodasi

Qolaversa, “O‘zbek tili”ning ilmiy masofasini butun Turkistondagi turkiy tillarni qamrab oladigan darajada kengaytiradigan yangicha qarash zarur. Saidvakasov Sharqiy Turkistonning turli uyg‘ur xalq shevalarida va eski uyg‘ur tilida hozirgi adabiy tilda mavjud bo‘lmagan so‘zlarning anchagina katta qismi borligini ma’lum qildi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ostona” (uyg‘. bosugha); “ayniqsa” (uyg‘. xususen, bolupmu); “baland” (uyg‘. égiz); o‘rtaq (uyg‘. yoldash); katta (uyg‘. yoghan); “sholg‘om” (uyg‘. chamgur) kabi leksik birliklar nafaqat Farg‘ona shevalarida, balki barcha uyg‘ur xalq shevalarida va eski uyg‘ur tilida ham mavjudligini yana bir bor ta’kidlaydi [Саидвакасов, 1976:272]. Chunki o‘zbek va uyg‘ur xalqlarining asrlar davomida Turkiston hududida yashab ijod qilganliklari, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirganliklari tufayli urf-odatda, dunyoqarashda, lisoniy-madaniy hayot (san’at, adabiyot, muzika va hokazo) jarayonida ko‘pgina mushtarak elementlar yuzaga keldi, adabiyot va uning turli janrlari, rasmiy hujjatlar, ilmiy-falsafiy va diniy asarlar tilida, uslubida juda ko‘p umumiy nuqtalar shakllandi. Shuning uchun o‘zbek tilshunosligida Turkiston hududi nuqtayi nazaridan uyg‘ur tili va uning shevalarini o‘zbek tilining bir tarkibidek tadqiq qilish ma’qul. Ular mohiyatan bir-biridan unchalik farq qilmaydigan tillardir, faqat Sharqiy va G‘arbiy Turkistondagi siyosiy tebranishlar hamda tojik, rus, xitoy kabi qo‘shni xalqlarning ta’siri tufayli turli yozuv qoidalarini qabul qilganlar. Masalan, XIX asrda Turkiston o‘lkasining yarmi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng o‘zbek musulmonlari guvohnoma olish maqsadida ruscha familiya tizimini qabul qilganlar. Sharqiy Turkistondagi musulmonlar esa Rossiya nazorati ostida emas. Sovet Ittifoqidagi uyg‘urlar bundan mustasno tarzda, asosan, o‘z familiya tizimini saqlab qolganlar. Ammo Yettisuv hududi bilan chegaradosh shimoliy Shinjondagi uyg‘urlar hamda Atush va koshg‘arlik savdogarlar imperiya ichida erkin savdo qilish uchun ruscha familiya olishini afzal ko‘rdilar. Turkiy tillarda ruscha erkak familiyasining oxirgi bo‘g‘inidagi jarangli /v/ tovushi jarangsizlashib, /f/ tarzida talaffuz qilinadi. Uyg‘ur adabiy tilida “-ov” “-ev” “-yev” kabi qo‘shimchalardagi /w/ tovushi [f] harfi bilan yoziladi [ShUAR, 2009:44]. Aksincha, o‘zbek adabiy tilida ba’zan [v] harfi /f/ aytilsa ham asliga ko‘ra [v] harfi yozish qoidasi berildi [Фузаилов, 1999:31].

Xulosa. Ikki xalq tili yarim asrdan ortiq vaqt davomida mustaqil ravishda rivojlanib, turli xil yozuvlarni qabul qilganiga qaramay, ularda morfologik, leksik farqlar juda kam kuzatiladi. O‘zbek adabiy tili uyg‘ur tilidek jonli til xususiyatlarini yozuvda to‘liq ifoda qilmaydi, xolos. Hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillarining etnolingvistik tug‘ilish jarayoni hamda ushbu tillar o‘rtasidagi eng yorqin farq – fonetik va grafik taraqqiyot masalalariga e’tibor qaratilgan izlanishlar o‘zbek tilshunosligidagi turkologik tadqiqotlarni jonlantirish yo‘lidagi kamtarona bir qadamdir. Ammo o‘sha jiddiy muammolarni hal qilishdan oldin asosiy masalalarga e’tibor berishimiz kerak, eng dolzarb vazifa esa – o‘zbek va uyg‘ur tilshunoslari ilm-fan sohasida, jumladan, fonetika, dialektologiya sohasida bir-birlarining mehnat samaralaridan unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Фармонов И. Ўш шевасида уйғур тили элементлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1959. – №4. – б. 70-75.

2. Фузаилов С., Юнусов Р. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси (талабалар ва мустақил ўрганувчилар учун қўлланма) – Тошкент: Университет, 1999.

3. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. (Ўзбек тилидан ўқув қўлланма) – Тошкент: Фан, 2009.

4. Умарбек Ф. Ўзбек ва уйғур тилларидаги ўтган замон феълларининг бадиий нутқда ишлатилиши (таржима асарлари мисолида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Х. С. Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти, 1998.

5. Матғозиев А. XIX ўзбек тилида уйғур тили элементлири. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1973. – №1. – б. 39-42.

6. Саидвакасов Г. Язык уйгуров Ферганской долины: Очерк фонетики, тексты и словарь. – Алма-Ата: Изд-во «Наука» Казахской ССР, 1976.

7. ShUAR milletler til-yéziq xizmiti komitéti. Hazirqi zaman Uyghur edibiy tilining imla-lughiti. – Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati. 2009.

8. Yakup A. Uyghur and Uzbek, the Southeastern Turkic languages. // Robbeets M., Savelyev A. (eds.) The Oxford Guide to the Transeurasian Languages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – b. 411-429.

9. Юдахин К.К. Узбекско-уйгурское языковые связи. // Изв. АН КазССР. – № 86. Серия уйгуро-дунганской культуры. Вып. I. – Алма-Ата, 1950. – с. 28-30; Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик. (ўша русча тезиснинг ўзбекча таржимаси). // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958. – №1. – б. 31-33.

O‘ZBEK TILIDA FRAZEMALARNING USLUBIY TAVSIFI MASALALARI

Suyun Karimov
Sh.Rashidov nomidagi SamDU professori

Umida Rashidova
Sh.Rashidov nomidagi SamDU dotsenti

D. Suyunova
Sh.Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.11108533

Annotatasiya. Ma’lumki, barcha tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilidagi ko‘pgina frazemalar uchun ekspressiv-emosional bo‘yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shu bilan birga, tilimizdagi iboralarning asosiy qismi uslubiy jihatdan neytral xususiyatga egadir. Chunki ibora yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, o‘sha predmet yoki hodisaga, shaxsga so‘zlovchining ekspressiv munosabati ham ifodalanadi. Masalan, tilimizda xursandlik holatini «og‘z(i) qulog‘(i)ga yetdi», “bosh(i) osmonda”, “do‘ppi(si) osmonda”, “og‘z(i) qulog‘(i)da”, “bosh(i) ko‘kda”, «tish(i)ning oqini ko‘rsatdi" kabi iboralar yordamida ifodalash mumkin. Bu iboralarning biri ijobiy baho semasini bildirsa, oxirgisi asosan salbiy ma’no nozikligini ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada yuqoridagi masalalr tavsifiga doir fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *frazema, ekspressiv munosabat, komponent tarkib, frazemalarning antroposentrik xususiyati*.

Annotatation. It is known that, as in all languages, expressive-emotional coloring is an integral feature for most phrasemes in Uzbek, while the main part of the phrases in our language is stylistically neutral in nature. Because with the help of a phrase, one or another object, not only is the phenomenon named, but also the expressive attitude of the speaker to that object or phenomenon, to the person. For example, the state of joy in our language can be expressed using phrases such as “og‘z(i) qulog‘(i)ga yetdi”, “bosh(i) osmonda”, “do‘ppi(si) osmonda”, “og‘z(i) qulog‘(i)da”, “bosh(i) ko‘kda”, “tish(i)ning oqini ko‘rsatdi"”. While one of these phrases expresses a positive assessment semas, the last mainly serves to express the subtlety of negative meaning. This article will describe the feedback on the description of the above issue.

Keywords: *phrasema, expressive attitude, component content, anthropocentric nature of phrasemes.*

Аннотация. Как известно, для большинства фразеологизмов узбекского языка, как и для всех языков, характерна экспрессивно-эмоциональная окраска, в то время как основная часть выражений в нашем языке носит стилистически нейтральный характер. Потому что с помощью словосочетания не только называется тот или иной предмет, явление, но и выражается выразительное отношение говорящего к этому предмету или явлению, человеку. Например, в нашем языке мы можем описать состояние радости как “оғз(и) қулоғ(и)га етди”, “бош(и) осмонда”, “дўппи(си) осмонда”, “оғз(и) қулоғ(и)да”, “бош(и) кўкда”, “тиш(и)нинг оқини кўрсатди”. В то время как одна из этих фраз выражает сему положительной оценки, последняя в основном служит для выражения тонкости отрицательного значения. В данной статье даются комментарии к описанию вышеуказанных вопросов.

Ключевые слова: *фразеологизм, экспрессивное отношение, компонентное содержание, антропоцентрический характер фразем.*

Frazemaning ma’no tuzilishi so‘znikiga nisbatan ancha murakkab, chunki iboradagi ma’no munosabatlari bilan uning strukturasi, komponent tarkibi o‘rtasida katta uzilish, nomuvofiqlik (asimmetriya) mavjud. Frazemalar so‘zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga, unga nisbatan turli xil modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi iboralarning asosiy qismi semantik jihatdan insonga, uning biror xatti-harakatini izohlashga qaratilgan: ular insonning fizik, psixologik, axloqiy-etik, intellektual xususiyatlarini baholaydi, insonning ijtimoiy holatini, kasbini, yoshini, hayotiy tajribasini, qarindoshlik aloqalarini xarakterlaydi. Bunday holat frazemalarning antroposentrik xususiyati, deb yuritiladi. Shuningdek, voqea va hodisalarni ifodalovchi ko‘pgina frazemalar ham baholash ottenkasiga ega. Shu sababli iboralarning semantik strukturasida ko‘pincha konnotativ-baho elementi ishtirok etadi. Bu element frazemaning predmet-logik (nominativ-mantiqiy) ma’nosiga emosional-ekspressiv bo‘yoqdorlik yuklaydi.

Lekin yuqoridagi fikrlardan, ayrim olimlar aytganidek; «ekspressivlik frazemalarning kategorial xususiyati», degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki tilimizdagi “ipidan-ignasigacha», «bir tan, bir jon bo‘lib», «ko‘z ochib yumguncha», «bir og‘iz», “bir ovozdan», «ko‘z ilg‘amas», “bir yoqadan bosh chiqarmoq” singari qator frazemalar borki, ular ekspressiv xususiyatga ega emas: “-

Hech bo‘lmasa dadasi uyga telefon qilib, bir og‘iz aytib qo‘ysalar bo‘lardiku!?” (B.Xudoyberganov. Qo‘ynimdagi qotil) kabilar.

Ammo bu masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ba’zi olimlar ekspressiv tonallik frazemalarning o‘tkinchi xususiyati, degan fikrni ham olg‘a surmoqdalarki, bunga ko‘shilib bo‘lmaydi.

To‘g‘ri, ba’zan frazemaning ekspressiv bo‘yoqdorligiga muayyan matn (kontekst) u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalai, «jon kiritmoq» iborasi “hayot bag‘ishlamoq, tetiklashtirmoq” ma’nolarini ifodalaydi [O‘TIL, 1, 287; O‘TFL, 111; O‘TIL-5, 2, 102]. Bu ibora o‘sha matn talabi bilan o‘z qo‘llanish doirasini, ekspressiv bo‘yoqdorligini o‘zgartirishi mumkin: “...grossmeystrlar shaxmat san’atini boyituvchi, ya’ni donalarga chinakam “jon» kirituvchilardir” [O‘zb. ovozi, 13.03.2004]. Ammo ko‘pincha frazemaning uslubiy tasnifi, bo‘yeqdorligi matndan tashqari holatdadir. Masalan, «tepa sochi tikka bo‘ldi», «sanamay sakkiz demoq», «ko‘zini shira bosdi», «ammamning buzog‘i» singari kator frazemalar matnsiz, yakka holda so‘zlashuv nutqiga xoslik, salbiy baxo ifodalash kabi xususiyatlarni o‘zida ifoda etadi. Baьzan matndan tashqarida frazemaning uslubiy tasnifini oson va aniq belgilash mumkin bo‘lmaydi, buni albatta, tan olmoq lozim. Masalan: «lagerdagi o‘ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig‘lagan, men ammamning buzog‘i xayron bo‘lgan edim. Urush allaqayoqda bo‘layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim” (O‘.Hoshimov. Notanish orol).

Keltirilgan matn parchasidagi «*ammamning buzog‘i*» iborasi landovur, lapashang kishi ma’nosini [O‘TIL, 1, 44; O‘TIL-5, 1, 79; O‘TFL, 21] emas, balki hali yosh, murg‘ak bola tasavvurini bo‘rttirish, xarakterlash uchun xizmat qilgan. Keyingi matnda esa bu frazema “*lapashang, landovur*” ma’nosini ifodalagan: “- Olishga olib o‘tiribmiz, – To‘ravoy davraboshiga tik qaradi, - kulishib ham o‘tiraylik. Bo‘lmasa ammamning buzog‘iga o‘xshab qolyapmiz...” (B.Xudoyberganov. Oy nurlari so‘nmaydi). Shu asardan olingan boshqa bir matnda esa “ammamning buzog‘i” frazemasi o‘z va ko‘chma ma’nolar to‘qnashuvi natijasida so‘z o‘yini uchun vosita bo‘lgan: “- Sen sirtqi-pirtqingni yig‘ishtir. Ikkalangni ham kunduzgisida o‘qitishga kuchimiz yetadi!.. – Unda men hamma ishni sizga tashlab ammamning buzog‘i bo‘lib yuraverarkanman-da? – Ammangni... buzog‘ini tinch qo‘y, bola! Sen meni o‘ylama...” (B.Xudoyberganov. O.n.s.) kabilar.

Frazemalarning uslubiy tasnifi doirasiga quyidagi dolzarb masalalar kiradi: uslubiy ma’no va uning komponentlari, frazemalarni uslubiy jihatdan farqlash mezonlari, o‘zbek frazeologik sistemasining uslubiy qatlamlarini belgilash, frazemalar ma’nodoshligi va ularning uslubiy tarmoqlanishi va boshkalar.

So‘zning ssmantik strukturasi o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda konnotatsiyaning ikki turi ingerent konnotatsiya va adgerent konnotatsiya o‘zaro farqlanadi. Ingerent konnotatsiya deyilganda so‘z yoki ibora kontekstdan tashqari olingan holatda ularga xos bo‘lgan konnotativ ma’no tushunilsa, adgerent konnotatsiyada so‘z yoki iboraning muayyan kontekstda ifodalaydigai nutqiy konnotativ ma’nolari e’tiborga olinadi . Shuning uchun biz ham frazemalarning uslubiy tavsifi. ularning semantik strukturasini o‘rganishda ibora til elementi sifatida o‘z paradigmatik qatorida olinganda unga xos bo‘lgan ingerent (lisoniy) konnotativ ma’noni va adgerent (nutqiy) konnotativ ma’noni farklashga harakat qilamiz, chunki bu ikki xil konnotatsiyani bir-biridan farqlamasdan turib o‘zbek tilidagi frazemalarning semantik strukturasini izchil va asosli o‘rganib bo‘lmaydi.

Frazemalarning uslubiy ma’nosi va uning komponentlari haqida. Ma’lumki, tildagi barcha birliklar nominativ-mantiqiy ma’no bilan birga uslubiy bo‘yoqdorlikka ham egadir. Ular matnda o‘ziga xos «ekspressiv atmosfera bilan o‘ralgan» [V.V.Vinogradov] bo‘ladi. Bu holat tilshunoslikda hozirga qadar turlicha nomlanib kelinmoqda. Til elementlariga ironiya, tantanavorlik, hazil-mutoyiba, ishonmaslik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni yuklovchi bunday hodisani nomlashda olimlar “uslubiy bo‘yoq”, «uslubiy tonallik», «konnotatsiya» kabi bir qancha atamalardan foydalanmokdalar, Birgina «konnotatsiya» atamasining o‘zi ham tilshunoslikda hozirgi kunga qadar har xil ta’riflanayotir. Jumladan, O.S.Axmanova, N.M.Shanskiy, M.Tikoskiy kabi taniqli olimlar konnotativ element asosiy ma’noga qo‘shimcha tarzda yuklanadi, shunga ko‘ra, u til birliklarining semantik strukturasiga kirmaydi, deb hisoblaydilar .

A.V.Kunin, S.G.Gavrin, A.M.Melerovich singari boshqa bir guruh frazeolog olimlar esa konnotatsiyani leksik yoki frazeologik ma’noning tarkibiy qismi sifatida izohlaydilar. E.S.Aznaurova esa konnotatsiyani ob’yektiv til hodisasi deb qarash tarafdori sifatida ko‘rinadi. Prof.E.Qilichevning talqinicha, konnotativ maьno so‘z semantikasidan denotativ maьno ajratilgandan keyin hosil bo‘ladigan ayirmaga tengdir .

Frazemalarning emosional-ekspressiv bo‘yoqdorligini aniqlashning eng muxim yo‘li ularni semantik-stilistik va kontekstual metodlar asosida sinchiklab o‘rganish, frazemalarning kontekstdagi ma’no knrralarini belgilashdir. Ammo O‘TILda, yangidan tuzilgan besh jildlik O‘TIL-5, prof. Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» [O‘TIFL, 1978] «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati» [O‘TFL, 1992], M .Sodiqovaning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘ati” [QO‘RFL, 1989], B.Mengliyev, M.Xudoyberdiyevaning

“O‘zbek tili iboralari o‘quv lug‘ati” [O‘TIO‘L, 2007] kabi leksikografik manbalarda frazemalarning ma’no doirasini aniqlash jarayonida unda ko‘shimcha uslubiy, baho elementlari borligi ko‘pincha hisobga olinmaydi. Masalan, «ko‘zi to‘rt bo‘ldi» frazemasini olib ko‘raylnk. Bu frazema O‘TILda «nihoyatda intizorlik bilan kutdi» ma’nosiga ega ekanligi qayd qilingan [O‘TIL, 1, 411]. Yangi O‘TILda “ko‘zi to‘rt (bo‘lmoq)” iborasi oddiygina “yo‘liga intizor” tarzida izohlangan [O‘TIL-5, 2, 446]. Sh.Rahmatullayev lug‘atida esa bu frazemaning “ko‘zlari to‘rt bo‘ldi”, «ko‘zi to‘rt bo‘lib», «ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib», «to‘rt ko‘z bo‘lib» singari variantlarga ega ekanligi qayd qilingan hamda «intizor bo‘lmoq» ma’nosini ifodalashi ta’kidlangan [O‘TFL, 142]. M.Sodiqova lug‘atida esa bu iboraning ruscha tarjimasi «vse glaza proglyadel; jdal s neterpeniyem; jdal ne dojdalsya; vьismatrival» tarzida berilgan [QO‘RFL, 150]. Ko‘rinadiki, yuqoridagi to‘rt leksikografik manbada bir frazemaning izohi farqli tomonlarga ega. Bu jihatdan O‘TILda qayd etilgan «nihoyatda» semasi o‘sha frazemaning qo‘shimcha uslubiy ma’nosi sanaladi. Har to‘rtala manbada ham o‘sha frazemaning uslubiy xoslanishi, ya’ni qaysi uslubda ko‘proq qo‘llanishi ham ta’kidlab ko‘rsatilishi lozim edi. Endi xuddi shu frazemaning ayrim turkiy tillardagi izohi bilai tanishaylik. “Qirg‘iz tilining frazeologik lug‘ati”da «ekki kozu tort boduu” (“ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq») iborasi keltirilib, unga «qandaydir bir narsani jon dili bilan tilamoq, zoriqib kutmoq» deb izoh berilgan [QTFL, 315]. O.Jamaldinov tomonidan tuzilgan “Uyg‘ur gilining izohli frazeologik lug‘ati» da “to‘rt ko‘z bilan (kutmoq)» iborasi keltirilib, unga iintizorlik bilan» tarzida izoh berilgan [Jamaldinov O., 1985 184]. “Tatar tilining frazeologik so‘zligi”da «ko‘z durt bo‘lu» iborasiga «kutilmagan hol-xabardan, ajablaiuvdan ko‘zlar to‘rt bo‘lib ochiluv», deb nzoh beryalgan [Isanbat N., 1985, 1, 460], turkman tilida esa «ko‘zi to‘rt bo‘lmoq» iborasi «turmush qurmoq, uylanmoq” ma’nosini ifodalaydi (TTFS, 121).

Ko‘rinadaki, leksikografik va frazeografik manbalarda frazemalar turlicha izohlanadi, ularda frazemalarning qo‘shimcha uslubiy ma’nosi (konnotativ xususiyati) ko‘pincha qayd etilmaydi. Aslini olganda, frazemalarning uslubiy tomoni ta’kidlanganda lug‘atlarda maxsus havolalar-belgilar qo‘llanilishi lozim. Lekin turkiy tillar, jumladai, o‘zbek tili frazemalari izoxida hozirgi kunga qadar bunga ko‘pincha amal qilinmaydi.

Masalan, O‘TILda frazemalar rombik bilan berilgan, ularning ayrimlari esa uslubiy (kitobiy, so‘zlashuv tili singari) havolalar bilan ta’minlangan. Jumladan, «ko‘zi qattiq» frazemasining «kishiga tikilib qaraydigan, uyalmaydigan, xayosiz» ma’nolari kayd qilingan, shu bilan birga, unga s.t. (so‘zlashuv tiliga xos) degan

xavola ham qo‘yilgan [O‘TIL, 1, 411; O‘TIL-5, 2, 446]. Sh.Rahmatullayev lug‘atida esa bu frazema qayd etilmagan. M.Sodiqova lug‘atida «ko‘zi qattiq» frazemasi “u nego nagliye (besstidniye) glaza» deb tarjima qilingan va neodobr. (neodobritelno) degan belgi qo‘yilgan [QO‘RFL, 150].

Ba’zan frazemalarning emosional-baho bo‘yog‘i lug‘atlarda ularni izohlash tarkibiga kiritiladi (bu holat frazemaning uzual, lisoniy xususiyati bilan ham bog‘liq). Masalan, A.Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» da «qazo qilmoq» iborasi oddiy so‘zlashuvda, asosan katta yoshdagi kishilarga nisbatan va vafot etish vaqtlarida, uni boshqalarga xabar qilishda ko‘llanishi ta’kidlangan [O‘TSIL, 242-243]. “Nobud bo‘lmoq» iborasi ham qo‘llanish jihatidan .oddiy so‘zlashuvga xos, lekin u asosan go‘daklarga nisbatan qo‘llanadi. Endi bu ikki frazemaning O‘TIL va O‘TIL-5dagi izohlari bilan tanishaylik: «Qazo qilmoq – o‘lmoq, vafot etmoq” [O‘TIL, P, 536; O‘TIL-5, 5, 210]; «Nobud bo‘lmoq» -»halok bo‘lmoq, o‘lmoq» [O‘TIL, 1, 505; O‘TIL-5, 3, 45]. Ko‘rinadiki, O‘TIL va O‘TIL-5da har ikkala ibora izohida ularning ko‘llanish xususiyati, uslubiy xoslanishi ochib berilmagan.

Shunisi muhimki, eng dastlabki nashr etilgan «O‘zbekcha-ruscha lug‘at»larda ham frazemalar talqinida ularnnng uslubiy aspekti lisoniy izoh tarkibiga kiritilgan edi [Ishayev M., 1880; Yudaxin K.K., 1927].

Umuman olganda, so‘zda bo‘lgani singari frazemalarda ham mantiqiy-nominativ ma’no bilan birga ekspressiv-stilistik bo‘yoqdorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. O‘zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari.-T:O’TA,2001 №3,46-49b.
2. Pinxasov U.Hozirgi o‘zbek adabiy tililеksikologiyasi. -T: Fan, 1968.
3. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko‘rki. -T: Fan, 1968.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.-T: Qomuslar yosh tahririyati, 1992.
5. Rashidova U. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. Monografiya. -Samarqand, 2023.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-tom. –T.: 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

7. Rashidova, U. Abjalova, M. (2023). Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 7(2), 273-278. https://doi.org/10.30563/turklad.1283778

8. Abjalova M., Rashidova U. Lingvistik ta’minotni yaratishda frazeologik birliklar masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar”. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 19-aprel, 2021-yil. – B. 22-26.

9. Abjalova M.A., Rashidova U.M. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Samarqand, 25.03.2023. – B. 50-54.

10. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOKULTUROLOGIYA MASALALARI TADQIQI ISTIQBOLLARI

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori(PhD).
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti.
zaripovrafiqjon1@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108557

Annotatsiya. Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib, til va madaniyat aloqadorligi turli rakurslardan tadqiq etila boshlanganligi, lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli sifatida, fanning yangi, maxsus sohasi bo’lib XX asrning 90-yillarida vujudga kelganligi, tadqiqotchilar qarashlari asosida til va madaniyatning bog’liqligi, jahonda shakllangan lingvokulturologiya yo'nalishlari: madaniy munosabatlar lingvokulturologiyasi, diaxronik lingvokulturologiya, qiyosiy lingvokulturologiya. chog'ishtirma lingvokulturologiya, lingvomadaniy leksikografiya xususiyatlari mazkur maqolada yoritilgan. Shuningdek, lingvokulturologiya masalalariga doir mavzular keltirilib, mavjud lingvomadaniy birliklar asosida tadqiqotishlari shakllantirilishi lozimligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, lingvokulturologiya, munosabatlar lingvokulturologiyasi, diaxronik lingvokulturologiya, qiyosiy lingvokulturologiya. chog'ishtirma lingvokulturologiya, lingvomadaniy leksikografiya.*

Abstract. In linguistics, by the end of the 20th century, the relationship between language and culture began to be studied from different perspectives, linguoculturalism as a product of the anthropocentric paradigm in linguistics, as a new, special field of science, was created in the 90s of the 20th century, the relationship between language and culture based on the views of researchers , directions of linguo-culturology formed in the world: linguo-culturology of cultural relations, diachronic linguo-culturology, comparative linguo-culturology. The features of hybrid linguo-cultural lexicography and linguistic lexicography are covered in this article. Also, topics related to linguistic and cultural issues are presented, and it is based on the need to form research on the basis of existing linguistic and cultural units.

Key words: *language, culture, linguoculturology, linguoculturology of relations, diachronic linguoculturology, comparative linguoculturology. hybrid linguoculturalology, linguocultural lexicography.*

Til va madaniyat bog'liqligi uzoq davrlarga borib taqalishi ko'plab soha mutaxasislari tomonidan e'tirof etilgan. Bunday xulosa turli davrlarda yaratilgan asarlar tadqiqi natijasida berilgan. Shunday bo'lsada, til va madaniyat aloqadorligini atroflicha yoritadigan yo'nalish XX asrga kelibgina shakllandi. Qayd etish joizki, O'rta osiyo va turk mamlakatlarida madaniy sivilizatsiya uzoq davrlarga borib taqaladi. Shunga bog'liq ravishta muloqot odobi ham rivojlanib kelgan. Bu shuni anglatadiki, madaniyat tilga, til madaniyatga bog'liq ravishda taraqqiy etadi. Ammo bu o'lkalarning turli mustamlakachi mamlakatlar qo'liga o'tishi muayyan davrda shakllangan sivilizatsiyani turli davrlarda birdek saqlash imkonini bermagan. Xususan, VII asrdan keyin islom dinining kirib kelishi natijasida O'rta osiyo xalqlarining madaniy hayotida juda katta o'sish ro'y berdi. Bu o'sha davrlarda Markaziy osiyoda yaratilgan nodir asarlarda namoyon bo'ladi. Ammo keyingi davrlarda ajdodlar merosining o'rganilmasligi madaniy sivilizatsiyaning muayyan darajada pasayishiga olib keldi. Bu esa tilda ham aks etmay qolmadi.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib, til va madaniyat aloqadorligi turli rakurslardan tadqiq etila boshlandi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli sifatida, fanning yangi, maxsus sohasi bo'lib XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilar bir nechta qarashlarni ilgari surishgan bo'lib, ularda til va madaniyatning bog'liqligi turli faktlar asosida dalillanadi. Ko'plab olimlar til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko'rinishida) va uning tarkibiy qismi ekanligini tavsiflaydilar.

Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya masalalari yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, lingvokulturologiya masalalari yuzasidan qator izlanishlar olib borgan tadqiqotchi

V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini yaratilgan materiallar asosida uch davrga ajratadi:

1) fanning shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki tadqiqotlar (V.Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya va E.Sepi'r);

2) lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllanishini aks ettirgan tadqiqotlar;

3) lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishiga asos bo'lgan tadqiqotlar [Maslova. 2001: 28].

Lingvokulturologiya til va madaniyat aloqadorligini tadqiq etar ekan, mazkur yo'nalishda V.A.Maslova, V.N.Teliya, G.G.Slishkin, N.Alefirenko kabi olimlarning izlanishlarini alohida qayd etish joiz.

Jahonda bugungi kunga qadar lingvokulturologiyaning qator yo'nalishlari shakllangan:

1. Madaniy munosabatlar lingvokulturologiyasi;
2. Diaxronik lingvokulturologiya;
3. Qiyosiy lingvokulturologiya.
4. Chog'ishtirma lingvokulturologiya;
5. Lingvomadaniy leksikografiya kabilar shular jumlasidan.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, yuqoridagi yo’nalishlarga mos masalalar tadqiq etilganligini ko'rish mumkin.

So’nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham lingvokulturologik tadqiqotlar Z.I.Soliyeva, R.S.Ibragimova [Ibragimova. 2012], D.Xudoyberganova [Xudoyberganova. 2013], N.Mahmudov [Mahmudov. 2012] kabi olim va olimalar tomonidan tadqiq etildi. Hozirda lingvokulturologiya masalalariga doir izlanishlar jahon tilshunosligida bo’lgani kabi, o’zbek tilshunosligida ham ko’paymoqda. Ammo ushbu tadqiqotlar yatarli darajada emas. Bizningcha o’zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalari yanada ko’proq tadqiq etilishi zarur. Shu ma’noda lingvokulturologiya masalalariga doir quyidagi mavzularda izlanishlar olib boorish maqsadga muvofiq:

1. Milliy ramzlar va ularda milliy ruh ifodasi.
2. Geografik, etnografik, ijtimoiy realiyalar tadqiqi.
3. Mamlakatning iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi nomlanishlarining lingvomadaniy tadqiqi.
4. Tarixiy jarayonlarning lingvomadaniy birliklarni shakllantirishdagi roli.
5. Millatning urf-odatlari, udum, taomil, an'analarining lingvomadaniy xususiyatlari.
6. Millatning afsonalari, miflari, aforizmlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, rivoyatlarining milliy madaniy, lingvokulturologik xususiyatlari.
7. Millat turli bayram va marosimlarining lingvomadaniy xususiyatlari.
8. Xalqning diniy aqidalari lingvomadaniy xususiyatlari.
9. Millatning pul birliklari, o'lchov birliklari, rang belgilarining ramziy ifodalari va ularga tegishli leksik ifodalar.
10. Millatga xoss sanoat, savdo, fan va texnika, san'at, ta'lim birliklarining lingvomadaniy tadqiqi.
11. Millatgagina xos milliy taomlar va ularning nomlari lingvomadaniy semasi.

12. Millat va millat me'moriy obidalarining madaniy svilizatsiyada tutgan o’rni va ular nomlanishlarining lingvokulturologik xususiyatlari.

13. Millat milliy xarakterini ifodalovchi birliklar semantikasi.

14. Muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari.

15. Muayyan uslubda yozilgan asarda lingvomadaniy konseptning ifodalanishi.

16. Muayyan millat lingvomadaniy birliklarining boshqa bir millat lingvomadaniy birliklari bilan qiyosiy tadqiqi.

17. Ijtimoiy fanlarda o'quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish usullarini o’qitish metodlari tadqiqi.

18. Madaniyatning davomiyligini diaxron nuqtayi nazardan tasvirlash.

19. Mamlakatdagi turli xalqlar va davrlarga oid matnlardagi umummadaniy terminlar tadqiqi.

20. Millat va xorijiy tillardagi frazeologizmlarning lingvokulturologik tahlili tadqiqi.

21. Millat tilidagi iboralarning lingvokulturologik tadqiqi.

22. Millat hayotidagi noverbal birliklarning lingvokulturologik tadqiqi.

23. Millat va xorijiy tillardagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik tahlili tadqiqi.

24. Millat tilidagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik tadqiqi.

25. Millat hayoti va turli matnlardagi efemizm va disfemizmlarning lingvokulturologik tadqiqi.

26. Millat hayoti va turli matnlardagi argo, jargo, varvarizm va vulgarizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari.

27. Millat hayotidagi o‘yinlar, topishmoqlar, latifalar, loflarning lingvokulturologik tadqiqi.

28. Millat tilidagi konseptlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqi.

29. Millat tilidagi toponimlar, atamalar, ismlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqi.

30. Millat hayotidagi kiyim nomlarining diaxron va sinxron lingvokulturologik tadqiqi.

Qayd etish joizki, keltirilgan mavzular yuzasidan dunyoning barcha mamlakatlarida ham izlanishlar olib borilmagan. Shu sabab ushbu mavzular boshqa mamlakatlar tilshunosligida ham lingvokulturologik masalalarni yoritishda yetarlicha samara beradi.

Yuqoridagi mavzularda tadqiqotlar olib borishda esa quyidagi lingvomadaniy birliklarning jamlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O‘zbek milliy-madaniy ramzlari.
2. O‘zbek millati hayotidagi geografik, etnografik, ijtimoiy realiyalar.
3. O‘zbekistonning o‘zigagina xos iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi(nomlari).
4. O‘zbek millatigagina xos bayramlar, marosimlar, urf-odatlar, udum, taomil, an'analar(nomlari).
5. O‘zbek millati afsonalari, miflari, aforizmlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, rivoyatlari.
6. O‘zbek diniy aqidalari va ularning shakllari.
7. O‘zbek millati pul birliklari va ularga tegishli leksik ifodalar.
8. O‘zbek millati o'lchov birliklari va ularga tegishli leksik ifodalar.
9. O‘zbek millatida ranglar bilan bog‘liq ramziy ifodalar.
10. O'zbek millatiga xoss sanoat, savdo, fan va texnika, san'at, ta'lim birliklari(manashu yo‘nalishdagi o‘zbek etnosi tarixida qo‘llangan va qo‘llanayotgan, madaniy xususiyatni o‘zida jamlagan leksik ifodalar).
11. O‘zbek millatigagina xos milliy taomlar va ularning nomlari.
12. O‘zbekistondagi me'moriy obidalar(nomlari).
13. O‘zbek milliy xarakterini ifodalovchi leksik birliklar.
14. O'zbek tilidagi frazeologizmlar.
15. O‘zbek madaniyatiga xos noverbal birlik(ifoda)lar.
16. O'zbek tilidagi milliy-madaniy xarakterga ega o‘xshatishlar.
17. O‘zbek tilidagi efemizm va disfemizmlar.
18. O‘zbek tilida shakllangan argo, jargo, varvarizm va vulgarizmlar.
19. O‘zbek millatiga xos o‘yinlar, topishmoqlar, latifalar, loflar.
20. O‘zbek qo‘shiqlari, laparlari, olqishlari, o‘lanlari.
21. O‘zbek tilidagi konsept birliklari.
22. O‘zbek tilidagi milliy-madaniy toponimlar, atamalar, ismlar.
23. O‘zbek millati kiyimlari(nomlari).
24. O‘zbek tilidagi hunarmandchilik, dehqonchilik, quruvchilik va chorvachilik birliklari.
25. O‘zbek millati irim-sirim birliklari.

Aytish mumkinki, dunyo tilshunosligida lingvokulturologiyaga doir ko’plab izlanishlar olib borilgan bo’lsada, til va madaniyat aloqadorligining turli rakurslari yetarlicha ochib berilmagan. Shuningdek, jahondagi ko’plab mamlakatlarda

yashovchi xalqlar milliy madaniy xususiyatlari, madaniyatining tilda aks etishi, til madaniyatning qismi ekani va boshqa jihatlar asoslab berilmagan. O’zbek tilshunosligida ham yuqorida keltirilgan mavzularda ko’zda tutilgan jihatlar o’z tadqiqini kutib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. выеш, учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. С. 208.

2. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида *АЁЛ* концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фанлар номзоди:.. дис.автореф. - Тошкент, 2012. Б. 58.

3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. Б. 135.

4. Махмудов Н. "Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб..."// Узбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.

FRAZEMALARDAGI KONTAMINATSIYA HODISASI

O‘razova Iqbol Abdikarimovna
orazovaiqbola@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108578

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazemalarda yuz beruvchi kontaminatsiya hodisasiga mutaxassislarning fikrlariga asoslangan holda nazariy jihatdan tavsif berildi. Kontaminatsiya hodisasining yuzaga kelishi XIV asarning ikkinchi yarmiga oid manbalar – “Muhabbatnoma”, “Gulistoni bit turkiy” asarlaridagi misollar asosida tahlil qilindi. Frazemaning tadrijiy taraqqiyotini aniqlash maqsadida zarur holatlarda boshqa manbalar bilan qiyoslandi. Tahlillar orqali kontaminatsiya hodisasi frazemalarning yashovchangligini va yangi frazemalarning vujudga kelishini ta’minlovchi muhim hodisa ekanligi ochib berildi.

Kalit so‘zlar: *frazema, kontaminatsiya, leksema, semema, frazeologik birlik, struktura, semantika, komponent, frazeologik ma’no.*

Abstract. In this article, a theoretical description of the phenomenon of contamination in phrasal verbs was given, based on the opinions of experts. The occurrence of the phenomenon of contamination was analyzed on the basis of examples from the second half of the 14th century – “Muhabbatnama”, “Gulistoni bit turki”. In order to determine the gradual development of phrasal verbs, it was compared with other sources when necessary. Through the analysis, it was revealed that the phenomenon of contamination is an important event that ensures the viability of phrasas and the emergence of new phrasas.

Key words: *phraseme, contamination, lexeme, sememe, phraseological unit, structure, semantics, component, phraseological meaning.*

Tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi til birliklaridan biri frazemalardir. Frazemalar tarkibida shu til egasining olamni bilish va qabul qilish haqidagi bilimlari, shu millatning qadriyatlari bilan bog‘liq axborotlar, shu tilning ko‘chimlarga asoslangan holda ma’no ifodalash qoliplari jamlangan bo‘ladi. Frazemalar mutloq turg‘un birlik emas, til zamon va insonlarga qay holatda moslashsa, frazemalar ham shu til tarkibida o‘z strukturasi va semantikasini o‘zgartirib boradi. Frazemalar hosil qilish, bu birliklarni nutqiy vaziyatga semantik

va struktur jihatdan xoslashning turli usullari bor: frazeologik variatsiya, frazemalarda komponent tushishi, frazemalarda komponent almashinuvi kabi. Har bir ijodkor bu usullardan foydalangan holda o‘z ijodida yangi frazeologik birliklarning tilga kirib kelishiga hissa qo‘shadi. Ana shunday usullardan biri kontaminatsiya hodisasidir. “Kontaminatsiya (lot. Contamination – “tutashtirish”, “aralashtirish”) – bu biror munosabat, tasavvurga ko‘ra, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki so‘z yoki iborani birlashtirish yo‘li bilan yangi so‘z yoki iboraning hosil bo‘lishidir” [Hojiyev, 1985:45]. Tilshunos B.Yo‘ldoshev fikricha, kontaminatsiya muallifning til ustida, frazeologik birlik ustida rejali xatti-harakati tufayli kamdan kam hollarda yuzaga keladi [Yo‘ldoshev, 1993:195]. Ammo ko‘pchilik tilshunoslar frazemalar kontaminatsiyasi okkazional frazeologik birlik hosil bo‘lishining bir usuli degan fikrni ilgari suradilar [Molotkov, 1966:105-110; Umarov, 1974:23-27; Mamatov, 1999:213]. A.Mamatov frazeologik kontaminatsiyaning quyidagi shakllari mavjudligini qayd etgan:

1) ma’no jihatdan yaqin ikki frazeologik birlikning birlashuvi;

2) tarkibi jihatidan teng, ma’nodosh bo‘lmagan ikki frazeologik birlik komponentlarining birlashuvi;

3) ma’no jihatidan yaqin, tuzilishi jihatidan esa turli xil frazeologik birliklarning birlashuvi [Mamatov, 1999:214].

Kontaminatsiyaga uchragan frazema ma’nosi aksar holda a’zo qismlar semantikasining qo‘shilishi va boyishi hisobiga shakllanadi, bunda yangi frazemaning ma’nosi kuchayadi, emotsional-ekspressivligi oshadi, lingvostilistik mahsuldorlikka erishiladi. XIV asr manbalaridagi ayrim kontaminantlar tarkibida esa ikki birlikning frazeosemantik birlashishi yangi frazeologik ma’noni yuzaga keltiradi.

Har bir frazema turkiy tilda leksik, semantik, struktur jihatdan turli jarayonlarni bosib o‘tadi va o‘z tarixiga ega bo‘ladi. Bu esa bir frazema tilning turli davrlarida farqli iste’molda bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, *ko‘z-quloq bo‘lmoq* frazemasi “Qutadg‘u bilig”da ikki xil variantda: *köz-qulaq tut= / köz-qulaq jiti tut=* shakllarida uchraydi: *Elig köz tuttï elda gamu; qulaq köz ǯitä tutsa* [Umarov, 1970: 64-66]. Har ikki ibora *ǯit=* (hushyor bo‘lmoq) fe’li bilan farqlanadi.

Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida bu ibora *köz-qulaq bol=* shaklida uchraydi. Masalan: *Čün baš bolduŋ tabujčï el adag ol, Anlar ‘ajbïnga dajïm köz qulaq bol.* “Gulistoni bit-turkiy”da esa ushbu ibora sinonimi sifatida *köz tikib, qulaq qoj=* tarzida uchraydi: *...xidmatka mulozim dayï farmanga köz tikib, qulaq qojub turur* [*GT*, 197]. Frazema tarkibi jihatidan teng, ma’nodosh bo‘lmagan ikki frazeologik

birlik komponentlarining birlashuvidan hosil bo‘lib, “hushyor bo‘lmoq” ma’nosini anglatgan. Ibora ikki frazemaning, ya’ni *köz tik=* va *qulaq qoj=* birliklarining kontaminatsiyaga uchrashidan hosil bo‘lgan. Eng qizig‘i har ikkala ibora mustaqil tarzda ham manbalarda mavjud. *Köz tik=* frazemasi Oltin O‘rda adabiyoti namoyondasi shoir Abdulmajid g‘azalida ega chiqish niyatida “umidvor bo‘lmoq”, “qaramoq” ma’nosini bildirsa *(Körgängä köz tikär, qolï jetmäskä el sunar [A, 122].)*, *qulaq qoj=* frazemasi “Gulistoni bit turkiy”da “eshitmoq” ma’nosida keladi: *Käräm qïlïb, qulaq tutsaŋ, ǯavab ajtajïn [GT, 185].* Sayfi Saroyi ushbu ikki frazemani qo‘shish natijasida yangi frazeologik ma’noni shakllantirgan. Bu o‘rinda ikki frazemaning kontaminatsiyasidan nafaqat yangi shakl, balki yangi semantik ma’no ham hosil bo‘lmoqda.

Yoki “Gulistoni bit-turkiy” asarida *jüz suvun tök=* frazemasi qo‘llangan bo‘lib, ushbu birlik matnda “obro‘sizlanmoq”, “hurmatini yo‘qotmoq” ma’nolarini ifodalagan. M: *Ujalmasmïsankïm, tekmä bir xasis qatïna barïb bučuk habba üčün jüz suvun tökübb, eliŋ uzatursan [GT, 247].* Ushbu frazema eng qadimgi frazeologik qatlamga daxldor bo‘lib, dastlabki shakli *jüz suvi* bo‘lgan [Umarov, 1967:54-55]. Ushbu frazema “Qutadg‘u bilig” asarida (XI asr) shu shaklda uchraydi: *Alardan biri kör tilär jüz suvï.* – Ulardan biri dovyurak, obro‘ tilaydi. Asarning, deyarli, barcha o‘rinlarida insonning obro‘si *jüz suvï* (yuz suvi) frazemasi orqali ifodalangan: *Otunqa qatïlma ej aslï arïγ, jüzüŋnüŋ suvïn eltgä sendin arïγ* – Tubanga aralashma, ey asli toza, sendan yuzingning suvini pok-pokiza olib ketadi, ya’ni tuban sening obro‘yingni to‘kadi [QB, 4185; 155a3] [Xolmuradova, 2019:135].[1]

Keyinchalik fe’l yordami bilan o‘zining yangi variantini – *jüz suvun tök=* shaklini olgan va XIV asr yodnomalarida ham shu shaklda ishlatilgan. Chunki XIV asrning I yarmi manbasi sanalmish “Xusrav va Shirin” tarjimasida ham *jüz suvï* frazemasi *jüz suvun tök=* shaklida uchraydi:

Rävamï töksä jüz suvïnï,
Meni jandïrsa, qandïrsa quvïnï [XSh, 465].

XV asrga kelib bu frazemaga variantdosh sifatida forsiy *abrosï bar=* birikmasi paydo bo‘lgan va Navoiy asarlarida ushbu birliklar parallel holatda uchraydi: *Ja ulus ičrä jüz suvïn sačïb, Ja alïban bäšïn bir jan qačïb [“Hayrat ul-abror”]. Jašïmdan abrojïm bardï, bildim, Ki ravnaqsïz qïlur altunï sijmab [“Badoe’ ul vasat”].* Tilning qisqalikka intilishi sabab davrlar o‘tib *jüz suvun tök=* frazemasi iste’moldan chiqib, ikkinchi frazema o‘rnashib qolgan. Ammo u ham tilda qotib qolmadi, leksik qayta shakllanishga duch kelib, *obro‘yi to‘kilmoq, obro‘si tushmoq*

[1] Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. – Тошкент, 2019. – Б .135.

shaklida hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanadi. Masalan: *Mahmud aka, u odam bilan teng kelib bo‘ladimi, obro‘ni to‘kadi, xolos* [“Rayaning archasi”]. Ammo frazemaning turkey varianti hozir ham turk, tatar, boshqird tillarida keng doirada qo‘llanadi. Forscha-tojikcha *obro‘* leksemasi ham ham aslida “yuz suvi” (ob – suv, ro‘ – yuz) degan ma’noni beradi. Lekin hozirgi til sohibi ongida asl ma’nodan mutlaqo uzoqlashib, “qadr-qimmat” ma’nosida qabul qilinadi.

“Gulistoni bit-turkiy” asarida *jüz suvun tök=* frazemasi bilan sinonimik munosabat hosil qiluvchi *jüz suvun jelgä ber=* frazemasi ham uchraydi, mos ravishda ushbu ibora ham “obro‘sizlanmoq” ma’nosini anglatadi. M: *Dayï anča masturlar faqïrlïq säbäbi bilän fäsad išlärgä tušub, jüz suvun jelgä berib tururlar [GT, 300]*. Yangi frazema tarkibi jihatidan teng, ma’nodosh bo‘lmagan ikki frazeologik birlik komponentlarining birlashuvidan hosil bo‘lgan. Ushbu frazema shakllanishini ikki kontaminant qismga ajratgan holda *jüz suvu/jelgä ber=* ko‘rinishida o‘rganish lozim. Birinchi qismning tub ildizi *jüz suvu* frazemasiga borib taqaladi va *“obro‘”* ma’nosini anglatadi. Ikkinchi qismi ham alohida frazema sifatida tilda mavjud bo‘lgan. “Muhabbatnoma”da *jelgä ber=* frazemasi mustaqil birlik sifatida ishlatilgan bo‘lib, *“voz kechmoq”* ma’nosini ifodalaydi: *Gär Aflatun seniŋ išqïŋda tüššä, Berür jelgä qamuq tadbir-u rajïn [M, 12]*. Navoiy asarlarida ham *jelgä ber=* frazemasi *yo‘qotmoq, sovurmoq, halok qilmoq [ANAIL, I, 523]* ma’nolarini anglatib, mustaqil frazeologik birlik sifatida uchraydi. Masalan: *Nečä uluγ ersä gunah xïrmanï, Jelgä berür ahu nadamat anï [“Hayrat ul-abror”, 189-7]. Söz barkïm ešitüvči tanïγa ǯan kijürür vä söz barkïm, ajtγuvčï bašïn jelgä berür* [“Mahbub ul-qulub”, 162].

Jelgä ber= frazemasi bugungi kunda *yelga sovurmoq* shaklida ham qo‘llanadi va *behuda sarflamoq, yo‘qotmoq* ma’nosini anglatadi: *Ish kuchini yelga berma, yerga ber; Jamg‘armani selga berma, elga ber* [Xalq maqoli].

Sayfi Saroyi asarida ikki frazemaning *(jüz suvu/jelgä ber)* kontaminatsiyaga uchrashi natijasida bir frazema shakllangan va yangi ma’no ham ikki frazeologik sememaning qo‘shilishidan *(obro‘/voz kechmoq)* paydo bo‘lgan, ya’ni o‘zi bilib turib obro‘siga putur yetkazuvci obrazga nisbatan qo‘llanadi.

Frazeologik kontaminatsiya hodisasi “Gulistoni bit-turkiy”da ko‘p uchraydi. *Öz ajaγi bilä gür ayzïna kel=, bašïnï, ǯanïnï ber=, baš ojnab, ǯan tärkin ur=* kabi frazemalar kontaminatsiyaga misol bo‘la oladi. Ushbu birliklar ma’no jihatdan yaqin ikki frazeologik birlikning birlashuvidan hosil bo‘lgan, ammo bu frazemalarda yangi ma’no hosil bo‘lmagan, aksincha kontaminatsiya hodisasi mavjud ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, frazemalar turg‘un birikma bo‘lishi bilan birga, leksik qayta shakllanish va struktur-semantik jihatdan o‘zgarish xususiyatiga ega. Bu o‘zgarish til taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, uzoq muddat talab qiladi. Tilda turg‘unlashgan frazema nutqda o‘zgarishga uchraydi, ya’ni nutqiy vaziyat va so‘zlovchi mahorati bilan frazemaga nutqda yangi ma’no yoki qo‘shimcha ma’no ottenkasi yuklanadi. Hosil qilingan birikma uzoq muddat nutqiy birlik sifatida qo‘llanishi natijasida til birligiga aylanadi. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi shakl jihatdan yangi frazemani hosil qiladi, lekin har doim yangi ma’no hosil qilavermaydi. Ba’zan esa kontaminatsiyaga uchragan frazemalar yangi sememaning shakllanishiga asos bo‘lishi ham mumkin. Bu ijodkorning mahorati va kontaminatsiyaga uchragan frazemaga yuklangan ma’noga bog‘liq bo‘ladi.

Shartli qisqartmalar:

A – Абулмажид ғазаллари. Фозилов Э. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Тошкент: Фан, 1973. –Б.121-122.

ANATIL − Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I−IV жилд. –Тошкент, 1983−1985. I− 656 б; II− 644 б; III− 624 б; IV− 636 б.

GT – “Гулистони бит-туркий”. Kitobda: Уч булбул гулшани. Тузувчи Н.Даврон. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. –Б.167-325; Фозилов Э. XIV аср Хоразм ёдномалари. –Тошкент: Фан, 1973. –Б. 9-128.

M – “Муҳаббатнома” Kitobda: Муборак мактублар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. –Б. 9-41.

QB – Каримов Қ. “Қутадғу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. –Тошкент: Фан,1972.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнин функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фан.док...дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 195.

2. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 1999. –Б. 213.

3. Молотков А. Некоторые особенности употребления фразеологизмов в современном русском языке. Нормы современного русского литературного слова употребления, – М., –Л., 1966. –С. 105-110;

4. Сайфи Саройи. Гулистони бит-туркий. Китобда: Уч булбул гулшани. Тузувчи Н.Даврон. – Тошкент, 1986.

5. Умаров Э. “Қутадғу билиг”даги бир ибора тарихи. “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, 1970. № 6. –Б. 64-66.

6. Умаров Э. Икки ибора тарихи. “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, 1967. № 6. –Б. 54-55.

7. Умаров Э. Фразеологическая контаминация в языка Алишер Навои // Сов.тюркология. – Ташкент, 1974. №5 –С.23-27;

8. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. – Тошкент, 2019. – Б .135.

9. Хоразмий. Муҳаббатнома. Китобда: Муборак мактублар. – Тошкент, 1987.

10. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –Б. 45.

UDK: 81`373.7
G‘ - 57

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA UMUMIY QARASHLAR VA ULARNING NAZARIY ASOSLARI

G‘oyibov Umarjon Alisher o‘g‘li
umar.goyibov@mail.ru
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108583

Annotatsiya. Frazeologik birlik bu – qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so‘z komponentlaridan iborat til birligidir, jumladan *Cordelia’s gift, pie in the sky, Jack of all trades but master of none*, kabilar. Frazeologik birliklar haqida olimlar o‘rtasida turlicha qarashlar va nazariyalar mavjudki, natijada tilshunoslikda unga turli- tuman aspektda berilgan ta’riflar yuzaga keldi. Frazeologik birliklar qatoriga turg‘un so‘z birikmalari, idiomalar va iboralardan tashqari maqol va matallar ham kiritilishini olimlar o‘z tadqiqot ishlarida asoslab berdi. Ushbu maqolada esa frazeologik birliklarga turli- tuman aspektda berilgan ta’riflar muhokama qilinib, ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so’zlar: *frazeologiya, frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, idioma, ibora, maqol va matallar*

Ma’lumki, frazeologik birliklar dunyoning barcha tillari uchun xos bo‘lgan lingvistik hodisadir. Ular ma’lum bir millatning o‘ziga xosligi, milliyligi, mentaliteti, madaniyati, tarixi, adabiyoti, dini kabi unsurlarni tilda aks ettiruvchi til birliklaridan biridir. Zero, V. N. Teliya tilning frazeologik qatlami – bu ko‘zgu ekanligini, unda lingvomadaniy jamiyat o‘zining milliy o‘ziga xosligini ko‘rishini to‘g‘ri ta’kidlab o‘tadi [Teliya, 1996; 9], T. S. Cherdanseva esa tilning ushbu qatlamini qimmatli lisoniy meros sifatida baholab, shu tilda so‘zlashuvchilar dunyoqarashi, milliy madaniyati, urf- odatlari, e’tiqodi, tasavvur hamda tarixi in’ikosidir, deya hisoblaydi [Cherdanseva, 1996; 58]. Darhaqiqat, frazeologik birliklar o‘zida turli madaniy kodlarni aks ettiradi, chunki, S. G. Ter- Minasova ta’biri bilan aytganda, “tilning frazeologik qatlami har bir millatga xos bo‘lib, o‘zida qadriyatlar, axloq- odob, boshqa millatga munosabat kabilarni nafaqat saqlaydi, balki bir madaniyat orqali birlashgan jamiyatning turmush tarzi, geografik o‘rni, tarixi va an’analarini ham namoyish qiladi. [Ter- Minasova, 2008; 80]”

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ta’riflanishicha, frazeologiya, bir tomondan, tilshunoslikning muayyan tilgagina xos bo‘lgan frazeologizmlarni o‘rganadigan

sohasi hisoblansa, ikkinchi tomondan, biror tildagi barcha frazeologizmlar majmui sifatida qaraladi [Madvaliyev tahr., 2020]. Tilshunoslikning ushbu sohasi o‘rganadigan obyekt ham asosan *frazeologizm*lar hisoblanib, ushbu termin bilan bir qatorda *frazema*, *frazeologik birlik* terminlari ham keng qo‘llaniladi, chunki *frazeologizm* termini “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da *frazeologik birlik* va *frazema* terminlari bilan sinonim terminlar sifatida qaralib, ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so’z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomini anglatadi [O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000-2005].

Z. N. Abdusamadov ushbu terminlarning absolyut sinonimlar ekanligini o‘z dissertatsiya ishida asoslab bergan. Unga ko‘ra, *frazeologizm* termini til unsurlari nomini yasovchi “–izm” suffiksi yordamida hosil qilingan bo‘lib, u *arxaizm*, *dialektizm*, *vulgarizm* va boshqa terminlar qatori til elementlaridan birining nomi sanaladi. *Frazeologik birlik* termini til sathlari birliklari tizimida leksik sathning tarkibiy qatlami hisoblanmish frazeologik sathga tegishli birliklarni anglatadi va *fonetik birlik, leksik birlik, morfologik birlik, sintaktik birlik, stilistik birlik* kabi terminlar namunasida yasalgan. *Frazema* termini esa frazeologik sath birligining maxsus nomi bo‘lib, “-ema” termin yasovchi element yordamida hosil qilingan *fonema, leksema, morfema, sintaksema, stilema* terminlari qatoridan o‘rin oladi [Abdusamadov, 2022; 14-15].

Bundan tashqari, ingliz tilidagi barcha frazeologik birliklar idioma, ya’ni iboralar deb hisoblanishini I. F. Belikova o‘z tadqiqotida keltirib o‘tgan [Belikova, 2013; 2]. Biroq, A. Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *idioma* bilan *ibora* terminlariga alohida izoh berilgan, bunda *idioma* – bu ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi, ixcham ibora, frazeologizmlarning bir turi deb sanalsa, *ibora* – bu biror tushuncha yoki fikr ifodalovchi, odatda, so‘zlarning turg‘un birikmasi , ya’ni so‘z birikmasi yoki gapga teng jumla deb ta’riflanadi [Madvaliyev tahr., 2020]. Bundan kelib chiqadiki, *idioma* va *ibora* frazeologik birlik turlarining biri deb sanalsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, frazeologiyada o‘rganiladigan frazeologik birlik turlarining, ya’ni terminlarining barchasi leksik- semantik faktor bilan bog‘liq bo‘lib, shu jihatdan farqlanadi.

Frazeologiya terminining kelib chiqishi shveysar- fransuz tilshunosi Sharl Balli bilan bog‘liq bo‘lib, olim dastlab “*phraseologie*” terminini qo‘llab, uni alohida fan sifatida emas, balki so‘z birlashmalarini o‘rganuvchi stilistikaning tarkibiy qismi

sifatida baholagan, frazeologik birliklarni esa tilda mustahkam o‘rnashgan barqaror birliklar deb ta’riflaydi. Keyinchalik tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida o‘tgan asrning qirqinchi yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan va u asosan rus olimi akademik V. V. Vinogradov bilan bog‘liq bo’lib, u chop etgan ilmiy asarlari dunyo tillaridagi turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganishda katta burilish nuqtasi bo‘ldi. Turg‘un so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi – frazeologiyada tadqiqot olib borish masalasi o‘tgan asrning yigirmanchi va qirqinchi yillarida o‘quv-metodik adabiyotlarda, jumladan Ye. D. Polivanov, S. Abakumov va L. A. Bulaxovskiy asarlarida ilgari surilgan. Keyinchalik, frazeologik birliklarning semantik va funksional tahliliga oid fundamental nazariya A. A. Potebnya, B. de Kurteney, A. A. Shaxmatov, N. M. Shanskiy va O. Yesperson kabi olimlar tomonidan ilgari surildi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning elliginchi yillaridan Sh. Rahmatullayev, B. Yo‘ldoshev va A. Mamatov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari bilan boshlangan.

Frazeologik birliklarning shakllanishi va yuzaga kelishi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi navbatda, ularni tarixiy- xronologik faktorlar bilan bog‘lash lozim, ya’ni frazeologik birliklarning qo‘llanilishi ma’lum vaqt ichida tilda tasdiqlanishi va haqiqatdan ham ushbu frazeologik birlik aniq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tishi lozim. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning shakllanish masalalari bilan shug‘ullangan A. E. Mamatov frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi va shakllanishini ikkita faktor bilan bog‘laydi. Unda birinchi faktor sifatida tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy- siyosiy hayot, siyosiy- ma’naviy qarashlarni ko‘rsatib o‘tsa, ikkinchi faktor sifatida lisoniy, ya’ni tilning paradigmatik qonun-qoidalari kabilarni ko‘rsatib o‘tadi [Mamatov, 1999; 53].

O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan Q. Hakimov frazeologik birliklarning yuzaga kelishini ma’no hodisasi bilan bog‘lab, shunday fikr yuritadi: “Frazeologik birliklar tarkibidagi bo‘laklar o‘rtasida shakllangan sintaktik munosabat o‘z qimmatini saqlagan, o‘zgarishlarga uchramagan holatda qoladi. Bunda sodda gap qolipli frazeologizmlar ma’no jihatdan til birligi holiga kelib qoladi” [Hakimov, 1994; 20].

Fransuz tili materiali asosida frazeologik birliklarni interpretatsiyaning sistem-sath nuqtayi- nazaridan tadqiq qilgan N. N. Suvonova esa so‘z birikmalarining frazeologik birliklarga aylantirilishi jarayonini o‘rgangan va bu hodisani semantik jihat bilan bog‘lab, shunday deb ta’kidlab o‘tadi: “Nofrazeologik birliklarni frazeologik birliklarga aylantirish jarayonida birikmalarning semantik moslashuv munosabatlari yoki o‘z subyektli va obyektli qurshovlari bilan bo‘ladigan semantik

moslashuvning buzilish munosabatlari namoyon bo‘ladi, ya’ni nofrazeologik birliklarning semantik jihatdan ko‘chishi natijasida frazeologik birliklarga aylanishi va obrazli turg‘un xarakterli so‘z birikmalarning hosil bo‘lishiga olib keladi” [Suvonova, 2002; 90]. I. V. Arnold dastlab turg‘un birikmalar o‘z komponentlarining takrorlanmas ma’nolari bilan frazeologik birlik qatlamiga kiritilganligini ta’kidlaydi [Arnold, 2019, 242-243].

Asosiy diqqat – e’tibori frazeologizmlar tabiatini va kategorial belgilarini o‘rganishga, shu bilan birga, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaga tilshunos olimlar o‘z tadqiqot ishlarida turlicha ta’rif berganlar. Jumladan, N. Shanskiy ta’rifiga ko‘ra, frazeologiya – bu tilning frazeologik sistemasini, zamonaviy va tarixiy rivojlanishini o‘rganadigan til bo‘limi [Shanskiy, 2010; 4]; D. Qayumova nazdida, frazeologiya termini zamonaviy tilshunoslikda ikki ma’noda ishlatilib, birinchisi, frazeologik birliklarni o‘rganuvchi fan ma’nosida, ikkinchisi, tildagi birliklarning tarkibiy qismi ma’nosida qaraladi [Qayumova, 2016; 84]; A. Kunin fikriga ko‘ra, frazeologiya – bu murakkablashtirilgan ma’noga ega bo‘lgan turg‘un so‘zlar birikmasi, ya’ni frazeologik birliklarni o‘rganadigan fan [Kunin, 2005; 5].

Tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik sifatida izohlanadigan frazeologik birlik terminini esa tilshunos olimlar turlicha aspektda talqin qilganlar. Zero, R. Gleyzer tadqiqot ishlarida ko‘rsatilishicha, kamida ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan, sintaktik va semantik turg‘unlikka ega barqaror birikmalar frazeologik birliklardir [Gleyzer, 1998; 125]; S. Kuzmin ta’kidlashicha, frazeologizmlar – bu bir- biridan ajrala oladigan so‘zlardan iborat bo‘lgan, ma’lum bir frazeologik qatorda aniq ma’noga ega bo‘lgan birikmalar [Kuzmin, 2004; 148]; A. Turaxujayeva talqiniga ko‘ra, bir butun holda ko‘chma ma’no ifodalaydigan kamida ikkita mustaqil so‘zdan tarkib topgan birikmalar frazeologizmlar sanaladi [Turaxujayeva, 2006; 50]; A. Kunin fikriga ko‘ra, frazeologizmlar – bu to‘liq yoki qisman qayta shakllangan ma’noga ega bo‘lgan alohida til birliklari [Kunin, 2005; 5].

Tilshunoslikda ingliz tilidagi frazeologizmlarning nazariy asoslari A. Kunin tomonidan, o‘zbek tilidagi frazeologizmlar Sh. Rahmatullayev va A. Shomaqsudovlar tomonidan batafsil yoritilgan. V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan nazariyani Sh. Rahmatullayev o‘zbek tili materiallariga tatbiq etib, shuning asosida o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni o‘rgangan.

S. Axmadaliyeva frazeologiyaning fan sifatida iboralarni, so‘z birikmalarini va hattoki maqol va matallarni ham o‘rganadigan fan ekanligini o‘z tadqiqot ishida asoslab bergan [Axmadaliyeva, 2016; 27]. Shundan kelib chiqadiki, frazeologiya faqat frazeologik birliklar bilan cheklanib qolmay, balki maqol va matallarning struktur va semantik tomonini ham o‘rganadi. Zero, X. D. Abdullayev ta’biri bilan aytganda “maqollar til va nutq hodisasi, folklor janri sifatida turli- tuman qarashlarni mujassamlashtirishi jihatidan ularning frazeologizmlar, matallar va hikmatli so‘zlar bilan yaqinlashtirilishini ko‘rish mumkin” [Abdullayev, 2005; 25]. B. S. Dveyk va M. B. Txalji kabi olimlar ham maqollar hayotning hamma ko‘rinishini o‘rab olgan o‘z ma’nosiga ega bo‘lgan turg‘un birikmalar ekanligini ta’kidlaydi [Dveyk & Txalji, 2016; 120]. Maqol hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand- nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora yoki gap bo‘lsa, matal tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli ibora yoki hikmatli so‘z hisoblanadi. A. Kunin maqol va matallarni kommunikativ frazeologik birliklar tarkibiga kiritgan.

Ingliz tilidagi maqol va matallar frazeologik birliklarning tarkibiy qismi hisoblansa, o‘zbek tilidagi maqol va matallar frazeologizmlarning emas, balki xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, maqollar bir vaqtning o‘zida ham tilshunoslarning ham folklorshunoslarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Zero, A. A. Nasirov o‘z tadqiqot ishida “maqollar ijtimoiy ongning ikki shakliga, ya’ni, birinchi tomondan lo‘nda va ibratomuz fikrning so‘zlar vositasidagi ifodasi sifatida tilshunoslikka, ikkinchi tomondan, badiiyligi, obrazliligi va tasviriyligi jihatidan folklorga mansub” ekanligini, “tilshunoslar maqollarni til birligi sifatida, paremiologlar ularni folklor mahsuli tarzida qabul” qilishini ta’kidlab o’tadi [Nasirov, 2016].

Ba’zi olimlar idioma bilan maqollar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlariga to‘xtalib o‘tadi, jumladan, L. Jafarova nazdida, idiomalar ham sintaktik jihatdan ham leksik jihatdan bir- biridan ajratilsa, maqollar frazeologik birlik va idioma sifatida alohida qismga bo‘lingan holda ham ajratilsa ham nutqda ishlatilsa bo‘ladi; idiomalar gapda nominativ vazifani bajarayotgan bir vaqtda, maqollar kommunikativ vazifani bajaradi [Jafarova, 2016; 1345]; H. Berdiyorov e’tirof etishicha, frazeologiya paremiologiyaning bir qismi sifatida faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rganishi ularning farqli jihati bo‘lsa, o‘rganish obyektining birligi, ya’ni barqaror birikmalarni o‘rganishi ularning umumiy tomonlari sanaladi [Berdiyorov, 1983]; A. V. Kunin esa maqollarning faqatgina ko‘chma ma’no anglatgan komponentga ega bo‘lganlarigina frazeologizm bo‘la olishini, maqollar

folklor tarkibida ham, frazeologiya tarkibida ham har xil nuqtayi nazardan o‘rganilishi kerakligini ta’kidlaydi [Kunin, 1972].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ma’lum bir so‘z guruhi ko‘chma ma’noni anglatgan taqdirdagina turg‘un so‘z birikmalarga aylanishi mumkin va ular o‘z navbatida tilshunoslikning alohida bo‘limi – frazeologiyada keng miqyosda o‘rganiladi. Maqol, matal, idioma hamda iboralar o‘ziga xos tuzilishi va mazmuniga egaligi jihatdan bir- biridan farq qilinishiga qaramasdan, ular umumiy xususiyat, ya’ni turg‘unligi, majoziyligi, barqarorligi hamda ma’no yaxlitligi jihatidan frazeologik birlik umumiy termini ostida birlashadi hamda frazeologiyaning tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, X. D. (2005). Xalq maqollarining “Qutadg‘u bilig” poetikasidagi o‘rni va badiiy estetik funksiyalari. *Filol. fan. nomzodi dis*. Toshkent;

2. Abdusamadov, Z. N. (2022). Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. *Filol. fan. fal. dok-ri dis*. Toshkent.

3. Rashidova, U. Abjalova, M. (2023). Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 7(2), 273-278. https://doi.org/10.30563/turklad.1283778

4. Abjalova M., Rashidova U. Lingvistik ta’minotni yaratishda frazeologik birliklar masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar”. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 19-aprel, 2021-yil. – B. 22-26.

5. Abjalova M.A., Rashidova U.M. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Samarqand, 25.03.2023. – B. 50-54.

6. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.

7. Berdiyorov, H., Rasulov, R. & Yo‘ldoshev, B. (1983). *O‘zbek frazeologiyasidan materiallar*. Samarqand;

8. Hakimov, Q. (1994). *O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi*. NDA. Toshkent;

9. Madvaliyev, A. (tahr.). (2020). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 1 – 5 tomlar*. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti;

10. Mamatov, A. E. (1999). O‘zbek tili frazemalarining shakllanish masalalari. *Filol. fan. dok-ri. dis. avtoref*. Toshkent;

11. Nasirov, A. A. (2016). Fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik- stilistik va milliy- madaniy xususiyatlari. *Filol. fan. dok-ri dis*. Toshkent;

12. Suvonova, N. N. (2002). Frazeologiya interpretatsiyaning sistem-sath obyekti sifatida (fransuz tili materiali asosida). *Filol. fan. nomzodi dis*. Samarqand;

13. Turaxujayeva, A. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili (leksikologiya, frazeologiya, lug‘atshunoslik)dan o‘quv- uslubiy qo‘llanma*. Qo‘qon;

14. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. (2000- 2005). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti;

15. Арнольд, И. В. (2019). *Семантика. Стилистика. Интертекстуальность*. СПб: Изд-во С. Петербург ун-та;

16. Беликова, И. Ф. (2013). Роль фразеологизмов в лексической системе языка. *Гуманитарный вестник, 7*. Москва. с. 1-6;

17. Каюмова, Д. Ф. & Хрипкова, Д. И. (2016). Лингвокультурная специфика фразеологических единиц с компонентом модальности. *Вестник КазГУКИ, 3*. Казань. с. 84-86;

18. Кузьмин, С. С. (2004). *Идиоматический перевод с русского языка на английский (Теория и практика)*. Москва: Флинта Наука;

19. Кунин, А. В. (2005). *Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. – 3е изд*. Москва: Дубна: Феникс+;

20. Кунин, А. В. (1972). *Фразеология современного английского языка*. Москва;

21. Телия, В.Н. (1996). *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Москва: Языки русской культуры;

22. Тер-Минасова, С. Г. (2008). *Язык и межкультурнаяя коммуникация*. М.:Слово.

23. Черданцева, Т. З. (1996). Идиоматика и культура. *Вопросы языкознания, 1*. с. 58;

24. Шанский, Н. М. (2010). *Фразеология современного русского языка*. Москва: Едиториал УРСС, Либроком;

25. Akhmadaliyeva, S. M. (2016). Role of phraseology in learning English. *Молодой учёный, 31*. Москва;

26. Dweik, B. S. & Thalji, M. B. (2016). Strategies for translating proverbs from English into Arabic. *Academic Research International*, *7*(2). Pakistan. p. 120-127;

27. Gläser, R. (1998). *The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis*/ Rosemarie Gläser // Phraseology: theory, analysis, and applications / ed. by A. P. Cowie. Clarendon Press: Oxford;

28. Jafarova, L. (2016). Challenges in translating phraseological units. *Academy publication. Theory and practice in language studies*, *6*(7). Germany. p. 1341-1346.

NASRIY MATNLARLARDA METAFORALARNING O‘RGANILISHIGA DOIR

Ruziyeva Nigora Sapar qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
nigora.ruziyeva.88@inbox.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108603

Annotatsiya. maqolada nasriy matnlarda qo‘llanilgan metaforalarning ifoda xususiyatlari va ma’no qirralari, leksik xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos ifoda imkoniyatlari va mahoratini ko‘rsatib turuvchi jihatlar ilmiy tekshirib ko‘rilgan. Badiiy matnlarda, ayniqsa, katta epik janrdagi asarlarda metaforadan unumli foydalanishning pragmatik imkoniyatlari lisoniy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *leksema, leksik ma’no, nasriy matn, o‘qitish usuli, badiiy matn, diskurs, metaforik ma’no, roman, epik asarlar, ma’no qirralari, uslubiy imkoniyat, pragmatik tahlil, lingvistik tadqiq, konnatativ ma’no, dialog, lug‘aviy ma’no*.

Annotation. the article examines the expressive features and meaning aspects of metaphors used in narrative texts, lexical features. Also, aspects that show the writer's unique expression capabilities and skills have been scientifically investigated. The pragmatic possibilities of effective use of metaphor in literary texts, especially in works of the great epic genre, are linguistically researched.

Key words: *lexeme, lexical meaning, prose text, teaching method, artistic text, discourse, metaphorical meaning, novel, epic works, aspects of meaning, methodological possibility, pragmatic analysis, linguistic research, connotative meaning, dialogue, lexical meaning*

Metaforalar olamning lisoniy manzarasini ifoda etuvchi eng muhim birlik sifatida keng o‘rganilgan va bu jarayon uzviy davom etmoqda. Ma’lumki, metaforalar, asosan, she’riy matnlar asosida o‘rganiladi. O‘zbek tilshunosligida ham olamni teranroq anglash vositasi bo‘lgan metaforalarni o‘rganishga doir bir qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan, U.S.Qobulova metaforani adabiy istiloh deb hisoblaydi hamda uni o‘xshatish (tashbeh)ning o‘xshatish vositalari tushib qolishi bilan farqlaydi [Qobulova U.S,2007:54]. Metaforani istioraga variant sifatida qo‘yish ilmiy-adabiy merosda mavjud bo‘lib kelgan qarashlar natijasi hioblanadi. Abdurauf Fitrat ham boshqa adabiyotshunoslar kabi metaforani she’riy san’at

sifatida ko‘rsatdi [Qobulova U.S,2007:69].Boshqa tillarda bo‘lgani kabi, metaforalarni tekshirish o‘zbek tilshunosligida ham XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib o‘zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi.

O‘zbek leksikologiyasiga doir ko‘p qirrali tadqiqotlarni olib borgan olim M.M.Mirtojiev metaforalarni nutq va til hodisalariga ajratadi. Nemis tilshunosligidagi metaforalarning: personifikatsiya, simvolizatsiya, allegoriya, sinesteziya deb nomlangan ko‘rinishlariga: “Nutq hodisasiga oid metaforalarning bu ko‘rinishlarini ba’zi o‘zgarishlar bilan til hodisasiga oid metaforalarga tatbiq etsa bo‘ladi. Bunda nutqning sof o‘z xususiyatidan kelib chiqqan simvolizatsiya va allegoriyalarni chiqarib tashlashga to‘g‘ri keladi [Mirtojiyev.M.M,2010:96]. Chunki simvolizatsiya nutq kechimidagi ellipsis bilan bog‘liq sodir bo‘luvchi metaforadir. Allegoriya esa nutq kechimidagi qochirim va intonatsiya bilan bog‘liq holatda yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib, til hodisasi bo‘lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko‘rinishlarga bo‘linadi” [Mirtojiyev.M.M,2010:97] deb munosabat bildiradi.

Olimlar metaforalarni turli uslublarda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi [Nasrullayeva G,2022:58]. Jumladan, nasriy matnlarda ham o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chish hodisasi o‘ziga xos tarzda ro‘y beradi va yangidan-yangi ma’nolar hosil qiladi. Buni o‘rganib ko‘rish uchun nasriy asarlar, jumladan, romanlar matnlari lisoniy tadqiqi etilishi zarur. O‘zbek adabiyotida ko‘plab ijodkorlarning asarlari lisoniy tadqiq qilingan, ammo taniqli o‘zbek yozuvchisi Isajon Sultonning adabiy asarlari matnlaridagi metaforalar lisoniy-pragmatik tahlil qilinmagan. Metafora o‘zbek tilining so‘z boyligi va majoziy vositalarini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Metaforaning semantik va stilistik xususiyatlarini ularning turli uslublarda ishlashi bilan aniqlash mumkin. Metaforani badiiy nutqning stilistik kategoriyasi sifatida o‘rganish majoziy-lingvistik vositalarni o‘rganishda kalit hisoblanadi. Isajon Sulton asarlari yuksak obrazga ega, o‘zigagina xos metaforalarning asosiy manbai. Ular hayot tafsilotlarini aks ettiradi va estetik ahamiyatga ega. Metaforalarning deyarli barcha semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek ularning toifalari yozuvchining badiiy matnlarida uchraydi. Uning asarlari metaforalardan foydalanishning yuqori chastotasida juda ko‘p. Yozuvchining badiiy uslubidagi metafora faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish ularning yana bir qancha stilistik xususiyatlarini kashf etishga imkon berdi. Uning badiiy asarlari tilida moddiy metafora deb ataladigan narsalar ham qo‘llaniladi. Yozuvchining metaforalardan foydalanish tabiati u muayyan voqealarni tasvirlashning qaysi

usulini tanlaganiga bog‘liq. Tasvir ob’yektining baholash xususiyatlari, tirik tavsif uchun asosiy majoziy va tasviriy vositalar metafora hisoblanadi.

Metafora Isajon Sultonning badiiy asarlari tilida eng keng tarqalgan hodisa. Bu so‘zning ma’nosini rivojlantirishga va ulardan foydalanish doirasini kengaytirishga yordam beradi. Metafora o‘zbek tilining so‘z boyligi va majoziy vositalarini boyitishda muhim rol o‘ynaydi.

Isajon Sulton o‘zbek o‘quvchisiga chuqur falsafiy fikrlar, qishloda ulg‘aygan bolalarning intilishlari, o‘quvchini o‘ylantiradigan, tafakkur qilishga undaydigan asar muallifi sifatida tanilgan. "Boqiy darbadar", "Bilga Xoqon", "Mas’uma", "Alisher Navoiy", "Genetik" va boshqa asarlardagi epik rivoyatlarda o‘tmish va hozirgi zamonning juftligi yozuvchining ijodiy uslubiga aylandi. Yozuvchi o‘z asarlari personajlarini shiddatli harakat va psixologik vaqt bosimida tasvirlash uchun metaforadan faol foydalanadi.

O‘zbek tilida so‘zlarni metaforik ishlatish usullari, shuningdek, badiiy asarlarning metaforik nomlanishi keng qo‘llaniladi. Ma’lumki, metaforalarning asosiy stilistik funksiyalari badiiy uslubda uchraydi. Biroq, o‘zbek tilida nasriy matnlar asosida metaforalar lingvistik hodisa sifatida to‘liq va atroflicha o‘rganilmagan.

Maqolada nasriy matnlarda, shu jumladan, Isajon Sulton asarlari matnlarida metaforaning rolini o‘rganish bilan bog‘liq. Mazkur ishda Isajon Sultonning badiiy matnlarida metaforadan foydalanish xususiyatlarini aniqlash; badiiy matndagi metaforalarning asosiy stilistik, kognitiv funksiyalari va leksik-semantik aloqalarini aniqlash asosiy vazifalardan biri. Ma’lumki, metafora tilning barcha uslublarida uchraydi, lekin u yoki bu uslubda turlicha qo‘llaniladi. Metaforaning semantik va stilistik xususiyatlarini ularning turli uslublarda ishlashi bilan aniqlash mumkin.

Metafora so‘zning ma’nosini o‘xshashlik bilan o‘tkazish orqali hosil bo‘ladi, bu ko‘chirishning sababi hali nom olmagan ob’yekt yoki hodisani nomlash zarurati. Metafora metaforizatsiya jarayonida yaratiladi va o‘ziga xos boshlanishga ega. Metaforizatsiya jarayonida so‘z yangi leksik muhitga kiradi va shu bilan norasmiy ma’noga ega bo‘ladi. Bunday holda, ma’lum bir so‘z bir yoki bir nechta g‘ayrioddiy leksik muhitga o‘tkaziladi. Ba’zi hollarda g‘ayrioddiy muhitdan olingan ibora bitta leksik sohaga o‘tib, ushbu muhit so‘zlari bilan birlashib, ular bilan barqaror munosabatlarga kirishadi. Bunday hodisalar harakatlar, holatlar va turli fazilatlarni bildiruvchi so‘zlarni uzatish jarayonida ham uchraydi.

So‘zlarda metaforik ma’nolarning paydo bo‘lishi ularning semantik tuzilishining rivojlanishiga olib keladi va foydalanish doirasining kengayishiga

yordam beradi, tez-tez ishlatish natijasida vaqti-vaqti bilan metafora leksikologik xarakterga ega bo‘ladi.

Estetik ahamiyatga ega leksik metafora va nutq metaforalari Isajon Sultonning badiiy asarlari tilida ham tez-tez uchraydi. Eng xarakterli jihati bu nutqiy metaforalar bo‘lib, bu roman janrining o‘zi bilan bog‘liq hodisadir.

Ba’zi adabiy janrlarda metafora samarali stilistik vositadir. Metaforalarning semantik va stilistik xususiyatlari janrga qarab ulardan foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida aniqlanadi. O‘zbek tilida metafora she’riyatda, lirik asarlarda eng keng tarqalgan. Ammo metafora nasriy adabiyotlarda ham juda keng qo‘llaniladi. Metaforalarning asosiy stilistik vazifasi nutqiy obrazni yaratishdir.

Badiiy nutqda metafora konkretlikni, ifodali tavsifni, nutq vositalarining jonliligini va tavtologiyani istisno qilishda katta rol o‘ynaydi.

Isajon Sultonning nariy asarlarida ifodalar metaforaga asoslangan bo‘lib, asarning fikri, g‘oyasi, xarakteri va tuyg‘usi unda saqlanadi. Majoziy so‘zlar va iboralar tufayli bularning barchasi san’at shaklini oladi, chunki metafora – bu asarda tasvirlangan his-tuyg‘ular, fikrlar va belgilarning badiiy dizaynida faol ishtirok etadigan og‘zaki tasvirdir. Masalan, “Alisher Navoiy” romanida fikr va tuyg‘u narsalarga, hayotning turli hodisalariga va insonga hissiy ta’sir ko‘rsatadigan tabiat xususiyatlariga asoslangan tafsilotlar bor. Ushbu ob’ektlar va hodisalarni badiiy tasvirlash aynan shu xususiyatlarga asoslanadi. Ma’lumki, eng ifodali og‘zaki tasvirlar bu tomonlar metafora yordamida yetkazilganda paydo bo‘ladi. Metaforizatsiya his-tuyg‘ular va fikrlarning badiiy dizaynidagi muhim hodisalardan biridir, chunki yangi fikrlar va his-tuyg‘ularning metaforik uzatilishi asarning badiiy darajasini oshiradi.

Atrofdagi dunyoning aksariyat hodisalarining xarakterli tomonlari, ko‘plab tushunchalar she’riy ijod uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan inson ruhiga xos bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiyotga berilmaydi. Muayyan obraz yaratish uchun yozuvchilar ko‘pincha metaforalarga murojaat qilishadi.

Isajon Sulton o‘z tajribasiga asoslanib, majoziy ma’noda ob’yektlar, tushunchalar va hodisalarni o‘ziga xos tarzda nomlaydi. Yozuvchi nasriy tilning majoziy va ifodali vositasi sifatida metafora tufayli narsalarga, tushunchalarga yangi nomlar beradi, tafsilotlarni majoziy tarzda tasvirlaydi, buning natijasida real voqelik o‘zining yangi hayotini, yangi haqiqatini va yangi ifodasini topadi.

Metafora – bu tasvir va hissiyotlarning o‘ziga xos mahsuli, chunki kuchli tuyg‘u metafora hosil qiladi. U yozuvchi ijodining ajralmas qismi sifatida harakat qiladigan, ma’lum bir tuyg‘u tafsilotlarini tashkil etuvchi individual tuyg‘ular,

ob’ektlar va tushunchalarning obrazli nomlari namoyandasi. Isajon Sulton asarlari yuksak obrazga ega, u o‘ziga xos metaforalarning asosiy manbai. Ular hayot tafsilotlarini aks ettiradi va estetik ahamiyatga ega.

Yozuvchilarning o‘ziga xos so‘z yasashi individual metaforalarning an’anaviy metafora toifasiga o‘tishi bilan izohlanadi. Ammo metaforik iboralar, jumlalar va muallif matnlari kontekstida uchraydigan ko‘plab metaforalar individualligi tufayli an’anaviy metafora toifasiga kirmaydi. Bunday metaforalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ijodiy jarayonda yozuvchi ongining aksi sifatida paydo bo‘ladigan nasriy metaforalar badiiy asarlar matnlarida qoladi. Ular og‘zaki nutqda kam qo‘llaniladi. Isajon Sulton o‘z qahramonlarining ichki dunyosining nozik biluvchisi bo‘lib, metafora so‘zlari va iboralaridan mohirona foydalanadi. Uning romanlari tasvirida so‘zni to‘g‘ri metaforik ishlatish ustuvorlik qiladi. Misol uchun:

*Qoq tush mahali baqaterak ostidan zaif bir “puf” ye**lib o‘tadi**. U – shu makonning mitti epkini. Terak barglarini bir **chayqatadi**-yu, ariq **bo‘yi**ga **o‘zini tashlaydi**. Yana birini suv shabadasi deydilar. Qayrag‘ochdan uzoqqa **ketolmay**, kambar barglar orasida aylanib esadiganiyam bor. Quvvati kuchliroq bo‘lgani sababli sal beriroqqa kelib, issiqda qimir etmay turgan jo‘xorilarning uzun, sariq hoshiyali yaproqlarini **chayqatib o‘ynaydi**. Ba’zilari yo‘llarda **sho‘xlik qilishadi**. Qumoq yo‘ldan ketavering-chi. Yo‘l o‘rtasida yo chetida mitti girdob yasab, tuproq to‘zg‘itib pirillayotgan quyunchani ko‘rib qolasiz. Birozdan keyin o‘z-o‘zidan tinib, mayda xas-cho‘plarni **sochib yuboradi**. Yana bir turli shabada tongu shomda bedazorlar tomondan esadi. Saharlab o‘sha yoqqa ketib, oqshom **iziga qaytsa** kerak. Bedazorga yetgunicha tomorqalar uzra yeladi. Qo‘shnining ko‘zi ko‘r laychasi uni sezib, huradi. – Itga o‘xshamay o‘l, muncha hurasan? – deydi ona unga. Olislardan keladigan qudratli shamol esa tevarakni **kulrangga o‘zgartirib yuboradi**. Balki chang ko‘targani uchun samo kul tusiga kirar? Avvaliga ko‘klarda yeladi, keyin pastga tushganida benihoya ko‘p tovushlar hosil qiladi. Devor boshidagi guvalaklar bo‘g‘iq guvillaydi. Bo‘g‘otlardan ham shunaqa sas chiqadi. Darvoza yoriqlaridan kirib **hushtak chaladi**. Hovlida valishga ilib qo‘yilgan tolsavat cho‘plari shirillaydi.* [I.Sulton Genetik 5].

Muallif o‘z asarlarida tabiat hodisalari va uning xususiyatlarini tasvirlashda metaforalardan foydalanadi. Uning badiiy matnlarida antro-morfik metafora mavjud. N.D. Arutyunova "ichki, psixologik holatni tavsiflash uchun odam tashqi dunyodan tasvirlarni oladi" deb yozadi [Arutyunova.N.D,1990:45]

Yozuvchi ko‘pincha estetik ahamiyatga ega individual, an’anaviy va leksik metaforalardan foydalanadi. Antropomorfik metaforalar: “*Terak barglarini bir **chayqatadi**-yu, ariq **bo‘yi**ga **o‘zini tashlaydi***” bunda chayqatmoq va o‘zini tashlamoq insonga xos bo‘lib, shamolga nisbatan qo‘llanmoqda.

Yozuvchi ijodida an’anaviy metaforalardan foydalanish tez-tez uchrab turadi. U doimo majoziy tavsiflarga murojaat qiladi, bu yerda metafora ham ishtirok yetadi. An’anaviy metaforalar yozuvchining ijodiy qobiliyatlarini aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi o‘z asarlarida har xil estetik metaforalardan foydalanadi. I.Sultonning metaforasi eng sevimli ifoda vositasidir. U ko‘pincha majoziy ma’noga ega metaforik frazeologik va paremiologik birliklarga murojaat qiladi, bu uning nasrida ifoda yaratishga hissa qo‘shadi.

Yer *yuzining **igna uchicha kelmaydigan** nuqtasida hayot mana shunday davom etadi. Har sahar ancha-muncha bola papkasini yelkasiga osib maktabga, odamlar esa dalalarga yo‘l olishadi. U bolalar nima uchun o‘qiyotganini o‘zlari ham bilishmaydi. “O‘qisang **odam bo‘lasan**” deyishadi kattalar. **Odam bo‘lish** qanaqa, o‘zi? Hech kim bu bolalarning “odam bo‘lishi”ga ishonmaydi. Ha, maktabni bitirishsa, armiyaga ketishadi, armiyadan kelib uylanishadi. Keyin amakilaru tog‘alar kabi mol-hol boqib yo dalada ishlab yuraverishadi. Hayot shunday davom etadi…"* [2, p. 121].

Maqolaning nazariy ahamiyati Isajon Sultonning nasriy asarlari, xususan, romanlaridan qo‘llanilgan lingvistik vositalar va ularning lisoniy tizimidagi metafora o‘rnini aniqlash muhim masaladir. Muallif dialogik matnlarda ham metaforadan samarali foydalanadi:

*Odamlar hamma narsani o‘zgartirib, jon ato etib olishganiga yana hayron qolasiz. Masalan, nonning **joni** bormidiki, **gapirsa**?*

– Nonni teskari qo‘yma, gunoh bo‘ladi.

– Nega?

– Rizqing qiyiladi.

– Kuchukni urma!

– Nega?

*– Erta bir kun Egamga sendan **shikoyat qiladi**. Uni kuchli, meni zaif qilib yaratuvding, urib jonimni og‘ritdi, deydi.*

Isajon Sulton so‘zning haqiqiy rassomi sifatida ko‘p ishlagan, o‘zining nasriy usullarini, insonni realistik tasvirlash usullarini o‘zlashtirgan. Badiiy va ekspressiv

vositalardan, shu jumladan, metaforalardan foydalanish qobiliyati tufayli u o‘z qahramonlarining psixologiyasini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

V.N. Telia ta’kidlaganidek, “metaforaning ma’nosi dastlab bu haqda bayonotlarda dunyoning lingvistik manzarasini yaratish vositasi sifatida xizmat qilish qobiliyatida, so‘ngra ona tilida so‘zlashuvchilarning tezaurusida, bu har doim nafaqat ushbu og‘zaki so‘zlar ombori sifatida xizmat qiladi o‘zlarini anglatadi, balki ularning assotsiativ kuchlari hamdir” [Telia.V.N, 1988:56]

Ma’lumki, ko‘plab frazeologik birliklarning ma’nolari badiiy nutqda konkretlashtiriladi, chunki ular ma’lum bir shaxsni, xarakterni tavsiflash yoki ularning xatti-harakatlarining xususiyatlarini yetkazish uchun ishlatiladi.

Shunday qilib, Isajon Sultonning badiiy asarlari tahlili metaforalarning deyarli barcha semantik va stilistik hamda kognitiv xususiyatlari, shuningdek, ularning toifalari yozuvchining badiiy matnlarida uchraydi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Uning asarlari metaforalardan foydalanishning yuqori chastotasida ekanini anglatadi.

Yozuvchining badiiy uslubidagi metafora faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini lingvistik tahlil qilish ularning yana bir qancha lisoniy xususiyatlarini kashf etishga imkon berdi. Uning badiiy asarlari tilida antropomorfik metafora nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi. Muallif ko‘pincha perifraziya, antiteziya, sinonimik qator, metafora nomini o‘zgartirish, leksik va semantik aloqani yaratish kabi texnikalarga murojaat qiladi. Yozuvchining metaforalardan foydalanish tabiati u muayyan voqealar uchun qaysi usulni tanlaganiga bog‘liq. Metafora tasvir ob’ektining xususiyatlarini, tirik tavsifni baholash uchun asosiy majoziy vosita sifatida ishlatiladi. Isajon Sulton as arlarining tili lingvistik vositalar tizimidagi o‘rni yozuvchining iste’dodi, kuzatuvchanligi, so‘zlarning ko‘chma ma’nolaridan foydalanish mahorati va so‘z semantikasini tushunish darajasiga bog‘liq.

Metaforani o‘rganish tarixi ko‘p asrlarga borib taqaladi va siz bilganingizdek, Aristoteldan boshlanadi. Metaforaning mohiyatiga kirib borish va uning nazariyasini yaratishga urinishlar faylasuflar, psixologlar, adabiyotshunoslar va tilshunoslar tomonidan qilingan. Shuni ta’kidlash kerakki, filologiyada tadqiqotchilar diqqati birinchi navbatda quyidagilarga qaratilgan. Matnda metaforik birikmalar va XX asrning birinchi o‘n yilliklari yozuvchilarining asarlarida metaforalardan foydalanish tahlili ayniqsa tez-tez o‘rganiladi, chunki tadqiqotchilarning kuzatuvlariga ko‘ra, “metaforik uslub” bu davr adabiyotining muhim xususiyatlaridan biridir.

I.Sulton metaforalari mavzusiga murojaat qilsak, uning metaforizatsiyasi birinchi navbatda tabiat hodisalari bilan bog‘liqligini ta’kidlaymiz va bu adabiyotda keng tarqalgan texnikadir, chunki tabiat hodisalariga hissiy jalb qilish hikoyani she’rlashtirishga, o‘quvchiga ta’sir o‘tkazishga imkon beradi. Ko‘pincha metaforizatsiyaga duchor bo‘lgan narsalar va hodisalar uchun I. Sulton aniq, moddiy va mavhumlarning murakkab to‘qnashuvi bilan sinonimik qatorlarni quradi.

Momaqaldiroq qanday hosil bo‘lishini ko‘rganmisiz? Yomg‘irga ***homila*** *qora bulutlar qat-qat, uyur-uyur to‘planib-pasayib kelgan mahal, havoda begona shamollar o‘qtin-o‘qtin zabt urib, dov-daraxtni shovullatgan kez, bir-ikki yomg‘ir tomchisi har yer-har yerda zaif shitir hosil qilgan pallada ko‘kni yorib chaqnagan chaqin shiddatidan so‘ngra yangraydigan gumburlagan sado hayrat, shavqu zavq va hayiqish hosil qiladi. Chaqin* ***samo qamchisi*** *bo‘lsa, momaqaldiroq – o‘sha qamchi bulutlarga urilganining ovozi. Men momaqaldiroq oldidan bir lahza tek qoladigan tabiat aro yoyloqlarning nimanidir kutayotganday* ***tahlikada titragan*** *o‘t-o‘lanlarini, jonzotlarini, dov-daraxtini ko‘p kuzatganman. Momaqaldiroq havoni larzaga keltirganida, ortidan keladigan yomg‘irni sezishini, qad rostlashini, intiqligini ko‘rganman. Yana, o‘tlaru maysalar, bori nabotot chaqmoqdan* ***qo‘rqishi-chi****? Qurtu qush oldindan* ***sezib, berkinib olishi-chi****? Aqlu tafakkuri yo‘q u jonzotlarga bunday sezimlarni kim bergan? Bilganlarim ongimda momaqaldiroq sodir qilganga o‘xshardi. Ammo hali chaqin ko‘rinmadi-ku? Bilim bulutlari yerga yanada yaqinlashganida, ko‘kni tikkasiga yorib yuboradigan u samoviy qilich qudratini hozircha shu guldurosgina ifodalamoqda edi, xolos. Bir mahallar, sarg‘aygan makkajo‘xorilari issiqda* ***hansiragan****, odamlariyu tabiati bir-biriga o‘xshash makonlardan chiqib kelgan qora ko‘z bolakay, ya’ni men o‘zimda paydo bo‘lgan ilm chanqoqligini qanday qondirishni bilmasdim. Yigirma uch yoshimga qadar o‘zim bilgan dov-daraxt va o‘simliklarni ildizigacha o‘rganib chiqib, biologiya ilmiga xos neki bor, hammasini singdirib olgach, shuurim yana va yana bilim istardi. (I.Sulton. Genetik)*

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar metafora asosida ma’no ko‘chishining o‘ziga xos namunalari hisoblanadi. *(Bir mahallar, sarg‘aygan makkajo‘xorilari issiqda* ***hansiragan...)*** bunda hansiramoq fe’li o‘simlikka nisbatan qo‘llanilganligini kuzatish mumkin. Yoki *o‘tlaru maysalar, bori nabotot chaqmoqdan “****qo‘rqishi”*** bu insonga va boshqa jonli mavjudodlarga xos bo‘lgan hissiyotdir.

Adabiyotda majoziy parallelliklar mato, kiyimni bildiruvchi mos yozuvlar, so‘zlar atrofida to‘plangan bo‘lsa, Isajon Sulton mavzusi ko‘proq ilm, tafakkur mahsuli sifatida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, ya’ni ilm-ma’rifat, fikrlashga,

tafakkur qilishga undash kuchli. Masalan, yozuvchi matnlaridagi bir qator nomlar xilma-xil bo‘lib, ular vaqt va tarixni metaforizatsiya qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Bunday metafora, birinchi navbatda, harakat nomlarini metaforizatsiya qilishda eng aniq namoyon bo‘ladigan harakat, dinamizm va o‘zgaruvchanlik ma’nosini aktuallashtirishning an’anaviy vositasi sifatida xizmat qiladi. Bir qator hollarda tarixiy va vaqtinchalik metafora abadiylik, uzoqlik va voqealar va taassurotlarning o‘tkinchi tabiati ma’nosini aktuallashtiradi. U idishlar, omborlar, quyma moddalar va materiallar, shuningdek mavhum tushunchalar kabi belgilar orqali ifodalanadi. XXI asr adabiyotida tasvirning an’anaviy mavzulari bilan bir qatorda jamoat hayotidagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi yangi metaforalar paydo bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar, shuningdek, I.Sulton ijodida ham o‘sha davrning boshqa yozuvchilari singari inson hayotini aks ettirgan metaforlashgan ob’yektlar doirasining kengayishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs. Moskva,1990. –S. 45.
2. Mirtojiyev. M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. –T.: Mumtoz so’z, 2010. –B.96.
3. Nasrullaeva G. Antropomorfik metaforaning sotsiolingvistik xususiyatlari va leksikografik tadqiqi masalalari. Fil. fan.d-ri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Farg‘ona. 2022. 58 b.
4. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va differensial semalar munosabati (o‘zbek xalq topishmoqlari misolida). Fil.fan.nom. ilmiy dar. olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T., 2007.
5. Teliya V.N. Metaforizatsiya i yee rol v sozdanii yazыkovoy kartinы mira. Rol chelovecheskogo faktora v yazыke: Yazыk i kartina mira. Moskva, 1988. –S. 56.

TILSHUNOSLIKDA ANTONIMIYA MASALASI

Rafiqjonova Munisaxon
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108642

Annotatsiya. Bu maqolada qisqacha antonimiyaning rivojlanish tarixi, oppozitsiya asosida vujudga kelgan va fanga yangi olib kirilgan ayrim antonimik hodisalar, antonimlarning pragmatik xususiyatlari, jahon tilshunosligi va milliy tilshunosligimizdagi tasniflarning o‘ziga xosliklari va ayni masalada leksikografiya muammolari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *antonimiya, tasniflar, komplimentarlik, konverslik, oppozitsiya, enantiosemiya.*

Annotation. In this article, the short history of the development of antonymy, some antonymic phenomena that arose on the basis of opposition and were newly introduced to the science, pragmatic of antonyms, peculiarities of classifications in world linguistics and our national linguistics, and the problems of lexicography are discussed.

Key words: *antonymy, classifications, complementarity, conversion, opposition, enantiosemy.*

Oppozitsiya har qanday ilmda, tushunchalarni tahlil qilishda asos vazifasini bajaradi. Bir hodisaning mohiyatini chuqurroq anglashimiz uchun uning ziddi doim bizga yordam beradi. Shu jumladan, qarama- qarshilik tilning barcha sathlarida amal qiladi, til sistemasida o‘ta muhim o‘rin egallaydi. Bundan tashqari, ular nutqning har qanday tipida: badiiy, ilmiy, rasmiy-ommabop matnlarda faol ishtirok etadi. Ularsiz tortishuv va diskussiyani tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham mazkur masalaning vaqt o‘tgan sayin tilshunoslar e’tiborini yanada ko‘proq tortib kelayotgani va tilshunoslikda muhim o‘rin egallashini kuzatamiz.

Ziddiyat borliqning asosi sifatida bir necha soha olimlarining diqqat markazida bo‘lgan. Uning tildagi ifodasi dastlab antonimiya nomi ostida tadqiq etilib, bu haqida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, rus tilshunosligida N.Miller, Komissarov Chupanovskaya, Klyuyeva, L.Novikov; Ingliz tilshunosligida J.Layonz, A.Kruz; O‘zbek tilshunosligida S.Mutallibov, S.Usmonov, B. Isabekov, R.Shukurov, keyingi davrlarda esa D.Abdullayeva, Y.Odilov va boshqalar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

Antonimiya (gr. *antionymo* – “zid nom”) leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrar qarama-qarshilik;

b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya’ni qarama-qarshilikka o‘sib borishi natijasida birinchi a’zo bilan oxirgi a’zoning antonimlashuvi. Masalan, *kichik – o‘rta – katta, yosh – o‘smir – o‘rta yosh – qari* kabi.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo‘g‘insiz bo‘ladi: *rost – yolg‘on, arzon – qimmat, oson – qiyin*. [Sayfullayeva, 2009: 113-114]

Zamonaviy tilshunoslikda qarama-qarshilikni turli xil rakurslarda tadqiq qilinmoqda va bu ziddiyat hodisasini yanada chuqurroq anglashimizga yordam beradi. Bulardan ayrimlarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Antisemiya –turli turkum doirasidagi so‘zlarning o‘zaro ziddiyatga kirishuvi. Buni quyidagi sxemalarda solishtirib, aniq kuzatishimiz mumkin:

Antonimik munosabat asosidagi uyushma:



Antisemik munosabat asosidagi uyushma:



Qarama-qarshilikning yana bir turi –enantiosemiya. Bu mavzu o‘zbek tilshunosligida keng planda O.Yorqinov tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi darajasida o‘rganilgan. **Enantiosemiya** –bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra zidlanishning ifodalanishidir, ya’ni bir leksemaning ikki qarama-qarshi semaga ega bo‘lishi. Bunga misol qilib tilimizdagi *kir* (ot) so‘zini olishimiz mumkin. Kiyimlar yuvilish jarayoniga qadar ham *“Kirlarni yuvish kerak”* deymiz. Toza bo‘lib qurigandan so‘ng ham *“Kirlarni dorga yoyish kerak, dazmollash kerak”* deymiz. Bunda birinchi holatda kiyimlar haqiqatda kir, yuvilishi kerak, lekin ikkinchi jumlada ular kir emas, toza kiyimlar bo‘lsa-da, ayni so‘zdan foydalanamiz.

Ko‘rsatilgan misollarda bir so‘z o‘z ichida ziddiyat hosil qilyapti. Bu ham tilning muhim xususiyatlaridan bo‘lib, enantiosemiya hodisasi tilimizga yaqinda kirgan yot hodisa emas. Turkiy xalqlarning mo‘tabar manbasi bo‘lgan “Devonu lug‘otit-turk”da *öt* so‘zining “dori, davo” va “og‘u, zahar” ma’nolarini anglatishi aytiladi.

Antonimlar tasnifi bo‘yicha tilshunoslikda turli xil qarashlar mavjud. O‘zbek tilshunosligidagi tasnifni yuqorida ko‘rib chiqqan bo‘lsak, rus va ingliz tilshunosligida biroz farqli holatlar ko‘zga tashlanadi. Ingliz tilshunoslaridan J.Layonz va rus tilshunoslaridan Novikovning tasniflariga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, ayrim farqlarni kuzatamiz:

Layonz tasnifi	Novikov tasnifi
Oppozitsiya turlari	**Antonimiya turlari**
• Antonimlik	• Kontrar antonimiya
• Komplimentarlik	• Komplimentar antonimiya
• Konverslik	• Konversiv antonimiya

E’tibor qilsak, jadvalning ikki tomonida yonma-yon turgan ikki olim tasnifi mohiyat jihatidan bir narsalar, lekin nomlashda, tasniflashda farqlar bor. Layonz tasnifining boshqa tasniflardan farqi shundaki, u bu uch guruhni antonimiyaning turlari sifatida emas, balki alohida hodisalar o‘laroq tushuntiradi, ya’ni ularni *antonimlar* guruhida emas, *oppozitsiya turlari* ostida birlashtiradi. U *antonimlik* deganda kontrar, ya’ni gradual munosabatdagi zid ma’noli so‘zlarni nazarda tutadi. Layonz nazariyasi bo‘yicha *komplimentar antonimiya*, *konversiv antonimiya* tushunchalari yo‘q, ular o‘zi antonimiyadan alohida hodisa (*komplimentarlik, konverslik*).

V.Mixaylov esa o‘z tasnifida *kvalitativ* va *komplimentativ* terminlarini qo‘llaydi. [Михайлов, 1987: 35-36] Ko‘rinadiki, tadqiqotchi nazariyalar tahlilida terminlar masalasiga ahamiyat qaratish kerak.

Antonimiya haqida Finlandiyada nashr etilgan “Ingliz matnlarida antonimiyaning lingvistik tahlili” nomli xitoylik tadqiqotchilar tomonidan yozilgan ilmiy ishda “antonim” so‘zining izohini berishga harakatlar XX asrning ikkinchi yarmidan emas, balki qariyb bir asr oldin boshlangani aytiladi. Unga ko‘ra, “antonim” so‘zi ilk bor C.J.Smith tomonidan “sinonim” so‘zining ziddi sifatida talqin etilgan. “1867-yildan boshlab ko‘plab olimlar tomonidan “antonim” so‘zini izohlashga urinishlar bo‘ldi, lekin muammo shunda ediki, antonimlar deskripsiya, ya’ni tasvirlashdan ko‘ra ko‘proq illustratsiyalikka moyil. Misol uchun, agar biz biror kimga antonim nima ekanligini tushuntirmoqchi bo‘lsak, bunga izoh berishdan ko‘ra *yosh –qari , uzun –qisqa, ochiq– yopiq, yaxshi– yomon* singari misollarni

berish ancha samaraliroq bo‘ladi. Antonimning har bir misoliga mos keladigan yagona izohni topish qiyin, hatto muammolidir”. [Gao Ch., Zheng Q, 2014: 234-238]

Mazkur tadqiqotda antonimlar tasnifi o‘zbek tilshunosligidagi tasnifdan biroz farq qilib, uchinchi bir tur ham kiritilgan va har bir turning bir-biridan farqi tushunarli va aniq tarzda ko‘rsatib berilgan (! Antonimiyani tushuntirishda A va B shartli ravishda o‘zaro qarama-qarshi deb olinadi):

1. Kontrar (*gradable*, ya’ni *darajalanuvchi*). Bu tur qarama-qarshilik shundayki, “A emas” degani “B” degani emas, ularning o‘rtasida boshqa oraliq so‘z bor. A≠*B. Issiq –iliq –sovuq . Issiq ≠sovuq,* chunki issiq emas desak, iliq bo‘lishi ham mumkin.

2. Komplementar (*Complementary*) antonimda “A emas” degani “B” ga teng. *Tirik –o‘lik.* Bu yerda oraliq tushuncha yo‘q.

3. **Konversiv** (*converse*) antonimlar –antonimlarning alohida turi bo‘lib, biri birining mavjudligini taqozo qiladigan juftliklardir. *Er –xotin, shifokor – bemor, sotmoq –sotib olmoq, o‘qituvchi –o‘quvchi, sotuvchi –xaridor, direktor –xodim* tipidagi antonimlar konversiv antonimlar hisoblanadi. “A” “B”ning *xotini*= “B” “A” ning *eri,* “A” “B”ning *shifokori*= “B” “A” ning *bemori.* Yana bola –ota-ona (*child –parent*) misolini keltirib, bu juftlikning ozgina farqli tomoni borligini aytadi. *Child (bola)* so‘zi “kimningdir farzandi” ma’nosida ishlatilsa , *parent (ota-ona)* so‘ziga antonim bo‘ladi. Agar “18 yoshdan kichik inson” ma’nosida kelsa *adult (kata yoshli inson)* so‘zi bilan antonim bo‘ladi.

Antonimiyaning pragmatik ahamiyati ham yuqori darajada bo‘lib, mashhur notiqlar, prezidentlar, liderlar nutqlarida antonimlarni qo‘llash orqali tinglovchilarga psixologik ta’sir o‘tkazadilar. Misol uchun Amerika prezidenti bo‘lgan Barak Obamaning 2008-yildagi birinchi g‘alaba nutqi antonimlar asosiga qurilgan edi. Quyida asliyat va tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

“It's the answer spoken by young and old, rich and poor, Democrat and Republican, black, white, Latino, Asian, Native American, gay, straight, disabled and not disabled — Americans who sent a message to the world that we have never been a collection of red states and blue states; we are, and always will be, the United States of America.”... “In this country, we rise or fall as one nation — as one people.”... “our stories are singular, but our destiny is shared, and a new dawn of American leadership is at hand. To those who would tear this world down: We will defeat you. To those who seek peace and security: We support you.”... “And tonight, I think about all that she's seen throughout her century in America — the heartache and the hope; the struggle and the progress”... “because after 106 years in America,

through the best of times and the darkest of hours, she knows how America can change. Yes, we can.”

“Bu hammamizning so‘zimiz: *yosh* va *qari*, *boy* va *kambag‘al*, *demokrat* va *respublikachi*, *qora*, *oq*, *lotin amerikalik*, *osiyolik*, *mahalliy amerikalik*, *nogiron* va *sog‘lom* –biz Amerika Qo‘shma Shtatlarimiz va shunday bo‘lib qolamiz... Bu mamlakatda biz rivojlansak yoki yiqilgan paytimiz ham bir xalq - bir jamiyat bo‘lib bajaramiz hammasini... Bizning hikoyalarimiz *yagona*, ammo bizning taqdirimiz *umumiy* va hozir Amerikada yangi tong otish arafasida. Bu dunyoni *vayron qiladiganlar*ga: Biz sizni mag‘lub qilamiz. *Tinchlik xavfsizlik izlayotganlar*ga: “Biz sizni qo‘llab-quvvatlaymiz… Va bugun kechqurun men Amerikaning o‘tmishi haqida o‘ylayman. *Yurak og‘rig‘i* va *umid*; *kurash* va *taraqqiyot*... Amerika 106 yil davomida, eng yaxshi paytlarda va eng qorong‘u soatlarda ham qanday o‘zgarish mumkinligini bilgan. Ha, biz uddalay olamiz”.

Xuddi shunga o‘xshash nutqlar Abraham Linkoln va ilohiyotshunos Martin Lyuterning mashhur chiqishlarida ham mavjud.

Antonimiyani o‘rganishda leksikografiya masalasi ham muhim bo‘lib, afsuski, bu sohada o‘zbek tilshunosligi ancha oqsaydi. Bir martagina XX asrda yaratilgan “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” dan keyin bu borada biror yangilikni kuzatmaymiz. Bu tilshunosligimiz oldida turgan katta mas’uliyatli ishlardandir. Jahon tilshunosligida, ayniqsa ingliz tilida bu masala juda yaxshi ishlangan. Hozir internet davrida qog‘oz kitoblardan foydalanish biroz noqulay bo‘lganligi sababli lug‘atlar saytlarda onlayn yaratilyapti. Hattoki, antonym.com sayti maxsus antonimlar uchun yaratilgan bo‘lib saytga istalgan qurilmadagi brauzerdan kirib, biror so‘zni yozib birgina tugmani bosish orqali nafaqat antonimlar ro‘yxatini, balki shu so‘zning sinonimlari va etimologiyasi, bu so‘zning gap ichida qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, tezarus lug‘atlar ham foydalanish uchun juda qulay. Masalan, Amerikaning eng ishonchli onlayn lug‘ati sifatida e’tirof etilgan “Merriam Webster Dictionary”. Bu lug‘at interaktiv bo‘lib, so‘zning tezaruslari (izoh, sinonimlar, antonimlar, so‘z birikmalari, terminlar va boshqalar), qo‘shimcha ma’lumotlardan tashqari o‘yinlar va savolnomalar, ayni paytda eng ko‘p qidirilayotgan so‘zlar statistikasi va grammatikani o‘rganishga mo‘ljallangan qismlarni ham o‘z ichiga oluvchi mukammal onlayn lug‘at hisoblanadi.

O‘zbek tilini chet elda tadqiq qiluvchilar ham ko‘payib boryapti va ular lug’at, internet manbalari masalasida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bir necha tomli kitoblarni O‘zbekistondan sotib olish muammoliroq va bu tadqiq jarayonini ancha murakkablashtiradi. O‘zbek tilining ham eng yaqin fursatda onlayn antonimlar lug’ati, tezarus lug‘atlarining yaratilishi tilshunosligimiz oldidagi keying

qadamlardandir. Bu o‘zimiz uchun ham juda kerakli bo‘lsa, xorijlik tadqiqotchilar uchun suv va havodek zarurdir.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, antonimiyani yanada chuqurroq lingvistik tahlil qilib, mukammal ishlash, bunda tahlillarni jahon tilshunosligidagi tadqiqotlar bilan parallel tarzda olib borish, ziddiyatning pragmatik xususiyatlarini kengroq planda tahlilga tortish tilshunosligimizning boyishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, hozirgi raqamlashgan texnologiyalar davrida bir tilning obro‘si uning internet manbalariga qarab ham belgilanayotganini hisobga olib, o‘zbek korpus lingvistikasini yanada boyitish, shu bilan birga, onlayn antonim lug‘atlarini ishlab chiqib, ilm ahli va keng ommaga taqdim etish oldimizda turgan yana bir muhim vazifalardandir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev D. O‘zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nomz. … diss. –Toshkent, 2010.

2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent.: 1963.

3. Egan, R.F. Survey of the History of English Synonymy. Spingfield, MA: Merriam-Webster, 1968.

4. Lyons J. Semantics. –Cambridge: Cambridge University Press, 1977.

5. Mutallibov S. Antonim so‘zlar. // Sovet maktabi, –Toshkent, 1955. № 4.

6. Odilov Y. O‘zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. nomz. … diss. –Toshkent, 2010.

7. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. –Toshkent, 1980.

8. Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1980.

9. Usmonov S. Antonimlar. // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. –Toshkent, 1958. № 2.

10. Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. –Toshkent, 1977.

11. Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке: Автореф. дисс… канд. филол. наук. Ташкент, 1973.

12. Михайлов В. Генезис антонимических оппозиций. Учеб. пособ. – Ленинград, 1987.

13. Cruse A. Lexical Semantics. –Cambridge: Cambridge University Press, 1986.

14. https://www.antonym.com/antonyms/antonym

15. https://www.merriam-webster.com/

ZAMONAVIY BADIIY MATNLARDAGI “SADOQAT” KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TAHLILI

Uzakova Xilola
Davlat xafvsizlik xizmati “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108661

Annotatsiya. Maqolada aksiologiyaning falsafa negizida shakllanishi, lingvistika masalalari bilan uyg‘unlashuvi, aksiolingvistikaning yangi yo‘nalish sifatida shakllanishi haqida so‘z yuritilgan. Aksiolingvistikaga doir tadqiqotlar tavsiflangan. O‘zbek tilshunosligida aksiolingvistikaning shakllanishi, aksiolingvistika nazariyasi va asosiy tushunchalari qayd etilgan tadqiqotlar tavsiflangan. Aksiolingvistikaning asosiy masalasi sifatida qadriyat tushunchasi ta’riflangan. “Sadoqat” o‘zbek madaniyatidagi eng qadimgi qadriyatlardan biri sifatida tavsiflangan. Aksiologik konseptni aks ettiruvchi eng faol vositalar sifatida leksik birliklar qayd etilgan. “Sadoqat”ning bir necha leksik birliklar bilan ifodalanishi misollar orqali tahlil qilingan. “Sadoqat” konseptining aksqadriyatlar yordamida ifodalanishi badiiylik va obrazlilikka xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *antroposentrik paradigma, aksiologiya, aksiolingvistika, qadriyat, baho, sadoqat, sadoqatli, sodiq, vafo, vafodor, vafosiz, bevafo, aksqadriyat, xiyonat, kognitiv belgi.*

Annotation. The article talks about the formation of axiology on the basis of philosophy, its integration with linguistic problems, as well as the formation of the direction of axiolinguistics as a new direction. Research on axiolinguistics is described. The formation of axiolinguistics, theory and basic concepts of axiolinguistics in Uzbek linguistics is described. The concept of value is defined as the main issue of axiolinguistics. “Loyalty” is described as one of the most ancient values of Uzbek culture. Lexical units are described as the most active means reflecting the axiological concept. Using examples, the expression “loyalty” is analyzed using several lexical units. It is shown that the expression of the concept of “loyalty” with the help of aksadriats is of an artistic and stylistic nature.

Key words: *anthropocentric paradigm, axiology, axiolinguistics, value, assessment, loyalty, loyal, faithful, faithful, loyal, unfaithful, infidel, axadrites, betrayal, cognitive character*

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida antroposentrik paradigma asosidagi izlanishlar doirasi kengaydi. Tadqiqotlar predmeti obyekt tahlilidan subyekt tahliliga o‘zgardi, insonni tilga, tilni esa insonga aloqadorlikda o‘rganishga yo‘naltirildi. Antroposentrik tilshunoslikning sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya sohalariga doir tadqiqotlar yuzaga keldi. Til undan foydalanuvchilarning dunyoqarashi, olamni idrok etish qobiliyati, tafakkur darajasi bilan aloqadorlikda tadqiq qilina boshladi.

Falsafa fani bir qator yo‘nalishlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Aksiologiya yo‘nalishi ham falsafa negizida rivojlandi. Aksiologiya grekcha *axios*– “qadr-qiymat”, *logos* – “fan, ta’limot” so‘zlaridan olingan bo‘lib, qadriyatlar haqidagi yo‘nalishni bildiradi. Aksiologiya xalq urf-odat, an’analari, munosabat bildirish, qadriyat, baholash, aksiologik manzara to‘g‘risidagi bilimlar majmuyidir.

Antroposentrik tilshunoslikning falasafa negizida shakllangan yo‘nalishi aksiolingvistika hisoblanadi. Aksiologiyaning antropotsentrik paradigma yo‘nalishi sifatidagi mazmuni aksiolingvistika sohasining shakllanishiga zamin yaratdi. Aksiolingvistika aksiologiya va lingvistika oralig‘idagi soha bo‘lib, olamning aksiologik manzarasi, qadriyat, baholash, munosabatning tilda aks etgan belgilarini tahlil qiladi.

Aksiolingvistikaning asosiy masalalaridan biri qadriyatdir. Qadriyat ijtimoiy borliq, turmush tarzining munosabatlar tizimida, baholash orqali namoyon bo‘ladigan qarashlar majmuyi hisoblanadi. Qadriyatlar hamisha juftlikda namoyon bo‘ladi. Kishilik jamiyatida inson borliqni anglanga-anglanmagan, yaxshi-yomon, ijobiy-salbiy, o‘tkinchi-boqiy belgilar asosida qarama-qarshi qutblarga ajratadi. Umuman, evolyutsion taraqqiyot davomidagi qarama-qarshiliklar birligi taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Jamiyatda mavjud qadriyatlar o‘z navbatida aksqadriyat deb nomlanuvchi zid ko‘rsatkichlarga ham ega. Ezgulik yovuzlikning, yaxshilik yomonlikning, oqillik johillikning, sadoqat vafosizlik va xiyonatning mavjudligini ko‘rsatadi, shu aksqadriyatlarning zidi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni shu qadriyatlar va aksqadriyatlar juftligi tilshunoslikda aksiologik leksikani yuzaga keltiradi.

Qadriyatlar ta’lim jarayonining asosiy komponenti bo‘lishi zarurligi olimlar tomonidan qayd etilgan [Bogdanova, 2017:734]. Til ta’limining qadriyatlar mazmuni xorijlik til o‘zlashtiruvchilar uchun milliy-madaniy munosabatlarni aks ettiruvchi ma’lumot sifatida qiymatga ega bo‘lsa, ona tili sohiblari uchun til qatlarida muhrlangan milliy-madaniy belgilarni o‘rganish va tilning to‘plash funksiyasini amalda yoritishdan iborat bo‘lshi kerak. Qadriyatlar tilning tarkibiy qismi sifatida

qaralar ekan, o‘z navbatida, til ta’limi jarayonida qadriyatlarning singdirilishiga ham e’tibor qaratish zarur bo‘ladi. Qadriyat – umummilliy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy belgilarni mujassamlantirgan tarixiy-an’naviy voqelik.

“Tilning qadriyatlarni to‘plovchi va uzatuvchi funksiyalari hamda qadriyatning ma’lum bir shaxs yoki jamiyatning aksiosferasini modellashtiruvchi xususiyatlari aksiolingvistika fanini yuzaga keltirdi” [Komilova, 2021:26].

Qadriyatlar muammosi A.Abdug‘afurov, F.Abdurahimova, A.Aliyev, N.Komilov, O.Musurmonova, D.Qosimova, A.Haydarovlar tomonidan adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

A.Ivin, N.Arutyunova, Y.Volf, S.Pavlov, Y.Serebryannikova, V.Karasik, L.Bayramova, G.Bagautdinova, G.Gibatova kabilar aksiolingvistikaning shakllanishi va rivojlanishi uchun salmoqli hissa qo‘shgan olimlar hisoblanadi [komilova,2021:26]. N.Arutyunova tildagi ma’no tiplari haqida mulohaza yuritib, qadriyat masalasiga alohida to‘xtalgan [arutyunova, 1988].

R. Yunusova dissertatsiyasida aksiologik lingvistika doirasidagi tadqiqotlarning nazariy aspektlari yoritilgan. Lingvistik aksiologiyaning tilni qadriyatlar haqida muhim axborot jamlangan manba sifatida o‘rganishi qayd etilgan [yunusova, 2009].

Z.Temirgazina zamonaviy rus tilida qadriyat ifodasi masalalariga to‘xtalgan [Temirgazina, 1999]. 2004-yilda Volgogradda, 2016-, 2019-yillarda Yekaterinburgda aksiologik lingvistika muammolari va istiqbollariga bagishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya va ilmiy seminarlar o‘tkazildi.

Aksiolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri baho hisoblanadi. N.A. Arutyunova ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga asoslanib, bahoning turlarini keltirgan [Arutyunova, 1988,67].

G.Komilova aksiolingvistik tadqiqotlar ko‘lamining kengayishi natijasida jahon tilshunosligida yuzaga kelgan quyidagi aksiolingvistik maktablarni ajratib ko‘rsatgan [Komilova, 2021:24].

O‘zbek tilshunosligida aksiolingvistika sohasiga doir izlanishlar keyingi yillardan boshlab amalga oshirila boshladi. Dastavval, kategorial shakllarda baho munosabatining ifodalanishi masalalari yoritildi [Qambarov, 2008]. Lingvokulturologiya doirasidagi ayrim tadqiqotlarda lisoniy-madaniy konseptlar qadriyat va baho nuqtayi nazaridan yoritildi [Rahmatova, 2019].

O‘zbek tilida aksiolingvistika yo‘nalishida amalga oshirilgan birinchi tadqiqot G.Komilovaning filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasidir. Dissertatsiyada aksiologiya va uning tavsifi,

falsafiy qarashlardan ajralib chiqishi, alohida shakllanish bosqichiga o‘tishi ilmiy asosda yoritilgan. Lingvistik tadqiqotlarda aksiologik yondashuv, lingvoaksiologiyaning shakllanishi masalalari izchillikda, tizimli ravishda tahlil etilgan. Aksiolingvistikaning shakllanish bosqichlari, o‘rganish obyekti, vazifalari, qiymat va baho munosabati nazariy jihatdan asoslangan. G.Komilova tadqiqoti orqali o‘zbek tilshunosligiga *aksiolingvistika, aksqadriyat, aksiologik konsept, aksiologik shkala* terminlari kirib keldi. Olima o‘zbek maqollarining aksiolingvistik tadqiqini amalga oshirdi, maqollarda aks etgan qadriyat va aksqadriyatlarning lisoniy modellarini ishlab chiqdi [Komilova, 2021].

O‘zbek madaniyatidagi eng ko‘hna qadriyatlardan biri “ sadoqat”dir. “Sadoqat” konsepti, dastavval, leksik vositalar yordamida ifoda etiladi.

Sadoqat qadriyatni mavhum tarzda aks ettiradigan leksemadir:

*Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamyodga **sadoqat**, ofitserlik burchi, degan gaplar bor*! (Tushda kechgan umrlar).

Sodiq leksemasi “sadoqat” qadriyatini ifodalovchi eng faol leksemadir.

...Ular senga bir umr yo‘ldosh,
Sodiq hamroh kabi o‘tarlar.
Qabring uzra egsalar ham bosh,
Xato qilishingni kutarlar [A. Oripov, Xato qilishingni kutarlar].

Sodiq shaxsning fazilati sifatida tasvirlangan. *Sodiq xalifalar:*

Oltmish yoshida uch nafar sodiq xalfalari bilan Samarqandni tark etdi. Borajak manzilini aytmadi. Kechasi bilan zim-ziyo yo‘q bo‘ldi. Subhi sodiq mahaldan sarrin-sarrin sabolar esdi. Mayin-mayin sabolar kezdi Har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey, xudo!..» (Oydinda yurgan odamlar,10).

Sodiq Allohga e’tiqod qo‘ygan insonlarni sifatlab kelgan:

Shunday ekan, bir sodiq bandangni bunchalar xo‘rlama-da, ey, xudo! Bir sodiq bandangni bunchalar oyoq osti qilma-da, ey, xudo! [Oydinda yurgan odamlar].

Sodiq leksemasidan hosil qilingan qo‘shma fe’llar turli voqelikka bo‘lgan “sadoqat” qadriyatini ifodalab kelgan: *sodiq qol-*: *Tank mexanigi serjant Zokir Oripov Moskva ostonalarida «Medinsk» rayonida bo‘lgan shiddatli janglarda harbiy qasamyodiga **sodiq qolib** qahramonlarcha halok bo‘ldi. Vatan qahramon jangchi Oripov xizmatlarini unutmaydi* [Ikki eshik orasi,186].

Zamonaviy badiiy matnlarda “sadoqat” konseptining ifodalanishi

Qadriyat	Konsept	Birikma
sadoqat	qasamyodga sadoqat	*harbiy qasamyodga sadoqat*
sodiq	yo ‘ldoshga sadoqat	*sodiq hamroh*
	doimiy fazilat	*sodiq inson*
	doimiy qadriyat	*sodiq shaxs*
	izdoshlar sadoqati	*sodiq xalifalar*
	Ollohga sadoqat	*sodiq banda*
	mehribonlik	*sodiq mehr*
	bo‘ysunmaslik	*sodiq jangchi*
	tongdan	*subhi sodiq mahaldan*
sodiqlik	yaqinlarga sodiqlik	*ota-onaga sodiq*
sodiq qolmoq	qasamga sodiqlik	*harbiy qasamyodiga sodiq qolib*
vafo	sadoqat	*vafo degan narsa*
vatanparvar	vatan	*vatanparvar - o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi*
vatanparvarlik	vatanga sodiq	*vatanparvarlik burchi*
vafo qilmoq	sadoqat ko‘rsatish	*kimsaga vafo qilmaganini tushunmadi*

Zamovaiy badiiy matnlarda “sadoqat” konseptini ifodalovchi 8ta leksik vosita ishtirok etgan. Mazkur leksemalar orqali “sadoqat” konsepti 16ta kognitiv belgi, 15 xil birikma orqali namoyon bo‘lgan.

“Sadoqat” konsepti *xiyonat* aks qadriyati zamirida namoyon bo‘ladi.

Sadoqat diyonat bilan uyg‘unlikda kelgan, xiyonat tushunchasi bilan birga qo‘llanadi:

Sadoqat – xiyonat:

Sadoqat bor joyda – diyonat omon,

Sotqinlik yomondir, xiyonat yomon...[Anvar Obidjon, Farg‘onaliklar]

Xiyonat aksqadriyati misolida umrga sadoqat aks ettirilgan:

Umr tangrining odamzotga o‘lchab bergan omonatidir. Biz esa ko‘pincha, uni behuda o‘tkazib, omonatga xiyonat qilamiz [Daftar hoshiyasidagi bitiklar]

Vafo leksemasi zamonaviy badiiy matnlarda ham “sadoqat” qadriyatini aks ettirishga xizmat qiladi: *Ayol kishiga **vafo** degan narsa qanchalar qimmatga tushishini ko‘plar hali bilmaydi* [Ufq,490].

Vafo leksemasidan hosil qilingan qo‘shma fe’llar “sadoqat” qadrityaini aks ettiradi: Xalqi beishq-u vafo monda ba xob, ammo sagon
Dar vafoyi oshiqon to subh g‘avg‘o afganand.

Quyidagi misolda esa “insonga vafo qilish” tushunchasi ifodalangan: *Boisi, ot odamzotni ulug‘laydi. Odamzotga **vafo** qiladi. Hayvonlar ichida ot bilan it shunday* [Ot kishnagan oqshom.,76].[2]

Vafo asosidan hosil qilingan yasama so‘zlar “sadoqat” qadriyati yoki “sadoqatsizlik” aksqadriyatini ifodalashga xizmat qilgan. *Vafo* so‘zidan yasalgan fe’llar ham qo‘llangan: Onaga vafo qilmagan bola, kimga **vafo** qiladi. Yurt ishiga yaramagan bola qay ishga yaraydi [Ufq,466].

Quyida “vafosizlik” konsepti to‘lin oy misolida *vafo qilmoq* leksik vositasi orqali ifodalangan: *...Oyga mahliyo bo‘lib-mahliyo bo‘lib termilibman. Oyning beti kir emish. Oyga sonsiz oshiqlar mahliyo termildi. Oy qaysi oshiqqa bir o‘pich berdi? Oy qaysi oshiqqa vafo qildi*? [Ot kishnagan oqshomda,4].

Vatan a. – tug‘ilib o‘sgan joy, yurt. 1. Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shaxri yoki qishlog‘i; yurt, diyor. 2.Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt. 3. Turarjoy, boshpana, maskan, uy. 4 O‘simlik va sh. k. larning asli kelib chiqqan yerini bildiradi [O‘TIL,1,444]. *Vatandan yasalgan vatanparvar* so‘zi “vatanga sadoqat”ni ifodalaydi. *Vatanparvar* [vatan + *f.*> g‘am-xo‘rlik qiluvchi] – o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi. *Vatanparvarlik* Vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat. *Vatanparvarlik burchi.*

Vatanfurush aks qadriyat sifatida “vatanga xiyonat qiluvchi” tushunchasini anglatadi**.** *Vatanfurush* [vatan + *f.* sotuvchi] –o‘z vataniga xiyonat qiluvchi, vatanini sotuvchi. *Vatanfurushlik* –vatanni sotish, unga xiyonat qilish [O‘TIL,1,445].

Vatanga xiyonat muhtojlikning eng yuqori nuqtasi – kafangadolik bilan baholangan: *Vatangado* [vatan + gado] Vatandan kechib, qochib, o‘zga ellarda darbadar yuruvchi; qochqin. *Vatangadolik* –vatangadoga xos hayot, holat, vatangado bo‘lib yashash. X.Sultonov *vatangado* so‘zi o‘rnida vatanjudolik so‘zini ishlatgan. *Vatanjudolik* – vatandan judo holatdagi hayot, shaxsning shunday hayot kechirishi: *Olamda vatanjudolikdan yomon narsa yo‘q, Xayriddinjon aka, — dedi u xo‘rsinib.* X. Sultonov, Boburiynoma [O‘TIL,1,445].

[2] Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom.

Vatangadolik xalq maqollarida *yurt gadosi* birikmasi ko‘rinishida uchraydi: *Non gadosi bo‘lish oqlanib, yurt gadosi bo‘lish qoralangan: Non gadosi bo‘lsang ham yurt gadosi bo‘lma* [O‘XM,10). Xalq maqollarida “vatanga xiyonat” birikmalar orqali ifodalangan: *Vatandan yiroqlashgan – nomusdan o‘lar* (O‘XM,9) maqolida vatan nomusga tenglashtirilgan; Vatanni sotgan el bo‘lmas (O‘XM,10).

Zamonaviy badiiy matnlarda “sadoqatsizlik” aksqadriyatining ifodalanishi

Qadriyat	**Konsept**	**Birikma**
vafosiz	sadoqatsiz	*vafosizga – jafo*
bevafo	sadoqatga ega emaslik	*bevafo xotin*
vafo qilmaslik	sadoqat ko‘rsatmaslik	*kimsaga vafo qilmaganini tushunmadi*
xiyonat	aksqadriyat	*Ularning qismatiga Xiyonat kirib keldi!*
xiyonat qilmoq	va’dani buzish	*omonatga xiyonat qilamiz*
vatanfurush	vatanga xiyonat	*Vatanfurush* o‘z vataniga xiyonat qiluvchi
vatanfurushlik	vatanga xiyonat	*Vatanfurushlik* – vatanni sotish, *Vatanfurushlik* – vatanni sotish,
vatangado	vatanga bevafolik	*Vatangado bo‘lguncha, kafangado bo‘l*
vatangado	vatanga bevafolik	*yurt gadosi bo‘lma*
vatanjudolik	vatangadolik	*Olamda vatanjudolikdan yomon narsa yo‘q*

Zamonaviy badiiy matnlarda “sadoqat” konsepti *sadoqat, sodiq, sodiqlik, sodiq qolmoq, vafo, vafo qilmoq, vatanparvar, vatanparvarlik* leksemalari orqali ifodalangan.

Zamonaviy badiiy matnlarda “sadoqatsizlik” aksqadriyati *vafosiz, bevafo, vafo qilmaslik, xiyonat, xiyonat qilmoq, vatanfurush, vatanfurushlik, vatangado,* leksemalari orqali ifodalangan. *Vatanjudolik* ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati bilan bog‘liq okkazionalizm hisoblanadi.

Sadoqat, sadoqatli, sodiq, sodiqlik, sidqidildan leksemalari “sadoqat” konseptining eng faol va barcha davrlar va barcha uslubdagi matn ko‘rinishlari uchun umumiy bo‘lgan leksik vositalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988.

2. Богданова Л.И. Оценки и ценности в зеркале словарей русского языка. Когнитивная лингвистика. Аксиологическая семантика. Вестник РУДН.2017. Серия: Лингвистика.

3. Komilova G. O‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Filol. fan. fals. d-ri (PhD) diss. –Toshkent,2021.

4. Коцюбинская Л.В.б Кузина О.А. К вопросу об аксиологии в лингвистике. 2015.

5. Темиргазина З.К. Оценочные высказывания в современном русском языке. Дисс. канд. филол. наук. – М., 1999.

6. Юнусова Р.Ж. Аксиология фразеологизмов со значением гостеприимство / кунакчыллык' в русском и татарском языках. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Казань – 2009.– 23 с.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V жилдлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

8. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005.

CHIG‘ATOY TILINING AFG‘ONISTON O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI

Hasamuddin Hamdard
Hasamuddin.hamdard@yahoo.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108674

Annotatsiya. Afg‘oniston, tarix bo‘yicha farqli millatlarning mezboni bo‘lgan. Turklar va Turk madaniyati bilan uzodan beri tanishgan bu o‘lka, hozir ham bir necha Turkiy xalqlarga vatan bo‘lib turgan. Bu turkiy xalqlarning eng nufuzlisi esa o‘zbeklardir. Chig‘atoy adabiyotining beshigi bo‘lgan bu hudud, hozir ham bir tirik Afg‘oniston o‘zbek adabiyotiga ega. Afg‘onison o‘zbek adabiyoti, chig‘atoy tilining davomidir. Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi ham davlat arbobi ham chig‘atoy tilining eng buyuk ustozlari bu tuproqlarda yashab o‘zlarning noyob asarlarini yaratganlar. Afg‘oniston ruslarning ta’sirida ham uzoq muddat qolmagan. Bu Afg‘oniston o‘zbeklarining tili va adabiyotiga Ruschaning ta’sir qilishiga to‘siq bo‘lgan. Afg‘oniston o‘zbeklari arab alifbosi bilan yozib o‘qishga davom etmoqdalar. Ayni paytda urush va ichki beqarorliklar tufayli Afg‘onistonda texnologiya kerakli shaklda chiqmagan. Shunga binoan, Afg‘oniston o‘zbeklari, ham shakl, ham uslub va motiv jihatidan hozirgacha chig‘atoy tilining ta’siridadir. Oxirgi paytlarda hozirgi O‘zbekiston adabiyotining ta’sirida qolgan bir necha shoir chiqqan bo‘lsa ham, Afg‘oniston o‘zbek shoirlari, chig‘atoy tilining o‘xshagan asarlar yozishga etmoqdalar. Bu maqolamizda Afg‘oniston o‘zbeklari borasida umumiy ma’lumot berilgandan keyin, chig‘atoy tili va o‘zbek adabiyotining taraqqiyoti haqida bahslar yuritiladi va chig‘atoy tilining Afg‘oniston o‘zbek adabiyotiga ta’siri tekshiriladi.

Kalit so‘zlar: *Afg‘oniston, Afg‘oniston o‘zbeklari, chig‘atoy tili, Afg‘oniston o‘zbek adabiyoti.*

INFLUENCE OF CHIGATOI LANGUAGE ON AFGHANISTAN UZBEK LITERATURE

Abstract. Afghanistan has been the host of different countries throughout history. This country, which has been familiar with Turks and Turkish culture for a long time, is still home to several Turkic peoples. The most influential of these Turkic peoples are the Uzbeks. This region, which is the cradle of Chigatoi literature, still has a living Afghan Uzbek literature. Afghanistan is a continuation of Uzbek literature, Chigatai language. Alisher Navoi, Husayn Boykara, Babur, statesman and

the greatest teachers of the Chigatoi language lived in these settlements and created their unique works. Afghanistan did not remain under Russian influence for long. This was an obstacle to Russian influence on the language and literature of Afghan Uzbeks. Afghan Uzbeks continue to read and write using the Arabic alphabet. At the moment, due to the war and internal instability, the technology in Afghanistan has not developed as it should. Accordingly, the Uzbeks of Afghanistan are still under the influence of the Chigatai language in terms of form, style and motif. Although several poets influenced by modern Uzbek literature have appeared recently, Uzbek poets of Afghanistan are writing similar works in the Chigatai language. In this article, after providing general information about the Uzbeks of Afghanistan, we discuss the development of the Chigatoi language and Uzbek literature, and examine the influence of the Chigatoi language on the Uzbek literature of Afghanistan.

Key words: *Afghanistan, Uzbeks of Afghanistan, Chigatai language, Uzbek literature of Afghanistan.*

Bu maqolada Afg‘onistonda yashayotgan o‘zbeklar haqida umumiy bahslar bo‘lgandan keyin, chig‘atoy va yangi o‘zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti angalatiladi va chig‘atoy tilining bugungi Afg‘oniston o‘zbek adabiyotiga bo‘lgan ta’siri tekshiriladi.

Afg‘oniston o‘zbeklari

Afg‘onistonda yashayotgan eng gavjum turkiy xalq o‘zbek xalqidir. Taxminlarga ko‘ra, Afg‘oniston xalqining 9%ni o‘zbeklar tashkil etadi. O‘zbeklar; Foryob, Javzijon, Balx, Samangon, Saripul, Qunduz, Taxor, Badaxshon va Bag‘lon viloyatlarining shahar, tuman va qishloqlarida yashamoqdalar. Kobul va Hirot viloyatlarida ham o‘zbeklar yashab kelmoqdalar [Aminyor, 2009:178].

Tarix bo‘yicha Afg‘onistonda qurilgan g‘aznaviylar, temuriylar, shayboniy va bobur davlatlarining avlodlari bo‘lgan o‘zbeklarning bir qismini tashkil etadi. Boshqa tomondan G‘arbiy Turkistonda 1916-1924 yillarda boshlagan isyon va urushlar natijasida yashaydigan shaharlarini tark etib Afg‘onistonga joylashgan o‘zbeklar esa ikkinchi guruh o‘zbeklarni tashkil etdi [Saroy, 1997:121] Ammo bu o‘zbeklarining ikkala guruhida ijtimoiy va madaniy bir farq yo‘qligi aniq.

Sababi noma’lum bir holda, shimoliy Afg‘onistonning ya’ni janubiy Turkistonning g‘arbida yashayotgan o‘zbeklarga “tot” nomi beriladi. Afg‘onistonning shimol-sharqidagi qatag‘an hududida ham o‘zbeklar yashaydilar. Bu ikki hududdagi o‘zbeklari madaniyat va ijtimoiy vaziyatlaridan qat’i nazar ikki farqli shevaga gapiradilar [Ug‘uz, 2009:34].

Afg‘onistonda yashayotgan o‘zbeklarning tili qirg‘iz va qozoq tili bilan katta o‘xshashliklari bo‘lib, O‘zbekistondagi qarluq shevasiga ko‘ra ko‘proq qipchoq shevasining xususiyotiga ega. Afg‘onistonda gapiriladigan o‘zbek tilini “ya-ى” va “jim-ج”lovchiga ajratadilar. Afg‘onistonning g‘arb tomonida “Y-ى”lovchilar va qatog‘on hududida “j-ج”lovchilar keng tarqalgan. Shuningdek, har ikkala hududda boshqa shevalar bilan gapiradiganlar ham bor. Javzijon viloyatiga bog‘liq Darzob, Qo‘shtepa tumanlari, Saripul viloyati Sanchorak tamani bilan Taxor va Qunduzda yashayotgan o‘zbeklar ham xuddi qirg‘izlarga o’xshab so‘z boshidagi “Y” tovushini “j” tovushiga ayantirib talaffuz etadilar [Ilik, 2012:221].

Namuna uchun: yosh-josh, yomon-jomon, yer- jer, yot-jot, yetti-jetti, yog’-jov.

Afg‘onistonda yashayotgan o‘zbeklar, Arab alifbosi bilan yozib o‘qiydilar. Yozish qoidalarida “Y” shevasining xususiyati bilan chig‘atoy tilining imlosi qo‘llaniladi. Yozuvda o‘zbek tili tovush tizimini ko‘rsatish uchun Arab alifbosiga yangi qoidalar yaratib yangi uyg‘ur tili alifbosidan ba’zilari qo‘llaniladi. Masalan, arab alifbosida bo‘lmagan va Fors tilidan olingan “pe, che, je va gof” harflaridan boshqa oxirgi paytlarda yozilgan matnlarda “vov-,و” harfiga farqli ishoratlar qo‘yib “v, o-u, ö,ü” tovushlari bilan “ye-ى” tovushining tagida tikka ikki nuqta qo‘yib “i-ı” tovushi “Y” tovushidan ajralgan.

Afg‘oniston o‘zbek tili 2003-yilda Afg‘onistonning yangi konstitutsiyasida pashtu va dari tillari yonida, uchinchi rasmiy tili deb tan olindi [Ilik, 2012:232].

Qadimgi chig‘atoy tilining Afg‘oniston hozirgi o‘zbek adabiyotiga ta’siri

Chig‘atoy tilining paydevori Amir Temurning davrida qo‘yilgan. Chig‘atoy tili temuriylar davrida, Haydar xorazmiy, mavlono Gadoiy, Atoyi, Sakokiy va mavlono Lutfiylarning paydo bo‘lishi bilan taraqqiyot davrini tugatgan [Kuprulu, 2009:198]. Ayniqsa, Amir Alisher Navoiyning (1441-1501) adabiyot dunyosida quyosh kabi chiqib kamolotini tamomlagan [Ekkmann, 2009:178]. Navoiyning boshqa adabiyotchilar va ish bilarmonlar bilan katta farqi uning chig‘atoy tilining asoschisi bo‘lganligidir. Alisher Navoiy bu tilga Turk tili ismini berib, sharqshunoslar bu tilga XIX asrdan chig‘atoy tili nomini berganlar. Fuot Kuprulu “Turk adabiyoti tarixi” isimli asarida bu adabiy tilga “chig‘atoy Turk adabiyoti” deb nomlagan [Kuprulu, 2009:231].

Buyuk Navoiy fors va arab tillarini ham ona tilidek bilardi. Minglarcha bayt she’r fors va turk tillariga aytib devonlar ijod etgan. Alisher Navoiy o‘z davrining buyuk siyosatchi va davlat arboblaridan edi. U davrining eng buyuk

hukumdorlaridan biri bo‘lgan sulton Husayn Boyqaroning bolalik do‘sti, vaziri va rahbari edi.

Husayn boyqaro davrida Hirot, Buxoro o‘rnida timuriylarning poytaxti edi. Navoiydek turk tili shaydosi bo‘lgan Boyqaro chig‘atoy tilining taraqqiyoti va keng ko‘lamda taraqalishiga katta harakatlar qilgan. Tarixchilar Boyqaro davrini chig‘atoy tilining oltin davri deb, bu davrni “Turk renessansi” davri deb nomlaganlar [Chetindog‘, 2011:54].

Navoiy Boyqaroning Turkiy tiliga maylini baholab chig‘atoy tilining taraqqiyoti uchun jiddiy bir shaklda harakat qilgan. Navoiy turk adabiyotchilarini turkiy tiliga she’r aytishga rag‘batlantirgan. Alisher Navoiy juda muhum bo‘lgan “Majolis un-nafois”da XV asrda yashagan uch yuzdan ortiq turk adibdan bahs etib ularning 90% Fors tiliga she’r aytganlarini ifoda etgan. Alisher Navoiy bu shoirlarning hammasidan turkiy tiliga she’r atishlarini istagan.

Navoiy bu maqsadiga borish uchun “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarini ijod etgan. Bu asarida turk tilini fors tilidan ustun bo‘lganligini, dalillar bilan isbot etgan [minyor, 2011:193].

Chig‘atoy tili Navoiyning o‘rtaga chiqishi bilan kamolga etdi, chig‘atoy adabiyotining taraqqiyotida Navoiyning roli boshqa shoirlarning hammasidan ko‘pdir. Shu sababdan Alisher Navoiyga chig‘atoy tilining asoschisi deb biladilar. Va chig‘atoy tiliga “Navoiy tili” ham deb nomlanganlar.

Alisher Navoiy, o‘z davrida, Xuroson, Movarounnahr va Sharqiy Turkiston bilan u davrdagi Eron va Usmonliklar davridagi Turkiyada juda ham mashur bo‘lgan. Bu o‘lkalar va shaharlarning hammasidan Hirotga talabalar kelib hazrat Navoiydan dars olar ekanlar. Va Navoiyning she’r va uslubini vafotidan keyin o‘z vatanlariga olib borib nashr etganlar. Bu shoirlar va adiblarning hammasi, uning she’riyatiga o‘xshash she’rlari yozishga harakat qilganlar. Ba’zilari ham Navoiyning she’rlarni yaxshi bilishi uchun lug‘atnomalar tayorlaganlar. Mirzo Mahdixo Estarobodiy va Munshiy Nodirshohning “Sanglox” nomli lug‘atnomasi shu maqsadga ijod etilgan. Yana shuningdek Sodiqi Afshorning “Majmu’ ul-havvas” nomli tazkirasini Navoiyning “Majolis un-nafois” nomli asarini taqlid etib yozgan [Chetindog‘, 2011:67].

XIX asrning yarimidan keyin turkiy tilining yangi shevalari paydo bo‘ldi. Ammo shunga qaramay XX asr boshlarida Shayx Sa’diy Sheroziyning “Guliston” nomli asari mullo xo‘ja Ishoni Solih (1907-1932) tomonidan chig‘atoy tiliga tarjima etilgan [Mallayev, 2013:354].

Hozirgi o‘zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti

Ba’zi manbaalarga ko‘ra, chig‘atoy tili bugungi Markaziy Osiyo tilini, ayniqsa, hozirgi o‘zbek tilini shakllantirgani yoziladi. O‘zbek adabiyoti, Turkistonda XIX asr mobaynida mustaqillik fikrlaridan ta’sirlangan. Bu jarayon bilan birgalikda, ijtimoiy va milliy masalalar aks etishni boshlagan. Faqat bu bilan bir necha shoir, yozuvchi va adabiyotchilar, qadimgi chig‘atoy tili uslubiga ko‘ra she’rlar aytganlar va nasriy asarlar ijod etganlar. Muqimiy va Furqat bu shoirlardan eng katta misollardandir.

Hozirgi o‘zbek tili va adabiyoti, chig‘atoy tilining davomidir. Bu mavzuni tilshunos va adabiyotshuslarning hammasini tomonidan tasdiqlanib, hozirgi o‘zbek tili va adabiyotini chig‘atoy tilining merosxori deb aytganlar [Chetindog‘, 2011:98].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishiga, qipchoq, uyg‘ur, qarluq va o’g‘uz shavalarining ta’siri bo‘lib, uchala shevaning o‘zlariga xos uslublari bor ma’lum. Qarluq-chigil-uyg‘ur shevalarida; “f-ف, g‘- غ, g-گ, k-ک va q-ق” tovushlari, so‘zlarning oxiriga kelganda bu tovushlar ug‘uz shevsida “x-خ, g-گ va L-ل; n-ن tovushlariga almashadi [Eckmann, 2009:79]. Bu shevalar Toshkent, Buxoro va Samarqand xalqlarining o‘zlariga xos bo‘lgan xususiyatlarini yaratgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili esa, Toshkent va Farg‘ona shevalariga asoslangan.

Aytish kerakki, yozuvchilar va shoirlar, asarlarini qulay yozishga va qulay she’r aytishga uringanlar. Aruz vaznini tark etib, hijoiy vaznga she’r ayta boshlaganlar. Adabiy mavzular kelganda tasavvufiy, diniy, muhabbatdek mavzularni tark etib, o‘z davridagi ijtimoiy va siyosiy masalalarni asarlarida aks ettira boshladilar [Ushanmaz, 2011:5].

Afg‘oniston o‘zbek adabiyotining xususiyatlari

1917-1937- yillarda turkistondagi siyosiy vaziyatlar bois, shoirlar, yozuvchilar va adiblar Turkistondan ko‘chib Afg‘onistonning o‘zbeklar yashadigan hududlarda (Javzijon, Saripul, Foryob, Taxor, Bag‘lon Qunduz) viloyatlarida joylashganlar [G‘ubor, 2009:297].

Bu shoir va yozuvchilar adabiy sohada, ayniqsa, mavzu va uslubda millatparvarlik va vatanparvarlik harakati va taraqqiyotini yaratib vatan sog‘inchi, ona til kabi yangi mavzular ifoda etsalar ham, Turkistondan kelgan bu insonlar umuman muhofizakor bo‘lganlari uchun she’r va adabiyotda, ayniqsa, shakl va uslubda chig‘atoy tili uslubini davom ettirganlar [Oqyuz, 2012:121].

Bu hududdagi shoir va adabiyotchilarga O‘zbekistondagi adabiyotning muhim ta’siri bordir. Afg‘oniston o‘zbek adabiyoti va tillariga RUS tilining deyarli ta’siri bo‘lmagan. O‘lkada alifbo o‘zgarishi bo‘lmaganligi uchun Afg‘oniston o‘zbeklari, otalari bo‘lgan Navoiy, Bobur, Shayboniy va chig‘atoy adabiyotining she’r ustozlarining asarlariga qulaygina erisha oladilar, o‘qiy oladilar va tushuna oladilar.

Afg‘onistondagi urushlar va beqarorliklar sabab, texnologiya rivojlanmagan. Shu bois adabiyotdagi ta’siroti (tarjima asarlar va boshqa manba’lar) oz bo‘lgan. Bu vaziyat Afg‘oniston o‘zbeklarining chig‘atoy tilidan ajralmasliklariga sabab bo‘lgan [Oqyuz, 2012:129].

Bu hududda, ayniqsa, XIX asrda jadidchilik harakatlari deyarli ta’sir qilmagan. Shu uchun Afg‘onistonda Ismoil Gaspirali, Firqat, Ziyo Go‘kolp kabi jadidchilarga uchramaysiz.

Aruz vaznida she’r aytish an’anasi hozir ham davom etmoqda. Yevropa adabiy jarayonlaridan juda kam ta’sir olgan va g‘azal, muxammas, murabba va Layli va Majnun kabi mavzular hozir ham Afg‘oniston o‘zbek adabiyotining asosiy mavzularidandir. Hozir ham chg‘atoy adabiyotining vakillari bo‘lgan So’fi Olloyor va devon Mashrab o‘qiladi [shaxsiy kuzatishlar].

Hozirgi Afg‘oniston o‘zbeklaridan, O‘zbekiston she’r va adabiyoti bilan aloqada bo‘lgan inson juda ozdir. Afg‘onistonda, she’r va nasr bilan shug‘ulanadigan va adabiy asarlar yaratgan Afg‘oniston o‘zbeklari, o‘zlariga xos bir uslub yaratmay, ko‘proq chig‘atoy tili yozuvchilari va shoirlarining uslublarini o‘rnak olishga harakat qilganlar [Yorqin, 2009:25].

Xulosa

Afg‘oniston uzun muddat SSSRning ishg‘olida qolmasligi sabab, Rus tilining deyarli ta’sirida qolmay alifbolari o‘zgarmagan. Hozirgi Afg‘oniston o‘zbek tili, chig‘atoy tilining eng yaqin shevasidir. Bu sababdan Afg‘oniston o‘zbeklari; Alisher Navoiy, Bobur shoh, Shayboniy, Husayn Boyqaro va boshqalar, chig‘atoy adabiyotinig vakillari asarlarini osongina o‘qib tushuna oladilar. Shoirlar esa chig‘atoy adabiyotining bu buyuk ustodlaridan ta’sirlangan va ularning uslublaridan foydalanganlar.

Afg‘onistonda uzoq yillar davom tartgan urushlar, texnologiyaning rivojlanishini to‘siqlab, Afg‘oniston o‘zbek adabiytiga atrofdagi fikr va tushunchalarining kirib kelishi mumkin bo‘lmagan.

Hozir o‘zbek tili va adabiyoti, chig‘atoy tilining davomidir. Bu mavzu, turkologlar tarafidan tasdiqlangandir.

Bularning barchasi natijasida Alisher Navoiy, Bobur shoh, Shoh Mirzo, Latifiy va b. Chig‘atoy adabiyotining barcha usta va namoyandalari o‘z asarlari, hayotiy hikoyalari va nomlari bilan Afg‘oniston o‘zbeklari orasida yashab, nafaqat she’r va adabiyotga, balki kundalik hayotga, hatto siyosiy hayotga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Shu sabablarga ko‘ra, bu geografiyada o‘zbek tilida, chig‘atoy tilining deyarli

barcha xususiyatlari ko‘rinadi. Shu sababdan Afg‘oniston o‘zbek tili chig‘atoy tilini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amniyor, S. (2009). O‘zbek adabiyoti Tarixi. Javzijon. B- 178; 193.
2. Chetindog‘ Y. (2011). Alisher Navoiy. Istanbul: Manba’ kitobligi. B- 54; 67.
3. Eckmann, J. (2009). Chig‘atoy qo‘llanma kitobi. Istanbul: kesit nasharoti. B. 79.
4. G‘ubor, M. (2009). Afg‘oniston dar masiri torix (2-jild) Pishowar: Havra nasharoti. B-297.
5. Ilik, E. (2012). Afg‘oniston Javzijon hududidagi o‘zbek shoirlari. Istanbul. B- 221; 232.
6. Kuprulu, M. (2009). Turk adabiyoti tarixi. Istanbul Akchog‘ nasharoti. B-231.
7. Mallayev, N. (2013). Torixi adabyoti turkiy o‘zbekiy (4. Jild). Kobul.B-354.
8. Oqyuz, M. (2012). Geç dönem Çağatay adabiyatından Günümüze Afganistan Özbek Edebiyatı ve Faryab Edebi Muhiti. Istanbul. B- 121; 129.
9. Saroy, H. (2012). Afg‘oniston va turklar. Istanbul: kitabevi nasharoti. B-121.
10. Ug‘uz, E. (2009). Maqsad o‘lka Afg‘oniston. Istanbul: do‘g‘on kitob nasharoti. B- 34.
11. Ushanmaz, E. (2011). Modern o‘zbek adabiyoti. Uluslararasi Araştırmaları jurnali, 4, 4(19). B-5.
12. Yorqin. Sh. (2009). Ipak tolalari (Afg‘oniston o‘zbek ayol shoirlari). Pokiston. B- 25.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI IBORA HAMDA MAQOLLAR TARKIBIDAGI O‘LCHOV SO‘ZLAR TAHLILI

Umirzoqova Nozimabonu Aziz qizi
Stajor-o‘qituvchi, mustaqil tadqiqotchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston Milliy universiteti
E-mail nozi311azizjonovna@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108690

Annotatsiya. Lingvistik metrologiya tilshunoslikning yangi, istiqbolli sohalaridan biri hisoblanib, uni yaxshiroq anglash va tushunish uchun xalq og‘zaki ijodi namunalari, ibora va idiomatik birlikliklarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ushbu maqola orqali ingliz tilidagi o‘lchov so‘zlar va sonlar qatnashgan ibora va idiomatik birliklar tahlili beriladi, hamda u o’rinda ularni o‘zbek tiliga qiyoslash va ma’nolarini chuqurroq anglash ko‘zda tutiladi.

Kalit so’zlar: *Lingvistik metrologiya, o‘lchov, anthroposentrik o‘lchov birliklari, ibora, idiomatik birlik, xalq og‘zaki ijodi.*

Abstract. Linguistic metrology is considered as one of the new, promising fields of linguistics, and for its better understanding, it is appropriate to analyze examples of folk oral art, expressions and idiomatic units. This article provides an analysis of phrases and idiomatic units in English in which words and numbers are involved, and it is intended to compare them with the Uzbek language and gain a deeper understanding of their meaning.

Key words: *Linguistic metrology, measurement, anthropocentric measurement units, phrase, idiomatic unit, folk oral art.*

Lingvistik metrologiyani tilshunoslikning yangi sohasi sifatida aniqlash mumkin, chunki u o‘zining o‘rganish obyekti, maqsadi, tahlil qilish tartibi va metodologiyasi, o‘zgartirilgan terminologik apparatiga ega. Lingvistik metrologiyaning maqsadi aqliy va lingvistik ma’lumotlarning obyektiv voqelik bilan o‘zaro bog‘liqligini an’anaviy usul va asboblarning obyektiv o‘qishlari va turli tillarning leksik birliklarining mazmuni o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga integrativ yondashuvdan foydalangan holda o‘rganishdir. [Kulagina, 1991: 54] Shunday qilib, u turli tillardagi leksemalarning aniq ma’nosini aniqlash, ixtisoslashtirilgan lug‘atlarda bunday tadqiqotlarni amalga oshirish, analogli

qurilmalarni tanib olish, lingvistik-metrologik masshtabni – ham etnik mentalitetni aks ettiruvchi matritsani yaratish jarayonida metodologiyani kengaytiradi.

Ilm-fan tiliga oid zamonaviy asarlarda ilmiy nutqning kognitiv, kommunikativ, funksional jihatlari oldinga chiqadi. Matnni tashkil etishda ma’ruzachi qanday rol o‘ynashi mavzu, u qanday yo‘llar bilan o‘zini namoyon qiladi, qanday munosabatda bo'ladi nutq ishlab chiqarish jarayonida ongli va ongsiz holatda bo‘lishi, bularning barchasi muhim ahamiyatga ega. Xalq og‘zaki ijodi namunalari tarkibida ishlatilgan o‘lchov so‘zlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish davomida nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik jihatlar ham ko‘zga tashlanadi.

O‘lchov so‘zlarni, xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalari tarkibida qo‘llanilganlarini o‘rganish davomida eng ko‘p uchraydiganlardan biri bu inson tanasining qaysidir a’zolariga asoslangan o‘lchov so‘zlardir. Bu jarayon bir termin bilan ingliz tilida “Anthropocentrism” deb ataladi. Bunda eng katta e’tibor leksikaga, til tizimi, xususan, terminologiya tizimlariga beriladi. [Hebra Alex, 2003:138] Bu kabi birliklarni tarjima qilish, ma’nosini yaxshiroq anglash uchun esa maxsus lug‘atlar talab qilinadi. Bunga misol qilib, o‘zbek tilida “***ko‘z ko‘rar yer, bir qarich mato, quloq eshitar joy”*** kabilarni, ingliz tilida esa, “***from head to feet, at arm’s length, from top to toe, within/out of earshot, in the blink of an eye”*** kabilarni keltirish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, maqollar tarkibida qo‘llanilgan o‘lchov so‘zlarni tahlil qilish oraqli, chog‘ishtirilayotgan tillarda (o‘zbek va ingliz) ularning xususiyatlarini ham yaxshiroq anglash mumkin. Zero, maqollar xalq og‘zaki ijodining muhim va juda ham boy qismi hisoblanib, ular orqali o‘lchov so‘zlarni yanada yaxshiroq tushunish, tahlil qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Masalan, ingliz tilida ishlatildigan ***“fifteen minutes of fame”*** iborasi qisqa mashxurlik ma’nosini anglatsa, ***“six feet under”*** iborasi esa o‘lgan degan ma’noni anglatadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, ular ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan va bu kabi birliklarni uchratgan vaqtimiz ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish katta xato. Quyida bu kabi yana bazi misollarni keltiramiz: “***At the eleventh hour”*** – so‘nggi daqiqalarda (He made a decision at the eleventh hour – U oxirgi daqiqalarda qaror qabul qildi). “***Bat a thousand”*** – muvaffaqqiyatli urinish. “***Behind the eight-ball”*** – qiyin, muammoli vaziyat. “***Deep-six”*** – qutilish, xalos bo’lish. “***It takes two to tango”*** – biror vaziyatda ikki taraf ham birdek javobgar degan ma’noda ishlatiladi.

Shuni ta’kidlashimiz joizki, bu kabi birliklar nafaqat masofa, hajm, vaqt kabi o‘lchovlarni anglatuvchi so‘zlarni, balki, pul birliklari orqali ham ifodalanishi mumkin. [Lakoff, 1972: 220] Albatta, bu yerda u o’z ma’nosida emas, balki,

ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan: "***million-dollar question"*** – juda ham muhim savol; "***eight-hundred-pound gorilla"*** – daxshatli, o'tib bo'lmas to'siq; "***look like a million bucks"*** – ham jismoniy, ham ruhiy juda ham yaxshi holatda bo'lish; "***phony as a three-dollar bill"*** – soxta narsa ma'nosida ishlatiladi.

Qiyoslanayotgan tillarda o'lchov so'zlarni o'rganish davomida nafaqat maqollar, balki, idiomatik birliklarni ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Ular ham yuqorida ta'kidlangan sifatlarga ega bo'lib, bo'laklarga bo'lmasdan, butun holatda tarjima qilinadi va ular tarkibidagi so'zlar ko'p hollarda ko'chma ma'noda keladi. [Slizkova, 2010:107] Fikrlarimizning isboti o'laroq, ba'zi idiomatik birliklarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi:

"One-horse town" **–** bu ibora kichkina va kam sonli aholisi bo'lgan qishloq yoki shaharchani tasvirlash uchun ishlatiladi: I grew up in a one-house town. I moved away at the first chance I had;

"Two left feet" **–** qo'pol harakat qilish, muvozanatni saqlay olmaslik degan ma'nolarni anglatib, ko'p hollarda yomon raqqoslarni tasvirlash uchun ishlatiladi: Don't ask me to dance, I have two left feet;

"Two's company and three's a crowd" – biror joyga boorish uchun ikki kishi yetarli, uchinchi odam esa ortiqcha degan ma'noni anglatib, ko'p hollarda juftliklilar yolg'iz qolishni istaganda ishlatiladi: I don't think I'll come to the cinema with you and your girlfriend because two's company and three's a crowd;

"At sixes and sevens" – tartibsiz va qiyin vaziyat: The government were at sixes and sevens over what to do about the unemployment rate.

"Back to square one" **–** boshlanish nuqtasiga qaytish: The project failed, we're back to square one.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik metrologiya sohasini o'rganish davomida xalq og'zaki ijodi namunalariga, ibora va idiomatik birliklarga ko'p o'rinlarda murojaat qilinadi. Zotan, ingliz tilidagi yuqorida keltirilgan ibora va idiomatik birliklarni o'rganish, tahlil qilish hamda ularni o'zbek tiliga qiyoslash orqali bu kabi birliklarning o'zbek tilidagi muqobillarini topish va ma'nosini chuqurroq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hebra, Alex. Measure for Measure: The Story of Imperial, Metric, and Other Units. Baltimore: Johns Hopkins University Press. 2003, 137-140.
2. Kulagina O.S. Ob aspekte meri v lingvisticheskom znanii. Voprosi yazikoznaniya. 1991. 49-60.

3. Lakoff G. A study in meaning criteria in the logic of fuzzy concepts. Papers from the 8 Regional Meeting Chicago Linguistic Society. Chicago, April 14-16, 1972. 183-228.

4. Slizkova M. V. Teoreticheskie i prakticheskie aspekty lingvisticheskoj metrologii kak novogo nauchnogonapravlenija v lingvistike. Nauchnaja mysli Kavkaza. Rostov. 2010. 107-110.

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA SOTSIAL SEMALI SO‘ZLARNING STRUKTUR TASNIFI

Qobilova Mahbuba Mo‘minjonovna
DTPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
tayanch doktoranti.
qmahbuba95@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108695

Annotatsiya: O‘zbek leksikografiyasida turli sohaga oid lug‘atlar mavjud bo‘lib, ushbu maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida berilgan sotsial semali leksemalar olingan va bu so‘zlarga struktur tasnif berilgan.
Kalit so‘zlar: *termin, struktur tasnif, izohli lug‘at, sotsial sema, sodda termin, qo‘shma termin, juft termin.*

Abstract: Uzbek lexicography contains dictionaries of various fields. In this article, lexemes with a social meaning given in explanatory dictionaries of the Uzbek language are taken and these words are given a structural classification.
Key words: *term, structural classification, explanatory dictionary, social schema, simple term, compound term, double term.*

Umumiy xarakterga ega izohli lug‘atlarning yaratilish talablaridan biri shuki, unda til birliklari tildan foydalanuvchilarning ehtiyojini hisobga olgan holda – tabaqalashtirmasdan tanlab olinadi.

X.Narxodjayeva terminga xos quyidagi xususiyatlarni sanab ko‘rsatgan:

1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo‘lgan ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, so‘z yoki birikmadir;

2) termin – aniq narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta’rif (definisiya) zarurki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchadan birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda, ma’lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo‘l qo‘yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko‘rsatishi mumkin [Narxodjayeva X., 2013;11].

Lingvistik vositalar yordamida tilning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyot davrlarini belgilash leksiko-statistik yoki glottoxronologik metod sanaladi [Nurmonov A., 2010;61].

Quyida sosial semali so‘zlarga oid bo‘lgan (2 tomli va 6 jildli O‘TILda mavjud) terminlarning struktur xususiyatlariga ko‘ra statistik tasniflashga harakat qildik:

– sotsial semali leksemalarining umumiy miqdori;
– 2 va 6 jildli lug‘atlarda umumiy berilgan terminlar miqdori;
– 2 va 6 jildli lug‘atlarning bir-birida takrorlanmagan terminlar;
– sodda tub terminlar;
– hosil qilingan (sodda yasama) terminlar;
– qo‘shma terminlar;
– murakkab terminlar;
– juft terminlar;

Statistik tahlil orqali sotsial semali terminlar berilishining ikki davr uchun dinamik tavsifini terminlar va ularning illyusstrativ misollari orqali keltirib o‘tish mumkin.

O‘TIL-6 da sotsial semali terminlarning umumiy soni – 174 ta.

O‘TIL-2 da sotsial semali terminlarning umumiy soni – 154 ta.

2 va 6 jildli lug‘atlarda umumiy berilgan sotsial semali terminlari soni – 146 ta.

Ushbu izohli lug‘atlarning har ikkalasida ham berilgan terminlar quyidagilar: *ayol, ada, aka, amaki, amakivachcha, acha, abira, avag‘a, afifa, bachcha, beva, beka, bekach, bekvachcha, bibi, birodar, bobo, boboy, bobokalon, boja, boldiz, bolig‘a, bonu, buvak, buvi, bo‘z, bola, boyvuchcha, bo‘yqiz, bo‘la, bo‘roz, bacha, bachajish, bachchataloq, bola-baqra, bola-chaqa, buva, valad, volida, volidayn, go‘dak, dada, doyi, domod, ezna, esir, etim, etimvachcha, etim-esir, jiyan, joriya, juvon, jujuq, jezna, jigar, jigarband, jigargo‘sha, zavj, zavja, zaifa, zantaloq, zang‘ar, ichkuyov, ini, yigit, kampir, kaniz, kanizak, kelin, kelinoyi, kuyov, kundosh, kennoyi, malika, mankuha, moma, momo, mo‘ysafid, nabira, navara, navjuvon, nevara, nevara-chevara, ovsin, oyba, opa, ota, ojiza, oyi, ona, onaxon, opa-uka, opoqi, opog‘oyi, ota-ona, otaxon, og‘a-ini, og‘a, padar, pochcha, rafiq, rafiqa, sabiy, sag‘ir, singil, tag‘oyi, tog‘a, tog‘oyi, tul, xola, xolavachcha, xoloyi, xotin, xonim, chaqa, chaqaloq, chevara, chol, chol-kampir, shavhar, evara, egachi, ena, er, erkak, yazna, yanga, o‘g‘il, o‘g‘il-qiz, qayinbo‘yin, qayliq, qaynana, qaynata, qaynag‘a, qayni, qaynsingil, qaynegachi, qalliq, qariya, qiz, quda, quda-anda, qudag‘ay, quda-qudag‘ay, qari-qartang.*

2 va 6 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni:

– 6 jildli O‘TILda 25 ta;
– 2 tomli O‘TILda 10 ta.

Shuningdek, 6 jildli O‘TILda sotsial semali termin sifatida berilgan, ammo 2 tomli O‘TILda mavjud bo‘lmagan birliklar: *biyi, kelinbeka, kelinbola, kelin-kepchik, kuyovbola, kuyovto‘ra, kundoshvachcha, opa-singil, opacha, ona-bola, onaxotin, ota-bobo, ota-buva, otalash, qariqiz, qudaxola, qayinbeka, xotin-qizlar, etimcha, yigit-yalang, checha, avara, ajuz, ajuza, birodarzoda.*

2 tomli O‘TILda mavjud bo‘lgan, ammo 6 jildli O‘TILda mavjud bo‘lmagan sotsial semali terminlar: *akabachcha, bi, biy, evara-chevara, erkak-ayol, er-xotin, qaynini, qari-yosh, qari-quri, qiz-juvon.*

Sodda tub terminlar soni:

– 6 jildli O‘TILda 114 ta;

– 2 tomli O‘TILda 111 ta.

Hosil qilingan (sodda yasama) terminlar soni:

– 6 jildli O‘TILda 18 ta;

– 2 tomli O‘TILda 16 ta.

Qo‘shma terminlar soni:

– 6 jildli O‘TILda 35 ta;

– 2 tomli O‘TILda 27 ta.

Murakkab terminlar soni:

– 6 jildli O‘TILda 36 ta;

– 2 tomli O‘TILda 26 ta.

Juft terminlar soni:

– 6 jildli O‘TILda 20 ta; *quda-anda, bola-baqra, bola-chaqa, etim-esir, nevara-chevara, opa-uka, ota-ona, og‘a-ini, xotin-xalaj, chol-kampir, o‘g‘il-qiz, qari-qartang, quda-qudag‘ay, kelin-kepchik, opa-singil, ona-bola, ota-bobo, ota-buva, xotin-qizlar, yigit-yalang.*

– 2 tomli O‘TILda 19 ta: *quda-anda, bola-baqra, bola-chaqa, etim-esir, nevara-chevara, opa-uka, ota-ona, og‘a-ini, xotin-xalaj, chol-kampir, o‘g‘il-qiz, qari-qartang, quda-qudag‘ay, qiz-juvon, qari-quri, qari-yosh, er-xotin, erkak-ayol, evara-chevara.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, terminlar an’anaviy shakliy tuzilishga ko‘ra tasniflanish tamoyili asosida sodda, qo‘shma, murakkab, juft guruhlarga ajratilgan holda tasnif qilindi. Ikkala O‘TILda ham takror holda sotsial semaga oid terminlik maqomiga ega birlik mavjud emasligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нарходжаева Х. Жараён англатувчи терминларнинг ўзбек тилида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 2013.

2. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent, Akademnashr, 2010.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. – Москва, 1981

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 2023.

DIALEKTAL SINONIM FRAZEMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Islomova Shoira
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti,
shoiraislomova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108701

Annotatsiya. ushbu maqolada dialektal sinonim frazemalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, uslublararo qo‘llanilishi hamda qo‘llanilish nuqtayi nazaridan turlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *dialektal frazema, sinonimiya, stilistik jihat, uslubiy xususiyat, semantik tarkib.*

Abstract. this article discusses dialectal synonymous phrases, their specific features, inter-stylistic use, and types from the point of view of use.

Key words: *dialectal phrase, synonymy, stylistic aspect, stylistic feature, semantic content.*

Tilshunosligimizda frazeologik sinonimiya hodisasi yuzasidan ilmiy kuzatishlar olib borilgan, ularning o‘rganilishi, struktural xususiyatlari, grammatik tuzilishi izchil va asosli yoritilgan. Biroq ularning o‘ziga xos jihatlari umumxalq tili asosida o‘rganilmagan. O‘ziga xos ma’no va xususiyatlarga ega iboralar Qashqadaryo qipchoq shevasi leksikasida ham keng o‘rinni egallaydi.

“Frazeologik iboralarni semantik tomondangina o‘rganish bu fanning barcha xususiyatlarini aniqlash uchun imkon bermaydi. Shuning uchun frazeologik iboralarni semantik, grammatik, etimologik va stilistik jihatlardan tekshirish va klassifikatsiya qilish ma’qul” [Пинхасов,1969:55]. Frazeologiya sohasida iboralarning semantik, struktural, grammatik xususiyatlarini o‘rganish [Abjalova, 2021] qanchalik muhim bo‘lsa, ularning stilistik jihatlarini o‘rganish ham o‘rinlidir. Chunki tilimizdagi ko‘pgina iboralar uslubiy bo‘yoqdorlikka ega. Bu esa ba’zi iboralarning uslublararo qo‘llanilish xususiyatiga ega emasligini ko‘rsatadi. “Frazeologizmlar o‘z sinonimlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, birinchidan, ma’noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega” [Hojiyev,1981:180].

Har bir uslubning o‘ziga xos leksemasi, frazemasi va grmmatik formasi mavjud bo‘lib, ularning uslublararo qo‘llanilishi ham xilma-xildir. Jumladan, sheva leksikasida o‘lmoq, umri yakunlanmoq ma’nolarini *vafot etmoq, bandachilik*

qilmoq, chin dunyoga ketmoq, ko‘pga qo‘shilmoq, ketib qo‘ymoq, o‘tib qolmoq, nurab ketmoq, nafoit bo‘lmoq, nobut bo‘lmoq, omin bo‘lmoq singari bir sinonimik uyaga mansub bo‘lgan sinonim iboralar bilan ifodalash mumkin. *Vafot etmoq* iborasi uslubiy jihatdan neytral xususiyatga ega bo‘lib, ilmiy uslubda ko‘proq qo‘llansa, *bandachilik qilmoq (bandalikni bajo keltirmoq)* iborasi esa nisbatan kam va asosan badiiy nutq uslubida namoyon bo‘ladi. *Chin dunyoga ketmoq, ketib qo‘ymoq, nurab ketmoq* iboralari esa oddiy so‘zlashuv nutqining faol birligi sanaladi. Oddiy so‘zlashuvda mavjud bo‘lgan sinonim iboralarni qo‘llanilish nuqtayi nazaridan bir necha turlarga ajratamiz.

Yoshga nisbatan; keksa kishi olamdan o‘tsa “ko‘pga qo‘shilmoq”iborasi, yosh bolaga nisbatan “nobut bo‘lmoq”iborasi qo‘llaniladi.

Nutq vaziyatidan kelib chiqib; kasallik tufayli o‘lim topgan kishiga “odam bo‘lmabdi”, to‘satdan olamdan o‘tgan kishiga nisbatan “ketib qo‘ymoq”iborasi aytiladi.

Kimga va nimaga nisbatan aytilishiga qarab; shaxsga nisbatan “nurab ketmoq”, hayvonga nisbatan “xarom qotmoq”, parrandaga nisbatan “qotib qolmoq”iboralari qo‘llaniladi.

Ko‘rinadiki, qayd qilingan sinonim frazemalar o‘ziga xos uslubiy ma’noga va qo‘llanilish xususiyatiga ega.

Keltirilgan sinonim frazeologizmlarning ma’nosini talqin qilishda baholash xususiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash biror tushuncha, shaxs hamda voqeaga nisbatan ijobiy yoki salbiy tavsif berishdir. *Katta bojamning yenasi nafoit bo‘pti. Shunga vo‘tip kelyappiz. (Y.Yorqulov, 55 yosh, Qamashi) Qishloqding uchiga chiqqan vo‘g‘risidan qutildiq. Kecha omin bo‘pti. (M.Hayitova, 52 yosh, Ko‘kdala)* Keltirilgan gapdagi *nafoit bo‘lmoq* iborasi ijobiy ma’no ottenkasiga ega bo‘lsa, *omin bo‘lmoq* birligida esa salbiy ma’no bo‘yog‘i namoyon bo‘ladi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi frazemalar qaysi uslubda, qanday vaziyatda, kimga nisbatan hamda baholash xususiyatlari kabi jihatlari bilan ham farqlilik kasb etib turadi.

“Frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish tilni o‘rganishning bir qismi hisoblanib, u tilning normasini belgilashga ko‘mak beradi”[Маматов, Болтаева, 2018:34]. Bir uyaga mansub sinonim frazeologizmlarning stilistik bo‘yoqdorlik darajasi ham turlicha bo‘ladi. Ulardagi bo‘yoqdorlik ba’zan teng qiymatda, ba’zan bir -biridan obrazlilik darajasi bilan ham farqlanadi. Masalan, uddaburon, abjir ma’nosida qo‘llaniluvchi *bozor ko‘rgan echki, burganing ko‘zini ko‘rgan, Alining qilichi, olg‘ir tulki, o‘qimay savod chiqargan* singari iboralarda

uslubiy bo‘yoqdorlik darajasi bir xil bo‘lsa, oriq, ozg‘inlikni ifodalovchi *yeti qochgan, non tiymay qolgan, iyna jegan itday, suyagi yetiga jobishqan, qoq suyak, faqat ko‘z qolgan* iboralarida esa stilistik bo‘yoqdorlik turlichadir. Ozish jarayonining boshlanishida *yeti qochgan* frazemasi, ozg‘in holatni ifodalashda *yeti suyagiga jobishgan* frazemasi, juda ozg‘inlikni ifodalashda esa *qoq suyak* frazemalari qo‘llaniladi. Bunda so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib iboradan foydalanadi.

“Frazeologizmlar voqea-hodisa, belgilarning inson ongida kuchli ta’sir qilish, shu kuchli ta’sir natijasini nutqda to‘laligicha, borligicha ifodalash-umuman fikrning ta’sirchanligiga erishish maqsadi zaminida yaratilgan til hodisasidir” [Abdullayev, 1983:41].“Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasi majoziy ma’noda qo‘llanuvchi obrazli iboralar bo‘lib, ular muallif nutqining rang-barang, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi, personaj nutqiga tavsif berishda eng samarali vositalardan hisoblanadi” [Вофоева, 2009:85].

Frazeologik tizimda sinonim frazeologizmlar turli mazmun shodlik, qayg‘u, nafrat, qarg‘ish, erkalash, kabi ma’no noziklikklarini ifodalash bilan birga, kishilarga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham namoyon qiladi. Masalan, *burni osmonda, dami baland, dimog‘i dim sasigan, baland oxirdan jem jegan, tumshug‘i baland, ko‘zi osmonga pitib qolgan, dimog‘idan gapirmoq* kabi sinonim frazemalar kibrli, manman singari ma’no ottenkalariga; *dasturxoni och, ko‘rasi ko‘rmagan, is bilmas, insobini it jegan* sinonim frazemalari esa ochko‘z, insofsiz; *bo‘yni bo‘sh, latta kesmas, tiri vo‘lik, ovzining suvi bo‘sh* sinonim frazemalari landavr, lapashang; *suyagi jengil, oyog‘i jo‘rg‘am, tobonidan vo‘t chaqnamoq* sinonim frazemalari chaqqon, abjil; *tulibini chilqillatmaydi, chorbisini eritmaydi, beliga tosh tiygan, bersang yeyman, ursang o‘laman* sinonim frazemalari ishyoqmas, donkosa; *orasiga qil sig‘mas, osh-qatiq bo‘lmoq, et bilan tirnoq, ichak choboq bo‘lmoq, bir toboq bo‘lmoq* sinonim frazemalari ahil-inoq, totuv munosabatli; *maymun bashara, muz urganday, pitlagan tulkiday, kal bashara* sinonim frazemalari ko‘rimsiz, xunuk; *burnidan jip vo‘tkazmoq, yo‘rig‘iga solmoq, boshiga chiqib olmoq* sinonim frazemalari o‘zganing inon-ixtiyorini egallab olgan; *xudoning ko‘rimi, tuyoq bosh, tuyog‘i tortgan* sinonim frazemalari sho‘x, to‘polonchi; *beti bezday, beti qattiq, beti jo‘q* sinonim frazemalari esa uyatsiz, surbet kabi ma’no noziklikklariga ega. Ko‘rinadiki, kishilarga xos jihatlarning hammasi iboralarda o‘z aksini topadi hamda frazeologik sinonimlar ma’no xususiyatlari bilan birga nutqda ma’lum bir uslubiy vazifani bajarib keladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Qashqadaryo qipchoq shevasi frazeologizmlarida sinonimlik hodisasi o‘ziga xos ma’noviy umumiylik va farqlilikka ega. Sheva vakillari nutqida turli ma’no ottenkalariga ega, uslubiy bo‘yoqdorligi bilan o‘zaro alohidalik kasb etuvchi sinonim iboralar miqdori ancha. Sheva leksikasida bitta sinonimik qatorga o‘nga yaqin ibora birlashish holatlari kuzatiladi. Bu esa sheva leksikasining boy ekanligidan dalolatdir. Har bir ibora ma’no tarkibidagi alohida belgi-xususiyatiga ko‘ra alohidalikka ega bo‘ladi. Sinonimik munosabatli iboralarni o‘zaro yoki so‘zlar bilan munosabatini tekshirish orqali muhim natija va xulosalarni qo‘lga kiritish imkoniyati mavjud. Sheva leksikasiga mansub bo‘lgan har bir iborani sheva nutqidan yozib olish, to‘plash, leksik-semantik belgi-xususiyatlarini ilmiy o‘rganish hamda iboralar lug‘atini yaratish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 41.

2. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили . Фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б. 180.

3. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент, 2018. – Б. 34.

4. Пинхасов. Ҳозирги ўзбек адабий тили.−Тошкент, “Ўқитувчи”, 1969. Б. 55.

5. Вофоева Мухайё Йўдошевна. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг струстурал-семантик таҳлили. − Тошкент, 2009. − Б. 85.

6. Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O‘zbek tilidagi sinonimlarning o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2023. – 810 b.

7. Abjalova M. Lug‘at tuzish tajribasi asosida sinonimlar klassifikatsiyasi. Bildiri özetleri kitabi. VII. Uluslararasi türklerin dünyasi sosyal bilimler sempozyumu. 02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA. – S. 119-120. ISBN: 978-625-00-8481-6.

8. Abjalova M. O‘zbek tilidagi sinonimlar tasnifi. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, oktabr, 2023. – B. 352-361.

9. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.

O‘ZBEK TILINING QIPCHOQ SHEVASI VAKILLARI NUTQIDA SINGARMONIZM

Isayeva Madina Ravshan qizi
ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi
madinaisayeva684@gmail.com
xadicharayimova82@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108710

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida, xususan uning qipchoq shevasida turkiy tillar uchun xos bo‘lgan singarmonizm hodisasi qay darajada saqlanib qolganligi ustida kichik izlanish borilgan. Shuningdek, maqolada singarmonizm hodisasining sustlashish sabablari va ushbu mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlar bo‘yicha tahlil olib borilgan.

Kalit so‘zlar: *Agglyutinativ, labial, palatal, singarmonizm, transkripsiya, fonetik hodisa.*

Abstract. In this article, a small research was conducted on the extent to which the phenomenon of synharmonism characteristic of Turkic languages has been preserved in the modern Uzbek literary language, in particular in its Kipchak dialect. The article also analyzes the reasons for the weakening of the phenomenon of synharmonism and the scientific works conducted on this topic.

Keywords: *agglutinative, labial, palatine,synharmonism, transcription, phonetic phenomenon.*

Kirish. Tilimizda bu hodisa yo‘q, yoki qisman saqlanib qolgan degan fikrlarni biz ko‘p eshitganmiz. Buning asosiy sabablaridan qilib, biz tarixan tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelganimiz va bu tildan anchagina so‘zlar tilimizga kirib kelgani, shuningdek necha asrlik yozma yodgorliklar arab tilida bitilganini, oqibatda qanchadan-qancha so‘zlarimiz arab tilidan o‘zlashganini, ustiga ustak bizning bugungi grammatikamiz rus olimlari tomonidan qoliplashtirib berilganini keltiramiz.

Turkiy tillar agglyutinativ til ekanligini va ularda singarmonizm hodisasi mavjudligini inobatga olgan holda, o‘zbek tilida bu hodisa mavjud emas deb rad qilish mumkinmi? Yuqorida sanab o‘tgan sabablarga ko‘ra tilimizda singarmonizm hodisasi bir muncha susaygan, biroq butunlay bu hodisani yo‘q deb ayta olmaymiz. Chunki o‘zbek tili ko‘p shevaliligini hisobga olgan holda, biz bu hodisani garchi adabiy tilimizda uchratishimiz mushkulroq bo‘lsa-da, shevalarda singarmonizmning yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan holatlari ham uchraydi. Men ushbu mustaqil

ishimda qipchoq shevasi (Xatirchi tumani) da ushbu hodisaning qay darajada kuchda ekanligini tahlil qildim.

Bugungi kungacha bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan kishilar qatorida dastavval, rus olimi Polivanovni aytish lozim. U o‘zining “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida (1933-y.) tilimiz bo‘yicha ancha qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Shuningdek, filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning “O‘zbek dialektologiyasi” kitobi, professor Yoqub Saidovning “O‘zbek adabiy tili tarixi” o‘quv qo‘llanmasi, adabiyotshunos, olim, publisist, filologiya fanlari nomzodi Zuhriddin Isomiddinovning “O‘zbek tilining ayrim xususiyatlari haqida” va “O‘zbek tilining bir xossasi haqida” kabi maqolalarida o‘zbek tili va uning xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Yana o‘tgan asrning birinchi yarmidagi tilshunoslik sohasiga o‘z hissalarini qo‘shgan olimlardan Ashurali Zohiriyning ham “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 31-mart 73-sonida chiqqan maqolasida singarmonizm hodisasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi:

“SINGARMUNIZM TO‘G‘RISIDA"

Singarmunizm turk-totor tilining tabiiy tiligidur. Lekin zomonning o‘tishi, jo‘g‘rofi(y) ahvollarning o‘zgarishi, bir qavmning boshqalar bilan aralashishi va ularning tillarining ta'siri orqasida bu xususiyat turk lahjalarining bir xillarida yo‘qola borg‘on (ozorbayjon, anqara turklarida). Bu xususiyatni saqlab qolg‘onlar: qozoq, qirg‘iz, nug‘oy, boshqirt, totor, turkman va o‘zbaklardur. Bizda sigarmo‘nizm yuz foiz bo‘lg‘usidir. Tilimizga aralashg‘on ajnabiy so‘zlarni ham o‘z qoidamiz (singarmunizm)g‘a buyin sundiramiz. Bundan bo‘yin tovlaydurg‘onlari o‘rnig‘a o‘z tilimizdan so‘zlar topishg‘a harakat qilamiz. g‘ijjak, g‘altak, g‘ildirak, pildiroq, yo‘lak (bu so‘zlarning «yo‘lak»dan boshqasi o‘zbekcha bilan forsiycha o‘rtasida o‘rtoq so‘zlar bo‘lib, «yo‘lak» va ularning ham oxirlaridag‘i «ak», «oq» qo‘shimchalari tom forsiychadur. Bularni singarmunizmga tobe qilsaq, «g‘ijjaq, g‘altaq, pildirak, g‘ildiroq, yo‘loq» bo‘lib xalq onglamaydurg‘on nusxag‘a kirib ketish ehtimoli bor. Shuning uchun bundoqlarni mustasno qilamiz. Bundoq mustasno bo‘lg‘uchilar tilimizda ko‘pchilikni tashkil etmaydirlar) singari o‘zlashgan forsiy so‘zlari (yoki forsiycha qo‘shimcha qo‘shilgan so‘zlar)ni o‘zgartmasdan singarmunizm qoidasidan mustasno qilamiz. Singarmunizm masalasini biz shu ravishda hal qilamiz.

Men yuqorida keltirgan manbaalarga tayangan holda qipchoq shevasida singarmonizm hodisasi yuzasidan kichik bir tadqiqot o‘tkazdim.

METOD. Ushbu tadqiqotim uchun avvalo o‘z tumanim (Xatirchi tumani) ning bir vakili bilan suhbat qilishni rejalashtirdim.

Men tadqiqot olib borgan hudud vakili - Rayimova Xadicha Hikmatullayevna – 55 yosh. Xatirchi tumani Tasmachi qishlog‘ida tug‘ilgan va shu hududda yashab kelmoqda.

Tadqiqot uchun Xadicha ayadan kichik bir hayotiy voqea tingladim. Uni diktafonga yozib oldim.

NATIJA. Yozib olingan hikoyada 174 ta so‘z qatnashgan. Ushbu matn transkripsiyada berildi. Shuningdek shevaga xos bo‘lgan maxsus so‘zlar qizilda ajratib berildi.

“Sel”

Bir jili qïšlaqqa, mänši sājgä šündüj sel kelüvdi. Äńčä töpālän böp ketüvdi. Bizär öšändä üjdä enäm, āpäm, mem bilän kičkinä ükäm bāridik. Öšändä ükäm häli jāšigäjäm tölmägänidi. Ātäm üjdä joqligi üčün enäm nimä qïlarini bilmij qorqïp qāluvdi. Qïšlāqdä ādämlär hämmä jäqqä ketüvdi. Kïmdïr däštägi āγïjïnisinikiga, kimdir birāv bāšqa jaqqa. Närsälärini tiličkälärgä ārtvāp köčip ketkänläräm bögän. Soγin kätenäm vāhimä qip bizärdi čäqïrvāldi. Enäm kätenämlärdikigä ābārdi. Soγin ujaγdäjäm qorqïb ötirdik. Ātäm bösä keläγäjmädi.

Bir pillä soγïn ātäm kep qāldï. Kätenäm ātämdi körip, “vāj bäläm-e, kep qāldiŋmi” dep ātämdi āldigä čāvip čiqdi. Jürägi jārilip ketti özijäm. Ātäm säjnäqqa qandïj sel kegänini, bähärkärdä iškä čïqqanlar seldän ötälmij qop ketkänini äjtib berdi. Ātämlär sel kämäjišini kütib ötiripti. Lekin jāmān süv böpti-dä öšändä. Āxïrgï on jildän beri häli säjnäγïmizgä bündij süv kemägänidi. Bü kökläm jāγïngarčïlïk köp böldi-dä özi. Mirdāš, Ǯizmān degän jerlärdän čöpānlärdi qöjlärini, māllärinijäm sel āqizip keldi. Nima bögändäjäm Xudā äsrädi, sel sājdän kämäjib kejin ātämlär ötvāgän bir bälā qip. Šündij qïp hämmä ādämlär üjigä qajttï. Bizäräm kätenämläkidän bir päs ötirip hängämä qip üjimizgä kettik. Kätenäm üzün düvālär qïldi.

MUHOKAMA. Unli tovushlarni ifodalashda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar:

- a- orqa qator, quyi keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Umumturkiy. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida qo‘llanadi (“j” lovchi shevalarda)
- ä- old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Aksariyat turkiy tillarda qo‘llanadi. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi.

- e- old qator, o‘rta keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi.
- i- old qator, yuqori tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud.
- ï- orqa qator, yuqori tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.
- ü- old qator, yuqori tor, lablangan unlini ifoda qiladi.
- u- orqa qator, yuqori tor, lablangan unlini ifoda qiladi.
- ö- old qator, o‘rta keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmli o‘zbek shevalarida uchhraydi.
- o- orqa qator, o‘rta keng, lablangan unlini ifoda qiladi.
- ā- orqa qator, quyi keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda qo‘llaniladi.
- ϵ- Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi. U ä va e unlilariga ancha yaqin turadigan unlini ifoda qiladi.

Undosh tovushlarda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar:

- j- lotin alifbosidagi “y” undoshini ifodalaydi.
- ŋ- lotin alifbosidagi “ng” undoshini ifodalaydi.
- ǯ- lotin alifbosidagi “j” o‘rnida.
- š- lotin alifbosidagi “sh” o‘rnida.
- č- lotin alifbosidagi “ch” o‘rnida.
- γ- lotin alifbosidagi “g‘ ” o‘rnida.

Shevaga xos lug‘atlar:

Šündüj- shunaqangi
Enä- ona, aya
Ātä- ota, dada
Āγïjïn-qarindosh
Soγin-keyin
Kätenä-buvi, momo
Keläγäjmädi- kela qolmadi
Bir pillä-bir payt
Säjnäq-soy bo‘yi
Bähärkär-ishga chiqiladigan maydon
Mirdāš, ǯizmān-joy nomlari
Hängämä- gaplashmoq, chaqchaqlashmoq

Tilshunos I. A. Bogoroditskiyning fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligidir, lekin qisman undoshlarga ham taalluqli. Singarmonizm qonuni 2 xil ko‘rinishiga ega:

1. Palatal singarmonizm

Bu qonuniyatga ko‘ra so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi. So‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa , keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator unlilar keladi.

Qïšlaqqa
Öšändä
Kičkinä
Kätenämlärdikigä
Närsälärini
Jürägi
Bähärkärdä
Kämäjišini
Bizäräm
Hängämä

2. Labial singarmonizm.

Bu qonuniyatga ko‘ra, so‘zning birinchi bo‘g‘inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator lablangan unli qatnashadi. Aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi.

Šündüj
Üzün

Ayrim yuklamalar, qo‘shimchalar singarmonizmga bo‘ysunmasligi mumkin. Masalan: yuqoridagi matnda keltirilgan keläγäjmädi- kela qolmadi kabi. - g‘ay affiksining variant bo‘lmaganligi uchun u singarmonizmga bo‘ysunmaydi .

Quyida matnda uchragan ba’zi fonetik hodisalarni misol tariqasida keltirib o‘taman:

Umlaut.

Bu qonuniyatga ko‘ra, affiksdagi old qator unli asosdagi orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslab oladi:

Säjnäγ = soy+nag‘

Sandhi.

Bunda yonma-yon kelgan ikki so‘zning birinchisi oxiridagi undosh keyingi so‘zning tovushiga moslashadi:

mem bilän (men bilan)

Spirantizatsiya.

Portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi:

Čäqïrvāldi – chaqir(ib) oldi

XULOSA. Ushbu mustaqil ishimizdan erishilgan natija juda kichik bo‘lishiga qaramasdan, biz o‘zimiz uchun oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erishdik. Qipchoq shevasiga tegishli bo‘lgan Xatirchi tumanining bir vakili tilidan aytilgan voqelik singarmonizm hodisasi ushbu shevada qay darajada faol ekanini ko‘rsatdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, adabiy tilda, to‘g‘irog‘i, alifbomizda 6 ta unli bor degani, bu so‘zlashuvda ham xuddi shunday degani emas. Nutqda ishlatiladigan hamma fonemalarni ham yozuvdagi harflar ifoda eta olmaydi. Chunki nutqni cheklab bo‘lmaydi. Ayniqsa u singarmonizmli turkiy til vakilining nutqi bo‘lsa.

Taqdqiqot natijasida ushbu shevada 8 ta unli fonema mavjudligini guvohi bo‘ldim: ä, a, i, ï, o, u, e, ā. Shu qarashga binoan berilgan matnda jami 174 ta so‘z mavjud bo‘lsa, men tadqiqot davomida uning 99 tasida singarmonizm hodisasini uchratdim. Bu foiz hisobida 56.8 % ni ko‘rsatdi.

Garchi matn keng qamrovli bo‘lmasa-da, unda mavjud 174 so‘zning 99 tasi taqriban 57 % ni ko‘rsatmoqda. Bundan xulosa shuki, Xatirchi tumani shevasida singarmonizm hodisasi hali anchayin ko‘zga ko‘rinarli darajada mavjud.

Yuqorida sanab o‘tilgan kishilarning ilmiy qarashlari va ularning tadqiqotimizga qay darajada mos ekanligiga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Samixon Ashirboyev singarmonizmni saqlagan qipchoq shevalarida 11 ta unli bor deb keltirgan, ammo tadqiqot olib borilgan hududda 8 ta unli aniqlandi. Bu kitobda olimning fikrlari albatta ma’lum bir kichik hududga tegishli emasligi bois to‘liq mos kelmadi. Yana olim qipchoq shevalariga xos fonetik qonuniyatlarni sanab o‘tganlaridek, keltirgan matnimizda ulardan umlaut, sandhi, spirantizatsiya hodisalari kuzatildi. Undan tashqari kela qol, bora qol kabi so‘zlarda qol ni -g‘ay affiksi tarzida qo‘llanilishini kuzatdik.

Otabek Umarovning ayni adabiy tilimizda palatal singarmonizm faolroq degan fikrlari ham matnda o‘z isbotini topdi. Singarmonizm kuzatilgan 99 ta so‘zning 95 tasida palatal, 4 tasida esa labial singarmonizm kuzatildi. Shunda tadqiqotda kuzatilgan labial singarmonizm atigi 4 % ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi – Toshkent: 2013.
2. Isomiddinov, Z. 2010,O‘zbek tilining ayrim xususiyatlari haqida, Toshkent. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 4-son.
3. Isomiddinov, Z. 2009,O‘zbek tilining bir xossasi haqida, Toshkent. Til va adabiyot ta’limi jurnali,9-son.
4. Saidov, Y. O‘zbek adabiy tili tarixi – Buxoro: Durdona nashriyoti: 2019.
5. Tog‘ayev, T. 2004, Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi, Toshkent.
6. Umarov, O. 2021, Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm va uning ayrim ko‘rinishlari, Toshkent. “Kamolot sari” iqtidorli talabalar ilmiy to‘plami, 19-son.

II SHU’BA. PSIXOLINGVISTIKA

O‘ZBEK TILIDAGI BROKA AFAZIYASIDA FE’LLAR BILAN BOG‘LIQ QIYINCHILIKLARNING NAMOYON BO‘LISHI

Azimova Iroda Alisherovna
iazimova@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrasi mudiri
Dotsent, filol.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108521

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi broka afaziyasida fe’llarning ifodalanishi spontan nutq, rasmdagi narsa va harakatning nomini aytish, zamon shakllarini ifodalash kabi tajriba natijalari umumlashtirib tahlil qilinadi. Tajribalarda broka afaziyasiga chalingan jami 11 kishi ishtirok etgan. Tahlillar natijasida o‘zbek tilidagi broka afaziyasida ot va fe’l dissotsiatsiyasi yo‘qligi, buning asosida o‘zbek tilining agglyutinativ til sifatida grammatik ma’noning qo‘shimchalar orqali ifodalash xususiyati yotishi aytiladi. Biroq fe’llarning otlarga nisbatan murakkab ekanligini ko‘makchi fe’llarning, fe’l funksional shakllarining, fe’ldagi ayrim zamon shakllarining izdan chiqqanida namoyon bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: *broka afaziyasi, ot, fe’l, sifatdosh, ravishdosh, ko ‘makchi fe’l, tajriba, neyrolingvistika.*

Abstract. The article analyzed impaired verb production in Uzbek Broca’s aphasia through the results of three different experiments: spontaneous speech analysis, object and action naming, production of tense and aspect. In total, 11 brain-damaged individuals’ language performance analyzed. Even though results showed absence of noun-verb dissociation in Uzbek Broca’s aphasia, difficulty of verb processing is reflected in deficit in use of copula, actionality constructions, and participles. We concluded that this difficulty is mostly related to argument structure and predicativity of verbs.

Keywords: *Broca’s aphasia, noun, verb, participle, adverbial participle, modal verb, experiment, neurolinguistics.*

Afaziyaga chalingan kishilar otlarga nisbatan fe’llarni aytish, tushunishda, shuningdek, fe’llarga oid ma’lum grammatik kategoriyalar ifodasida ko‘proq

qiyinchilikka duch kelishi kuzatiladi. O‘tgan asrning 70-yillaridan buyon ot va fe’l dissotsiatsiyasi qator tadqiqotlarning mavzusi bo‘lib keldi.
Xolms, Marshall va Nyukomb (1971) disleksik bemor fe'llarga qaraganda otlarni sezilarli darajada yaxshi o‘qiy olganini kuzatganlar va bu ot va fe’l masalasiga diqqat tortgan birinchi tadqiqot bo‘lgan. Undan keyin bir qator tadqiqotlar boshqa lingvokognitiv amallarda ham ot va fe’l dissotsiatsiyasini qayd etdi: diktant yozish [Rapp, Caramazza, 2002], rasmni og‘zaki nomlash [Zingeser, Berndt, 1988], rasmni yozma nomlash [Caramazza, Hillis, 1991] so‘zlarni rasmga moslashtirish [Hillis, Caramazza, 1995] spontan nutq [Bastiaanse, Jonkers, 1998].

Miyadagi jarohatlar tadqiq qilinganda fe’llar va otlar inson ongida funksional jihatdan mustaqil va alohida holda akslanadi degan xulosaga olib keldi. Shu asosda bir qancha tadqiqotlar fe’llar va otlar uchun aniq nerv substratlarini topishga harakat qilgan. Biroq bu gipotezani neyrotasvir texnikasi bilan isbotlashga urinishlar muvaffaqiyat qozonmagan. Izlanishlar ot va fe'llarni solishtirganda miyada faollashgan sohalar va faollik darajasi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatgan bo'lsa ham, ot va fe’llar uchun alohida neyronlar tarmog‘i ishlaydi degan gipotezani isbotlay olmadi. Ba’zi tadqiqotlar fe'llar uchun miya po‘stlog‘i tepa qismining chap pastki burmachasi otlarga qaraganda ko‘proq faollashganini kuzatgan [Tyler, Russell, Fadili, Moss, 2004], boshqalari chap miya yarimshari po‘stlog‘idagi peshona qismining pastki burmachasi va tepa qismi o‘rta burmachasi otlarga qaraganda ko‘proq faollashganligini aniqlagan [Perani, Cappa, , Schnur, Tettamanti, Collina, Rosa, Fazio, 1999]. Shu bilan birga, fe’llar va otlar uchun alohida sohalarni aniqlay olmagan bir qator tadqiqotlar mavjud [Tyler, RRussell, Fadili, Moss, 2001; Li, Jin, Tan, 2004]. Crepaldi, Berlingeri, Paulesu, & Luzzatti [2011] grammatik sinfning ta’siri bo'yicha neyrokognitiv ma’lumotlarni ko‘rib chiqib, ot va fe’lni qayta ishlash asosidagi neyron tarmoqlar ko‘p jihatdan bir-biriga mos keladi degan xulosaga kelgan.

Nisbatan yangi tadqiqot hisoblangan R.Alyahya, A. Xalay, P.Konroy, M.Lambonlar ot va fe'lning aytilishi va tushunilishini tadqiq qilganlar [Alyahya, Halai, Conroy, Lambon Ralph, 2018]. Bu tadqiqotda 48ta afaziyaga chalingan bemor ishtirok etgan. Tajriba uchun tanlab olingan so‘zlarning bari psixolingvistik omillar nuqtayi nazaridan nazorat qilingan. Xususan, qo‘llanish chastotasi, tasavvur qilinish darajasi, o‘zlashtiriladigan yosh, so‘z uzunligi va tasvirning vizual murakkabligi kabi jihatlarning ta’siri hisobga olingan. Tadqiqot afaziyaga chalingan kishilarning til bo‘yicha turli vazifalarni bajarishdagi natijalari hamda bu jarayonda ularning miyasida faollashgan sohalarni tahlil qilish orqali amalga oshirilgan.

Tadqiqot xulosasida neyrolingvistikada shu vaqtgacha kuzatilgan ot va fe'l dissosiasiyasi psixolingvistik belgilarga yetarlicha diqqat qaratilmagani uchun namoyon bo‘lganligi, aslida esa turkumlarning qayta ishlanishida shu vaqtgacha da'vo qilib kelingan jiddiy kognitiv farq yo‘qligi ta'kidlangan. Ammo baribir fe’llar bilan bog‘liq amallarda miyaning nisbatan ko‘proq qismlari faollashishi aniqlangan. R. Li va S.Kiran afaziyaga chalingan bilingvlarning (ingliz-mandarin tillari) ot va fe’lni ayta olishi alohida so‘z va diskurs misolida tadqiq qilganlar. Unda birinchi tilga nisbatan ikkinchi tilda so‘z turkumining ta’siri kuchliroq ekanligi aniqlangan, otlarning fe’llarga nisbatan yaxshiroq aytilishi qayd etilgan, shuningdek, afaziyaning darajasi kuchli darajasida bu farq yana ham sezilarli bo‘lgan [Lee, Kiran, 2024].

Tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, ot va fe’l dissotsiatsiyasi neyrolingvistika va afaziologiyaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilidagi broka afaziyasi misolida ushbu masalaga e’tibor qaratilganda umumiy holatda ot va fe’l dissotsiatsiyasi aniqlanmagan. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi Broka afaziyasida fe’llar bilan bog‘liq qiyinchiliklar nimadan iboratligiga to‘xtalamiz va ularni izohlashga harakat qilamiz.

Metod. Mazkur maqola o‘zbek tilidagi broka afaziyasidagi spontan nutq tahlili, ot va fe’lni rasmga qarab aytish, fe’l zamonlarini aytish bo‘yicha qilingan tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirib tahlil qiladi [Азимова, 2020, Азимова, 2021, Azimova 2023a, Azimova 2023b]. Aytib o‘tilgan tajribalarda jami 11ta afaziyaga chalingan kishi ishtirok etgan. Ularning uchtasi tajribalarning hammasida qatnashgan. Nazorat guruhida sog‘lom ishtirokchilar 7-10tani tashkil etadi.

Natijalar. O‘zbek tilidagi broka afaziyasida spontan nutqda, ot va fe’lni alohida so‘z sifatida aytishda ot va fe’llar o‘rtasida juda kichik farq mavjud. Bu farq statistik jihatdan ahamiyatli miqdorda bo‘lmaganligi uchun o‘zbek tilidagi broka afaziyasida ot va fe’l dissotsiatsiyasi yo‘q deb xulosa qilishga asos bo‘ladi. Biroq spontan nutq tadqiqida fe’llar bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘makchi fe’llar, bog‘lama va ayrim funksional shakllarning qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. Xususan, afaziyaga chalingan ishtirokchilarning ikkitasida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi, holat ravishdoshi va sifatdosh umuman qo‘llanmagan. Bog‘lama esa sog‘lom ishtirokchilarnikiga nisbatan ikki baravar kam qo‘llangan.

1-jadval. Spontan nutqqa oid morfologik ko‘rsatkichlar [Azimova, 2023a].

Afaziyaga chalinganlar	Sog‘lom ishtirokchilar

	NK	MO	NR	ZR	O‘rtacha qiymat	Ko‘rsatkichlar intervali	O‘rtacha qiymat
Otlar	57	68	53	60	59.5	36-80	53.2
Ot-leksemalar	42	48	45	42	44.25	29-61	44.2
fe’llar	39	32	57	67	48.75	25-59	46.5
fe’l-leksemalar	17	26	30	37	27.5	19-44	37.9
Bog‘lama	2	1	2	4	2.25	3-9	5.2
Yordamchi fe’llar	0	0	7	5	3	1-13	6.7
Tuslangan fe’llar	37	27	47	37	37	17-38	26.7
fe’lning funksional shakllari	2	7	9	17	8.75	10-25	16.7
O‘tgan zamon	11	17	37	20	14	10-27	16.6
Hozirgi va kelasi zamon	26	10	8	17	18	8-23	16.3
Harakat ketma ketligini ifodalagan ravishdosh	4	0	1	9	2	0-10	5.9
Holat ravishdoshi	0	0	5	1	0	1-9	2.7
Sifatdosh	0	0	3	6	0	0-4	2.1
Harakat nomi	1	3	0	3	2,5	0-6	2.8

Ot va fe’llarni rasmga qarab aytish tajribasida ot va fe’llarning o‘rtasida deyarli farq bo‘lmagan: otlar bo‘yicha to‘g‘ri javoblar 32, fe’llar bo‘yicha esa 30ni tashkil qilgan. Asosiy qiyinchilik bir argumentli, tasavvur qilinish darajasi past bo‘lgan fe’llarda kuzatilgan.

Afaziyaga chalingan ishtirokchilar esa ot turkumi bo‘yicha 25-38 oralig‘ida to‘g‘ri javob berganlar, o‘rtacha qiymat 31,5; fe'l turkumi bo‘yicha 23-34 oralig‘ida to‘g‘ri javob berganlar, o‘rtacha qiymat 29,5 [Азимова ,2020].

Fe’l zamon shakllarining aytilishida o‘tgan zamon davom shakli hamda uzoq o‘tgan zamon shakli izdan chiqqanligiga guvoh bo‘ldik. Ikkita tajribada bu ikkala shakl bo‘yicha to‘g‘ri javob deyarli 0ga teng.

2-jadval. Broka afaziyasiga chalingan kishilarning zamonning tugallangan va davom shaklini aytish bo‘yicha tajriba natijasi [Azimova, 2023b].

№	Afaziyaga chalingan ishtirokchilar	1 HozD	2 O‘tT	3 KelT	4 O‘tD	Total	%
1.	NK	10/10	7/10	6/10	0/10	23/40	57
2.	FF	8/10	5/10	6/10	0/10	19/40	45
3.	MO	9/10	7/10	4/10	0/10	20/40	50
4.	MJ	8/10	7/10	7/10	1/10	23/40	58
5.	ZR	10/10	10/10	10/10	6/10	36/40	90
6.	NR	10/10	10/10	2/10	0/10	22/40	55
	Jami	55/60	46/60	35/60	7/60	143/240	60
	%	92	77	58	11	60	

Izoh: HozD- fe’lning hozirgi zamon davom shakli, O‘tT- fe’lning o‘tgan zamon tugallangan shakli, KelT- fe’lning kelasi zamon tugallangan shakli, O‘tD- fe’lning o‘tgan zamon davom shakli.

3-jadval. Broka afaziyasiga chalingan kishilarning fe’l zamonlarini aytish bo‘yicha tajribadagi natijalari [Azimova, 2021].

№	Afaziyaga chalingan ishtirokchilar	Hozirgi zamon davom	Yaqin o‘tgan	Uzoq o‘tgan	Kelasi zamon	Hara-	**%**
1.	HM	7	9	0	5	5	52
2.	NR	10	10	0	7	10	74
3.	ZR	10	9	0	10	10	78
4.	RM	9	4	3	4	8	56
	Жами	**36/40**	**32/40**	**3/40**	**26/40**	**33/40**	**65**
	%	90	80	7.5	65	82.5	

Muhokama. O‘zbek tilidagi broka afaziyasida spontan nutq, ot va fe’llarning rasmga qarab aytilishi, zamon shakllarini aytish hamda fe’lni tushunish bo‘yicha tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirsak, avvalo, o‘zbek tilidagi broka afaziyasida ot va fe’l dissotsiatsiyasi kuzatilmaydi. Bu ham spontan nutq, ham rasmga qarab ot va fe’llarni aytish bo‘yicha tajribada o‘z isbotini topdi [Azimova 2020, Azimova 2023a]. Fe’llar bilan bog‘liq qiyinchilik agrammatik ishtirokchilarimiz (NK, MO) spontan nutqida sifatdosh, ravishdosh va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasining izdan chiqqanligida hamda barcha broka afaziyasiga

chalingan ishtirokchilarimizda bog‘lamaning izdan chiqqanligida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, fe’llardagi zamon shakllarining ifodalanishida -gan qo‘shimchasi bilan yuzaga keladigan uzoq o‘tgan zamon hamda o‘tgan zamon davom shaklida kuzatilgan. Ushbu natijalarni umumlashtirganimizda sifatdosh,

Anomik hamda broka afaziyasida fe’l va sifatlarning predikativlikni ifodalashi tadqiq qilinganda, anomik afaziyaga chalinganlarda predikativ sifatlar broka afaziyasiga chalinganlarga nisbatan yaxshiroq saqlangani, shuningdek, fe’llar miqdori ham anomik afaziyaga chalinganlarda ko‘proq bo‘lgani aniqlangan(Sung, Lee, Yoo, Yoon, Kim, Shin, Yoo, DeDe, 2019). Bundan fe’l va sifatning izdan chiqishida umumiy sabab predikativlikni ifodalash izdan chiqishi degan taxminga borish mumkin. Biroq A.Meltzer-Asscher va C. Thompson (2014) o‘z tadqiqotlarida buning aksi ekanligini asoslaydilar. Ular agrammatik afaziyaga chalingan kishilarning spontan nutqini tahlil qilib, unda aniqlovchi bo‘lib keluvchi sifatning izdan chiqqanligini aniqlaganlar. Ular shu bilan birga fe’l hamda sifatning argument strukturasining ta’sirini ham tahlil qilib, shuni aniqlashganki, argument strukturasining murakkab bo‘lishi fe’llarning ham, sifatning ham nutqda kam qo‘llanishiga sabab bo‘ladi. Xulosa qilinishicha, muammoning ildizi predikativlik ifodasining izdan chiqqanida emas, balki atributiv sifatlarning otdan oldin kelishi asosiy mazmunni tashuvchi so‘z bilan birga belgi bildirayotgan so‘zni bir vaqtda faollashtirishda hamda sifat va fe’llarda argument strukturasi murakkabligida. Argument strukturasi murakkabligi nima uchun afaziyaga chalingan kishilar uchun qiyinchilik tug‘diradi? Ma’lumki, argumentlar bu so‘z bilan assotsiatsiyalanadigan harakat subyekt va obyektlari demakdir. Bu esa ko‘proq bog‘lanish, ko‘proq informatsiyani faollashtirishni talab qiladi.

O‘zbek tilidagi broka afaziyasiga chalingan kishilar bilan o‘tkazilgan tajribalarda aynan agrammatik afaziya simptomlarini namoyon qilgan ishtirokchilarimizning spontan nutqida fe’l umumiy holatda izdan chiqmaganligi, faqat sifatdosh, ravishdosh va ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari bilan muammo borligi ko‘rindi. Sifatdosh va ravishdoshning izdan chiqishini yuqorida tilga olingan tadqiqotlarga tayanib atributiv aniqlovchining izdan chiqqani bilan bog‘lash mumkin. Chunki o‘zbek tilida ravishdosh ham kesim vazifasidagi fe’ldan oldin keladi. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasida esa ko‘makchi fe’llarni qo‘llash mexanizmi murakkabligi ularning izdan chiqishiga sabab bo‘lgan. Xususan, ko‘makchi fe’lda ma’no ko‘chadi va bosh fe’l ravishdosh shaklida o‘zgarishsiz turar ekan, grammatik kategoriyalarning barchasi aynan ko‘makchi fe’lda aks etadi.

Zamon shakllarining ifodalanishida esa boshqa tildagi natijalardan farqli o‘laroq, o‘tgan zamonning -di shakli izdan chiqmagan. Uzoq o‘tgan zamon shakli -gan hamda o‘tgan zamon davom shakli -ayotgan afaziyaga chalinganlar uchun shu darajada qiyinlik qilganki, birorta ham to‘g‘ri javob bo‘lmagan. Bizning nazarimizda bu aynan -gan shaklining -di shaklidan farqli ravishda semantik jihatdan murakkabligi bilan bog‘liq.

O‘tgan zamonning -gan shakli haqida uning -di shaklidan farqi sifatida harakatning o‘ziga emas, harakat bajaruvchisiga urg‘u berilishi, harakatning bajaruvchisini u bajargan harakat bilan xarakterlashi, sifatlashi qayd etiladi [Сулаймонов, Ҳожиев, Жўраева, 1962, 26; Ғуломов, 1954, 9]. Bizningcha, harakat orqali subyekt belgisini ifodalash funksiyasi kognitiv jihatdan murakkab vazifa bo‘lganligi uchun ushbu zamon shakllarining afaziyaga chalingan ishtirokchilar tomonidan aytilishiga to‘siq bo‘lgan.

Xulosa. Insonning tilni qo‘llash mexanizmi murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p darajalidir. Sog‘lom insonlar nutqi tahlil qilinganda mazkur mexanizm tafsilotlari aksariyat holatlarda sezilmaydi. Broka afaziyasiga chalingan kishilarning til ko‘rsatkichlari tahlili bizga qo‘llanishi odatiy tuyulgan birliklar ortida yotgan kognitiv amallar tafsilotlarini oydinlashtirib, ularning qanchalik murakkab ekanligi bo‘yicha tasavvurlarimizni aniqlashtirdi. O‘zbek tilining morfologik jihatdan boyligi va, ayniqsa, fe’l morfologiyasining serqirraligi o‘zbek tilida fe’lning lingvokognitiv mexanizmi mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday bo‘lsa-da fe’lning argument strukturasi murakkabligi, undagi ma’no ko‘chish imkoniyatlari, zamon va harakat tarzini ifodalashi kabi xususiyatlari uni murakkab lisoniy birlik sifatida afaziyada mazkur turkum so‘zlarning to‘laqonli ifodalanmasligiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alyahya, R. S.W., Halai, A. D., Conroy, P., Ralph, M. A. L. [2018] Noun and verb processing in aphasia: Behavioural profiles and neural correlates. *NeuroImage: Clinical* 18 [2018], 215–230.

2. Azimova, I. (2023a). “O‘zbek tilidagi Broka afaziyasiga xos spontan nutqda ot va fe’llarning qo‘llanishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2023-3: 41-60.

3. Azimova, I. (2023b). “Fe’l zamoni va harakat tarzi uyg‘unligining o‘zbek tilidagi Broka afaziyasida til birliklari ifodasiga ta’siri”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*. *Lingvistika.* 2023-3: 40-52.

4. Bastiaanse, R., & Jonkers, R. [1998]. Verb retrieval in action naming and spontaneous speech in agrammatic and anomic aphasia. Aphasiology, 12, 951–969.

5. Caramazza, A., & Hillis, A. [1991]. Lexical organization of nouns and verbs in the brain. Nature, 349, 788–790.

6. Davis, M. H., Meunier, F., & Marslen-Wilson, W. D. [2004]. Neural responses to morphological, syntactic, and semantic properties of single words: An fMRI study. Brain and Language, 89, 439–449.

7. Hillis, A., & Caramazza, A. [1995]. Representation of grammatical knowledge in the brain. Journal of Cognitive Neuroscience, 7, 369–407.

8. Holmes, J. M., Marshall, J. C., & Newcombe, F. [1971]. Syntactic class as a determinant of word-retrieval in normal and dyslexic subjects. Nature, 234, 418.

9. Li, P., Jin, Z., & Tan, L. H. [2004]. Neural representations of nouns and verbs in Chinese: An fMRI study. Neuroimage, 21, 1533–1541.

10. Li, R., & Kiran, S. [2024]. Noun and Verb Impairment in Single-Word Naming and Discourse Production in Mandarin-English Bilingual Adults with Aphasia. Aphasiology, 38[2], 337–365. https://doi.org/10.1080/02687038.2023.2189994

11. Meltzer-Asscher, A., & Thompson, C. K. [2014]. The forgotten grammatical category: Adjective use in agrammatic aphasia. Journal of neurolinguistics, 30, 48-68.

12. Perani, D., Cappa, S. F., Schnur, T., Tettamanti, M., Collina, S., Rosa, M. M., & Fazio, F. [1999]. The neural correlates of verb and noun processing: A PET study. Brain, 122, 2337–2344.

13. Rapp, B., & Caramazza, A. [2002]. Selective difficulties with spoken nouns and written verbs: A single case study. Journal of Neurolinguistics, 15, 373–402.

14. Sung J, Lee S, Yoo S, Yoon H, Kim S, Shin S, Yoo M and DeDe G [2019]. Usage of Predicates [adjectives vs. verbs] in Persons with Anomic and Broca’s Aphasia. Front. Hum. Neurosci. Conference Abstract: Academy of Aphasia 57th Annual Meeting. doi: 10.3389/conf.fnhum.2019.01.00058

15. Tyler, L. K., Bright, P., Fletcher, P., & Stamatakis, E. A. [2004]. Neural processing of nouns and verbs: the role of inflectional morphology. Neuropsychologia, 42[4], 512–523.

16. Tyler, L. K., Russell, R., Fadili, J., & Moss, H. E. [2001]. The neural representation of nouns and verbs: PET studies. Brain, 124, 1619–1634.

17. Walenski, M., Sostarics, T., Mesulam, M.M., Thompson, C.K. [2024] The production of adjectives in narratives by individuals with primary progressive aphasia. Journal of Neurolinguistics. Volume 69,2024,101179, ISSN 0911-6044, https://doi.org/10.1016/j.jneuroling.2023.101179.[https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0911604423000568]

18. Zingeser, L. B., & Berndt, R. S. [1988]. Grammatical class and context effects in a case of pure anomia: Implications for models of language processing. Cognitive Neuropsychology, 5, 473–516.

19. Азимова И. Ўзбек тилидаги аграмматик афазияда от ва феълларнинг ифодаланиши. Сўз санъати. 2020. #1. 31-36. http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1-4

20. Азимова, И. Ўзбек тилидаги аграмматик афазияда ўтган замон шаклларининг ифодаланиши. ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АХБОРОТ АГЕНТЛИГИ – ЎзА ИЛМ-ФАН БЎЛИМИ (ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ). 2021. #2. Б.145-155.

21. Ғуломов А.Ғ. Феъл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. Тошкент, 1954. 88 б.

22. Сулаймонов А.Ҳ., Ҳожиев А.Ҳ., Жўраева Ж.М. Феъл замонлари. Тошкент, 1962. 168 б.

NEYROPSIXOLINGVISTIKA FAN SIFATIDA

Sh.H. Shahobiddinova
Andijon davlat universiteti prof., f.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108638

Nutq insonning ruhiy, aqliy tavsifini eng yaqqol ifodalovchisidir. Ifoda orqali tafsiflash va tashxislash fanning qator yo‘nalishlari uchun asos bo‘lib kelmoqda. Xususan, neyropsixologiya, psixoterapiya, neyrofiziologiya, nevrologiya, psixolingvistika...Inson nutqining yashash va tug‘ilish joyi miya ekanligi borasidagi qarashlar ancha qadimgi bo‘lishiga qaramay [Fefilov, 2014], miyadagi nutq o‘choqlari va nutqiy ifodalar bog‘liqligini o‘rganuvchi fan – neyropsixolingvistika u qadar eski emas.

Inson miyasining turli kasalliklari nutqiy faoliyatga ta’sir o‘tkazishini mutaxassis bo‘lmaganlar ham yaxshi biladi. Turli fan vakillari ham bu masalaga alohida e’tibor bilan qarashadi. Neyrolingvistika (ot grech. νεῦρον ‘nerv’, lat. *Lingua* ‘til’)ning fan sifatida shakllanishi XX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi, biroq unga asos bo‘lgan qarashlar yuz yildan ko‘proq vaqt davomida shakllanib kelgan [Wikipediya]. “ Ushbu atamaning tarkibiy qismlari unda ikkita fanning bevosita bog‘lanishiga bevosita ishora qiladi. Neyro-(nevron) neyrolingvistikaning neyronal bazasini tashkil etuvchi miya haqidagi bilimlardan foydalanishni bildiradi. Atamaning boshqa qismi, aynan lingvistika, bu fanga til hamda nutq haqida bilimlar kiritilishini ko‘rsatadi” [Wikipediya]. Tilning tizim – sistema sifatida tan olinishi bu tizimda muayyan buzilishlar, tizimdan chetga chiqishlar borligini ham nazarda tutadi. Neyrolingvistika ana shu chetlanishlar sabablarini ularni kelgusida bartaraf etish niyatida o‘rganadi.

Avvalo miya jarohatlari hamda nutq buzilishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikka shifokorlar e’tibor berganlar. Fransiyalik vrach Mark Daks va Pol Brok, nemis psixonevropatologi Karl Vernikelarning XIX asr o‘rtalarida olib borgan kuzatishlari miyaning aynan qaysi qismlari nutq uchun javob berishi borasidagi savollarga javob bo‘ldi. Miyaning Brok va Vernike markazlari hamda ularni bog‘lab turuvchi yoysimon nerv tolalarining shikastlanishi nutqning turlicha motor hamda sensor buzilishlariga olib kelishi aniqlandi [Wikipediya].

Nutqning psixologik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlari bilan neyrolingvistika fani uchun baza yaratgan tadqiqotchilar orasida L.S.Vыgotskiy va A.R.Luriyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu ikki olimning hamkorligi psixolingvistika va keyinroq neyrolingvistika fanining tug‘ilishiga nazariy asos bo‘lgan. Ayniqsa A.R.Luriya bu borada samarali ijod qilib "Travmaticheskaya afaziya" (rus tilida 1947 y., ingliz

tilida – 1970 y.), "Vosstanovleniye funksiy mozga posle voyennoy travmы" (rus tilida 1948 y., ingliz tilida – 1963 y.), "Vыsshiye korkovыe funksii cheloveka" (rus tilida – 1962 va 1969 yy., ingliz tilida – 1966 y.), "Osnovы neyropsixologii" (1973 y.) va "Neyropsixologiya pamyati" (1974 y.) kabi asarlar yaratgan. [Luriya, 2009]

U birinchilardan bo‘lib neyrolingvistikaning obyekti va predmetini belgilab berdi: Neyrolingvistika... psixologiya, nevrologiya va lingvistika chegarasida turuvchi fanning yangi sohasidir. U nutqiy faoliyatning miya mexanizmlarini va miyaning lokal shikastlanishlarida nutqiy faoliyatda yuzaga keluvchi o‘zgarishlarni o‘rganadi [Luriya, 2009].

L.S.Vыgotskiy nutq va ong munosabatini bir butunlik sifatida ko‘radi, ularni bir-biridan ajratish har birini zotiy xususiyatidan mahrum qiladi deb hisoblaydi. Masalan, suv olovni o‘chiradi. Biroq bu mutlaqo uning tarkibiy qismlari – kislorod va vodorod tabiatidan kelib chiqmaydi. Ya’ni tovush qobig‘i va ongni bir biridan ajratish har ikkisining mohiyatini anglab yetishga halaqit beradi [*Vыgotskiy* , 1934]

Tilshunoslikda olib borilgan qator tadqiqotlar neyrolingvistika bazasini yaratdi: lingvistika fanining xabarning shakllanishi va kengaygan jumladan uning ichki mazmuniga bo‘lgan yo‘nalishni ochib berishga bo‘lgan salmoqli qadamlari turli mamlakatlar atoqli tilshunoslari tomonidan deyarli bir paytda tashlangan(F.de Sossyur, Boduen de Kurtene, Blumfild va boshq.), biroq XX asrning elliginchi-etmishinchi yillariga kelibgina ichki mazmun(yoki fikr)ning kengaygan nutqqa o‘tish bosqichlarini butun boyligi bilan ochib bera olgan amerika transformatsion lingvistikasi (N.Xomskiy va uning maktabi), generativ semantika deb ataluvchi yo‘nalishda(Ch.Fillmor, Dj.Mak-Koli, Dj.Lakov), T.Biver, G.Klark ishlari va boshqalarda, shuningdek bir qator sovet lingvistlari ishlarida(I.A.Melchuk, A.K.Jolkovskiy, Yu.D.Apresyan, A.A.Leontyev i dr.) to‘liq shakllangan [Luriya, 2009].

Neyropsixolingvistika atamasining tadriji ancha qiziqarli. Neyrolingvistikani psixolingvistikaning bir uzvi sifatida ko‘rish an’anasi mavjud. Shuningdek, bu ikkisining obyekti va predmetini farqlab ko‘rsatish ham keng tarqalgan: Psixolingvistika til, tafakkur va ongning o‘zaro aloqasini nevrologiyadan tashqarida o‘rganadi. Neyrolingvistika miyaning nutqiy funksiyasini butun bir sistema sifatida, nutqning buzilish va yo‘qolish holatlari(afaziya)ni sistemaning buzilishi sifatida o‘rganadi [spravochnik].

Ko‘rinadiki, fan nomini bildiruvchi atama borasida munozaralar mavjud.

K.F.Sedov esa psixolingvistika inson muloqot kompetensiyasini o‘rganuvchi fan ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, ta’lim va tarbiya jarayoni bolaning miya tuzilishi bilan bog‘liq olib borilishiga yo‘nalgan neyropedagogikaning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ongi va hissiyotlarini uzviylikda ko‘rish zaruriyati neyro- va psixolingvistikani bir butun fan yo‘nalishi sifatida ko‘rish zaruriyatini keltirib chiqaradi. K.F.Sedov shularni hisobga olib, neyropsixolingvistika atamasini taklif etadi [Sedov, 2007].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fefilov A.I.Fenomen yazыka v filosofii i lingvistike. Uchebnoye posobiye – M.: Flinta, 2014 – 224 s.

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%D0%B5%D0%B9%D1%80%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0#%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F_%D0%BD%D0%B5%D0%B9%D1%80%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B8

3. Vizel T. G. Prikladnaya neyrolingvistika. – M.: Moskovskiy institut psixoanaliza, Kogito-Sentr, 2020. – 339 s.

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%D0%B5%D0%B9%D1%80%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0#%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F_%D0%BD%D0%B5%D0%B9%D1%80%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B8

5. Luriya A.R.Osnovnыe problemы neyrolingvistiki Izd. 3.URSS. 2009. 256 s. ISBN 978-5-397-00734-4.// https://urss.ru/cgi-bin/db.pl

6. O‘sha yerda

7. *Vыgotskiy* L.S. *Mыshleniye i rech*. . – M.-L., 1934. — 362 s. – S.43

8. Luriya A.R.Osnovnыe problemы neyrolingvistiki Izd. 3.URSS. 2009. 256 s. ISBN 978-5-397-00734-4.// https://urss.ru/cgi-bin/db.pl

9. V chem otlichiye neyrolingvistiki ot psixolingvistiki?// https://spravochnick.ru/vopros/2758/

10. Sedov K.F. Neyropsixolingvistika. – M.: Labirint, 2007. – 224 s. – S.4.

UDK:81’27

TIL VA IDENTIKLIK MUNOSABATI TADQIQIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI XUSUSIDA

Ibraximova Iroda Bobir qizi
iroda0705@gmail.com
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108684

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va indentiklik o‘rtasidagi munosabat bilan bog‘liq tadqiqotlarda psixologik yondashuvning ahamiyati xususidagi olimlarning fikr va mulohazalari bayon etilgan bo‘lib, u natijada lisoniy identiklik bilan bog‘liq tadqiqotlarda psixoanalizdan foydalanishning e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: *identiklik, lisoniy identiklik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, psixologik yondashuv.*

Abstract. This article discusses why the psychological approach is essential in studying the link between language and identity. Scientists’ opinions and reasoning highlight this importance, leading to the examination of how psychoanalysis can be used in linguistic identity research.

Key words: *identity, language identity, sociolingustics, psycholinguistics, psychological approach.*

Garchi til va identiklik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqalar so‘nggi yillarda faol ravishda o‘rganila boshlagan bo‘lsa-da, sohada o‘z yechimini kutayotgan masalalar, muammolar va javob topilmagan savollar bisyor. Turfa nazariyalar ishlab chiqildi, ko‘plab amaliy tadqiqotlar olib borildi, lisoniy identiklik tadqiqotlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiya va ishlanmalar chop etildi. Biroq qo‘lga kiritilgan natijalar, lisoniy identiklik tadqiqotlari sohasini yaxshi shakllangan deya baholash uchun hali yetarli emas. Soha mutaxassislari lisoniy identiklik tadqiqidagi ilmiy bo‘shliqlar haqida bot-bot fikr-mulohaza va tahlillarini keng jamoatchilik bilan bo‘lishib kelayotgan bo‘lsa-da, ularni to‘ldirish uchun katta hajmdagi mehnat, izlanish, ma’lumot va natijalarga ehtiyoj bor.

Lisoniy identiklik tadqiqotlari tahlilida psixologik yondashuvning yetishmasligi, tadqiqot ishtirokchilari soni kamligi, kuzatuvlar yetarlicha uzoq muddatli davom etmagani, intervyular doim ham ona tilida, yoki qatnashchi

tanloviga ko‘ra istalgan tilda olinmagani, identiklikning o‘zi bir nechta bo‘lishi va doimiy o‘zgarishda ekanligi, ishlarning asosiy qismi ingliz tili bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa tillarda so‘zlashuvchilar lisoniy identikligi nisbatan kam tadqiq etilgani kabi masalalar shunday kamchiliklardan ba’zilari bo‘lib, ushbu maqolada shu va boshqa muammolar xususidagi olimlarning ilmiy mushohadalari tahlil qilinadi va ehtimoliy yechimlar ko‘rib chiqiladi.

Til va identiklik tadqiqlarida psixologik yondashuvning ahamiyati, va mavjud ishlarda ushbu aspektning yetarlicha yoritilmaganligi xususidagi tanqidiy tahlillar bir qator olimlar, xususan, Block, Norton, Layder, Bendle, va Grangerlar tomonidan ta’kidlangan. Jumladan, David Block til va identiklik tadqiqotlarida 3 masalani muhim sanaydi: 1. Til va identiklik bilan bog‘liq ishlarning ko‘pchilik qismi asosan ijtimoiy yondashuv asosida olib borilayotgan bir sharoitda psixologik yondashuvning potensial foydalari; 2. Til va identiklik tadqiqotlarida mustaqil tanlov (individual agency) va ijtimoiy strukturalar orasidagi aloqadorlikni oydinlashtirish; hamda 3. Hayotning moddiy sharoitlaridan identiklik siyosatini ustun qo‘yuvchi (irq, etnik kelib chiqish, jins, jinsiylik, millat va til kabi identiklik ko‘rinishlari bilan bog‘liq) tadqiqotlarda ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish va ijtimoiy sinf nuqtayi nazarini qo‘shishning potensial foydalari [Block, 2013:11].

Block til va identiklik bilan bog‘liq tadqiqotlarda tadqiqotchilar asosan identiklikning ijtimoiy jihatlariga va uning kundalik ijtimoiy faoliyatdagi o‘zaro ta’sirlar orqali qanday paydo bo‘lishiga e’tibor qaratishlari, identiklik qanday tuzilganligini tushunish uchun odamlardan odatda o‘z hayotlari haqida gapirib berishlarini so‘rash bilan cheklanganligini yozib, unga Layderning quyidagi fikrlarini asos qilib keltirgan: ‘O‘zlikni (self) faqat tashqi ijtimoiy kuchlar ta’sirida shakllangan tashqi tuzilishgagina ega bo‘lgan oddiy ijtimoiy tuzilma deb o‘ylash xato bo‘ladi’. Bunday xato yondashuvning oldini olish uchun Layder insonning shaxs sifatida rivojlanishi bo‘lmish ‘hayot kariyerasi’ni, boshqacha aytganda ‘psixobiografiyasi’ni o‘rganish kerak, deb hisoblaydi [Layder, 1997:39].

Layder identiklikka ko‘proq psixologik yondashish kerakligini ta’kidlagani bilan, u psixologik nazariyasining aniq tabiatini tushuntirmagan. U ishida Schefning uyat va hijolatlik emotsiyalari xususidagi ishiga tayanadi va Laingning ‘ontologik xavfsizlik/xavfsiz emaslik’ qarashlariga murojaat qiladi. Shunday qilib, identiklik tadqiqotlarida psixobiografik yondashuv masalasi qo‘shimcha izoh va tushuntirishlarga muhtojligicha qolmoqda.

Bendle ham identiklikka ko‘proq psixologik yondashish kerakligi tarafdori bo‘lib, identiklikni muhim tuzilma sifatida qarashning ko‘payishini identiklik

inqirozi bilan bog‘liq holatlar orta boshlagani bilan izohlaydi. Olim soha mutaxassislari ego psixologiyasi va identiklikning psixoanalitik nazariyalarini chuqurroq tadqiq etishlari kerak, deb hisoblaydi. Tahlilning ‘yuzaki’ modellarida nisbatan ‘chuqur’ modellariga o‘tish ehtiyoji borligini ta’kidlaydi [Bendle, 2002:1]. Wetherell diskurs tahliliga psixoanalitik yondashuvni kiritish borasidagi harakatlari sabab Bendle hamfikrlaridan biriga aylandi va bu yonashuv amaliyotini o‘zining intervyular hamda tabiiy suhbat jarayonlarini tahlil etish orqali ko‘rsatib berishga harakat qildi [Wetherell, 2007].

Grangerning psixologik yondashuvni yoqlashi ikkinchi til o‘zlashtirilishidagi ‘sukut davri’ (silent period) fenomeniga ahamiyat qaratgani bilan bog‘liqdir. Uning fikricha, sukut davri an’anaviy ravishda yo til o‘rganuvchisi berilayotgan informatsiyani tushunmayotgani, yoki alal oqibat uni gapirishga qodir qiluvchi yetarlicha lingvistik kompetansiyani shakllantirish uchun ma’lumotlarni miyada qayta ishlayotgani belgisi sifatida ko‘rilgan. Granger ushbu davr haqidagi 3-talqinni taklif qiladi. Unga ko‘ra: ‘Bu sukunat insonlardagi ichki ruhiy qiyinchiliklarning bir qismi bo‘lib, ikkinchi til o‘rganuvchilari o‘zlarining birinchi tillarini ‘yo‘qotayotganlari’ni his qila boshlagan, idrok etayotgan va ikkinchi tilning noaniq ertasi haqidagi xavotirlarini yengish ustida ishlayotgan jarayonlarda yuz beradi.’ [Granger, 2004:56]

Contemporary Applied Linguistics. Volume 1 kitobi uchun yozgan ‘Identity in Applied Linguistics: The Need for Conceptual Exploration’ bobida Block psixologik yondashuv tarafdorlari fikrini, xususan Bendle talqinini tahlil etgach, psixoanalitikadan foydalanishning salbiy jihatlari va ahamiyat qaratish kerak bo‘lgan xususiyatlarini sanab o‘tadi. Unga ko‘ra, birinchidan, psixologiya diaxron va sinxron jihatdan juda katta va o‘ta murakkab sohadir. Sohada Freuddan hozirgacha bir asrdan oshiqroq vaqt mobaynida muhim tarixiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Natijada qarashlari bir-biridan farq qiluvchi ko‘plab maktablar shakllandi. Shuning uchun amaliy tilshunoslik mutaxassislari psixoanaliz bo‘yicha bilim va tajribaga ega mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlamasa, tadqiqot uchun eng maqbul qarash, usul va yondashuvni tanlashda xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin.

Ikkinchidan, psixoanaliz bilan bog‘liq tadqiqotlarda o‘ta ehtiyotkor bo‘lish kerak bo‘lgan yana bir masala bo‘lib, u ‘xarakter’ diagnozi etikasi va ‘diagnoz sifatidagi tadqiqotning ehtimoliy voyeristik (ya’ni boshqalarning hayoti muammolarini kuzib rohatlanish) zo‘ravonlik’ etikasi muammolaridir. Chunki intervyularda bo‘lishilgan hayotiy hikoyalarning psixoanalitik talqini intervyu qatnashchilari tomonidan xushlanmasligi mumkin. Sababi bunday tahlilda intervyu

qatnashchilarining shaxsiy munosabatlariga e’tibor qaratiladi va tahlilchini taxminiy (va kuchli) hukm pozitsiyasiga qo‘yadi.

Uchinchidan, amaliy tilshunoslik identiklikka poststruktural yondashuv bilan qararkan, identiklik o‘zaro aloqa jarayonida vujudga keluvchi tushuncha sifatida ko‘riladi. Identiklikning davomiy semiotik xulq-atvorda namoyon bo‘luvchi ushbu talqini, yaqqol ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, psixologiya sohasiga osongina o‘tib qolmaydi. Shuning uchun masalaga ikki taraflama yondashuvni umumlashtirmoqchi bo‘lgan tadqiqotchilar jarayonga ehtiyotgorlik va diqqat bilan yondashmoqlari kerak bo’ladi [Block, 2009:227].

Xulosa qilib aytganda, lisoniy identiklikni o‘rganishda psixologik yondashuv til va identiklikning ko‘p qirrali tabiatini tushunish uchun keng qamrovli asosni taklif etadi. Shaxs lisoniy identikligini keng qamrovli tahlil qilish uchun identiklikka ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar barobarida psixologik omillarni ham mutaxassis nigohi bilan, ilmiy tadqiq metodlari vositasida tahlil qilish, natijalarni umumlashtirib, kompleks xulosalar chiqarish lisoniy identiklik bilan bog‘liq tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bendle, M. The crisis of identity in high modernity. British Journal of Sociology, 53, 2002. - P.1.

2. Block, David. Issues in language and identity research in applied linguistics. Elia. 13, 2013. - P.11.

3. Block, D. Identity in applied linguistics: The need for conceptual exploration. Contemporary Applied Linguistics. Volume 1, 2009. – P.227.

4. Granger, C. A. Silence in second language acquisition: A psychoanalytic reading. Clevedon, UK: Multilingual Matters, 2004. – P. 56.

5. Layder, D. Modern social theory. London: UCL Press, 1997. – P. 39.

6. Wetherell, M. A step too far: Discursive psychology, linguistic ethnography and questions of identity. Journal of Sociolinguistics, 11, 2007.

THE ROLE OF SUMMARIZING AS A COGNITIVE READING STRATEGY IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION

Sadikova Gulkhayo Ibrokhimjon qizi
moonxsamsung@g.mail.com
Doctoral student of Samarkand State Institute of Foreign Languages
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108719

Abstract. This article discusses the role of summarizing as a cognitive reading strategy in second language acquisition. Understanding academic material is vital for students, and employing effective strategies is crucial in achieving this goal. Among these strategies, reading strategies play a fundamental role. Reading is central to acquiring knowledge, with each individual engaging in a unique interpretive process. Reading strategies aid in improving comprehension, enabling students to understand text accurately and appropriately. Cognitive reading strategies involve mental processes focused on handling information to facilitate learning. Summarizing, a cognitive reading strategy, involves creating a condensed version of new information obtained from listening or reading. It helps students understand the original text more effectively, analyze and evaluate content, and concentrate on crucial details. Summarizing also enhances critical thinking and writing skills, prepares learners for assessments, and facilitates language learning. Two main factors influence summary writing: the presence or absence of the original text and the characteristics of the text. These factors significantly impact the summarization process, affecting the identification of main ideas and selection of relevant information. Summary writing offers numerous advantages for understanding reading passages, making it a valuable strategy for improving comprehension, critical thinking, writing skills, assessment preparation, and language acquisition in second language acquisition contexts.

Key words: *Reading strategies, cognitive reading strategies, reading comprehension, summarizing, summary writing, ESL students, Second Language Acquisition (SLA)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi tilni o‘zlashtirishda kognitiv o‘qish strategiyasi sifatida xulosalash/umumlashtirishning roli muhokama qilinadi. Talabalar uchun o‘quv materialini tushunish juda muhim va bu maqsadga erishishda samarali strategiyalarni qo‘llash ham katta ahamiyatga ega. Ushbu strategiyalar orasida o‘qish strategiyalari asosiy rol o‘ynaydi. O‘qib tushunish ko‘nikmasi ikkinchi tilni o‘zlashtirshda markaziy o‘rinda turadi va har bir o‘rganuvchi matnni

o‘ziga xos talqin qilish jarayoni bilan shug‘ullanadi.. O‘qish strategiyalari tushunishni yaxshilashga yordam beradi, o‘quvchilarga matnni to‘g‘ri va chuqur tushunish imkoniyatini oshiradi. Kognitiv o‘qish strategiyalari o‘rganishni osonlashtirish uchun ma’lumotlarni qayta ishlashga qaratilgan aqliy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Xulosalash, kognitiv o‘qish strategiyasi tinglash yoki o‘qish natijasida olingan yangi ma’lumotlarning ixchamlashtirilgan versiyasini yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu talabalarga asl matnni yanada samaraliroq tushunishga, mazmunni tahlil qilish va uni baholashga hamda muhim tafsilotlarga diqqatni jamlashga yordam beradi. Xulosa qilish, shuningdek, tanqidiy fikrlash va yozish ko‘nikmalarini oshiradi, o‘quvchilarni baholashga tayyorlaydi va til o‘rganishni osonlashtiradi. Xulosa yozishga ikkita asosiy omil ta’sir qiladi: xulosani bayon tarzda yozayotganda o‘quvchining qo‘lida asl matnning mavjudligi yoki yo‘qligi va matnning xususiyatlari. Ushbu omillar umumlashtirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, asosiy g‘oyalarni aniqlash va tegishli ma’umotlarni tanlashga ta’sir qiladi. Xulosa yozish o‘qib tushunishda matn bo‘laklarini tushunish uchun ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi, bu uni tushunish, tanqidiy fikrlash, yozish qobiliyatlarini oshirish, baholashga tayyorgarlik ko‘rish va ikkinchi tilni o‘zlashtirish kontekstlarida tilni o‘zlashtirish uchun qimmatli strategiyaga aylantiradi.

Kalit so‘zlar: *o‘qish strategiyalari, kognitiv o‘qish strategiyalari, o‘qib tushunish, xulosa qilish, xulosa yozish, ikkinchi tilni o‘rganuvchilar, ikkinchi tilni o‘zlashtirish*

Effective comprehension of academic material is crucial for students, and employing various strategies is a key to achieving this aim. Among these strategies, a fundamental one is the utilization of reading strategies. Reading serves as the cornerstone of acquiring knowledge, with each individual engaging in a unique interpretive process. (Maarof, N., & Yaacob, M. 2011). This implies that diverse readers adopt distinct approaches in deriving meaning from textual cues.

Reading strategies play a crucial role in improving understanding of texts. Students who have suitable and effective reading strategies use them well to understand the content of the text accurately and appropriately. According to Solé, reading comprehension strategies encompass a series of steps that include setting goals, planning actions to achieve these goals, evaluating progress, and being open to making adjustments if needed. (Solé, I. 2005.) It is imperative to teach these strategies to students if they aim to achieve effective reading comprehension. Garner, on the other hand, characterizes reading strategies as deliberate and

purposeful activities carried out by engaged readers, often to address perceived cognitive challenges and enhance their understanding of the text. (R. Garner, 1987) Therefore, reading strategies involve how readers handle a reading task, the hints they notice in the text, their understanding of the material, and how they react when they find the text challenging to understand. Furthermore, reading strategies are regarded as advanced procedures in which cognitive and metacognitive processes are crucial.

Students must understand their comprehension levels while reading and learn how to identify clues and answer questions in reading comprehension. Cogmen and Saracaloglu found that basic techniques like underlining, taking notes, or highlighting text can assist readers in understanding and recalling the content. (Cogmen, S., & Saracaloglu, A. S., 2009.) William and Burden mentioned that cognitive strategies involve mental processes focused on handling information to facilitate learning, including obtaining, storing, retrieving, and utilizing information. (Williams, M. & R.L. Burden ,1997).

Cognitive reading strategies greatly aid in improving one's reading skills, particularly in understanding texts. When reading, learners typically use different cognitive strategies to comprehend the text. These strategies are crucial for gaining a thorough understanding of the material because learners must not only be aware of their thinking process but also plan and assess their approach. With these strategies, students can effectively answer reading comprehension questions, read autonomously, and retain the information they have read.

The utilization of cognitive strategies can enhance how effectively a learner tackles various learning tasks. These tasks may encompass activities such as recalling and applying information from course materials, forming sentences and paragraphs, revising written work, restating information in one's own words, and organizing information for learning purposes. In a classroom environment where cognitive strategies are implemented, the teacher plays a crucial role in connecting students with the content or skills they need to acquire. This role involves understanding the task at hand and possessing knowledge of effective approaches that can be conveyed to the learner.

Summarizing involves creating a mental, spoken, or written summary of new information obtained from listening or reading. It is a beneficial strategy that helps students understand the original text more effectively and demonstrates their comprehension. Furthermore, the act of summarizing enables students to analyze and evaluate the original text using the knowledge they have acquired.

According to Hays, summarizing is described as a "synthetic strategy" in which students must assess the significance of the information present in the text. (Hays, D.,1989) Likewise, Kamhi-Stein categorizes summarization as an elaboration strategy for tackling intricate learning assignments. (Kamhi-Stein, L.,1993) Summary writers are not solely tasked with synthesizing the content but also with generating a cohesive text that effectively represents the original text by substantial standards (Dole, Duffy, Roehler, & Pearson, 1991, p. 244).

Weinstein and Mayer suggest that the purpose of summarizing is to merge new information with students' existing knowledge. (Weinstein, C. E., & Mayer, R. E. 1986) And they outline four primary objectives of summarization.

- The first aim is to distinguish the main ideas from minor details.
- The second goal is brevity, where summary writers aim to convey the information from the text using as few words as possible.
- The third objective is objectivity due to that, summaries focus on presenting someone else's ideas. Here, writers aim to demonstrate their comprehension of the text rather than responding to the author's ideas.
- Lastly, the fourth goal is accuracy, where writers ensure that the information in the summary remains faithful to the original text.

Consequently, summary writing is a multifaceted task commonly found in academic settings. Contrasting summary writing with other writing tasks, while average writing tasks entail producing content based on a given topic, summary writing involves creating a shortened and condensed version of the original text.

Two main factors influence summary writing: the presence or absence of the original text and the characteristics of that text. (Ashrafzadeh & Nimehchisalem, 2015).

A. The presence or absence of the original text. When the text is present, writers can better identify important points, condense information, and clarify inconsistencies. Various devices, such as introductory statements and topic sentences, are used by authors to emphasize importance. However, relying too much on the text can lead to students copying directly instead of using their own words, especially for ESL students. Allowing students to refer to the text while summarizing can provide them with more mental space for selection and condensation. Typically, texts are presented during summarization tasks in academic settings to facilitate the process.

B. The characteristics of that text. The characteristics of the original text significantly impact the process of summarization. Three key characteristics—length, complexity, and text type—play a crucial role in this process. Shorter texts

make it easier to identify main ideas and select relevant information, whereas longer texts require more effort in condensing and selecting due to the abundance of ideas. Text complexity, including factors like vocabulary difficulty and sentence structure complexity, also affects summarization. More complex texts necessitate more judgments in deciding which ideas to include and require more transformations of the original ideas. Research suggests that when faced with complex texts, writers tend to adopt a paragraph-by-paragraph strategy rather than reorganizing and synthesizing the entire text.

Summary writing has numerous advantages for understanding reading passages. It helps learners grasp main ideas more deeply by encouraging them to condense information. Additionally, it assists in remembering important concepts by synthesizing information from the passage. Summarizing allows learners to concentrate on crucial details, which improves comprehension and prevents them from getting distracted by minor points. Moreover, summary writing enhances critical thinking skills as learners analyze and evaluate content, improving their ability to identify key points. It also helps in refining writing skills by encouraging clear and concise expression of ideas. Furthermore, summary writing prepares learners for assessments that require concise summaries and helps in language learning by providing practice in comprehension and expression. Thus, summary writing is a valuable strategy for improving comprehension, critical thinking, writing skills, and assessment preparation, while also aiding in language acquisition.

In conclusion, summarizing serves as a fundamental cognitive reading strategy in second language acquisition, offering several advantages for comprehending reading passages. Effective comprehension is essential for students, and employing various strategies, including summarizing, is key to achieving this. Summarizing allows learners to identify and condense main ideas, leading to a deeper engagement with the text and enhancing understanding. It also aids in retaining key concepts by synthesizing information from the passage and helps learners focus on essential information, preventing distraction by minor details. Furthermore, summarizing fosters critical thinking skills as learners analyze and evaluate content, improving their ability to discern important points. Additionally, it contributes to improving writing skills by promoting clear and concise expression of ideas. Moreover, summarizing prepares learners for assessments that require concise summaries and facilitates language learning by providing practice in comprehension and expression. Overall, summarizing emerges as a valuable strategy

for enhancing comprehension, critical thinking, writing abilities, assessment preparation, and language acquisition in second language acquisition contexts.

References:

1.Ashrafzadeh, A., & Nimehchisalem, V. Vocabulary knowledge: Malaysian tertiary level learners' major problem in summary writing. Journal of Language Teaching and Research, 2015,6(2), 286-291.

2. Cogmen, S., & Saracaloglu, A. S., Students' usage of reading strategies in the faculty of education. Procedia Social and Behavioral Sciences, 2009, 1, 248-251.

3. Dole,J., Duffy,G., Roehler,L.,&Pearson,P. Moving from the old to the new: Research on reading comprehension instruction. Journal of Educational Research, 1991, 61,225.

4. Hays, D., Helping students GRASP the knack of writing summaries. Journal of Reading, 1989, 33(2), 96-101.

5.Kamhi-Stein, L., Summarization, note taking and mapping techniques: Lessons for L2 heading instruction. ERIC Document Reproduction Service No. 360816,1993.

6. Maarof, N., & Yaacob, M. Meaning-making in the first and second language: reading strategies of Malaysian students. Procedia Social and Behavioral Sciences, 2011. 12, 211– 223.

7. R. Garner, Metacognition and reading comprehension. Norwood, NJ: Albex, 1987.

8. Solé, I. Estrategias de lectura. Barcelona: GRAÓ. 2005, p 59-60

9. Weinstein, C. E., & Mayer, R. E., The teaching of learning strategies. In M. R. Wittrock (Ed.), Handbook of research on teaching. New York, NY: Macmillan, 1986, p. 315-327.

10. Williams, M. & R.L. Burden, Psychology for language teachers: A social constructivist approach. Cambridge: Cambridge University Press, 1997.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕЧИ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В ЮЖНОЙ КОРЕЕ

Худайбердиева Светлана Владимировна
azizovalana81@gmail.com
Ташкентский государственный университет востоковедения
Независимый исследователь, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108758

Аннотация: В этой статье показан психолингвистический анализ речи пожилых людей проживающих в Южной Корее и те факторы, которые влияют на пожилого человека. Данная работа делает свои акцент на особенность языкового поведения и коммуникацию людей в возрасте. Используя разные методы анализа речи, синтаксический, лексический, семантический эта статья изучает какие изменения в возрасте влияют на язык пожилых людей и их коммуникацию между собой.

Ключевые слова: *анализ, психолингвистический анализ, пожилые люди, речь, изменение, коммуникация.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreyada yashovchi keksa odamlar nutqining psixolingvistik tahlili va keksa odamga ta'sir etuvchi omillar ko‘rsatilgan. Bu ish katta yoshdagi odamlarning lingvistik xulq-atvori va muloqotining o‘ziga xos xususiyatlariga qaratilgan. Nutqni tahlil qilishning turli usullaridan, sintaktik, leksik, semantik usullardan foydalangan holda, ushbu maqola yoshidagi o‘zgarishlar keksa odamlarning tiliga va ularning bir-biri bilan muloqotiga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi

Kalit so‘zlar: *tahlil, psixolingvistik tahlil, keksa odamlar, nutq, o‘zgarish, muloqot*

Аннотация. В этой статье показан психолингвистический анализ речи пожилых людей проживающих в Южной Корее и те факторы, которые влияют на пожилого человека. Данная работа делает свои акцент на особенность языкового поведения и коммуникацию людей в возрасте. Используя разные методы анализа речи, синтаксический, лексический, семантический эта статья изучает какие изменения в возрасте влияют на язык пожилых людей и их коммуникацию между собой.

Ключевые слова: *анализ, психолингвистический анализ, пожилые люди, речь, изменение, коммуникация.*

Во всем мире пожилые люди испытывают изменения в коммуникации и языковой способности. Так же и в Южной Корее, где возрастное общество является большей частью населения на момент 2024 года количество пожилых пенсионеров в Корее продолжает расти в связи с долголетием и увеличением средней продолжительности жизни. По официальным данным статистического института Кореи (Statistics Korea), население старше 65 лет в стране составляет значительную часть общей численности. Согласно последним данным, на 2024 год в Корее проживает более 8 миллионов пожилых людей в возрасте 65 лет и старше. Это составляет около 16% от общего населения страны. Также стоит отметить, что средняя продолжительность жизни в Корее продолжает увеличиваться, что ведет к дальнейшему росту числа пожилых людей. Данное исследования того, как возрастные показатели влияют на людей в возрасте, и их речевые показатели, являются важным аспектом развития общества и качества уровня жизни пожилых людей в Корее.

Психолингвистический анализ речи пожилых людей в Корее может включать в себя изучение изменений в языковых навыках, используемых стратегиях коммуникации, а также влияния факторов, таких как возраст, образование, и культурные особенности на их речь. Некоторые возможные направления исследования включают:

Изменения в лексике и грамматике: Изучение того, какие слова и структуры предпочтительны для использования пожилыми людьми в сравнении с молодыми. Например, возможно, они предпочитают более традиционные или устаревшие формы выражения.

Психологические аспекты: Исследование эмоциональной окраски речи у пожилых людей. Может ли возраст влиять на частоту употребления положительно окрашенных слов или наоборот, на употребление негативной лексики.

Коммуникативные стратегии: Анализ того, как пожилые люди выбирают стратегии коммуникации в различных ситуациях. Например, они могут чаще использовать уточняющие вопросы или уступчивые формы выражения.

Фонетические изменения: Изучение изменений в произношении звуков и интонации у пожилых людей.

Влияние культурных факторов: Исследование, как культурные особенности Кореи влияют на речь пожилых людей. Например, наличие уникальных фразеологизмов или культурных концепций.

В целом, изменения в речи и голосе наблюдаются во время старения, теряются некоторая мышечная сила и гибкость. Также пожилой может иметь более сухой рот. При разговоре не нужно иметь много мышечной силы, поэтому разговор пожилого человека может оставаться ясным. Однако, данному человеку может понадобиться больше времени, чтобы сказать более длинные слова или более сложные предложения. Тенденция старения наблюдается не только в изменении речи, но и в коммуникации тоже. В целом старение — это природный процесс, который меняет способности пожилого человека на протяжении всей его жизни. Старение изменяет то, как общается пожилой человек со временем и зрение и слух меняются по мере износа клеток. По мере того, пожилой станет старше, ему может быть труднее читать меньшую печать, или увидеть более тонкие детали. Также может иметь больше трудностей в слухе. Пожилой человек может неправильно понимать кого-то другого из-за того, что слышит звуки искаженным образом.

Такие исследования могут помочь понять, как происходят изменения в языковых навыках с возрастом, а также помочь в разработке методов поддержки и обучения для сохранения коммуникативных навыков у пожилых людей и позволяет лучше понять влияние возрастной среды на языковые процессы.

По данным анализа было выявлено что у пожилых людей в Южной Корее наблюдаются особенности в речевой коммуникации.

1. Особенное употребление более традиционных лексических единиц, где пожилые люди чаще используют устаревшие или более формальные слова и фразы, что отражает их укорененность в традициях и культуре.

2. Большее использование вежливых форм обращения, где, пожилые люди склонны использовать более вежливые формы обращения при общении, что является частью корейской языковой культуры, где уважение к возрасту имеет важное значение.

3. Более осторожная семантика в речи пожилых людей, где часто можно наблюдать более осторожное использование слов и выражений, что может быть связано с желанием избежать недопониманий или конфликтов.

В заключении можно выявить, что психолингвистический анализ речи пожилых людей в Южной Корее позволяет лучше понять, как возрастные изменения влияют на языковое поведение в данном контексте. Пожилые люди часто придерживаются более традиционных языковых норм и чувствительны к контексту общения. Эти результаты имеют значение для разработки

эффективных коммуникационных стратегий и поддержки пожилых людей в Южной Корее.

Библиографический список литературы:

1. Лурье С. В. (2017). Лингвистическая и когнитивная геронтология: проблемы изучения языковой активности пожилых людей. Геронтология, 3(63), 209-216.

2. Тангалина Е. И. (2018). Психолингвистические особенности речи пожилых людей. Сибирский медицинский журнал (Иркутск), 29(1), 87-90.

3. Волкова, Л. И., & Доронина, И. В. (2017). Психолингвистические аспекты изучения речи пожилых людей. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика, (1), 131-137.

4. Большакова, Л. П. (2015). Особенности лексической и синтаксической структуры речи пожилых людей. Вестник Московского университета. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 3, 121-130.

5. Семенова, Н. А., & Чернышева, Л. Н. (2016). Особенности процессов восприятия и обработки информации в речи пожилых людей. Вестник Московского университета. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 1, 141-149.

6. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики: (Модели мира в литературе). - М.: Тривола, 2000.

BOLA NUTQIDA UNDOSH TOVUSHLARNING O‘ZLASHTIRILISHI (CHET TILI MISOLIDAGI TADQIQOTLAR ASOSIDA)

Saidaxmedova Odinaxon Ibroximjon qizi
odinaxonsaidaxmedova@gmail.com
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b., PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108806

Annotatsiya. Maqolada turli tillar doirasida tovush o‘zlashtirish jarayonini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari aks etgan ma’lumotlar berilgan. Berilgan ma’lumotlarda tovush o‘zlashtirilishida muayyan tartib mavjudligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *til o‘zlashtirish, tovushlar, tartib, tipologiya, ingliz, ispan, mandarin, tayvan tili*

Nutqni o‘zlashtirish bolaning vokal, akustik va og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga motorni rejalashtirish va bajarish, talaffuz, fonologik va artikulyatsiyani egallash kiradi.

Og‘zaki nutq ma’noni yetkazish uchun ishlatiladigan tovushlar yoki fonemalarning uyushgan yig‘indisidan iborat bo‘lib, til esa ma’noni yetkazish uchun belgilangan qoidalarga muvofiq foydalaniladigan belgilarning ixtiyoriy birlashmasidan iborat.[Nathani, Suneeti; Ertmer, David J.; Stark, Rachel E. 2009, 351] Grammatik va sintaktik o‘rganish tilni o‘zlashtirishning bir qismi sifatida qaralsa, nutqni o‘zlashtirish bola hayotining birinchi yillarida persepsiya va produksiyani rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Akustik nutq signallari bilan bog‘liq hissiy o‘rganish homiladorlik paytidanoq boshlanadi. [Hepper, Peter G; Shahidullah, Bs. 1994, 168]Yangi tug‘ilgan chaqaloq ko‘plab fonetik kontrastlarni farqlay oladi. Bu qobiliyat tug‘ma bo'lishi mumkin. Nutqni idrok etish taxminan 6 oyda unlilar uchun, 9 oyda tovush birikmalari va 11 oyda tilga xos undoshlar uchun xos bo‘ladi.[Nathani, Suneeti; Ertmer, David J.; Stark, Rachel E. 2009, 358]

Chaqaloq bola bo‘lib ulg‘aygan sari nutq tovushlarini farqlash qobiliyati ortishi kerak.[Rvachew, S.2007, 260] Rivojlanishning uchta bosqichi bo‘lib, bunda bola kattalarga o‘xshash, tovushlarning fonologik va artikulyatsion tasvirlarini taniydi yoki farqlaydi. Birinchi bosqichda bola, odatda, fonologik kontrastni bilmaydi va akustik va idrok etish jihatidan o‘xshash tovushlarni chiqarishi mumkin. Ikkinchi bosqichda bola fonologik kontrastlardan xabardor bo‘lib, kattalar tinglovchilari uchun sezilmaydigan akustik jihatdan turli xil tovushlarni chiqarishi mumkin. Nihoyat, uchinchi bosqichda bolalar fonologik kontrastlardan xabardor

bo‘lib, kattalar ishlab chiqarishiga idrok va akustik jihatdan aniq bo‘lgan turli xil tovushlarni chiqaradilar.

Chaqaloqlar yig‘lash orqali ovoz chiqarish qobiliyati bilan tug‘iladi. O‘sish va rivojlanish jarayonida chaqaloqlar o‘zlarining inventarlariga ko‘proq tovushlarni qo'shadilar. Chaqaloqlar ovozining ikkita asosiy tipologiyasi mavjud.

1-tipologiya 5 bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1.Refleksiv (0-2 oylik) yig‘lash, shovqin va vegetativ tovushlar.

2.Fonatsiyani boshqarish (1 oydan 4 oygacha) undoshga o‘xshash tovushlar.

3.Kengayish (3 oydan 8 oygacha) ajratilgan unlilar, ketma-ket ikki yoki undan ortiq unlilar va chiyillashlar.

4.Bo‘g‘inlash (5 dan 10 oygacha) – undosh unli (CV) birikmasi, tez-tez takrorlanadi (masalan, ba ba ba).

5. Murakkab shakllar (9 oydan 18 oygacha) turli xil doimiy unli birikmalar (CVC).

2-tipologiya: Ollerning chaqaloq fonatsiyalarining tipologiyasi,[3] asosan, bir necha kichik bosqichli 2 fazadan iborat. 2 asosiy fazaga nutqqa o‘xshamaydigan va nutqqa o‘xshash tovushlar chiqarish jarayoni kiradi. Oller yig‘lash, kulish, ingalashni nutqqa o‘xshamaydigan ovozli tovushlarga kiritsa, keyingi jarayonda talaffuz qilingan ibtidoiy artikulatsiya jarayonini nutqqa o‘xshash tovushlar fazasi sifatida baholaydi.

Grammatik strukturalar tizimli tartibda o‘zlashtirilib, tartib til o‘zlashtiruvchining yoshi yoki uning ona tilisidan mustaqildir.[Krashen, S.1982, 12] S.Krashen o‘z tadqiqotlarida til strukturalarining o‘zlashtirilishida muayyan tartib bor ekanini asoslaydi. Keyingi yillarda til o‘zlashtirish jarayoni bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar ishida tovushlarning o‘zlashtirilishida ham tartib mavjud ekaniga ishora qiladi. Xususan, quyidagi 1-diagramma Sander (1972), Grunvell (1981), Smit (1990) va Uilyamsonning (2010) birlashtirilgan ingliz tilini ona tili sifatida o‘zlashtirayotgan ingliz bolalarining ma’lumotlarini aks ettiradi. Har bir gorizontal chiziqning chap qirrasi bolalarning 50 foizi ma’lum bir undoshni to‘g‘ri ishlab chiqaradigan va nutqida ishlatadigan yoshni ifodalaydi. O‘ng tomon yoki har bir chiziq bolalarning 90% nutqida undoshdan foydalanishni o‘zlashtirgan yoshni ifodalaydi.

1-diagramma. Ingliz ingliz tilini ona tili sifatida o‘zlashtirayotgan ingliz bolalarining ma’lumotlari [Williamson, G. 2010]



Diagrammada *p, m, h, n, w, b* tovushlarining dastlab bolalar tomonidan o‘zlashtirilgani aks etgan. 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar talaffuzida shu tovushlarning sillabema (bo‘g‘in) tarzida hamda dastlabki so‘zlar tarkibida uchrashi qayd etilgan.

Paragvayda tug‘ilgan, tug‘ilganidan beri ispan, mandarin va tayvan tillaridagi muloqot qiluvchilar orasida yashaydigan, otasi paragvaylik bo‘lib, uning ona tillari ispan va guarani; onasi tayvanlik xitoy, mandarin va tayvan tillarida so‘zlashadigan va ispan tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan bolaning nutqidagi tovushlar rivoji kuzatilganda tovush o‘zlashtirishda muayyan tartib mavjud ekani qayd etilgan. Quyidagi jadvalda bolaning 3 tilda fonetik tovushlari rivoji yosh bo‘yicha berilgan.

1-jadval. Uch tilni o‘zlashtirayotgan bola nutqida undosh tovushlarning mavjudligi (yosh bo‘yicha)[Hua Zhu, 2010, 114]

Age of emergence of consonants in three languages (in year;month)

Age	Spanish	Mandarin	Taiwanese
1;3	p, m, n, ɾ, s, t, d, ʧ, k	t, n, m, p, k, tɕ	m-, k, k^h
1;4	l, b, x, g, ɲ, ʎ, j, w	ts, s, ŋ, ɕ, x, k^h	n, l, t, ts
1;5			p, h, s, b
1;6	f		ŋ
1;7 (no data)			
1;8		ts^h, l	-m
1;9			
1;10			ts^h, t^h
1;11			
Missing sounds	r	ɻ, t^h, $tɕ^h$, f, p^h, (ʂ, tʂ, $tʂ^h$)	p^h, g

Ikki yoshgacha bo‘lgan bolaning har uchta tilda ham tovushlar o‘zlashtirishida muanosiblik borligini ko‘rish mumkin. Xususan, 1 yoshu-u 3 oylik davridan 1 yosh 5 oylik davrigacha har uchala tilda ham *p, m, n, k, t, s* tovushlarining barqaror o‘zlashgani aks etgan. Demak, bola har uchala tilda shu tovushlar ishtirokida bo‘g‘inlar (ba’zan, dastlabki so‘zlar)ni ayta olgan.

Tadqiqotlar tovushlarning ona tili (*p, m, h, n, w, b)* hamda ikkinchi til (*p, m, n, k, t, s*) sifatida o‘zlashtirilishida bolalar dastlab nutqda lab undoshlarini nazoratga olishini ko‘rsatadi. Tartibdagi o‘xshashlik o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘zlashtirayotgan bolalar nutqini kuzatish, tajriba o‘tkazish, tartibni aniqlash (mavjud bo‘lsa) hamda tartibni yuzaga keltiruvchi psixolingvistik omillarni belgilash vazifasini tadqiq etishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hepper, Peter G; Shahidullah, Bs (August 1994). “The development of fetal hearing”. *Fetal and Maternal Medicine Review*. **6** (3): 167–179. doi:10.1017/S0965539500001108

2. Krashen, S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. New York: Pergamon Press. 1982. –P.12.

3. Nathani, Suneeti; Ertmer, David J.; Stark, Rachel E. (2009). “Assessing vocal development in infants and toddlers”. *Clinical Linguistics & Phonetics*. **20** (5): 351–69. doi:10.1080/02699200500211451

4. Rvachew, Susan (August 2007). “Phonological Processing and Reading in Children With Speech Sound Disorders”. *American Journal of Speech-Language Pathology*. **16** (3): 260–270. doi:10.1044/1058-0360(2007/030). PMID 17666551

5. Williamson, G. (2010) *English speech sounds: phonemes, allophones, and variations in connected speech*. [eBook] http://www.kalgoo.com. Accessed 09 March 2011.

6. https://www.researchgate.net/publication/228885790 Hua Zhu. The phonological development of a trilingual child: Facts and factors. Article in International Journal of Bilingualism / March 2010.

LINGUISTIC AGGRESSION AS A TYPE OF EMOTIONAL RESPONSE

Mukhamadiyev Aziz Shavkatovich
English language teacher
at Navoi State Pedagogical Institute
department of English language and literature
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108837

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada verbal (og‘zaki) agressiyaning ingliz adabiyotida ishlatilishi, bir-biriga semantik, pragmatik aloqaga kirishishiga ko‘ra xususiyatlariga ko‘ra o‘xshashlik va farqlari tahlil qilinadi. Shuningdek aggressiv hatti-harakatni vujudga kelishi, uni verbal holatda amalga oshirilishidagi vositalar hamda aggresiyaning insonga psixik ta’siri, aggressiyadan keying holati lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Bundan tashqari verbal aggresiyaning jazolash kabi turlari, ushbu turlarga tegishli bo‘lgan hatti-harakatlarni ifodalovchi misollar, ularning qo‘llanilishida aggressivlik darajasining oshishi yoki pasayishi misollar bilan ochib berishga harakat qilingan. Ingliz tillidagi verbal aggressiv iboralar solishtirilib tahlil qilingan va ularning qo‘llanilishidagi farq va o‘xshashliklar ochib berilishiga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *tajovuzkorlik, hissiy munosabat, og'zaki, og'zaki bo‘lmagan, xulq-atvor, shaxsning o‘ziga xosligi, noroziligi, o‘ziga xosligi, o‘ziga xosligi semantik leksemalar*

Annotation. This scientific article analyzes the similarities and differences of verbal (oral) aggression English literature according to their characteristics, semantic and pragmatic connections. The emergence of aggressive behavior, methods of its verbal implementation, the psychological impact of aggression on a person, and the situation after aggression are also analyzed linguistically. In addition, an attempt was made to identify types of verbal aggression such as punishment, examples of behavior related to these types, and examples of increases or decreases in the level of aggression when using them. Verbal aggressive phrases in English language were compared and analyzed, and an attempt was made to identify differences and similarities in their use.

Key words: *aggressiveness, emotional reaction, verbal, non-verbal, behavior, person's consciousness, disapproval, chew the target out, lexemes-identifiers, semantic lexemes*.

Human behavior, as a rule, is characterized by the presence of certain emotional components that reflect his inner state, as well as his attitude to the surrounding world and people. The presence of an emotional component of behavior is motivated mainly by the situation in which the individual is.

The development of aggressiveness in language and speech is greatly influenced by social processes that, changing a person's consciousness, as well as his emotional sphere, form his language, culture of behavior and culture of speech.

The importance of information as a means of carrying out a certain ideology has caused the distortion of reality by the mass media (mass media) in all countries of the world, including Britain, Uzbekistan and Russia. It is this factor that is reflected in the interpretation of events taking place in the world in gloomy tones with a hint of hostility and hatred, as well as hostile, a very aggressive modality of media texts of both cultures, often having a direct and rude manifestation.

Numerous and diverse emotional reactions accompany the communication process and manifest themselves in the form of emotionally expressive, mimic and pantomime movements, which, as a rule, are descriptive in the text. At the same time, nonverbal aggressive reactions accompanying interpersonal communication represent its paralinguistic component [Горелов 2006:14], which, similarly to linguistic means of communication,

“Leave me," said a **stern voice** behind him [Wilde, 2002:134].

The presented statement illustrates a descriptive way of conveying the speaker's disapproval, as evidenced by the stern lexeme, denoting “something that someone says or does that expresses **disapproval**” [Longman, 2003:1414] and used as a characteristic of the speaker's voice. Another example:

— *Sen hali shoshmay turgin! — dedi oyim* ***dag'dag'a*** *qilib!* [To’xtaboyev, 2010:7]

In the example, there is a description of the irritated speech of the hero using the verb "dag’dag’a", meaning "menace". It is obvious that the hero is deeply dissatisfied with the situation. The exclamation mark, as the most emotional graphic sign of the punctuation system of the language, as a rule, indicates the strength of emotion. Moreover, the analysis of the prosodic characteristics of the hero's speech, transmitted in a descriptive way, allows us to conclude about its suddenness and loudness, which is confirmed in the definition of this verb. Any cry always implies an emotional explosion and the release of one or another positive or negative emotion.

Based on the importance of all types of emotional response, we will nevertheless analyze the linguistic side of emotions and feelings, since they are of particular interest from the point of view of their embodiment by means of language and speech. So, for example:

LIZA. Oh, Freddy, a taxi. The very thing.
*FREDDY. **But, damn it,** I've no money* [Shaw, 2001:120].

In this example, the emotion of irritation associated with the situation of the hero's lack of money for a taxi is embodied. His use of the colloquial interjective exclamation damn it in speech indicates the strength of emotion, as, of course, is evidenced by the dictionary definition of the interjective exclamation damn it – "used to show that you are annoyed or disappointed" [Shaw, 2001:339].

However, the emotional state of the speaker is not limited only to irritation. It is obvious that it is combined with the emotion of disappointment, as evidenced by the use of the conjunction **but**, which, according to functional grammar, expresses an opposition indicating that the speaker has a complex emotion of irritation-disappointment. In the given example, the emotion of irritation-frustration, conveyed by the interjection exclamation **damn it**, is amplified not only by the contrastive conjunction **but**, but also by syntactically–framed commas, in which the interjection exclamation is included. A comma, as a rule, indicates a pause in the speaker's speech; in the example we have indicated, it separates the lexemes **but** and **damn it**. Note that the **but** token indicates the existence of an obstacle, and the comma following it is necessary for the author to create a kind of intrigue necessary to keep the interlocutor in a state of uncertainty associated with the impossibility of subsequent actions of the speaker. Therefore, the post–pause realization of irritation – **damn it - I'll kill you!** – he **shouted** and, **grabbing** a marble board from the table with a force still unknown to him, took a step towards it and **swung** at it.

The volume of speech, intonation, lexical structure, and syntactic organization of the duplicate of the aggressor are all external manifestations of hostility that are determined by the interior aspect. The word **"stand up"** - "*assume a standing position*" [Longman, 2003:1231], expresses the order in the text fragment, and its infinitive grammatical form denotes the imperative mood. While the verb **"stand up"** is repeated in the hero's replicas, there is a clear intonation difference between these replicas, and the first is somewhat of a placeholder before the second is put into practice:

- *Get up!* I yelled, *"Get up!"* in a quiet but stern voice.

The inclusion of the most emotive graphic sign—the exclamation mark—indicates that the lexeme **"stand up"** in both instances is marked by a certain level of emotionality. However, you may determine the difference in the intensity of the angry feeling felt by the speaker by comparing the syntactic structures of two copies of **"Stand up!"** (one exclamation mark) and **"Stand up!!!"** (three exclamation marks). In other words, the second replica's inclusion of three exclamation marks signifies a triple intonation amplification. The final replica yelled, **"Get up!"** loudly. The speech volume scale reveals that it is at a greater level because the addressee has lost control of his emotions. As a result, in the text fragment, the speaker's violent reaction's exterior aspect comes through in both the lexical structure of his statements and his intonation traits, or the power and volume of his voice.

Initially, it is important to acknowledge that verbal and non-verbal aggressiveness include a range of emotions that varied in intensity, spanning from the least potent to the most potent. Therefore, it is important to consider the level of severity when characterizing hostile feelings. [Вилюнас, 1993:166].

For example,

*"You are **mad**, Dorian."*

"Ah! I was waiting for you to call me Dorian."

*"You are **mad"*** **[**Wilde, 2002:304**]**

The text fragment illustrates the hero's aggression of medium intensity, which manifests itself in the condemnation of the addressee, implemented through the lexical repetition of **mad**, and does not imply physical violence against the object.

Moreover, aggression, as well as the intensity of its expression, like any other type of emotional response, can certainly be both controlled and uncontrolled. Let us note such an important characteristic of verbal and non-verbal aggression as awareness (purposefulness) / unawareness of the corresponding actions. Let us note that by conscious verbal and nonverbal aggression we understand actions that are characterized by the presence of an internal urge to cause harm to the recipient, while the unconscious variety of the type of emotional response under study does not imply the presence of such an urge.

For example:

Higgins (in despairing wrath outside). What the devil I have done with my slippers? (He appears at the door.)

*Liza (**snatching** up the slippers, and hurling them at him one after the other with all her force). There are your slippers. And there. Take your slippers; and may you never have a day's luck with them!* [Shaw, 2001:108].

Thus, making a conclusion, the analysis of aggressive reactions indicates to us the possibility of attributing verbal and nonverbal aggression to the types of emotional response. Thus, we observe the substitution of the inner feeling (envy) by an external emotion (contempt), which are represented in the analyzed statement. At the same time, verbal and non-verbal aggression includes a variety of a) aggressive emotions: disapproval, irritation, anger, etc.; b) negative feelings: disgust, envy, contempt, etc., as well as c) affects: stupor, loss of self-control, etc. Moreover, any aggressive manifestation of emotions, feelings and affective states has a different embodiment in language and speech, which is reflected in the lexical and semantic system, grammatical and syntactic structures, as well as in the use of many stylistic techniques.

REFERENCES:

[1]. Вилюнас В.К., Гиппенрейтер Ю.Б. Психология эмоций. М.: МГУ, 1993. 304 p.
[2]. Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. М.: КомКнига, 2006. 112 p.

DICTIONARIES:

[3]. Longman Dictionary of Contemporary English. Pearson Education Limited, 2003. 1950 p.

LITERATURE:

[4]. Толстой Л.Н. Анна Каренина Т. 1. М.: «Правда», 1986. 496 с.
[5]. Shaw G.B. Pygmalion. M.: Глосса, 2001. 224 p.
[6]. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 236 b
[7]. Wilde O. The Picture of Dorian Gray. M.: «Менеджер», 2002. 304 p.

UDK:811.512.133`42

NUTQ JARAYONINING IKKI TOMONLAMA OQIM MODELI TADQIQI

Qambarova Lobar Athamboy qizi
qambarova.lobar@bk.ru
ToshDO‘TAU 2-kurs tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11108872

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqni idrok etish va ifodalashning ikki tomonlama modeli tadqiqi xorijiy manbalarni o‘rganish asosida tahlil qilingan. Nutq jarayonining miya faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi va bu jarayonda miyaning ishlash mexanizmlarini o‘rganish neyrolingvistik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biridir.

Kalit so‘zlar. *ikki tomonlama oqim modeli, Vernike-Lixtgeym-Geshvind modeli, Hikkok-Poeppel modeli, ventral oqim, dorsal oqim.*

Annotation. It was analyzed dual stream model of speech perception and comprehension on basic foreign researches. Process of speech associate with brain activity and learning of mechanism brain’s work is one of the main branch of neurolinguistics.

Key words: *dual stream model, the Wernicke-Lichtheim-Geshwind model, Hickok-Poeppel dual-stream model, ventral stream, dorsal stream.*

Nutq jarayoning ikki tomonlama oqim (dual-stream) modeli nutqni tushunishda kodlashning ikki ehtimoliy manbasi mavjudligini taklif qiladi: motor tizim va leksik-konseptual tizim. G.Hikkok, D.Poeppel, P.Rausheker, K.Skot, Y.Rossetti, L.Pisella, F.Shvartz, O.Faseyitan, J.Kim, J. Fridriksson, G.Yourganov, L.Bonilha, G.Spitsyna, E.Varren, E.Turkheimer, J.Vise kabi tadqiqotchilar hammualliklifda ikki tomonlama oqimga oid ilmiy izlanishlar olib borishgan [Hickok, 2004:67].

G.Hikkok va D.Poeppellar tomonidan Vernike-Lixtgeym modeli asosida Hikkok-Poeppel ikki tomonlama oqim modeli taklif qilingan [Hickok, 2022:3].

Ushbu modelga ko‘ra nutq jarayoni ikki oqimdan iborat. Birinchi oqim ventral oqim bo‘lib, tushunish jarayoni sodir bo‘ladi. Miyaning temporal va frontal qismlari bo‘ylab harakatni o‘z ichiga olgan bu oqimda akustik signallar fonemalarga, undan leksik birliklarga o‘zgaradi va so‘nggida gap ma’nosi tushuniladi. Nutqni takrorlash

kabi tushunish talab qilinmaydigan holatlarda dorsal oqim nazariyasi taqdim qilinadi. Dorsal oqim motor tizim bilan bog‘langan frontal qismning yuqori hududlari orqali temporal qismdan o‘tadi.

Dastlabki eshitish qismidagi akustik ma’lumot chakka burmasining orqa yuqori qismida fonologik ifoda bilan birlashadi. Shundan so‘ng nutqiy ma’lumot tinglovchining vazifasiga ko‘ra ikki oqim bo‘ylab harakat qiladi. Tushunish talab qilingan vazifada temporal burmaning oldingi va frontal burmaning pastki qismida ko‘chish jarayoni kechadi hamda bu ventral oqim hisoblanadi. Takrorlash vazifasi talab qilinganda temporal burmaning orqa qismidan frontal burmaning pastki qismiga tomon oqim yuzaga keladi [Brennan, 2022:63].

Nutq jarayonining dastlabki modellaridan biri Vernike-Lixtgeym-Geshvind modelidir [Hickok, 2022:2].

Bu modelda nutqni ifodalash, tushunish va takrorlashda ishtirok etuvchi tizimlar e’tiborga olinadi. Vernike ikkita til markazini taklif qiladi: motor markaz (M) va eshitish markazi (A). Bu ikki qism o‘rtasida o‘zaro bog‘lanish mavjud bo‘lib, ularning o‘zi ham konseptual bilimlar tizimi (C) bilan bog‘langan. Modelda uchta qismning o‘zaro bog‘lanishi simli tarzda ifodalangan. Nutqning idrok etilishida dastlab temporal burmaning yuqori chap hududida joylashgan so‘zlarning eshituv xotira qismi faollashadi, keyingi bosqichda konseptual tizim faollashib nutq tushunarli bo‘ladi. Vernike fikriga ko‘ra, me’yoriy nutq barcha qismlar mavjud bo‘lishini talab qiladi. Afaziya sindromlarida yuqorida tilga olingan markazlarning yoki ularni o‘zaro bog‘lovchi tolalarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Motor markazning shikastlanishi nutqning ravon bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi, chunki talaffuz uchun motor xotira yo‘qoladi. Biroq eshitish markazi bilan konseptual bilimlar markazi o‘rtasidagi aloqa saqlanganligi uchun bemor nutqni yaxshi

Vernike-Lixtgeym modeli



tushunadi. Eshitish markazining shikastlanishi natijasida esa so‘zlarni eshitish natijasida faollashuvchi xotira qismi zararlanadi. Konseptual bilimlar markazi bilan motor qism saqlanganganligi uchun nutq ravon bo‘ladi. Biroq eshitish va motor qismlari o‘rtasidagi “to‘g‘ri aloqa” yo‘qolganligi sababli nutqiy xatolik (parafaziya) lar kuzatiladi. 1874-yil Karl Vernike tomonidan qayd etilgan qismlarning zararlanishi asosida afaziyaning uch muhim turi ajratilgan: motor (Broka) afaziya, sensor (Vernike) afaziya va o‘tkazuvchan afaziya. Keyinchalik Lixtgeym ushbu modelni kengaytirib, til tizimini konseptual tizim bilan bog‘lovchi tolalarning shikastlanishi sababli transkortikal afaziya yuzaga kelishini qo‘shimcha qiladi. Geshvind modelni qayta ko‘rib chiqadi va zamonaviy klinik-anotomik to‘g‘irlash ishlari bilan modelni takomillashtiradi, pastroq darajadagi eshitish va motor qismlarini yuqori darajadagi nutq markazlaridan chegaralaydi.

G.Hikkok yuqoridagi klassik modelda tilning iyerarxik tuzilishi hisobga olinmaganligini qayd etadi.

Modelda faqat so‘z bosqichini qamrab olganligini, afaziya esa fonologik, leksik



va sintaktik birliklarga ta’sir ko‘rsatishi aytiladi. G.Hikkok fikriga ko‘ra til modeli soddalashtiriladigan bo‘lsa, unga muvofiq ravishda neyrologik model ham soddalashtirilishi kerak. Neyrologik jihatdan klassik modelda anatomik farazlar aks etmaganligi ko‘rinadi. Zamonaviy dalillarga ko‘ra Broka markazining shikastlanishi faqatgina Broka afaziyasiga sabab bo‘lmaydi. Tadqiqotlar Broka afaziyasi ham Broka, ham Vernike sohalarining shikastlanishi bilan yuzaga kelishini ko‘rsatgan. Klassik model butunlay inkor etilmagan holda faqat til nuqtai nazaridan emas, ko‘rish, eshitish va somatosensor tizimlar ham e’tiborga olingan Hikkok-Poeppel ikki tomonlama oqim modeli (Hickok-Poeppel dual srteam model) taklif qilinadi.

Bu modelda miya nimanidir sezish jarayonida o‘zaro bog‘liq, biroq ayni paytda farqlanuvchi ikki muhim vazifaga duch kelishi hisobga olinadi. Masalan, yerda yotgan ilon yoki daraxt shoxi; ovoz sherning o‘kirishi yoki zebraning ovozi ekanligi qanday farqlanadi. Birinchidan, shoxlar, ilonlar, sherlar, zebralar haqidagi mavhum bilimlar sezish va konseptual xotira tizimlarida kodlanadi, keyin bu tizimlar o‘rtasidagi moslik hisoblab chiqiladi. Boshqa tomondan esa xuddi shu ma’lumotlardan obyektning o‘lchami, shakli, joylashuvi, uni ushlash va boshqarish kabi harakatlarni muvofiqlashtirishda foydalaniladi. Sezish va motor tizimlari orasidagi muvofiqikda faqat mavhum tushunchalarni kodlashgina emas, obyektga muayyan makonda, muayyan joyda ma’lum bir maqsad bilan qanday ta’sir ko‘rsatish ham talab qilinadi. Ko‘rish (Milner va Gudeyl, 1995, 2008) va eshitish (Raushekker, 1998; Raushekker va Skot, 2009) tizimlarida ham yuqoridagi kabi ikki muhim vazifa farqlanishi aniqlangan bo‘lib, ventral oqim miyaning temporal qismidagi “nima” oqimi, dorsal oqim esa frontal qismidagi “qanday” oqim. Garchi bu oqimlar orasida ko‘p bahslar bo‘lsa-da, dorsal va ventral qismlarning shikastlanishi natijasida sindromlar “qanday” va “nima” oqimlari o‘rtasida o‘zaro farqlanishini rad qilib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi holatlar inobatga olinsa, mantiqiy jihatdan Karl Vernike tomonidan ikki oqim haqidagi dastlabki qarash taqdim etilganligi anglashiladi: eshitish-konseptual oqimda (A-C) nutq tushunilsa, eshitish-motor (A-M) oqim nutqni ifodalanadi.

Hikkok-Poeppel modeli nutq jarayoning neyral asosidagi ikki masalani rivojlantirishga qaratilgan. Miya yarimsharlarining bir-biridan uzilishi yoki ishlamay qolishi bir tomonlama shikastlanish hisoblanib, fonologik bosqichdagi kamchilikka sabab bo‘ladi. Vernike afaziyasiga chalingan bemorlarda nisbatan kuchsiz fonemik idrok etishdagi kamchilik aniqlangan. Bu nutqni idrok etish va ifodalashda chap yarimsharlarning dominantlik qilishi haqidagi uzoq muddatli qarashlarni savol ostiga oladi. Ikkinchi jihat bo‘g‘in va so‘zning farqlanishi masalasi. Garchi ikki holatda ham fonemalar farqlanishi talab qilinsa ham, ular alohida jarayonlar hisoblanadi. Bunday xulosaga Mikeli (1980) va Rogalskiylarning tadqiqotlari sabab bo‘lgan. Unga ko‘ra bemor *-ba* va *-pa* bo‘g‘inlarini ajrata olmasa ham, *bear (ayiq)* so‘zini rasmda so‘zga talaffuzi yaqin bo‘lgan *pear (nok)* so‘zidan farqlay olgan.

Hikkok va Poeppellarning birinchi masalaga taklifi bir qator olimlarning (Gazzaniga va Sperry,1967; Zaidel, 1985; Gudglas, 1993; Poeppel, 2001) qarashlariga uyg‘un holda bo‘lib, eshitib tushunish kontekstida har ikki yarimshar

nutqni idrok etishga qodirdir. Nutqni tahlil qilishning dastlabki bosqichlari, birinchi navbatda, ikki tomonlama tashkil etilgan, ikkala tizimning nutq signalini tahlil qilish usullarida ham nozik tomonlar mavjud. Bu bir tomonlama yuqori temporal bo‘lakning shikastlanishi so‘zni tushunishda fonemik darajadagi idrok etishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligini bildiradi. Ushbu gipoteza, shuningdek, yuqori temporal burmaning ikki tomonlama shikastlanishi, bir tomonlama zararda kuzatilmaydigan kuchli fonologik darajadagi retseptiv nuqsonlarni keltirib chiqarishi mumkinligini taxmin qiladi.

Bo‘g‘in va so‘zning farqlanishi alohida jarayonlar ekanligi masalasiga Hikkok quyidagicha qaraydi. Nutqning idrok etilishida bo‘g‘inlarning farqlanishidan ko‘ra so‘zlarning farqlanishi muhimdir. So‘z tushunilishida har ikkala yarimsharning temporal qismlarida ikki tomonlama ventral oqim yuzaga keladi. Bo‘g‘inlar farqlanishida esa chap yarimsharda dorsal oqim yuzaga keladi va temporal burmaning yuqori qismidagi ventral oqimni qisman qoplaydi. Bu esa bir-biridan bo‘g‘in va so‘zning farqlanishi ikki xil alohida holat ekanligi haqidagi gipotezani taqdim qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ikki tomonlama oqim modeli nutq jarayonini modellashtirishga qaratilgan bo‘lib, miyaning nutq jarayonidagi holatining inobatga olinganli modelning ahamiyatlilik darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hickok G, Poeppel D. Dorsal and ventral streams: A framework for understanding aspects of the functional anatomy of language. Cognition. 2004; 92:67–99. [PubMed: 15037127];

2. Hickok G, Poeppel D. The dual stream model of speech and language proceesing. Handbook of Clinical Neurology. Vol.185 (3rd series). Apahsia.

3. Language and the brain. Jonathan R.Brennan. – Oxford, 2022– Oxford, 2022. – P.13.

III SHU’BA. KORPUS LINGVISTIKASI

TABIIY TILNI QAYTA ISHLASHDA SO‘Z TURKUMLARINI TEGLASH AHAMIYATI VA ZARURATI

Abjalova Manzura Abdurashetovna
Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
E-mail: abjalova.manzura@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1927-2669

Adilova Munojot Asrororovna
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: adilovamunojot@gmail.com
ORCID: 0009-0001-6599-6959
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109071

Annotatsiya. Tabiiy tilni qayta ishlashda so‘z turkumlarini teglash morfologik tahlil bosqichining muhim jarayoni bo‘lib, matnlarning to‘g‘ri va mukammal morfologik hamda sintaktik tahlilini amalga oshirilishiga erishiladi, buning natijasida avtomatik tarjima, nutq sintezatori, nutqni tanish dasturi, semantik analizator kabi dasturiy ta’minot va tizimlarning tizimli ishlashiga, til korpuslari, kompyuter lingvodidaktikasi ahamiyatining oshishiga olib keladi. So‘z turkumlarini teglash (rus tilida: частиречная разметка; ingliz tilida: Part of Speech Tagging / POS Tagging) ancha dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonning ahamiyati va uning bir qancha bosqichlar uchun zarurati xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tabiiy tilni qayta ishlash, NLP, so‘z turkumlari, teg, teglash, sun’iy intellekt.*

Abstract. In natural language processing (NLP), tagging part of speeches is an important process of the morphological analysis stage, while correct and perfect morphological and syntactic analysis of texts is achieved, as a result of which programs such as automatic translation, speech synthesizer, speech recognition software, semantic analyzer are brought to systematic work, as a result of the importance of language corpora and computer linguodidactics are increasing. Part of Speech Tagging / POS Tagging is a very important issue. This article talks about the importance of this process and the need to carry it out in several stages.

Keywords: *Natural Language Processing (NLP), Part of Speech Tagging / POS Tagging, NLP, tag, tagging, artificial intelligence.*

Kirish. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing: keyingi o‘rinlarda – NLP) ancha murakkab jarayon bo‘lib, unda ijtimoiy tabiatga ega tilning barcha hodisalari, umumiy va xususiy jihatlari, istisnoli holatlari, fonetik, morfonologik, leksik, grammatik, semantik va hatto orfoepik xususiyatlarini e’tiborga olish zarur hisoblanadi. Sun’iy intellekt tizimini yaratishga bel bog‘langan ayni damda matn birliklarini raqamli texnologiyalar orqali qayta ishlanishiga erishish muhim natija hisonlanadi [Abjalova, 2021:6]. NLPda leksik birliklar bilan ishlashning birlamchi va asosiy vazifasi so‘z turkumlarini teglash hisoblanadi. Har bir so‘z uchun turkumlarni teglash, NLP arsenalidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib, tabiiy tildagi sintaktik va semantik tuzilmalarni tahlil qilish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

NLPda so‘z turkumlarini teglash omillari quyidagilar bilan belgilanadi:

Morfologik tahlil – avtomatik morfologik tahlil, ya’ni so‘zshakl tarkibini aniqlash, lingvodidaktika samaradorligini oshirish maqsadida so‘zlarning turkumi aniq belgilanishi muhim sanaladi. Ma’lumki, o‘zbek tilida o‘n ikkita turkum bo‘lib, ular quyidagicha guruhlanadi: mustaqil so‘z turkumlari (ot, sifat, fe’l, ravish, son, olmosh), yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama), oraliq so‘zlar (modal, taqlid, undov). Tilning ijtimoiy tabiati so‘zlarning turli rollarga kirishishiga to‘sqinlik qilmaydi va bu holat muayyan so‘zning turkumi ko‘chuvchanligini yuzaga keltiradi. So‘z turkumlaridagi bunday ko‘chish – konversiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida ham tadqiq etilgan [Eltazarov] bo‘lib, bugungi kunda morfologik ko‘chishning, asosan, quyidagi turlari ko‘rsatiladi: 1) otlanish (substantivatsiya); 2) sifatlanish (adyektivatsiya); 3) sonlanish (numerilizatsiya); 4) olmoshlanish (pronominalizatsiya); 5) ravishlanish (adverbializatsiya); 6) fe’llanish (verbalizatsiya); 7) tasviriylanish (essivatsiya); 8) undovlanish (interyektivatsiya); 9) modallashish (modalyatsiya); 10) ko‘makchilashish (postpozitionalizatsiya); 11) bog‘lovchilansh (konyuktionalizatsiya); 12) yuklamalashish (partikulyatsiya). Masalan, konversiya yo‘li bilan sifatga ko‘chgan so‘zlar quyidagilar: 1. Juft va takroriy otlar: *mosh-guruch, yo‘l-yo‘l, rang-barang, xilma-xil*. 2. O‘zak holidagi fe’llar: *daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash*. 3. Harakat nomi shaklidagi juft fe’l: *olmoq-solmoq*. 4. Yaqin (aniq) o‘tgan zamondagi juft fe’llar va fe’lli birikmalar: *oldi-qochdi* (gap), *kuydi-pishdi* (ayol), *tug‘di-bitdi* (farzand), *ichakuzdi* (hangomalar),

supraqoqdi (o‘g‘il, ya’ni kenja o‘g‘il). 5. Takroriy olmosh: *manman*. 6. Takroriy son: *birdan-bir* [Nurmonov, Tursunov, Xolmurodov, Mahmudov]. So‘zlar bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tganda mazkur so‘zning grammatik mohiyati, qisman ma’nosi o‘zgaradi. Shu bois NLPda har bir so‘zga xos morfologik xususiyatlar e’tiborga olinishi zarur. Bunday jiddiy yondashuv avtomatik morfologik tahlil jarayonining samaradorligini oshiradi, ahamiyatli natijalar berishini kafolatlaydi.

Sintaktik tahlil – gapning grammatik tuzilishini tushunish uchun so‘z turkumligini belgilash zarur. Har bir so‘zning turkumi ramziy jihatdan belgilanishi – teglanishi natijasida gapning strukturasini dasturiy ta’minot yaxshi tushunadi. Ma’lumki, sintaksis grammatikaning ikkinchi bo‘limi bo‘lib, so‘zlarning tobe bog‘lanishi va gap tuzilishini o‘rganadi. Gap bo‘laklardan iborat. O‘zbek tilida beshta gap bo‘lagi mavjud: ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol. Gap modellari aynan ushbu bo‘laklarning ishtiroki va gapdagi o‘rni bilan shakllantiriladi. NLP uchun asosiy masala har bir gap bo‘lagi qaysi so‘z turkumlari ifodalanishini aniqlash hisoblanadi. Jumladan, o‘zbek tilida ega to‘qqizta turkum bilan ifodalanadi, qolgan uchta so‘z turkumi so‘zlashuv uslubidagina ega vazifasida keladi. NLPda sintaktik tahlil vazifasi ikkita: 1) gap strukturasini aniqlash, bunda inversiyaga yo‘l qo‘yilgan holatlar odatdagi (gap modeliga asosan) tartibga tiklanadi; 2) gap bo‘laklarini belgilash amalga oshiriladi. Masalan,



1-rasm. Gapning sintaktik tahlili

Tildagi polifunksionallik morfologik tahlilda bo‘lganidek, sintaktik tahlilda ham dolzarb muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, sifat turkumiga oid so‘zlar ravish bajargan vazifalarda kelishi ham keng tarqalgan holatlardan. Sifat va ravishning leksik-semantik xususiyati “belgi”ni ifodalashi bilan aynanlikni yuzaga

keltiradi, biroq sifat turg‘un xarakterdagi belgini anglatsa, ravish jarayon xarakteridagi (adverbial) belgini ifodalashga xizmat qiladi. Ammo shunday so‘zlar borki, gapda u narsa-buyumning ham, harakatning ham belgisini ifodalab keladi. Masalan, *yaxshi kitob, yaxshi bajarmoq* kabi. Ammo bu holat konversiya hisoblanmaydi, sintaktik vazifa almashishi, xolos [Sulaymonova, Tojimatov], ya’ni sifat turkumiga oid yaxshi so‘zining *yaxshi kitob* birikmasida sifatlovchi-aniqlovchi, *yaxshi bajarmoq* birikmasida esa hol (sifat bilan ifodalangan ravish holi) vazifasida kelgan. *Chiroyli yurmoq, qattiq kulmoq, achchiq gapirmoq* kabi misollarda ham sifat turkumidagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi saqlanib qolgan bo‘lib, sintaktik vazifasigina o‘zgargan. Bunday vaziyatlar sintaktik tahlilda (ayniqsa, mashina tarjimasida) muammoni yuzaga keltirmasligi uchun NLPda har bir leksik birlik turkumi qat’iy tegga ega bo‘lishi zarur.

Noaniqliklarni aniqlash – mazkur jarayonda ko‘p ma’noli, omonim va polifuksional so‘zlarning kontekstdagi semantikasi aniqlanadi [Abjalova, 2020; 2021]. Ushbu jarayonning to‘g‘ri va aniq bajarilishi, avvalo, har bir so‘zning semantik tabiati morfologik jihatdan aniq teglanishini talab qiladi, keyingi muhim talab, kollokatsiyalar hisoblanadi (bu haqda keyinroq batafsil to‘xtalamiz). Ma’lumki, muayyan omonim so‘z, o‘z o‘rnida, ko‘p ma’noli ham bo‘lishi mumkin. Masalan, *achchiq* so‘zi ikkita omograf hisoblanadi. 2-chizmada ko‘rsatilganidek, ikkinchi achchiq omografi ko‘pma’noli hisoblanadi. Bunday hollarda leksik birlikning so‘z turkumi doirasida muayyan semantik kategoriya (leksik-semantik guruhi, semantik maydoni kabilar)ga mansubligi belgilanishida so‘zning bir necha semantik maydonga mansubligiga ko‘ra fasetli klassifikatsiya amalga oshiriladi (2-chizma). Mazkur tasnif yordamida kontekstda so‘zning aniq semantikasi aniqlanishiga erishiladi.



2-chizma. ‘*achchiq*’ omonim so‘zining semantik maydonga mansubligi fasetli klassifikatsiya ko‘rinishida

Nomga ega obyektlarni aniqlash – NLPda NER (Named Entity Recognition) texnologiyasi mavjud bo‘lib, uning vazifasi nomlarga ega obyektlar: shaxs, muassasa, geoobyektlar, qisqartmali tashkilot nomlari, bayram nomi, firma va kompaniyalarni matndan topadi. Bunda faqat atoqli nomga tayanilmaydi, balki turdosh otlarga mansub so‘zlar ham e’tiborga olinadi. Masalan, *Toshkent ko‘chalari chiroy ochib bormoqda* gapidagi *ko‘cha* so‘zi joy nomi ekanligi aniqlanadi. Aynan turdosh otlarning ham NER texnologiyasida ahamiyatli ekanligi so‘zlarning leksik-semantik ifodasiga ko‘ra tashkilot nomi, o‘rin-joy nomi, tashkilot, muassasa nomi, ta’lim maskani nomi kabi aniq semantik guruhlar bo‘yicha teglanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z turkumlarini teglash NLPda muhim jarayon bo‘lib, keying bosqichlarning to‘liq bajarilishiga asos bo‘ladi, matndagi so‘zlarning morfologik, sintaktik va semantik tahlilining mukammal bajarilishiga omil bo‘ladi. Asosiysi, nafaqat matnlar tahlili, balki mashina tarjimasi, matnlar generatsiyasi kabi dasturiy ta’minotlar algoritmlarining aniqroq va mukammal bo‘lishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Lingvistik dasturlar uchun omonimlarni tahlil qilish texnologiyasi // “Tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy 1-onlayn konferensiya. – Andijon, 2020. – B. 666-668.

2. Abjalova M. Omonimiya va lingvistik tizimlarda omonimlarni farqlash usullari. // “Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences (ORIENS). Vol.1, Issue 10. SJIF 2021-5.423. – pp. 1016-1021. www.oriens.uz ISSN 2181-1784.

3. Abjalova M., Elova D. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da so‘z turkumlarini teglash masalasi. // O‘zbekistonda til va madaniyat, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 1/2021. – B. 6-20.

4. Tojimatov H. Tub sifatlar ma’nolarini illyustrativ reallashtirish. // Til va adabiyot ta’limi, 2002. 5-son. 27-30 betlar.

5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиѐти. 2001.4-сон. 5–7-бетлар.

6. Нурмонов А. Ўзбек тили назарий морфологиясининг асосий тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиѐти. 1998. 2-сон. 7–10-бетлар.

7. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т.: Шарқ, 2001. 164 б.

8. Сулаймонова Г. “Яхши” сўзининг полифункционаллиги. Тил ва адабиёт таълими. 2005, 6-сон. 24-25-бетлар.

9. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.

10. Холмуродов А. Креолизованные и некреолизованные подсистемы современного узбекского словообразования. Т.: Фан, 1989. –143 с.

11. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. Монография. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, – 135 б.

-a, -y ZAMON SHAKLI VA UNI KORPUSDA ANNOTATSIYALASH

Xonnazarov Elyor G‘ofurovich,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi
xonnazarov90@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109091

Annotatsiya. Ushbu maqolada -a, -y zamon shakllari bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida mavjud qarashlarga munosabat bildirilgan. Bu grammatik shakllarni avtomatik tahlilda omonimlaridan farqlash, annotatsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yechish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *korpus, zamon shakli, annotatsiya, kontekst, o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, hozirgi-kelasi zamon*

Annotation. This article treats the existing views in Uzbek linguistics on the forms of tense -a, -y. These grammatical forms are distinguished from their homonyms in automatic analysis, recommendations are made to solve the problems that arise in the annotation process.

Keywords: *corps, tense form, annotation, context, past tense, present tense, future tense, present-future tense*

O‘zbek tilshunosligida zamon shakllari tasnifidagi turlicha yondashuvlar ko‘p hollarda -a, -y shakli va u mansub deb qaralgan hozirgi-kelasi zamon bilan bog‘liq. Bu shakllar ba’zi olimlar tomonidan hozirgi zamon, ba’zilar tomonidan kelasi zamon, ko‘pchilik tomonidan esa umumlashtirib hozirgi-kelasi zamon shakli sifatida baholanadi. Ayrim manbalarda hozirgi-kelasi zamon hozirgi zamonning bir turi sifatida taqdim qilinsa [Ғуломов, 1954:31; Турсунов, 1992:342; Мирзаев, 1970:150], ayrimlarida u kelasi zamonning turi sifatida ko‘rsatiladi[Жўраева, 1961:39]. Tilshunos A.Hojiyev esa uni aniqlik va gumon shakllariga ega bo‘lgan alohida zamon turi sifatida keltiradi[Ҳожиев, 1973:157].

Bizningcha, obyektiv borliqda bo‘lgani kabi tilda ham o‘tgan, hozirgi, kelasi zamondan boshqa zamon bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, matn tarkibidagi har bir gap muayyan bir zamonga ishora qiladi, ya’ni bir shakl bir vaziyatda ham hozirgi, ham kelasi zamonni ifodalamaydi. Tasniflardagi yuqoridagi har xilliklarning sababi

hozirgi-kelasi zamon atamasining -a, -y zamon shakllari mohiyatini o‘zida aks ettira olmasligi bilan ham bog‘liq.

-a (-y) shakllari omonim affikslardan sanalib, fe’l tarkibida uning quyidagi vazifalarini farqlash kerak:

1. Fe’l yasovchi shakl: *Qo‘limni tirnab olgani bois, qo‘lim* ***qonadi.****(daryo.uz). Quyosh* ***qoraydi*** *va Yerda magnit bo‘ronini yuzaga keltirdi. (kun.uz)*

2. Fe’lni ravishga xoslovchi ravishdosh shakli: *Anzirat xola Sidiqjonning bemahal yurishidan jinday koyidi, keyin bolaning bugun qilgan sho‘xliklari, aytgan gaplari to‘g‘risida* ***kula-kula*** *so‘zladi. (A.Qahhor). Go‘ro‘g‘liga, ketmagin, deb tarmashdi,* ***Yig‘lay-yig‘lay*** *barin o‘pkasi shishdi. (“Go‘ro‘g‘li” dostonidan).*

3. Hozirgi zamon shakli: *O‘zim ham koronavirus bo‘lganim uchun bolajonlarning holatini* ***tushunaman****. (daryo.uz). O‘zbek yozuvchilarining asarlarini sevib* ***o‘qiyman*** *(marifat.uz).*

4. Kelasi zamon shakli: *Rossiya bosh vaziri Mixail Mishustin 9-oktabr kuni Yerevanga* ***boradi.*** *(kun.uz). Malayziya hukmdorlari (valiahd sultonlar) kengashi 24-yanvarda yangi qirolni* ***saylaydi****. (kun.uz).*

5. Buyruq-istak mayli shakli: *Undan ko‘ra chala qolgan maqolam ustida* ***ishlay.*** *(xs.uz).* Bunda faqat unli harf bilan tugovchi asoslarga qo‘shiluvchi -y shakli qo‘llaniladi. Bu holatda mayl shakli zamon ma’nosini sinkretik ifodalaydi.

So‘z yasovchi -a (-y) shakli fe’l lemma takibida yaxlit olinadi. -a/y shaklining ravishdosh yoki hozirgi zamon shakli hosil qilishini, shuningdek, -y shaklining buyruq-istak maylini hosil qilishini farqlashda shaxs-son qo‘shimchalari filtr vazifasini bajaradi. Agar -a/-y shaklidan so‘ng shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shilsa, u holda -a/-y hozirgi zamon shakli hisoblanadi, aks holda -a/-y ravishdosh yoki -y buyruq-istak mayli shakli bo‘ladi.

Agar F+↓N+↓BB+y+Sh2 bo‘lsa, u holda “y = Z2(1,al1)”.

Agar F+↓N+a+Sh2 bo‘lsa, u holda “a = Z2(1,al2)”.

Bunda F – fe’l lemma, N – nisbat shakli, BB – bo‘lishsizlik shakli, Sh2 – shaxs-son shakllari 2-guruhi, Z – zamon shakli (Z1 – o‘tgan zamon, Z2 – hozirgi zamon, Z3 – kelasi zamon).

Misollardan ko‘rinadiki, -a (-y) shaklining zamonni ifodalashini “fe’l asos+a (y)+shaxs-son” qolipi orqali farqlash mumkin.

To‘rtinchi banddagi misollarda ma’nosi jihatdan -a, -y shakllari sof kelasi zamonni ifoda qilyapti. Bu o‘rinda ularga nisbatan hozirgi-kelasi zamon atamasining ishlatilishi yuqoridagi misollarda hozirgi zamon ma’nosining ham bo‘lishini talab etadi. Lekin bunday ma’no yo‘q. Qolaversa, -a, -y shakllarining kelasi zamon

ma’nosini ifodalashi faqat kontekst ta’sirida yuzaga keladigan holat ham emas. Shu sababli -a, -y ko‘rsatkichlarini bu holatda hozirgi-kelasi zamon shakli emas, balki kelasi zamon shakllari sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Uchinchi banddagi misollarda doimiylik, umumzamon ma’nosi ifodalangan bo‘lib, ularga nisbatan ham hozirgi-kelasi zamon atamasini ishlatish mantiqan to‘g‘ri emas. Chunki atamada o‘tgan zamon ma’nosi ifodalanmagan. Shu bilan bir qatorda, ularga nisbatan doimiy zamon, umumzamon atamalarining ishlatilishi ham masala mohiyatini chigallashtiradi. Yuqorida aytganimizdek, tilda o‘tgan, hozirgi, kelasi zamondan boshqa zamon yo‘q. Bizningcha, jahondagi aksar tillarda bo‘lgani kabi nutq momenti tarkibiga kiruvchi doimiy harakat-holatlar, umuman, hozirga ham oid turg‘un xususiyatlar ifodasi hozirgi zamon doirasida o‘rganilishi kerak. Bunda misollardagi *sevish, o‘qish* harakat-holatlarining qachondandir boshlangani va qachongachadir davom etishidan qat’i nazar, nutq momentida ham yuz berayotganligi asosga olinadi. Masalan, ingliz tilida ham xuddi shunday umumzamon ma’nosini beruvchi **I love my profession** (Men kasbimni sevaman), **My brother studies at school** (Ukam maktabda o‘qiydi) kabi misollarning zamoni ham oddiy hozirgi zamon (Present simple) sifatida belgilanadi.

Hozirgi zamonning -a/-y shakli orqali nutq momentida amalda bo‘lib turgan, takroriy amalga oshib turgan, statik mavjud bo‘lgan, shuningdek, subyektlarning doimiy xususiyatlarini, odatiy tartib-qoidalarni bildiruvchi harakat-holatlar ifodalanadi. -a/y shakli bilan hozirgi zamon ma’nosi ifodalanganda fe’l asosidan ko‘proq harakat ma’nosi emas, balki holat va faoliyat ma’nosi anglashiladi.

Masalan:

1. *Bunga javob tariqasida aytishim mumkinki, kamina nashriyotda musahhih, ya’ni imloviy xatolarni tuzatuvchi xodim bo‘lib* ***ishlayman.*** *(marifat.uz)*

2. *Rudi laqabli kuchukka o‘qish juda yoqadi, u har tong egalarini kutmasdan avtobusga* ***yuguradi.*** *(daryo.uz)*

3. Davlat tili o‘zbek adabiy tili me’yorlariga ***asoslanadi.*** *(marifat.uz)*

4. Bilamizki, Yer Quyosh atrofida ***aylanadi.*** *(marifat.uz)*

Keltirilgan misollarning barchasida fe’llar -a/-y shakli bilan umuman nutq momentida ham amalda bo‘lgan harakat-holatlarni ifodalagan. Ayniqsa, bu 1-va 4-misollarda yaqqol seziladi. 1-misolda so‘zlovchi gapirayotgan vaqtda ishxonasida bo‘lmasligi mumkin, biroq nutq momentida ham u nashriyot xodimi hisoblanadi. 4-misolda esa ayni nutq momentida ham Yer Quyosh atrofida aylanayotgan bo‘ladi. 2-misolda umuman hozirgi vaqtda takroriy amalga oshib turgan harakat ma’nosi, 3-misolda esa nutq momentida ham statik mavjud bo‘lgan holat ifodalangan.

-a/-y shakli orqali hozirgi yoki kelasi zamon hosil qilinish holatlarini avtomatik tahlilda muayyan modellar asosida farqlashda yuqori natijaga erishish juda qiyin. Sababi har ikkala zamonda grammatik shakl bir xil morfotaktik qoidalar asosida voqelanadi. Holat, faoliyat ma’noli fe’llar guruhida bu shakl bilan ko‘pincha hozirgi zamon, harakat fe’llarida esa kelasi zamon ifodalanishi ham mutlaq qoida bo‘la olmaydi, ya’ni fe’llarni ma’noviy guruhlarga ajratish orqali ham mukammal natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki -a/-y orqali ayrim holat fe’llari kelasi zamon, harakat fe’llari hozirgi zamon ma’nosini anglatadigan o‘rinlarning ham mavjudligi, ayrim fe’llarning bir ma’nosi bilan harakat, bir ma’nosi bilan faoliyat ma’nosini ifodalay olishi (masalan, *ishlamoq)* avtomatik tahlil sifatini tushiradi. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi (uzschoolcorpora.uz) matnlarida bu shaklning qo‘llanilishini tahlil qilganimizda, uning ko‘proq hozirgi zamon ma’nosi uchun qo‘llanilganligini ko‘rdik.

Holat, faoliyat ma’nosidagi fe’llar tarkibida bu shakl ko‘pincha hozirgi zamonni anglatadi. Masalan, *sevmoq, yoqmoq, bilmoq, tushunmoq, anglamoq, ifodalamoq, yaxshi ko‘rmoq, yomon ko‘rmoq, ishonmoq, nafratlanmoq* holat fe’llari -a (-y) zamon shakli bilan umumiy hozirgi zamonni anglatadi. Biroq *odatlanmoq* holat fe’li -a zamon shakli bilan ta’limiy korpus matnlarida faqat kelasi zamon ma’nosini anglatgan. Shuningdek, *zerikmoq, xursand bo‘lmoq, xafa bo‘lmoq, ko‘nikmoq, o‘chmoq* kabi holat fe’llarida -a (-y) shakli kontekstga bog‘liq holda ba’zida hozirgi, ba’zida kelasi zamonni bildiradi. Ta’limiy korpus matnlarida ushbu fe’llardan ayrimlarining -a (-y) shakli bilan zamon ma’nosini ifodalashining statistikasi quyidagi jadvalda aks etgan.

Ta’limiy korpus [Abjalova va b., 2023] **matnlarida ayrim fe’llarning -a (-y) shakli bilan zamon ma’nosini ifodalashi**

1-jadval

T/r	**Holat fe’li**	**-a (-y) shakli bilan hozirgi zamon ma’nosida**		**-a (-y) shakli bilan kelasi zamon ma’nosida**	
		Soni	*Foiz hisobida*	*Soni*	*Foiz hisobida*
1	Sevmoq	581	100%	0	0%
2	Bilmoq	13473	99,6%	58	0,4%
3	Anglamoq	522	97,5%	13	2,5%
4	Ishonmoq	4259	99,8%	5	0,2%
5	Nafratlanmoq	71	100%	0	0%

6	Zerikmoq	24	92%	2	8%
7	Xursand bo‘lmoq	235	62%	146	38%
8	Odatlanmoq	0	0%	24	100%
9	Xohlamoq	2491	100%	0	0%
10	O‘chmoq	158	90%	17	10%

Xuddi shuningdek, harakat fe’llari ham -a (-y) shakli bilan kontekstdan kelib chiqib hozirgi yoki kelasi zamon ma’nosini anglatishi mumkin. Ayniqsa, yo‘nalma harakat fe’llari semantikasiga aloqador holda bu shakl bilan kelasi zamon ma’nosini ifodalashda ko‘proq imkoniyatga ega. “O‘zbek tilidagi yo‘nalma harakat fe’llari quyidagilardan iborat deb hisoblandi: bormoq, jilmoq, kezmoq, kelmoq, ketmoq (jo‘namoq, yo‘nalmoq) kechmoq, kirmoq, oqmoq, suzmoq, sudralmoq, uchmoq, ergashmoq, yugurmoq (chopmoq, yelmoq), yurmoq, o‘tmoq, qaytmoq, qochmoq, qatnamoq”[Муҳамедова, 1999:16]. Masalan, ta’limiy korpus matnlarida *qaytmoq* fe’li -a zamon shakli bilan 2414 o‘rinda qo‘llangan, shundan 2219 tasida, ya’ni 92% holatda kelasi zamon ma’nosini anglatgan.

Demak, -a (y) shakli holat fe’llarida asosan hozirgi zamonni, harakat fe’llarida ko‘proq kelasi zamonni ifodalaydi. Biroq buni mutlaq qoida sifatida olish mumkin emas. Bu har bir fe’lning semantikasiga, shuningdek, kontekstga aloqador holat hisoblanadi. Masalan, gap tarkibida vaqt ma’noli lug‘aviy birlik chiqish kelishigida kelib, *beri, buyon* ko‘makchilari orqali -a (-y) shaklini olgan fe’lga bog‘langanda har doim hozirgi zamon ma’nosi anglashiladi. Masalan: – *Necha kun**dan beri** hali uni, hali buni **bahona qilasan.** Qizimga bir nima bo‘lsa, akamniyam, seniyam sog‘ qo‘ymayman! (U.Hamdam)* Lekin gap tarkibida *beri, buyon* ko‘makchilari ishtirok etmasa, chiqish kelishigidagi vaqt ma’noli birlik nutq momentidan keyingi vaqtni ko‘rsatsa, -a (-y) shaklini olgan fe’l kelasi zamonni ifodalaydi. Masalan: *Xususan, bugungi kunda 36 soatlik maqsadli kurslar o‘quv-rejalari ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv kurslari **2021-yildan tashkil etiladi.** (marifat.uz).* Bu misol olingan maqola saytga 02.12.2020 da joylangan, bunga nisbatan 2021-yil nutq momentidan keyingi vaqtni anglatadi.

Bu shakl orqali harakat-holatning nutq momentidan keyin yuz berishi umumiy, neytral tarzda ifodalanadi. Kelasi zamon ma’nosini ifodalashda barcha nutq uslublari doirasida faol qo‘llaniladi. Shu sababli ham bu shakl ta’limiy korpus matnlarida eng ko‘p uchraydigan kelasi zamon shakli hisoblanadi. Miqdor jihatdan -a/-y shakli orqali hozirgi zamon ma’nosi ifodalanishining ustuvorligini hisobga olib, modellashtirishda -a/-y bilan kelasi zamon ma’nosining ifodalanishini bu zamonga ishora qiluvchi maxsus kalit so‘zlarga bog‘lab qo‘yish mumkin. O‘zbek

tilida vaqt ma’noli lug‘aviy birliklarni monografik o‘rgangan M.Hakimova kelasi zamonni ifodalovchi payt ravishlari sirasiga *ertaga, endi, endilikda, endigina, keyin, keyincha, so‘ng, so‘ngra, halizamon* leksemalarini kiritadi [Ҳакимова, 2004:76]. Shuningdek, *yaqinda, tezda, tez orada* kabi payt ma’noli leksemalar ham -a/-y shaklining kelasi zamon ma’nosini hozirgi zamondan farqlash uchun xizmat qiladi. Ularni umumlashtirib kelasi zamonga ishora qiluvchi birliklar (KZIQB) ro‘yxatini shakllantirish mumkin.

Kelasi zamonga ishora qiluvchi birliklar (KZIQB)=ertaga/endi/ endilikda/endigina/keyin/keyincha/so‘ng/so‘ngra/halizamon/yaqinda/tez orada/ tezda

KZIQB+F+↓N+↓BB+y+Sh2 bo‘lsa, u holda “y=Z3(1,al1)”

KZIQB +F+↓N+a+Sh2 bo‘lsa, u holda “a=Z3(1,al2)”

Umuman olganda, -a (-y) shakli nutq momentida ham amalda bo‘lib turgan faoliyat va holatlarni, odatiy takrorlanuvchi harakat-holatlarni, predmetlarning doimiy belgisini, o‘zgarmas haqiqatlarni ifodalaganda umumiy hozirgi zamon shakli sifatida qaralishi lozim. Bu shakl nutq momentida emas, balki undan keyin yuzaga keladigan harakat va holatlarni ifodalaganda kelasi zamon shakli sifatida baholanishi lozim. -a, -y zamon shaklining ta’limiy korpus matnlaridagi qo‘llanishlari bu shaklning ko‘proq hozirgi zamonni, nisbatan kamroq kelasi zamonni ifodalashini ko‘rsatdi. Bu nutqda kelasi zamonning qolgan zamonlarga nisbatan kam qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Fe’l semantikasiga bog‘liq holda statik holat mazmunini ifodalovchi fe’llar -a, -y shakli bilan asosan hozirgi zamonni, harakatni ifodalovchi fe’llar esa bu shakl bilan asosan kelasi zamonni ifodalaydi. Kelasi zamon ma’nosi esa asosan gap tarkibidagi bu zamonga ishora qiluvchi maxsus lug‘aviy birliklar ta’sirida ifodalanadi. Demak, modellashtirishda -a/-y shaklining nutq momentidan keyingi vaqtga ishora qiluvchi maxsus lug‘aviy birliklar bilan kelasi zamonni anglatishiga e’tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.

2. Abjalova M., Iskandarov O. Matnlarni morfologik tahlil qilish moduli va uning algoritmi. – T.: O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 2/2020. – B. 160-163.

3. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, "Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities," 2023 8th International Conference on Computer

Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.

4. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Филол. фан. номз....дисс. – Фарғона, 2004. – Б.76.

5. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.157.

6. Жўраева Ж. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида келаси замон феъли: Филол. фан. канд....дисс. –Тошкент, 1961. – Б.39.

7. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б.150.

8. Муҳамедова С. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. номз....дисс. – Тошкент, 1999. – Б.16.

9. Marsic G. Temporal processing of news: annotation of temporal expressions, verbal events and temporal relations: A thesis submitted in partial fulfilment of the requirements of the University of Wolverhampton for the degree of Doctor of Philosophy, 2011.

10. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 342.

11. Ғуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 31.

12. Ўзбек тили грамматикаси I. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 500.

13. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi (www.uzschoolcorpora.uz)

KORPUS LINGVISTIKASI TERMINLARINING SHAKLIY STRUKTURASI TAHLILI

Abjalova Manzura Abdurashetovna
Filologiya fanlari doktori (DSc),
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
abjalova.manzura@gmail.com

Quriyozova Shahzoda Muzaffar qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109101

Annotatsiya. Ushbu maqola korpus lingvistikasi (keying o‘rinlarda – KorpLing) terminlari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda KorpLing sohasidagi terminlarning strukturasi tahlil qilingan, tarkibiy komponentlari tavsiflangan. Umuman, tabiiy tilni qayta ishlashda har bir leksik birlik modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Til korpuslarida lingvistik analizator samarasini oshirish, parallel korpuslar ish jarayonini texnik jihatdan qulaylashtirish maqsadida ham terminlarni, jumladan, KorpLing terminlarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada, shuningdek, teminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a’zosi shaklida qarash zarurati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, korpus lingvistikasi, til korpusi, termin, sodda termin, tarkibli termin, termin-birikma.*

ANALYSIS OF THE STRUCTURE OF THE SHAPE OF THE TERMS OF THE FIELD OF CORPUS LINGUISTICS

Abstract. This article is devoted to the study of corpus linguistics (CorpLing) terms, in which the structure of terms in the field of CorpLing is analyzed, and their structural components are described. In general, each lexical unit model is important in natural language processing. Modeling of terms, including CorpLing terms, is of great importance in order to improve the effectiveness of the linguistic analyzer in language corpora, to technically facilitate the work process of parallel corpora. The article also highlights the need to look at temin not as a separate sign, but as a member of a specific system.

Keywords: *terminology, Corpus, corpus linguistics, term, simple term, compound term, term-combination.*

KIRISH. Terminologiya ilmiy, texnikaviy va boshqa kasbiy sohalarda qo‘llanuvchi tushunchalarning nazariy asoslari, tizimlari va tushunchalarni belgilash tamoyillarini o‘rganuvchi, hatto tushunchalarning fanlararo munosabatini tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. Terminologik tadqiqotlarning rivojlanishi XX asrda savdo faoliyati, texnika va texnologiyalar evolyutsiyasi hamda sohalarning xalqarolashuvi bilan bog‘liq. Terminologiyadagi amaliy tadqiqotlar terminografiya (terminologik lug‘atshunoslik)ni yuzaga keltirgan bo‘lsa, soha doirasida nomlarning terminlashuv prinsiplari, sohalararo tushunchalarning umumiy va xususiy semantik jihatlari, terminlarni tarjima qilish prinsiplari terminologik standartlashtirish (standartizatsiya)ga ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Terminologiyaning yuzaga kelishi. XVIII asr oxiriga kelib, ko‘plab olimlar o‘z sohalarida maxsus so‘zlardan foydalanish muhimligini angladilar, jumladan, Linney (1707-1778) va Lavuazye (1743-1794) o‘z sohalari uchun tizimli nomenklaturalarni yaratishgan [Nuopponen, 2003]. XIX asr oxirida botanika, tibbiyot, kimyo va boshqa sohalaridagi maxsus so‘zlar uchun xalqaro qoidalar o‘rnatildi. Sanoat inqilobi natijasida kooperativ terminologik faoliyatning turlari paydo bo‘ldi [Nuopponen, 2010]. Terminologiya ilmi avstriyalik muhandis Evgen Vyuster (1898-1977) tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, uning doktorlik dissertatsiyasi (“Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik”) 1931-yilda nashr etilgan [Wüster, 1959]. U tilshunoslik, mantiq, ontologiya va informatika kabi bir qancha fanlardagi tushunchalarning nazariy asoslari va ularning ifodalanish usullarini birlashtirgan; tilshunoslik, xususan, leksikologiya va leksikografiyaning umumiy lug‘atini tavsiflash uchun asos yaratgan.

Dunyo ilmida terminologiyaning umumiy nazariyasi quyidagi asosiy aksiomalardan iborat: (1) terminologik so‘z tushunchadan boshlanadi va uning maqsadi tushunchalarni bir-biridan aniq chegaralashdan iborat; (2) tushunchalar va terminlar alohida birliklar sifatida ko‘riladi; (3) sinxron aspektga urg‘u beriladi; (4) tushunchalar va terminlar faqat o‘zaro bog‘liq tushuncha va terminlar bilan o‘zaro munosabatda o‘rganilishi maqsadga muvofiq; (5) sohalararo terminologini tashkil etish alifbo ko‘rsatkichida emas, tizimli ravishda, mavzuiy tarzda amalga oshiriladi.

Ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish, til o‘rganish va ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini ashirishda ahamiyati oshib borayotgan til korpuslarining dastlabki prototipi yaratilishi bilan (Braun korpusi, 1960-yillar) korpus lingvistikasining shakllanishi [Abjalova, 2022] va unga xos terminlarning yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan. Korpus til taraqqiyoti va tildagi o‘zgarishlarni tadqiq etishda ham muhim

manba hisoblanadi. Shuningdek, neologizmlarni tadqiq etish, yangi terminlarning yuzaga kelish davrini aniqlashda ham til korpuslari juda ahamiyatli. Korpuslarning asosiy jihatlarini ta’kidlagan holda, korpus lingvistikasi terminologiyasi terminologiyasiga urg‘u beramiz. Yuqorida tilga olingan terminologiyaga oid besh aksioma KorpLing uchun ham ahamiyatli. KorpLing aynan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yo‘nalishining o‘z tadqiq sohasi va terminologiyasiga ega maxsus sohasi hisoblanadi. KorpLing terminlarining mohiyatini o‘rganish nafaqat korpus yaratishning nazariy va amaliy asosini bilish, balki mazkur sohaning terminologik lug‘atini to‘g‘ri tuzishda ham muhim sanaladi. Shu nuqtayi nazardan KorpLing terminlarini struktur jihatdan ham o‘rganish ahamiyatli. Natijada terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish, semantik tahlilga muvofiqlashtirish, sohalararo ahamiyatini, tarkibli terminlarning ixtisoslashuvini o‘rganish imkoni yuzaga keladi. KorpLing terminlarini struktur jihatdan guruhlarga ajratish orqali ular ifodalagan mazmun(lar)ni tahlil qilish mumkin bo‘ladi, o‘zlashtirilgan holati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, KorpLingdagi terminlarning boshqa sohalarda ham qo‘llanishini kuzatish mumkin. Xususan, tilshunoslik, NLP, sun’iy intellekt va kompyuter lingvistikasi terminlari bilan o‘xshashlik jihatlari ko‘zga tashlanadi.

Muhokama va natijalar. Ma’lumki, tilshunoslikda so‘zlar tuzilishi jihatidan sodda, qo‘shma, juft, takroriy guruhlarga bo‘linadi. Bu borada A. Hojiyev, I.Ermatov, R. Sayfullayeva, H. Jamolxonov, H.Dadaboyev, B. Mengliyev kabi tilshunos olimlarning ishlari diqqatga sazovor. H.Dadaboyev ishlarida terminlar shakliy jihatdan sodda va tarkibiy ekanligiga urg‘u beriladi [Dadaboyev, 2009]. A. Hojiyev ishida esa tilshunoslik terminlarining sodda, qo‘shma, juft va termin birikmalar tarzida uchrashi ta’kidlanadi [Hojiyev, 2002].

KorpLing terminlari tadiq etilganda struktur jihatdan quyidagi turlarni tashkil etdi: 1) sodda termin; 2) qo‘shma termin; 3) juft termin; 4) termin-birikma: ikki tarkibli termin-birikma, uch tarkibli termin-birikma, to‘rt tarkibli termin-birikma. Tubanda ularga misollar keltiramiz.

Sodda terminlar. Sodda terminlar, asosan, ot so‘z turkumiga aloqador bo‘lib, bir o‘zakdan tashkil topadi. Masalan, *teg, pragmatik, korpus, adresat, auditoriya, reprezentativlik, matn, annotatsiya, struktura, massiv, fragment, modellashtirish* va boshqalar.

Sodda terminlar sodda tub va sodda yasamaga ajratamiz. Masalan, sodda tub: *teg, pragmatik, korpus, matn, konsepsiya, razmetka, token, massiv, fragment, probel, modul, avtomatlash* va boshqalar. Sodda yasama: *reprezentativlik, lemmalash, semantik, izohlash* kabi.

Qo‘shma terminlar. Bunday terminlarga birdan ortiq o‘zak qo‘shilmasidan iborat etrminlar kiradi. Qo‘shma terminlar quyidagi tarkibga egaligi kuzatildi: termin element+leksema (*metama’lumot, morfoanaliz, ekstrama’lumot, omoshakl* kabi) va leksema+leksema (*semantik tahlil, lingvistik izoh, grammatik teg, semantik teglash, lingvistik annotatsiya* kabi).

Juft terminlar. Ikki terminning juftlashishi asosida hosil bo‘lgan terminlar. Masalan, *leksik-semantik (xususiyatlar), Lankaster-Oslo-Bergen (LOB) korpusi* kabi.

Termin-birikmalar. Birdan ortiq so‘zlarning birikmali termin hosil qilgan. KorpLingda bunday tarkibli birikmalarning ikki, uch, to‘rt, hatto besh tarkibli termin-birikma ko‘rinishlari uchraydi.

Ikki tarkibli termin-birikmalar sodda so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, shaklan hokim-tobelik munosabati sezilib turadi. Masalan: *korpus lingvistikasi, parallel korpus, til korpuslari, lingvistik resurslar, matn korpuslari, elektron baza, filologik komplement, til fragmenti, tasviriy korpuslar, chastota lug‘at, korpus bazasi, mualliflik korpusi, milliy korpus, ta’limiy korpus, semantik teglash, lingvistik tahlil, korpus menejeri, matnlarni saralash, grafematik tahlil, ekstralingvistik teglash, lingvistik teglash, avtomatik teglash, gazetalar korpusi, qiyosiy korpuslar* va boshqalar.

Uch tarkibli termin-birikmalar uchta mustaqil lug‘aviy birlikdan iborat uch tarkibli so‘z birikmasi bo‘lib, bir ma’noni anglatadi. Masalan, *til matnlari korpusi, elektronlashshishgacha bo‘lgan davr, elektron korpus modellari, avtomatik semantik teglash, elektron qidiruv tizimi, matnli ma’lumotlarni teglash, so‘z turkumlarini teglash, stoxastik teglash usuli, og‘zaki matnlar korpusi, poetik matnlar korpusi, rasmiy matnlar korpusi, parallel matnlar korpusi, ilmiy matnlar korpusi, mintaqaviy matbuot korpusi* va boshqalar.

To‘rt tarkibli termin-birikmalarga misollar: *tabiiy tilni qayta ishlash, matnlarni avtomatik qayta ishlash, matnni avtomatik tahlil qilish, Alisher Navoiy mualiflik korpusi* va boshqalar.

Besh tarkibli termin birikmaga *ilmiy tadqiqotning korpusga asoslangan metodi* terminini misol qilib keltirish mumkin.

XULOSA. Tilshunoslikdagi terminlarning struktural tasnifi korpus terminlarini tarkibiy tuzilishiga ko‘ra tasniflashga asos bo‘ldi. Kuzatishlar natijasida struktur jihatdan KorpLing terminlarining sodda, qo‘shma, juft va birikmali ko‘rinishlari mavjudligi aniqlandi. Komponentlari miqdoriga ko‘ra esa ikki tarkibli, uch tarkibli va to‘rt tarkibli termin-birikmalar faol qo‘llaniladi. Korpus terminlarini

shakliy jihatdan komponent tahlil qilish korpus lingvistikasi konseptologiyasini o‘rganish, korpus lingnvistikasi terminlari lug‘atini tuzishni shakllantirish, ta’lim jarayonida korpusshunoslik terminlaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishda ahamiyatli hisoblanadi. Asosiysi, terminlar mavqeyi va qo‘llanish ko‘lamini aniqlash natijasida ularning boshqa tillarga to‘g‘ri tarjimasiga erishish va mashina tarjimasida terminologik tarjimalar bilan bog‘liq muammolar yechimini berishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Korpus birliklarini teglash va annotatsiyalash masalasi. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, oktabr, 2023. – B. 345-351.

2. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied LinguisticsISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733

3. Abjalova M., Erkinov F. Elektron lug‘at va kiberleksikografiya. // O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/2021. – B. 160-163.

4. Abjalova M., Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 85-89.

5. Abjalova M.A. Korpus lingvistikasi: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 110 b.

6. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2009

7. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan , 1977.

8. Ermatov I.R, O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent, 2019.

9. Hojiyev. A Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 2002.

10. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2013. – 144 b.

11. Mahkamova D.N. Terminological models in scientific text.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 2023//

12. https://oriens.uz/journal/article/terminological-models-in-scientific-text

13. Nuopponen, Anita & Nina Pilke (2010). Ordning och reda. Terminologilära i teori och praktik. Stockholm: Norstedts. Available in online bookstores, e.g. Adlibris, Bokus.

14. Nuopponen, Anita (2003). Terminology. In *The International Encyclopedia of Linguistics*, Second Edition. Four volumes. Editor in chief William Frawley. Oxford University Press.

15. Wüster, Eugen. 1959. Das Worten der Welt, schaubildlich und terminologisch dargestellt. Sprachforum 60. 3/4: 183-203.

16. Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. Спб.: изд-во с.-петерб. Ун-та, 2020. 234 с. ISBN 978-5-288-05997-1.

17. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. − (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс)//lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf

XORAZM SHEVALARI KORPUSINI YARATISHNING ZARURIY ASOSLARI

Nilufar Abdurahmonova
O‘zbekiston Milliy universiteti professori

Xudayberganova To‘xtajon Maxsud qizi
tukhtajonkhudayberganova@gmail.com
Urganch davlat universiteti
222-kompyuter lingivistikasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109115

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari, xususan, o‘g‘uz, qipchoq lahjalarining korpusini yaratishning muhim jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘g‘uz, qipchoq, dialekt, sheva, areal lingivistika, lahja, leksik birlik, turkiy til.*

O‘zbek xalqi asrlar davomida shakllanib, u bilan birga til tushunchasi doimo yonma-yon turgan. Tilning o‘ziga xos buyuk kuchi, nozik latofati asrlar osha har bir insonni o‘ziga jalb qilib kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, tilda odamlarning dunyoqarashi, ezgu maqsadlari, orzu-niyatlari, tashvish-u quvonchi aks etadi. Vaqtlar o‘tib to‘plangan so‘z boyligi adabiy tilda hamda shevalar leksikasida namoyon bo‘ladi.

Har bir inson dunyoga kelar ekan, qayerda yashashidan, qaysi tilda so‘zlashishidan qat’iy nazar o‘z ona tiliga ega bo‘ladi. Har qanday adabiy til esa shevalar taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi. Sheva insonning ona tilidan qulog‘iga, qulog‘idan qoniga, qonidan esa tomiriga singib, ruhini ham, vujudini ham tark etmas xilqatga aylanib bo‘lgan. Adabiy til shevalar asosiga qurilganligi bois sheva adabiy tilning poydevori sanaladi. Poydevori mustahkam bo‘lmagan binoning umri qisqaligi hech kimga sir emas. Shunday ekan biz yosh tadqiqotchilarning oldimizdagi eng asosiy vazifamiz avvalambor, shevalarni asl holicha necha asrlik tarixga ega sheva maqomiga putur yetkazmagan holda avloddan avlodga yetkazib berishdan iborat deb bilamiz.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farq qiladi. Shevalar esa o‘z navbatida lahjalardan tarkib topadi. Unda ayrim joylarda qarluq, ba’zi hududlarda o‘g‘uz va qipchoq lahjalarining qo‘llanilishi bunga misol bo‘la oladi. O‘tgan tarixiy davrlar mobaynida o‘zbek shevalari keskin taraqqiy qilib bordi.

Shevalar xususida so‘z yuritganda avvalo, sheva korpusi mavzusi bizni e’tiborimizni tortadi. Sababi bu masala bugungi kunga qadar o‘z yechimini topmagan, qizg‘in tadqiqotlar sirasiga sabab bo‘lib kelmoqda. Har bir xalq shevasi o‘sha xalq madaniy meros va qadriyatlarining muhim tarkibiy qismi ekan, ularning leksik-grammatik xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish soha rivojini ta’minlovchi muhim omillardan sanaladi. Fan va madaniyatning mislsiz yutuqlarni qo‘lga kiritishi, shuningdek, matbuot, radio, televideniye hamda internet aloqalarning aholiga kundalik ta’siri natijasida hududiy dialektlarning qo‘llanish doirasi keskin torayib, asta-sekin yo‘qolib borish jarayoni tezlashib bormoqda. Shu bois tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo‘lmish lahja va shevalar leksik-grammatik xususiyatlarini tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy va tarixiy yo‘nalishda o‘rganish shevashunoslikning anchagina muammolarini bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ana shunday birliklarning geografik tarqalishini aniqlab, mavjud shevalar so‘z boyligini to‘plash, leksik-semantik, diaxron va sinxron aspektlarda o‘rganish davr talabiga aylangan. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur”. Bu borada, avvalo, adabiy tilning, qolaversa, har bir tilning asosi sanaluvchi muayyan shevalar tadqiqining o‘rni beqiyosdir. Shu boisdan ham Xorazm shevalari korpusini yig‘ishni oldimizga maqsad qilib quydik.

Til-muloqot vositasi, kishilarning jamiyatga kirishuvidagi asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, har bir tilning shakllanish jarayonida ichki manba asosiy o‘rinlarda turadi. Agar til daraxt bo‘lsa, sheva va lahjalar o‘sha daraxtning tomiri-yu ildizlaridir. Shuning uchun, o‘sha daraxtning tomiri-yu ildizini asrab avloddan avlodga yetkazishimiz zarur.

XXI asr axborot texnologiyalar asri. Shunday ekan, har kuni yangidan yangi dasturiy ta’minotlar, axborot almashinuvi jadallashib rivojlanib bormoqda. Bunda OAVning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Albatta, bugungi jamiyat bilan taraqqiy qilish juda zarur, lekin o‘z milliy shevani yo‘qotish hisobiga emas.

Bizga ma’lumki, qayerda yashashidan qat’iy nazar o‘zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy umumxalq o‘zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o‘z tarkibiga sheva, so‘zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so‘kish, qarg‘ish so‘zlari), varvarizm (tilda o‘rinsiz ishlatilgan chet so‘zlar) kabi guruh so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Milliy tilning ma’lum qoidalariga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san’atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli adabiy til deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan.

Sheva bir millatga mansub bo‘lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik ya’ni tovush, leksik ya’ni so‘z va grammatik ya’ni qo‘shimchalar va gap qurilishi jihatdan farq qiladi.

Xalq shevalarining faqat og‘zaki shakli mavjud. Shevalarning bir-biriga yaqin bo‘lgan guruhlari lahja deb ataladi dialekt so‘zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi. O‘zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor:

Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh)
Qipchoq lahjasi (janubiy-g‘arbiy guruh)
O‘g‘uz lahjasi (shimoliy-g‘arbiy guruh).

Xorazmda asosan o‘g‘uz (Urganch shahri va tumanlari, Xiva shahri va tumani, Xonqa, Hazorasp, Qo‘shko‘pir, Shovot tumanlari), qisman qipchoq (Yangibozor, Gurlan tumalari) lahjalarida muloqot amalga oshiriladi. Lekin shunga qaramay, o‘g‘uz lahjasi qo‘llaniladi degan hududlarda ham istisno tarzda qipchoq lahjasi ishlatiladigan qishloqlar mavjud deya ayta olamiz. Masalan, Urganch tumanidan Qipchoq mahallasi mavjud bo‘lib, aynan shu hududda qipchoq lahjasi faol qo‘llaniladi. Uni yonidagi qo‘shni mahallarda esa o‘g‘uz lahjasi faol ishlatilib kelinmoqda. Bundan kelib chiqadiki, shevalarni areal lingivistik hududlarga ajratishda biror bir ko‘cha, mahalla, qishloqda aynan o‘g‘uzga yoki qipchoq lahjasiga kiradi deb qat’iyan ayta olmaymiz.

To‘g‘ri, lingivistik jihatdan o‘g‘uz, qipchoq lahjalari bo‘yicha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq, korpus taraflama hali Xorazm shevalarining korpusini yaratish oldimizdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Korpus uchun dastlab baza yig‘ib olinadi. Uni og‘zaki so‘zlashuvdan, audio-video materillardan, Xorazm xalq og‘zaki ijodi namunlaridan, xususan xalfachilik aytishuvlari, qo‘shiqlari, hududda efirga uzatiladigan televedeniye ko‘rsatuvlari, radiodan, turfa xil ijtimoiy tarmoqlardan jamlab olishimiz zarur. Keyingi bosqich esa yig‘ilgan materiallarni jamlash va saralashdan iborat bo‘ladi. Navbatdagi qism esa statistika hisoblanib,

qaysi so‘zlar og‘zaki nutq jarayonida faol qo‘llanilishi, qaysisi esa nofaol ekanligini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Oxirgi qism esa bazani namoyish qilish.

Korpus loyihasi – uni tuzish bosqichi muhim hisoblanadi, keyinchalik takomillashtirish yo‘llarini qamrab olishi mukammal korpus yaratishning asosiy qismlaridan biridir. Undan ommaviy foydalanish imkoniyati yaratilishi zarur. Natijada, turli lingvistik tadqiqotlar olib borish imkonini beruvchi katta hajmli matnlarning umumiste’mol varianti paydo bo‘ladi. Bu borada lug‘at, grammatikalar uchun asos vazifasini o‘taydigan til materialining ko‘lami hamda balansi masalasi kun tartibiga chiqib, xususan, milliy korpuslar yaratish jarayonida ko‘ndalang turadi. Korpusning doimiylik masalasi matnlar yetarliligi, xilma-xilligi bilan hal qilinadi.

Mutaxassislar korpus tuzishning texnologik jarayonida quyidagi bosqichlarni ta’kidlab o‘tishadi [2]:

1.Belgilangan manbaga muvofiq holda matnning korpusga kirishini ta’minlash.

2.Matnni avtomatik o‘qilish shaklida qayta ishlash. Korpusga kiritiladigan elektron shakldagi matn turli usul bilan olingan bo‘lishi mumkin: qo‘lda terilgan, skanerlangan, mualliflik nusxasi, hadya, ayirboshlash, Internet, nashriyotlar tomonidan korpus tuzuvchisiga beriladigan original-maketlar.

3.Tahlil, matnga dastlabki ishlov berish. Ushbu bosqichda turli manbalardan qabul qilingan matnlar filologik tekshiruv, tahrirdan o‘tadi.

4.Konversiyalash, grafematik tahlil deb ham yuritiladi. Ba’zi matnlar qayta kodlashtirish jarayoni amalga oshadigan ilk mashina ishlovidan qayta-qayta o‘tadi, nomatniy qismlar (rasm, jadval) o‘chiriladi yoki o‘zgartiriladi. Matndagi bo‘g‘in ko‘chirish, chegaralar (MSDOS matnlarida) bekor qilinadi, tire, boshqa belgilar bir xilligiga erishiladi. Grafematik tahlil korpusga kiruvchi matnni qismga (so‘z, bog‘lovchi) ajratish, nomatniy elementni o‘chirish kabi amallarni bajarishdan iborat.

5.Nostandart (noleksik) elementni belgilash, rasmiylashtirish, maxsus matniy elementni (qisqartma asosida yozilgan nom (ism, familiya), boshqa alifboda yozilgan o‘zlashma leksema, rasmga berilgan nom, izoh, zarvaraq, adabiyotlar ro‘yxati va b.) bir xil mezon asosida qayta ko‘rib chiqish. Albatta, bu amallar avtomatik ravishda matn muharriri tomonidan bajariladi.

Korpusni loyihalashtirishning keyingi bosqichi manbani saralash hisoblanadi. Korpusning ahamiyati uning bir tildagi keng ko‘lamli matnlarni bir joyga yig‘ib, tartib berilganida emas, shu sababli uni tuzishda bir necha mezon asosida ish ko‘riladi. Korpus materialini saralashda korpusning asosiy birligi nimadan iboratligi, uning hajmi qanday bo‘lishi (unda qancha so‘z bo‘lgani ma’qul), yozma

matn qaysi manbaga asoslanishi, qancha miqdorda bo‘lishi, unga kiruvchi matn tilning qaysi sohasiga tegishli bo‘lishi kabi masalalarga yechim topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
2. Shaykhislamov, N. (2020). Linguistic and Cultural Aspects of Bread Baking Terms in English and Uzbek Languages. Фан ва таълим интеграцияси: имконият ва тенденциялар, 62-64
3. Makhmudov, K. (2020). Innovative Cluster of Pedagogical Education: Common Goals and Specific Interests. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 150-160.

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI UCHUN G‘AZALLARNI GRAMMATIK TEGLASH XUSUSIYATLARI

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy innovatsiyalar universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109133

Annotatsiya. Maqola korpus lingvistikasi sohasini rivojlantirish borasidagi muhim masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ulug‘ mutafakkir, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyga mansub ilmiy va ijodiy merosni o‘rganishda Alisher Navoiy mualliflik korpusi materiallarini grammatik teglash ahamiyati va dolzarbligi xususida so‘z yuritilgan. Hozirgi o‘zbek tilidagi evolyutsion o‘zgarishlar natijasida zamondosh o‘quvchi XV asr tilidagi shoir asarlarida mujassamlashgan mazmun, g‘oyani asarlardagi eskirgan so‘zlar hisobiga tushunishi qiyin. Shuning uchun muallif ijod uslubida qo‘llagan so‘zliklar, iboralar ko‘lami va ma’nolarini tavsiflash hamda aniqroq va teran tushunish uchun mutafakkir qo‘llagan lekemalarning semantik teglari bazasini qulay tarzda yaratish muhim hisoblanadi. Ammo masala yechimi uchun semantik teglashning o‘zi kifoya emas. Alisher Navoiy davri tilini o‘rganish, korpus ahamiyatini yanada oshirish maqsadida g‘azallardagi leksik birliklarni grammatik teglash ham muhim sanaladi.

Kalit so‘zlar: *stemmatizatsiya, morfologik annotatsiya, grammatik tahlil, leksik birlik, stemmatizasiya, lemmatizasiya.*

Abstract. The article discusses the development of computer linguistics and the practical significance of research on the scientific and creative legacy of Alisher Navoi, a great thinker and poet, and his contribution to the development of the national language. Due to linguistic changes over time, the thoughts, ideas, and goals expressed in the poet’s works may be incomprehensible to modern readers. This will allow for a more convenient analysis of the text. To aid in understanding the scope and meaning of the author’s creative style, it is important to create a database of semantic tags for the words and phrases used by the author. To comprehend Alisher Navoi’s ghazals, it is important to perform grammatical tagging and lexical and grammatical analysis.

Key words: *stemmatization, morphological annotation, grammatical analysis, lexical unit, stemmatization, lemmatization.*

Navoiy nafaqat adabiyotshunos olim, ulug‘ mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni sifatida, balki eski o‘zbek tilini kamolot bosqichiga ko‘targan tilshunos olim sifatida ham e’tirof etiladi. Navoiy turkiy tilning boyligini isbotlash uchun o‘zining barcha lisoniy imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Navoiy zamonasidagi turkiy millat shoirlarini o‘z ona tili – turkiy tilda keng ijod qila olmaganini ta’kidlab, zamondosh ijodkorlarga munosib namuna maktabi vazifasini bajargan. Buning uchun turkiy tilning so‘z boyligi, omonim, sinonim, so‘z yasash va uslubiy imkoniyatlari cheksiz va bunday zaxiralar fors tilida yaratilgan klassik asarlardan qolishmaydigan badiiy asarlar yuzaga kelishiga qodir ekanligini isbotlab bergan [Shamsiyev, Ibrohimov,1972:8]. Lirik asarlarida ham bu holat yaqqol ko‘rishimiz mumkin. XV asr til me’yorlarining o‘ziga xosligini o‘rganishda Navoiy g‘azallarini grammatik tadqiq etish muhim omil hisoblanib, bu tadqiqotchilar uchun eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilining lisoniy imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Til korpuslarining boshqa yirik elektron tizim (manbalar)dan farqi shundaki, unda leksik birliklar, hattoki noleksik ifodalar ham teglanadi. Bu, o‘z navbatida, til korpuslarining ta’limiy, lingvistik, lingvodidaktik kabi muhim jihatlarini namoyon etadi. Shu bois korpusshunoslikning dastlabki davrlaridanoq matn birliklarini grammatik va semantik teglashga alohida e’tibor qaratilgan. [Abjalova, Elova, 2021:5]. Ta’lim jarayoni, til o‘rganish va tadqiqot olib borishda til birliklari doirasida bajariladigan, tekshiriladigan barcha lingvistik va ilmiy vazifalar, statistik ko‘rsatkichlar bilan birga, aynan mana shu teglar yordamida bajariladi. Ayniqsa, bu borada grammatik teglash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida morfologik va sintaktik annotatsiya amalga oshiriladi. Grammatik teglashda: 1) so‘z turkumlari teglanadi; 2) grammatik ko‘rsatkichlarga teglar biriktiriladi; 3) gap bo‘laklari bilan so‘z turkumlari muvofiqlashtiriladi. Natijada morfologik va sintaktik tahlilga erishiladi.

Morfologik tahlilga qadar matnni tokenlash, ya’ni har bir birlikni alohidalash jarayoni – tokenizatsiya amalga oshiriladi. So‘ng alohidalangan birliklar leksik, simvolik, maxsus, punktuatsion kabi belgilar guruhlariga ajratiladi. [Abjalova, Iskandarov, 2020:160]. Bu kabi nomatniy belgilar yozilishi hamda va qo‘llanilishi grafematik tahlil bosqichida tekshiriladi. Leksik birliklar guruhi morfologik tahlil jarayoniga o‘tkaziladi. Morfologik tahlilning vazifasi lug‘atdan so‘z shaklning lemma / stemini topishdan iborat [Bolshakova, Voronsov, Yefremova, Klishinskiy, Lukashevech, Sapin, 2017:33].

Morfologik tahlil stemmatizasiya; lemmatizasiya; grammemalash bloklaridan tashkil topadi [Gataullin, Gatiatullin, Nevrozova, Muxamedshin, Suleymanov, Xakimov, Xusainov, 2019:39].

Stemmatizatsiya (yoki stemming) – muayyan so‘zshaklning grammatik ko‘satkichlarini kesib, uning asos (negiz)ini topish jarayoni. Manbalarda avtomatik tahlilning stemming; so‘zshaklning lug‘at asosidagi tahlili, mantiqiy yondashuv asosidagi tahlil, jadval asosida, lug‘atsiz tahlil turlari ko‘rsatiladi [Marchuk, 2006:62].

Stemmatizatsiya so‘zshaklning paradegmatik munosabatini o‘rganish imkonini beradi. Masalan, rus tilidagi *зеленый, зелень, зеленеть, зеленеющий* so‘zshakllarining stemmingi natijasida *зелень* asos deb qabul qilinadi [Gatiatullin, Bashirov, 2017:51]. Ingliz tilidagi *flies* (chivinlar) so‘zshakli *fli|es* tarzida stemming qilinadi. O‘zbek tilidagi *so‘rog‘im, qulog‘im, kapalagim* so‘zshakllari *so‘rog‘|im, qulog‘|im, kapalag|im* tarzida stemming qilinadi va ajratish “|” belgisining chap tomonidagi qism stem hisoblanadi.

Lemmatizatsiya – so‘zning dastlabki, boshlang‘ich formasi (lug‘atdagi shakli – lemmasi)ni topish texnologiyasi hisoblanadi, asosan, so‘zshakllarda ro‘y bergan tovush o‘zgarishlarini aniqlab, asosining asl holatiga qaytarishga yordam beradi. G‘azallar tarkibidagi so‘zshakllarni asos va affikslarga ajratishda lemmatizatsiya jarayoni muhim. [Abjalova, Iskandarov, 2021:85].Aytib o‘tilganidek, lemmatizatsiya jarayonida so‘zga grammatik ko‘rsatkichlarning birikishi natijasida ro‘y bergan tovush o‘zgarishlari aniqlanadi va asosning asl holati tiklanadi. Lemmatizatsiyaning stemmingdan farqi ham fleksiya, tovush o‘zgarishlarini tahlil qilishi bilan belgilanadi. Grammatik tahlilning vazifasi matndagi har bir so‘zning turkumga mansubligini avtomatik tarzda aniqlash; so‘zning qaysi leksik-grammatik sinfga mansubligini farqlashdan iborat. Matnni sintaktik tahlil qilish gapning semantik elementlarini – guruhga mansublik, predikativ asosni ajratishga imkon yaratadi. Ma’lumki, matnda bir leksemaning turli so‘zshakllari qo‘llanilishi mumkin [Abjalova, 2020:26]. Masalan, g‘azallarda ***hijron*** leksemasi oshiqning mashuqadan ayrilganlik holatini tasvirlashda badiiy vosita sifatida qo‘llanib, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida 142 marta turli lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi affikslar bilan keladi: *hijron, hijronidin, hijrondin, hijronida, hijrondamu, hijronimda, hijronin, hijrong‘a, hijroni, hijronkim, hijronima, hijrondek, hijroningda, hijronmen, hijroning* kabi.

Bunda so‘zshaklning ma’nosini izohlashda asosga tayanildi:

so‘zshakl – *hijron<u>idin</u>* → lemmasi – hijron;

so‘zshakl – *hijron<u>din</u>* → lemmasi – hijron;

so‘zshakl – *hijronida* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijrondamu* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijronimda* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijronin* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijrong‘a* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijronkim* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijronima* → lemmasi – hijron;
so‘zshakl – *hijronmen* → lemmasi – hijron kabi.

Grammema – so‘z shaklining grammatik xususiyatlarini bir tizimga bog‘lovchi elementlarning morfologik tavsifi, grammatik ma’nodir: *go‘sha+tob+ing+din+mu –go‘shatobingdinmu* kabi.

Umumiy holda korpus matnlarini morfologik tahlil qilish jarayonini quyidagicha akslantirish mumkin:

Tokenizatsiya	beparvolig‘iningmu	oshiqlig‘im
Lemmatizatsiya	beparvolig‘|i|ning|mu	oshiqlig‘|im
Stemmizatsiya	beparvolig‘|i|ning|mu	oshiqlig‘|im
Lemma	beparvoliq	oshiqliq
Stem	beparvolig‘	oshiqlig‘

So‘zshakllarni lemmatizatsiya qilish jarayoni deklarativ va protsedura bosqichlarida amalga oshiriladi**.** Bu jarayonlarni g‘azallarda qatnashgan so‘zshakllar misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. **Deklarativ bosqichda** 1) g‘azal matnlari mashina o‘qiydigan formatga o‘tkaziladi; 2) ma’lum bir so‘zning mumkin bo‘lgan barcha shakllari (so‘zshakllar) belgilanadi. [Abjalova, Gulomova, 2023:112]. Masalan: *visol, visoli, visolim, visoling, visolingga, visolin, visolig‘a, visoling‘a, visolidin, visolidur*. So‘z asos va affikslarga, ya’ni leksemalarga yoki morfemalarga bo‘linadi: *xandon (asos), xandon+in, xandon-dur, xandon+ki, xandon+mu, xandon+imu, xandon+ima, xandon+din* kabi. Ularning lemmasi aniqlanadi va teglar yordamida morfologik izoh beriladi. Bu jarayon korpusda Alisher Navoiy asarlaridagi leksik birliklarga morfologik annotatsiya berish uchun zarur; 3) g‘azallardagi izohtalab so‘zlar jamlanadi, ularga kontekstual izoh yoziladi. Masalan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi 210-g‘azalda mavjud izohtalab so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi aniqlanadi va ular semantik teglanadi, Bu jarayon, dastlab, jadvalda amalga oshiriladi. Jadvalda 33 ta yozuv bo‘lib, ularning har biri 4 ta maydondan iborat. Ushbu maydonlarning har biri mos ravishda “G‘azal raqami”,

“So‘z(shakl)”, “Izohi / ma’nodoshi”, “G‘azal misrasi” deb nomlangan. Demak yozuvdagi maydonlar soni jadvalga kiritiladigan izohtalab so‘zshakllar soni bilan bog‘liq (2.1.1-jadval). 4) har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosi semantik teglanadi. Buning natijasida korpusda so‘z(shakl)ning semantik guruhi foydalanuvchiga interaktiv tarzda taqdim etiladi. [Abjalova, 2023:107]. **Protsedura bosqichi**da shakllantirilgan lingvistik baza asosida korpus algoritmi tuziladi, uning dasturiy ta’minotiga xos jarayonlar amalga oshiriladi.

2.1.1-jadval. G‘azallardagi izohtalab so‘zlarga kontekstual izoh jarayoni

T/R	**So‘z (shakl)**	**Izohi**	**G‘azal misrasi**
210	aro	aro – ichida	Vasl aro ashkim qilur tug‘yon o‘shul yuz tobidin
210	ashkim	ashk – ko‘z yoshim	Vasl aro ashkim qilur tug‘yon o‘shul yuz tobidin
210	tug‘yon	tug‘yon – hayajonga kelish	Vasl aro ashkim qilur tug‘yon o‘shul yuz tobidin
210	o‘shul	o‘shul – o‘sha	Vasl aro ashkim qilur tug‘yon o‘shul yuz tobidin
210	tobidin	tobi – issiqlik	Vasl aro ashkim qilur tug‘yon o‘shul yuz tobidin
210	o‘lsa	o‘lsa – yo‘q bo‘lsa	Yoz faslida quyosh tez o‘lsa bo‘lur saylxez
210	saylxez	saylxez – kuchli sel	Yoz faslida quyosh tez o‘lsa bo‘lur saylxez
210	sarv	sarv – tik qomat	Sarvu g‘unchang jilvasi kuydurdi elni, ohkim
210	g‘unchang	g‘uncha– chiroyli og‘iz	Sarvu g‘unchang jilvasi kuydurdi elni, ohkim
210	jilvasi	jilva – jilvasi	Sarvu g‘unchang jilvasi kuydurdi elni, ohkim
210	ohkim	oh – oh	Sarvu g‘unchang jilvasi kuydurdi elni, ohkim
210	dahr	dahr – dunyo	Dahr aro tubiyu kavsar birla solding rustxez
210	tubiyu	tubiy – jannatdagi daraxt	Dahr aro tubiyu kavsar birla solding rustxez
210	kavsar	kavsar – jannatdagi hovuz	Dahr aro tubiyu kavsar birla solding rustxez
210	birla	birla – bilan	Dahr aro tubiyu kavsar birla solding rustxez
210	solding	solding – kuydirmoq	Dahr aro tubiyu kavsar birla solding rustxez
210	rustxez	rustxez – to‘polon	Dahr aro tubiyu kavsar birla solding rustxez
210	uyidin	uyi– manzil	Ko‘z uyidin ul pariy ram qildi, mardum ashkidin
210	ram	ram – hurkib qochish	Ko‘z uyidin ul pariy ram qildi, mardum ashkidin
210	mardum	mardum – odam	Ko‘z uyidin ul pariy ram qildi, mardum ashkidin
210	ashkidin	ashkidin – ko‘zyosh	Ko‘z uyidin ul pariy ram qildi, mardum ashkidin
210	chun	chun – chunki	Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez
210	hamxona	hamxona – ulfat	Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez
210	tardoman	tardoman – gunohkor	Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez
210	erur	erur – edi	Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez
210	avlo	avlo – yaxshiroq	Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez

210	gurez	gurez – chora	Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez
210	sharbatin	sharbat– dori	Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez
210	yoxud	yoxud – yoki	Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez
210	obi	obi– suv	Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez
210	obi hayvon	obi hayvon – hayot suvi	Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez
210	birla	birla – bilan	Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez
210	ez	ez – aralashtirmoq	Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez

Har bir so‘zning qo‘llanish shakllarini model qilib dasturga kiritish mushkul vazifa [Abjalova, 2020:17]. G‘azallarni tahlil qilish natijasida hozirgi zamon kitobxoni tushunishi qiyin bo‘lgan izohtalab, tarixiy va arxaik so‘zlarning izohlanishi juda muhim ekanligi namoyon bo‘ldi. Zamonaviy o‘quvchi kognetsiyasi g‘azaldagi leksik birliklarning kontekstual semantikasini anglamaganligi bois Alisher Navoiy ijodi hanuzgacha kam o‘qiladi. Shu bois ham Navoiy asarlari tilini korpus lingvistikasida mumtoz adabiyot vakillari hamkorligida integratsion tarzda o‘rganilib, yangi innovatsion holatda o‘quvchiga taqdim etilsa, kutilgan natijaga erishiladi. Dinamik til korpuslariga nisbatan statik korpuslarda leksik birliklar bazasi o‘zgarmasligi bilan ish unumdorligi saqlanib turadi. Statik korpuslar ma’lum vaqt oralig‘ida yaratilgan matnlarni o‘z ichiga oladi: unga keyingi davrlarda yaratilgan matnlar qo‘shilmaydi. [Navoiy, 2014:14]. Shu bois korpus yaratilganidan keyingi o‘zgarishlar deyarli bo‘lmaydi va shu jihati bilan statik korpuslar ishonchli natijalarni taqdim etadi. O‘tgan davrlardagi ijodkorlar matnlari qamrab olingan mualliflik korpuslari statik korpus turiga kiritiladi.

Deklarativ bosqichning aynan 1- va 2-jarayonlari korpus matnlarining leksik birliklariga morfologik izoh berish uchun zarur hisoblanadi. Bu jarayonlar o‘ta mashaqqatli sanaladi va sinchkovlikni talab qiladi. [Abjalova, Adalı, Iskandarov, 2023:590-594]. Har bir so‘zshakl va uning asosi ustida deklarativ bosqichda ishlanadi. So‘zlar turkumlik tegi bilan bazaga kiritiladi.

Alisher Navoiyning semantik imkoniyatlarini uning til va tafakkur haqidagi qarashlaridan ham anglash mumkin: “Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma’nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so‘z aning so‘zidadur va takallum aning kalomida borur [Navoiy, 2014:14]. Inson olgan bilimini ifodalay olishi va boshqalarga yetkaza olishi kerakligi haqida Navoiy aytgan fikrni bir necha yuz yildan keyin G.Vilgelem takrorlab: “Aqliy faoliyat mutlaqo ruhiydir” [Nurmonov, 2002:81] deydi. Anglashiladiki, Navoiy Sharq tilshunosligida mavjud bo‘lgan leksika sohasidagi barcha bilimlardan xabardor

bo‘lgan va shular asosida turkiy tilning lug‘at boyligini, grammatik xususiyatlarini ko‘rsatib bera olgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodini ommalashtirish, o‘quvchilar auditoriyasini kengaytirish maqsadida yaratilgan Navoiy mualliflik korpusi materiallarini semantik teglash barobarida leksik birliklarni grammatik teglash ham muhim ahamiyat kasb etib, Navoiy ijodini tadqiq etish, Navoiyning so‘z qo‘llash mahoratini yanada yaqqol o‘rganish, Navoiy so‘zligining chastotali lug‘atlarini yaratishga omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] monografiya, – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 26.; ttps://research-journal.org/archive/6-48-2016-june/k-voprosu-o-tokenizacii-teksta/. Гречачин В. вопросуо токенизации текста [Электронный ресурс]

2. Abjalova M., Iskandarov O. Matnlarni morfologik tahlil qilish moduli va uning algoritmi. – T.: O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 2/2020. – B. 160-163.

3. Abjalova M., Elova D. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da so‘z turkumlarini teglash masalasi. // O‘zbekistonda til va madaniyat, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 1/2021. – B. 6-20.

4. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. **DOI:** 10.1109/UBMK52708.2021.9558900. – pp. 82-85. Impakt Factor 5.5

5. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

6. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences

7. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, “Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities, “2023 8th International Conference on Computer

Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.

8. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied LinguisticsISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. https://inter-publishing. com/index. php/IJLLAL/article/view/3228/2733

9. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: Tafakkur, 2014. – B. 14.

10. Большакова Е., Воронцов К., Ефремова Н., Клышинский Э., Лукашевич Н., Сапин А. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и анализ данных : учеб. пособие / – М.: Изд-во НИУ ВШЭ, 2017. – С 33.

11. Гатауллин Р., Гатиатуллин А., Неврозова О., Мухамедшин Д., Сулейманов Д., Хакимов Б., Хусаинов А. Формальные модели и програмные инструменты компьютерной обработки татарского языка. Академия наук РТ, Институт приклалной семиотики АН РТ. – Казань: Изд-во Академии наук Рт, 2019. – С.39-40.

12. Гатиатуллин А., Баширов А. Морфологический анализатор тюркских словоформ на базе структурно-функциональной модели тюркской морфемы. V Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков. «Turklang. 2017» – Казань, 2017. – С. 51.

13. Марчук Ю. Компьютерная лингвистика. − Москва, 2006. − С. 65.

14. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, Ўзбекистон: 2002. – Б. 81.

15. Шамсиев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1972. – Б. 8.

O‘ZBEK KORPUS LINGVISTIKASI SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Abdurahmanova Sayyora Bozorboy qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109163

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek korpus lingvistikasining shakllanishi bu borada olib borilgan tadqiqoqtlar, texnik ishlanmamalari va bugungi kunga qadar yaratilgan korpuslar tahlilga tortilgan. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tili xusisiyatidan kelib chiqqan holda yaratiladigan korpuslar haqida fikr bildirilgan.
Kalit so‘zlar: *korpus, milliy korpus, korpus lingvistikasi, dialektal korpus.*

Abstract. In this article, the researches, technical developments and the corpora created to date are analyzed. In addition, an opinion was expressed about the corpora created based on the characteristics of the Uzbek language.
Key words: *corpus, national corpus, corpus linguistics, dialectal corpus.*

XIX asr oxiri XX asr boshlaridan boshlab tilni tadqiq etishning yangi bosqich va nazariyalari yaratila boshladi. Aynan mana shunday yangi qarashlar amaliy tilshunoslik sari tashlanayotgan ilk qadam hisoblangan. Xususan, kompyuter lingvistikasi va u asosida yuzaga kelgan korpus lingvistikasi mana shunday amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlardan sanalgan. Bu borada dastlabki tadqiqotlar injener lingvistikasi nomi ostida birlashgan bo‘lsa bugungi kunga kelib kompyuter lingvistikasi tarkibiga kiruvchi har bir yo‘nalish mustaqil fan darajasiga ko‘tarila oldi. Xususan, korpus lingvistikasi ham kompyuter lingvistikasi tarkibidagi etalon yo‘nalishlardan biri bo‘lib, tabiiy tilni saqlab qolish, uni qayta ishlashga xizmat qiladi. Bu boradagi ilk tadqiqotlar sun’iy intellekt haqidagi farazlardan avvalroq boshlanganini inobatga olsak, dastlabki kompyuter lingvistikasiga oid ishlar inson mehnatiga tayanilgan holda bajarilgani va bu jarayon juda katta kuch talab etgani shubhasiz.

Avvalo, korpus nima degan savolga javob olishimiz lozim. Korpus bu – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta’minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi hisoblanadi. Bu yo‘nalish 1960-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida paydo bo‘lgan. “Dastlabki matnlar korpusi (Braun korpusi)”

60-yillarda AQShda yaratilgan va Amerika bosma nasrining lingvistik xususiyatlarini aks ettirish uchun mo‘ljallangan. Bu korpus magnit tashuvchi (disketa yoki qattiq disk)ga yozib olingan va umumiy hajmi millionga yaqin so‘zdan iborat AQSh bosma nasrining turli matnlarining besh yuz ikki ming (502 000) so‘zli parchalarini o‘z ichiga olgan. Bu borada Rikov quyidagi farazni ilgari suradi. Ehtimol, Braun korpusi yaratuvchilari uchun kutilmaganda:

a) boshqa shunga o‘xshash korpuslarni yaratish uchun o‘ziga xos standartga aylandi;

b) korpus tilshunosligida yangi fanning yaratilishiga turtki bo‘ldi;

c) matnlar korpusi va korpus tilshunosligi usullarini qo‘llash sohasi uni yaratuvchilar kutganidan ham ancha kengroq va rang-barang bo‘lib chiqdi [Rykov, V. V. 2002:124]

Darhaqiqat Braun korpusi keyinchalik yaratilgan boshqa til korpuslari uchun andoza vazifasini o‘tadi. O‘tgan asr so‘ngida mazkur jarayon jadallashdi, XXI asr boshlarida millionlab so‘zlarni aks ettirgan yuzlab til korpuslari paydo bo‘ldi [Abjalova, 2022]. Sun’iy intellektning avtomatik tarjima, kompyuter tahlili, tezaurus, elektron lug‘at singari imkonioyatlari kengaydi, ilmiy, nazariy asoslari yaratildi, amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan ilk namunalari qo‘llanila boshladi [Xamrayeva Sh. 2020:168]. Bu jarayon tabiiy tilni qayta ishlash borasida tashlangan katta qadam edi. Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasi fan sifatida o‘qitiladi va bu yo‘nalishning obekti korpus yaratish nazariyasi va amaliyotini o‘z ichiga olsa, fan sifatida dasturlash, dasturiy ta’minot yaratish ustuvorlik qiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo‘lib, til korpusini yaratish kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi [Захаров В.П. 2005:27]. Fanning obekti va maqsadidan kelib chiqqan holda korpus lingvistikasining predmeti til korpusi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib korpus tushunchasini ifodalashga xizmat qiluvchi ko‘plab ta’riflar mavjud. E. Finegan: “Korpus – bu odatda, kompyuter o‘qiy oladigan formatda bo‘lgan va bizga matn ishlab chiqilgan vaziyat, informatsiya beruvchi, muallif, adresat yoki auditoriya haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga olgan matnlar to‘plamidir”, - deydi. Turli umumiy ma’lumot beruvchi ijtimoiy saytlar korpusni statistik analiz hamda farazlar tekshiruvi asosida anglangan sohalarda uchrovchi til qoidalari va hodisalarini asoslay oladigan katta hajmdagi, tizimli matnlar to‘plami (endilikda odatiy elektron shaklda) sifatida ta’riflaydi [Захаров В.П. 2011:7].

Korpusshunoslik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar uchun dastavval o‘zbek kompyuter kompyuter lingvistikasi yo‘nalishining tadqiqi borasidagi tadqiqotlar asos bo‘ldi. A.Po‘latov, Z.Xolmanova, A.Rahimov, S.Muhammedova, N.Abdurahmonova, M.Abjalaova, kabi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan va hanuzgacha davom etayotgan izlanishlarda korpus lingvistikasi haqida umumiy ma’lumotlar aytib o‘tilgan bo‘lib unda o‘zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kompyuter lingvistikasi nazariyasi borasida Z.Xolmanova hamda A.Rahimovlar o‘z fikrlarini ilgari surgan bo‘lsa, kompyuter lingvistikasiga oid amaliy ishlarning matemetik yechimi haqida A.Po‘latov tomonidan bildirilgan fikrlar fan uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korpus lingvistikasi bo‘yicha mamlakatimizda ham ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilda. Jumladan, “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”, “O‘zbek tili milliy korpusi”, “O‘zbek tili korpusi”, N.G‘ulomovaning “Alisher Navoiy mualliflik korpusi” [Abjalova, G’ulomova, 2022], O.Abdullayevaning “Tug‘ro” nomli o‘zbek tili axborot matnlari korpusi fikrimizga dalil bo‘la oladi. M.Xolova tomonidan nazariy asoslari ishlab chiqilgan dilalektal korpusda Boysun j lovchi shevasi qamrab olingan va bir qator matnlar mamui, shevaga oid so‘zlar qamrab olingan. Ushbu korpuslar o‘zbek tilining xususiyatidan kelib chiqqan holda yaratilgan bo‘lib korpus uchun qo‘yilgan talablarga to‘la mos keladi. Shu bilan bir qatorda yuqorida aytib o‘tilgan korpuslar tarkibida turli subkorpuslarning biriktirilishi bu korpuslarni yanada mukammallashishini taminlaydi. Shu bilan bir qatorda o‘zbek shevalari korpusini yaratish ham bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb malsalalardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi o‘zbek tilida uchta qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalaridan tarkib topganligi va bugungi kunga kelib urbanizatsiyaning oshib borishi natijasida shevalarda so‘zlovchi avlodning kamayib borishi dialektal korpus yaratish nechog‘lik muhim ekanligini anglatadi. Dialektal matnlar korpusi – bunda O‘zbekistonning turli mintaqalariga tegishli dialektal nutqi ularning grammatik spetsifikatsiyasini saqlangan holdagi yozuvlari kiritiladi, dialektal morfologiya hisobga olingan maxsus qidiruv e’tiborga olinadi. Dialektal korpusni yaratish asnosida til tarixida bo‘layotgan o‘zgarishlarni tahlil qila olish, shevalarimiz tarkibidagi lakunar birliklarni ajratish orqali adabiy tilni ichki manba hisobiga boyishiga erishamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak har bir til uchun yaratilgan korpus aynan o‘sha tilning imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqariladi. Har bir tilning fonetik, leksik, grammatik tuzilishi boshqa bir tildan tubdan farq qiladi. Shu sababdan bugungi kunga kelib rivojlanayotgan o‘zbek tili korpuslari qatoriga

diaektal korpusni ham kiritish, bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarni optimallashtirish muhim sanaladi. Shevalar korpusini yaratish nafaqat tilshunoslar va adabiyotshunoslar uvhun ham muhim sanaladi. Badiiy asarlarda sheva so‘zlaridan foydalanishi xalq va huhud koloritini ochib berishga xizmat qiladi biroq, bugungi kunga kelib hamma birdek shevani, so‘zlarning ma’no nozikligini tushuna olishi mushkul. Dialektal korpusni yaratishimiz, shevalarimizdagi ma’no nozikligiga ega so‘zlarni saqlab qolish, adabiy tilda muqobili mavjud bo‘lmagan tushunchalarni muomalaga kiritiish oldimizda turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi darslik Nodirabegim T: 2021
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 160b.
3. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
4. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b. ISBN 978-9943-6939-0-6
5. Abjalova M.A. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 215 b. ISBN 978-9943-7804-5-3
6. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar**.** Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 22.04.2022. – B. 89-93.
7. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
8. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, "Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities," 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.
9. Sh.Xamrayeva O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. [Matn] monografiya. – Toshkent: GlobeEdit, 2020. – 219b.

10. O.Abdullayeva O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amliy asoslari. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent: – 2022.

11. A.Raxmonova O‘zbek tili milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent: – 2022.

12. N.G‘ulomova Alisher Navoiy mualliflik korpusiva uning semanik teglar bazasini yaratish (“Badoye’ ul-vasat” devoni asosida) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent: – 2022.

13. Rykov, V. V. Text corpus as an implementation of the objekt-oriented paradigm In Prosedings of the international seminar “Dialogue-2002” . Moscow: Nauka. PP. 124-129

14. Xamrayeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusi.-Toshkent: Globe edit, 2020. – 168 b.

15. Захаров В.П. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие. – СПб., 2005. -48 с, - С. 27

16. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. – Иркутск, 2011.С. 7.

Internet manbalari:

1. https://uzschoolcorpara.uz/
2. https://alishernavoiykorpusi.uz/
3. http://uzbekcorpora.uz/
4. https://uzbekcorpus.uz/

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA VA O‘RGANISHDA KORPUS LINGVISTIKASINING AHAMIYATI

Jo‘rayev Shohruh Baxtiyorovich
logisgeeks@gmail.com
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti,
1-kurs tayanch doktorant
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109185

Annotatsiya. Xorijiy tillarni o‘qitishda va til o‘rganuvchilarining xorijiy tillarni autentik va ishonchli manbalarga asoslangan holda iboralar va so‘z birikmalarining struktur-semantik xususiyatlarini o`zlashtirishi hozirgi kun talablaridan biri. Ushbu tezisda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganishda til korpuslaridan samarli foydalanish, korpus tilshunosligi orqali tillarda mavjud iboralar va so‘z birikmalarini autentik materiallar orqali o‘rganish mezonlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *korpus lingvistikasi, chet til o‘qitish, leksikologiya, so‘z birikmalari, British National Corpus, COCA.*

Annotation. It is one of the demands of the present day in the teaching of foreign languages and for language learners to master the structural-semantic features of phrases and word combinations based on authentic and reliable sources. This thesis shows the criteria for effective use of language corpora in teaching and learning foreign languages, learning expressions and word combinations in languages through authentic materials through corpus linguistics.

Key words: *corpus linguistics, teaching a foreign language, lexicology, word phrase, British national Corpus, COCA.*

Korpus lingvistikasi kompyuter tilshunosligining bo‘limlaridan biri hisoblanib, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda, matnlar korpusini(mavjud yozma va og‘zaki matnlarning elektron shakli) yaratish, shakllantirish va takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan fan [1:3]. So‘nggi yillarda ko‘plab tilshunoslar tomonidan korpus lingvistikasi bo‘yicha tadqiqotlarning ommalashuvi va korpus tilshunosligi bo‘limlarining kengayishi sababli, xorijiy tillarni o‘qitishda ham matnlar korpusidan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatib bergan.

Ma’lum bir tilni o‘qitishda va o‘rganishda o‘sha tilda mavjud korpuslarga murojaat etish, uning imkoniyatlaridan foydalanish – xorijiy tillardagi til strukturalari va sematikasidan autentik va ishonchli manbalar orqali o‘rganish

imkoniyatini beradi. Misol uchun ingliz tili leksikasini o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan bir qator o‘quv qo‘llanmalar ham ingliz tilidagi mavjud so‘z birikmalarini va iboralaridan to‘g‘ri foydalanishda mavjud korpuslarga asoslanib tilni o‘qitish va o‘rganishni tavsiya qiladi [5]. Masalan, Cambridge University Press tomonidan chop etilgan va ingliz tilidagi so`z birikmalari va maishiy iboralarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan “English Collocations in Use” o‘quv qo‘llanmasida ham ingliz tilidagi mavjud tabiiy so‘z birikmalaridan to‘g‘ri foydalanish, ularni o‘rganishda ingliz zabon olimlar tomonidan yaratilgan ingliz tilli korpuslardan foydalanishni tavsiya qilib o‘tgan. Shu kabi ishonchli qo‘llanmalar ishlab chiqish jarayonida ham qo‘llanma yaratuvchilari asosan mavjud ishonchli korpuslarga asoslanadi. Misol uchun, “English Collocations in Use” o‘quv qo‘llanmasi ham Nottinghem universiteti tomonidan ishlab chiqilgan og‘zaki Ingliz tilining CONCODE korpusidagi lug‘at boyliklaridan foydalanib o‘quvchilarga taqdim etilgan. Quyida aynan xorijiy tillarni o‘rganuvchilar uchun mavjud korpuslardan foydalanish uslublariga to‘xtalamiz.

Bir tilli yoki ko‘p tilli korpuslardan foydalanish deganda albatta o‘sha korpus platformasi tomonidan taqdim etiladigan bir qancha tools (uskunalar) jamlanmasi mavjud bo‘lib, istalgan leksik birlik yoki so‘z birikmalarini qidiruv uskunasi orqali bir zumda belgilangan tilda qanday hollarda ishlatilishi, gapdagi strukturasi va kontekstini namoyon qilib beradi. Bunda foydalanuvchi tomonidan qidirilgan leksik birlik original matnda qanday shakllarda qo‘llanilishini o‘rganadi [3:17]. Misol uchun, inglizcha “abject” sifati ot turkumidagi so‘zlar bilan birga ishlatilib, *juda past, ayanchli, tuban* manolarini ifodalaydi. Ammo abject so‘zini bunday semantik manoda ingliz tilidagi har qanday so‘z oldidan ham foydalanish to‘g‘ri deb hisoblanmaydi, chunki istalgan ot so‘z turkumi oldidan qo‘llanilishi eshituvchida noto‘g‘ri semantika hosil qilishi yoki umuman tushunmovchilik yaratishi mumkin. Aynan ona tili ingliz bo‘lgan so‘zlovchilar abject sifatidan faqatgani ma’lum bir ot turkimdagi so‘zlar bilan ishlatadi. Til o‘rganuvchilar mazkur sifat turkumidagi so‘zni qaysi otlar bilan eng ko‘p ishlatilganligini va qanday strukturaviy foydalanishi ingliz tilli korpuslardan foydalangan holda ishonchli matnlar orqali tekshirib olishi mumkin. Agar British National Corpusga “abject” so‘zini qidiruvga berilsa, quyidagi manzara kasb etadi:


s he came from a domestic situation of **abject** poverty, it was a radical chan
despite their efforts, the project was an **abject** failure, and all involved were
nany years the population had suffered **abject** terror as a result of the policie
ast majority of this tiny country live in **abject** poverty, despite the immense
r living conditions can be described as **abject** misery, such was the state of

va bu orqali mazkur sifat ingliz tilidagi “poverty, failure, terror, misery” kabi ot turkumidagi so‘zlar bilan birikmalar hosil qilishi va ingliz og‘zaki va yozma nutqda aynan shunday barqaror birikmalarda foydalanilishini ko‘rish mumkin.

Korpuslardan nafaqat tilning strukturaviy xususiyatlari, qolaversa semantik jarayonlarini ham tahlil qilish va til o‘qitishda leksik birliklarning turli xil sinonimik va omonimik jihatlarini o`rgatish va o`rganish mumkin. Tilshunoslarimiz B. Menliyev va R. Karimovlarning “The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation” nomli maqolasida ham korpus tilshunosligi orqali tillarni o‘qitishda tilshunoslikning bir qancha aspektlariga to‘xtalishgan: sinonimik so‘zlar bir biridan farq qiladi va stilistik qo‘llanilishga ko‘ra turli xil manolar kasb etadi [2:389]. Misol uchun, ingliz tilidagi **negotiate** va **settle** so‘zlari bir biriga sinonim hisoblansada(bu so‘zlar o‘zbek tilida muzokaralashmoq, bahs-munozara orqali kelishib olish manolarini ifodalaydi), semantik-struktur xususiyatiga ko‘ra turlicha sifat va felli birikmalar bilan birikib keladi, va lug‘aviy ma’no kasb etishiga ko‘ra turlicha kontekstlarda foydalaniladi.



Yuqorida, Corpus of Contemporary American English (COCA) korpusidan foydalanga holda, *negotiate* va *settle* so‘zlari umumiy bir xil ma’no kasb etishiga qaramay, bu leksik birliklar gapda o‘zidan keyin ishlatiladigan ot turkumiga oid so‘zlarning turli tumanligi bilan farqlanishini ko‘ramiz, ya’ni “negotiate” so‘zi ingliz tilidagi *deal, agreement, contract va price* so‘zlari bilan ko‘p foydalanilsa, “settle” so‘zi *case, dust, dispute, lawsuit* kabi ot turkumidagi birliklar bilan birikmalar hosil qilib kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida, til o‘qitishda matnlar korpuslaridan foydalanib har bil tilning autentik manbalariga asoslanish, xorijiy tillarni o‘rganishda sifatli til resurslaridan foydalanish, tilning original jihatlarini o‘rganish, og‘zaki va yozma nutqda xuddi malum bir tildan o‘sha tilda so‘zlashuvchilardek til boyliklaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Felicity O’Dell., Michael McCarthy. English Collocations in Use Advanced. - Cambridge University Press. 2008

2. Karimov R., Mengliev B. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation. – IJEAT – Issue-5S3, July 2019.

3. Захаров В. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие. – СПб., 2005

4. https://www.english-corpora.org/coca

5. https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/corpora-english-language-teaching

6. Abjalova M. O‘zbek tili korpusining dasturiy ta’minoti imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar**.** Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 22.04.2022. – B. 73-81.

7. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar**.** Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 22.04.2022. – B. 89-93.

8. Abjalova M. (2021). The importance of language corpus in the construction of lexicographic sources. Current Research Journal Of Philological Sciences (2767-3758), 2(12), 161–166. https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-12-31**.** https://masterjournals.com/index.php/crjps

9. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, "Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities," 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.

10. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied LinguisticsISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733

OGAHIY “TA’VIZU-L-OSHIQIN” DEVONINING MATN KORPUSINI SHAKILLANTIRISHNING LINGVISTIK VA DASTURIY ASOSLARI

Raximbayev Musobek Komiljon o‘g‘li
Urganch davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
musobekgtd@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109194

Annotatsiya. Korpus tabiiy tillar uchun matnlarning to‘liq va tashkiliy to‘plami bo‘lib xizmat qiladi. Korpus lingvistikasi sohasida statistik tahlillarni o‘tkazish ma’lum bir til yoki lingvistik sohadagi til hodisalarini shakillantirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. O‘zbek mumtoz adiblari asarlarini tahlil qilish davomida Ogahiyning “Ta’vizu-l-oshiqin” devoni matn korpusini shakillantirish, g‘azallarda qo‘llanilgan so‘zlar va so‘z birikmalaridan foydalangan holda elektron lug‘at uchun matn korpusini yaratish bosqichlari o‘rganib chiqiladi. G‘azallarda qo‘llanilgan so‘zlardan foydalangan holda ma’lumotlar bazalarini yaratish kerakli natijaga erishish uchun eng muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *"Ta’vizu-l-oshiqin", devon, matn korpusi, lingvistik asoslar, dasturiy asoslar, korpus lingvistikasi, o‘zbek adabiyoti, matn tahlili, raqamli gumanitar fanlar.*

Annotation. A corpus serves as a complete and organized collection of texts for natural languages. In the field of corpus linguistics, conducting statistical analyses is crucial for shaping linguistic phenomena in a specific language or linguistic area. During the analysis of works by classical Uzbek authors, the stages of creating a text corpus for Ogahiy’s divan "Ta’vizu-l-oshiqin", utilizing words and phrases used in ghazals, will be studied to build an electronic dictionary. Utilizing the words used in ghazals to create databases is a critical factor in achieving the necessary results.

Keywords: *"Ta’vizu-l-oshiqin", divan, text corpus, linguistic foundations, software foundations, corpus linguistics, Uzbek literature, textual analysis, digital humanities.*

Korpus lingvistikasi tilni metodik tekshirishga bag‘ishlangan tilshunoslik segmentini tashkil etadi, bu esa korpus deb ataladigan keng va tashkillashtirilgan matnlar to‘plamidir. Ushbu metodologiya turli manbalardan olingan lingvistik ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi, tadqiqotchilarga tildan foydalanish

terminlari, tendentsiyalari va qonuniyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Hisoblash vositalari va statistik usullardan foydalangan holda, korpus lingvistikasi til nazariyalariga hissa qo‘shish va sintaksis, semantika va nutq kabi til komponentlarini chuqurroq tushunish uchun lingvistik hodisalarni o‘rganadi. Ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni qo‘llash orqali u tilning turli kontekstlarda qanday ishlashini tushunishimizni boyitadi va shu bilan tilshunoslik sohasidagi empirik tadqiqotlarni osonlashtiradi.

Leech fikriga ko‘ra “Kompyuter korpus lingvistikasi nafaqat tilni o‘rganishning yangi paydo bo‘lgan metodologiyasini, balki tadqiqot amaliyotlariga zamonaviy falsafiy yondashuvni belgilaydi” deb ta’kidladi [1].

Ogahiy g‘azallarida qo‘llanilgan so‘zlardan foydalangan holda matn korpusini yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat bo‘ladi.

1. G‘azallarni tahlil qilish.
2. G‘azallarda qo‘llanilgan matnlar tarkibidagi nomuhim so‘zlar va belgilarni tahlil qilish.

G‘azallarni tahlil qilish

Ohagiy g‘azallarini tahlil qilish jarayonlarida so‘zlar va so‘z birikmalari bo‘laklarga bo‘lindadi va ma’lumotlar bazalariga joylaniladi. Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ma’lumotlar bazashi shakillantiriladi. O‘z navbatida ma’lumotlar bazasi quyidagi ko‘rinishdagi diogramma orqali yaratiladi.

1-rasm. G‘azal matni jadvali.

“Asarlar” deb nomlangan ma’lumotlar bazasi jadvali g‘azallardagi matnlar jamlanmasini o‘zida mujassam qiladi. G‘azal matni maxsus funksiyalardan foydalangan holda korpus ko‘rinishga aylantiriladi.

Ogahiyning **[ا] “ALIF” RADIFI** g‘azalidan olingan baytlar misolida ma’lumotlat bazasiga matnlar korpusi sifatida ma’lumotlarni joylashtiramiz.

Zihi jonlarg‘a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo,
Gahi dard-u firoqing xavfidin ranj-u taab paydo[2].

Maxus funksiyalar sifatida **tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)** uchun qo‘llaniladigan dasturlash tillarining matnlar bilan ishlovchi funksiyalarini misol qilib olishimiz mumkin.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyasi tilshunoslik sohasida keng qo‘llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Sun’iy intellektning ushbu sohasi tabiiy tildan foydalangan holda kompyuterlar va odamlar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirishga bag‘ishlangan. NLP ning asosiy maqsadi kompyuterlarga nafaqat mazmunli, balki kontekstga ham mos keladigan tarzda inson tilini tushunish, talqin qilish va ishlab chiqarish imkoniyatini berishdir. NLP turli xil vazifalarni, jumladan, matn va nutqni tanib olish, tillarni tarjima qilish, his-tuyg‘ularni tahlil qilish kabi xususiyatlarni bajaradi.

NLP atamasi odatda og‘zaki yoki yozma tilni tahlil qiladigan kompyuter tizimidagi dasturiy komponentlarining funksiyasini tavsiflash uchun ishlatiladi [3].

NLP odamlar bilan muloqot qilish va kompyuterni tushunish o‘rtasidagi tafovutni qisqartirishga yordam beradi, bu esa mashinalarga chatbotlar, virtual yordamchilar, tilni tarjima qilish xizmatlari va boshqalar kabi turli xil ilovalarda inson tilini samarali ta’sir qilish qilish imkonini beradi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) funksiyalaridan foydalanish uchun **python** dasturlash tilini tanlash maqbul hisoblanadi.

Python dasturlash tilida **NLP** uchun **NLTK** kutubxonasi yaratilgan, bu kutubxona jada qulay bo‘lib, tabiiy tillar uchun maxsus vazifalarni bajaradi. NLTK kutubxonasi o‘zbek tilidagi so‘zlarni tahlil qilish uchun mo‘ljallanmaganligi tufayli ma’lumotlar bazasida so‘zlarni tahlil qilish talab qilinadi.

Ma’lumotlar bazasiga g‘azallar **split()** buyrug‘i asosida quydagicha ajratiladi.

{Zihi}, {jonlarg‘a}, {vasling}, {shavqidin}, {aysh-u}, {tarab}, {paydo}, {Gahi}, {dard-u}, {firoqing}, {xavfidin}, {ranj-u}, {taab}, {paydo}.

G‘azallarda qo‘llanilgan matnlar tarkibidagi nomuhim so‘zlar va belgilarni tahlil qilish

Nomuhim so‘zlar ko‘pincha tabiiy tilni qayta ishlash vazifalarida muhim ma’lumotlarning etishmasligi tufayli chiqarib tashlanadi yoki e’tiborga olinmaydi. “ham”, “va”, “bu” va "u" kabi tez-tez ishlatiladigan so‘zlar turli hujjatlarda keng tarqalgan, lekin odatda mazmunni umumiy tushunishga sezilarli hissa qo‘shmaydi. Matnni tahlil qilish harakatlariga to‘xtash so‘zlarini kiritish keraksiz murakkablik va ortiqcha ovoragarchilik tug‘dirishi mumkin, bu esa mazmunli tushunchalarning paydo bo‘lishini kamaytiradi.

Tabiiy tillarni qayta ishlashda nomuhim so‘zlarining mavjudligi tekshirilayotgan tilga qarab farq qiladi, bu esa nomuhim so‘zlarini olib tashlash majburiyatini yaratadi. Har xil dasturlash kutubxonalari va vositalari, jumladan, Python uchun NLTK (Natural Language Toolkit) turli tillarga moslashtirilgan to‘xtash so‘zlarining oldindan belgilangan ro‘yxatini shakillantiradi. Bu tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilarga ushbu umumiy so‘zlarni matn ma’lumotlaridan samarali ravishda filtrlashda yordam beradi.

Zihi jonlarg‘a vasling shavqidin aysh-u tarab paydo,
Gahi dard-u firoqing xavfidin ranj-u taab paydo.
Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingg‘a,
Bu ko‘zgu ichra bo‘ldi necha naqshi bul’ajab paydo[2].

[ا] “ALIF” RADIFI

Baytlar tarkibidagi nomuhim so‘zlar qatori deb **{Bu}** so‘zini misol qilsak bo‘ladi va bayt tarkibidan olib tashlanadi va ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

{Zihi}, {jonlarg‘a}, {vasling}, {shavqidin}, {aysh-u}, {tarab}, {paydo}, {Gahi}, {dard-u}, {firoqing}, {xavfidin}, {ranj-u}, {taab}, {paydo}, {Chu}, {mazhar}, {aylading}, {olamni}, {husni}, {bemisolingg‘a}, {ko‘zgu}, {ichra}, {bo‘ldi}, {necha}, {naqshi}, {bul’ajab}, {paydo}.

{Bu} so‘zi olib tashlandi. Bayt tarkibidagi boshqa so‘zlar yuqori ahamiyatga ega so‘zlar deb hisoblanadi va korpus bazasiga joylashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy g‘azallarida qo‘llanilgan so‘zlardan iborat bo‘lgan til korpusi lingvistik tadqiqotlar, tahlillar va turli xil tabiiy tillarni qayta ishlash ilovalarida qo‘llaniladigan yozma tilning shakllari to‘plamidir. Korpusning ko‘plik shakli, tilning nozik jihatlarini tekshirish, lingvistik bilimlarni olish va til modellarini o‘rgatish hamda baholash uchun hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leech, Geoffrey. 1992. Corpora and theories of linguistic performance. In J.Svartvik (ed.). 105–122.
2. P. Jackson and I. Moulinier, Natural Language Processing for Online Applications: Cambridge University press, New York.2012, page 7-9.
3. Muhammad Rizo Ogahiy “Ta’vizu-l-oshiqin” devon, -T: “Mumtoz so‘z”, 2014.

4. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.

5. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, "Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities," 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.

6. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

7. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences

SLENGLARNI AVTOMATIK TEGLASHDA LUG‘ATGA ASOSLANGAN YONDASHUV

Bekmuradova Iroda Zokir qizi
irodabekmuradova9@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109209

Annotatsiya. Ushbu maqolada sleng tushunchasi, ular qo‘llangan matnlarni avtomatik teglashda qo‘llaniladigan yondashuvlar va ulardan lug‘atga asoslangan yondashuv haqida so‘z yuritiladi. Sleng qatnashgan matnlarni teglashda, sleng lug‘atlarining ahamiyati hamda bugungi kunda bunday lug‘atlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi kabi masalalar tahlil qilinadi. Sleng lug‘atlarini tuzish, slenglar izohi va boshqa xususiyatarini korpusda matnga teg sifatida biriktirish jarayoniga to‘xtalib o‘tiladi.
Kalit so‘zlar: *sleng, noadabiy leksika, korpus, teg, sleng lug‘ati.*

Abstract. This article discusses the concept of slang, the approaches used to automatically tag texts using them, and the dictionary-based approach. Issues such as the importance of slang dictionaries and the increasing need for such dictionaries today are analyzed in tagging texts with slang. It focuses on the process of creating slang dictionaries, attaching slang annotations and other features to the text as tags in the corpus.
Keywords: *slang, non-literary lexicon, corpus, tag, slang dictionary.*

Slenglar sotsiolingvistik birlik sifatida ko‘p qo‘llanadigan noadabiy leksik qatlamga oid bo‘lib, doimiy o‘rganishni talab etadigan so‘zlardir, ular adabiy me’yor doirasiga kirmasa-da, kundalik hayotda ko‘p qo‘llaniladi. Shu sababli, so‘zlashuv nutqining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Bunday birliklar yozma nutqda kamdan-kam ishlatilsa ham, og‘zaki so‘zlashuvda faol qo‘llaniladi, ular til foydalanuvchilarning barcha toifasi uchun birday tushunarli bo‘lolmaydi, chunki, bunday birliklar ko‘p hollarda qisqalik hamda aytilmoqchi bo‘lgan fikrni boshqalardan yashirish maqsadida ishlatiladi.

Bugungi o‘zbek so‘zlashuv uslubida tilimizga mansub slenglar ham, o‘zga tillardan o‘zlashgan slenglar ham uchraydi. O‘zbek tilshunosligida sleng birliklar hali yetarli darajada tadqiq etilmagan, shuning uchun mavzuga doir keng sotsial

tadqiqotlar, slenglar lug‘atini yaratish kabi masalalar yangi ilmiy izlanishlarga muhtoj.

Slengga xos eng umumiy ta’rif – bu muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Slengni ishlatish juda oson, bir qarashda tushunish ham soddaga o‘xshab ko‘rinadi. Ammo eng oddiy narsalarni aniqlash, albatta, muhokama qilish eng qiyin, chunki sleng so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lganligi hamda uni qo‘llashdan maqsad ilmiy qonunlar, grammatik qoidalar va falsafiy nazariyalarga asoslanmagani, qulaylik uchun ishlatilishi sababli bu jarayonni izohlash biroz murakkab. U qanday paydo bo‘lsa, shundayligicha so‘zlashuv nutqida yashaydi. [Eric Partridge, 1933:20]

Rus tilshunosligida bunday xususiyatga ega bo‘lgan birliklarning faqat yoshlar nutqiga xos bo‘lganlarigina sleng sifatida olinadi. [Беликов В. И., Крысин Л. П., 2001:161] Ingliz tilshunosligida esa slengning qamrovi biroz kengroq. U jargon so‘zi bilan sinonim sifatida yoshi va kasbidan qat’i nazar har qanday ijtimoiy guruhlar uchun xos bo‘lgan “kodlangan leksika”ni bildiradi.

O‘zbek tilshunosligidagi sotsiolingvistik tadqiqotlarda rus tilshunosligidagi qarashga ergashish holati kuzatiladi. Ya’ni slenglar ko‘proq yoshlarning nutqida uchraydigan o‘ziga xos yashirin ma’noga ega bo‘lgan leksik birliklar sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatdan qaraganda bugungi kunda yoshlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida keng qo‘llaniladigan ba’zi chet so‘zlari, ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, ommalashtirilgan ayrim o‘zbekcha so‘zlar, iboralar va o‘xshatishlar slenglarni tashkil etadi. Masalan:

Sleng	**Izohi**
Shkaf	barvasta, gavdali, norg‘ul. Ba’zan beso‘naqay qomatga ega odamlarga nisbatan.
Sigir	qizlarga ko‘p pul sarflaydigan yigitlar.
G‘ijim	o‘ziga qaramaydigan, o‘ziga bee’tibor odamlarga nisbatan va shu kabilar.
Turshak	o‘ziga qaramaydigan, o‘ziga bee’tibor odam.
Vozduxan	gapiga javob berolmaydigan, og‘zida gap turmaydigan.
Chuchvara	hech narsani eplolmaydigan.

Bortini berdi	orani ochiq qildi (sevishgan jufliklardan birortasi munsabatlarni uzgan holatga nisbatan ishlatiladi)
Feyk	yolg‘on xabar
Solti	tili zahar
Lipuchka	yopishqoq odam

Odatda, slenglar, ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida, keng ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Chunki aksariyat slenglar ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Shunga ko‘ra ular tildagi boshqa leksik hodisalar: metafora, o‘xshatish, sinekdoxa kabi hodisalarga o‘xshab ketadi. Ammo shunday bo‘lsa ham mazkur hodisalar bir-biridan farqli holatda qarashni talab etadigan ayrim xususiyatlarga ega. So‘zlarning ma’no ko‘chish hodisalari, umuman ko‘chma ma’noda qo‘llangan birliklar har bir so‘zlovchi tomonidan, nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda individual hosil qilinishi mumkin. Ammo slenglarda bunday xususiyat yo‘q, ular an’anaviy foydalanishda bo‘ladi. O‘xshatishlarda *-dek, -day, kabi, singari* tartibidagi vositalar bo‘lsa, slengda bunday komponentlar mavjud emas. Ular yaxlit so‘z yoki so‘z birikmasi holida tushuncha ifodalaydi.

Til korpusida sleng birliklarni ajratib tahlil qilish, ularga avtomatik teg qo‘yishning ahamiyati shundaki, bunday birliklar qatnashgan matnning u yoki bu tahlili amalga oshirilganda slenglarni oddiy leksik birliklar kabi tahlil qilib ketish, avtomatik tarjima jarayonida so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilangan tilga tarjima qilib qo‘yish kabi xatoliklarni to‘xtatishga erishish mumkin.

Matndagi birliklarga avtomatik qo‘yilgan teg – bu muayyan birlikning korpusdagi qo‘shimcha ma’lumotidir. Slenglarni teglash bunday birliklarga izoh berish orqali amalga oshiriladi. [Hamroyeva Sh, 2020:52] Korpusda birliklarni teglash [Abjalova, 2022] muayyan maqsadda to‘plangan matnlar majmui, til birliklari yig‘indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta’minot asosida joylashtirilgan matnlar jamlanmasi orqali amalga oshiriladi. Undagi matnlar tilni ifoda etish, tilning rivojlanish bosqichlari, janrlari, uslublari, hududiy va ijtimoiy variantlarining barcha xilma-xilligini aks ettiradi. Til korpuslari ularning maqsadi bilan ichki tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, asosiy jihatga – til birliklarni avtomatik teglagan holda u yoki bu jihatiga ko‘ra tahlil qilish yoki shunga o‘xshash analizlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Korpusda tahlil uchun kiritilgan matnlardagi birliklarni teglashga oid turli yondashuvlar va bir qator matematik usullar mavjud. Shulardan asosiylari: qoidaga asoslangan yondashuv, lug‘atga asoslangan yondashuv, mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuv, statistik va transformatsion yondashuv va hokazolar. [Демская-Кульчицкая О.М., Семеренко В.Р., Ющенко Р.А. 2001: 72]

Har qanday tilning korpusi leksik va grammatik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tahlillarni ta’minlaydi, tilning tuzilishi, shuningdek, til o‘zgarishi jarayonlarini kuzatishga ham yordam beradi. Milliy korpus til xususiyatlarining barchasini o‘z ichiga oladigan matnlar (og‘zaki va yozma), dinamikada tilni o‘rganish, so‘zlar va grammatik shakllarning kelib chiqishi va ishlatilishini aniqlash, matnlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish uchun ahamiyatlidir.

Teglashning lug‘atga asoslangan usuli matn ma’lumotlariga teglar yoki toifalarni belgilash uchun oldindan yig‘ilgan so‘zlar to‘plami (lug‘atlar)dan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Slenglarni avtomatik teglashning lug‘atga asoslangan yondashuvida dastlabki qadam tilda mavjud sleng birliklarni to‘plab, lug‘at shakllantirishdir. Bunda lug‘atdagi so‘zlarning muayyan toifalari bilan bog‘liq so‘z va iboralar ro‘yxati yaratiladi. Bunday lug‘at qo‘lda tuzilishi yoki “text-mining” usuli yordamida yaratilishi mumkin.



1-rasm. Slenglarni avtomatik teglashning lug‘atga asoslangan usuli bosqichlari

Matn ma’lumotlarini lug‘atga asoslangan usuldan foydalanib teglash uchun kiritlgan matn lug‘atdagi so‘z yoki iboralarning mavjudligi uchun tekshiruvdan o‘tkaziladi. Agar moslik topilsa, matnga mos teg tayinlanadi. Lug‘atga asoslangan

yondashuv boshqa usullarga qaraganda nisbatan oson va muayyan kalit so‘zlar kerakli teglarni yuqori darajada ko‘rsatadigan matn ma’lumotlarining ayrim turlari uchun samarali bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, u hissiyotlarni tahlil qilish, mavzuni modellashtirish va boshqa matn tasniflash vazifalari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Lug‘atga asoslangan usulning kamchiliklardan biri shundaki, tahlil natijasi lug‘atning sifati va to‘liqligiga bog‘liq. Agar lug‘at barcha tegishli atamalarni o‘z ichiga olmasa teglash natijalari samarasi kamayishi mumkin. Bundan tashqari, bu usul noaniq yoki kontekstga bog‘liq atamalarni teglashda ba’zi mos kelmaydigan tomonlarga ega. Lug‘atga asoslangan usulning ishlashini yaxshilash uchun kontekstdan xabardor lug‘atlardan foydalanish, teglarni bashorat qilish uchun mashinani o‘rganish modellarini kiritish yoki bir nechta lug‘atlarni birlashtirish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Umuman olganda, slenglarni avtomatik teglashning lug‘atga asoslangan usuli matn ma’lumotlarini tahlil qilish uchun foydali yondashuv bo‘lib, ayniqsa aniq belgilangan toifalar bilan ishlashda va samarali lug‘at yaratish uchun xos bilimlar mavjud bo‘lganda nihoyatda samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
2. Berdialiyev A. (2019) O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi. Toshkent.
3. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. – Москва. 2001. – С.161.
4. Демская-Кульчицкая О.М., Семеренко В.Р., Ющенко Р.А. Методы автоматической разметки текстов национального корпуса языка. // Компьютерная математика. 2005, № 1. – С.70-75.
5. Hamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. – Globe edit, 2020. – B.52 .
6. Partridge E. Slang Today and Yesterday. – London: Routledge and Kegan Paul, 1979. – P.20.

KORPUS LINGVISTIKASIDA FRAZEOLOGIK POLISEMIYANI MODELLASHTIRISH MASALALARI

Nurboyeva Maftuna
ToshDO‘TAU 2-bosqich tayanch doktoranti
maftunanurboyeva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109225

Annotatsiya. Maqolada frazeologik polisemiyaning korpus lingvistikasida modellashtirish masalalari ko‘rib chiqilib, ko‘p ma’noli iboralarni o‘zbek semantik analizatori tizimiga “tanitish” maqsadida ularning dastlabki modellari ustida tadqiqot olib boriladi.

Kalit so‘zlar: *Frazeologiya, frazeologik polisemiya, morfo-semantik kollokatsiya, bosh ma’no, hamroh ma’no, model, paronim, variatsiya.*

Abstract. In the article, the issues of modeling phraseological polysemy in corpus linguistics are considered, and research is conducted on their initial models in order to "introduce" ambiguous phrases to the Uzbek semantic analyzer system.

Key words: *Phraseology, phraseological polysemy, morpho-semantic collocation, main meaning, accompanying meaning, model, paronym, variation.*

Tilshunosligimizda frazeologiya sathi alohida bo‘lim sifatida nisbatan kech ajratilgan bo‘lsa-da, bugunga qadar ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Dastlabki izlanishlardanoq, frazeologik sathning leksema kabi semantik butunlikka egaligi, leksemalar bilan ma’noviy sinonimlik hosil qilibgina qolmay, o‘z birliklari orasida ham sinonimlik, omonimlik, ko‘p ma’nolilik, paronim va variatsiya kabi munosabat turlari mavjudligi aniqlandi. Bu jihatlar esa frazeologik birliklarning leksemalar bilan tom ma’noda “teng huquqliligi”ni, leksemalarning obrazli varianti sifatida nutqqa tayyor holda chiqariluvchi barqaror birlik ekanligini isbotlaydi. Frazeologik birliklar o‘rtasidagi sinonimiya bir nechta iboraning bir mazmun ostida birlashishini anglatib, fikr ifodasida graduonimik va uslub jihatdan xilma-xillikka imkon yaratsa, frazeologik omonimiya va polisemiya sath birliklarining ma’no nozikliklariga ega ekani va bir ibora orqali bir necha xil mazmunni bera olish xususiyatiga egadir.

Tadqiqimiz obyekti bo‘lgan frazeologik polisemiya leksik birliklarning ko‘p ma’noliligi kabi tilning tizimli, xilma-xil ma’nolarini muayyan forma ostida anglata olish xususiyati dalilidir. Frazeologik polisemiyani aniqlashda, bir nechta leksik komponentlarni o‘z ichiga olgan bir lingvistik kompleksning semantik jihatdandan

bir-biri bilan bog‘lanish va ma‘lum bir “ildiz”ga tutashish xarakteriga ega bo‘lish kabi xususiyatlar ko‘zda tutiladi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, frazeologik qatlamda ko‘p ma’nolilik imkoniyati leksemalardagi kabi keng bo‘lmaydi, ya’ni leksemalar orasida ko‘p ma’nolilik chegarasi 20 xilgacha borishi mumkin, frazemalarda esa bu miqdor ko‘pi bilan 7-8 tagacha boradi. Bu holatni frazemalarning ikki va undan ortiq leksemalardan tashkil topishi va bu holatning yangi ma’no hosil bo‘lishiga to‘siq bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Ammo leksemalarda polisemiya qanday xoslikka ega bo‘lsa, frazemalarda ham xuddi shunday xarakterga ega, farqi esa leksemalarda ma’no ikkiga: denotativ va konnotativ ma’noga ajralsa, frazemalarda nechta ma’no imkoniyati yuzaga chiqishidan qat’i nazar, barchasi konnotativ – ko‘chma ma’noda bo‘ladi. Tilshunosligimizda bu hodisa Sh.Rahmatullayev tomonidan ilk marta sharhlab o‘tilgani holda, keyinchalik, B.Yo‘ldoshev tomonidan ham izohlab o‘tilgan, olimning *“Frazeologik uslubiyat asoslari”* o‘quv qo‘llanmasida frazemalar o‘rtasidagi polisemiyaga ham to‘xtalib o‘tib, frazeologik polisemiyani uslubiy jihatdan yaxlit xarakterga ega bo‘lishi, sababi esa iboralarda ko‘pincha to‘g‘ri, nominativ ma’no bo‘lmasligi ularning barcha ma’nolari ko‘p hollarda bitta ichki obrazga tutashishini(zotan boshqa-boshqa obrazga tutashganida frazeologik omonim qatoriga o‘tib ketardi) ta’kidlab o‘tadi hamda buni *qo‘lga tushmoq* iborasi bilan ifodalab beradi: *a) aybi oshkor bo‘lib tutilmoq; b) qamoqqa, hibsga tushmoq, asir olinmoq* kabi ma’no imkoniyatiga ega bo‘lgan mazkur ibora “tutqunlik” ichki obrazi asosida yaxlitlanadi[Yo‘ldoshev B.,1998:61-65]. Jumladan, *dunyoga kelmoq* iborasini ham shunday baholash mumkin: a*)Tug`ilmoq(jonzotlarga nisbatan); b)yaratilmoq, bunyod etilmoq (jonsiz ijod mahsuliga nisbatan)* ma’no imkoniyatiga ega bo‘lgan ibora “yaralmoq” umumiy obrazi ostida tutashadi. Shuningdek, olim iboraning bir ma’nosidagi hissiy yoki ekspressiv bo‘yoqlar juda kam darajada bo‘lsa, boshqa ma’nosida yuqori ekspressivlik yoki kitobiy uslubga xoslik kuzatilishi mumkinligini ifodalaydi va fikrini *og‘iz solmoq* iborasi bilan dalillaydi: iboraning 1-ma’nosi *“qayliq yoki kuyov qilish niyati borligini aytmoq*” ifodasida kelib, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishini, 2-ma’nosi esa “*g‘ayriqonuniy ravishda o‘zlashtirishga harakat qilmoq”* sememasini akslantirib, asosan, kitobiy uslublarda qo‘llanilishini ta’kidlab o‘tgan.

Tadqiqotchi Sulurxon Rahimova esa o‘z nomzodlik ishida polisemik iboralarni tahlil qilar ekan, iboralarning barcha ma’nosi konnotativ bo‘lsa ham, ular orasida bosh ma’no mavjud bo‘lishini, iboraning boshqa semalari o‘sha bosh ma’nodan o‘sib chiqishini ta’kidlaydi[Raximova S., 2022:38-41], jumladan, biz

olima fikrini o‘zimiz modeli ustida ishlayotgan iboralardan biri *“dunyoga kelmoq”* bilan izohlaydigan bo‘lsak, bu iboraning polisemantik imkoniyatini yuqorida keltirib o‘tdik. Unga ko‘ra jonzotlarga nisbatan qo‘llaniluvchi 1-ma’no iboraning bosh ma’nosi, 2-ma’no esa hosila ma’no sifatida yuzaga kelgan, deyish mumkin.

Tadqiqotimizdan ko‘zlangan maqsad esa shu ko‘p ma’noli birliklarning har bir ma’nosini korpus tizimiga alohida modellar asosida kiritish va matn tarkibida kelgan polsemantik iboralarni semantik analizatorga “tanitish”dan iboratdir. Avvalo, biz shu vaqtga qadar tilshunosligimizga tatbiq etilgan frazeologik izohli lug‘atlarning barchasidan frazeologik polisemiya tarkibiga kiruvchi iboralarni yig‘ib, ularning bir nechtasini modellashtirish uchun tanlab oldik(butun polisemantik iboralarni modellashtirib chiqish – murakab jarayon). Quyida biz yuqorida ikki marotaba misol qilgan *dunyoga kelmoq* iborasining modelini yaratishga harakat qildik. Mazkur ibora *1.shaxs otlariga birikuvchi(farzand), 2. mavhum otlarga birikuvchi(asar)* ma’nolarini ifodalash imkoniga ega ekanligini yuqorida eslatib o‘tdik. Modelini yaratayotgan har bir iboraning morfo-semantik kollokatsiyasini tayyorlab, undan so‘ng, korpus tizimi uchun uning modelini shakllantirishimiz tufayli, avvaliga mazkur frazemaning qanday grammatik shakllar bilan birikishini va shu asosda semantik ifodasini tahlil qilamiz:

t/r	Dunyoga kelmoq	Birikuvi	Namunalar
1	Tug‘ilmoq(jonzotlarga nisbatan).	Shaxs oti +b.k → dunyoga kelmoq	*Qurigan g‘o‘za nima ekan, eksang, o‘rniga chiqaveradi. Uning o‘rniga esa... boshqa Komil dunyoga kelmaydi endi...* T.Malik. Charxpalak
2	Yaratilmoq, bunyod etilmoq (jonsiz ijod mahsuliga nisbatan)	Mavhum ot +b.k → dunyoga kelmoq	*T.Murodni iste’dodli yozuvchi sifatida ko‘rsatgan dastlabki yirik asar 1976-yilda dunyoga keldi.* Adabiyot darsligi 6-sinf 2017-y.

Bu kollokatsiyadan kelib chiqib iboramizni quyidagicha modellashtirish mumkin:

1. AN + Nom_CS_aff + $P_{(v)phr}$
2. PN + Nom_CS_aff + $P_{(v)phr}$

Bunda: AN – Abstract noun/mavhum ot

Nom_CS_aff – bosh kelishik
$P_{(v)phr}$ – polisemik ibora(fe’l)
PN - Personal noun/ shaxs oti

Xuddi shu ibora kontekst tarkibida aniqlovchi bo‘lib ham kelishi mumkin, u paytda bu ibora quyidagi model asosida aniqlashtiriladi:

$P_{(v)phr} + V_s + AN=V/N/ADJ/Num/PR$

$P_{(v)phr} + V_s + PN=V/N/ADJ/Num/PR$

Bu yerda $P_{(v)phr}$ – polisemik xarakterli fe’l ibora, V_s – fe’lning sifatdosh shakli, AN – mavhum ot= istalgan so‘z(fe’l,ot,sifat,son, olmosh)tarzida beriladi.

Tuzilgan modellar ayni paytda milliy korpus tizimimizga taqdim qilingan bo‘lib, ayni paytda sinov jarayonida. Shu o‘rinda har kimda savol paydo bo‘lishi mumkin: har bitta ibora va uning har bir ma’nosi hamda uning har xil gap bo‘lagi bo‘lib kelish holatiga alohida model yaratish kerakmi? Ayni paytdagi javobimiz: ha, chunki korpus tizimida leksemalar doirasidagi omonimlik va polisemiyani bartaraf etish ham xuddi shu bosqichlarni talab etadi, shuningdek, model tushunchasini lisoniy qolip tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak, qolip – bu lisonimizdagi so‘z, so‘z birikmasi va gapning birikish-biriktirish formulalari va uni inson ongli ravishda qo‘llaydi, ajrata oladi. Elektron tizimda bu jarayonni xuddi shu tarzda avtomatlashtirish esa murakkab bosqichlarni talab etadi.

Korpus tizimida iboralar, ayniqsa, polisemantik, omonimik iboralarni farqlash, ular o‘rtasidagi aynilik va uning oqibatida kelib chiqadigan noaniqlik shu vaqtga qadar boshqa xorijiy korpuslarda ko‘ndalang qo‘yilganining, hal qilinganining guvohi bo‘lmadik. Ammo iboralar tizimi tilni kompyuterlashtirish jarayoni uchun ancha muammo tug‘dirishi barchamizga ayon. Shu sababli ham, polisemantik iboralarni modellashtirish, ularning ma’no imkoniyatini elektron tizim farqlay olishiga zamin yaratish milliy korpus tizimimizning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonova M., Rahmanova A. 2021. Korpus lingvistikasida polisemiya // Korpus lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. – Toshkent.

2. Абдурахманова М. Т., Абжалова М. А. Параллельные корпуса на примере узбекского, русского и английского языков. // Конвергентные технологии XXI: вариативность, комбинаторика, коммуникация. Материалы VI Международной междисциплинарной научной конференции. – Симферополь, 25-26 ноября 2021 г. – С. 74-81.

3. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied LinguisticsISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733

4. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. DOI: 10.1109/UBMK52708.2021.9558900. – pp. 82-85. Impakt Factor 5.5

5. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.

6. Ahmedova Dildora. 2021. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari. Filol. fanlari doktori diss. – Buxoro.

7. Gulyamova Sh. 2022. O’zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Filol. fanlari doktori diss. – Farg’ona

8. Rahmatullayev Sh. 1970. Nutqimiz ko‘rki. “Fan”. Toshkent.

9. Hamroyeva Sh. 2021. O’zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti. Filol. fanlari doktori diss. – Farg’ona.

10. Rahmatullayev Sh. 1978. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. “O‘qituvchi”. Toshkent.

11. Raximova S. 2022. O‘zbek tilida frazeologik polisemiya va uning leksikografik talqini. Filol. fan.bo‘y.fal-sa dok-ri diss. – Guliston.

12. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. dis. ... avtoref. – Toshkent, 1993. – 47 b.

13. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1998. 190b.

IV SHU’BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASI

SINONIMAYZER IMKONIYATLARI VA UNING AHAMIYATI

Mahkamova Dilafruz Shavkat qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
dilafruz-mahkamova@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109352

Annotatsiya. Maqolada matnni betakror qilishga, kopirayter va tarjimonlar ishini yengillashtirishga, antiplagiat dasturini mukammallashtirishga, plagiatga qarshi antiplagiat yaratishga yordam beradigan sinonimizatorning imkoniyatlari bir necha yaratilgan dasturlar misolida ko‘rsatib berilgan. https://www.articlerewriter.net/, OnlineGPT, http://kopirajter.by/kopirajteru/sinonimayzer-teksta/ algoritmlarida sinonimayzerlarning ishlash funksiyalari va ahamiyati sanab o‘tilgan. O‘zbek tili uchun sinonimayzer yaratish masalasi va uning muhimligi misollarda keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Sinonimayzer, antiplagiat, leksikografiya, sinonimlar bazasi, matn generatori*

Annotation. The article shows the capabilities of the synonymizer, which helps to make the text unique, ease the work of copywriters and translators, perfect the anti-plagiarism program, and create an anti-plagiarism anti-plagiarism program on the example of several created programs. https://www.articlerewriter.net/, Online GPT, http://kopirajter.by/kopirajteru/sinonimayzer-teksta/ algorithms list the functions and importance of synonymizers. The issue of creating a synonymizer for the Uzbek language and its importance are presented in examples.

Keywords: *Synonymizer, anti-plagiarism, lexicography, synonym base, text generator*

Tobora rivojlanayotgan axborot zamonida o‘zbek tilidagi axborotlarni raqamlashtirish, lug‘atlarni kompyuter uchun moslashtirish bilan birga ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettira oladigan dasturlar yaratish tabiiy tilni qayta ishlash yo‘lidagi ilg‘or qadamlardan biri bo‘la oladi[1]. Tilning xususiyatlarini komyuter dasturlari, veb-sayt, veb-ilova ko‘rinishida ochib berish tildan unumli va oson, keng miqyosda foydalanishga yo‘l ochadi. Bu borada kompyuter va til integratsiyasi mahsuli bo‘lmish sinonimayzerning o‘zbek tili va uning xususiyatidan kelib chiqib yaratish va matnlarning avtomatik tarjima, tahrir va tahlil qilishga erishish ko‘plab sohalarning rivojiga, istiqboliga keng yo‘l ochadi.

Sinonimayzer – bu matndagi so‘z birikmalari va so‘zlarni sinonimlar (dastur bazasida joylashgan) bilan almashtiradigan dastur. Ayrim manbalarda sinonimizator, sinomizator nomlari bilan yuritiladi [2]. Sinonimayzerlar aksariyat hollarda veb-sayt ko‘rinishida yoki veb-ilova ko‘rinishida yasaladi. Sinomayzerlar bugungi kunda dunyoning aksariyat ommalashgan tillarida yaratilgan. Ular orasida ingliz, rus, ukrain, qozoq, turk va boshqa tillarni ko‘rish mumkin [3]. Sinonimayzer katta hajmdagi matnlar, so‘z birikmalari, tarjimalarda foydali hisoblanib, u orqali til birliklarini boshqa matnga muvofiq va muqobil variantiga almashtirish imkoniga ega bo‘lamiz[4]. Bu almashtiruv plagiatga yordam berishi mumkin degan gumon ham mavjud. Ammo bu jarayon plagiatning oldini oladi va antiplagiatga qarshi antiplagiat vazifasini bajaradi. Sinonimayzerlarning amalda ishlab turgan versiyalarining xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz:

1. https://www.articlerewriter.net/ sayti 10 ta tilda matnlardagi so‘zlarni ma’no g‘alizligi yuzaga kelmagan holatda sinonimlariga o‘girib bera oladi [5]. Bu algoritm maqolalarni mazmunini yoki umumiy g‘oyasini o‘zgartirmasdan qayta yozadi. Bu dasturdan foydalanish va matnni bir necha marta tahlil qilish orqali plagiatsiz kontentni taqdim qilish mumkin. Bu veb-sayt kimningdir maqolasini qayta yozuvchi shaxs tomonidan berilgan natijalarni 100% tekshiradi va ko‘chirish jarayonida qaysi so‘zlar o‘zgasiga qay tartibda o‘zgartirilganini ko‘rsatadi. Bu bevosita plagiatning oldini oladi. Bu algoritm kontent yozayotganda so‘z boyligini izlovchilar, ilmiy izlanuvchilar, tarjimonlar, til o‘rganuvchilar, leksikograflar, parameologlar uchun foydali hisoblanadi. Dasturning afzallik xususiyatlaridan yana biri dastur analiz qilingan matnning grammatik tahlilini o‘tkaza oladi va o‘rnatilgan grammatik me’yorlar bo‘yicha umumiy va xususiy kamchiliklarni ko‘rsata oladi. Dastur matndagi so‘zlarni iboralar, tasviriy ifodalar bilan boyitish, plagiarizmni tekshirish, maqolani tamoman boshqa so‘z uslubida yozish, oxirida umumiy xulosa berish funksiyalariga ega.

2. **Online GPT** – neyrotarmoq orqali matnlarni qayta ishlash algoritmi [6]. Bu algoritm matnlarni orfografik, morfologik, fonetik, sintaktik, punktuatsion tahlil qilib beradi, urg‘usini aniqlaydi, shu bilan birga matndagi so‘zlarni sinonimayzerlay oladi. Bu jarayonlar faqat rus tili va uning grammatikasi uchun ishlaydi. Sinonimator Online GPT uchun nima va u qanday ishlaydi? Sinonimator neyron tarmoqlardan foydalangan holda matnni tarjima qilishga yordam beradigan vositadir. Bu shunday ishlaydi:

1. Avval sinonimizator matnni alohida so‘z va iboralarga bo‘lib tahlil qiladi.

2. Keyin matndagi har bir so‘z va ibora uchun sinonim va o‘xshash so‘zlarni topish uchun katta hajmdagi matn ustida barcha ma’lumotlar avvaldan kiritilgan neyron tarmoqdan foydalanadi.

3. Shundan so‘ng sinonimizator matndagi asl so‘z va iboralarni topilgan sinonimlar bilan almashtirib, manba matnning mazmuni va tuzilishini saqlaydi.

Online GPTda uchun sinonimizatorning qanday afzalliklari bor?

1. Matnning o‘ziga xosligini yaxshilash: Sinonimizatordan foydalanib, siz jumlalarning so‘zlarini osongina o'zgartirishingiz mumkin, bu esa matnni yanada mazmunli va sifatli qilishga yordam beradi.

2. Vaqtni tejash: matnni qo‘lda qayta yozishga ko‘p vaqt sarflash o‘rniga, sinonimizator bu vazifani avtomatik ravishda bajaradi.

3. Ma’noning saqlanishi: Sinonimizator ma’lumotlarning ma’nosi o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymasdan, manba matn ma’nosini saqlab qolishga harakat qiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar uchun reklama matnlari ustida ishlash kerakli va dolzarb masala bo‘lib qoldi. Kontentni yaxshilash uchun ham sinonimatordan foydalanishim mumkin.

1. Matndagi alohida ajratib ko‘rsatilgan va jalb qilish uchun tanlab olingan so‘zlarni diversifikatsiya qilish kontentni yanada xilma-xil qiladi.

2. Sinonimizator yordamida matnni o‘zgartirish kontentning takrorlanmas versiyalarini yaratishga imkon beradi.

3. O‘qilishini yaxshilash: Sinonimlardan foydalanish matnni o'qiydiganlar uchun yanada qiziqarli va qiziqarli qilishi mumkin.

Sinonimizatordan foydalangandan keyin matn sifatini qanday tekshirish mumkin?

1. Matnni tekshiring bo‘limi matnni diqqat bilan o'qiydi va barcha iboralar va gaplar ma'noli va mantiqiy bog'langanligini tekshirib beradi.

2. Grammatikani va uslubni tahrirlash bo‘limi matnni grammatika va uslub qoidalariga ko‘ra tahrirlaydi.

3. Plagiatga tekshirish bo‘limi matn plagiatdan xoli, ko‘chirilmagan, boshqa biror joyda aks etmagan, takrorlanmas ekanligini tekshirib beradi.

3. http://kopirajter.by/kopirajteru/sinonimayzer-teksta/ sayti reklama maqolalarini tahrirlovchi dastur sifatida ishga tushgan [7]. Ushbu ilova hech qanday maxsus ko‘nikmalarni talab qilmaydi, shuning uchun undan hech qanday qo‘llanmalarni o‘rganmasdan foydalanish mumkin. Bu dasturdagi sinonimatordan foydalanishning mohiyati shundan iboratki, manba matn dastur oynasiga ko‘chiriladi, uning asosida yangi maqola yaratiladi. Foydalanuvchi faqat tugmani bosishi kerak. Ammo tayyor matndan tahrirsiz foydalanish imkonsiz. Ushbu ilova maqola yaratishni sezilarli darajada osonlashtiradi, ammo uni inson ishtirokisiz mukammal shaklga keltira olmaydi. Olingan natijada uslubiy va grammatik xatolar kuzatilishi mumkin. Maqola, albatta, tahrir qilinishi kerak bo‘ladi.

Sinonimizatordagi sinonimlarni jamlash jarayonida muhim jihat ko‘zga tashlandiki, “sinonimik qator bir so‘z turkumiga mansub bo‘ladi” deyilgan qarash

sinonimlar uchun qat’iy cheklov bo‘lib, bugungi kunda ushbu mezon o‘zini oqlamayapti[8]. Sinonimlar qatorida bir-biriga ma’nodosh bo‘lib qo‘llanayotgan turli turkumdagi so‘zlar ham mavjud bo‘lmoqda. Jahon tilshunosligida bunday sinonimlar kvazisinonimlar (soxta sinonimlar, qisman ma’nodoshlar) deb yuritiladi[9]. Sinonimizatorlarni tadqiq etish jarayonida kvazisinonimlardan salmoqli foydalanilganini ko‘rish mumkin.

O‘xshash ma’noga ega so‘zlarni tanlash imkonini beruvchi dasturlar odatda 2 toifaga bo‘linadi:

Sinonimlar ilovasi. Bunday ilovalar sinonimi mavjud so‘zlarni topadi va ularni sinonimlar bilan almashtiradi. Agar bu jarayon juda katta matn ustida amalga oshirilsa, matn sifatini yo‘qotishi mumkin [10];

Matn generatorlari. Ular matndagi o‘zgartirilishi kerak bo'lgan joylarni ko‘rsatadigan shablonni yaratishga imkon beradi. Ushbu yondashuv bir vaqtning o'zida bir nechta matnlar ustida ishlash imkon beradi. Generatsiya maqolalarning kerakli soniga ko‘ra ham, ularning o‘ziga xoslik darajasiga ko‘ra ham saralay oladi[11].

Sinonimatorning afzalliklari va kamchiliklari [12]:

Ijobiy jihatlar orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

- Kontentni qayta ishlash uchun minimal mehnat xarajatlari sarf etiladi;
- Modernizatsiya qilish imkoniyati. Ma'lumotlar bazasining doimiy yangilanishi har doim yangilangan sinonimatordan foydalanishga imkon beradi;
- Samaradorlik. Bunda katta hajmdagi matn ustida ishlanganda hech bir jihat qolib ketmaydi. Sifat ustunligiga erishish mumkin.

Salbiy jihatlar ham mavjud:

- Leksemalarni tanlash so‘z bo‘yicha uning gapning boshqa bo‘laklari bilan mos kelishi hisobga olinmagan holda amalga oshiriladi. Bu ko‘pincha nomuvofiq konstruksiyalarning yasalishiga olib keladi (masalan, “nam” so‘zi “shalabbo” leksemasi bilan almashtiriladi, bu esa butunlay boshqa ma’noga ega gapning shakklanishiga sabab bo‘ladi)[13];
- Ayrim tillarning sintaksisi shu qadar murakkabki, hatto eng zamonaviy sinonimator ham buni bajara olmaydi. Ayrim jumlalar leksik tizim mantig‘iga shu qadar mos kelmaydiki, ularni inson o‘zi qayta yozishi kerak [14];
- Qidiruv robotlari borgan sari mukammal tarzda ishlamoqda, shuning uchun agar kishi sinonimizatordan matnni, ilmiy ishni, kontentni ko‘chirish, osonlik bilan o‘zgartirib o‘sha matn muallifiga aylanish uchun foydalansa, unda sinonimizator nimaligini unutgani ma’qul[15].

O‘zbek tili sinonimizatorini yaratishda 2023-yilda nashrdan chiqqan “O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati” katta ahamiyatga ega bo‘ladi va asosiy baza vazifasini o‘tay oladi. Bu lug‘at o‘zbek tilidagi 2500 ga yaqin sinonimik qatorlarni

o‘z ichiga olgan va unda ma’nodoshlarning izohi, turkumi, to‘liq sinonimligi, qisman sinonimligi, o‘xshashligi, tarixiy shakllari, uslubiy xoslanishi kabi ulkan ma’lumotlar berilgan. Mazkur lug‘at yordamida yaratilajak sinonimizator foydalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqiy kompetensiyani shakllantirish, matnni uslubiy va mazmuniy jihatdan to‘g‘ri holatda qayta shakllantirish, lingvistik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlangan ayni damda tarjimon dasturlarni yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash, antiplagiat dasturi va sentiment analizni yaratish, asosiysi, o‘zbek tili ontologiyasining sinsetlarini shakllantirishda qimmatli leksikografik manba sifatida xizmat qiladi[16].

Sinonimlar o‘quv lug‘ati nutq madaniyatini oshirish maqsadida tashkil etiladigan qayta tayyorlov kurslari uchun uslubiy ko‘rsatmalar, kompyuter lingvistikasi hamda medialingvistikaga oid monografik tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlari, seminar, amaliy mashg‘ulot materiallari va laboratoriya topshiriqlari tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi[17].

Xulosa. Sinonimizator dasturini yaratishda an’anaviy (qo‘l mehnati yordamida tilning barcha qonun-qoidalari aks etgan mukammal lingvistik ba’za tuziladi) va zamonaviy (inson va mashina mehnatidan foydalangan holda tuzilgan modellar mashinaga o‘qitiladi) metoddan foydalanish mumkin. An’anaviy metod uzoq vaqtni talab qiladi, biroq yuqori sifatdagi natijani beradi. Zamonaviy metod nisabatan vaqtni tejashga yordam beradi, ammo natijani mukammal holatga keltirish ko‘plab tahlil va tahrirlarni talab qiladi. [18] O‘zbek sinonimizatorni yaratish va ishlash sifatini oshirishda jahon tajribasidan foydalanish va shu paytgacha qilingan ilmiy ishlar va yaratilgan dasturlarni o‘rganish va ulardan foydalanish kamchiliklarni bartaraf etishga va nisbatan mukammal dastur yaratishga xizmat qiladi. Sinonimizator matnni betakror qilishga, kopirayter va tarjimonlar ishini yengillashtirishga, antiplagiat dasturini mukammallashtirishga, plagiatga qarshi antiplagiat yaratishga yordam beradi. O‘zbekcha sinonimizator dasturini sinonimlarning barcha turlari doirasida yaratish mumkin. Buning uchun har bir til qatlamiga tegishli sinonimlar bilan ishlay oladigan algoritm ishlab chiqish lozim. Qanday sinonimlar bilan ishlashidan qat’i nazar, sinonimizatorning ma’umotlar bazasi doimiy yangilanib turishi lozim. Aks holda neologizmlar sinonimik qatordan chetda qolishi mumkin. Semantik ma’no noziklilarini farqlash, uslub bo‘yicha tahrirlash uchun, sinonimizator dasturini tuzishda lug‘atga yoki bilimga asoslangan usul, nazorat qilinadigan usul, yarim nazoratli usuli, nazoratsiz usullardan foydalanish mumkin. O‘zbek tilida yaratilgan o‘zbekcha sinonimizatorlar o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligini yana bir karra amaliy isbotlab beradi. Qolaversa, o‘zbek tilini ona tili yoki xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar uchun boy leksik manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Eng asosiysi, plagiatdan foydalanib, inson omili

yordamida o‘zgartirilgan matnlar, kontent maqolalar, ilmiy ishlarning ko‘chirilganligini tekshirish imkonini beradi. Bu esa jamiyatga yaroqli ilmiy ishlarning yetkazilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. O‘zbek tilidagi sinonimlar tasnifi. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, oktabr, 2023. – B. 352-361.

2. Abjalova M. O‘zbek tili milliy korpusida sinonimayzer yoxud sinonimizatorni yaratish masalasi // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – 207-211 b.

3. Uzoqova M.T. Sinonimayzer dasturi samaradorligini oshirishda Zipfa qonuni ahamiyati// O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari/ Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021

4. Abjalova M. Bir Sözlük Derleme Deneyimine Dayali Eş Anlamlilarin Siniflandirilmasi. Bildiri kitabi. VII. Uluslararasi türklerin dünyasi sosyal bilimler sempozyumu. 02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA. – S. 450-456. ISBN: 978-625-00-8481-6.

5. https://www.articlerewriter.net/

6. https://study24.ai/sinonimayzer/

7. http://kopirajter.by/kopirajteru/sinonimayzer-teksta/

8. Fitra T.N. QuillBot as an online tool: Student’s alternative in paraphrasing and rewriting pf English writing/ English. Journal of Language, Education, and Humanities. DOI: http://dx.doi.org/10.22373/ej.v9i1.10233.

9. https://www.softwaretestinghelp.com/database-design-tools/

10.https://www.tutorialspoint.com/natural_language_processing/natural_language_processing_word_sense_disambiguation.htm

11. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b. ISBN 978-9943-6939-0-6.

12. Abjalova M., Uzakova M. Software and Linguistic Features of Uzbek Synonymizer. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 177-181. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919447

13. Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O‘zbek tilidagi sinonimlarning o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2023. – 810 b.

14. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied LinguisticsISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733

15. Abjalova M. O‘zbek tili Milliy korpusida sinonimayzer yoxud sinonimizatorni yaratish masalasi // O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021 yil 7 may. Elektron nashr / ebook. –Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – 330 b. – B. 38-40

16. Abjalova M. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка. // Родные языки и культуры в современном изменяющемся мире. – Тува, 2022. – 79-84 с.

17. Abjalova M., Bozorov S. Kvazisinonimlar nutqiy imkoniyat sifatida. // Актуальные вызовы современной науки, LX Международная научная конференция 26-27 июня 2021 г. – С. 123-126.

18. Abjalova M. Lug‘at tuzish tajribasi asosida sinonimlar klassifikatsiyasi. Bildiri özetleri kitabi. VII. Uluslararasi türklerin dünyasi sosyal bilimler sempozyumu. 02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA. – S. 119-120. ISBN: 978-625-00-8481-6.

KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI

Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
“Kompyuter tizimlari” kafedrasi o‘qituvchisi

Rustamov Ramziddin Toshpo‘latovich
SamDChTI Sharq tillar fakulteti “O‘zbek tili
va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Dustmurodova Mushtariy Rustam qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Xorijiy
til va adabiyot (ingliz tili) yo’nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109370

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter lingvistikasida amalga oshirilgan tahlil jarayonlari haqida aytilgan. Unda kompyuter lingvistikasidagi so‘zlarning fonetik tahlili yoritilgan. Ya’ni so‘zlarni fonetik, fonologik tahlil qilish va tahlil qilishni qanday amalga oshirish haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kompyuter lingvistikasi, tahlil, lingvistik ta’minot, fonetika, semantika, grammatika, so‘z, fonema, tovush, morfologiya, sintaktika.*

Annotation: This article deals with analysis processes in computational linguistics. It covers the phonetic analysis of words in computer linguistics. That is, information is given on phonetic and phonological analysis of words and how to do it.

Keywords: *computer linguistics, analysis, linguistic support, phonetics, semantics, grammar, word, phoneme, sound, morphology, syntax.*

Hozirgi XXI asrda kompyuter texnologiyalari juda tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bunga sabab ilm-fanning oshib borishi va kompyuterga bo‘lgan talabning ortib borishidir. Kompyuter texnologiyalari rivojlangan bir vaqtda Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi ham paydo bo’ldi. Kompyuter lingvistikasi bu yangi yo‘nalish hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasini har tomonlama o‘rganilmoqda, uni tadqiq va tahlil etilmoqda.

Bugungi shiddatkor zamonda ham til o‘rganish zamon bilan hamnafas bo’lishning muhim jihati sifatida e’tirof etilmoqda. Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘qitishni takomillashtirishning chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi 2014-yil 6-fevraldagi “Yoshlarga doir davlat siyosati to‘g‘risida”gi qarorlari mamlakatimizda chet tillarni o‘rganishning yangi davrini boshlab berdi.

O‘zbek tilidagi matnlarni kompyuterda qayta ishlashning (tahrirlashning) samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi jarayonlarni amalga oshirish zarur:

-Matnlarni avtomatik (fonetik, semantik, grammatik) tahrir qilish;

-Internetda bajariladigan qidiruv tizimi orqali matnlarni saralashga yordam berishi uchun ularni mavzular doirasida tasniflash, guruhlash;

-Matn ustida texnik ishlarni (orfografik, stilistik, grammatik) amalga oshirish;

-Tahrir qiluvchi dasturlarning lingvistik modullarini yaratish orqali ularning algoritmini tuzish;

-Lingvistik modullar va tuzilgan algoritmlar lingvistik ta’minotining asosi sifatida xizmat qilishiga erishish;

-Lingvistik ta’minot orqali o‘zbekcha matnlarni avtomatik tahrir qiluvchi dasturni yaratish;

-Tahrirlovchi dasturni amaliyotda qo‘llash va qo‘llanish sohasini kengaytirish.

Bugungi kunda o‘zbek tilining fonologik tizimi va uning turli elementlarini, xususan, tilning transkripsiya belgilarini kompyuterli modellashtirish masalasi o‘zbek kompyuter lingvistikasining ilmiy tadqiqot doirasidagi eng markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Tabiiy tilning transkripsiya belgilarini modellashtirish ushbu tildagi so‘z, gap, nutq kabi turli lisoniy obyektlarning fonetik tahlilini avtomatik tarzda amalga oshirishga imkon yaratadi. Masalan, dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra so‘zning fonetik tahlilini modellashtirishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1.So‘zni yozish.

2.So‘zdagi harflar va tovushlar sonini aniqlash.

3. Allofonlarni aniqlash, fonemalarga tavsif berish va orfografik tasvirini keltirish.

4.So‘zni bo‘g‘inlarga ajratish va bo‘g‘in turini aniqlash.

5.Urg‘uli bo‘g‘inni aniqlash.

6.So‘zning aksentual andozasini keltirish.

Misol tariqasida leksikamizga rus tilidan o‘zlashtirilgan “fonar” so‘zining fonetik tahlilini keltiramiz.

1.So‘zning yozilishi: **фонарь.**

2.So‘zdagi harflar va tovushlar soni: 6ta harf, 5ta tovush.

3.Fonemalarga tavsif berish va orfografik tasvirini keltirish:

ф – [*ф*]; *о* – [*а*]; *н* – [*н*]; *а* – [*а*]; *рь* – [*р’*].

Bu so‘zda “o” xuddi “a” kabi talaffuz qilinadi, “ь” esa “p” tovushni yumshoq talaffuz qilishga xizmat qiladi.

4.So‘zni bo‘g‘inlarga ajratish va bo‘g‘in turini aniqlash: **фо-нарь.**

5.Urg‘uni aniqlash: **фо-нАрь.**

6.So‘zning fonetik transkripsiyasi: **[фанáр’].**

Tabiiy tilning transkripsion modelini yaratish orqali bu tilni mashinaviy o‘qitishga oid multimedia kontentlarini, qolaversa, transkribatsiya dasturlarini yaratish imkoniyati tug‘iladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek fonetikasi elementlarini kompyuterli modellashtirish uchun eng avvalo bizga bu tildagi tovushlarning transkripsion modellarini yaratishga ehtiyoj seziladi.

Tafakkurning reprezentatsiyasi til hisoblanadi. Ong amalda til formasida mavjud. Til bilan tafakkur murakkab, qarama-qarshiliklarga boy bo‘lgan dialektik birlikni tashkil etadi. Til fonetika, grammatika qonunlari asosida tashkil topgan material hodisa bo‘lsa, tafakkur obyektiv borliqning inson miyasida aks etishining oliy formasi sifatida ideal hodisadir. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlarining tuzilishi va rivojlanishi bir xil emas [Azamat Rahimov, 2011:160].

Avtomatik lug‘at — mashinaning maxsus formatida saqlanuvchi, matnga kompyuter yordamida ishlov beruvchi lug‘at hisoblanadi. Hozirgi kunda mukammal avtomatik lug‘at ingliz tilining izohli lug’ati va Ojegovaning lug‘ati hisoblanadi. Aniq lingvistik ma’lumotlarni lug‘atlardan olish mumkin. Mukammal ishlangan lug‘atlarda fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va hokazo ma’lumotlar aks etib, til sathlarining barchasini o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘zbek tili materiallari bo‘yicha kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqot olib borgan olimlar sifatida H.Arziqulov, S.Rizayev, S.Muhamedov, A.Po‘latov, S.Muhamedova, N.Jo‘rayevalarni ko‘rsatish mumkin. Olimlar asosan statistik tahlil, algoritmlash, o‘zbek tilining aksiomatik nazariyasi, fe’llarning kompyuter analizi va sintezi kabi yo‘nalishlar bo‘yicha izlanishlarni amalga oshirganlar. O‘zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasining boshqa yo‘nalishlari esa o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda. Shunga ko‘ra bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining kompyuter bilan bog‘liq holda hal etilishi lozim bo‘lgan quyidagi vazifalarni ta’kidlab ko‘rsatish mumkin:

1.O‘zbek tilining kompyuter uslubini yaratish.

2.Axborot matnlaridagi qoliplilik, qisqalik standartlarini ishlab chiqish.

3.Kompyuter izohli va tarjima lug‘atlarini yaratish.

4.O‘zbek tili va adabiyoti darsliklarining elektron versiyalarini ishlab chiqish.

5.Kompyuterda inglizcha-o‘zbekcha tarjima dasturlarini ishlab chiqish.

6.Kompyuterdagi matnlarni avtomatik tahrirlash dasturlarini yaratish.

7.O‘zbek tili grammatikasining kompyuter modelini yaratish.

8.“Inglizcha-o‘zbekcha tarjimon” kompyuter dasturini ishlab chiqish.

9.O‘zbek tilidagi matnlarni tahrirlash dasturlarini yaratish.

10.O‘zbek tilidagi “Windows” operatsion tizimini yaratish.

11.Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha kompyuter lug‘atlarini ishlab chiqish.

Kompyuter lingvistikasida so‘zlarni fonetik tahlil qilish, ularni fonetik, fonologik tomonlama o‘rganish juda muhim. Buning natijasida so‘zlarni, ovozlarni kompyuter qanday tanib olishi va tushunishi o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saodat Muhamedova “Kompyuter lingvistikasi” o’quv qo’llanma, Toshkent – 2007-yil. – B. 54

2. Azamat Rahimov “Kompyuter lingvistikasi asoslari”. “Akademnashr” nashriyoti, 2011-yil. – B. 160

3. Po‘latov A.K., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi o’quv qo’llanma – Toshkent – 2007-yil – B. 52

4. Norov A.M., Murodov Sh.A. “O’zbek fonetikasini kompyuterli modellashtirish tamoyillari” maqola.

5. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O ‘ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO‘NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).

6. Sunatov, J. R. (2023, December). TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).

7. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b. ISBN 978-9943-6939-0-6

8. Abjalova M. Matnni grafematik tahrirlash modulining lingvistik normalari// Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2018. – №3. – B. 151-156. ISSN 2010-6246.

9. Abjalova M. The linguistic norms of the grapheme editing module //International Journal of Science and Research (IJSR), India. ISSN: 2319-7064. Volume 8 Issue 2, 2019. – P. 1005-1007. (№ 40; Research Gate: 0.28) www.ijsr.net.

V SHU’BA. KOGNITIV TILSHUNOSLIK

NUTQ VA TILNING UMUMNAZARIY ASOSLARI

Ko‘chimova Shaxloxon
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109943

Annotatsiya. Ushbu maqola jahon tilshunosligida til va nutqning o‘rni, ahamiyati, ularning o‘ziga xos funksiyalari haqida bo‘lib, maqolada turli olimlarning til va nutq haqidagi qarashlari, fikrlari bilan tanishishingiz, til va nutqning bir-biriga xos bo‘lgan mavhum-konkret tarzdagi korrelyat nisbiy mustaqil birliklarini ko‘rib chiqishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *til, tilshunoslik, nutq, so‘z, fonema, morfema, leksema, konstruksiya, umumiylik, xususiylik, belgi, ma’no.*

Annotation. This article is about the role and importance of language and speech in world linguistics, and their specific functions. In the article, you will get to know the views and opinions of different scientists about language and speech, the abstract-concrete characteristics of language and speech. You can look at correlated relative independent units.

Key words: *language, linguistics, discourse, word, phoneme, morpheme, lexeme, construction, generality, specificity, sign, meaning.*

Kirish. Til va nutq, dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo‘lib, ayni masala jaxon tilshunosligining doimiy markazida turgan va hozirda ham shunday. Nutq bu insonning eng muhim ne’matlaridan biri bo‘lib, uni komillik sari yetaklaydi va unga ruh hamda tafakkur baxsh etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nutq insoniyat ega bo‘lgan oliy qadriyatlar orasida eng qudratlisidir. Shuning uchun ham o‘z zamonasining buyuk mutafakkiri Aristotel unga “Nutq deganda biz ma’lum mavzu borasida suhbatdoshimizni ishontirish san’atini tushunishimiz lozim” deya ta’rif bergan. Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda, mashhur G‘arb donishmandi B.Emirson: “Nutq ishontirish, undash va majbur etish kabi misli ko‘rinmas kuchga ega. Nutqi orqali insonlarning tabiatini, dunyoqarashini, bilimini, yoshini, jinsini, millatini,

nainki, shaxsiyati to‘g‘risidagi barcha ma’lumotga ega bo‘lish mumkin” deb yozgan edi .

Haqiqatan ham, bu fikrlar juda o’rinli. Axir bejizga donishmandlar nutqni - buyuk ustoz deb atamagan. Shu o’rinda mashhur fors adibi va mutafakkiri Sa’diy Sheroziyning quyidagi gaplari bizning fikrimizni yanada isbotlaydi:

Siz donomi yo axmoq, kattami yo kichik,
Biz bilmaymiz aslini, Tinglamaguncha so’zingiz!

Nutq insonning umumiy madaniyati, uning rivojlanish bosqichlari, millati va madaniyatining ko’rsatkichidir. Shuning uchun ona tilini, nutq madaniyatini o’zlashtirish va uni doimiy ravishda takomillashtirish jamiyatda munosib o’rin egallashga va atrofdagilarni hurmatiga sazovor bo’lishiga xizmat qiladi. Nutqning tashqi dunyodagi in’ikosi bu tildir. Til o‘z o‘rnida ma’lum bir jamiyat tarafidan tarixdan to shu kunga qadar yaratilib, mukamallashtirilib kelinayotgan, shu tilda so’zlovchilar uchun umumiy bo‘lgan muloqot vazifasidir.

Shunga ko‘ra aytish mumkinki, til - bu tovush, leksika va grammatik vositalar tizimi bo’lib, insoniyatga o’z fikrlarini ifoda etish va o‘zaro muloqot qilish uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Til jamoaviy faoliyatning mahsulidir. Turli xil yozuv manbalarida (xronikalar, shartnomalar, nizomlar, farmonlar, xatlar, ilmiy ishlar, badiiy va publitsistik asarlarda) qayd etilgan alohida tillarni o’rganadigan ko‘plab tilshunoslarning ulkan mehnati tufayli biz ma’lum bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga egamiz.

Milliy til tuzilishining tizimli tashkil etilishi fonetika, lug‘at, morfologiya va sintaksis haqidagi ma’lumotlar ilmiy maqolalar, monografiyalar, grammatikalar va lug‘atlarda umumlashtirilishi va tavsiflanishi orqali paydo bo‘ladi. Til hamma uchun obyektiv va majburiydir.

Nutq esa shaxsning o‘zligini aks ettiradi. Har bir inson o‘z so‘z boyligiga, undan foydalanish qobiliyatiga, o‘z bilim va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, jumla qurish va nutqni shakllantirish ko‘nikmasiga ega. Shuning uchun nutq subyektiv va unda individual sifatlar mujassam bo‘ladi.

Tilshunos olim I.A.Boduen de Kurtenae birinchilardan bo‘lib til va nutqni farqlash zarurligini ta’kidlab, U tilning mohiyati nutqda, nutq faoliyatida ochib berilishini isbotladi. Mashxur lingvist o‘zining paradoksal fikrini quyidagicha ifodalagan: “Nutq tildan farqli o‘laroq inson ongida, qalbida mavjud. Agar bu yerda bo‘lganlarning hammasi jim bo‘lib qolsa, agar bu yerda mutlaq sukunat o‘rnatilsa, umuman, inson nutqi o‘z faoliyatini to‘xtatgan bo’larmidi? Til xa... ammo nutq esa yuq. Nutq biz gapirishimizdan yoki gapirmasligimizdan qat’iy nazar, bizning ongimizda mavjud”. [Boduen de Kurtene, 2004:56]

Til va nutq, orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq, faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq, esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi.

Til birliklari yana nutq, faoliyati — faolligi uchun xizmat qiladi. [Begmatov, 1985:86]. So‘zlash qobiliyati tushunchasi ostida ma‘lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tildan ogohligi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko‘nikmasi va darajasi anglashiladi. Nutq esa yuqorida ta’riflangan tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan so‘zlash qobiliyati ko‘magida ma‘lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo‘llanish natijasidir.

Shu nuqtayi nazardan til va nutqning bir-biriga xos bo‘lgan mavhum konkret tarzdagi korrelyat nisbiy mustaqil birliklariga e‘tibor qaratamiz.

Til birliklari	**Nutq birliklari**
Fonema	Fon
Morfema	Morf
Leksema	Leks
Konstruksiya (model)	So‘z shakli; so‘z birikmasi; gap; mikrotekst, makrotekst

Bu birliklar o‘z navbatida ma‘lum vazifa va funksiyaga ega, bir-biridan amaliy jihatdan farqlanadi. Ba‘zan esa bir-birini to‘ldiradi. Til va nutq orasidagi dialektik aloqa va munosabat haqida aytilgan fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Til	**Nutq**
Umumiylik	Xususiylik
Imkoniyat	Voqelik
Tayyorlik	Hosilalik
Majburiylik	Ixtiyorilik
Birliklari chegaralangan	Birliklari chegaralanmagan

Shu o‘rinda tilshunos B.ASerebrennikovning fikrini keltirish joiz: “Til nutq jarayonida foydalaniladigan asosiy mezondir. Har bir nutq jarayonida til elementlari qatnashadi” [Serebrennikov,1988:160]

Til sistem xarakterga ega bo‘lganidek, nutq ham til elementlari asosida joizlangandan so‘ng sistem xarakterga ega bo‘ladi. Mulohaza yuritish uchun yana bir taniqli o‘zbek tilshunos olimi S.Usmonovning quyidagi fikrini keltiraylik: “Til qachon ma’lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo‘lgandagina ma’lum funksiyani bajarishi mumkin”. [Usmonov, 1972:12]

Til va nutqni tavsiflovchi belgilarni taqqoslasak, olimlarning aytganlari aniq va tushunarli bo‘ladi.

Demak, til:

1) mavhum (nutq birliklarining mavhum analoglarini o’z ichiga oladi);

2) jamoa (millat) tajribasini aks yettiradi;

3) obyektiv;

4) shartli (Grammatik qoidalarni, milliy me’yorlarni bilish talab etiladi);

5) statik hodisa;

6) komponentlar to’plami bilan cheklangan.

7) nofunktsional

Nutq esa:

1) material (tovushlar oqimi sifatida ifodalanganda, yeshitish orqali qabul qilinadi; yozma ravishda esa, ko‘rish orqali ongda o‘z aksinin topadi);

2) shaxsning o‘z tajribasini aks yettiradi;

3) subyektiv;

4) shartsiz (ongimizda fikr kurinishida bo‘lganda);

5) dinamik ravishda, vaqt o‘tishi bilan rivojlanadi;

6) cheksiz.

7) funktsional

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бодуэн де Куртене И.А. Введение в языковедение. 2004:56
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qalamlari. –T .1985:86
3. Serebrennikov. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. –M ,1988:70
4. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –T .1972

UDK:811.512.133’367.622.14’37

O‘ZBEK TILIDA KOGNITIV METAFORALARDA MILLIY TAFAKKURNING AKS ETISHI

Hakimova Muhayyo Karimovna
xakimova197621@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109969

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi kognitiv metaforalarda milliy tafakkurning aks etishi misollar yordamida yoritilgan. Dastlab kognitiv metaforaning mohiyatini aniqlashga e’tibor qaratilgan. Uning turlari ajratilgan. Xususan, ctruktur, orientatsion (yo‘naltiruvchi) va ontologik metaforalarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Har bir turdagi metaforalarda milliy idrokning belfilovchi vazifasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *metafora, kognitiv metafora, nominatsiya, ctruktur metafora, orientatsion (yo‘naltiruvchi) metafora, ontologik metaforalar, milliy idrok.*

Аннотация. В данной статье исследуется отражение национального мышления в когнитивных метафорах узбекского языка. Во-первых, внимание сосредоточено на определении сущности когнитивной метафоры. Его типы разделены. В частности, определяются специфические характеристики структурных, ориентационных и онтологических метафор. Анализируется определяющая функция национального восприятия в каждом типе метафоры.

Ключевые слова: *метафора, когнитивная метафора, номинация, структурная метафора, ориентационная метафора, онтологические метафоры, национальное восприятие.*

Abstract. This article studies the reflection of national thinking in cognitive metaphors in the Uzbek language. First, the focus is on defining the essence of cognitive metaphor. Its types are separated. In particular, the specific characteristics of structural, orientational and ontological metaphors are defined. The defining function of national perception in each type of metaphor is analyzed.

Key words: *metaphor, cognitive metaphor, nomination, structural metaphor, orientational metaphor, ontological metaphor, national perception.*

Metaforalar nafaqat nutqni bezovchi tasvir vositasi, tildagi iqtisod qonuniyatini amalga oshiruvchi nominatsiya usuli, konnotatsiyani voqelantirish imkoniyati, balki fikrlash usuli hamdir. Kognitiv metaforalarda inson tafakkuri hissiy bilish mumkin bo‘lmagan, faqat aqliy bilish orqali anglanuvchi murakkab mohiyatlarni konkret narsalarga o‘xshatadi va shu konkret mohiyatning andozasi orqali murakkab mohiyatni bilish oson kechadi.

Bu haqida atoqli ispan adibi va faylasufi Xose Ortega-i-Gasset o‘zining mashhur «Ikki buyuk metafora» nomli maqolasida[Ортега-и-Гассет,1990] fikr yuritadi. Mazkur maqolaga o‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov munosabat bildirgan. Xususan, «Adibning kuzatishicha, metaforaning ikkinchi xil qo‘llanishi ko‘proq psixik, abstrakt tushunchalarni ifodalash bilan bog‘liq. Psixik obyektlarni nomlashgina emas, hatto tasavvur qilishning o‘zi ham qiyin, ularning jismoniy o‘lchovlari yo‘q. Masalan, qalbning tubi deganda tub so‘zi ifodalagan joyni, demak, ma’noni konkret tasavvur qilish mushkul, albatta, idishning tubi ifodasida anglatgan joy aniq, ayni so‘z tegishli assotsiatsiya asosida psixik obyektga ko‘chirilgan va uni tasavvur qilishga imkon yaratgan. Adibning ta’kidlashicha, xuddi shu yerda metaforaning bilishdagi teran va muhim vazifasi namoyon bo‘ladi, “metafora faqat nomlash, ifodalash vositasi emas, ayni paytda tafakkurning muhim quroli ekanligida ko‘rinadi»[Маҳмудов,2017].

Xose Ortega-i-Gassetning fikricha, inson uchun jismoniy xarakterdagi narsalar, ularning jismoniy o‘lchovlari tabiatan yaqin. Chunki inson tafakkuri jismoniy narsalarni aniq tasavvur qiladi. Abstrakt psixik holatlar esa insoniyat tafakkurining keyingi bosqichlarida shakllangan bo‘lib, uni tasavvur qilish oson kechishi maqsadida inson jismiy narsalarga solishtiradi. Masalan, olim men so‘zini aytayotganda insonlarning ko‘kragiga qo‘li bilan urib gapirishlari, har bir inson o‘z “menini” alohida abstraksiyalashda baribir jism bilan bog‘lashini ta’kidlaydi. Murakkab tafakkurni talab qiluvchi abstrakt tushunchalarni aniq jismoniy xarakterdagi nomlar bilan atash metaforaning alohida turi sifatida belgilangan.

Kognitiv metaforalar nazariyasiga asos solgan deb e’tirof etilgan J.Lakoff va M.Jonsonlarning “Biz yashayotgan metaforalar” asarida *vaqt - pul* metaforasi keltiriladi. Bu juda mashhur metafora bo‘lib, juda ko‘plab tadqiqotlarda misol sifatida keltiriladi. Demak, vaqt hissiy bilish mumkin bo‘lmagan, moddiylikdan holi bo‘lgan murakkab abstrakt tushuncha. Ma’lumki, bu kabi moddiylikdan holi abstrakt tushunchalarni anglash ong uchun murakkab jarayondir. U konkret pulga o‘xshatilar ekan, pulning andozasi, obrazi orqali vaqtni bilish ham oson kechadi.

Mualliflar metafora hosil bo‘lish mexanizmini quyidagicha tushuntiradilar. Ularning fikricha, har bir metaforada manba (donor) va qabul qiluvchi tomonlar mavjud bo‘ladi. Masalan, o‘lchov birliklari inson tabiati uchun manba bo‘lishi mumkin: og‘ir yuk va og‘ir tabaitli kishi. Bu vaziyatda og‘irlik o‘lchov birligi inson tabiatini tavsiflash uchun manbaga aylanadi, inson tabiati esa o'z navbatida oluvchi bo‘lib qoladi [Ортега-и-Гассет,1990]. Manba (donor) tomon doim kuzatishda berilgan, inson oson bila oladigan, ko‘p murojaat qiladigan, xullas, til egasiga yaqindan tanish bo‘ladi. Tana a’zolari, atrof, undagi narsa, harakat va belgilar kognitiv metafora uchun manba bo‘ladi.

Oluvchi tomon esa inson bilishi murakkab bo‘lgan, bevosita kuzatishda berilmagan, abstrakt, psixik holatlar bo‘ladi. Inson tafakkuri mana shunday ko‘rish, ushlash, ta’m, hid va ovozini seza olmaydigan murakkab yoki abstrakt tushunchalarni anglashi uchun aniq voqeliklar andoza vazifasini bajaradi. Masalan, o‘zbek tilida oila qo‘rg‘onga o‘xshatiladi. Ma’lumki, qo‘rg‘on atrofi mustahqam o‘rab himoyalangan makon sanaladi. O‘zbek tafakkurida oila ham qo‘rg‘on kabi insonlarni har qanday vaziyatda himoyalovchi, sirlari tashqariga chiqmas makon sifatida talqin qilinmoqda. Demak, kognitiv metaforalarda murakkab tushunchalar konkret tushunchalarga o‘xshatilar ekan, unda til egalarining milliy idroki aks etadi. Ya’ni, xalq nimanidir nimagadir o‘xshatar ekan, u o‘zining qarichi, o‘zining mo‘ljali bilan o‘xshatadi.

Ushbu fikrimizni vaqt konsepti misolida ko‘rib chiqamiz. O‘zbek xalqida vaqt daryoga o‘xshatiladi va vaqt oqar daryo, umr oqar daryo degan konseptual metaforalar mavjud. Insoniyat umrining cheklanganligini bilgan, undan qo‘rqqan va uzoq yashash xohishi, engish istagi doimo uni anglashga turki bergan. Turli davrlarda turli madaniyatlarda vaqtni bilishda xalq tafakkuri mentallikdan kelib chiqib ish ko‘rgan. Insoniyatni doim o‘ylantirib kelgan vaqt o‘zbek tafakkurida oqar daryoga, tabibga; inglizlarda esa pul, boylikka; ruslarda qush, shifokor, sudya, oltinga; arablarda qilich, pichoq, kema, tuya, dengiz, oltinga metaforik o‘xshatiladi va u orqali bilish osonlashadi [5].

O‘zbek tilidagi “vaqt oqar daryo” metaforasi orqali insonning bu dunyodagi umri juda qisqa ekanligi, o‘tkinchi ekanligi, foniy dunyoda esa abadiy yashashi, bu dunyodagi vaqtning qadriga etish, abadiy hayot uchun harakat qilish kerakligi kabi tushunchalar o‘z aksini topgan.

J.Lakoff va M.Jonson kognitiv metaforalarning 3 ta turini ajratadi:

1. Struktur metaforalar
2. Orientatsion (yo‘naltiruvchi) metaforalar

3. Ontologik metaforalar.

Struktur tarkibli metaforalarda abstrakt ob’ektlarning konseptuallashuvi aniq ob’ektlar orqali ro‘y beradi. Muayyan tizimga ega bo‘lgan aniq bilimlar mavhum tushunchalarni tartibga soladi va bilishni osonlashtiradi. Bularga g‘arb stereotiplariga xos bo‘lgan “vaqt – pul”, “bahs – urush”, “umr – sayohat” kabi metaforalar misol qilib keltiriladi. O‘zbek tilidagi “umr – oqar daryo”, “hayot – ikki eshik orasi” degan metaforalarni strukur tarkibli metaforaga misol qilish mumkin.

Orientatsion metaforada fazodagi yo‘nalishlarning andozasi orqali abstrakt tushunchalar anglanadi. Bunda asosan oppozitsiya hosil qiluvchi old-orqa, tepa-past, ichkari-tashqari, quyi-yuqori, o‘ng-chap kabi makondagi yo‘nalishlarni ifodalovchi tushunchalar mavhum tushunchalarga ko‘chiriladi. O‘zbek tilida yuqori, tepa, baland, old so‘zlari metaforik hosila ma’nolarda, odatda, ijobiy ma’noda; quyi, past, orqa so‘zlari esa salbiy ma’nolarda qo‘llanadi. Quyidagi gaplarda past so‘zi metaforik qo‘llangan:

- *Yo‘ldosh bolaning esi pastligiga ishonmasa-da, buni Xayriga ochiq-oydin aytolmadi. (*Yoshlik).
- *Bunaqa yuvosh xotinlarga qaysi erkak past molni ravo ko‘radi. (*E. Samandar, Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq).
- *Otasini ko‘ndiramiz, uning tagi past, jazosi pulda. (*J. Sharipov, Xorazm).
- *Hammaga ham qilig‘ingiz shumi yoki meni shunday past xotin deb o‘yladingizmi? (*Oydin, Ikki ko‘zi shunda).
- *Past kishida odamiyat nima qilsin. (*A. Qodiriy, Mexrobdan chayon).

3. Ontologik metaforalar. Kognitiv metaforaning bu turida ontologik jihatdan moddiy narsalarning belgilari abstrakt nomoddiy tushunchalar uchun o‘xshatish manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Soddaroq aytganda, abstrakt tushunchalarning belgilari konkret tushunchalarning belgilariga o‘xshatiladi. Masalan, *achchiq* qalampirning belgisi, u *haqiqatga* nisbatan qo‘llansa, ontologik kognitiv metafora sanaladi*: achchiq haqiqat, shirin orzular, o‘tkir fikr* kabi.

Tahlil uchun *“og‘ir”* so‘zini olamiz. Og‘ir belgisi bu konkret narsa bo‘lgan toshning belgisi. Mazkur belgi abstrakt tushunchalarni anglash uchun ham metaforik qo‘llanishi mumkin: *og‘ir hayot, og‘ir musibat, og‘ir xarakter, og‘ir kunlar* kabi**.**

Og‘ir so‘zi misolida turli tillarda kognitiv metaforalardagi mushtarak holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi *og‘ir* leksemasining bosh ma’nosi abstraktlashib, *og‘ir mehnat, og‘ir hayot* kabi kontekstlarda reallashuvchi abstrakt ma’nolar hosil bo‘lgan. Rus tilida ham «тяжёлый» so‘zining semantik strukturasida “тяжёлый груз” (og‘ir yuk), “тяжёлая работа” (og‘ir mehnat), “тяжёлая жизнь”

(og‘ir hayot) kabi bog‘lanishlarda voqelanadigan abstrakt ma’nolar mavjud. Xuddi shu holatni ingliz tilidagi *heavy* so‘zi misolida ko‘rish mumkin: *heavy luggage* (og‘ir yuk), *heavy work* (og‘ir mehnat), *heavy life (og‘ir hayot).* Bu kabi holatlar tafakkurning umuminsoniy mushtarak jihatlari, olam lisoniy manzarasining o‘xshash tomonlari har doim bo‘lganligi va bo‘lajakligi haqida darak beradi.

Lekin o‘zbek tilida og‘ir leksemasining ijobiy ontologik metaforik qo‘llanishi mavjud. Bu quyidagi milliy idrok bilan sharhlanadi: Narsa vaznining og‘irligi qancha katta bo‘lsa, uning harakati shuncha kam bo‘ladi. YA’ni katta vaznli narsaning tortilish kuchi katta bo‘ladi va uning harakati shuncha sekin bo‘ladi. Soddaroq qilib, aytganda, og‘ir toshni siljitish juda ham qiyin. O‘zbek tili egalari mazkur belgi asosida «vazmin, bosiq, sipo» abstrakt ma’nosini hosil qilganki, bu insonning yaxshi fazilatlaridan biridir. Vazmin odamda og‘ir tosh kabi tili, xatti-harakatlari, «emotsiyalari tezligi» kam bo‘ladi. Ushbu fikrimizni quyidagi matndagi *og‘ir* va *engil* so‘zlarining qo‘llanishi bilan isbotlash mumkin:

— Poytaxtni senga, seni Xalloqi olamga inonib ketyapman, — dedi nihoyat amir.

— Ammo xavotirim bor, — amir shunday deb o‘g‘liga savol nazari bilan tikildi.

— Nimadan? — dedi amirzoda ajablanib.

*—**Yengilsan**. Boshboshdoqlikka moyilsan. Hukmni o‘tkazmoqda ojiz bo‘lib qolmasmikansan? Hukmni o‘tkazmoq uchun qattiqqo‘l, **og‘ir** bo‘lmoq darkor. Ko‘ngilbo‘shlik fuqaroni to‘zitib yuboradi* (Tohir Malik. Savohil).

Ba’zi millat vakillari uchun bunday vazminlik balki ijobiy sifat deb baholanmasligi ham mumkin.

“Temir iroda” metaforasini tahlil qilib ko‘ramiz. Bunda abstrakt tushuncha *“iroda”*ning konseptuallashuvi xalqqa tanish bo‘lgan temir haqidagi muayyan shakllangan bilimlar orqali tartibga solinyapti. Ya’ni iroda tushunchasini anglash uchun temir tushunchasi konseptual manba (donor) vazifasini bajarmoqda.

Temir eng qadimgi qazilma boyliklardan hisoblanib, miloddan avvalgi 2000-yillarda Osiyoning g‘arbiy qismida temirni rudalardan olish usuli topilgan; hundan keyin Temir Misr, Yunonistonda ham ishlatiladigan bo‘ldi; jez davrini temir davri egallay boshladi. Temir juda mustahkam bo‘lib, suyuqlanish temperaturasi 1535°, qaynash temperaturasi 2750°ni tashkil etadi [Vikipediya]. Demak, xalqimiz qadimdan temirdan foydalanib kelgan, turmushga kerakli bo‘lgan juda ko‘plab asbob-uskanalar temirdan tayyorlangan va u juda mustahkam bo‘lgan. Shuning uchun temirning mustahkamligi irodaga o‘xshatilgan. O‘zbek xalqida iroda tushunchasi egish, o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan temirga o‘xshatiladi va u orqali insonlarning o‘z fikridan, so‘zidan qaytmaydigan, o‘zgarmas qat’iyatli xususiyatini anglash oson kechadi: *Bunday og‘ir sharoitda sarhadlar daxlsizligi, sog‘liqni*

saqlash, ta’lim sohalari hamda ijtimoiy barqarorlikni bir maromda ushlab turish uchun insonga temir iroda, yuksak salohiyat lozim va u ham jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlansagina o‘z qudratini ko‘rsata oladi.

Bir nom ostida umuman boshqa-boshqa voqeliklarning umumlashtirish inson tafakkuri va tilini ixchamlashtirish yo‘lidagi asosiy usullaridan biri bo‘lsa, har bir millatning olam va uning xususiyatlarini o‘ziga xos birlashtira olishi tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, konseptual metafora orqali shakllangan ma’no taraqqiyotiga nazar tashlasak, unda bir belgi ostida nomlanayotgan tushunchalar bir-biridan mutlaqo farq qiladi.

Bir nom ostida umuman boshqa-boshqa voqeliklarning umumlashtirish inson tafakkuri va tilini ixchamlashtirish yo‘lidagi asosiy usullaridan biri bo‘lsa, har bir millatning olam va uning xususiyatlarini o‘ziga xos birlashtira olishi tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, kognitiv metafora orqali shakllangan ma’no taraqqiyotiga nazar tashlasak, unda bir belgi ostida nomlanayotgan tushunchalar bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Masalan, bitta «nozik» so‘zi bilan «yuksak mahorat va san’at bilan juda bejirim qilib ishlangan» (nozik san’at buyumi); «ingichka, yupqa» (nozik ip); «bejirim, latif» (nozik qo‘llar); «zaif, nimjon» (nozik bola), «muloyim, mayin va yoqimli, nazokatli» (*nozik harakatlar);* «salga sinadigan, uziladigan, yirtiladigan; bo‘sh, mo‘rt» (nozik idish); «o‘ziga xos qiyinchiliklari bo‘lgan, alohida mahorat, malaka, bilim talab etadigan» (nozik ish); «o‘z ishini mayda ikir-chikirlarigacha yaxshi biladigan» (nozik gulchi); «alohida ehtiyotkorlik talab etadigan, qaltis» (nozik holat); «alohida e’tibor, mulozamat, takalluf talab etadigan, izzattalab» (nozik mehmon); «injiq» (nozik tabiat) [ЎТИЛ,2015] kabi ma’nolarni nomlaymiz. Mazkur o‘n ikkita denotatlar ontologik va gnoseologik nuqtayi nazardan ham farqlanadi. Nozik so‘zi anglatayotgan «ingichka» ontologik belgi bo‘lsa, «qaltis» va «injiq» gnoseologik belgilardir. Ushbularni bitta so‘zda birlashtirish esa xalqimizning cheksiz va sinchkov tafakkuridan, tilimizning beqiyos imkoniyatlaridan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 119-120.

2. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. – Chikago and London, 242 p.

3. Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры / Теория метафоры. – М: Прогресс, 1990. – С. 68-81.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.

5. https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-opredeleniya-kontsepta-vremya-v-russkom-i-arabskom-yazykah

“OT” KOMPONENTLI TURK MAQOLLARIDA ZOONIMLAR

Sabohat Bozorova
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi
sabohatbozorova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109980

Annotatsiya. Maqollar jamiyatning o‘tmishi, ma’naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, e’tiqodi, madaniyati, hayot tarzini o‘zida aks ettiradi. Xalqning dunyoqarashi, voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabati, hukmi, milliy o‘zlikni ta’minlovchi urf-odat va an’analari, badiiy zakovat qudrati, asriy tajribalari xulosasi maqollar mazmunini tashkil etadi. Maqollar jamiyat tomonidan ma’qullangan, asrlar davomida tafakkur va mantiq suzgichidan, vaqt sinovidan o‘tgan holda bizgacha yetib kelgan hajman qisqa, mazmunan juda boy bo‘lgan so‘zlardir. Aynan mana shu xususiyatlari bilan maqol boshqa janrlardan ustun hisoblanadi. Turkiy xalqlar maqollarida eng ko‘p tilga olingan hayvon ot hisoblanadi. Bu esa turkiy xalqlarning ovchilik va harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan hayoti, turmush tarzida otning juda katta ahamiyatga ega bo‘lgani bilan izohlanadi. “Ot” komponentli turk maqollarida boshqa hayvonlar nomlari ham uchraydi. Tadqiqotimizda ana shunday maqollar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *maqol, turk maqollari, hayvonlar, ot, zoonim.*

Abstract: Proverbs reflect the essence of society, its spiritual values, national thinking, ethics, culture, and lifestyle. They embody the worldview of the people, their attitude towards events and incidents, their customs and traditions preserving national identity, the power of artistic expression, and the summary of contemporary experiences. Proverbs, accepted by society, have been refined through centuries from the perspective of thought and logic, transcending the boundaries of time, and have reached us in concise terms, mostly consisting of short phrases. It is precisely with these characteristics that proverbs stand out from other genres. Animals are often used as symbols in proverbs. In Turkic proverbs, the horse is the most frequently mentioned animal. This is explained by the fact that in the lifestyle of Turkic peoples, closely related to hunting and military affairs, horse hold great importance in their livelihoods and household economy. Other animal names are also encountered in Turkish proverbs containing the component "horse." Our research focuses on analyzing such proverbs.

Key words: *proverb, Turkish proverbs, animals, horse, zoonym.*

Otning turkiy xalqlar hayotida tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlar qadimgi yozma manbalarda ham qayd etilgan. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi maqollarda turli zoonimlarni uchratamiz. “Asarda “ot” komponentli 24 maqol borligini ko‘rish mumkin” [Bozorova, 2021: 375]. Turk maqollarida *ot* zoonimi *at* (ot), *aygır* (ayg‘ir), *beygir* (axta qilingan yoki yuk tashishda ishlatiladigan ot), *kısrak* (biya), *kulun* (qulun), *tay* (toychoq), *küheylan* (tulpor) kabi shakllarda qo‘llangan. Turk folklorida ot bilan bog‘liq juda ko‘p maqollar bor. Ularda ot asllik, idrok, nazokat, mardlik, vafodorlik ramzidir, aksariyat maqollarda ot va yigit birgalikda tasvirlangan, ot parvarishiga alohida e’tibor berish zarurligi ta’kidlangan. “Hayotlarida otning alohida o‘rni bo‘lgan turklar o‘zlari kuzatgan haqiqatlar, umr davomida orttirgan tajribalar haqida so‘z yuritar ekan, insonlar bilan bog‘liq voqealarni otlar bilan bog‘lab tushuntirganlar” [Aksan, 2011:146].[3] “Ot” komponentli turk maqollarida boshqa hayvonlar xususida ham so‘z yuritish bilan otning juda qimmatli, foydali hayvon ekanligiga urg‘u berilishi kuzatiladi. Bunday maqollarda eshak, it kabi hayvonlar ko‘proq tasvirlagani holda, arslon, tuya, qurbaqa zoonimlari ham uchraydi.

“Turk tilining eng qadimgi matnlaridan hozirga qadar bo‘lgan davrdagi so‘z boyligi tadqiq etiladigan bo‘lsa, eng ko‘p so‘z, ibora va maqolning “ot” tushunchasi bilan bog‘liqligi ko‘riladi” [Aksan, 2011:206]. “Ot” komponentli turk maqollarini zoonimlar ishtirokiga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Ot va eshak zoonimlari qo‘llangan maqollar:

Ham ulov, ham yuk tashish vazifasini bajaruvchi eshak “ot” komponentli turk maqollarida eng ko‘p uchraydigan zoonimlardan biridir. Bunday maqollarda otning eshakka nisbatan juda ustun va ishonchli ekanligi, ba’zi holatlarda esa ular o‘rtasida farq yo‘qligi haqidagi fikrlar ifoda etiladi. *At ile eşek bir değil* (Ot bilan eshak bir emas); *At ile eşek yarışamaz* (Ot bilan eshak bellasholmaydi); *At meydanında eşek anırmaz* (Ot maydonida eshak hangramaydi); *At murat, katır devlet, eşek kısmet, deve gurbet* (Ot – murod, xachir – davlat, eshak – qismat, tuya – g‘urbat); *At pazarında eşek izi mi aranmaz/ ararsın?* (Ot bozorida eshak izi izlanmaydi/izlaysanmi?); *At satıp eşek alınmaz* (Ot sotib eshak olinmaydi); *Atın aksağı eşekten yiğrik olur* (Otning oqsog‘i eshakdan yugurik bo‘ladi); *Eşek at olmaz, ciğer et olmaz* (Eshak ot bo‘lmas, jigar et bo‘lmas); *Eşek at ile yarışmış, kuyruğu kulağı karışmış* (Eshak ot bilan bellashibdi, dumi, qulog‘i o‘ralashibdi); *Eşek atın ne yoldaşı, yoksul bayın(beyin) ne kardaşı* (Eshak otning yo‘ldoshi emas, yo‘qsil boyning qardoshi emas); *Eşek, kulağı kesilmekle küheylan olmaz* (Eshak qulog‘i kesilgani bilan tulpor bo‘lmas); *Kırk yaşındaki eşek, iki yaşındaki ata arpa taşır* (Qirq yoshdagi eshak ikki yosh otga arpa tashir); *Eşek gibi bağırma, at ol* (Eshakdek

[3] Maqolada keltirilgan iqtiboslar va turk maqollarini o‘z tarjimamizda berdik.

baqirma, ot bo‘l); *Eşeği tavlaya çekmişler at oldum sanmış, şalgamı yemeğe koymuşlar et oldum sanmış* (Eshakni oxurga qo‘yibdilar – ot bo‘ldim deb o‘ylabdi, sholg‘omni ovqatga qo‘shibdilar – yog‘ bo‘ldim deb o‘ylabdi); *Bir ahırda at da bulunur eşek de* (Bir oxurda ot ham bo‘ladi, eshak ham) maqollarida otning jismonan baquvvat, kuchli ekanligi, vaziyatni idrok etgan holda harakat qilishi, insonlar tomonidan otga alohida e’tibor bilan qaralishi, ot va eshak hech qanday holatda teng ko‘rilmasligi, jismoniy nuqsoni bor ot ham eshakdan ustunligi, ot bilan bellashishga harakat qilgan eshakning ayanchli holatga tushishi ifodalangan. Maqollar ko‘chma ma’noda talqin qilinadigan bo‘lsa, jismonan, aqlan kuchli bo‘lgan, jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olgan insonlarni otga, jismoniy va aqliy jihatdan qusurli bo‘lgan kishilarni esa eshakka o‘xshatish mumkin.

At ile eşek tepişince arada sahibi ezilir (Ot bilan eshak tepishgach, o‘rtada egasi eziladi); *At teper, katır teper, arada eşek ölür* (Ot tepar, xachir tepar, o‘rtada eshak o‘lar); *Atlar tepişir, arada eşekler ezilir* (Otlar tepishadi, orada eshaklar eziladi) singari maqollarda ot va eshak/xachir o‘rtasidagi munosabatlar, ularning oqibatlari aks etadi. Bu maqollar o‘z ma’nosida tushunilganida jismonan kuchli bo‘lgan hayvonlarning o‘zaro kelishmovchiligi natijasida jismonan nisbatan zaif bo‘lganlari (eshak, xachir), ba’zan esa egasi zarar ko‘rishi anglashiladi. Majoziy ma’noda esa, tug‘ishganlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bois ota-onaning; jamiyatdagi badavlat/mansabdor kishilar o‘rtasidagi nizolar tufayli esa kambag‘al/tobelarning ezilishi aks ettiriladi.

Ba’zi holatlarda eshak otning o‘rnini bosishi mumkinligi haqidagi qarashlar ifodalangan maqollar ham uchraydi: *At ile varılan yere eşek ile de varılabilir* (Ot bilan borilgan joyga eshak bilan ham borsa bo‘ladi); *At yürür, eşek/it kaçar, menzile beraber varır* (Ot yuradi, eshak/it qochadi/yuguradi, manzilga teng boradi); *Körler memleketinde topal eşek attır* (Ko‘rlar mamlakatida oqsoq eshak otdir); *Bedava eşek attan yürük olur* (Tekin eshak otdan yugurik bo‘ladi); *Eşek (eşkin) eve gelmiş, yorga yolda kalmış* (Eshak (shoshqaloq) uyga kelibdi, yo‘rg‘a yo‘lda qolibdi); *Canı acıyan eşek atı geçer* (Joni og‘rigan eshak otdan o‘zadi); *Canı yanan eşek attan yürük olur* (Joni achigan eshak otdan yugurik bo‘ladi). Bu maqollarda ma’lum sabablar (imkonsizlik, tekinlik, jismoniy og‘riq, vaziyat talabi) tufayli eshakka keragidan ortiqroq baho yoki imkoniyat berilishi tasvirlangan.

Atı ata, eşeği eşeğe koşmalı (Otni otga, eshakni eshakka qo‘shish kerak); *Atı eşekle bağla, ya nalını ya huyunu* (Otni eshak bilan (yonma-yon) bog‘la, yo taqa, yo tabiatini (yo‘qotadi) maqollarida ot va eshakka bir xil munosabatda bo‘lish natijasida otning tabiatida salbiy o‘zgarishlar kuzatilishi mumkinligidan ogohlantirish mazmuni bor. Mazkur maqollar majoziy ma’noda talqin etilsa, yaxshi xulqli, tarbiyali insonni, ayniqsa, yoshlarni, noma’qul harakatlari ko‘rilgan

kishilardan uzoq tutish, salbiy ta’sirlardan himoya qilish kerakligi haqidagi fikrlar yuzaga chiqadi.

Attan düşene yorgan döşek, eşekten düşene kazma kürek (Otdan yiqilganga ko‘rpa-to‘shak, eshakdan yiqilganga – kurak) maqolida otning inson uchun sodiq do‘st ekanligi, ziyon yetkazmaslikka harakat qilishi o‘z aksini topgan. Ko‘chma ma’noda esa o‘zini biladigan, asl insonlar tufayli boshga tushadigan tashvishlardan oson qutulish mumkinligi, nasli-nasabi tayinsiz, imonsiz kimsalar orqali keladigan falokatlarni yengish qiyinligini ifodalangan.

“Ot” komponentli turk maqollarida otning egasi mansabdor, badavlat kishi sifatida tasvirlanadi. Bunday inson bilan bo‘lgan munosabatlar foydali ekanligiga urg‘u beriladi: *At sahibinden eşek esirgenmez* (Ot egasidan eshak ayalmaydi /qizg‘anilmaydi). Bu maqol *Kaz gelecek yerden tavuk esirgenmez* (G‘oz keladigan joydan tovuq ayalmaydi/ qizg‘anilmaydi) maqoli bilan bir xil mazmunga ega, ya’ni katta foydaga erishish, sezilarli manfaat ko‘rish uchun kichik xarajatlar, fidoyiliklar qilish kerakligi uqtiriladi.

Maqollarda otning mehnatidan eshakning foydalanishi, ba’zan aksincha ham bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikrlar ham uchraydi: *Atın kazancı eşek için* (Otning topgani – eshakka); *Türkmen işler Tat yer, eşek işler at yer* (Turkman ishlar, tot yer, eshak ishlar, ot yer); *Bak zamana zamana, karga vurdu şahana; eşekler arpadan bıktı, küheylan hasret samana* (Boq zamonga, zamonga, lochindan ustun qarg‘a, eshaklar to‘ydi arpaga, tulpor zordir somonga). Bunday maqollarda tabiat va jamiyat hayotidagi qadrsizlik, nohaqliklarga tanqidiy munosabat bildirilgan deyish mumkin.

Ot va eshak parallel tasvirlangan maqollarda eshakning kutilmagan harakatlar qilishi mumkinligi ham aks etgan: *Çok beslenen eşekler, atlarla tepişir* (Ko‘p boqilgan/Qorni to‘ygan eshaklar otlar bilan tepishadi); *Eşeğin boynuzu olsa, atın gözünü çıkarır* (Eshakning shoxi bo‘lsa, otning ko‘zini chiqaradi). Bu maqollarda eshakning o‘z haddi va imkoniyatini bilmasligi, atrofidagilarning xizmatlarini qadrlamasligi haqidagi fikrlarni ilg‘ash mumkin. Hayvonlar o‘rtasida kuzatiladigan bunday munosabatlarning jamiyat hayotidagi talqiniga to‘xtaladigan bo‘lsak, insonlar tomonidan qilingan yaxshiliklarni juda tez unutadigan qadrbilmas kimsalar eshak obrazi orqali tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin.

İstanbul'dan gelen eşek, kırk gün at gibi gezer (Istambuldan kelgan eshak qirq kun ot kabi kezar) maqolida esa kibrga berilgan, o‘ziga ortiqcha baho beruvchi kishilar tanqid ostiga olingan.

Ot-eshak parallelligi uchraydigan turk maqollarida ot parvarishi, xususan, uni oziqlantirishga katta e’tibor berish zarurligi ta’kidlanadi: *Eşeğin yorulursa kervana kat, atın yorulursa torba tak, katırın yorulursa durma, sat* (Eshaging charchasa, karvonga qo‘sh, oting charchasa, to‘rva taq, xachiring charchasa, to‘xtama, sot); otning ko‘p ozuqa yeyishi, eshakning ko‘p ishlashi *Eşek gibi kazan, at gibi ye*

(Eshakdek ishla, otdek ye); *At gibi yemeli, eşek gibi çalışmalı* (Otdek yeyish, eshakdek ishlash kerak). Mazkur maqollar faqat o‘z ma’nosida ishlatilishi mumkin bo‘lgan maqollar hisoblanadi.

Ot va eshak parallel tasvirlangan maqollarda ularning ustun jihatlari ham e’tirof etiladi: *Atın kırı, eşeğin burnu* (Otning oqi, eshakning burni); *Köyünde bulamaz güdük eşeği, askerde beğenmez kır atı başçavuş* (Qishlog‘ida topolmas pakana eshakni, (harbiy) xizmatda pisand qilmas oq otni serjant). Turk maqollari mazmuniga ko‘ra, ot va eshakka ega bo‘lish uchun ham ma’lum iqtidor, ruhiy muvozanat kerak, ya’ni moddiy imkoniyat, sabr, qunt, e’tibor. *Delinin atı, eşeği olmaz* (Telbaning oti, eshagi bo‘lmas) maqolida aynan ana shunday fikr aks ettirilgan. Shuningdek, boshqalar va ular ega bo‘lgan narsalarni ham kamsitmaslik tavsiya qilinadi: *Elin atına eşek dememeli* (Birovning otini eshak demaslik kerak).

Ot va it zoonimlari qo‘llangan maqollar:

It insonlarga yaqin hayvonlardan biri ekanligi hamda “ot” so‘ziga qofiyadoshligi sababli “ot” komponentli maqollarda ko‘p uchraydi.Turk maqollari mazmunidan it ham, eshak singari, ot bilan teng ko‘rilmasligi, otning ham, itning ham zotiga ahamiyat berish zarurligi *Ata da soy gerek, ite de* (Otga ham zot kerak, itga ham); ikkalasi ham och bo‘lgan paytda ishga yaramasligi *Aç (arık) at yol almaz, aç (arık) it av almaz* (Och (ozg‘in) ot yo‘l bosmas, och (oriq) it ov olmaz); yaxshi fazilatlarga ega insonlarga hamroh bo‘lganlar ijobiy tomonga, tarbiyasi va fe’lida kamchiliklari bor kimsalar bilan do‘st tutinganlar salbiy tomonga o‘zgarishi *At ile konuşan at; it ile konuşan it olurmuş* (Ot bilan gaplashgan ot, it bilan gaplashgan it bo‘larmish); qadrli shaxsiyatlarning shakllanishi uchun biroz vaqt talab etilishi, qisqa vaqtda yuzaga kelganlari esa haqiqiy qadrga ega bo‘lmasliklari *At yedi günde, it yediği günde (belli olur, semirir* (Ot yetti kunda, it yegan kunida (ma’lum bo‘ladi, semiradi); hayotda kutilmagan vaziyatlar bo‘lishi mumkinligi, otning ham, itning ham, bundan tashqari, insonlarning ham o‘ziga xos tabiati borligi, ba’zan ziyon yetkazadigan harakatlar qilishi mumkinligi *Atım tepmez, itim kapmaz deme* (Otim tepmas, itim qopmas, dema)//*Atın tepmezi, itin kapmazı olmaz* (Otning tepmaydigani, itning qopmaydigani bo‘lmaydi); ba’zan ot va it bajaradigan ish bir xil qiymatga ega bo‘lishi mumkinligi *At yürür, it (eşek) kaçar, menzile beraber varır* (Ot yuradi, it (eshak) qochadi, manzilga birga yetadi); *At yürür, it seğirtir ikisi bir yere varır* (Ot yuradi, it sakraydi, ikkalasi bir joyga boradi); hurmatga loyiq insonlarga nomunosib xatti-harakat qiluvchi tarbiyasiz kishilarga nisbatan *Atın önüne it geçer* (Otning oldiga it o‘tar); har jonzotning o‘z nasliga tortishi *Attan at olur, itten it* (Otdan ot, itdan it (tug‘iladi); yaxshi ishlayotgan, muvaffaqiyatlarga erishayotganlarni rag‘batlantirish kerakligi, mehnatning qadrlanishi yangi

g‘alabalarga asos bo‘lishi haqidagi qarashlar *Yavuz (yürük) at yemini, yavuz it ününü artırır* (Kuchli (Chopqir) ot yemini, qo‘rqmas it shuhratini orttiradi) maqolida o‘z aksini topgan. Ot va it parallel tasvirlangan maqollarning aksariyati majoziy ma’noda ishlatiladi.

Ot va boshqa zoonimlar qo‘llangan maqollar:

“Ot” komponentli turk maqollarida tuya, ho‘kiz, xachir, arslon, qurbaqa, qarg‘a, qo‘y, bo‘ri, tovuq singari zoonimlar ham uchraydi. *Arslan kükrerse atın ayağı kösteklenir* (Arslon o‘kirsa, otning oyog‘i tushovlanadi); *Arslana ot, ata et verilmez* (Arslonga o‘t, otga et berilmas); *Aslan kükrerse beygir titrer* (Arslon o‘kirsa, ot titrar) maqollarida arslon; *At ahırında tavuk beslenmez* (Ot oxurida tovuq boqilmaydi); *Bizim tavuk bir yumurta yumurtlar, yedi mahalle duyar; elin kısrağı küheylan doğurur, hiç sesi çıkmaz* (Bizning tovuq tuxum qo‘yar, yetti mahalla eshitar, boshqaning biyasi tulpor tug‘ar, hech ovozi chiqmas) maqollarida tovuq; *At alırsan yazın, deve alırsan güzün, kız alırsan sevin, dul alırsan gezin, ha gezin* (Ot olsang – yozda, tuya olsang – kuzda, qiz olsang – sevin, tul olsang – kezgin); *Deveye dağ, beygire yağ* (Tuyaga tog‘, otga yog‘ (zarar(li)); *Attan düşene tımar gerek, deveden düşene mezar gerek* (Otdan yiqilganga parvarish kerak, tuyadan yiqilganga mozor kerak) maqollarida tuya; *At düz ovada, ester(katır) kayalıkta makbuldür* (Ot tekislikda, xachir qoyalikda maqbuldir); *Katıra “baban kim” demişler; “dayım at” demiş* (Xachirga: “Otang kim?” – debdilar, “Tog‘am – ot”, – debdi); *Atı atasıyla katırı anasıyla* (Oti otasi bilan, xachiri onasi bilan); *Atı verdim katır aldım, belayı satın aldım* (Otni berdim, xachir oldim, baloni sotib oldim); *Atın silkintisi katıra yük olur*(Ot silkinsa, xachirga yuk chiqadi) maqollarida xachir; *Attan kalanı öküze dökerler* (Otdan qolganini ho‘kizga beradilar), *Her gün öküz ölmeyecek ki at pahalı olsun* (Har kun ho‘kiz o‘lmaydiki, ot qimmat bo‘lsa); *Erkek atın kişnemesi öküzün sayesindedir* (Ayg‘irning kishnashi ho‘kizning sharofatidan) maqollarida ho‘kiz; *Yağmurda dostun atı, düşmanın koyunu satılsın* (Yomg‘irda do‘stning oti, dushmanning qo‘yi sotilsin) maqolida qo‘y; *Kuş kanadını, er atını sever* (Qush qanotini, er otini sevar); *Kuş kanadıyla, er atıyla*(Qush qanoti bilan, er oti bilan) maqollarida qush; *Zayıf ata kargalar da biner* (Zaif otga qarg‘alar ham minadi) maqolida qarg‘a; *Atlar nallanırken kurbağa ayağını uzatır/uzatmaz* (Otga taqa qoqqanda qurbaqa oyog‘ini uzatadi/uzatmas) maqolida qurbaqa; *Çayırda attan, zemheride kurttan, çelmikte Türk’ten sakın* (O‘tloqda otdan, zamharida bo‘ridan, mashoqda turkdan ehtiyot bo‘l) maqolida bo‘ri zoonimlari qo‘llangan. Bu hayvonlar va ularga xos bo‘lgan jihatlarni tasvirlash orqali otning ustun tomonlari,

insonlar hayotidagi ahamiyati, jamiyatdagi axloqiy mezonlar, ma’naviy qadriyatlar ifodalangan, muhim tavsiyalar berilgan.

Turk maqollarida ot insonning eng yaqin do‘sti, yordamchisi, bebaho mavjudot sifatida tasvirlangan.“Bugun, butun dunyoda bo‘lgani kabi, Turkiyada ham texnik taraqqiyot natijasida keskin o‘zgargan hayot tarzimiz otning oldingi asrlardagi ahamiyati va qadrining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, shahar hayotida, ot poygalarini istisno qilganda, otning o‘rni qolmadi, deyish mumkin. Ba’zi qishloq joylarida vaziyat biroz farqli bo‘lsa-da, otning ulov va yuk tashishdagi o‘rnini oldingisi bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Ammo otning tildagi aks sadosi turli shakllarda davom etmoqda” [Aksan, 2011:152].

Ajdodlar tajribalarini bugungi kunga qadar nihoyatda aniq va betakror tarzda yetkazayotgan maqollarning har biri – bebaho xazina. Ularning aksariyati milliylik sarhadidan oshib, umuminsoniy mohiyat kasb etgan. Turkiy tilning ilk yozma yodgorliklarida uchraydigan maqollarning farqli geografik hududlarda yashovchi, turli madaniyat va e’tiqodga ega xalqlar o‘rtasida keng tarqalganligi buning dalilidir. Maqollar jamiyat, xalq, til, madaniyat, tarixni o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Aksan D. *Türkçeye Yansıyan Türk Kültürü*. – Ankara: Bilgi Yayınevi, 2011.
2. Aksoy Ö. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul:Inkılâp Kitabevi, 1988.
3. Aksoy Ö. Benzerlikleriyle Türk Dünyasında Atasözleri. – İstanbul: Kültür Konseyi, 2021.
4. Aksu B., Akalın Ş., Toparlı R. Türk Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: TDK Yayınları, 2022.
5. Akkuş M.Atasözleri ve Deyimler Üzerine İncelemeler. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2022.
6. Bozorova S.“Devonu lug‘ati-t-turk”dagi “ot” komponentli maqollar tahlili. O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.374-378.
7. Çotuksöken Y. Türkçe Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: Toroslu Kitaplığı, 2004.
8. Ercilasun A. Dîvânu Lugâti’t-Türk’teki Şiirler ve Atasözleri. İstanbul: Bilge Kültür Sanat Yayın Dağıtım San. ve Tic. Ltd.Şti, 2020.

9. Öz A. Hayvanlarla İlgili Özbek Atasözleri. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 2000, № 9, 114-160.

10. Yurtbaşı M. Sınıflandırılmış Türk Atasözleri. – Ankara: Özdemir Yayıncılık, 1994.

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI OMONIMLAR TADQIQI

Abduraxmanova Muqaddas
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mabduraxmanova20@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.11109984

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida omonimlar muayyan til doirasida va tillararo muammo sifatida tadqiq etilgan. Maqola o‘zbek va turk tillaridagi omonimlar tadqiqiga bag‘ishlangan. O‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar tavsiflangan. Turk tilshunosligida omonim termini va omonimiya hodisasiga oid tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *tuyuq, omonimiya, omoleksemalar, omonim(sesteşler), omonim(eşsesliler), omonim(eşadlılar), omonim(addaşlar).*

Abstrakt. In world linguistics, homonyms are studied within a specific language and as an interlingual problem. The article is devoted to the study of homonyms in the Uzbek and Turkish languages. Research carried out in Uzbek linguistics is described. Research on the term homonym and the phenomenon of homonymy in Turkish linguistics is analyzed.

Key words: *tuyuk, homonymy, omolexemes, homonyms, homophones*.

Jahon tilshunosligida bugungi kunda omonimlar semantikasi yuzasidan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: omonimlarning leksik-semantik tadqiqi; omonimlarning ko‘rinishlari, leksik omonimlar, grammatik omonimlarning semantik xususiyatlari, omonimlarni bilingvizm lisoniy vaziyatida tahlil qilish; muayyan diskurs qamrovida tadqiq etish; omonimlar ma’nosini o‘zlashtirish va lisoniy xotirada saqlash omillari, badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari; semasiologik va leksikografik talqini; omonimlarni antropotsentrik paradigmada tahlil qilish; kognitiv, psixolingvistik xususiyatlarini yoritish; o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik omonimlarning chog‘ishtirma tahlili; o‘zbek va boshqa qardosh tillaridagi omonimlarning qiyosiy tadqiqi va h.k.

Bir til dorasidagi tadqiqotlarda lingvistik yo‘nalish ustunlik qiladi. Diaxron aspektdagi tadqiqotlar yozma yodgorliklar matnidagi omonimlar, omonimiya hodisasining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga bag‘ishlangan. Sinxron aspektdagi izlanishlarda omonimlar leksik-semantik, struktur-grammatik jihatdan tahlil etilgan,

til va nutq hodisasi sifatida farqlangan, leksik, grammatik xususiyatlar va so‘z yasalish jarayoni mahsuli ekanligi asoslangan. Omonimlarning shakllanish omillari, polisemiya hodisasiga munosabati, badiiy-stilistik imkoniyatlari o‘rganilgan. Omonimlar kompyuter lingvistikasi yonalishida tahlil etilgan. Bir tizimdagi tillar doirasidagi izlanishlarda hodisaning umumiy va farqli jihatlari, tillararo hodisa sifatida namoyon bo‘lishi, yondosh tushunchalarga munosabati, leksik-semantik xususiyatlari tahlil etilgan. Turli tizimdagi omonimlar tadqiq qilingan. Omonimlar psixolingvistik, kognitiv, lingvopragmatik aspektda tadqiq etilgan. Omonimiya shaklidagi kompleks shakllar, ya’ni murakkab morfemalar o‘rganilgan. Omonimiyani o‘rganish leksik semantikaning asosiy muammolarini hal qilish uchun juda muhimligi qayd etilgan. Ingliz, xitoy, turk tillarida polisemiya va onomimiyaga bo‘lgan munosabat lug‘atlar orqali ko‘rsatib berilgan. Omonimlar bilan bog‘liq assotsiatsiyalar o‘rganilgan. Omonimlarning boshqa so‘zlarga qaraganda tezroq o‘zlashtirilishi asoslangan. So‘z o‘rganishning boshlanishida omonimlarni o‘zlashtirish qiyinligi, lekin keyinchalik shakl bir xilligi anglashga yordam berishi asoslangan. Omonimiya hodisasi turkologiyaning ham asosiy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Turkiy tillarning omonimlik xususiyatlari qiyosiy aspektda tavsiflangan. Qozoq, boshqird, qirg‘iz, tatar, turkman, ozarbayjon, tuva, xakas, tillaridagi omonimlar o‘rganilgan. Chuvash, yoqut, qoraqalpoq, omonimlar tadqiq etilgan. “Devonu lug‘otit turk”dagi omonimlar tahlil qilingan. Turk tili omonimlari qiyosiy planda tadqiq etilgan. Omonimlarning o‘zlashtirilishiga e’tibor qaratilgan. Turk tili omonimlari chog‘ishtirma aspektda lingvokulturologik jihatdan o‘rganilgan. Turkologiyada olib borilgan izlanishlarda omonimlarning lingvistik hodisa sifatidagi xususiyatlari, shevalardagi omonimlik masalasi, omonimlar semantikasi va etimologiyasiga oid masalalar tahlil qilingan. O‘zbek tilshunosligida affiksal omonimlar, leksik omonimlar, omonimiya va polisemiya munosabati o‘rganilgan. Omonimlar tarixiy aspektda tahlil etilgan, leksikografik asoslari yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda omonimlarga psixolingvistik, kognitiv jihatdan yondashilgan o‘rinlar kuzatiladi. Sh. Shoabdurahmonov omonimiyani ijobiya hodisa sifatida baholaydi. H.Jamolxonov omonimlar kishining chuqur fikr yuritishiga yordam berishini qayd etgan. Sh. Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib, omonimiyaning turlari, shakllanish jarayoni haqida ilmiy asosda fikr bildirgan. Shu bilan bir qatorda, omonimiyaning inson miyasi, qabul qilish darajasi bilan bog‘liq hodisa ekanligiga e’tibor qaratgan. Xususan, omonimiyaning so‘z birikmasi, kontekst yordamida bartaraf etilishini birinchilardan bo‘lib qayd etgan: “…omonimning yolg‘iz o‘zi

bilan gapshakl tuzib, fikr anglatish kamdan kam uchraydi. Matn esa odatda omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi”. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida, zamonaviy tilshunoslikda, kompyuter lingvistikasida faol qo‘llanayotgan kollokatsiy usulida, ya’ni so‘z ma’nolarining birikmalar orqali [Abjalova, 2021] aniqlanishiga e’tibor qaratilgan. Sh. Rahmatullayev omonimlarning psixolingvistik, kognitiv xususiyatlari haqida yana shunday deydi: “Nutqda ikki xil tushunilishi mumkin bo‘lgan holatlarga ba’zan ongli ravishda yo‘l qo‘yiladi, shu asosda so‘z o‘yini hosil qilinadi. Buni omonimiyadan qisman bo‘lsa-da ijobiy foydalanish deb baholash kerak”. Omonimiyadan tuyuq, askiya janrlarida maqsadli foydalanilishini qayd etganlar. Turk adabiyotshunoslari “Tuyuq turk madaniy jo‘g‘rofiyasining ma’lum qismi va davri bilan chegaralangan. Turk mumtoz adabiyotining cho‘qqisi bo‘lgan davr – XVI va XVII asrlar shoirlari ijod qilganida edi, tuyuqning tartibsiz, noma’lumdek ko‘ringan jihatlari bartaraf etilgan bo‘lar edi” deb ta’kidlaydilar. Darhaqiqat, XV asrning birinchi yarmi omonimlar asosidagi tuyuq janri eng ko‘p qo‘llangan davr bo‘lib, Lutfiy ijodida 70tani tashkil etgan. Tuyuq janri, tajnis, iyhom kabi badiiy san’atlar Alisher Navoiy va undan keyingi davr adabiyotida ham keng qo‘llangan. XX asr boshlaridan Elbek tomonidan omonimlar lug‘atining yaratilishi (1934-yilda) bunday so‘zlarning shu davrlarda ham faol qo‘llanganidan dalolat beradi. Turk tilshunosliga ilk omonimlar lug‘ati 1924 yilda nashr etilgan.

Omonimlar ma’no xususiyatlariga ko‘ra turlicha tasnif qilingan. Xususan, E. Qilichev omonimlarning turli leksik-semantik guruhga mansubligi, umumiy integral semaga ega bo‘lmasligini qayd etgan. Omonimlarni bir-biridan farqlovchi eng muhim belgi sifatida sintagmatik munosabatlarning xilma-xilligini ko‘rsatgan. Olim bir so‘z turkumi doirasida uchraydigan, bir xil vazifadagi qo‘shimchalarni qabul qiladigan, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma’nolari turlicha bo‘lgan lug‘aviy birliklarni omonimiya deb baholagan. So‘zlarning faqat o‘zak holatida omonimlikni tashkil etishi, boshqa shakllariga ko‘ra omonimiya bo‘lmasligini qayd etgan. S.Rahimov, B.Umurqulovlar omonimlar terminini aytilishi, yozilishi va barcha grammatik shakllari bir xil, ma’nosi har xil so‘zlarga nisbatan ishlatilishi ta’kidlangan. Sh.Rahmatullayev ifoda jihati teng leksemalarni *omoleksemalar* deb nomlagan. Omoleksemalarni belgilashda ham talaffuz, ham harfiy (grafik) bir xillik bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan.

Turk tilshunosligida omonimlar turli terminlar bilan izohlanadi: *Sesteşler, Eşsesliler, Eşadlılar, Addaşlar.* Turk olimi Enfel Doğan ta’kidlashicha: “*Aynı yazım ve sesletimi paylaşan, ama farklı bir etimolojiye sahip olan sözcükbirimlere eşadlı*

(homonym) denir”. Imlo va talaffuzi bir xil, ammo etimologiyasi turlicha bo‘lgan leksik birliklarga omonimlar deyiladi. Berke Vardarning yozishcha: “*Eş adlılık, aynı biçime sahip ancak anlamca aralarında ilgi bulunmayan sözlüksel biçimlerdir. Kimi dillerde yazılışları aynı anlamları farklı olan (eşsesli), yazılışları aynı söylenişleri farklı olan (eşyazımlı) kısmî eşadlı biçimler de bulunmaktadır*. Omonimlar - bir xil shaklga ega bo‘lgan, ammo ma’no jihatdan bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar- leksik shakllardir. Ayrim tillarda imlosi bir xil, lekin ma’nosi har xil (omonim) va yozilishi bir xil, ammo talaffuzi har xil bo‘lgan qisman so‘zlar (omograf) omonim shakllari ham mavjud.

Turk tilshunosligida so‘zlarning o‘zaro omonim bo‘lishi uchun talaffuzi va yozilishi bir xil, ma’nosi turlicha bo‘lishi yetarli hisoblanadi: *akrep (chayon)- akrep (soatning kichik mili)|; çay (choy)- çay (soy); dahi (hatto) - dahi (dohiy);ağız(og‘iz)- ağız(sheva)- ağız(og‘iz suti).* Omonimlarning turli so‘z turkumiga tegishli bo‘lishini yoqlovchi tilshunoslar ularni ikki turga ajratishadi: leksik omonimlar va grammatik omonimlar. Leksik omonimlar – so‘z omonimlar *(*kelime şeklinde olan sesteşler*); öğ (anne - ona), öğ (akıl - aql); balık (şehir - shahar), balık (balık – baliq);* Grammatik omonimlar – qo‘shimcha qo‘shilgach, omonimga aylangan so‘zlar (eş sesli gramer şekilleri*):altıncı(oltinchi-raqam)-altıncı(tillachi);bunsuz(busiz)-bunsuz(muammosiz).* Turk tilida ham qo‘himchalarda omonimiya hodisasi uchraydi. Omonim qo‘shimchalar, bir xil shakldagi qo‘shimchalar bo‘lib, ular bir necha so‘z turkumi doirasida ishlatiladi va turli vazifalarni bajaradi. Omonimlik iboralar orasida ham mavjud. Ular frazeologik omonimlar deyiladi: *el kaldırmak – a) qo‘l ko‘tarmoq; b) urmoq; göz yummak – a) ko‘rib ko‘rmaslikka olmoq; b) dunyodan o‘tmoq*. Turk tilshunosligida leksik omonimlar bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar olib borilgan. Dogan Aksan, Gunay Karaagach, Suzan Tokatli, Dogan Gunay, Mehmet Aygin, Pasha Yavuzarslan kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq etilagan. Turk olimlari ikki qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tillar bilan omonimlar (eşsesliler) qiyosi deyilgani holda tillararo omonimiya (межязыковая омонимия)ni tushunadilar. Tillararo omonimiya yoki “soxta ekvivalentlar”, “aldoqchi so‘zlar” (rus tilshunosligida “ложные друзья переводчика”, “псевдо-друзья переводчика”, “ложные эквиваленты”) kabi nomlar bilan ataluvchi til birliklari tadqiqiga [V.S.Yelok, F.O‘zkan, E.Gul, A.Merhan, F.Ersoy, S.Haci, O‘.O‘ztekten, A.Merhan] e’tibor qaratiladi. Ta’kidlash joizki, omonimlar muayyan til doirasida o‘rganiladi va aynan muayyan til doirasidagi omonimlar qiyoslanadi.

O‘zbek tilidagi omonimllarning semantik usulda shakllanishi tarixiy davrlar mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Turk tilida esa semantik usulda omonimalarning

shakllanishi sinxron xarakterga ega. Turk tilida so‘z yasalishi omonimlarni yuzaga keltirishning faol usullaridan biri. Omonim so‘zlardan ham so‘z yasash natijasida omonim shakllanishi kuzatildi. O‘zbek tilida ot-fe’l omonimligi ko‘pligi darajasiga ko‘ra birinchi o‘rinda turadi *(tut I –daraxt, tut II –harakat*).Ot-sifat omonimligi (*chanqoq I “tashnalik” – chanqoq III “tashna*”) yoki fe’l-sifat omonimligi (*yot II – harakat, yot III – “begona*”) keyingi o‘rinda turadi. Ot-ravish omonimligi uchramaydi. Sifat-ravish-fe’l omonimligi kam uchraydi: *tik II harakat, tik III “qiya*”, *tik IV “to‘ppa-to‘g‘ri*”. Turk tilida İsmlar (fe’l va yordamchi so‘z turkumlaridan tashqari) omonimligi yuqorı darajada. Ot-fe’l omonimligi kam uchraydi. Toponimlar ham omonimik qatordan joy olgan.

Umuman, omonimiyaning voqe bo‘lishi tilning o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi: Har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma’no jihatida ham uzluksiz o‘zgarishlar bo‘lib turishi bilan omonimiyaning paydo bo‘lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim[4]. Sh. Rahmatullaev omonimlarni qabul qilishdagi murakkablikni tildagi ortiqchalik sifatida baholamaydi, aksincha, zaruriy hodisa sifatida e'tirof etadi. Bugun dunyo tilshunosligida omonimiya hodisasiga bo‘lgan yangicha nuqtayi nazar bu hodisaning til sohibi tafakkurini o‘lchash mezoni sifatida baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Milliy korpusi mavjud bo‘lmagan tillarning lingvistik dasturlarida omonimlarni tahlil qilish texnologiyasi. // So‘z san’ati. Xalqaro jurnal. – Samarqand, 1/2020. – B. 117-128. ISSN 2181-9297 DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297

2. Abjalova M. Omonimiya va lingvistik tizimlarda omonimlarni farqlash usullari. // “Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences (ORIENS). Vol.1, Issue 10. SJIF 2021-5.423. – pp. 1016-1021. www.oriens.uz ISSN 2181-1784.

3. Abjalova M. Lingvistik dasturlar uchun omonimlarni tahlil qilish texnologiyasi // “Tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy 1-onlayn konferensiya. – Andijon, 2020. – B. 666-668.

4. Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омоним манбалари.-Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти, 2014.-128 б.;

5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.– Toshkent, 2006. –Б.37-44.

[4] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T.: Universitet, 2006.Б. 37-44

6. Қ и л и ч е в Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили.: Бухоро университети нашриёти, 1999.
7. Hamidov X. Turk tili (darslik). – Toshkent. –2020. – 356 b.
8. Аракин В.Д. –Об омонимах в турецком языке.- «Сов. тюркология, Баку, 1978, №2, стр. 48-61
9. Tokatli S. Türkiye türkçesi ile azerbaycan türkçesindeki eşseslikelimeler üzerine/ Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi Sayı: 16 Yıl : 2004/1.-S.141-156;
10. Merhan A. Türkçe ve Özbekçe Eşsesli Sözcük Karşılaştırması. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, sayı: 47, 2012. – S.
11. Vardar B. Dilbilim ve dilbilgisi terimleri sözlüğu Dilbilim ve dilbilgisi terimleri sözlüğu. TDK. 1980.- 232 s.
12. Doğan E. Dilimizde Sestes Kelimeler. Asmaalti Yayinevi. 2021.

PIRIMQUL QODIROVNING “ERK’’ QISSASIDA QO‘LLANGAN AYRIM “KO‘Z’’ KOMPONENTLI IBORALARNING SEMANTIK TAHLILI

Marjona Orifova,
SamDU filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: dots. U.Rashidova
https://doi.org/10.5281/zenodo.11109997

Annotatsiya. Ushbu maqola frazeologiya sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, P.Qodirovning “Erk” qissasida qo‘llangan “ko‘z” komponentli iboralar o‘rtasidagi omonimlik, antonimlik va sinonimlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *somatik frazeologizmlar, “ko‘z” komponentli iboralar, semantik munosabatlar, “ko‘z’’ komponentli sinonim iboralar, “ko‘z’’ komponentli omonim iboralar.*

Аннотация. Данная статья посвящена области фразеологии с анализом омонимичности, антонимичности и синонимичности фразеологизмы с компонентом “глаз” в повесте П.Кадырова “Эрк’’.

Ключевые слова: *соматические фразеологизмы, выражения с компонентом “глаз”, смысловые связи, синонимические словосочетания с компонентом “глаз”, омонимические словосочетания с компонентом “глаз”.*

Annotation. This article is devoted to the field of phraseology and analyzes the properties of homogeneity, antonyms and synonymy of “eye” component phrases in P.Kadyrov's “Erk”.

Key words: *somatic phraseologisms, phrases with the “eye’’ component, semantic relations, synonymous phrases with the “eye’’component, homonymous phrases with the “eye ’’component.*

Mashhur o‘zbek yozuvchisi P.Qodirovning “Erk” qissasida 30dan ziyod “ko‘z” komponentli somatik frazeologizmlar mavjud. Mazkur frazeologik birliklar (FB) orasida bir ma’noli iboralar 21 ta, ko‘p ma’noli iboralar 6 ta va omonim iboralar 3 tani tashkil qilganining guvohi bo‘ldik .

Ibora tilimizning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birlikdir. Ibora biror tushuncha yoki gapning bir yoki bir nechta so‘zlarning birikishi orqali ifodalanishidir. Masalan, *ko‘z tegmoq* iborasi *ko‘zikmoq* ma’nosida, *ko‘z tashlamoq* iborasi *qisqa muddat qaramoq, nazar tashlamoq* ma’nosida , *ko’zi tushmoq* iborasi *bexosdan, kutilmaganda ko‘rmoq* ma’nolarini bildiradi. Tilshunoslikda bunday

birliklarga nisbatan *frazeologizmlar* atamasi qo‘llanadi va ularni o‘rganuvchi soha *frazeologiya* deb nomlanadi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘tgan asrning birinch yarmidan boshlab struktur, semantik, grammatik, uslubiy, funksional kabi aspektlari atroflicha keng o‘rganildi.

FBning semantik tuzilishi (ma’no imkoniyatlari) frazeologik ma’no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo‘shimcha ma’no bo‘yoqdorligidan iborat bo‘ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma’lumot *frazeologik ma’no* deyiladi. Frazeologik ma’no obrazliligi bilan leksik ma’nodan farq qiladi. Shuningdek, tilshunoslikda odam a’zolari bilan bog’liq bo’lgan iboralar ham mavjud. Masalan, *ko‘z qorachig‘iday, ko‘zi-ko‘ziga tushmoq, ko‘z tikmoq, ko‘zini yog‘ini yemoq, boshiga chiqmoq* kabi bir qancha iboralarni uchratishimiz mumkin. Bunday iboralar **somatizmlar** yoki **somatik frazeologizmlar** deb ataladi. Bunday frazeologizmlar nafaqat bir tilda balki boshqa tillarga ham qiyoslab o‘rganish mumkin. Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar haqida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, somatik frazeologizmlarni haqida ilk marta tadqiq qilgan olimlardan biri F.Vakk sanaladi. U butun somatik frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi:

-faqat odamlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;

-odam va hayvonlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;

-faqat hayvonlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Sh.Rahmatullayev, A.Isayev, Sh.Usmonova, U.Rashidova kabi olimlar tomonidan somatic komponentli iboralar maxsus o‘rganilgan.[5]

Odam ta’na a’zolaridan, ayniqsa, ko‘z ishtirokidagi iboralar lug‘atlarda salmoqli o’rin egallaydi . “O‘zbek tilining izohli lug‘ati’’da *ko‘z* qatnashgan 80 dan ortiq ibora qayd etilgan [O‘TIL,1,410 -411]. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati’’da 158 ta shunday ibora mavjudligi qayd etilgan. [O‘TIFL, 132-151].

A.Isayev “O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar’’ nomli tadqiqotida “ko‘z’’ komponentli iboralarning tilimizda 127 taligini qayd etadi. Tilimizda ko‘z leksemasidan bir qator iboralar shakllangan. Masalan, *ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan* iborasi butunlay noma’lum narsa haqida gapirilganda ishlatiladi. Bunda *ko‘z* sinekdoxa usulidagi ma’no ko‘chishi asosida nafaqat «muayyan shaxs», balki «insoniyat» ma’nosini ifodalaydi. *Ko‘z oldi, ko‘z o‘ngi* ko‘z ko‘rib turgan, ko‘rinib

[5] Rashidova U. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. -Samarqand, 2018. –B.18.

turgan, maydon, fazoni anglatadi. *Ko‘z tikmoq* «intiqlik bilan kutmoq», «umid bilan qaramoq», ko‘z uzmaslik *«tikilib qaramoq», «diqqatni bir nuqtaga jamlamoq», ko‘z tutmoq «intiqlik bilan kutmoq»* ma’nolarini bildiradi. Ko‘z urishtirmoq *«ma’noli qaramoq, biror rejani amalga oshirishni maqsad qilmoq», ko‘z yugurtirmoq «e’tiborsiz holda, shunchaki qaramoq»* tushunchasini anglatadi.

Ma’lumki, sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo‘lib, iboralar orasida ham uchraydi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma’noni anglatishi zarur. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Bir tushuncha yo tasavvur yoki nisbiy tugal fikr bir frazeologik ibora bilan ifodalanganidek, bir necha frazeologik ibora bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday ekvivalent iboralar *frazeologik sinonimlar* deb yuritiladi. Bunday iboralar tilimizda keng tarqalgan. “O‘zbek tilidagi sinonimlarning o‘quv lug‘ati” da leksemalar sininimiyasidan tashqari, FBlar o‘rtasidagi sinonimiyaga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, lug‘atda 300dan ziyod frazeologik sinonimlar keltirigan.

Masalan, ikki komponentli *“ko’z qorachig‘i”* iborasi “*ko‘zining oq-u qorasi*” iborasi bilan o‘zaro ma’nodosh [O‘TIFL, 256]. P.Qodirovning “Erk’’ qissasida “ko‘z qorachig‘i’’ iborasi –day qo‘shimchasini olib o‘xshatish vazifasini bajarishga xizmat qilgan: *-Agar ixtiyoringiz mening qo‘limda bo‘lsa, men uni ko‘z qorachig‘imday asrayman. Faqat ….Qani edi …. (28-b)*

Uch komponentli *“ko‘z oldiga keltirmoq”* iborasi *tasavvurida gavdalanmoq* ma’nosini ifodalaydi [O‘TIFL, 254]. Biz tadqiq etayotgan “Erk” qissasida quyidagicha qo‘llanilganini guvohi bo‘lamiz: *Bularning biri Sattor edi . U har ikkala usuldagi metro qurilishini ko‘z oldiga keltirdi* (52-b).

Shuningdek, ko‘z komponentli somatik iboralar o‘rtasida omonimlik hodisasi ham kuzatiladi va matnda o‘ziga xos sintagmatik xususiyatlarni namoyon qiladi. Masalan, omonim iboralarning ko‘pchiligi ikki ma’noni anglatadi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati’’da *“ko‘z(i)ga ko‘rinmaslik’’* iborasi omonim sifatida izohlangan. KO‘Z(I)GA KO‘RINMASLIK I. Ro‘para bo‘lmaslik, duch kelmaslikka harakat qilmoq. II.Tatimaslik, e’tiborini tortmaslik [O‘TIFL, 266-b]. P.Qodirov “Erk’’ qissasida iboraning tatimaslik, e’tiborini tortmaslik ma’nosidan foydalangan: - *Tegma menga!-deb etagini bolaning qo‘lidan chiqarib oldi. Uning ko‘ziga hozir bola ham ko‘rinmas edi* (105-b).

Omonim, ya’ni shakldosh iboralar matn ichida turli xil ma’nolarda qo‘llanilishi kuzatiladi. Bunday somatik iboralarni nutqimizda qo‘llash nutqimizning ifoda ko‘lamini, ta’sirchanligini oshirishga yordam beradi.Masalan, *ko‘zi ochiq iborasi*

omonim ibora hisoblanib, *barhayot, tirik va yaxshini yomondan foydani zarardan farqlashga qobiliyatli* ma’nosini anglatadi. P.Qodirov “Erk’’ qissasida iboraning *barhayot, tirik* ma’nolaridan foydalanilgan: *Ammo kasalmand otasi: ko‘zim ochig‘ida seni uylantirmasam bo‘lmaydi deb turib olgan* (P.Qodirov, Erk, 72-b).

“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “ko‘z’’ komponentli somatik frazeologizmlar orasida zid ma’noli ya’ni antonim frazelogizmlarni ham uchratish ham mumkin. Masalan: *ko‘zi och - ko‘zi to‘q; ko‘ziga issiq ko‘rinmoq - ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq; ko‘z yummoq - dunyoga kelmoq* kabi iboralar o‘zaro zid ma’noli iboralar hisoblanadi. Bunday iboralarni matn tarkibida qo‘llashimiz nutqimizning ta’sirchanligini oshirishga, uni tinglovchi shaxsga tezda ta’sir qilishga yordam beradi. Ammo biz tadqiq etgan qissada “ko‘z” komponentli somatik frazeogizmlar orasida zid ma’noli iboralarni uchratmadik.

Sh.Rahmatullayev lug‘atida ko‘p ma’noli ibora sifatida qayd etilgan *ko‘zi qamashmoq* iborasiga quyidagicha ta’rif berilgan: *1. Nur aks etib, ko‘zi hech narsani ko‘rmadi. 2. Go‘zalligiga, ko‘pligiga mahliyo bo‘lmoq* [O‘TIFL, 261-b]. Biz tadqiq etgan qissada mazkur ibora umuman boshqa ma’noda qo‘llanganining guvohi bo‘ldik: *-Men ko‘rmay qolibman! Sattor Fayzulla Beknazarovga uzr so‘raganday qilib qaradi. -Ha, ko‘zing qamashib ketganga o‘xshaydi, - dedi yana Nodir* (P.Qodirov, Erk 36-b). Mazkur gapda *ko‘zi qamashmoq* iborasi *“ko‘zini yog‘ bosmoq”, “burni ko‘tarilmoq”* iboralarining ma’nodoshi sifatida *“hech kimni tanimaslik” , “manmanlik qilmoq”* ma’nolarini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, Primqul Qodirovning “Erk’’ qissasida “ko‘z” komponentli iboralarni semantik jihatdan tahlil etganda, ularning har biri matn ichida turli xil ma’no ifodalashini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bunday somatik iboralar tarkibida bir qancha sematik munosabatlar borligini ham ko‘rib o‘tdik. Bunday munosabatlar ular orasida antonimlik, ma’nodoshlik, shakldoshlik asosida yuzaga chiqishini yuqoridagi misollar isbotladi. Keyingi ishlarimizda bularni yanada batafsilroq yoritishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.

2. Abjalova M.A., Rashidova U.M. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Samarqand, 25.03.2023. – B. 50-54.

3. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.

4. Abjalova M. Rashidova U. Lingvistik ta’minotni yaratishda frazeologik birliklar masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar”. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 19-aprel, 2021-yil. – B. 22-26.

5. Qodirov P. Erk. Qissa. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari , 2018.-128 b.

6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -T.:Qomuslar yosh tahririyati. –Toshkent, 1992.

7. Rashidova U. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. Monografiya. -Samarqand, 2023.

8. Rashidova U. O`zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko`z, qo`l va yurak komponentli iboralar misolida): Filol.fan.falsafa d-ri (PhD) diss...avtoref. -Samarqand, 2018. –B.51.

9. Yo‘ldoshev B. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari. -Samarqand, 2002. -B.26.

10. Вакк Ф. О соматической фразеологии эстонкого языка. Вопросы фразеологии и составления фразеологических словарей. / Ф.Вакк. –Баку, 1968.

HALIMA XUDOYBERDIYEVANING “SAYLANMA”SIDA QO‘LLANGAN AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIKASI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Ozoda Abdullayeva,
SamDU 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: dots. U. Rashidova
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110181

Annotatsiya. Mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyevaning “Saylanma”sida qo‘llangan *to‘nini teskari kiymoq, yo‘ldan urmoq, dunyodan o‘tmoq* kabi ayrim iboralarning semantik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: *semantik birlik, frazeologizm, uzual funksiya, okkazional funksiya, omonim ibora.*

Аннотация. В данной статье проведен семантический анализ некоторых выражений, использованных в “Избраннике” Халимы Худойбердиевой, таких как надеть тунику вверх ногами, сбиться с пути, пройти через мир.

Ключевые слова: *смысловая единица, фразеологизм, узуальная функция, окказиональная функция, омонимичная фраза.*

Annotation. This article carried out a semantic analysis of certain phrases, such as wearing the collar in reverse, seducing, passing through the world, used in the “election”of Halima Khudoyberdiyeva.

Keywords: *semantic unit, phraseologism, uzual function, occasional function, homonymous phrase.*

Har qanday chinakam shoir uchun so‘z va frazeologizm (ibora) lar bu fikr aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarzi, yashash shaklidir. Har bir so‘z yoki ibora badiiy asardagi g‘oyaviy-estetik maqsadga ko‘ra muayyan ma’no kasb etadi, zamiridagi mazmun orqali o‘zining yangi-yangi ma’no qirralarini namoyon qiladi. Xususan, shoira Halima Xudoyberdiyevaning ko‘plab g‘oyaviy-badiiy barkamol she’rlarida so‘z yoki frazeologizmlar - bamisoli olov, satrlari cho‘g‘dek lovullab turadi. Bunga shoiraning “Saylanma”siga kiritilgan she’rlarni ko‘zdan kechirish orqali to‘la ishonch hosil qilish mumkin. Shoira “O‘zimizning bog‘lar” nomli she’rida (1967) frazeologizmdan o‘rinli foydalangan:

Yaratguvchim, yana yaratar begumon,
Bizning ko‘hna bog‘lar shunday gullasinki,

Qon rangida qizarsin olmalarimiz.
Rangi qoning qizdirib, quritsin tinkang.

Ma’lumki, tilshunoslikda frazeologiya uzoq yillar leksikologiya tarkibida o‘rganib kelingani uchun so‘zning uslubiy va boshqa jihatdan tavsifi mexanik ravishda frazeologizm, frazeologik birlik (FB) yoki iboralarga ham tadbiq qilindi. FBni so‘zga tenglashtirgandan ko‘ra uning so‘zga funksional, uslubiy va leksik-semantik jihatdan mos kelishi haqida gapirish, ana shu holatni ko‘proq tahlil qilish, til shinavandalari ongiga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, o‘zbek tilida “voz kechmoq” fe’li “egalik yoki foydalanish huquqidan kechmoq” ma’nosini bildiradi [O‘TIL, 179]. Shu fe’lga muvofiq keluvchi “ko‘z yummoq” iborasi “voz kechmoq” [O‘TFL, 258] ma’nosini ifodalaydi. Shu bilan birga “ko‘z yummoq” iborasi omonim ibora hamdir. Jumladan “ko‘ra bila turib e’tiborsiz qoldirmoq” [O‘TIFL, 258] ma’nosini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Halima Xudoyberdiyeva poeziyasida bu ibora xuddi shu ma’noni ifodalashga xizmat qilgan: *Dorilamon kunlarga qayt, onam, yumib ko‘z, O‘ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat* [Saylanma, 20-b].

Adabiy tilda *“biror ishni qila boshlamoq”* degan ma’noni anglatuvchi “qo‘l urmoq” iborasi mavjud [O‘TFL, 432]. Halima Xudoyberdiyeva “Dorilamon kunlar keldi” nomli she’ri (1967) da ana shu umumtil ma’nosini ifodalash uchun bu iboradan foydalangan: *Yashamoq-bir tansiq taom, unga ursang qo‘l, Borgan sari ochiladir ishtahang saning (Saylanma, 21-b).*

Lug‘atlarda *“uzoq fikrlamoq”* ma’nosini ifodalovchi “o‘yga tolmoq” iborasi mavjud [O‘TFL, 607]. Bu shoiraning she’rida quyidagicha tasvirlangan: *Sochlarimga nigoh solmay o‘t, Nigohingdan o‘yga tolgayman (Saylanma, 23-b).*

To‘rt komponentli “to‘nini teskari kiyib olmoq” iborasi lug‘atlarda *“o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq”* ma’nosini anglatishi qayd etilgan. Iste’dodli shoira H. Xudoyberdiyeva “Endi u…” nomli she’rida (1967) bu to‘rt komponentli iborani uch komponent shaklida oqilona tarzda qo‘llaydi: *“Yigit ham yig‘larmi dunyoda”, - To‘nimni teskari kiyardim…*

Ikki komponentli “yo‘ldan urmoq” iborasi lug‘atlarda *“yomon yo‘lga boshlamoq, aynitmoq”* ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirgani qayd etilgan [O‘TFL, 586]. Ushbu frazeologik birlikdan shoiramiz ham “Ko‘ngil, qo‘lin bog‘lab…” nomli she’rida unumli foydalanib, o‘z asarlarining qiymatini yanada oshirgan: *Ko‘ngil, qo‘lin bog‘lab odam aqlini, Band-u band qiladi tag‘in muhabbat. Bir kun yo‘ldan urib sog‘lom aqlini, dardmand qiladi tag‘in muhabbat (Saylanma, 26-b).*

“Dunyodan ketmoq” iborasiga variantdosh hisoblangan “Dunyodan o‘tmoq” iborasi *“dunyodan o‘tmoq, o‘lmoq”* ma’nosini anglatadi [O‘TFL, 143]. Mazkur iboradan Halima Xudoyberdiyeva prozasida foydalanganiga guvoh bo‘lamiz: *Men o‘zim shu dardning hosilasiman, Mayliga, shu dardda dunyodan o‘tay (Saylanma, 26-b).*

Ikki komponentli “so‘z ochmoq” iborasi lug‘atlarda *“gap boshlamoq”* ma’nosini ifodalaydi [O‘TFL, 471] va suyukli shoiramiz she’rlaridan birida ushbu iborani qo‘llagan: *Ajdodim hayot deb, ishq deb ochgan so‘z, Avlodim ham undan o‘ylarga cho‘msin (Saylanma, 26-b).*

“Ko‘z ochmoq” iborasi lug‘atlarda *“hushyorlanmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan bo‘lmoq”* ma’nolarini anglatadi (O‘TFL, 260), hamda “ko‘z yummoq” iborasi adabiy tilda omonimlik xususiyatiga ega. Uning dastlabki ma’nosi *“ko‘ra-bila turib e’tiborsiz qoldirmoq”* bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi *“ko‘zini yummoq”*, uchinchi ma’nosi *“voz kechmoq”* va to‘rtinchisi *“o‘lmoq”* ma’nolarini o‘zida mujassamlashtiradi (O‘TFL, 256). Halima Xudoyberdiyeva poeziyasida birinchi ibora xuddi shu ma’noni, ikkinchi omonim ibora esa “o‘lmoq” ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi: *Shu dard oqibati men ochganman ko‘z, So‘ng dam tag‘in shu dard ko‘zimni yumsin (Saylanma, 26-b).*

Iste’dodli shoira H. Xudoyberdiyeva biz yuqorida tahlil qilgan “yo‘ldan urmoq”, “dunyodan o‘tmoq”, “so‘z ochmoq”, “ko‘z ochmoq”,”ko‘z yummoq” kabi iboralarni birgina “Ko‘ngil, qo‘lin bog‘lab…” nomli she’rida marjon donalaridek tizgani uning mahoratidan darak beradi.

Adabiy tilda *“e’tirof qilishga majbur bo‘lmoq, rozi bo‘lmoq”* ma’nolarini ixcham tarzda ifodalash uchun “tan bermoq” iborasi xizmat qiladi (O‘TFL, 475). Shoira ijodida ham bu ibora nutqni ixchamlashtirish hamda mazmunni kuchaytirish funksiyasini bajarishga bo‘ysundirilgan: *Hayot takror uchrashtirarkan, Kimni “sen”lab, kimni “siz”laydi. Yo‘q, ularga bermaydi u tan - U bir dardkash qalbni izlaydi (Saylanma, 27-b).*

O‘zbek tilida fors-tojikcha “pand” so‘zi *“maslahat, o‘git, nasihat”* ma’nolarini bildiradi (O‘TIL, 212). Bu so‘z yordamida tilimizda “pand bermoq” iborasi shakllangan bo‘lib, u polisemantik xususiyatga ega. Uning dastlabki ma’nosi *“kamchiliklarini aytib, nasihat qilmoq”* bo‘lsa, keyingisi *“aldab, zarar yetkazmoq”* ma’nosini anglatadi (O‘TFL, 383). Halima Xudoyberdiyeva ijodida bu ibora *“kamchiliklarini aytib, nasihat qilmoq”* ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Ovuntirar bizlarni tushlar, Oh, u tushlar goh beradir pand (Saylanma, 28-b).*

Iboralarning ayrimlari ma’noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan, *“diqqat-e’tiborga noloyiq deb topmoq”* ma’nosini ixcham tarzda “qo‘l siltamoq” iborasi orqali ifodalanadi (O‘TFL, 431). Bunday holatni bizning shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ham kuzatish mumkin: *Goh kulib, goh qo‘l siltab, kuyib O‘tkazarmiz buning barini (Saylanma, 28-b).*

Ikki komponentli “duch kelmoq” iborasi lug‘atlarda *“kutilmaganda yo‘liqmoq, bexosdan uchramoq”* ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan (O‘TFL, 145). Ushbu ibora H. Xudoyberdiyeva she’riyatida aynan shu ma’noni anglatish uchun qo‘llangan: *Sho‘xchan shamol turganday poylab – Ostonada kelar menga duch (Saylanma, 29-b).*

Shunday qilib, badiiy matnda iboralarning ma’lum qismi denotativ asosga ega bo‘lib, u yoki bu predmet, voqea-hodisani, xatti-harakatni nomlaydi, so‘z-atama sifatida funksiya bajaradi. Shoira faqat umumtil frazeologizmlarini qo‘llash bilan qanoatlanib qolmay, balki bunday iboralarga kontekstual o‘zgarishlar kiritmoqda, ularning qo‘llanish doiralarini kengaytirmoqda, shoiraning o‘zi ham yangi frazeologizmlar yaratib, o‘zbek adabiy tilining frazeologik boyligiga o‘ziga xos ulush qo‘shib kekmoqda. Keyingi izlanishlarimizda shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi frazeologik birliklarni yanada kengroq o‘rganishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.

2. Abjalova M.A., Rashidova U.M. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Samarqand, 25.03.2023. – B. 50-54.

3. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.

4. Abjalova M. Rashidova U. Lingvistik ta’minotni yaratishda frazeologik birliklar masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar”. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 19-aprel, 2021-yil. – B. 22-26.

5. O‘zbek tilining frazeologik lug‘at.–Toshkent, 2022.

6. Halima Xudoyberdiyeva. Saylanma – Toshkent, 2000.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –Toshkent, 1978.
8. Berdiyorov H, Rasulov R, Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. –Samarqand, 1978.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V tom. –Toshkent, 2006. 89-bet.

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI *KO‘NGIL* KOMPONENTLI FRAZEMALAR TAHLILI

Musurmankulova Shaxribon Gulmurodovna
shmusurmankulova83@gmail.com
Guliston davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi
kafedrasi tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110200

Annotatsiya. maqolada erkin va turg‘un bog‘lanmalar, ularning shakli va mazmunidagi farqli va o‘xshash jihatlar, nutq va til, keng va tor ma’nodagi iboralar, frazemalardagi mavzu rang-barangligi, har bir millatning milliy mentalitetidan kelib chiqadigan iboralar mazmuni va aynan o‘zbek va turk tillaridagi ko‘ngil tarkibli frazemalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *erkin bog‘lanma, turg‘un bog‘lanma, grammatik bog‘lanish, maqol, matal, frazema, ko‘ngil, gönul.*

Abstract: free and fixed conjunctions in the article, differences and similarities in their form and content, speech and language, broad and narrow expressions, the variety of topics in phrases, the content of expressions arising from the national mentality of each nation and specifically information about phrases with mental content in Uzbek and Turkish languages.

Key words: *free association, fixed association, grammatical association, proverb, matal, phrase, mood, gönul.*

Kirish

Biz fikrimizni o‘zgalarga yetkazishda nutqdan foydalanamiz. Nutq qanchalik jozibador va go‘zal bo‘lsa, uning ta’sir doirasi ham shunchalik kuchli bo‘ladi. “Til-shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa, tilning ofatidir”, deb yozgan edilar o‘zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy [Navoiy A. 1983:72]. Jozibador nutqimizning asoslaridan biri esa, bu, shubhasiz, iboralardir [Abjalova, 2021]. Har bir so‘zni, jumlani, gapni o‘rnida va to‘g‘ri qo‘llay olish bu – san’at. Ayniqsa, ular turg‘un birikmalar bo‘lsa. Nutq jarayonimizda erkin birikmalarni oson tuzishimiz mumkin va istasak ularning o‘rnini almashtira olamiz, ammo turg‘un birikmalarni, ya’ni frazemalarni qo‘llash jarayonida nihoyatda e’tiborli va diqqatli bo‘lishimiz talab etiladi. Chunki, biz aytmoqchi bo‘lgan fikrimizni yoritib, oydinlashtirib bera oladigan birikmani to‘g‘ri tanlay olishimiz zarur. “Nutqimizda bir negizni ikkinchi bir negizga grammatik bog‘lash turli

vositalar yordamida amalga oshiriladi. Natijada bog‘lanma yuzaga keladi. Bog‘lanma o‘z tabiatiga ko‘ra birikmaga yoki gapga teng bo‘ladi. Nutq jarayonining o‘zida hosil qilinadigan bog‘lanma erkin bog‘lanma deb yuritiladi.

Ibora ham o‘zaro grammatik bog‘langan bittadan ortiq o‘zak negizdan tarkib topgan bo‘ladi. Tuzilishi jihatidan birikmaga yoki gapga teng keladi. Erkin bog‘lanmalardan bir farqi shuki, u nutq jarayonining o‘zida tuzilmaydi, balki ungacha yaxlit holga kelgan bo‘ladi. Nutqqa yaxlit holda kiritilib, nutqdan tashqarida ham o‘z yaxlitligini yo‘qotmasligi sababli ibora turg‘un bog‘lanma deb yuritiladi” [Rahmatullayev, 1970:9].

Tilshunoslikda frazemalarni keng va tor ma’noda tushunish va talqin qilish mavjud. Ya’ni, ayrim tilshunos olimlar, masalan, akademik S.K.Kenesbayev frazeologiya obyektini keng ma’noda tushunsa, boshqird tilshunosi Z.G.Uraksin frazeologiyani tor ma’noda tushunish g‘oyasini ilgari suradi.

Tilshunos olim Sh.U.Rahmatullayev ham frazeologiyani tor ma’noda talqin qilishni ma’qul ko‘radi. Y.D.Pinxasov esa, frazeologik doirani keng tushunish tarafdori hisoblanadi.

Sh.Rahmatullayev iboralarni keng va tor ma’noda tushunish va ular tarkibiga kirgan birikmalar haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar: “Iboraga o‘xshab ketadigan, shu sababli iboralar bilan bir qatorga qo‘yib, frazeologik doiraga kiritib ko‘riladigan ba’zi boshqa hodisalar ham bor. Bular – maqol, aforizm, qanotli so‘zlar.

Umuman, frazeologiyaning o‘rganish obyektini keng tushunish va tor tushunish mavjud. Frazeologiyaning o‘rganish obyektini keng tushunuvchilar bu sohada, iboralardan tashqari, maqol, aforizm, qanotli so‘zlar ham o‘rganilishi kerak deydilar; frazeologiyaning o‘rganish obyektini tor tushunuvchilar esa, iboralarning o‘zigina o‘rganilishi lozim deydilar” [Rahmatullayev, 1970:30].

Tadqiqot metodlari

Tavsiflash, qiyoslash usullari, komponent va kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ma’lumotlar tahlili

O‘zbek tilshunosligida bo‘lgani kabi turk tilshunosligida ham frazemalar tadqiqiga oid bir qancha ishlar amalga oshirilgan va o‘zbek tili singari turk tili ham frazemalarga boy til hisoblanadi. Bu ikki til bir til oilasiga mansubligiga qaramay mushtarak jihatlari bilan birga, farqli tomonlari ham talaygina.

O‘zbek va turk tillaridagi frazemalarni qiyoslar ekanmiz, shakl jihatdan farqli, ammo mazmuni bir butun, aksincha, mazmuni boshqa, ammo shakli bir bo‘lgan iboralarni uchratamiz. Shunday iboralar ham borki, ular faqat o‘sha xalq tilidagina

qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “**Asakasi ketmaydi”**, “**Bir burda bo‘lib qolmoq”, “B**aqiroq tuyaning bori yaxshi”, “Pushti ko‘tarmaslik”, “Tutantiriq ham bo‘lmaydi” iboralari, turk tilidagi “Ayasofya’da dilenip Sultanahmet’te sadaka (zekât) vermek”, “Bir fincan kahvenin kirk yil hatiri vardir”, “Çarşamba karısı”, “Çöpsüz üzüm”, “Eski toprak”, “Karadeniz’de gemilerin mi battı” kabi frazemalar faqat o‘sha xalq vakillari tomonidan ishlatiladigan frazemalar hisoblanadi.

O‘zbek-turk frazemalarining parallel korpusi lingvistik tadqiqotlar uchun ma’lumotlar bazasi sifatida xizmat qiladi. Frazemalarning semantik xususiyatlarini qiyosiy planda yoritish, struktur-grammatik jihatlarini tahlil qilish, hozirgi tilga munosabatini belgilash o‘zbek va turk tillarining kommunikativ funksiyasi bilan bir qatorda emotsional-ekspressiv, to‘plash vazifalarini yoritishda ahamiyatlidir. Frazemalar semantik strukturasida tarixiy so‘zshakllarining saqlanib qolishi bilan xarakterlidir. Shu bilan bir qatorda xalqning olam manzarasini aks ettirishi, barqaror birikmalarda namoyon qilish tajribasining ifodasi sifatida ham qiymatga egadir.

O‘zbek-turk frazemalari parallel korpusini shakllantirishda har ikki tilning barcha davriga xos “ko‘ngil” komponentli tarixiy frazemalarini jamlash muhimdir. Frazemalar semantikasini davriy o‘zgarishlar kesimida tahlil qilish til egalarining olamni idrok etish qobiliyatining davrlar osha o‘zgarishlarga uchrashini ham aks ettiradi.

Biz maqolamizda har ikki tilda salmoqli miqdorda uchraydigan “ko‘ngil-gönül” komponentli iboralarga murojaat qilamiz. O‘zbek va turk iboralar lug‘atining tarkibida ko‘ngil so‘zi bilan bog‘liq iboralar ham anchagina. Maqolamizda Sh.Rahmatullayevning 1992-yilda chop etilgan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” [Rahmatullayev, 1992:149-164] hamda Ö.Aksoyning 1984-yilda chop etilgan Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü II. Deyimler Sözlüğü [Aksoy Ö. 1984:279-283]da keltirilgan iboralarni misollar yordamida tahlil qilamiz.

Natijalar

Ko‘ngil insondagi juda nozik, shu bilan birga o‘ta mustahkam, osonlikcha sinmaydigan, sinsa butlab bo‘lmaydigan bir narsaki, bu jihatlar iboralarda ham o‘z aksini topgan. Quyidagi frazemalarda har ikki tilda ko‘ngil so‘zi bilan bog‘liq insonning ichki his-tuyg‘ulari, kechinmalari, mehr-shafqat, sevgi va muhabbat, tushkunlik va nafrat, shodlik va quvonch kabi holatlari aks ettirilgan.

Ko‘ngl(i) bor. Antonimi: ko‘ngl(i) yo‘q/ Kimning 1. nimaga moyil, xayrixoh. 2. kimga sevishga moyil/ *Muhammad Aminxo‘janing ham ko‘ngli borligini payqab, shunga o‘zlari bosh qo‘shsalar deb keldim-da.* S.Abdulla. Muqimiy.

Gönlü olmak/ Razı olmak/ *Mahir kıpkırmızı oldu. Leman’ın onda gönlü*

olduğunu söylüyordu Reşat Bey. Veda, 381.

Ko‘ngl(i) bo‘sh. Varianti: ko‘ngl(i)ning bo‘sh ekanligi Sinonimi: ko‘ngl(i) yumshoq; yumshoq ko‘ngil. Antonimi: ko‘ngli qattiq-qattiq ko‘ngil; yosh yurak-yuragi tosh/ Kimning ko‘ngilchan, rahmdil./ *Jaxldan tushganingizdan keyin, yana yumshab qolasiz, rais, ko‘nglingiz bo‘sh.*

Yufka yürekli (yüreği yufka)/ Acıklı durumlara hiç dayanamayıp hemen ve çok acıyan/ *Ölmekten değil, takımından birinin vurulup ölmesinden ödü kopuyordu. Pek yufka yürekliydi.* Şu Çılgın Türkler, 222.

Ko‘ngil bog‘lamoq. Sinonimi: muhabbat qo‘ymoq; ko‘ngil qo‘ymoq/ [Kim] kimga sevish hissiga erk bermoq/ *Chunki u menga ko‘ngil bog‘lagan, o‘z ko‘nglida men bilan turmush qurishni muqarrar qilgan.*

Gönül bağlamak/ Gönül vermek/ İçten sevmek, bütün sevgisini vermek./ Sevgi ile bağlanmak/ *“Onursuz insanın aşkı da oyunsuz olmaz. Kime gönül verdiğine dikkat etmeli insan.”* Yaralasalar, 362.

Ko‘ngl(i) joyiga tushdi. Varianti: ko‘ngl(i) o‘rniga tushdi; ko‘ngil joyiga tushdi; ko‘ngl(i)ni joyiga tushirmoq nima kimning. Antonimi: yurag(i)ga g‘ulg‘ula tushdi kimning/ [kimning] xotirjam bo‘lmoq, tinchlanmoq/ *Keksa cho‘pon o‘z so‘zi bekor ketmaganini ko‘rib, ko‘ngli o‘rniga tushdi, shekilli, suhbatga yana qaytdi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

İçi rahat etmek/ Kaygılanacak bir konu bulunmadığını öğrenerek ferahlamak/ *Kızılay Hastanesi Başhekimi Dr. Şemsettin Bey'in ve cephe karargâhından bir subayın hanımları beklediğini görünce, içi rahat etti.* Şu Çılgın Türkler, 77.

Ko‘ngil ochmoq. Sinonimi: vaqti chog‘lik qilmoq; kayfi chog‘lik qilmoq/ [Kim] kim yoki nima bilan xursandchilik qilmoq, dilxushlik qilmoq/ *Qizlar zvenosi, oqshom Dilshodning uyida o‘yin-kulgi bilan ko‘ngil ochishdi.*

Gönül açmak/ Neşelendirici şeylerle sıkıntıyı gidermek, krş. “iç açmak”/ *Müjgân, dedi, bugüne kadar dünyada yalnız sana kalbimi açabildim. Senden daha yakın kimsem yok.* Çalıkuşu, 194.

Ko‘ngl(i)ni olmoq / kim kimning xursand qilish bilan o‘ziga xayrixoh qilmoq. /*Pul bilan, bir parcha latta bilan ko‘nglimni olmoqchi, ko‘rgan kunlarimni unuttirmoqchi bo‘lding.* S.Ahmad, Begona.

Gönül almak (hatir almak)/ Gücenmiş olsun, olmasın bir kimseyi, uygun bir davranışla, bir armağanla hoşnut etmek, sevindirmek/ *Hafif bir ısrar ve gönül almayla dosyalardan kurtuldum ama daha büyük bir sorunum vardı.* Çemberin Altında, 98.

Ko‘ngl(i) sindi – Ko‘ngl(i)ni sindirmoq. Variantı: singan ko‘ngli/ Kim

[kimning] zarba yeb, ma’naviy shikast topmoq/ *G‘ulomjonning ko‘ngli sindi, yo‘q, ko‘ngli emas, umr orzusining niholi sindi.*

Kalbını (gönlünü, hatırını) kırmak/ Birini küstürecek, kendisinden soğutacak kadar çok gücendirmek, üzmek/ *Müjgân'ın çocukla meşgul olduğunu, teyzelerinin her günkü gibi konuştuğunu, güldüğünü gördükçe mahzun oluyor, kendine bu kadar az ehemmiyet vermeleri kalbini kırıyordu.* Çalıkuşu, 199.

Ko‘ngl(i)dan chiqarmoq. Varianti: ko‘ngildan chiqarmoq kim nimani yoki kimni; yurag(i)dan chiqarmoq kim nimani; ko‘ngl(i)dan chiqmoq kim kimning; yurag(i)dan chiqmoq nima kimning/ kim nimani yoki kimni 1 [o‘zining] butkul unutib yubormoq, o‘ylamay, eslamay qo‘ymoq. 2. kimning ko‘nglidagi g‘uborni tarqatmoq / *Zuhurjon allaqanday xayollarga olib borgan bu dili xiralikni butunlay ko‘nglidan chiqarib yubormagan ham ediki, yoniga ikkinchisi qo‘shildi.* R.Fayziy. Yodgor.

Gönülden çıkarmak (çıkarmamak) (birini)/ Artık sevmez, anmaz olmak (olmamak), sevgisini sürdürmemek (sürdürmek). krş. “Hatırdan çıkarmamak”/ *Böyle olduğu halde ben, senin nişanlın olmak hissini bir türlü gönlümden çıkaramamıştım.* Çalıkuşu, 163.

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da yuzdan ortiq, Ö.Aksoynıng “Deyimler sözluğuda” ellikka yaqin “ko‘ngil-gönul” komponenti ishtirok etgan frazemalar keltirilgan.

Xulosa

Keltirgan misollarimizdan guvohi bo‘lyapmizki, shakli ham mazmuni ham bir xil iboralar bilan birga (Ko‘ngil bog‘lamoq-Gönül bağlamak), shakli farqli, ammo anglatayotgan mazmuni bir butunlikni ifodalaydigan (Ko‘ngl(i) bo‘sh-Yufka yürekli) iboralarni ham uchratamiz. Parallel frazemalar ustida ishlaganda, bir tildagi frazema ikkinchi bir tilda aynan keltirilmasligi mumkinligining guvohi bo‘lamiz. Tarjimashunoslik shu jihati bilan ham murakkab sohaki, boshqa tildagi jumlani, fikrni, kechinmani, o‘sha holat, o‘sha kechinma, o‘sha ruhiyat bilan bera olish zarurdir.

Har ikki tilda soma komponentli frazemalar ko‘p miqdorni tashkil etadi. Ba’zi tushunchalar bevosita tana a’zosini ifodalamasa ham, inson tasavvurida tana qismi sifatida tasavvur qilinadi: *nafas, jon, ko‘ngil.* Shu bois ko‘ngil komponentli frazemalarni soma komponentli frazemalar tarkibiga kiritdik.

O‘zbek va turk tillaridagi somatik frazemalar til egalarining dunyoqarashi, ijtimoiy hayot tarzi, yashash sharoiti va urf-odatlari haqida tasavvur hosil qilishda, o‘sha muhit va shaxs ichki kechinmalarini anglashda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aksoy Ö.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 2. Deyimler Sözlüğü. – Ankara: Türk dil kurumu, 1984. –575 s.

2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 1983. – 112 б.

3. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. –Тошкент: Фан, 1970 й. –56 б.

4. Раҳматуллаев Ш. “Ўзбек тилининг фразеологик луғати”. –Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1992 й. –380 б.

5. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.

6. Abjalova M. Rashidova U. Lingvistik ta’minotni yaratishda frazeologik birliklar masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar”. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 19-aprel, 2021-yil. – B. 22-26.

IKKILAMCHI NOMINATSIYA LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Valiyeva Muhayyo Salimovna
salimovna71@gmail.com
Qo‘qon DPI Boshlangich ta’lim nazariyasi
kafedrasi o‘qituvchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110215

Annotatsia. Maqolada ikkilamchi nominatsiya, uning turlari, ma’noning o‘zgarishi tushunchalarning o‘zgarish ko‘lamiga qarab va so‘zni boshqa nomga yo‘naltirish orqali o‘zgarishi, ya`ni metafora, metonimiya, frazeologik birikmalarning ishlatilishi haqida fikr yuritiladi. Ikkinchi tipdagi nominatsiyalar laqablar qo‘yishda ham faol hisoblanishi ta`kidlanadi. Ushbu masalalarni yoritishda olimlarning qarashlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *ikkilamchi nominatsiya, motivlangan nominatsiya, sodda va ko‘chma nomenklaturali nomlar, metafora, metonimiya, antonomaziya, laqablar, frazeologizm, frazema, parafraza.*

Annotatsia. The article reflects on secondary nomination, its types, changes in meaning depending on the scale of the change of concepts and by directing the word to another name, that is, the use of metaphors, metonymy, phraseological compounds. It is noted that nominations of the second type are also actively counted in nicknames. In the coverage of these issues, the views of scientists are brought.

Keywords: *double nomination, motivated nomination, simple and portable nomenclature names, metaphor or metonymy, nicknames, phraseologism, phrasema, paraphrase*.

Ma’lumki, ikkilamchi nominatsiyadan foydalanish tilda keng qo‘llanmoqda. Ikkilamchi nominatsiya til rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan qonuniyatlar sirasiga kiradi, ayniqsa, leksik-semantik sathda chegaralangan leksema fondi yangi ko‘plab ochilayotgan hodisalarni nomlash uchun yetarli emas, shuning uchun tayyor leksik resurslardan foydalaniladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ikkinchi nominatsiya jarayonida aktuallashgan assotiativ belgilar tafakkur qilingan mazmunning shunday ma’noli belgilar bilan munosabatga kirishadiki, ular shu til egalarining mazkur realiyalar haqidagi bilimida aks etadi. Ikkinchi nominatsiya jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda, yangi tushunchalarni ko‘rsatish zaruriyati tug‘ilganda doimiy ravishda sodir bo‘ladi. Ular tilning ichki resurslari hisobiga oshiriladi.

Ikkinchi nominatsiya nomlanishi – bu ma’lum maqomga ega bo‘lgan (motivlangan), ta’riflangan, nomenklatur nomlardir. Motivlangan nominatsiyada sub’ekt ob’ektning bir yoki bir qator belgilarini ajratib oladi va ular nomlashga asos bo‘ladi. Bu nominatsiya belgilari konkret bo‘lib, til egalariga tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga alohida, individual tarzda qabul qiladi. Bu guruhga sodda va ko‘chma nomenklaturali nomlar kiradi. Bundan tashqari assotsiativ-semantik asosda ma’noning kengayishi usulida yasalgan nomlar ham kiradi. M.A.Abdurazaqov bunday so‘zlarning tuzilish shakli namuna sifatida doimiy shakllanib bo‘lgan, ular so‘zlovchi sub’ektning ongida psixolingvistik va fikr voqeligi sifatida hamda ijtimoiy ong ko‘rinishi shaklida mavjud [Abdurazaqov, 1991:67].

Motivatsiya xususiyatlariga ko‘ra ikkilamchi nominatsiyaning ikki turi hosil qilinadi:

1) to‘g‘ri nominatsiya: predmet xususiyatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zida aks ettirgan nomlar;

2) ko‘chma nominatsiya: predmetlarning belgi va xususiyatlarini assotsiativ-semantik jihatdan o‘zida aks ettirgan nomlar.

1. G.V.Kolshanskiy to‘g‘ri va ko‘chma nominatsiya farqlari haqida shunday fikr bildiadi: “To‘g‘ri nominatsiyada obyektning konseptual xususiyatlari so‘zning har qanday qo‘llanishida ham saqlanib qoladi [Kolshanskiy,1975].

2. Ko‘chma nominatsiyada esa so‘z ma’nosining o‘zgarishini aniqlaydigan faqat bitta yoki ikkinchi darajali xususiyat saqlanib qoladi” [Podolskaya N.V.1978].

Ma’noning o‘zgarishi tushunchalarning o‘zgarish ko‘lamiga qarab (ma’noning kengayishi yoki torayishi) va so‘zni boshqa nomga yo‘naltirish (metafora yoki metonimiya) orqali o‘zgaradi. Ikkinchi tipdagi nominatsiyalar laqablar qo‘yishda ham faol hisoblanadi.

N.V.Podolskiy laqab nomlarini quyidagicha ta’riflaydi: “Bu antroponim ko‘rinishi bo‘lib, insonga atrofdagi odamlar tomonidan hayotidagi vaziyatlarda aniqlangan xarakter xususiyatlariga qarab berilgan qo‘shimcha nomdir”. Laqablar ko‘chma nominatsiya mexanizmi bilan mos keladi, ular ham ob’ektning xususiyatlariga qarab assotsiativ-semantik munosabatga asoslanib nomlaydi. Laqablar faqat insonning tashqi ko‘rinishi (*Naynov, Polvon*) yoki xarakter xususiyati (*Qaysar, Indamas*) qarab emas, balki biror voqea sabab ham qo‘yilishi mumkin. Masalan, *Haydar Asrorov, laqabi Kesak polvon. Ozg‘in, chayir bo‘lgani uchun Kesak polvon, deb atashgandir, desangiz yanglishasiz. Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo‘lganidek, bu olamning ham o‘ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Shulardan biri – bu olamga qadam qo‘ygan har bir tirik jonga laqab beriladi.*

Laqab osmondan olinmaydi, balki xatti-harakati, fe’liga qarab topiladi... Cho‘ntak, belbog‘ kesishda Haydardan o‘tadigani yo‘q edi. Xullas, belbog‘ kesildi. Kesishga kesdiyu og‘irligidan hayron bo‘ldi. Panaroqqa o‘tib qarasaki, belbog‘da sariq chaqa ham yo‘q – besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo‘yilgan. Haydar “bu qishloqi ko‘zni shamg‘alat qilmoqchi ekan”, deb o‘yladi. Aslida shaharni bir tomosha qilib kelay, deb yo‘lga otlangan bu dehqon “tahoratga kesak topiladimi yo‘qmi” deb har ehtimolga qarshi belbog‘iga tugib olgan edi... Laqab ham o‘shanda tug‘ildi. (T.Malik. Shaytanat) Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan ikkilamchi nominatsiya hisoblanadi. Frazema – bu turg‘un so‘z birikmasi bo‘lib yaxlitligicha qabul qilinadi. Agar so‘zlar orasidagi bog‘lanishni buzsak yoki qismlarga ajratsak, bu birlik frazema maqomidan chiqadi. Masalan, *qo‘li kalta, fe’li keng, istarasi issiq, tili uzun, og‘zi katta, qo‘li egri*. Frazeologik ma’no frazeologizm tarkibidagi so‘zlarning leksik ma’nosi yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Frazeologik ma’no umumiy yaxlitlik xususiyatiga ega. Shuni ta’kidlash lozimki, yaxlitlik darajasi barcha frazeologizmlarda bir xil emas.Frazeologizmlarning umumiy ma’nosi bilan qismlarning xususiy ma’nolari o‘rtasidagi munosabati frazeologik ma’noni belgilashda tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Bunday birikmalar A.M.Peshkovskiyning fikricha, beshta kategorik belgining o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘ladi:

1. so‘z shakllarining birikmasi;
2. ayrim grammatik shakllangan so‘zlar bilan doimiy muloqotga kirushuvchi grammatik vositasiz kelgan so‘zlar;
3. so‘z tartibi;
4. ohang va ritm;
5. so‘zlar orasidagi bog‘lanishlarning tabiati [Peshkovskiy A.M.2001:38]

A.M.Peshkovskiyning o‘zi belgi strukturasi sifatida turg‘un so‘z birikmasining mavhum ko‘rinishdagi bu kategorik xususiyatlarning “ajralmasligi” va “birlashmasligi”ni ta’kidlagan.

Parafrazalar ham ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan ikkilamchi nominatsiya hisoblanadi: *oq oltin, zangori olov, dala malikasi, o‘rmon malikasi*. Parafrazalar frazeologik birliklar bilan solishtirganda oraliq holatda bo‘lib, idiomatik shakllanishlarning alohida turini ifodalaydi.

I.E.Umirov parafrazalarni quyidagi turlarga bo‘lib o‘rgangan;

1) leksik parafrazalar;
2) frazeologik parafrazalar;

3) sintaktik parafrazalar;
4) logik parafrazalar;
5) sof parafrazalar;
6) kontekstual parafrazalar [Umirov I.E.,1996:19].

Parafraza bilan turg‘un birikmalarning farqi haqida alohida to‘xtaladi. Frazeologik iboralar tilda, lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan, nutq jarayonida bir butun holda ishlatiladigan lug‘aviy birliklardir. Parafraza esa narsa hodisalarning nomlarini muayyan nutqiy vaziyatdagi xarakterli belgisi orqali ifodalanadi. Demak, parafrazalar frazeologik tizimning tarkibiy qismining ichida va undan tashqarida joylashadigan idiomatik shakllanishlarning maxsus turini ifodalaydi.

Foydalanilgah adabiyotlar

1. Valiyeva, M. Metaforizatsiyaning kognitiv asoslari. *Interpretation and researches*, *1*(1). (2023).
2. Абдуразақов М.А. Семантические типы субъектов.-Тошкент, 1991.
3. Алифиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языки. -М.: Флинта,Наука, 2005.-С. 280
4. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 60.
5. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (Х1Х аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008. – 168 б.
6. Валиева, М. С. (2022). Лингвокультурология и паремиологические аспекты языка. *Журнал международных междисциплинарных исследований Galaxy*, *10*, 1223-1228.
7. Валиева, М. С. (2022). Лингвокультурология как особая научная дисциплина. *Экономика и социум*, (5-1 (96)), 346-348.
8. Валиева, М. С., & Гребенник, В. В. (2023). Методы использования современных технологий обучения в начальных классах. iN *современная начальная школа: проблемы и перспективы развития* (pp. 545-550).
9. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию: Пер. с нем. / Общ. ред. Г.В. Рамишвили; Послесл. А.В. Гулыги и В.А. Звегинцева. — М.: ОАО ИГ «Прогресс», 1984;
10. Колшанский Г.В. Соотношение субъективных и объективных факторов языка. -М.:Нука, 1975.

11. Маҳмудов Н. М. Тилимизнинг тилла сандиғи. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. -Б. 19-20.

12. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. -Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2017.

13. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 8-е изд. -М., 2001.

14. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. -М.,1978.

15. Потебня А.А. Языковая номинация. -М., 1977. -С.100

16. Раҳмонов М. Сўзлар оламига саёҳат. -Тошкент: Фан, 2011. -Б.7

17. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор, 2006. -Б.12

18. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. Монография. – Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та, 1999. – 14 с.;

19. Умиров И.Э. Ўзбек тили парафразалари. Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Тошкент, 1996

20. Языковая номинация. – М., 1977. -С.101

“SADOQAT” KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV ASOSLARI VA XORIJDA O‘RGANILISHI

LINGUISTIC AND COGNITIVE FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF “LOYALTY” AND STUDY ABROAD

Uzakova Xilola
Davlat xafvsizlik xizmati “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110230

Annotatsiya. Maqolada “sadoqat” konseptining lingvokognitiv xususiyatlari, aksiologik konsept sifatida xalq etnik belgilarini o‘zida jamlashi, lisoniy-madaniy xususiyatlarni ifodalashi tahlil qilingan. Xorij tilshunosligida “sadoqat” konseptining o‘rganilishi haqida so‘z yuritilgan, konsept belgilarining ajratilishi, “sadoqat”ni ifodalovchi lisoniy vositalar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar tavsiflangan. “Sadoqat”ning kognitiv birlik sifatida hamda aksiologik konsept sifatida umumiy va millat lisoniy ongiga xos xususiy belgilarga ega bo‘lishi tadqiqotlar tavsifi asosida ko‘rsatib berilgan.

Key words: kognitiv tilshunoslik, *konsept, “sadoqat” konsepti, lingvoetnik xususiyatlar, mental struktura, lisoniy ong, konseptual maydon.*

Annotation. The article analyzes the linguocognitive features of the concept “loyalty” as an axiological concept; it contains the ethnic characteristics of the people and expresses linguocultural features. Foreign studies devoted to the study of the concept of “loyalty”, highlighting the characteristics of the concept, and analyzing linguistic means expressing “loyalty” are described. Based on the description of the study, it is shown that “loyalty” as a cognitive unit and as an axiological concept has specific signs of the linguistic consciousness of a nation and general properties.

Key words: *cognitive linguistics, concept, concept of “loyalty”, linguistic-ethnic approach, mental structure, linguistic consciousness, conceptual field.*

Antropotsentrik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda “konsept” tushunchasi keng ma’noda qo‘llanadi. “Konsept – aqliy bilimga, ijtimoiy-siyosiy, lisoniy-madaniy munosabatlarga, olamni mental tafakkur orqali anglashga asoslangan xotira, bilim majmuyi, til va nutqda namoyon bo‘luvchi olam manzarasidir” [Murotxodjayeva, 2022:14].

“Sadoqat” konsepti bir madaniyat hamda bir necha madaniyatlar kesimida tadqiq etilgan. L.R.Lavrentyeva “sadoqat” konseptini anglosakson madaniyati misolida lingvoetnik jihatdan tahlil qilgan. Etnik omilning ma’naviy madaniyat rivojidagi va tildagi faollashuv jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan. Etnik stereotiplarning tilda va shu tilda bitilgan matnlarda aks etishi, xalq ongida doimiy ravishda assotsiatsiyalanuvchi tushunchalarning mavjud bo‘lishi haqida so‘z yuritgan. Xalq etnik konseptosferasining dinamik xarakterga egaligi, taraqqiyotning yangi bosqichidagi o‘zgarishlarni aks ettirishi V-XI asrlar anglosakson madaniyatidagi “sadoqat” konsepti taraqqiyoti misolida ko‘rsatib berilgan. Bu davrning anglosakson etnogenezidagi ikki davr bilan – etnik jihatdan kengayish (V-VI) va xristian diniy dunyoqarashi yetakchilik qilgan davr (VIII-X) bilan xarakterlanishi qayd etilgan. Bu davr german qahramonlik va anglosakson xristian dunyo modeli mohyaiti aks ettirilishi izohlangan.

Kognitiv tilshunoslikning axborotni ongda saqlash va tahlil qilish usullarini tahlil qiluvchi, konsept yoki mental struktura deb nomlanuvchi birligi voqelik haqidagi barcha bilimlarni jamlovchi tuzilma sifatida tavsiflangan. Lingvoetnik yondashuvning til hodisalarini ma’naviy madaniyat va xalq psixologiyasi prizmasi orqali tahlil qilish imkonini berishi ta’kidlangan.

“Sadoqat” konseptining umumiy kognitiv belgilari sifatida o‘zgaruvchanligi, davriyligi, milliy-madaniy qadriyatlarga bo‘ysunishi ham keltirilgan. Hududning kengayishi, yangi davlatning bunyod etilishi, ba’zi hollarda o‘zga din hukmronligi xalqni bir maqsad sari birlashtirgani qayd etilgan. Bu maqsaddan chekinish yoki xiyonat qilish turli qiynoqlar orqali jazolangani ko‘rsatilgan. Anglosakslarning harbiylar bilan bog‘liq etnik kengayishi natijasida dohiyga sadoqat g‘oyasi muhim o‘rin egallagani, bu sadoqat jang maydonlarida jonini fido qilishgacha olib borgani ta’kidlangan. Bunday sadoqat ko‘rinishlari yangi yerlarni egallashga, boylikni qo‘lga kiritishga, Britaniya hududida yangi anglosakson qirolligini barpo etishga zamin hozirlagan. Xristian-anglosaksonlar qarashlarida azoblanish, iztirob chekish sadoqat belgisi sifatida maydonga chiqqani tahlillar orqali ko‘rsatib berilgan [Lavrentyeva, 2008:34].

L.Lavrentyeva Hind-Yevropa va umuminson madaniyatining ma’naviy konsepti bo‘lgan “sadoqat” prototip vaziyati tahlilini amalga oshirdi. “Sadoqat” konseptining qadimiyligini, shaxsiy sadoqat tushunchasiga borib taqalishini ko‘rsatib bergan. Qadimda mazkur konseptning убеждение “iqror”, вера/ доверие “ishonch”, клятва “qasam” tushunchalari bilan aloqador bolgani aytilgan. Hind-yevropa arealida “sadoqat” tushunchasini ifodalagan *fides* so‘zining “shartnoma”

ma’nosidagi *foedus* so‘ziga aloqadorligini asoslagan. Shu asosda ma’naviy konseptlarning muayyan madaniy tajriba asosida yuzaga kelishini yoritgan. Konseptlarning turli davrlarga oid munosabatlar va qarashlarni o‘zida mujassam etishini ta’kidlagan. Tarixiy davrlarni aks etirishda tarix, madaniyat, falsafaning o‘rnini qayd etgan holda, tilni inson hayoti va faoliyatiga oid barcha jarayonlarning eng ishonchli guvohi sifatida e’tirof etgan [Lavrentyeva, 2008:34].

Y.Kupsova izlanishlarida ham “sadoqat” konseptining etnik yondashuv aspektda tahlil qilingani kuzatildi. Tadqiqotchi etika sohasidagi mental mahsullar zamonaviy kognitiv yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarb masalasiga aylangani, kognitolog olimlarning bugungi kunda etnik konseptlarga alohida e’tibor qaratishayotgani, “стыд” (uyat), “совесть” (vijdon), “вина” (ayb), “добро/благо” (oliyjanoblik, yaxshilik, himmat), “вера /доверие” (ishonch), “моралные качества” (axloqiy sifatlar), “грех” (gunoh), “долг” (burch), “добро и зло” (ezgulik va yovuzlik), “правда и лож” (chin va yolg‘on), “искренность/ неискренность” (samimiylik/garazgo‘ylik), “обман” (aldov) konseptlarining tadqiqot predmeti sifatida o‘rganolgani, ammo “преданность” (sadoqat) konsepti tadqiqot obyekti bo‘lmaganini ta’kidlagan. Y. Kupsova ishida konseptning asosiy kognitiv kategoriya ekanligi qayd etilib, konsept borasidagi qarashlarning xilma-xilligi, deyarli barcha qarashlarda konseptning inson tafakkuri birliklarini qamrab olishi, olamni qabul qilish va idrok etish tarzi sifatida bir xil izohlangani aytib o‘tilgan. Konseptning inson bilimlarini va tasavvurlarini muvofiqlashtirishi, olamni idrok etish natijasida shakllangan inson tafakkuri, idrok darajasi, faoliyati, tajribasiga oid bilimlarni saqlash imkonini beruvchi alohida yacheykalarga guruhlashi ta’kidlangan. Konseptning tilda reallashish jarayonida leksik nomga mujassamlashuvi, shu bilan bir qatorda til sohibi ongida asosiy tushuncha bilan bog‘lanuvchi bir qator assotsiatsiyalar vositasida namoyon bo‘lishi, assotsiatsiyaning inson ongida faollashuvi natijasida bir konseptning ijtimoiy muhit, kasb va yosh xususiyatlariga ko‘ra turlicha idrok etilishiga oid masalalar tahlil etilgan [Kupsova, 2012].

Y.Kupsova V.Karasik izidan borib konsept termini ostida ko‘p o‘lchamli obrazlilik, terminologik hamda baholash qiymatiga ega bo‘lgan tushuncha yotishini qayd etadi. Obrazlilikning narsa-buyumlar, voqea-hodisa, voqelikning inson xotirasida aks etgan ko‘rish, eshitish, his qilish belgilari orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Tushuncha tomonini til orqali namoyon bo‘lgan belgi strukturasi tashkil etishi, konseptning qadriyat tomoni shaxsga va jamoatga birdek muhimligini aytib o‘tadi [Karasik, 2002]. Y. Kupsova “sadoqat” konseptini diskurs fonida tahlil

qilgan. Diskursni keng qo‘llanadigan va har xil talqin qilinadigan, real va potensial o‘lchovlarga ega bo‘lgan kommunikatsiya tizimi, tilning muayyan vaqt bilan chegaralangan funksiyasi, insonlarning ular mansub bo‘lgan sotsial qatlam yoki muayyan nutq vaziyati nuqtayi nazaridan qaraluvchi muloqoti sifatida izohlagan. “Sadoqat” konseptini nutq vaziyatllariga ko‘ra baholagan. “Sadoqat” namoyon bo‘ladigan doiralarni quyidagicha guruhlagan: *shaxs doirasida* (ota-ona va bolalar o‘rtasida, oila a’zolari o‘rtasida, qalliq va sevimli insonlar, do‘stlar o‘rtasida namoyon bo‘ladi); *kasb doirasida* (butunlay ishga, kasbga berilib ketgan shaxslar o‘z sadoqatini, vafodorligini namoyon qiladi); *siyosiy doirada* (vatanga bo‘lgan muhabbat tasvirlanadi); *diniy doirada* (diniy cherkov ideallariga sodiqlik); Bu sadoqat ko‘rinishlarining ingliz tilida qanday leksik vositalar orqali ifodalanishini tahlil qilgan. “Sadoqat” konsepti insonning ongli va tafakkurga asoslangan faoliyatini ifoda etishini, mavhum semantik tushuncha ekanligini, uni leksema orqali reallashtirishga ehtiyoj mavjudligini, so‘z nutq birligi sifatida u yoki bu sinonimik qatorga mansub bo‘lishi mumkinligini, ammo konsept aksariyat hollarda birdan ortiq so‘z bilan ifodalanishini ko‘rsatib bergan. Konsept bir sinonimik qatorga kiruvchi turli so‘zlar, yaqin ma’nodagi turg‘un birikmalar, frazeologik birliklar, aforistik vositalar, gaplar va butun boshli matnlar orqali ifodalanishi mumkinligini “sadoqat” konsepti misolida ko‘rsatib bergan [Kupsova, 2012]. Y. Kubryakova “konsept” tushunchasi inson fikrlashi davomidagi va tajribasi, bilimi, butun inson faoliyatining mazmuni va olamni bilishning “kvant” (mahsullari) tarzida idrok etish jarayonini ifoda etishini qayd etgan [Kubryakova, 1997].

Konseptologik tahlillar kognitiv va antroposentrik paradigma shakllanishining mahsuli sifatida baholangan [Lavrentyeva, 2008:34].

“Sadoqat” qadriyat konsepti sifatida ingliz va rus madaniyatida mediamatnlar misolida tahlil etilgan. “Sadoqat” qadriyat konseptining sotsium lisoniy ongida shakllangan milliy olam manzarasini tarixan tiklashda muhim o‘rin tutishi, ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat qadriyati shakllanishining dinamik manbayi sifatidagi xususiyatlari yoritilgan. “Sadoqat” konsepti britan va rus jamiyatining qadriyatlar tushunchasi, o‘rganilayotgan madaniyat, turmush tarzi, axloqiy stereotiplar va milliy xarakterni ochqich vazifasini o‘tashi qayd etilgan. “Qadriyat” tushunchasi ostida ma’naviy va moddiy obyektlar tushunilishi ta’kidlanib, “sadoqat” konsepti *love/любовь, kindness/доброта, honest/честность, courace/мужество, tolerance/толератность* kabi ma’naviy qadriyatlar qatorida sanalgan. “Sadoqat” inson egallashi lozim bo‘lgan muhim va noyob axloqiy-etik qadriyat sifatida

tavsiflangan. Britan va rus tilidagi gazetalardan jamlangan 100dan ortiq mediamatn tahlil qilingan [Abdulqodirova, 2022: 2972-2978].

Konseptning maydon tarkibi Z.Popova, I.Sterninlar qarashlariga asoslangan holda uch asosiy tarkibiy qismdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan: *nominativ, informatsion va interpretatsion maydon*. Interpretatsion maydonning baholash, ensiklopedik, utilitar, regulyativ, sotsial-madaniy va paremiologik sohalarga bo‘linishi ko‘rsatib o‘tilgan. Konsept strukturasi dinamik xarakterga ega ekanligi qayd etilib, konsept hajmi yangi konseptual tavsiflar hisobiga kengayib borishi ta’kidlangan. Regulyativ soha leksik reprezentantlarning fe’llar bilan hosil qilingan birikmalar orqali namoyon bo‘lishi, baholash zonasining belgi bildiruvchi so‘zlar vositasida ifodalanishi aytilgan [Abdulqodirova, 2022: 2972-2978].

XIX asr Kanada siyosiy diskursidagi “sadoqat” va “xiyonat” tushunchalari tahlil etilgan. Shimoliy Amerika Britan ijtimoiy-siyosiy diskursida muhim qiymatga ega bo‘lgan bir necha tushunchalar mavjudligi, shulardan biri bo‘lgan “sadoqat” tushunchasining faol va keng qo‘llanadigan kategoriya bo‘lish bilan bir qatorda davrlar osha kanada milliy xarakterining bir qismiga aylangani misollar asosida ko‘rsatib berilgan. “Sadoqat” va “xiyonat” konseptlari ostida qanday tushunchalar yotganini izohlash uchun muallif Quyi Kanada Assambleyasidagi sudga oid qonun asosidagi debatni tahlil qiladi. “Sadoqat” va “xiyonat” masalalarining ana shunday munozaralarda muhim o‘rin tutishi va qadriyat darajasiga ko‘tarilishini izohlab bergan [Noxrin, 2018: 128-133].

“Sadoqat” tushunchasini ifodalovchi “лоялность” so‘zining fransuzcha “sodiq, vafodor” ma’nosidagi *loyal* arxaik so‘zidan olingani asoslangan. Fransuz tilining ko‘pgina terminlar manbasi lotin tilidan olingani, ko‘pgina yevropa davlatlarida lotin asosiy adabiy til sifatida qo‘llangani, rasmiy til va hatto din tili bo‘lgani aytilgan. Fransuzcha *loyal* sifati ham lotincha yuridik termin – “qonuniy” ma’nosidagi *legalis* terminidan kelib chiqqani ko‘rsatilgan. Shu jihadan terminning rus tilida “qonun doirasida rasman tutib turish”, “kimgadir yoki nimagadir neytral munosabatda bo‘lish” hamda “sadoqatli, “sodiq”, kimgadir yoki nimagadir sadoqatli” ma’nolarida tarjima qilingani, bir jihatdan “лоялность” tushunchasi qonunga amal qilish, formallik, shu joyda va shu lahzada qabul qilingan qonunlarga bo‘ysunish tushunchalarini o‘z ichiga olishi asoslangan. Ikkinchi jihatdan лоялность сўзи *верный/ преданный* so‘zlariga sinonim hisoblanishi aytilib, ularning etimologiyasi ham keltirilgan. Лоялность tashkilotga, kasbga, mehnat jarayoniga nisbatan qo‘llanishi ta’kidlangan [Baranskaya, 2010: 301-304].

“Xiyonat-sadoqat” tushunchasi arxetipik birlik sifatida rus va ingliz tillari metaforalari misolida tahlil qilingan. Masalan, qora xon xiyonat ramzi, jismoniy og‘riq va chegerani buzish bilan ifodalangani aytilgan. Britan milliy korpusi va Rus tili milliy korpusi materiallari misolida tahlil qilingan [Savelyeva, 2009:169-175].

Folklor materiallari, paremiolgik birliklari asosida chechen lisoniy ongida *tesham/верность (sadoqat)* va *teshnabexk/ предательство* (xiyonat) konseptlarining namoyon bo‘lishi o‘rganilgan. Paremiyalarning xalq kuzatishlari va tajribasini ifodalashi, olam manzarasining yashash tarzi va xalq mentaliteti haqidagi bilimlarni mujassam etishi qayd etilgan. Paremiyalar tadqiqi etnosning asos madaniy qadriyatlarini aks etirishi aytib o‘tilgan. Chechen madaniyatida sadoqatning hissiyotlarda, qo‘llab-quvvatlashda, qalb sadoqatida, haqgo‘ylikda namoyon bo‘lishi, xiyonatning ishonchni poymol qilish, suiiste’mol qilinishda namoyon bo‘lishi ko‘rsatib berilgan. *Tesham* “sadoqat” va undan yasalgan leksemalarning deyarli har bir paremiyada kuzatilishi, shuning barobarida bu so‘z ishtirok etmagan misollar ham mavjudligi, “sadoqat” konseptining namoyon bo‘lishida qiyoslardan foydalanilishi misollar orqali ko‘rsatilgan. Sadoqatli do‘stning mustahkam, baland minoraga qiyoslanishi, qal’a yanglig‘ tayanch va himoya vositasi bo‘lishi ta’kidlanadi. Sadoqatli do‘stning qondosh singari yaqinligi, akaga tenglashtirilishi aytilgan. Yaqin insonning oson xiyonat qilishi ham qayd etilgan [Idrazova, 2021: 208-211].

“Sadoqat” konsepti “sevgi” konsepti bilan bigalikda rus va tojik tillari misolida o‘rganilgan.

“Cadoqat” konseptining dunyo tilshunosligida o‘rganilishi uning etnik qadriyat sifatidagi xususiyatlarini yoritishga, ifoda vositalarini aniqlashga, milliy-madaniy baholashdagi muhim jihatlarini ajratishga xizmat qiladi. “Sadoqat” konseptining murakkab mental tuzilma ekanligi, umuminsoniy taraqqiyot xususiyatlarini o‘zida ifoda etishi, shuning barobarida har bir xalqning o‘ziga xos unikal belgilarini aks ettirishi ilmiy dalillar orqali asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулкадырова А.Б. Ценностный концепт loyalty/ преданность в английской и русской лингвокультурах (на материале современных медиатекстов) / Филологические науки. Вопросы теории и практики. Philology. Theory & Practice. 2022. Том 15. Выпуск 9. С.2972-2978 / 2022. Volume 15. Issue 9. P.2972-2978.

2. Баранская С.С. Проблема этимологии понятия «организационная лояльность»/ Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. №2, 2010. –С.301-304.

3. Идразова Э. С., Мунгашева М.С. Объективация концептов “верность” и “предательство” в дружеских отношениях в чеченском языковом сознании / Известия ВГПУ. Филологические науки.2021. –С.208-211.

4. Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения.-М.:Институт языкознания РАН, 1997. –327 с.

5. Купцова Ю.А. Этнический концепт “преданность”: актуализация в речи (на материале английского языка) // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. 2012.-№24 (143). Выпуск 16.

6. Лаврентьева Л.Р. Динамика концепта «верность» в англосаксонской культуре: лингвоэтнический аспект/ Вестник ЧитГУ, №3 (48) 2008.

7. Murotxodjaeva F. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z va so‘z birikmalar ma’nolarining kognitiv-semantik tahlili va ularning tarjima muammolari. Filol.fan. fals. d-ri (PhD)...diss. –Toshkent,2022.

8. Nokhrin I.M. “Loyalty” and “disloyalty” in polical discourse of British North America in early 19tn centure / Magistra Vitae: электронный журнал по историческим наукам и археологии. 2018. –№2. –С.128-133.

9. Савельева У.А. Архетипическое единство “предательство-верность” в авторских метафорах (на материале русского и английского языков). Лингвистика и перевод. Lingua mobilis. №2 (16),2009. – С.169-175.

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TANANI IFODALOVCHI EVFEMALARNING MA’NOVIY NOMUVOFIQLIK HOLATLARI

Yuldosheva Vohida Nazarovna
ToshDO‘TAU doktoranti
vohida88@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110264

Annotatsiya. Ushbu maqolada evfemizmlarning funksional-semantik jihatdan o‘rganilishi, ularning ikki tilda semantik jihatdan muvofiq kelmaslik hollari haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *funksional-semantik yondashuv, milliy-madaniy qadriyatlar, konseptual tizim, ta’sirchan nutq.*

Annotation. This article discusses the functional-semantic study of euphemisms, their cases of bilingual semantic incompatibility.

Keywords: *functional-semantic approach, national-cultural values, conceptual system, affective speech*

So‘nggi yillarda tadqiqotchilarning evfemizatsiya muammosiga qiziqishi ortdi. U mahalliy va xorijiy olimlarning ko‘plab tadqiqotlari obyektiga aylandi. Shunday qilib, evfemizatsiya turli xil lingvistik yondashuvlar va yo‘nalishlar nuqtai nazaridan o‘rganildi: funksional-semantik, pragmatik, stilistik, gender va diskursiv. Funksional-semantik yondashuv doirasida evfemizmlarning tematik tasniflari A. M. Katsev [Кацев А.М.,1977:36], L.P.Krysin [Крысин Л.П.,www/ Philology.ru], B. A. Larin [Ларин Б.А.,1961:110-124], V. P. Moskvin [Москвин В.П.,2007:57], A.J.Omonturdiyev [Омонтурдиев А.Ж.,2009:18] tomonidan ishlab chiqilgan, evfemistik ifodalarni shakllantirish usullari A. M. Katsev [Кацев А.М.,1977], V.P.Moskvin [Москвин В.П.,2007:57], A.J.Omonturdiyev [Омонтурдиев А.Ж.,2009:17] ajratib ko‘rsatilgan, pragmatik nuqtai nazardan, V.P.Moskvin [Москвин В.П.,2007:134] evfemizatsiyaga nutqning maqsadga muvofiqligini kuzatish usuli sifatida qaradi. Stilistika doirasida evfemizmlarning stilistik mansubligi, shuningdek, evfemistik leksikaning turli nutq uslublarida ishlashi masalalari V.P. Moskvin [Москвин В.П.,2007:134], E. P. Senichkina [Сеничкина Е.П.,2006:161] kabi olimlar tomonidan hal qilindi. G.A.Vildanova [Вильданова Г.А.,2004:97–100], Sh.Gulyamova [Гулямова Ш., 2020:7] evfemiyaning gender xususiyatlarini, doirasida evfemiyaga bag‘ishlangan ishlar yaratilganiga qaramay, u bilan bog‘liq ko‘plab masalalar hal qilinmagan. Xususan, ikki tillilik sharoitida evfemizmlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar masalasi hamdir.

Evfemizm lingvistik-madaniy hodisa sifatida ta’kidlanmoqda, chunki so‘nggi paytlarda evfemizmlarni qo‘llash jarayoni tobora kuchayib bormoqda va ular nutq faoliyatining turli sohalarida keng tarqalmoqda. Turli tillarda evfemizmlarni o‘rganish dunyo tillarining milliy o‘ziga xosligini, nemis va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchilarning nutq xatti-harakatlarini o‘rganishga hissa qo‘shishga imkon beradi.

Evfemizatsiya hodisasini qiyoslab o‘rganish bu savolga biroz kengroq qarashga imkon beradi: bu holda evfemizatsiya sinonimiya, antonimiya, metafora, metonimiya va boshqa til birliklari o‘rtasidagi tizim ichidagi munosabatlarga qaraganda kengroq hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, turli etnik va ijtimoiy guruhlarning konseptual tizimlarini uyg‘unlashtirish vazifasi juda qiyin. Ushbu leksik birliklar o‘ziga xos lingvistik va madaniy sharoitlarda shakllanganligi sababli, ular turli odamlar orasida farq qiladi, ya’ni ular bir xil aloqa tilidan foydalansalar ham, umuman olganda, leksemani oqilona va hissiy jihatdan baholaydilar.[Харитончик З.А.,1992:46]

Umuman olganda, hissiy-baholovchi va stilistik jihatdan rang-barang lug‘atlarni, xususan, evfemizmlar taqqoslash turli milliy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar egalari tomonidan tasvirlangan lingvistik-madaniy voqealar mazmunining ma’lumotlarini, u yoki bu xalq mentalitetining xususiyatlarini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Evfemizmlarni yetarli darajada taqqoslashning asosiy to‘sig‘i turli tillarning konseptual tizimlarining mos kelmasligidir. Shuning uchun, qiyoslanayotgan leksemalarning aksariyatini tarjima qilishda ko‘proq yoki kamroq kengaytirilgan narsalarni qo‘shish tavsiya etiladi, asl tilda leksemaga xos bo‘lgan denotativ va konnotativ semalarni tushuntiruvchi lingvistik-madaniy izohlar orqali tushuntirish lozim.

Evfemizmlarni taqqoslash jarayonidagi to‘siqlar va qiyinchiliklarni asl evfemizmlarni qiyoslanadigan tillar bilan taqqoslash orqali bartaraf etish mumkin. Evfemizmlarni tarjima qilishning eng maqbul usullari qo‘shish usuli va konkretlashtirish usuli hisoblanadi.

1) qarilik – nem.: Lebensende(umrning oxiri), Lebensausklang(hayotning oxirgi qo‘shig‘i), Lebensherbst(umrning kuz fasli), Lebensneige(umrning oxiri), Lebensabend(qarilik), hohen Jahre(umrning oxirgi yillari), Herbst des Lebens(umrning kuzi), Rentner(nafaqaxo‘r), alter Herr(qari janob), Alter(qariya), letzten Jahre leben (so‘ngi yillarni yashamoq) / uzb. faxriy (faxriya), oqsoqol, yoshuli, yoshi ulug‘, nuroniy, otaxon, onaxon, aya (ayaxon), keksalik gashtini surayotgan, keksalik libosini kiygan; bahori o‘tmoq, bahori tugamoq, oshini oshab, yoshini yashamoq, soch oqarmoq;

2) sevgi (jinsiy) munosabatlar – nem.: einem Mann zu Willen sein(erkakka ixtiyorini bermoq), Umgang haben(muloqotda bo‘lmoq), Liebesvereinigung (sevgisini birlashtirish) / uzb.: aqlini yo‘qotmoq, aqlu hushidan begona bo‘lmoq, sevgani bor, ipsiz bog‘lanmoq, ko‘zga uyqu kelmaslik, ko‘ngil bermoq, ko‘ngil olmoq, ko‘ngil qo‘ymoq, ko‘ngli band bo‘lmoq, ko‘nglidan joy olmoq, ko‘nglini egallamoq, mayl bermoq, majnun bo‘lmoq, maftun etmoq, mahliyo bo‘lmoq, oromi buzilmoq, oshiq bo‘lmoq, savdoyi bo‘lib qolmoq, tinchi yo‘qolmoq, xayoli uchmoq, shaydo bo‘lmoq, qalb to‘ridan o‘rin olmoq, hushini oldirmoq;

3) homiladorlik – nem.: in anderen Umständen/ in Hoffnung sein (boshqacha holatda/ishonchda bo‘lmoq), ein Kind/Kleines/Baby bekommen/erwarten (chaqaloq/ kichkina bola olib kelmoq), Mutter werden (ona bo‘lmoq), etwas unter der Schürze tragen(fartuk tagida nimadir ko‘tarib yurmoq), zur Welt bringen (dunyoga keltirmoq), ein Kind unter dem Herzen tragen (yuragini ostida bir vujudni ko‘tarmoq), Zuwachs bekommen/erwarten,(yangi mehmonni kutmoq/olib kelmoq), Mutterfreuden entgegensehen(onalik quvonchi bilan yuzlashmoq), schwanger gehen, es ist etwas unterwegs,(yo‘lda bo‘lmoq), schweren, gesegneten Leibes sein (og‘ir tanada bo‘lmoq), og‘zaki nutqda ein Kind kriegen (bolali bo‘lmoq), dick sein (semirmoq) uzb.: boshqorong‘u bo‘lmoq, bo‘yida bo‘lmoq, gumoni bor, donni cho‘qimoq, ikkiqat, ko‘ngli sust ketmoq, natija hosil bo‘lmoq, nishona paydo bo‘lmoq, oy-kuni yaqin, oyoqi og‘ir, uch kishi bo‘lmoq, yuzida dog‘i bor, yukli bo‘lmoq, qornida bir nimani sezmoq, surgunida bor, tarvuz yutgan va boshqalar

4) kasallik- nem.: unpässlich (nosog‘lom), ungesund (nosog‘), unwohl (ahvoli yomon), pflegedürftig (parvarishga muhtoj), indisponiert (to‘liq sog‘lom emas), nur noch ein halber Mensch sein(yarim jon bo‘lib qolmoq), nicht in Ordnung sein (sog‘lig‘i joyida bo‘lmaslik), nicht in Schuss sein (mazasi/tobi bo‘lmaslik), das Bett hüten (yotiq qolmoq), sich unwohl fühlen (o‘zini yomon his qilish) va boshqalar. Bundan tashqari quyidagi so‘zlarni evfemik shaklda qo‘llash mumkin, masalan, todkrank-og‘ir kasal/o‘lar kasal, jemandes Tage sind gezählt-sanoqli umri qolgan, nicht mehr lange zu leben haben-umri oz qoldi, Schon wissen, wohin die Reise geht-vaqti qancha qolganligini biladi va boshqalar. Barcha qayd etilgan birliklar tavsiflovchi xususiyatga ega va ko‘p qismi frazeologik birikma ko‘rinishidagi evfemizlardir.

Ushbu evfemizmlar qiyoslanganda o‘zbek tilida evfemik so‘zlar va iboralarning nemis tilidagi ekvivalentlari ko‘p hollarda muoviq kelmaydi. Ya’ni, ko‘plab evfemizmlarni nemis tiliga tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki o‘zbek tili mutlaqo boshqa milliy-madaniy til birliklariga ega va bu etnik muhit urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Nemis va o‘zbek tillarida ushbu sohadagi yoqimsiz, qo‘rqinchli so‘zlarni va iboralarni almashtirish bilan bog‘liq ko‘plab evfemizmlar topilgan. Ikkala

madaniyatda ham o‘limga bo‘lgan munosabat salbiy, yomon his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Nemis va o‘zbek madaniyatidagi odamlar xushmuomalalik, tushunish, boshqalarning qayg‘usiga hamdardlik tuyg‘usiga ega yoki hech bo‘lmaganda munosib evfemizmdan foydalanib, muloyim munosabatda bo‘lishga harakat qilishadi.

Nemis va o‘zbek tillarining evfemizmlarini tahlil qilib shuni xulosa qilamizki, biz belgilangan sohalarning har biri uchun ularni tasdiqlovchi yetarli miqdordagi evfemizmlar mavjudligini ko‘ramiz. Ikki xil madaniyat, nemis va o‘zbek, nutq va xulq-atvor jihatidan o‘xshashdir. Evfemizmlardan foydalanish odobli, ta’sirchan xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi, ziddiyatli vaziyatlardan qochish niyati, odamga qulay munosabatni ko‘rsatish, uning holati va mavqeiga qiziqish biz ko‘rib chiqayotgan ikkala madaniyat uchun ham xosdir. Nemis va o‘zbek madaniyatlari o‘zlarining urf − odatlari, turmush tarzi, odamlarning fe’l-atvori, hayotiy stereotiplari va maqsadlari jihatidan bir-biridan juda farq qiladi, ammo muloyim xatti-harakatlar, ya’ni yumshatilgan, xushmuomala, neytral rangdagi so‘zlar va iboralardan foydalanish muayyan hayotiy vaziyatlarda evfemizmlar bir-biriga mos keladi. Evfemizmlardan foydalanish diplomatik nutqda nemis va o‘zbek tillarida, madaniyatlar hayotida katta rol o‘ynaydi. Evfemizmlar kishilar nutqini yaxshilaydi, muloqotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, nizoli vaziyatlardan uzoq turadi, xulq-atvor va tarbiyasini ko‘rsatadi, suhbat davomida so‘zlarga ijobiy hissiy tavsif beradi. Evfemalarsiz hech qanday aloqa amalga oshirilmaydi, ularsiz madaniyat to‘liq mavjud bo‘lolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Харитончик З.А. Лексикология английского языка: Учеб. пособие. / З.А. Харитончик. Мн.: Выш. шк., 1992. 46 с.
2. Омонтурдиев А.Профессионал нутқ эвфемикаси (Чорвадорлар нутқи мисолида): филол. фанлари. д –ри. …дис. – Т., 2009. – Б.12.
3. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.78-0.
4. Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: фил. фанлари бўйича фалсафа д-ри дисс. Бухоро 2020. -7 б.
5.Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // www/ Philology.ru; Москвин В.П.
6. Ларин Б.А. Об эвфемизмах [Текст]// Учен. зап. Ленингр. ун-та, № 301: Сер. филол. наук: Вып. № 60– Л.: ЛГУ, 1961. – С. 110-124.
7. Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка [Текст] / Василий Павлович Москвин. 2-е изд. – М.: Ленинград, 2007.

8. Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке: Автореф. дис. докт. филол. наук. – Л., 1977
9. Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка [Текст] / Василий Павлович Москвин. 2-е изд. – М.: Ленинград, 2007.
10. Сеничкина Е. П. Эвфемизмы русского языка. М.: Высшая школа, 2006. – 161 с.
11. Вильданова Г. А. // Актуальные проблемы лингвистики, психолого-педагог. и метод. аспекты обучения ин. языкам. Шадринск, 2004. С.97–100.

LINGVOMADANIY ASPEKTDA “YUMOR” TUSHUNCHASI

Bektoshev Mubashirxon Odilbek o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti
bektoshevmubashirxon@gmail.com

Jamolitdinova Dilnozaxon Mirhojidinovna
filologiya fanlari doktori (DcS), professor
jamolitdinovadilnozaxon@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110276

Annotatsiya. Maqola "yumor" tushunchasining kontseptual sohasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif yumorning madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyat xususiyatlariga ega ekanligiga e’tibor qaratadi va yumor tushunchalardan tashkil topgan konseptual kategoriya bo‘lib, ulardan biri milliy yumordir, degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: artefakt, madaniyatshunoslik, madaniyat, nutq, yumor, shaxsiyat.

Tilning shaxs va umuman jamiyat madaniyatiga ta’siri, madaniyatning tilda aks etishining o‘ziga xos xususiyatlari doimo olimlarni qiziqtirgan. Madaniyat ko‘rsatkichi va fikrlash jarayonining aktuallashtiruvchisi bo‘lgan yumor bu o‘zaro ta’sirda muhim rol o‘ynaydi.

Zaliznyak A. A. “Yevropa madaniyati nuqtai nazaridan yumor va yumor” maqolasida “yumor”, “zukko”, “kulgili” kabi tushunchalarni tahlil qilib, bu atamalarni umum e’tirof etilgan Yevropa qadriyatlarini aks ettiruvchi “madaniy tushunchalar soni” qatoriga kiritadi. Zaliznyak A. A. “yumor so‘zi (adabiyot va madaniyatshunoslikda) atama bo‘lib qoldi, uning komiks atamasi taxminiy sinonimi bo‘lib, ko‘pchilik Yevropa tillarida uning ma’nosi taxminan bir xil (fransuz tilida yumor so‘zi saqlanib qolganidan tashqari) uning anglo-sakson kelib chiqishining izi va mos keladigan atama sifatida komique, comisme)" [Zaliznyak, 2007: 554].

“Til doirasi: shaxsiyat, tushunchalar, nutq” asarida yumor ham V. I. Karasik: «Madaniy tushuncha bo‘lganligi sababli, yumor qiymat xususiyatlariga ega, ya’ni. asosiy hayotiy ko‘rsatmalar bilan bog‘liq. Yumor, o‘z mohiyatiga ko‘ra, odamni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishning eng qulay usullaridan biri bo‘lib, u hodisalarning kutilmagan rivojlanishiga munosabat, ma’lum darajada, haqiqat va ijobiy his-tuyg‘ularni boshdan kechirish bilan uyg‘unlikdir. Ma’lumki, inson salomatligini mustahkamlashga hissa qo‘shadi. Shunday qilib, yumor inson

psixikasining organik himoya xususiyati bo‘lib, insonning tur sifatida omon qolishi bilan bog‘liq juda nozik va murakkab hissiy hodisadir, ya’ni yumor insonning hayotiy qadriyatlari bilan bog‘liq. Ta’kidlash joizki, hayotiy qadriyatlar nuqtai nazaridan (omon qolish va psixologik o‘zini o‘zi himoya qilish vositasi sifatida) kulgi qo‘rquv bilan bog‘liq, ammo qo‘rquv xavfli voqea va kulgidan oldin salbiy asosda hissiy konsentratsiyaning usulidir. xavfli hodisadan keyin ijobiy asosda hissiy bo‘shashish usulidir" [Karasik, 2002: 156].

Ivanova L. P. “Komiksning lingvokulturologik jihatlari (muammoni shakllantirish tomon)” maqolasida komiksni lingvokulturologiyaning obyekti sifatida ko‘radi. "Ammo," muallifning so‘zlariga ko‘ra, "bu muammo hali ham yetarli darajada rivojlanmagan, garchi uni zamonaviy antropotsentrik paradigmaga muvofiq hal qilish kerak" [Ivanova, 2007: 561].

Ivanova L.P. “... hajviy ko‘p jihatdan milliy o‘ziga xosliklarga ega. Komik vaziyatni bevosita kuzatish va gapirish mumkin. Vaziyatni kulgili deb qabul qilish ko‘p jihatdan muallifning ma’lum bir madaniyatga mansubligi bilan bog‘liq bo‘lsa va madaniyatshunoslik sohasiga tegishli bo‘lsa, kulgili voqeani bayon qilish lingvokulturologiyaga tegishli bo‘lib, tilning o‘zi madaniy ma‘lumotlarni olib yuradi” deb hisoblaydi [O‘sha yerda: 562].

“Til madaniyatni ilmiy o‘rganishda yetakchi tamoyil sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qaysidir ma’noda, har qanday sivilizatsiyaning madaniy stereotiplari tizimi ushbu sivilizatsiyani ifodalovchi til tomonidan tartibga solinadi. Madaniyatning asosiy tamoyillarini sof mushohada asosida tushunish mumkin, deb o‘ylash soddalikdir, ya’ni lingvistik simvolizm bo‘lgan yo‘l-yo‘riqsiz bu tamoyillarni jamiyat uchun ahamiyatli va unga tushunarli qiladi» [Sapir, 2003: 130].

Madaniyatning milliy qadriyat-semantik makonining chegaralari ma‘lum bir xalqning qo‘llanilishi jarayonida ortib borayotgan ahamiyat maqomiga ega bo‘lgan etnik-madaniy artefaktlar to‘plami bilan ko‘rsatiladi. Tilning milliy qadriyat-semantik makonining chegaralari tashqi yoki madaniy bilish substratlarini ichki yoki lingvistik ong belgilariga ichkilashtirish jarayonining chastotasi va sifati ko‘rsatkichi bilan ko‘rsatiladi. Dunyoning milliy madaniy modeli ramzlar, milliy an’analar va milliy stereotiplar orqali ifodalanadigan birlamchi nominatsiya obyektlari va ma’nolarini tizimlashtirish orqali yangilanadi. Dunyoning milliy lingvistik modeli birlamchi nominatsiya so‘z-ma’nolarining ichki shakllaridan ma’no ajratib olish natijasida olingan ikkinchi darajali nominatsiya ma’nolari orqali so‘zlashadi. Ikkilamchi nominatsiyaning ma’nolari til belgilarining sharhlovchilari yoki tilning stilistik vositalari bo‘lib, ikkilamchi lingvosemioz tizimi uchun kod

bo‘lib xizmat qiladi. Dunyoning milliy lingvistik rasmini millatning lingvistik ongini tavsiflovchi statik lingvosemiotik hodisa sifatida tasniflash ko‘zda tutilgan. Dunyoning milliy hajviy lingvistik rasmini dunyoning statik milliy lingvistik rasmiga o‘zgartirishlar kirituvchi va dunyoning yangi milliy lingvistik rasmini yaratish uchun sharoit yaratuvchi dinamik lingvosemiotik hodisa sifatida tasniflash zarur ko‘rinadi.

O‘rganilayotgan jihatning lingvomadaniy terminologik apparatiga “milliy yumorning madaniy modeli”, “milliy yumorning lingvistik modeli” kabi mustaqil tushunchalarni kiritish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Biz “milliy yumorning madaniy modeli” va “milliy yumorning lingvistik modeli” tushunchalarini farqlashni oqilona deb hisoblaymiz. Milliy yumorning madaniy modeli mantiqiy, haqiqatda mavjud bo‘lgan voqelik toifalari, shaxs tomonidan ishlatiladigan va uning bevosita muhitida joylashgan obyektlar va obyektlardan sinxronlashtiriladi. Milliy yumorning lingvistik modeli tildagi voqelikning bir-biriga mos kelmaydigan kategoriyalarining o‘ziga xos munosabatlarini aks ettiradi, milliy yumor tushunchalari, ramkalari va yozuvlarini yuzaga keltiradi. Milliy lingvistik yumor skriptlari hajviy obraz yaratuvchi shunday lingvistik belgilar orqali tug‘iladi. Bunday lingvistik belgilar turkumiga tilning obrazli uslubiy vositalari, ya‘ni antonomaziya, okkazializm, qiyoslash, metafora, mubolag‘a, epitet kabilar kiradi. Voqelik xususiyatlari pretsedent xarakterga ega. Voqelikning kulgili aktuallashuvi bilan milliy-madaniy xususiyatlar lingvistik vositalarda namoyon bo‘ladi.

Yumorning lingvistik manzarasi turli xalqlar mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlaridan, xalqlar tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlaridan, ayrim hayot hodisalariga qarashlardagi farqlardan iborat. Yumorning tarixiy o‘zgaruvchanligi, asosan, yumorning milliy xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Bir xalqning yumor belgilarini ushlash oson, lekin ularga aniq tavsif berish juda qiyin. Borev Yu. B. o‘zining "Komiks" kitobida, E. Obuening fikricha, fransuzlar uchun tajovuzkor xarakterga ega bo‘lgan zukkolik, o‘z mavzusiga nisbatan mag‘rur munosabatda bo‘lish, inglizlar esa yumor bilan ajralib turishini ta‘kidlaydi. kamtarin va mehribonlik xarakteriga ega. Biroq, Borev darhol e’tiroz bildiradi, Sviftning xayrixohlik yumoriga shubha qilish qiyin [Borev, 1970: 62]. Har bir xalq vaqt o‘tishi bilan hayotiy-tarixiy tajriba asosida yaratilgan o‘ziga xos yumor shakliga ega bo‘ladi. Belinskiy V. G. “Har bir xalqning milliyligining siri uning kiyimi va oshxonasida emas, balki uning, ta’bir joiz bo‘lsa, narsalarni tushunish uslubidadir” (Belinskiy, 1978: 294) deb yozgan edi. Bu "narsalarni tushunish uslubi" hech bir joyda aql va milliy rangdagi yumor kabi aniq namoyon bo‘lmaydi.

“Milliy yumorning xususiyatlari haqidagi savolning o‘zi juda qiziq. Yumorning milliy o‘ziga xosligi milliy xarakterning tarkibiy qismi sifatida etnopsixologlarning e’tiboriga loyiqdir" [Luk, 1977: 50]. “Hajviy hikoya amerikacha janrdir, xuddi hajviy hikoya inglizcha, yumor esa frantsuzcha. Hajviy hikoyaning ta’siri uning qanday aytilganiga bog‘liq bo‘lsa, hajviy hikoya va latifaning ta’siri undagi gaplarga bog‘liq” [Tven: 7-10].

"Shotlandlar ziqna, frantsuzlar mehribon, irlandlar tor fikrli va hokazo degan e’tiqodga asoslangan ko‘plab etnik yumorlar mavjud. Yumorning aksariyati boshqa ijtimoiy guruhlarni, ayniqsa etnik guruhlarni (masalan, qora tanlilar va yahudiylar) va millatlarni (masalan, irlandlar va polyaklar) masxara qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday holda, komiks "ustunlik" bayonotiga asoslanadi: masxara qilingan guruhning qandaydir kamchiliklari borligi e’lon qilinadi, masalan, ahmoqlik. Bunday yumor ahmoqlik, ziqnalik va boshqalar haqidagi stereotiplarga bog‘liq. va taxmin qilingan sifatlarning absurd bo‘rttirilishidan kelib chiqadi" [Argyll, 2003: 82]. Yumor tushunchalardan tashkil topgan konseptual kategoriya bo`lib, ulardan biri milliy yumordir. Yumorning milliy o‘ziga xos xususiyatlari tilda ma’lum bir xalqning hajviy lingvomadaniy kodining tushunchalarini ifodalovchi belgilar bo‘lgan turli lingvistik vositalar yordamida kodlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Argyle, M. Baxt psixologiyasi / M. Argyle. – 2-nashr. - Sankt-Peterburg: Peter, 2003. - 271 p.

2. Belinskiy V.G. She’riyatning nasl va turlarga bo‘linishi / V.G. Belinskiy //To‘plangan Op. 9 jildda.T. 3. – M.: Xudoj lit., 1978. – B. 294-412.

3. Borev Yu.B. Komiks / Yu.B. Borev. – M.: Art, 1970. – 272 b.

4. Ivanova L.P. Komiksning lingvistik va madaniy jihatlari (muammoni shakllantirish tomon) / L.P. Ivanova // Tilning mantiqiy tahlili: komediyaning lingvistik mexanizmlari / Rus akademigi. Fanlar, Tilshunoslik instituti; javob. ed. N.D. Arutyunova. – M.: Indrik, 2007. – B. 560-569.

5. Karasik V.I. Til doirasi: shaxsiyat, tushunchalar, nutq / V.I. Karasik. - Volgograd: Peremena, 2002. - 477 p.

6. Luk A.N. Yumor, zukkolik, ijodkorlik / A.N. Piyoz. – M.: San’at, 1977. – 183 b.

7. Mubashirxon Bektoshev Odilbek o‘g‘li. (2022). PASSIVE VOICE IN TRANSLATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1605–1608. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/PHF93

8. Mubashirxon Bektoshev Odilbek o‘g‘li. (2022). FORMAL AND SYNTACTIC ASPECTS OF THE PASSIVE VOICE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1556–1559. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/RE4YV

9. Rakhmanova, N. (2023). LANGUAGE AND CULTURE: INVESTIGATE THE CONNECTION AMONG LANGUAGE AND CULTURE, ANALYZING HOW LANGUAGE REFLECTS AND SHAPES SOCIAL STANDARDS, VALUES, AND PERSONALITIES. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31). извлечено от https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1291

10. Tven M. Hikoya san’ati haqida [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: http://royallib.com/book/tven_mark/ ob_iskusstve_rasskaza.html.

11. Tillar dunyo timsoli sifatida. – M.: “AST nashriyoti” MChJ; Sankt-Peterburg: Terra Fantastica, 2003. - 568 p.

12. Zaliznyak A.A. Komiksning lingvistik va madaniy jihatlari (muammoni shakllantirish tomon) / A.A. Zaliznyak // Tilning mantiqiy tahlili: komediyaning lingvistik mexanizmlari / Rus akademigi. Fanlar, Tilshunoslik instituti; javob. ed. N.D. Arutyunova. – M.: Indrik, 2007. – B. 554-557.

ДИСКУРСИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МЕТАФОР В АНГЛИЙСКОЙ ДРАМЕ: КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

Хурсанов Нурислом Искандарович
Университет образования Ренессанс доц. и.о.,
Доктор философских наук (PhD) по филологическим наукам,
E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110295

Аннотация. По лингвокультурным особенностям метафоры в драматическом дискурсе можно разделить на национальные и индивидуальные метафоры. В статье говорится об использовании метафор в английских драматических произведениях, влиянии метафор на черты характера героя, их роли в достижении речевой интенции, их роли в психическом состоянии героя, когнитивно-прагматических характеристиках.

Ключевые слова: *драма, метафора, дискурсивная интерпретация, когнитивно-прагматическая характеристика, когнитивная функция, психологическая функция.*

Annotatsiya. Dramatik diskursda voqelangan metaforolarning lingvokulturoligik belgilariga muvofiq ularni umumetnik va individual tipdagi metaforalarga ajratish mumkin. Maqolada metaforalarning ingliz dramatik asarlarida qo‘llanilishi, metaforalarning qahramon xarakter xususiyatlariga ta’siri, nutqiy intensiyaga erishishda tutgan o‘rni, qahramon ruhiy holatidagi o‘rni, kognitiv-pragmatik xoslanishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *drama, metafora, diskursiv talqin, kognitiv-pragmatik xoslanish, kognitiv funksiya, psixologik funksiya.*

Annotation. According to linguistic and cultural characteristics, metaphors in dramatic discourse can be divided into national and individual metaphors. The article talks about the use of metaphors in English dramatic works, the influence of metaphors on the character traits of the hero, their role in achieving speech intention, their role in the mental state of the hero, and cognitive-pragmatic characteristics.

Key words: *drama, metaphor, discursive interpretation, cognitive-pragmatic characteristics, cognitive function, psychological function.*

Метафора как средство языковой выразительности привлекала внимание с древних времен. Наиболее видные мыслители феномена метафоры

варьируются от Аристотеля (античная филология) до Руяки (древнеиндийская филология), Дж.Дж. Исследовали Руссо, Гегель, Э. Кассирер и другие. Отношение к метафорическим конструкциям со временем существенно изменилось. В античной и средневековой философии существовали разные взгляды на место метафоры в языке и тексте, ее полное отрицание, роль вспомогательных, второстепенных средств, усиливающих эмоциональное воздействие речи на слушателя [Xursanov, 2024:17-27]. Главный объект внимания Аристотеля — практическая сторона проблемы, цель и способы употребления метафоры в речи. Анализ функционального аспекта метафоры в его работах сосредоточен на следующих функциях метафоры в языке:

Эстетическая функция метафоры. По мнению Аристотеля, метафора как эстетическое явление призвана вызывать у читателя положительные эмоции. Метафора художественно выражает речь, вызывает чувство новизны и удивления. В древности под красотой понимали все, что было эстетически выразительным и синонимом понятия искусства.

Психологическая функция метафоры. По мнению Аристотеля, метафора ускоряет процесс человеческого восприятия, превращает мир в среду психологической устойчивости. Он основан на часто используемых словах и помогает наглядно представить передаваемую информацию в виде изображений. Метафора служит для живого изображения неодушевленных вещей.

Когнитивная функция метафоры. Эта задача, прежде всего, служит выяснению ее основного смысла. Метафора свободна от смысловых преувеличений и помогает выразить их лаконично. Метафора стремится выразить речь ярко и ясно, устанавливает связь понятий. Метафора – явление многогранное. Метафора изучается в поэтике как особый вид тропов, в лексикологии как источник новых значений слов, в языке как особый тип речевого употребления. Таким образом, в западной лингвистике можно выделить заместительную, сравнительную, интеракционистскую и когнитивную теории метафоры [Раупова и др., 2011; Raupova, 2023].

Как стилистическая фигура метафора имеет множество функций, среди которых выделяются основные:

➢ выявление сходства между двумя непохожими вещами и создание нового значения;

➢ увеличение словарного запаса языка, усиление стилистической окраски, придание ей выразительности (словообразование и стилистические функции);

➢ «приписывание» объекту (понятию, событию) некоторого свойства или совокупности свойств, которые не могут быть ему приписаны иным способом;

➢ красочное изображение живых существ и вещей, рисование нравственных портретов и психических состояний (изображаемых) персонажей, объяснение фактов общественной жизни, убедительное изложение идей, связанных с искусством, философией, общественной жизнью и т. д.

Метафоры описываются как инструменты, которые можно использовать для достижения широкого спектра целей, включая объяснение, обобщение, поддержку точки зрения, описание, разъяснение или убеждение [Semino, Demjén & Demmen, 2016:625-645]. В литературе две функции метафорических единиц анализируются как наиболее важные или общие функции, а именно объяснение и убеждение. Однако эти две функции часто рассматриваются отдельно как две независимые цели. Эффективное использование метафор является одним из важных аспектов коммуникации и риторики, поскольку метафоры описывают каждый контекст ясно и понятно. Метафоры рассматриваются как средство повышения убедительности общения. Считается, что метафорические выражения выполняют эмоциональную функцию, поскольку их можно использовать для пробуждения чувств и межличностной близости [Bowes & Katz, 2015: 953–963]. Эффекты убеждения также подробно описаны с когнитивной точки зрения. Метафорические выражения обычно считаются более трудными для анализа, поэтому в когнитивной функции метафоры посредством различных способов создания нового значения изменяется исходное значение слова и увеличивается сила эстетического воздействия на человека [Carston, 2002: 83–105].

Следует отметить, что когнитивный подход занимает ведущее место в современных современных исследованиях, поскольку он сложен и сочетает в себе преимущества всех подходов к изучению метафоры, существующих в современной лингвистике. Выделяют три класса метафор, в которых преобладает тот или иной прагматический компонент значения. К первой группе относятся интенциональные метафоры [Davletnazarova, 2022]. Этот тип метафоры представляет собой прагматическую составляющую значения. В этом случае свойства предмета ярко выражены в метафорическом

содержании. Иными словами, метафора, принадлежащая к этой группе, основана на прямом номинативном значении слова. В этом случае метафоры непосредственно выражаются с целью выразить коммуникативную цель автора: *France: She is herself a dowry*. (William Shakespeare, King Lear Act1, scene 1). Когда Лирд наследует Корделию, большинство ее женихов отказываются от своих претензий, но король Франции объясняет, что сама Корделия стоит больше, чем любое приданое. В данном контексте используется этот метафорический компонент.

Duncan: *in his commendations I am fed: /It is a banquet to me*. (William Shakespeare, Macbeth Act1 ,scene 4, line 5). При этом коммуникативная цель Дункана основана на «слышании похвалы». В этом контексте он использует метафору “*in his commendations I am fed*”.

Hermione: *one good deed, dying tongueless; g / Slaughters a thousand waiting upon* . (William Shakespeare, The Winter's Tale Act 1, scene 2, line 91). Гермиона хочет, чтобы Леонте сделал ей комплимент. В «Венецианском купце» Порция размышляет о свече, которая на рассвете освещает ее сад: «Как далеко посылает свой свет эта маленькая свеча! Так сияет свет добра в злом мире». *Troilus: She is a theme of honor and renown, /A spur to valiant and magnanimous deeds*. (William Shakespeare, Troilus and Cressida Act 2, scene 2 ,line 6).

Ко второй группе относятся метафоры с импликативным прагматическим компонентом. В таких случаях значение метафоры во многом зависит от некоторых общепринятых, традиционно стереотипных ассоциаций, связанных с определенным понятием или предметом. Чтобы успешно расшифровать метафору такого типа, необходимо знать некоторую дополнительную информацию о культуре, истории, традициях и обычаях конкретной страны [Khursanov, 2023:30-45]. В эту группу входят спортивные, медицинские, технические, военные (военные), религиозные и другие виды метафор.

*Troilus: Why, she is a pearl/Whose price hath launch 'd above a thousand ships, /And turn'd crown'd kings to merchants. (*William Shakespeare, Trvilus and Cressida Act 2, scene 2, line 81).

«В лингвистике под импликацией (от implicāre «связывать, путать») понимают использование в предложении скрытых (отсутствующих) глагольных выражений, в том числе сокращение одного или нескольких существительных в определительной цепочке» [Барабанов , 2013: 49-53]. Следовательно, содержание скрытой подсказки выражается в импликации. В частности, можно заметить, что в приведенном выше примере есть

импликация. Такой образ есть в компоненте «Thousand Ship» Марло «Доктор Фауст». Пример также относится к этой реальности.

Ulysses: The seeded pride/That hath to this maturity blown up/In rank Achilles must or now becropp'd / Or, shedding, breed a nursery of like evil / Toover bulk us all.(William Shakespeare, Troilusand Cressida Act1scene 3,line 316).

Гордость Ахилла сравнивают с семенем, которое нужно срезать после того, как оно выросло в очень большое дерево. И в этом случае подчеркивается чрезвычайная гордость образа. Указывается, что эта гордость не переходит границы и не переходит в высокомерие. Уникальность образа в том, что метафора импликативного содержания создана путем обращения к героям древнегреческих мифов. *Northumberland: If then we shall shake off our slavish yoke,/Imp out our drooping country's broken wing,/Redeem from broking pawn the blemish'd crown, .And make high majesty look like itself.* (William Shakespeare, The Tragedy of" King Richard the Second Act 2, scene1, Un e292).

Выражается, что страна все больше приходит в упадок, и необходимо производить особые изменения. Подразумеваемое значение относится к недовольству политикой короля и его свержению. В строке три метафоры. На первом изображены лорды как королевские чудовища, на втором — выстрел из соколиной охоты — Англия изображена как раненый ястреб, нуждающийся в починке, а на третьем изображена свернувшаяся королевская корона.

Suffolk: we'll weed them all at last, /And you yourself shal steer the happy helm. (William Shakespeare, The Second Part of Henry the Sixth, Act1 ,scene 3, line102). Саффолк объединяет метафоры садоводства и мореплавания, чтобы убедить принцессу, что она избавится от всех своих врагов. “*Steer the happy helm”* означает взятие контроля через*: Gardener: Give some supportance to the bending twigs/. Cut off the heads of too fast growing sprays*. (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Second, Act3 , scene4, line30).

Садовник использует приведенную выше метафору, когда пропалывает сад в ходе выполнения своих обязанностей. Рамзан указывает на необходимость построения справедливого общества, а также уничтожения и истребления тех, кто творит несправедливость.

К третьей группе относятся метафоры, включающие эмоционально-оценочно-прагматический компонент смысла. Слова или фразы этого типа отличаются яркой эмоциональной окраской, значением и выразительностью. Они не только создают взаимное сходство, но и служат для выражения чувств автора или говорящего через предметы и понятия, выражают его субъективное

отношение к определенному предмету или событию. В ходе анализа можно увидеть преобладание следующего субъективного отношения и эмоционально-экспрессивной оценки:

Сожаление: *Lear: When she was dear to us,we did hold her so; But now her price is fall'n*. (William Shakespeare, King Lear, Act 1 , scene 1 ,line 199)

Гнев и ненависть: *Edgar: my name is lost, / By treason's tooth bare-gnawn and canker-bit*. (William Shakespeare, King Lear, Act5, scene 3,line122). *Othello: what's the matter, /That you unlace your reputation thus.* (William Shakespeare, Othello, Act 2, scene 3,line 184). *King Philip: our hands.. ./they were besmear'd and over stain'd /With slaughter's pencil,where revenge did paint/ The fearful difference of incensed kings. (*William Shakespeare, The Life and Death of King John, Act 3,scene1 ,line 23).

Похвала или лесть: *Iago: Good name in man and woman's dear, my lord; /Is the immediate jewel of our souls***.** (William Shakespeare, Othello, Act 3, scene 3, line 159).

Гордость: *Mowbray: A jewelin a ten-times-barr'd up chest/ Is a bold spirit in a loyal breast***.** (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Second, Act1, scene1 , line180).

Совет: *And thou shalt prove a shelter to thy friends, /A hoop of gold to bindthy brother sin,/That the united vessel of their blood,/. ..Shall never leak. (William Shakespeare, The Second Part of King Henry the Fourth, Act 4, scene 4, line 41).*

Забота/Сочувствие: *Duchess of York: I am your sorrow's nurse, /And I will pamper it with lamentation. (William Shakespeare, The Tragedy of King Richard the Third, Act 2 ,scene 2 ,line 87).*

Интересный аспект анализа трагедий Шекспира состоит в том, что нравоучения, похвалы и аплодисменты, как правило, мудрые метафоры с позитивным подтекстом, выражаются преимущественно в речи отрицательных персонажей. В приведенном примере драгоценная мысль, выраженная языком Яго, показывает ситуацию, совершенно противоположную ее первоначальному назначению и виду. В связи с тем, что в одном и том же значении слова часто сочетаются разные прагматические компоненты, определить их по значению слова несколько сложно. Анализ важных метафор, употребляемых в британских и американских драмах, а также в речи персонажей, показывает, что этот прием больше подходит авторским метафорам, поскольку они являются одним из средств выражения

эмоционально-выразительности лингвистически, и следовательно, имеют больший прагматический потенциал, чем традиционные метафоры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проблема общности языка и культуры отличается многообразием и сложностью анализа. В языке присутствуют как первые формы народной культуры, так и современное состояние. Соответственно, язык как выражение культуры можно оценить как великолепное сокровище устаревших, архаичных, релятивизированных, устойчивых культурных основных единиц.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Bowes, A., & Katz, A. Metaphor creates intimacy and temporarily enhances theory of mind. Memory and Cognition, 43(6), 2015. – pp. 953–963.
2. Carston, R. Metaphor, ad hoc concepts and word meaning - more questions than answers. UCL Working Papers in Linguistics, 14, 2002. – pp. 83–105.
3. Davletnazarova, Laylo. "Some Reviews on Mathematic Linguistics." *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects* 1, no. 1. 2022.
4. Khursanov, N. Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics. *Uzbekistan: Language and Culture*, *1*(1). 2023. – pp. 30-45.
5. Raupova, L., Khursanov, N., Khursanova, L., & Polatova, S. Development of world modern linguistics and discourse interpretation in it. In *E3S Web of Conferences*. EDP Sciences. 2023. Vol. 413, p. 03023. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341303023
6. Semino, E., Demjén, Z., & Demmen, J. An integrated approach to metaphor and framing in cognition, discourse, and practice, with an application to metaphors for cancer. Applied Linguistics, 39(5), 2016. 625–645. https://doi.org/10.1093/applin/amw 028.
7. Xursanov N. I. Ingliz va o‘zbek dramalarida verbal va noverbal vositalar munosabati // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, No 1 (54). — B. 17-27. https://doi.org/10.36078/1709623334.
8. Барабанов О. О. Импликация / Труды XI международных Колмогоровских чтений: сборник статей. — Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2013. С. 49-53.
9. Raupova, L. Dialogik nutqning diskursiv talqini (polipredikativ birliklar misolida). Monografiya. O‘zbekiston fanlar akademiyasi. –Toshkent. “Fan”. 2011.

O‘ZBEK TILIDAGI AYRIM MUROJAAT SHAKLLARINING SEMANTIK TARAQQIYOTIDA AKS ETGAN KOGNITIV XUSUSIYATLAR

Abruyeva Zaxro Shokir qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
zaxroabruyeva99@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110308

Annotatsiya. Mazkur maqolada murojaat shakllarining ijtimoiy o‘zgarishlar natijasidagi taraqqiyoti va evolutsiyasi masalasi yoritilgan bo‘lib, ushbu shakllarning yaratilishiga asos bo‘luvchi kognitiv omillar o‘rganilgan. Chunki muloqot xulqi va vokativlar millat xarakterining uzviy bir qismi, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Biz bugun nutqimizda qo‘llayotgan shakllarning ma’no-mazmuni, kelib chiqishi muayyan davrda noto‘g‘ri qo‘llanish natijasida o‘z mohiyatini tamoman yo‘qotganligiga guvoh bo‘lamiz. Maqolamizda mazkur lingvistik birliklarning ana shu jihatlarini tahlilga tortdik.

Kalit so‘zlar: *Murojaat, vokativ, muloqot xulqi, apelyativ, kognitiv lingvistika, genezis.*

Abstract. This article covers the issue of development and evolution of forms of appeal as a result of social changes, and the cognitive factors underlying the creation of these forms are studied. Because communication behavior and vocatives are an integral part of the nation's character, they are inextricably linked. We witness that the meaning and origin of the forms we use in our speech today have completely lost their essence as a result of incorrect use in a certain period. In our article, we analyzed these aspects of these linguistic units.

Keywords: Address, vocative, communicative behavior, appellative, cognitive linguistics, genesis.

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bog‘lanadi. Masalan, apellyativ vazifa – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan bo‘ladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa o‘rnatish (контактоустанавливающая) funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bog‘liq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar – ma’lumotni qabul qilishga tayyorlash, uning e’tiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa o‘rnatish – sotsiativ,

reprezentativ funksiyalari so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu so‘zlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bo‘lib kelgan.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo‘rqinch, gina,iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo‘lsa o‘shanday, asliga mos holda ro‘yobga chiqishi uchun vosita bo‘ladi.

Murojaat shakllari barcha xalqlarga muloqotni zarur tarzda olib borish uchun katta ahamiyat kasb etishi, suhbatdoshlarning yashash joyi, millati, jinsi, yoshi, kasbi va boshqa ijtimoiy belgilariga oid ma’lumot berishi haqida mulohaza yuritiladi. Tildagi mazkur birliklarni madaniyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas. Yakovenko ta’kidlaganidek, madaniyatning barcha sohalari, barcha ma’naviy va madaniy birliklari inson ongida o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham madaniyatda biror narsa yo‘qki, inson tafakkurida o‘z aksini topmasa va idrok qilinmasa. Madaniyatning inson ongida aks topishida belgi tizimlarining roli katta va buning eng asosiy vositasi, albatta, tabiiy til tizimidir. Ammo madaniyatda mavjud bo‘lgan kognitiv birliklarning ba’zilari lisoniy voqelanish jarayonidan chetda qolishi, ya’ni lisoniy nom olmasdan qolishi ham ehtimoldan holi emas. Shunday ekan har bir madaniy birlik, albatta, kognitiv tafakkurda idrok etilmay qolmaydi. Har bir shaxs tug‘ilganidan olamni o‘rgana boshlaydi. Atrof-muhitdagi jismlar, hodisalar va shaxslarni ularning xususiyatidan hamda til imkoniyatidan kelib chiqqan holda nomlaydi. Bu esa tafakkurning idrok faoliyati kognitiv qobiliyat bilan uzviy bog‘liqdir. Ular turli so‘zlashuv jarayonlarida, turfa sharoitlar va lisoniy jarayonlarda vujudga keladi, kommunikatsiya jarayonini tiklash, bu jarayonni faollashtirish, nutqiy faoliyatni me’yorida ushlash uchun xizmat qiladi.

Ba’zida nutqimizda biz foydalanayotgan vokativlarning ma’no-mazmuni, kelib chiqishi muayyan davrda noto‘g‘ri qo‘llanish natijasida o‘z mohiyatini tamoman yo‘qotganligiga guvoh bo‘lamiz.

Shunday murojaatlardan biri ***taqsir*** so‘zidir. Taqsir so‘zi arabchadan tarjima qilganda sustkashlik, kamchilik, qisqartirish kabi ma’nolarni anglatadi. Taqsir va qusur so‘zlarining o‘zagi bitta bo‘lib, so‘z iste’molga kirgan ilk davrda kamina so‘ziga ma’nodosh sifatida va kamtarlik ma’nosida qusurli, aybli, gunohli suhbatdoshingiz tarzida qo‘llangan, ammo vaqt o‘tishi bilan XIX asr o‘rtalaridan so‘z semantikasi ahamiyatini yo‘qotib, oliy tabaqa vakillariga hurmat ko‘rsatish vositasi sifatida foydalanilgan. Bugungi kunda tilga oid bilimning taraqqiyoti,

so‘zlarning genezisi keng miqyosda o‘rganila boshlangach shu va shunga o‘xshash so‘zlarning asl mohiyati ochilib, sekinlik bilan iste’moldan chiqarila boshlandi.

Ayollarga nisbatan qo‘llanuvchi murojaat shakllaridan yana biri ***katta aya, katta oyi*** shakllaridir. Bugungi kunda katta amakining xotiniga nisbatan, shahar hududlarida esa buvisiga nisbatan ishlatilayotgan murojaat shaklining genezisiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, bugun foydalanilayotgan vazifasidan tubdan farq qilishiga guvoh bo‘lamiz. Qadimda mazkur birlik qo‘sh xotinli davrda oiladagi to‘ng‘ich xotinga nisbatan oilaning barcha bolalari va xizmatkorlar tomonidan qo‘llangan [https://uz.m.wiktionary.org/wiki/oyi]. So‘z semantikasida “yoshi kattalik”, “ota tarafdan oilaga mansublik” semalari mavjud bo‘lib, amakining xotini va katta xotinga nisbatan integral qo‘llanishini vujudga keltirgan.

Oliy o‘quv yurtlari ustozlariga talabalar tomonidan ***domla*** murojaati qo‘llanadi. Domla so‘zining semalariga diqqatimizni qaratamiz. Bu so‘z diniy bilim beruvchi shaxslarga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, quyidagi semalarini o‘zida mujassamlashtiradi:

1. “Diniy bilim beruvchi”
2. “Ziyoli”
3. “Ta’lim beruvchi”
4. “Diniy bilim yordamida amal qiluvchi”

Domla so‘zining barcha ma’nolarida gender jihatdan xoslik semasi mavjud, leksema faqat erkak jinsidagi shaxsni anglatgan. Buning sababi muayyan davrlarda ushbu faoliyat bilan ayollar shug‘allanmaganligi bilan izohlanadi. Leksemaning “O‘rta va oliy maktab o‘qituvchisi; ilmiy rahbar, ustoz” ma’nosi XX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhit ta’sirida shakllangan bo‘lib, unda gender jihatdan xoslik semasi mavjud emas. Leksema talabalar nutqida oliy ta’lim muassasida bilim beruvchi har ikki jins vakillariga nisbatan qo‘llanadi [Рашидова, 2021:25]. Diniy murojaat shakli bilan ustozga nisbatan ishlatiluvchi murojaat shakllarini bog‘lovchi sema “ziyolilik”, “ta’lim beruvchi” kabi semalardir. Har ikki soha vakillari ham ta’limga aloqador shaxs bo‘lgani bois kishilar kognitiv bilim bazasi mazkur murojaat shaklini o‘qituvchi, ustozga nisbatan qo‘llashga sabab bo‘lgan.

Arabizmlar o‘zbek tiliga o‘zlashib, shu til doirasidagi leksik-semantik paradigmalarda ishtirok etadi. Domla leksemasi bir qator leksemalar bilan sinonimik munosabatga kirishadi va o‘ziga xos semalari bilan farqlanib turadi.

Tarixan ***begim*** murojaati bugungidan farq qiluvchi semalarni ifodalagan va odamlar undan quyidagi murojaat turlarida foydalanishgan:

1) xonliklar hukmronligi davrida sud idoralari hukumati vakillariga murojaat qilishda foydalanilgan: – Shoshmang, bek. Meni surat chizadi, deb sizga kim aytdi?.. (P.Qodirov. Yulduzli tunlar);

2) shahar yoki viloyat hokimlariga murojaat qilishda: – Mazur tuting, janobi bek (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).

3) oliy tabaqa vakillari, yuqori sinfga mansub shaxslarga murojaat qilganda hurmat ma’nosida: – Meni eslay olasizmi, bek? (A. Qodiriy. O‘tkan kunlar);

4) yuqori lavozimdagi odamlarning farzandlariga murojaat qilishda: – Bizni kechirasiz, bek aka! (A. Qodiriy. O‘tkan kunlar); – O‘zingizni tag‘ofilga solmang, bek yigit, – dedi qushbegi (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar);

5) xizmatchilar ish beruvchilarga murojaat qilganda: – Endi kuyovlik muborak bo‘lsin, begim? (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar);

6) yuqori lavozimdagi odamlarning xotinlari erlariga murojaat qilganda: – Oyi… dada… – so‘ngra, – begim, – deb ingradi… Erining yuzini yuziga qo‘ydi, Uyalgansumon ko‘zini yumdi… (A. Qodiriy. O‘tkan kunlar) [Кодирова, 2021:20].

Misollar shuni ko‘rsatadiki, **bek** so‘zi asosan erkaklarga murojaat qilishda foydalanilgan, ammo bu murojaat ayol jinsiga mansub shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan: ***beklarbegi (beklar begi), beka, bek oyi (bek oyim, begoyim), bek buvi, bek xonim, bek opa, bek qizi, begim, bek xola***. Bu unvon bilan atalgan ayollar bek oilasiga mansubligini anglatgan. Mas.: – Sevinchi bering, bek buvi, kennoyim keldila! (A. Qodiriy, O‘tkan kunlar). Beklar begi (beklarbegi), bek oyim (begoyim) – bekning onasi yoki xotini va ularga murojaat shakli. Hasanali tanitdi: – Mana bu kishi qayin onangiz – bek oyim bo‘ladilar. (A. Qodiriy. O‘tkan kunlar). Bek so‘zidan yasalgan begim (bek+im) erkak va yuqori sinf oilalaridagi ayollarga murojaat shakli sanalgan: – Iloho Rustamday o‘g‘il ko‘ring, begim!.. (P. Qodirov. Yulduzli tunlar). Ayollarga nisbatan qo‘llanadigan begim murojaat shaklining genezisiga ahamiyat qaratsak, bu so‘zlar tarkibidagi –im shakli egalik qo‘shimchasi sifatida e’tiborni tortishi tabiiy. Ammo so‘zlarning tarixiy asosiga yuzlanadigan bo‘lsak, so‘z tarkibidagi –im egalik qo‘shimchasi emas, balki qadim turkiy tillarda ona ma’nosini ifodalagan “uma” so‘zi ekanligi ma’lum bo‘ladi, ya’ni begim tarkibidagi –im uma shaklining qisqargan variantidir, ya’ni “mening begim” tarzida egalik ma’nosi emas, “bek ona” ma’nosini ifodalash uchun vujudga kelgan shakl hisoblanadi [Рустамов, 1987:125]. Demak, erkaklarga xos begim murojaati bilan ayollarga nisbatan qo‘llanayotgan shakl ma’nolarida ana shunday nozik semantik farq mavjud.

Bugungi kunda bu shakl ayollar tomonidan oila boshlig‘iga nisbatan murojaat qilishda qo‘llanadi. Mazkur murojaatning tarixiy qo‘llanishi zamirida amaldorlar,

beklik mansabiga mansub kishilarga murojaat ma’nosi yotgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan hokimiyat, davlat boshqaruv aparatlari tizimining yangilanishi, o‘rta asrlar davri, shuningdek, o‘tgan asrlarga xos bo‘lgan ijtimoiy tabaqalanish, sinfiy bo‘linishning tugatilishi natijasi o‘laroq, konseptga xos mazmun arxaiklashdi va uning apellyativ vazifasi o‘zgarib ayollarning eriga murojaati sifatida ya’ni erkalovchi yoki intim murojaat shakli sifatida saqlanib qoldi.

Murojaatlar tizimidagi evolyutsiya ijtimoiy tuzilishdagi o‘zgarishlarni, ma’lum bir kommunikativ akt paytida u yoki bu shaklni tanlashni belgilaydi hamda ushbu tanlovni belgilaydigan ijtimoiy vaziyat parametrlarini ko‘rsatadi. Diaxronik ma’noda leksik vositalarni o‘rganishning ahamiyati, til va jamiyatning o‘zaro ta’siri tarixi nechog‘li muhim ekanligini anglagan holda, biz murojaatlarni nafaqat kommunikativ-pragmatik, shuningdek tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jihatidan ham kognitiv asoslarini tadqiq qilishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Tildagi shakllarning genezisini chuqur anglash ularning to‘g‘ri qo‘llanishiga yordam beradi. Eski shakllar va neologizmlar o‘rtasida semantik differensiatsiyani aniqlash bugungi kunda tilning leksik sathining imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy o‘zgarishlar vujudga keltirayotgan yangilanishlarning ongga o‘zlashtirilish jarayonlarini to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рашидова Н. Ўзбекистон таълим соҳасидаги арабизмларнинг лексик-семантик таҳлили. – Тошкент, 2021. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Б.25
2. Рустамов А. Сўз ҳақида сўз. -Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б.125
3. Қодирова М. Турли тизимли тилларда мурожаатнинг коммуникатив-прагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материаллари асосида). Филол. фан. фалс. д-ри… (PhD) дисс.автореферати. – Термиз, 2021. – Б.20
4. https://uz.m.wiktionary.org/wiki/oyi

UDK: 8-7:398.0:4-321.1(045)

TAQLID SO‘ZLARGA BERILADIGAN ILLYUSTRATIV MISOLLARNING XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN TANLANISHI (O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARI MISOLIDA)

Xaydarova Xurshida Fayzulla qizi
QarDU tadqiqotchisi, Qarshi shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi
khurshida_khaydarova90@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.11110327

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da (5 jildli) taqlid so‘zlar tarkibida illyustrativ misol sifatida kiritilgan maqollar va matallar statistik tahlil qilingan. Hamda “O‘zbek xalq maqollari” kitobiga kiritilgan, taqlid so‘zlar asosida shakllangan xalq maqollari ham o‘rganilib yangilik sifatida kiritilgan.

Kalit so‘zlar: *taqlid so‘zlar, illyustrativ misol, xalq og‘zaki ijodi, maqol, matal.*

Abstract. In this article, the proverbs included as illustrative examples in the “Explanatory dictionary of the Uzbek language” (5 volumes) as illustrative examples are analyzed statistically. Also, folk proverbs that were formed on the basis of imitation words included in the book “Uzbek folk proverbs” were studied and included as news.

Key words: *imitation words, illustrative example, folklore, proverb.*

Izohli lug‘atlar umumxalq tilining barcha leksik qatlamlarini o‘z ichiga olib tilning nufuzini, boyligini, turli ma’no nozikliklarini, ayni holatini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da illyustrativ misol sifatida maqollarning kiritilish o‘rinlarini yoritganmiz. Shuningdek, “O‘zbek xalq maqollari” kitobiga kiritilgan taqlid so‘zlar ishtirokidagi maqollarni tasniflaganmiz. Izohli lug‘atlarda beriladigan illyustrativ misollarni badiiy asarlar, ilmiy matnlar, so‘zlashuv va publitsistik manbalardan tanlash bilan bir qatorda maqollar asosida, ya’ni xalq og‘zaki ijodidan shakllantirish so‘zning amaldagi o‘rnini ko‘ra olishda, o‘zbek xalqi urf-odatlari bilan yaqindan tanishtirishda, so‘zdan foydalanishni ommalashtirishda katta ahamiyatga ega.

Emotsional xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar badiiy ifodani kuchaytiradi, tinglovchi yo o‘quvchining diqqatini gap mazmuniga tortadi [Пинхасов, 1969].

Xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har biri xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, estetik va falsafiy qarashlari, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov, 2005].

Tadqiqotimiz davomida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ni (5 jildli) sinchiklab o‘rgandik va quyidagi maqollar taqlid so‘zlarga illyustrativ misol sifatida tanlab kiritilganligini uchratdik.

BITBILDIQ *Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa – bitbildiq.* Turar joyning tayini yo‘q, darbadar, ammo beg‘am, xushchaqchaq odam haqida. *Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa – bitbildiq – dedi Mavlon.* B.Rahmonov, Mardlar qissasi.

VIT *Bedananing “vit” degani – qochgani.* Maqol.

PICHIR *Gapning yomoni pichir, etning yomoni qichir.* Maqol.

QAG‘ *Qarg‘a qag‘ etadi, o‘z vaqtini chog‘ etadi.* Maqol.

HAP-HAP *Yuzta hap-hapdan – bitta chap-chap Afzal* [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008]. Maqol.

Izohli lug‘atlarda maqollarning kiritilishi nafaqat so‘z ma’nosini oson tushunilishida, balki maqollarning ham ommalashishida, illyustrativ misol orqali o‘ziga xos estetik zavq ulashishda, xalq og‘zaki ijodini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (5 jildli) illyustrativ misol sifatida maqollar bilan bir qatorda matallardan ham foydalanilgan o‘rinlar uchraydi. Masalan,

PIR *Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi Afzal* [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008]. Matal. Ushbu barqaror birikma izohli lug‘atning ikki o‘rnida uchraydi. P**ir** so‘zida matal nomi bilan illyustrativ misol sifatida kiritilgan bo‘lsa, **shir** so‘zi izohida ibora sifatida qayd etilgan. Mazkur holatga izohli lug‘atning yangi nashrlarida biroz aniqlik kiritish zarurati mavjud.

Maqollar o‘zbek xalqining azaldan turon zaminida shakllanganligi va o‘zlariga yarasha urf-odat, an’analari bo‘lganligining bosh omilidir. “O‘zbek xalq maqollari” kitobida taqlid so‘zlar ishtirok etgan ko‘plab maqollar kiritilgan. Ushbu maqollarni alohida tasnifladik. Ulardan kelgusida yaratiladigan izohli lug‘atning yangi nashrlariga illyustrativ misol sifatida kiritish orqali lug‘at foydalanuvchisini xalq og‘zaki ijodi bilan yaqindan tanishtirish, ajdodlarimiz turmush tarzini yoritish, so‘zlarning ilk paydo bo‘lgan davrlarini ko‘rsata olish, asosli manba berish kabi bir nechta yutuqlarga erishish mumkin.

Arg‘umog‘im jirtak otdi, loyni ko‘rib tappa yotdi; Oyog‘ing tap-tap etmasa, og‘zing shap-shap etmaydi; Tinmas kampir oyog‘i, oydinda chars yigirar; “Ho‘k” degan ho‘kizga o‘lim; Ho‘k desa, ho‘k, cho‘k desa, cho‘k; Gapi to‘ngning o‘zi to‘ng; Gapning yomoni pichir; Pichir-pichirdan o‘t chiqar; Boyning gapi – o‘ng, yo‘qning gapi to‘ng; Yugurakdan yugurak chiqsa, oyog‘i tipir-tipir; Besalom odam – to‘ng, beaql odam – gung; Mard bilan gurunglashgan mard bo‘lar, nomard bilan xiringlashgan part bo‘lar; Nomardning ko‘prigidan o‘tgandan, daryoda g‘arq bo‘lgan yaxshi; Shalp yursang, shapaki yersan; Yuzta siz-bizdan, bitta jiz-biz yaxshi; Ol, desang – hiring-hiring, ber, desang – diring-diring; Baq-baq etgan takani yomg‘ir yoqqanda ko‘r, Shaq-shaq etgan kelinni sigir soqqanda ko‘r; Baq-baq etgan takani qor bosganda ko‘r, manman degan yigitni yov bosganda ko‘r; Dong tortganning to‘yini ko‘r, mang urganning uyini ko‘r; Pismiq yotib put ko‘tarar, shaldir-shuldir ot ko‘tarar; Nog‘oraning ichi po‘k, ovozi – baland; O‘n marta shap-shap deguncha, bir marta shaftoli degan yaxshi; G‘at-g‘at qilgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi; Yolg‘onchi lop etar, yalamachi qon etar; Yolg‘on gapning chuvi chiqar; Tuya elakka qolganda “bo‘” debdi; Sirot kechmay, qah-qah urma; Qozonda jiz-biz, ko‘rpada siz-biz; Bir aylantirganni chir aylantir, chir aylantirganni ming aylantir; Yovga borsang, baring bor, ovga borsang, hiring bor; Dalaning ko‘kiga, odamning po‘kiga ishonma; Lov yongan o‘t tez o‘char; Lovullaki ot ko‘tarar, pismiqi dim o‘tirar; Uv-uvga suyav, chiy-chiyga suyav; Qars ikki qo‘ldan chiqar; Bossang, qurbaqa ham “vaq” etar; So‘zlasam, shaq-shaq deydi, so‘zlamasam, ahmoq deydi; Siylaganni sigir bilmas, “Ho‘k” deganni – ho‘kiz; Shap-shap deguncha, shaftoli degin; Karnaychidan – bir puf; Pishak go‘shtga yetmasa – “puf sassiq”; Mingta hap-hapdan, bitta chop-chop yaxshi; To‘rtta shap-shapdan, bitta hap-hap yaxshi; Tegib tursa – “mo‘h-mo‘h”, tegmay qolsa – “ho‘k-ho‘k”; Mingta siz-u bizdan bitta jiz-u biz yaxshi; Yo‘lbars qirqqa kirsa ham yeyishi – ang, qarg‘a mingga kirsa ham yeyishi – go‘ng; Borning qozoni – biqir-biqir, yo‘qning qozoni – tiqir-tiqir; Bedananing “vit” degani – qochgani [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov, 2005].

Yuqoridagi maqollardan taqlid so‘zlarga illyustrativ misollar sifatida kiritish taqlid so‘z ma’nosini kengaytirish, urf-odat, qadriyatlarimizning davom etishiga erishish bilan bir qatorda xalq tilida taqlidlarning azaldan mavjudligini, ahamiyatliligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Nutq hamisha rang-barangligi, turlichaligi bilan ajralib turadi [Ne’matov, Rasulov, 1995]. Maqollar kishini haqiqiy inson bo‘lishga chaqiradi. Mehnatni

sevish, ilmli va hunarli bo‘lishga undaydi. Kishini vatanparvar, qahramon, rostgo‘y va vijdonli bo‘lishga da’vat etadi [Пинхасов, 1969].

“O‘zbek xalq maqollari” kitobidagi maqollar bilan bog‘liq yana bir ahamiyatli masalaga e’tibor qaratmoqchimiz. Ayrim maqollarda taqlid so‘zlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etmagan, lekin umumiy ma’nosi taqlid so‘zlarga borib taqaladi. Mazkur maqollarda taqlid so‘zlar hayvonlar, parrandalar, qushlar nutqiga ishora sifatida uchraydi. Bu kabi maqollar Toping? tarzida o‘quvchini o‘ylashga undab, tasavvurida tovush yoki holatning shakllanishiga asos bo‘ladi. Masalan,

Xo‘roz qichqirmasa ham tong otaveradi; Bir tulkining hiylasi necha yerda pand berar; Yomon it kunduzi hurar; Yomon kuchuk bo‘sag‘ada hurar; It oyga qarab hurar; Ilon bo‘lib yashagandan, yilqi bo‘lib kishnagan yaxshi; Itning irillagani – salomlashgani; It hurar, karvon o‘tar; Odam – so‘zlashguncha, yilqi – kishnashguncha; Har yerda xo‘roz bir xil qichqirar; Arslonning bo‘kirgani – sichqonning o‘lgani; Tuyaning hurkkani yomon, tentakning – qo‘rqqani; Kar qo‘y ikki hurkar; Qiyg‘irning qiyqirgani – tulkining o‘lgani; Qo‘rqqan it uch kun hurar; Ilon tilini ilon tushunar; Qush tilini qush bilar; Ayilning bolasi qarg‘aning tilini bilar; Baqiroq sigir sutsiz bo‘lar; It qutursa, egasini qopar, chumchuq qutursa, burgutga chopar; Kishnagan ayg‘irning uyurin ko‘r, chirangan yigitning – uyin; Eshak maqtanib, tulpor bo‘lmas, qarg‘a maqtanib shunqor bo‘lmas; Eshak hangraydi soyda, ma’lum bo‘ladi loyda; Qilishi bitta tuxum-u qaqalashi yurt buzar; Qora tovuq qaqillaydi, oq tovuq shaqillaydi; Beva xotinga Buxorodan it hurar; Quyon bolasini botirim der, it bolasini qoplonim der; Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, Kirpi bolasini yumshog‘im der; Tulki iniga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi; Tulki inidan nolisa, o‘ziga nomus; Tulki quyrug‘in maqtar, ahmoq – urug‘in; Eshakning hangrashi to‘yda avjiga chiqar; Tug‘mas tovuq ko‘p qaqillar; Arslonning bo‘kirgani – to‘ng‘izning o‘lgani; It egasiga suyanib huradi; Qo‘y qarg‘ishi bo‘riga o‘tmas; Qurbaqa ham vaqti bilan vaqillar; Oqsoq qo‘y tushdan keyin ma’raydi; O‘lgisi kelgan shoqol iniga qarab uvillar [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov, 2005].

O‘zbek tilining lug‘at sostavi umumxalq o‘zbek tilining barcha so‘z boyliklarini, undagi tarixiy-traditsion, turkum qatlamlarni, yangi, zamonaviy leksikani, endi paydo bo‘layotgan eng yangi so‘zlarni ham qamraydi. Lug‘at sostavi qanchalik boy va xilma-xil bo‘lsa, til ham shunchalik taraqqiy etgan bo‘ladi [Ҳожиев, Аҳмедов, 1981].

Til har qanday milliy madaniyatning muhim qismidir, shunga ko‘ra milliy madaniyat milliy tilning turli birliklarida namoyon bo‘ladi. Maqollar boy madaniy

mazmunni o‘z ichiga olib, ular nafaqat millatning ishlab chiqarish tajribasi va turmush darajasini, balki millatning psixologiyasi, qadriyatlari va fikrlarining xulosasini, shuningdek, millatning tarixiy shaxslari, voqealari, afsonalari va urf-odatlarini ham o‘zida jamlaydi [Da Zhenxin, 2023].

Maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (5 jildli) da mavjud maqollar va matallarni statistik tahlil qildik. Shuningdek, izohli lug‘atning yangi nashrlarida foydalanish uchun “O‘zbek xalq maqollari” kitobidan taqlid so‘z ishtirokidagi, xalq tilida ko‘p uchraydigan maqollarni tavsiya sifatida keltirdik. Maqollar o‘zbek xalqi uzoq o‘tmishining ko‘zgusidir. Taqlid so‘zlarning ular tarkibida uchrashi azaldan tilimizda mavjud bo‘lganligi, o‘sha davrdagi shakllari, ma’no munosabatlari haqidagi asos bo‘la oladi. Xalqimiz nutqida ko‘p uchrashini va ommalashganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Da Zhenxin, O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), 2023,//Milliy tadqiqot jurnali. – Pekin, 1983.
2. Ҳожиев А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент: Фан. 1981.
3. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi. – Toshkent. 1995.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq. 2005.
5. Пинхасов П. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Лексикология ва фразеология. Тошкент: Ўқитувчи. 1969.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006-2008.

“QORA KO‘ZLAR” ROMANIDA QO‘LLANGAN “KO‘Z” KOMPONENTLI IBORALARNING LEKSIK - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Madina Xasanova
SamDU o‘zbek filologiyasi fakulteti, 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: dots. U.Rashidova
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110345

Annotatsiya. Tilshunoslikning eng muhim bo‘limlaridan bir frazeologiya hisoblanadi. Bu bo’limni leksik - semantik jihatdan tahlil etish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Ma’lumki, til leksikonida tayyor holda mavjud bo‘lgan va jamiyat tomonidan belgilanagan barqaror ma’noga ega bo‘lgan ma’lum bir leksik-grammatik tuzilma frazeologik birlik sanaladi. Mazkur maqolada “Qora ko‘zlar” asarida qo‘llangan “ko‘z” komponentli iboralarning leksik - semantik xususiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *ko‘z, frazema, antonim ibora, sinonim ibora, omonim ibora, leksik birlik, semantik birlik, komponent, frazeologizm.*

Annotation. Phraseology is one of the most important branches of linguistics. The lexical-semantic analysis of this section has been one of the most challenging tasks. In this article, the lexical-semantic features of expressions with the "eye" component used in the work "Black Eyes" are highlighted.

Key words: *eye, phrase, antonym phrase, synonymous phrase, homonymous phrase, lexical unit, semantic unit, component, phraseologism.*

Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so‘zdan, ya’ni *“phraseos”* – ifoda va *“logos”* - so‘zlardan tashkil topgan. Umumiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo‘lgan (ya’ni erkin bo‘lmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so‘zlarni bir-biriga qo‘shish yo‘li bilan tuzilmaydigan, til leksikonida tayyor holda mavjud bo‘lgan va jamiyat tomonidan belgilanagan barqaror ma’noga ega bo‘lgan ma’lum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushuniladi. Keltirilgan ta’rifdan ma’lum bo‘lishicha, frazeologizmalar barcha tillarda o‘zlarining barqarorlik xususiyatlari bilan, nutq jarayonida ularni yasash uchun so‘z tanlash va ma’lum grammatik shakllarda ishlatish yo‘li bilan yasalmasdan, tayyor holda mavjud bo‘lgan birlik sifatida qo‘llanilishidir [Irisqulov, 124].

Dunyoni anglash, uni bor taravoti bilan his qilishda bizga eng ko‘p kerak bo‘ladigan a’zomiz ko‘zdir. Biz ushbu maqolada ko‘z so‘zining tilshunoslikdagi ahamiyati va badiiy ijod olamidagi tutgan o‘rnini yoritishga harakat qilamiz.

“Ko‘z” so‘ziga O‘TILda quyidagicha ta’riflar keltirilgan: 1) ko‘z – tirik mavjudodning ko‘rish a’zosi. *Ko‘z kosasi, ko‘z qorachig’i, ko‘z oqi* kabi 2) ko‘z – nazar, nigoh; qarash. *Ko‘zlari o‘ynaguvchi qizlarda bo‘lsa ham, haqiqatda boshqa bir narsani ko‘rgandek* [A.Qodiriy. O‘tkan kunlar]. 3) ko‘z – ko‘rish qobiliyati. *Ko‘zi xira.*

4) ko‘z so‘zining ko‘chma ma’nosi – ba’zi narsaning biror belgi bilan ajralib, ko‘zga o‘xshab ketadigan qismi. *Tizzaning ko‘zi, aqlning ko‘zi* kabi. Bundan ko‘rinadiki, “ko‘z” so‘zining ko‘chma ma’nosi ham mavjud. Demak, u ibora hosil qilishda ishtirok eta oladi.

“O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati”da “ko‘z” so‘zining faqatgina “diyda” degan sinonimi mavjudligi qayd qilingan [324]. Bu so‘z tilimizga fors-tojik tilidan kirib kelgan. O‘zbek tilida “ko‘z” so‘zining sinonimlari deyarli uchramaydi.

O‘TIL da “ko‘z” so‘zi ishtirok etgan 47 ta frazema keltirilgan. Masalan, *aqli ko‘zida, boshga tushganni ko‘z ko‘radi, dunyo ko‘ziga qorong’i, ko‘z ochib ko‘rgan, ko‘z ochib yumguncha, ko‘z tegmoq, ko‘zi ochilmoq, ko‘zi tinmoq, ko‘zi yorimoq ko‘ziga issiq ko‘rinmoq, ko‘zini yog’ bosmoq, qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarmoq, qo‘shning ko‘r bo‘lsa, ko‘zingni qis* kabi. [II tom, 443-b]. Bunda ko‘rinadiki, “ko‘z” so‘zi ishtirok etgan frezemalar ikki, uch, to‘rt komponentli va undan ham ko‘proq komponentli bo‘lishi mumkin ekan. Sh.Rahmatullayevning O‘TIFLda ko‘z so‘zi ishtirok etgan iboralar soni 150 tadan ortiq.

P. Qodirov “Qora ko‘zlar” romanida “ko‘z” komponentli iboralardan o‘rinli foydalangan. Albatta, bu asar badiiy qiymatini yana bir karra oshirishga xizmat qilgan. O‘TILda *ko‘zga tashlanmoq* iborasiga *ko‘rinmoq* deb ta’rif berilgan [243]. Buni muallif asarda o‘z holicha qo‘llagan, ya’ni ikki komponentli holda kiritgan. Ammo elas-elas so‘zi bilan frazemaning kelishi *ko‘rinmoq* so‘zining ma’nosiga leksik jihatdan ta’sir o‘tkazgan: *“Tekislik ufq bilan tutushgan joyda bir suruv qo‘y elas-elas ko‘zga tashlandi”.*

Ikki komponentli *“ko‘zi ochilmoq”* frazemasi lug’atlarda *“aqli joyiga kelmoq, o‘ylab ish qiladigan bo‘lmoq”* ma’nosini anglatishi ko‘rsatilgan [O‘TIL 446]. Asarda bu ibora *“ko‘zini sal ochmoq”* tarzida keltirilgan. Ozaytirma darajani hosil qilishda ishlatiladigan “sal” so‘zining ibora tarkibiga kirishi leksik ma’noni kuchsizlantirgan va Avazning akasiga bo‘lgan munosabatini tasvirlashda qo‘llangan: *“Egardan tushsa umri barbod bo‘ladigandek qo‘rqadi. Akasining shu*

zaif tomonini Avaz yaxshi biladi, o‘zaro gap bilan buni yo‘qotib bo‘lmasligini sezadi. Shuning uchun boya ataylab uni ko‘pchilikning oldida uyaltirib, ko‘zini sal ochmoqchi bo‘ldi”.

“Ko‘zi moshdek ochilmoq” iborasini *“aqli joyiga kelmoq, ahvolni yaxshi fahmlaydigan holga kelmoq”* so‘z birikmasi izohlaydi [O‘TIL 446]. Akasi bo‘lsa ham rostgo‘yligi uchun hech akasiga qayishmaydigan Avazni jazolash niyatida bo‘ladi va uning ichki munosabati quyidagicha tasvirlangan: *“Bu yil Ortiq ayollardan ham yordamchi yubormoqchi bo‘ldi-yu, Avazning ko‘zini “moshday ochib” qo‘yish uchun ro‘yxatning boshiga Hulkarni yozdi”.*

So‘zlashuvda biz *“ko‘ziga ko‘rinmaslik”* degan iborani ko‘p ishlatilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu ibora O‘TILda “e’tibordan qolmoq” degan ma’noni anglatishi qayd qilingan. “Qora ko‘zlar” asarida o‘yin bolasi bo‘lgan Avazning o‘y-fikri o‘yinda, hayolini boshqa narsa bilan chalg’itolamas holatda bo‘lgan tasviri ushbu ibora bilan tasvirni yanada ko‘z o‘ngimizda aniq gavdalantiradi: *“Xolbekning boyagi kulgisi hali ham qulog’i ostida jaranglab turar, ko‘ziga oshiqdan boshqa narsa ko‘rinmas edi”.* Ko‘rinib turibdiki, ikki komponentli ibora tarkibi kengaygan. Ushbu fikrni *“... oshiqdan boshqa narsa ko‘ziga ko‘rinmas edi”* shaklida qo‘llash mumkin bo‘lsa-da, muallif bunday yo‘l tutmaydi. Iboraning tarkibini kengaytirish yo‘li bilan ta’sir etish ko‘lamini ham kengaytirmoqchi bo‘ladi.

Ikki komponentli *“ko‘z tashlamoq”* iborasi *“nazar tashlamoq”, “ko‘z qirini tashlamoq”* frazemalari varianti hisoblanib, O‘TILda qaramoq, nazar tashlamoq tarzida izohlangan [444]. Bir-biri bilan hamfikr bo‘lgan Davlatbekov va Ortiqning Zamonaliga boqishi ushbu ibora bilan ifodalangan: *“Davlatbekov bilan Ortiq ham Zamonaliga sergaklanib ko‘z tashlashardi”.*

“Yo‘l bermaslik” iborasi bilan sinonim bo‘lgan *“ko‘z ochirmaslik”* iboralari O‘TILda *“hadeb do‘q-po‘pisa, ta’na ma’lomat qilaverib tinchlik bermaslik”* ma’nosini ifodalashi ta’kidlangan. Qaynonasidan malomat eshitaverib, yuragida dard-alam to‘planib, dardini ichiga yutib charchagan Hulkarning holati qaynonasiga aytgan gaplarida ham yaqqol sezilib turibdi: *“Bugun Hulkar Sanam Xolaga: “Oyijon, yaxshi ko‘rsam sizning o‘g’lingizni yaxshi ko‘ribman-ku, nega hech ko‘z ochirmaysiz?”(38)*

“Tasavvur qilmoq” degan so‘zni ifodalovchi *“ko‘z oldiga keltirmoq”* iborasi mavjud. Biroq bu frazema O‘TILda aks etmagan. Agar “Qora ko‘zlar” asarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ibora *“esiga tushmoq”* iborasidan keyin kelgan va bu ketma-ketlik bir-birini mazmunan va mantiqan taqazo qilib turganiligi sezish qiyin emas:

“Davlatbekovning boshqa ishlari yana Zamonalining esiga tushdi. So‘ng Mansurovni ko‘z oldiga keltirdi”(66).

“Ko‘z urishtirmoq” iborasi O‘TILda *“bir-birga qarab olishmoq”* degan izoh berilgan. Mazkur frazema asarga uch komponentli *“ko‘z urishtirib olishdi”* holatda olib kiritilgan va Sanam xola va Qambar ota o‘zaro gaplarini birgina ko‘z qarash yordamida tushunib olganini anglash mumkin: *“Qambar ota Sanam xola “bular qanday insofga kela qoldi” degan ma’noda ko‘z urishtirib olishdi”.*

Yuqorida ko‘rilganidek, “ko‘z” komponentli iboralarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilganda, ular o‘zi bilan birikib kelgan so‘z bilan birga turlicha ma’noni ifodalaydi. Buning ifodasini esa matndagi iboralarni tahlil qilganimizda ko‘rishimiz mumkin. Albatta, boshqa iboralar qatori “ko‘z” komponentli iboralar ham sinonimlik, variantlilik omonimlik xususiyatlariga ega. Bu mavzuni keyingi ishlarimizda kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Dadaboyev, M.Abjalova, U.Rashidova. O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati. – T.: Bookmany print, 2023. – B.810.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B.263.
3. Qodirov P. Qora ko‘zlar. –T.: Yoshlar matbuoti, 2023. –B.351.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. – T.: O‘qituvchi, 1978. – B. 405.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.671.

O‘XSHATISHLARDAGI LINGVOMADANIY IFODA

Jurakulova Hulkar Farhodovna
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
qoraqalpoq tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
jurakuovahulkar@gmailcom
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110367

Annotatsiya. Maqolada o‘xshatish etaloni sifatida tanlanadigan leksemalarning ma’no jihatdan rang-barangligi o‘rganilgan. O‘simlik dunyosiga aloqador birlklar turli xalqlarda turli tushunchalarga nisbatan qo‘llanishi mumkin. Jumladan, fitonim komponentli o‘xshatishlar vositasida ham xalqning milliy-ma’naviy xususiyatlari, turmush tarzi bilan bog‘liq jihatlar ham aks etadi.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatishlar, etalon, fitonimlar, semantika, milliy-madaniy jihatlar.*

Abstract. In this article lexemes selected as comparisons are semantically diverse. The associations related to the phytonyms can be applied to different concepts in different peoples. In particular, aspects related to the national-spiritual characteristics of the people and lifestyle are also reflected by means of similes with a phytonym component.

Key words: *similes, standard, phytonyms, semantics, national-cultural aspects.*

O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Matnda ifodalanayotgan fikrning aniq va ta’sirchan yetkazilishida til vositalari orasida o’xshatishlarning ahamiyati nihoyatda kuchli.

Adabiyotlarda o‘xshatish hosil qilinishida to‘rt jihat borligi qayd etiladi: 1)o‘xshatish subyekti: 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari .

O‘xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalashdir. N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalarning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da bu borada qimmatli manda sanaladi. [Mahmudov, Xudoyberganova, 2013: 5]..

O‘xshatishlar ma’lum bir xalqning tasavvurlarini aks ettiruvchi sifatida lingvolulturologik ahamiyat kasb etadi. Ularda ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari aks etadi. O‘zbek tilidagi bunday o‘xshatishlar lingvomadaniy tahlil obyekti bo‘lgan o‘xshatishlar sanaladi. O‘xshatish etaloni sifatida tanlanadigan leksemalar ma’no jihatdan rang-barang.

O‘xshatish etaloni sifatida o‘simlik dunyosiga aloqador leksemalar ham ishtirok etadi va bunday o‘xshatishlarda ham ma’lum ma’noda xalqning milliy madaniy qarashlari o‘z ifodasini topadi. O‘xshatishning shakli sifatida *–dek/-day, kabi, singari, yanglig’, misoli va o’xshab, o’xshaydi* birliklari qo’llanadi. Masalan:

Gul so‘zi bilan hosil qlingan o‘xshatishlar quyidagi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

*Gulday (*kabi, singari) 1. *Yashnamoq, ochilmoq; benihoya chiroy ochmoq, go‘zallashmoq*.

2. *Nafis, nozik, chiroyli, go‘zal*. Sarg‘aymasin *gulday* yuzim, Telmirmasin nargis ko‘zim. (“Baxrom va Gulandom”)

3. *Yosh, navqiron; fayzli, obod*. …bolam, patorat bu, *gulday* ro‘zg‘orimiz shundayin tarqa-ab ketsa-ya!.. (M. M. Do‘st). Yuvosh nurlar o‘ynaydi, osmon gulday yashnar tobora tinib. (Sh. Rahmon)

4. *Juda yaxshi, har jihatdan ma’qul*. Bu ma’noda ish-hunarga nisbatan qo‘llanadi: Qizimning qo‘lida *gulday* hunari bor.

5. *So‘lmoq, ko‘ngli ezilmoq, g‘am-alamdan azoblanib, o‘zini oldirmoq*. Toshlon o‘ldi, degan kim, axir? *Gulday* so‘ldi, degan kim, axir? (Mirtemir)

Paxtaday (kabi, singari) 1. *Oq, oppoq; oqarmoq. Shunday yoki shunga moyil rang haqida:* Rangi *paxtadek* oqargan, qovoqlari uchib tushardi (Cho‘lpon). Yoshi qirqni qoralamay sochlari *paxtaday* oqarib ketganini men mehnatning og‘irligidan deb bilardim (H. Xudoyberdiyeva).

2. *Yumshoq* ma’nosida: O‘n minutlardan keyin u gullarni bag‘riga bosgancha *paxtaday* yumshoq bo‘lib chiqdi (S. Nurov).

3. *Yuvmoq, oppoq qilib yuvmoq, yaxshilab tozalamoq*. Ko‘proq kiyim-kechak kabi yuviladigan narsalar haqida bu o‘xshatish qo‘llanadi. So‘ng *paxtaday* oppoq qilib yuvilib, tokchaga tartib bilan taxlab qo‘yilgan oq yaktak va pochasi uzun lozimni ko‘rsatdi (J. Abdullaxonov).

Somonday. 1. *Odam yuzining rangi haqida; sarg‘aymoq*. Saltanat esa kayfiyati ko‘tarilish o‘rniga tag‘in ezilib, rangi *somonday* sargayib, tinka-madori qurib borayotganga o‘xshaydi (U. Usmonov).

2. *Sovur(il)moq. Behuda sarf etmoq, yo‘qqa chiqmoq*. Meni kechirasan, jiyan, ammo men bunday bazm, pul degan somonday sovurilayotgan nohalol to‘yda ishtirok etolmayman (O. Yoqubov). ...Idorama-idora bir imzoga sarg‘ayib, haftalab umrimni yelga bergan vaqtlarim bo‘ldi, mangu yashaydigan, oltin damlarimni somondek sovurdim (X. Sultonov. Ajoyib kunlarning birida).

Zig‘ir–poyasidan tola, urug‘idan moy, yog‘ olinadigan bir yillik o‘simlik. Urug‘i juda kichik bo‘ladi. Shuning uchun bu so’z osxshatish etaloni sifatida quyidagi ma’nolarda qo’llanadi:

1. *Juda oz, ozgina, jindek, qitdek*. Avazning yuragi achishdi. Benavo, bemajol xalqiga zig‘irdek ko‘mak berolmasligini o‘ylab, kalbi vayron bo‘ldi. (S. Siyoyev)

Zig‘ircha so‘zi ham zig‘irday ma’noisda qo‘llanadi: Birorta odam zig‘ircha kamchiligimiz haqida og‘iz ochsa, tomog‘idan g‘ippa bo‘g‘amiz.(F. Musajonov) Birovga zig‘ircha ozor bergan inson emasman.

2. *Juda kichkina*. Endi, katta mavzulardagi bahs-munozaralardan keyin, bu mushkullik zig‘irdekkina ko‘rindi. (P. Qodirov)

Tarrakday. Tarrak palak otib o‘sadigan poliz ekini va uning bodringdan ko‘ra yirikroq kuvrak hosili bo‘lib, o’xshatish sifaida quyidagi ma’nolarda qo’llanadi: Tarrakdek qotmoq 1) *nima qilarini bilmay, g‘o‘daygancha qolmoq*. Orif meni ko‘rdi-yu.. bola bechora tarrakdek qotdi. (X. To‘xtaboyev)

2) *qattiq uyquga ketmoq*. Bolalar birpas quvlashmachoq o‘ynab, keyin duch kelgan joyda tarrakdek qotib qolishadi.(E. A’zamov) [O‘TIL, 2006, 4, 687-bet]

Quyidagi o’xshatishlar esa rang ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi:

Za’f aronday. Za’faron ziravor o‘simlik, za’far. Ingichka uzun bargli, to‘q sariq gulli, piyozsimon ildizli o‘simlik va uning gulidan tayyorlanadigan, ovqatni xushta’m va rangdor qiladigan ziravor. [O‘TIL, 2006, 2,142-bet]

“Sarg‘aymoq, sarg‘aytirmoq; sarg‘ish, sap-sariq; sap-sariq rangga kir(it)moq” ma’nosida o’xshatishni ifodalaydi. Ko‘proq odam yuzining rangiga nisbatan bu o‘xshatish qo’llanadi. Yosh to‘ldirib mening nargis ko‘zimni, Za’faronday sargaytirib yuzimni, Nega otding mening yangi g‘ozimni? (“Shirin bilan Shakar”). Men turibman, o‘laman deb, mug‘oyib, Gulday yuzim za’faronday sarg‘ayib (Murodxon).

Loladay (kabi , singari, yanglig‘) *Qizil, qip-qizil, qirmizi; qizarmoq*. Gulbadanbegim loladek qizarib, otasiga hayron boqdi (X. Sulton). Uning yuzlari loladek qizarib ketgan (M. Hazratqulov).

Qizg‘aldoqdek. Qizil ma’nosida. Ikki yuzi qizg‘aldoqdek qip-qizarib ketgan Oybekning sevinchi ichiga sigmaydi (A. Ko‘chimov). Oygul uning so‘zlarini eshitib, qizg‘aldoqdek qizarib o‘tirardi.

Lavlagiday. Qizarmoq: Otabek dadasining kinoyasiga tushunib qip-qizil lavlagidek bo‘ldi (A. Qodiriy).

Sholg‘omday (kabi, singari) Qizarmoq. Qattik izza bo‘lish, uyalish, xijolat bo‘lish natijasida odam rangining o‘zgarishi, qizilga moyil tusga kirishi haqida bu o‘xshatish qo‘llanadi.

Danakday Juda kichkina. Danakday xamirturushdan bir tog‘ora xamir qildi-qo‘ydi. (A. Qahhor)

Yong‘oqday. Yumaloq, nisbatan katta. Ko‘prok shaklan yumaloq katta-kichik narsalar haqida: Suzmani yong‘oqdek-yong‘oqdek yumaloqlab, 2—3 kun oftobga qo‘yib quritib tayyorlanadigan mahsulot qurut deb ataladi. Lekin toshning yong‘oqday kattaligiga qarab, Bobur uning olmosligiga ishongisi kelmasdi. (P. Qodirov).

No‘xatday. Kichkina. Dumaloq yoki dumaloqqa moyil, hajman anchayin kichik narsalar haqida. …tishi bilan no‘xatdek qandni ushatib, bir qultum choy ichdi. (Oybek). Manglayida hind qizlarinikiga o‘xshagan no‘xatday xoli bor (A. Ko‘chimov). Asosan, xolga nisbatan ”kichkina” ma’nosida **moshday** o‘xshatishi qo‘llanadi: O‘rta bo‘y, qorachadan kelgan, burnida moshday qora xoli bor (E.Samandar).

Niholday. Nozik, xipcha. Ko‘proq ayolning chiroyli, ixcham qaddi-qomati haqida. Nixolday nozik vujudda shuncha kuch, shuncha g‘ayrat! (M. Ali). Xonaga gunafsharang baxmal mukovali albom ko‘tarib Dilnoza kirdi. Nixoldek nozik (O ‘. Hoshimov).

Novdaday. Novda daraxtning yosh, ingichka va uzun, bebutoq tarmog‘i. “Ingichka, yosh, nozik; chiroyli qaddi-qomat” ma’nosida bu o‘xshatish qo’llanadi. Tezda novdadek yosh raqqosaning shuhrati ketib, atrofida xushomadgo‘ylar paydo bo‘lib, yo‘liga qanchalab pullarni nisor etdilar. (Mirmuxsin). Shuningdek, tik, kelishgan qaddi qomat haqida ***sambitday, sarvdek, shamshoddek*** o’xshatishlari qo’llanadi.

*Oshqovoqday / qovoqday***.** Salbiy ma’noda “katta, beo‘xshov; ko‘proq odamning kallasi, salla va shu kabilarga nisbatan qo‘llanadi: Mana bu oshqovoqday kallangni ishlat!

Tarvuzday. Dum-dumaloq, yumaloq. Asosan, odam, uning qorniga nisbatan salbiy ma’noda qo’llanadi. Nihoyat, tarvuzdek dum-dumaloq bir kishi yurib emas, dumalab chiqib keldi (X. To‘xtaboyev).

Chirmovuq “devpechak, zarpechak, pechakgul singari chirmashib o‘sadigan o‘simliklarning umumiy nomi”. (O‘TIL, 2006, 4, 493-bet)

Chirmovuqday o‘xshatishi ham “o‘ramoq, chirmashmoq, yopishmoq, tamoman qamrab olmoq, qo‘shilib ketmoq, o‘z doirasidan chiqarmay qo’ymoq” ma’nosida salbiy munosabatni ifodalshga xizmat qiladi: Abdulatifni chirmovuqday o‘rab olgan vazirlar va a’yonlar uning hovliqma fe’lini qo‘zg‘atdilar (P. Qodirov). Hayotning bo‘yniga chirmashib ketsin Ikkala qo‘lim ham chirmovuq misol (U. Azim).

Fitonim komponentli o‘xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiya kuchli. Tahlil qilingan birliklarning semantik xususiyatlaridan ko’rinib turibdiki, xalqning milliy-ma’naviy qarashlari, turmush tarzi, an’analari va urf-odatlarini aks ettirish barobarida matnda nutqiy emotsionallik baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. (2013) O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. (5-bet)

2. O‘TIL. (2007) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. O‘zME. Toshkent: (687-b.).

3. O‘TIL. (2007) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. O‘zME. Toshkent: (142-bet).

4. O‘TIL. (2007) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. O‘zME. Toshkent: (493-bet).

ERKIN VOHIDOVNING FRAZEOLOGIZMLARDAN IJODIY FOYDALANISH MAHORATI (BOSH KOMPONENTLI IBORALAR MISOLIDA)

Ozoda Mamarajabova
SamDU II kurs magistranti
Ilmiy rahbar:dots. Umida Rashidova
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110380

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodida qo‘llangan bosh komponentli somatik iboralar izohlanadi va ularga misollar keltirilib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *ibora, bosh komponentli ibora, zid ma’noli bosh komponentli ibora, Erkin Vohidov lirikasi*

Annatation. In this article, somatic expressions with the main component used in the work Erkin Vahidov are explained and examples of them are given.

Key words: *phrase, phrase with the main component, the phrase with the opposite meaning, lyrics by Erkin Vahidov*

Erkin Vohidovning til sohasidagi san’atkorligi keng iste’moldagi so‘z va iboralarni mohirona qo‘llash bilan bir qatorda xalqning ilg‘or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlarini muntazam ravishda kengaytirib boradi. O‘z tili materialari asosida yangi so‘z va iboralar yaratadi. Har xil dialektlar va umuman, og‘zaki so‘zlashuv uslubida mavjud bo‘lib, adabiy yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni xalq adabiy tiliga olib kiradi. Til birliklarini o‘zga sharoitda qo‘llash yo‘li bilan ularga yangi ma’no va vazifalar yuklaydi.

Erkin Vohidov o‘zining serqirra ijodi, g‘oyaviy yetuk va badiiy yuksak asarlari bilan xalqimiz ma’naviyati xazinasini boyitib, ona tili imkoniyatlarini boyitish bobida yuqori san’atkorlik va ijodkorlik namunalarini ko‘rsatib, o‘zbek tili takomili va taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shgan.

Erkin Vohidov asarlarida ibora qo‘llashda, o‘sha iboraga semantik yoki grammatik o‘zgarish kiritadi va buning natijasida umumxalq tiliga xos iboraning ekspressiv bo‘yoqdorligi oshadi. Ijodkor asarlarida ibora kengaytirishning bir necha usullari borligi aniqlangan. Ulardan biri ibora tarkibidagi uning biror bir komponentiga tegishli, o‘sha komponentni aniqlab keluvchi so‘z yoki o‘xshatish birikma kiritishdir. Mana shunday kengaytirish bosh komponentli iboralar tarkibida ham uchraydi.

Masalan: *“boshiga tushmoq”* iborasi umumxalq iborasi *“hayotida kutilmagan tarzda sodir bo‘lmoq”* ma’nosini bildiradi [O‘TFL, 45]. Bu ibora tarkibini *“falokat”* so‘zi yordamida kengaytirish ham xuddi shunday vazifani ado etish uchun xizmat qiladi: U kuni // Moskva qilganda xabar //*Falokat tushganin Toshkent boshiga* //Darhol uchib keldim // Qizi kelgandek // Og‘ir un qolgan ona qoshiga [1-jild, 346].

Shuningdek, adabiy tilda *“boshiga baxt qushi qo‘nmoq” iborasi* faol qo‘llanib ijobiy semani ifodalaydi. Shoir ibora tarkibidagi *“baxt qushi”* birikmasini *“shuhrat gultoji”* birikmasi bilan almashtiradi. Bunday almashtirish ibora ifodalayotgan ijobiy baho semasini yana kuchaytirish, bo‘rttirish vazifasiga aylangan: Tanholik – shoirga dil ehtiyoji // Xayolga oshnolik – buyuk baxtingiz // *Qo‘ngach boshingizga shuhrat gultoji* // Tashbeh izlamoqqa qolmas vaqtingiz [2-jild,72].

Ba’zan ibora komponentlarini almashtirish uning matn tarkibidagi so‘zlar bilan munosabatini kengaytirish, sintaktik qurshovini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, adabiy tilda “Boshingga qilich kelsa ham rost gapir” iborasi faol qo‘llaniladi. Shoir dastlab shu iboradan “Yaxshidir achchiq haqiqat” deb nomlanuvchi g‘azalda *“Gar qilich kelsa boshga rost aytmoq”* shaklida foydalangan: G*ar qilich kelsa boshingga //* Qo‘rqma, Erkin, *rost ayt //* Yaxshidir achchiq haqiqat // Lek shirin yolg‘on yomon [3-jild, 28]. Keyinchalik shoir *“boshiga qilich kelsa ham rost gapirmoq”* iborasining oxirgi komponentlarini “*haqiqatdan qaytmaslik”* bilan almashtirishi bu umumtil iborasining nasihat ohangining kuchayishiga xizmat qilgan: B*oshingizga kelsa ham qilich // Qaytmang dedim, haqiqatdan hech* [2-jild ,105]. Shuningdek, *“Boshi ko‘kka yetmoq”* iborasi *“behad sevinmoq*” ma’nosini bildiradi. Bu iboraning ham komponentlarini almashtirish orqali, uning ekspressivlik xususiyatini yanada oshirishga harakat qilgan. Erkin Vohidovning “Otdoshlarimga” nomli she’rida xuddi shu ma’noni ifodalashga xizmat qilgan: Boqib Erkin nomli o‘g‘longa //*Ko‘kka yetar sevinchdan boshim //* Qadam qo‘ysam har xonadonga // Ro‘paramdan chiqar otdoshim [2-jild, 95].

Adabiy tilda “Ortiq darajada azoblanmoq, qiynamoq” ma’nolarini ifodalovchi “*Boshida yong‘oq chaqmoq”* mavjud [O‘TFL, 45]. Erkin Vohidov “She’r haqidagi she’r” deb nomlanuvchi hazil she’rida ana shu umumtil ma’nosini ifodalash uchun bu iboradan foydalangan: O‘z nomimdan taniyman arang // Lol turaman sening qoshingda // Navbat bilan tanqidchi akang // Yong‘oq chaqar sening boshingga.

Shu bilan birgalikda, ba’zan ma’no jihatdan o‘zaro zid ma’noli frazeologizmlarni yonma-yon qo‘llash bilan ixchamlilik va obrazlilikka kontrast

holat yaratishga erishilmoqda. Masalan, shoirning quyidagi satrlarida *“Boshni egib”* erkin birikmasi “*boshni ko‘tarib”* fazeologizmi bilan zid qo‘yilib, chuqur falsafiy fikr ixcham va obrazli tarzda ifodalangan: Qora qushlar qo‘narlar // Majnuntolning shoxiga // *Boshni suvga egarlar // Boqmay sira oxiga // Rahmi kelib bulutlar // Yig‘lab to‘kar yoshini //* Qushlar qochar, majnuntol // Ko‘taradi boshini.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov o‘zining serqirra ijodi va o‘ziga xos so‘z qo‘llash mahorati bilan ajralib turadi. Shuningdek, ijodda bosh komponentli iboralaridan ham foydalanib, bu iboralarning ma’nolarini ochib berishga ham yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. –Toshkent: Bayoz, 2019.
2. Mamatov A.E. O‘zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari.– T.: O‘TA, 2001. – №3, 46-49 b.
3. Pinxasov U. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikalogiyasi. – T.: Fan, 1968.
4. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko‘rki. – T.: Fan, 1968.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. –T.: Qomuslar yosh tahririyati, 1982.
6. Rashidova U. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. – Samarqand, 2018.
7. Rashidova, U. Abjalova, M. (2023). Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 7(2), 273-278. https://doi.org/10.30563/turklad.1283778
8. Abjalova M., Rashidova U. Lingvistik ta’minotni yaratishda frazeologik birliklar masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar”. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 19-aprel, 2021-yil. – B. 22-26.
9. Abjalova M.A., Rashidova U.M. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Samarqand, 25.03.2023. – B. 50-54.
10. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.

VI SHU’BA. TIL TARIXI

“BOBURNOMA” LUG‘AT TARKIBIDA ARXAIZMLARNING O‘RNI

Dadabayev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
h_dadaboyev@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.11110327

Annotatsiya. Eski o‘zbek adabiy tilining taraqqiy etishida Alisher Navoiy va uning Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Yaqiniy, Haydar Xorazmiy singari salaflari qatori, izdoshi Boburning ham o‘rni o‘ta salmoqli. Bobur qalamiga mansub nasr hamda nazmda bitilgan asarlarda XV-XVI yuzyillik o‘zbek adabiy tilining barcha sathlariga xos ashyoviy materiallar o‘z aksini topgani bilan xarakterlanadi. Bobur ijodining cho‘qqisi hisoblanmish “Boburnoma” matnida qo‘llangan so‘z boylik nafaqat ma’no-mazmunan rang-barangligi, balki qadimgi turkiy til (VII-X) va Qoraxoniylar davri ilk eski turkiy til (X-XII)da bor bo‘lgan tub qatlamni o‘z ichiga qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Ajdodlar kundalik turmush tarzida iste’molda bo‘lgan ko‘hna so‘zlarning Bobur tomonidan istifoda etilishini uning Ona tiliga nisbatan cheksiz mehri hamda samimiy hurmatining belgisi sifatda baholamoq darkor. “Boburnoma”da ishlatilgan arxaizmlarning muayyan qismi davrning boshqa manbalarida qayd etilmasligi Bobur fenomenining buyukligidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: *arxaizm, affiks, statistika, so‘z boylik, istorizm, o‘z qatlam, derivat, turkiy til.*

Abstract. In the development of the old Uzbek literary language, along with Alisher Navoi and his predecessors such as Lutfi, Otoi, Sakkoki, Yaqini, his follower Babur also has a great place. Babur's works written in prose and verse are characterized by the fact that in these works materials related to all aspects of the Uzbek literary language of the 15th-16th centuries are reflected. "Boburnoma", which is considered the pinnacle of Babur's creativity, is not only rich in meaning and content, but also includes the basic layer of the ancient Turkic language (VII-X) and the first old Turkic language of the Karakhanid period (X-XII).

Babur's use of old words used in the daily life of his ancestors should be considered as a sign of his boundless love and sincere respect for his mother tongue.

The fact that certain archaisms used in "Boburnoma" are not recorded in other sources of the period indicates the greatness of Babur's phenomenon.

Key words: *archaism, affix, statistics, vocabulary, historicism, own layer, derivative, Turkish language.*

XVI yuzyillik o‘zbek adabiy tili so‘z boyligining yuqori bosqichga ko‘tarilishida Alisher Navoiy asarlari kabi Zahiruddin Muhammad Bobur bitgan obidalar, ayniqsa, “Boburnoma”ning muhim o‘ringa egaligi allaqachon ilm ahli tomonidan e’tirof etilgan.

1494-1529-yillar mobaynida Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Bangola, Hindiston singari yurtlarda yuz bergan turfa tarixiy, ijtimoy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy, madaniy, maishiy voqea-hodisalar tasviri haqqoniy ravishda bayon etilgan. Asarni yozishda, olib borilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 14728 ta so‘z qo‘llangan [Холманова, 2021:73] . Ushbu sonning 8967 (61%) tasini turkiy qatlam tashkil qilishi, uning 7901 (53,64%) tasi eski o‘zbek adabiy tilida keng ishlatilgan, 700 (4,75%) tasi arxaik, 195 (1,31%) tasi esa Bobur tomonidangina iste’molga kiritilgan-okkozional leksik birliklar tashkil qilgani aniqlangan [Холманова, 2021:74].

Har qanday tilning nisbatan keyingi bosqichga doir so‘z boyligi oldingi davrlarda qo‘llanishda bo‘lgan, millatning azaldan shakllangan ruhi, o‘zligi, urf-odati, rasm-rusumlari, qolaversa, mentalitetini ifodalashga qodir o‘z qatlam zaminida rivojlanadi va takomillashadi. Tabiiy, kishilik jamiyatida sodir bo‘luvchi turli-tuman voqea-hodisalar, ya’ni tildan tashqarida kechuvchi omillarga o‘ta sergaklik va o‘z vaqtida munosabat bildiruvchi tilning leksik-semantik sathi qolgan sathlarga nisbatan tez o‘zgaruvchanligi, yangilikka haddan tashqari intiluvchanligi bilan ajralib turadi. Sir emaski, jamiyatning rivojlanishi, taraqqiy etishida falsafa kategoriyalaridan qarama-qarshilik va ziddiyat qonuniyatining roli juda muhim. Ya’ni insoniyat bosib o‘tgan tuzum-formatsiyalarning almashinishida qayd etilgan qonuniyatning o‘rni salmoqli. Ayni holat jamiyat-sotsiumsiz yuzaga kelishi mumkin bo‘lmagan til hamda uning sathlari tabiatida ham yaqqol voqelanadi.

Dialektika qonunlariga muvofiq nafaqat kishilik jamiyati, shuningdek, borliqda ham doim eski va yangi o‘rtasida kurash ketadi. Yangi dunyoqarash, narsa-buyum, texnologiyaning paydo bo‘lishi eskining tarixga aylanishi, qo‘llanishdan chiqib ketishiga olib keladi. Modomiki, muayyan dunyoqarash, g‘oya, tushuncha, narsa-buyum nazardan chetda qolar ekan, ularni ifodalovchi so‘zlar, istilohlar ham umrini yakunlaydi, tarixiy so‘zlar-istorizmlar qatoridan o‘rin olishga majbur bo‘ladi.

Tarixiy so‘zlar-istorizmlarga berilgan ta’riflarga nisbiylik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish maqsadga muvofiq. Zotan, insoniyatning keyingi zamonlarida ijod qilingan har qanday olim-u ulamo, fozil-u fuzalo, shoir-u yozuvchi millati o‘tmishini yoritishga bag‘ishlagan asarlarida o‘tmishda ajdodlari tafakkurida shakllangan olam manzarasini tasvirlashda o‘sha zamonning tiliga, ayniqsa, so‘z boyligiga murojaat qilmasdan iloji yo‘q. Zero, ajdodlarning qadim turmush tarziga taalluqli bo‘yoq-koloritni bugungi o‘quvchiga to‘laqonli yetkazishda xohlaydimi, xohlamaydimi eskirgan so‘zlarni ishlatishga majbur. Aks holda, kitobxon asarni chetga surib qo‘yishi aniq.

U yoki bu tilning so‘z boyligini biror shaxs tomonidan har kuni yoxud onda-sonda kiyiladigan kiyim-kechaklar solingan sandiq yoki javonga o‘xshatish mumkin.

Til sandig‘idan joy olgan so‘zlarning bir qismi qo‘llanishda o‘ta faolligi, boshqacha aytganda, chastotasi yuqoriligi, boshqa qismi esa “mudroqligi”-ishlatilish navbatini kutishi bilan xarakterlanadi. Qaysidir so‘zning “mudroqligi”, ya’ni oz qo‘llanishi u ifodalaydigan ma’noni anglatishda “raqibi” – ma’nodoshining faollashuvi bilan chambarchas bog‘liq.

“Boburnoma” matnida arxaik birlik sifatida qayd etilgan 700 ta so‘zning qanchasi istorizm, qanchasi arxaizm ekanligini keyingi izlanishlarda aniqlash o‘zini oqlaydi, degan fikrdamiz. Ushbu ma’ruza sarlavhasidagi *arxaizm* termini ostida qadimgi turkiy til va ilk eski turkiy til bitiglari va yodgorliklari matnida faol ishlatilgan, eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasi nisbatan susaygan so‘z hamda istilohlar nazarda tutilgan. Asar so‘z boyligida arxaik birliklarning qo‘llanishi xususida so‘z ketganda, quyidagi omillarga urg‘u berishga to‘g‘ri keladi:

1) deyarli to‘rt-o‘n asr oldin ajdodlar tomonidan ishlatilgan o‘z qatlamga xos leksik tarkibning zamon sinovlariga bardosh bergan ulushi, foydalanish darajasi nisbatan past bo‘lsa-da, eski o‘zbek tili, chunonchi, Bobur ijod qilgan muhitda iste’molda qolgan; 2) Ona tiliga mehri, muhabbati o‘ta yuqori bo‘lgan Bobur intra va ekstralingvistik omillar bois qo‘llanishdan chiqish xavfi ostidagi ko‘hna so‘zlarga diqqat qaratib, ularning umrini ma’lum muddatga uzaytirishga erishgan; 3) jonli so‘zlashuv tili, sheva va lahja qatori, uning asosida shakllangan adabiy tilga qaraganda qadimgi belgi-xususiyatlar, ayniqsa, so‘z boylikni asrashga, saqlab qolishga “o‘ch” bo‘ladi. Ushbu jihatni yaxshi anglagan Bobur memuar asarini qiyinchiliksiz o‘qiladigan va uqiladigan tilda bitib, ma’no-mazmuni yengil tushuniladigan so‘zlarni qo‘llash yo‘lini tanladi.

“Boburnoma” so‘z boyligida ishlatilgan arxaik leksik birliklarning barchasini birgina maqola yoxud ma’ruzada batafsil tahlildan o‘tkazishning iloji ham, imkoni ham yo‘q. Bunday tahlil asar leksikasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotda muayyan darajada amalga oshirilgan amalga oshirilgan [Холманова, 2021]. Shunday bo‘lsa-da, manba matnida muallif qo‘llagan o‘z qatlam tarkibida bugungi kun nuqtai nazaridan “eskirgan” belgisi ostida baholanayotgan ayrim ko‘hna so‘zlar to‘g‘risida mulohaza bildirish foydadan xoli bo‘lmas, degan fikrni ma’qul sanadik.

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda yilning to‘rt faslidan biri, ya’ni ko‘klam *yaz* istilohi yordamida anglashilgan. Ushbu leksema “ko‘klam” ma’nosida Kultegin bitigtoshi, keyinchalik Mahmud Koshg‘ariy lug‘ati (DTS,250), “Qisasi Rabg‘uziy” (42r21) kabi yodgorliklarda ishlatilgan. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida istilohni hozirgi o‘zbek tilidagidek “yoz” fasli ma’nosida qo‘llagan:

Yaz tapa almay čü ïsïğdïn panáh,
Sáya üčün köprük aŋa xábgáh (ANATIL,I,770).

“Boburnoma”da yaz leksemasi o‘zining arxaik-dastlabki ma’nosida aks etgan*: Agar ol qïšnï ošul qïšlaqta ötkäzilsä edi köpraq ehtimáli bu edikim, yazğača urušsïz-oq buzulğaylar (128).*

“Yara, chipqon, yiringli yara” ma’nosi XI-XII asr eski turkiy til manbalarida *qart* istilohi bilan ochilgan (DTS,429). Bobur tomonidan ushbu istilohning tilga olinishi, uning eski o‘zbek tili tibbiy istilohlar tizimida mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi*: Bir-ikki yïldïn soŋg Ali Dostnïŋ iligigä qart čïqïb öldi (*135). Alisher Navoiy qo‘llagan tibbiy terminlar ichida *qart* ko‘zga tashlanmaydi. Bundan, *qart* istilohining Xurosonda ma’lum bo‘lmagani, Movarounnahrda, aksincha, qo‘llangani borasida mulohaza yuritish mumkin.

“Poyasi bilan kesmoq” semasini bildiruvchi *or*= so‘zining takror ma’nosini anglatuvchi -ğa qo‘shimchasi bilan hosil qilingan *orğa* shaklidan *-q* affiksini qo‘shish oqibatida yuzaga kelgan *orğaq* derivati “o‘simlikni poyasi bilan kesish quroli” ma’nosida birinchi bor Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida voqelangan bo‘lib (DTS,370), hozirgi o‘zbek tiliga keyinchalik -ğ undoshi talaffuz qilinmay qo‘ygach, *o‘roq* shaklida yetib kelgan (O‘TIL,I,488). Ilk eski turkiy tildagi maishiy so‘zlar tizimidan o‘rin olgan *orğaq* leksemasi XIII-XIV yuzyillik turkiy til yodgorliklari, chunonchi, “Qisasi Rabg‘uziy” matnida ham qayd etilgan (56r21). “Boburnoma”da ushbu so‘zning *orğaq* tarzida keltirilishi, uning XVI asr eski o‘zbek tilida qadimgi shaklini saqlanib qolishga muvaffaq bo‘lganligini dalillaydi.

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda *-q (-k, -iq, -ik, -uq, -ük*) affiksi ishtirokida *ağu* “zahar”, *tağ* “tog”, *kir* “iflos, kir”, *uč* “choqqi”, *tar* “tor”, *ač* “oc” singari so‘zlardan *ağuq*= “zaharlanmoq”, *tağïq*= “toqqa ko‘tarilmoq”, *kirik*= “kirlamoq, ifloslanmoq”, *učuq*= “tugamoq, tamom bo‘lmoq”, *tarïq*= “toraymoq”, *ačïq*= “och qolmoq” singari fe’lning noaniq shakllari yasalgan (DTS,660). Bobur asari matnida yuqorida ta’kidlangan –q qo‘shimchasi bilan “ism, ot, nom” ma’nosida keng istifoda etilgan *at* substantividan hosil qilingan va “nom chiqarmoq, mashhur bo‘lmoq” ma’nosini ifodalagan *atïq*= so‘zining namoyon bo‘lishi alohida diqqatga molik*: Xandaqdïn čïqmağanlar qorqaqlïqqa atïqïb bedillik bilä afsána boldïlar* (93). Ko‘rilayotgan yasama so‘zning dastavval X yuzyillik obidasi “Oltun yoruq”, keyin “Qutadg‘u bilig”da qo‘llangani “Qadimgi turkiy lug‘at”da qaydlangan (DTS,62). Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” asarida leksemaning ravishdosh shakli:

Tïğ ilä bašïma keldiŋki bügün qatl išidä,
Xublar ičrä sarámadsen ölübsen atïqïb (NAV,400),

“Navodir ush-shabob”da esa *atïqmaq* harakat nomi “shuhrat qozonmoq, dong chiqarmoq” ma’nolarida ishlatilgan:

Bolsa erdi šammai parváyï nang=u námdïn
Atlanïb badmastlïğ birlä atïqmaq ne edi (ANATIL, II, 535).

Bobur arxaik atïq= so‘zini qo‘llash qatori, uning ma’nodoshi bo‘lmish *at qazğan*= birikmasini ham yoddan chiqarmaydi: *Ŝaybaqxan beš künlik ötär dunyá üčün mundağ yaman at qazğandï* (269).

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul adab” asarida “nikohsiz xotin” ma’nosi *quma* leksikasi bilan anglashilgani ta’kidlangan (MA,100). Ilk bor “Oltin yoruq”da *quma qatun* birikmasi tarkibida qayd etilgan ushbu so‘zni G.Dyorfer mo‘g‘ul tiliga xosligini (I, 406), L.Budagov (quma, ğuma II, 64) hamda V.Radlov (quma II, 10 44) lug‘atida o‘zlashmaning yuqorida urg‘ulangan ma’noni ifodalagani ko‘rsatilgan. Ayni semada *quma* qipchoq tili lug‘ati “Codex Cumanicus”da ham aksini topgan (CC, 130, 34). “At-tuhfa”da leksemaning “o‘ynash, jazman” hamda “kundosh” ma’nosini ham bildirgani e’tirof etilgan (19a9). Aby Hayyon asarida *quma* faqat “nikohsiz xotin” semasida qayd etilgan (75). Ayni holat “Nusratnoma”da ham kuzatiladi (NN, 63a7). Bobur tahlilga tortilgan ko‘hna so‘zni faqat *ğuma* fonetik shaklida birlamchi ma’nosida qo‘llagan: *özgä xatun va ğumasï yoq edi* (127). Keyingi davrga doir tarixiy-badiiy asarlarda bu o‘zlashma uchramaydi.

“Boburnoma” matnida ishlatilgan ko‘hna so‘zlardan biri “qayta, takroran, yangidan” ma’nosini ifodalovchi *yaŋïla//yaŋla* leksemasi bo‘lib, quyidagi jumlada

aksini topgan: *Qazaqlïqlardïn va falákatlardïn xalás bolub, yaŋïla viláyat olğan mahalda ajab bir vaqt šikast edi*. Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda “yangi”, “endi paydo bo‘lgan” ma’nolarini ifodalovchi *yaŋï* so‘zidan *-la* affiksi ko‘magida yasalgan hamda “tag‘in, yana” semasini bildirgan *yaŋïla* derivati ilk bor Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida ishlatilgan: *Ol išïğ yaŋïla qïldï* “U ishini yangidan qildi, ikkinchi marta boshladi” (DLT,III,391). “Yengmoq, yutuqqa erishmoq, muvaffaqiyat qozonmoq” ma’nosi “Oltun yoruq”da ut= yegat= juft so‘zi (DTS, 617), “Qutadg‘u bilig”da *ut=* (DTS, 617), Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *ut=* (DLT, I, 181) va *yeŋ=* (DLT, III, 400), XIV asr Xorazm obidalarida *ut=* (SUYa, II, 116) fe’l-leksemasi bilan anglashilgan. Bobur beglaridan Qanbarali va Qosimbeg bilan ot poygasida yengganini tasvirlashda *ut=* so‘zidan foydalangan: *Yolda barurda Qanbarali va Qásimbeg bilä at tartïštük. Meniŋ atïm uttï (*Nashrda: o‘tti, 151).

Keyingi davrlarda tahlil qilinayotgan so‘z boshlanishiga y undoshi qo‘shilishi natijasida hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanuvchi *yut=* shaklini olgan (O‘TEL, I, 129) bo‘lsa-da, biroq qadimgi shakli qirg‘iz (KRS, 800) qozoq (QTSS, 579) tillari so‘z boyligida saqlanib qolgan. E.Sevortyan (ESTYa, I, 175) hamda Sh.Rahmatullayevning ta’kidlashicha, (O‘TEL, I, 257), “ort tomon” semasi qadimgi turkiy tildagi “orqa qism” ma’nosini bildiruvchi *ar* leksemasidan *-qa* qo‘shimchasi bilan yasalgan. “Qutadg‘u bilig” muallifi *arqa* derivatini ko‘chma “suyanch, tayanch, qo‘llab-quvvatlaydigan” ma’nosida qo‘llagan (DTS, 53). Ushbu so‘zga *-lan* qo‘shimchasini qo‘shishdan voqelangan *arqalan=* leksemasi faqat Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida birlamchi “suyanmoq” hamda ko‘chma “biror shaxs ko‘magiga suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq” ma’nolarida namoyon bo‘lgan (DLT,I, 291).

“Boburnoma” matnida *arqalan=* leksemasining ko‘chma ma’noda ishlatilganini tubandagi ashyoviy misol tasdiqlaydi: *Ba atalïq oğulluq Tanbalğa arqalanïb mundaq harakatlar bunyád qïldïlar* (131). XVI asr eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda davom etgan ko‘hna so‘zga hozirgi o‘zbek tilida ma’no- mazmun jihatidan *orqa qilmoq* frazemasi mos tushadi (O‘TIL, I, 545).

Qadimgi turkiy til manbalaridan ilk bor To‘nyuquq bitigida “to‘planmoq, yig‘ilmoq, ko‘paymoq” ma’nosida qo‘llangan ükül= (< ük= “yig‘moq, to‘plamoq, ko‘paytirmoq”) fe’l-leksemasi Mahmud Koshg‘ariy lug‘ati hamda Yusuf Xos Hojib pandnomasida qo‘llangan (DTS, 624). Bobur ushbu ko‘hna so‘zni “Boburnoma”da ishlatib, uning umrini yanada uzaytirishga muvaffaq bo‘lgan: *Qalïn aq täŋä üküldi* (279) (Nashrda bu leksema *o‘kul* shaklida keltirilgan).

“Ega bo‘lmoq, topmoq, erishmoq, qo‘lga kiritmoq” kabi ma’nolarni ifodalagan *bul=* holat fe’lining orttirma darajasi hisoblanmish *bultur=* so‘zi dastlab Ataraka afsonasi to‘g‘risidagi turk (uyg‘ur) yozuvida bitilgan manbada ishlatilgan (DTS, 123). Arxaik leksemaning “Boburnoma”da *buldur=* shaklida qayd etilgani, uning XVI yuzyillik o‘zbek tili so‘z xazinasidan o‘rin olganini ko‘rsatadi: *Ab duzdkim, alïldï, buldura almay taŋlasïğa áman tiläb čïqtïlar (*125) (Nashrda bo‘ldur= shaklida berilgan).

Ilk eski turkiy til obidalari “Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” matnida ko‘p ma’noli *arïğ//arïq* (< arï= tozalanmoq, poklanmoq”) derivatining “to‘la, to‘laligicha, butunlay, boricha” ma’nosida ishlatilgani kuzatiladi: *Alplar arïğ alqïšur* “Botirlar butunlay bir-birini o‘ldirdilar” (DLT,I,240). “Boburnoma” so‘z boyligida tahlil qilinayotgan qadimgi leksema *arïğ* shaklida ko‘rsatilgan ma’noni ifodalashda davom etgan: *Bir zamánda daryádağïlarnï arïq alïb barïnï qïrdïlar* (121).

Xullas, “Boburnoma” ning leksik tarkibi nafaqat XV-XVI yuzyillikka oid birliklar, shuningdek, qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda faol ishlatilgan, lekin turli omillar bois iste’moldan qolish darajasiga tushib qolgan tub qatlamga tegishli leksemalarni ham qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu jihat asar egasi Zahiruddin Muhammad Boburning Ona tili boyliklariga nisbatan munosabatining qay darajada yuqori bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Adabiyotlar:

1. Abu Hayyon – Расулова Н.А. Исследования языка “Китаб ал-идрак ли-лисан ал-атрак” Абу Хайяна. Морфология, лексика и глоссарий. Дисс. канд. филол. наук. -Ташкент, 1969.
2. ANAL – Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати. I. – Тошкент: Niso Poligrafiya, 2013.
3. ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, I-IV. – Тошкент: Фан, 1983-1985.
4. Budagov – Будагов Л.З.Сравнителний словар турецко-татарских наречий. T.I-II.- СПб., 1869, 1872.
5. DLT – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. -Тошкент, 1960-1963.
6. Dyorfer – Doerfer G.Tűrkische und mongolische Elemente im Neupersischen.Bd. I-IV.-Wiesbaden, 1963-1975.
7. ESTYa – Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М: Наука, 1974.

8. KRS – Юдахин К. Киргизско-русский словар. –М., 1965.
9. NAV – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, I-IV. – Тошкент: Фан, 1983-85.
10. MA – Поппе Н.Н. Монгольский словар. Муқаддимат ал-адаб. Ч. I- II.- М. – Л., 1938.
11. NN – Таварихи гузида. Нусрат-наме. Исследование, крит. текст, аннот. оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А.Акрамова. - Ташкент, 1967.
12. QTSS – Қазақ тилининг синонимдер сўздеги. –Алмати: Арис, 2005.
13. Radlov – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. -СПб., 1898-1911.
14. SUYa – Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. – Ташкент: Фан, 1966, 1971.
15. SS – Сабъаи сайёр. Алишер Навоий. Илмий-танқидий матн. Тузувчи: Порсо Шамсиев. -Тошкент, 1956.
16. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев.-Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960.
17. O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
18. Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси.-Тошкент: Akademnashr. 2021.-Б.73.
19. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси.-Тошкент: Фан, 2007;

KUL TIGIN BITIGTIGIDA QO‘LLANGAN BA’ZI SO‘ZLARNING MA’NO KO‘LAMI

Baxtiyor Abdushukurov,
filologiya fanlari doktori, professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110561

Аннотация. Ushbu maqolada Kul tigin bitigtoshida qo‘llangan ayrim leksik birliklar semantikasiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, yodnomada ifodalangan so‘zlar qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili manbalari hamda hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan qiyosiy o‘rganilgan. Natijada bu atamalarning davrlar o‘tishi bilan rivojlanishi, o‘zgarishi va zamonaviy adabiy tilga ko‘chishi, faol qo‘llangan leksema turli omillar bois arxaiklashib qolishi, u o‘rnini boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarga bo‘shatib berishi singari masalalarga oydinlik kiritilgan.

Kalit so‘zlar: *turkiy tillar, run bitiklari, leksik qatlam, Kul tigin, arxaik unsurlar, yozma manbalar, ichki omil, ekstralingvistik omil, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili.*

Turkiy tillar leksik qatlamini tadqiq etishda run bitiklari eng qadimiy obidalardan hisoblanadi. Ammo ayrim turkologlar bu yodgorliklarning turkiy tillar uchun “bobo til” sifatida qaralishini ma’qullamaydilar va hozirgi turkiy tillardagi arxaik elementlarning bitiktoshlarda uchramasligini asos sifatida keltiradilar. Bu yodnomalar tilining umumturkiy til emas, balki shu tilning kichik bo‘lagi ekanligini o‘rinli ta’kidlaydilar. Darhaqiqat, yozma manbalar davr tili xususiyatlarini imkon qadar to‘liq aks ettiradi, ammo yodgorliklar tili davr tilining ayni o‘zi emas. Bunda muallifning so‘z qo‘llash mahorati, fikrini to‘liq aks ettira olish qobiliyati, nutqiy imkoniyati ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. O‘rxun-Yenasoy yozma yodgorliklari turkiy tillarning qadimiy xususiyatlarini mukammal aks ettira olmasa-da, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir.

Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan namunalaridan biri **Kul tigin** bitigidir. Bu bitiktosh ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonning kichik o‘g‘li Kul tigin sharafiga qo‘yilgan. U 731-yilda 47 yoshida vafot etgan. Yodgorlik uning akasi Bilga xoqon tomonidan 732-yilda o‘rnatilgan. Matn muallifi esa Bilga xoqonning o‘g‘li Yo‘llug‘ tegin. Bitiktosh Mo‘g‘ulistonning Kosho-Saydam vodiysida O‘rxun daryosining qirg‘og‘ida topilgan. Hozir ham o‘rnatilgan joyida turibdi. Yodgorlikdagi asosiy matn turkiy tilda. Ters yuzida xitoycha matn ham bor. Turkiysi o‘rxun-yenisey xatida yozilgan.

Yozma manbalar tilini o‘rganish leksikologiyaning nazariy qoidalarini asoslashga yordam beradi, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqa, munosabatlarini belgilash va baholashda muhim vositalardan biri sanaladi. Leksika tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi ta’sirlarni o‘zida mujassam etgani bois, xalqning madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarish va o‘sishni aniqlashga ko‘maklashadi. [Бафоев Б., 1983]

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida “xudo, tangri”ni bildirib kelgan **idi** (*quluŋ men idim sen*; DTS,203) so‘zi ilk bor Kul tigin yodgorligida “sohib, ega”, “hokim” ma’nolarida voqelangan: *…yär sub idisiz bolmazun täyin* – yer-suv egasiz bo‘lmasun deb (KTb,19); *Ötükän yišda yeg idi yoq ermiš* – O‘tikan vodiysida yaxshi xo‘jayin yo‘q ekan (KTb,4). Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida teonimning **izi** varianti “tangri” ma’nosida ishlatilgan (DTS,203). Nosiruddin Rabg‘uziy mazkur fonetik shaklni «ega», «xudo» semalarida qayd etgan: Q*amuğ uqalā iδiläri allïnda muqarrar va ma’lum turur…* (QR,218r15); *Jabrāul iδi yarlïğï birlä yelgä erklik bolğan farištagä aydï…* (QR,30v4).

Bugungi kunda **idi→izi→ezi→egä** shaklida “sohib” ma’nosida qo‘llanib kelmoqda. “Tangri” ma’nosi esa *Idiyev, Idimechev* singari ruscha familiyalar, *Idiqul, Ezidyor, Eziddin, Egam, Egamoy, Egamqul, Egamberdi, Egamnazar, Egamshukur* (O‘I,161,508,509), *yaratgan egam, qodir egam, parvardigor egam, yolg‘iz egam* kabi antroponim va birikmalar tarkibida uchraydi. So‘zning dastlabki I**di** shakli Bilga hoqon bitigtoshida **ïduqut** (BXb,25) qo‘shma so‘zi tarkibida unvonga nisbatan qo‘llanib, XII-XIV asrlarga mansub uyg‘ur yuridik hujjatlarida I**di qurt** (DTS,203) tarzida kishi ismini ifodalagan bo‘lsa-da, eski o‘zbek tilida istifoda etilmaydi.

Qadimgi turkiy tilda, xususan, Kul tigin bitigtoshida **täŋri** so‘zi ikki ma’noda ishlatilgan: “ulug‘ tangri, xudo”; “falak, osmon”: *Täŋri-täg täŋridä bolmïš türük bilgä qağan* – Tangri(osmon)day, tangridan bo‘lmish turk bilga (dono) xoqon (KTb,1). Bu so‘zning “xudo, iloh” ma’nosi turli dinlarda turlicha tushunilgan. Ko‘k tangri diniy tushunchasidagi Kök täŋri “ko‘kdagi tangri”ni bildirgan. Moniylik dinida esa quyidagi tasavvurlar amal qilgan: *Kün Täŋri – Quyosh tangri, Ay Täŋri– Oy tangri, Yašïn Täŋri - Yashin tangri, Yel Täŋri – Yel tangri. Turk buddistlar tushunchasida Täŋri täŋrisi – Oliy tangri Buddadir. Musulmon turklarda Täŋri – Haq taolo(Alloh)dir*. [Содиқов Қ.,2006] Bundan tashqari, “Oltun (tusli) yorug‘” yodgorligi va Yenisey bitigtoshlarida leksemaning “hukmdor, janob”, “diniy” semalari kuzatiladi: *Bu sabïğ ešitip, men ötrü olarqa inča tep tedim aya edgülärim*

täŋrilärim – bu so‘zni eshitib, ularga shunday dedim: “Ey mening yaxshilarim, hukmdorlarim!;” *Täŋri elikkä elčisi ertim* – men diniy qabilalar uyushmasining elchisi erdim (DTS,544). “Devon” da quyidagi qaydlarni o‘qiymiz:

Tün kün tapun täŋrigä boynamağïl
Qorqup aŋar eymänü oynamağïl.

Kecha-kunduz ulug‘ tangriga ibodat qil, yo‘ldan ozib adashma. Xudodan qo‘rq, undan uyal, undan qo‘rqib, o‘ynashdan saqlan. Xudo halok qilg‘ur kofirlar osmonni *täŋri* deydilar, shuningdek, ular ko‘zlariga katta ko‘ringan har narsani, chunonchi, katta tog‘, haybatli yog‘ochni ham *täŋri* deb ataydilar. Shuning uchun ham ular shunga o‘xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag‘on odamni *täŋrigän* deb atashlari ham shundandir. Demak, Mahmud Koshg‘ariy qayd etilgan leksemaga “xudo”, “osmon”, “katta va haybatli narsa” ma’nolarini yuklagan.

S.Mutallibovning yozishicha, Mahmud Koshg‘ariyning *täŋri* haqidagi izohini ikki xil tushunish mumkin:

Birinchidan, bu izoh XI asrda yashagan xalqlar tiliga emas, balki ancha qadimiy, ya’ni yer, ko‘k, quyosh, o‘tlarga topinuvchi shomonlik davridagi xalqlar e’tiqodiga doir ma’lumot hisoblanadi. Chunki Koshg‘ariy ko‘k so‘zi “osmon” ma’nosini ifodalashini ta’kidlagan, biroq uni tangri sifatida e’tiqod qiladilar deb uqtirmagan.

Ikkinchidan, uni XI asrda islomni qabul qilmaganlar shunday e’tiqod qilar edilar degan mazmunda tushunish mumkin. Bu variant yana ham yaqinroqdir, chunki Urxun yodgorliklarida ham shu tariqa e’tiqodni ko‘ramiz. Ularda olamning yaratilishi, diniy e’tiqodlarga oid ma’lumotlar kam bo‘lib, tangriga qulluq qilish, o‘lim, ta’ziyalar haqida so‘z boradi. Lekin unda yer, ko‘k, tangri deb izohlangan. Mahmud Koshg‘ariyning bu xil izohlari, bir tomondan, diniy e’tiqod tarixi haqida tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim hujjat bo‘lsa, ikkinchidan, alloma o‘z asarida uzoq tarixiy voqealarni ham hisobga olganini ko‘rsatuvchi dalildir (MK,III,387-388).

Tengri “Boburnoma”da “Alloh” so‘zining sinonimi sifatida shaxsning sidqidildan e’tirofi berilgan o‘rinlarda qo‘llangan: *Tengri menga boshdin jon berdi*. [Холманова З., 2021] Manbalarda bu so‘zning kelib chiqishi xususida turlicha qarashlar mavjud: 1) täŋiz “dengiz” ; 2) taŋ - “tong” va misr tilidagi ra –“quyosh”, ya’ni “tongdagi quyosh”; 3) teŋ - “teng”, ya’ni “barchaga teng qarovchi”.

Qağan so‘zi Kul tigin bitigtoshida “hukmdor, davlat boshlig‘i” ma’nosida, shuningdek, kishi ismlari tarkibida qayd etilgan: *Täŋri yarlïqaduqïn üčün özüm qutïm bar üčün qağan olurtum* – Tangri yorlaqagani uchun, baxtim borligi uchun

xoqon bo‘ldim (KTb,9); *Bilgä qağan, Baz qağan, Bumïn qağan*. Ayni paytda, yodnomada kalima **qağanlïğ** (xoqonli), **qağansïra** (hukmdorini yo‘qotmoq) kabi leksemalarning yasalishida o‘zak sifatida ishtirok etgan. Atama Turfon matnlarida **qağan qan** (oliy hukmdor) juft so‘zining yuzaga kelishiga asos vazifasini o‘tagan bo‘lsa, “O‘g‘uznoma” dostonida o‘zining dastlabki shakli va ma’nosida kelgan (DTS,405). Eski turkiy tilning dastlabki manbalarida *xağan* (MK,III,172), *xan* (DTS,636) fonetik variantlari uchraydi: *xan süsin qurdï* – shoh askarini to‘pladi, tartibga soldi (MK,II,14). Demak, ma’lum bo‘ladiki, **q** undoshining ***x*** tovushiga o‘tishi hodisasi XI asrda yuz bergan.

Xan istilohi To‘nyuquq bitigtoshida **qan** shaklida «hukmdor», “Oltun yoruq” asarida «yo‘lboshchi, boshliq» ma’nolarini anglatgan: *Täŋri anča temiš erinč, qan bertim, qannïŋ qodup ičikdiŋä* – Tangri shunday dedi: men senga xon berdim, sen esa o‘z xoningni tashlab, o‘zgaga bo‘ysunding; *Ötrü täŋri qanï Xormuzta täŋri täŋrisi Burxanqa ïnča tep ötüg ötünti* – Shundan keyin ma’budalar yo‘lboshchisi tangri Xurmuzta tangrilar tangrisi Burxandan iltimos qildi (DTS,417). O‘rganilayotgan atama «Qutadg‘u bilig» hamda «Devon»da o‘zining asl ma’nosida ishlatilgan: *Bu Tawğač Qara Buğra xanlar xanï* (DTS,636); *Xandan basut* (yordam) *tilärlär* (MK,I,427). Bu so‘z Alisher Navoiy asarlarida ham ayni semada qo‘llangan: *Māil qïldï burun Xitā xanï bay’ qïlmaq berib bahā anï* (III,412). Mahmud Koshg‘ariy **xan** so‘zini quyidagicha izohlaydi*: Afrosiyobning bolalari ham xon deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqida uzun hikoya bor* (MK,III,172). L.Budagov lug‘atida **qan** mo‘g‘ulcha **qaan** so‘zining qisqargan shakli sifatida qayd etiladi (SSTTN,I,527). Ayrim turkologlar atama **qağan** leksemasining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari suradi. [Бартольд В.В., 1963] Shuningdek, mazkur leksema xitoy tilidagi ke «buyuk, ulug‘» +kuan «hukmdor» terminidan olinganligi haqida ham ko‘z qarash mavjud. [Дадабоев Ҳ., 2007]

Kul tiginda **bodun** termini ham “oddiy xalq”, “etnik jihatdan tarixiy birlik, muayyan xalq” ma’nolarini bergan: Türük bäklär bodun bunï äsidiŋ – turk beklari, xalqi, buni eshiting (KTb,10); *Toqquz oğuz bodun käntü bodunïm ärti* - To‘qqiz o‘g‘uz xalqi o‘z xalqim edi (KTb,44). Turfon matnlarida “aholi”, “odamlar” semalarida aks etgan. Ushbu atama “Oltun yoruq” yodgorligida **bodun buqun, bodun qara** juft so‘zlari tarkibida kelib “aholi”, “el, xalq” ma’nolarini ifodalagan (DTS,108). “Devonu lug‘otit turk” asarida **bodun** etnonimi “xalq” ma’nosida ishlatilgan (MK,I,170). Uning **bozun** varianti “el-yurt, olam”, “jamoa” (MK,III,88),

chigillar tilida “xalq, omma” (MK,I,379; 433) ma’nolarini, **z** harfini **y** undoshiga almashtiradiganlar tilida **boyun** fonetik shakli “jamoa” semasini bildirgan:

Körklüg tonuğ özüŋä,
Tatlïğ ašïğ azïnqa.
Tutğïl qonuq ağïrlïğ,
Yazsun yavïŋ bozunqa – Chiroyli to‘ningni o‘zing kiy, shirin taomlaringni boshqalarga tut, mehmondo‘st bo‘l, toki shuhrating olam (el-yurt)ga (MK,I,80). XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmida yashagan Nosiruddin Rabg‘uziy *bozun* so‘zidan “qavm” (QR,58v21), “xalq” (QR,32r17), “odamlar” (QR,58r19) kabi ma’nolarni ochib berishda foydalangan. Mazkur atama keyingi davr manbalarida qayd etilmasada, *bodun* bugungi kunda **Budunov, Budunova, Bodunov, Bodunova** singari ruscha familiyalar asosida saqlanib qolgan. *Bodun-bozun-boyun*ning kelib chiqishi xususida shuni aytish mumkinki, etnonim To‘nyuquq va Mo‘yun chur yodnomalarida “qabila, urug‘” ma’nosini anglatgan **bod** so‘zidan yasalgan (DTS,107).

Kul tigin yodnomasida shahar **balïq** deb yuritilgan: *kü äsidip balïqdaqï tağmïqmïs tağdaqï inmis* – ovozani eshitib, shahardagi toqqa chiqibdi, tog‘dagi pastga tushibdi (KTb,12). Shuningdek, kalima bitigtoshda joy nomi tarkibida ham kelgan: *Äŋ ilik Toğu balïqda süŋüšdimiz* – eng avval To‘g‘u baliqda jang qildik (KTb,44). Termin Eltarish xoqonning maslahatchisi, sarkarda To‘nyuquq nomiga qo‘yilgan bitigtoshda, Moniy manbalari, Turfon matnlari hamda X asrga oid “Oltun yoruq” (DTS,80) asarida ayni shakl va mazmunda aks etgan: *üč ottuz balïq sïdï* – yigirma uch shahar mag‘lub bo‘ldi (KTb,19). Mahmud Koshg‘ariy ushbu so‘zning izohi borasida shunday yozadi: *balïq – johiliya davridagi turklar va uyg‘urlar tilida shahar. Uyg‘urlarning eng katta shaharlariga* ***Beš balïq*** *deyilishi shundandir. Beš balïq- besh shahar demakdir. Uyg‘urlar boshqa bir shaharlariga* ***Yaŋï balïq*** *–yangi shahar deydilar* (MK,I,360). “O‘g‘uznoma” dostonida **baluq** fonetik varianti qo‘llangan (DTS,81). Turfonda topilgan obidalarda bu so‘zning **känd** (DTS,290) sinonimi kuzatiladi. Shu ma’noda aytish mumkinki, qadimgi turkiy tilda *känd* leksemasi *balïq* kalimasi bilan oldiniga ma’nodosh sifatida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik, to‘g‘rirog‘i, XII-XIII asrlarga kelib uning o‘rnini butunlay egallagan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida “xon qarorgohi, saroy” (DTS,370) ma’nosidagi **ordu** atamasi birichi bor Kul tigin bitig- toshida qayd etilgan: *oğuz yağï orduğ basdï* – o‘g‘uz dushman o‘rdani bosdi. Ko‘k turk xatida yaxlit kitob holida saqlangan “Irq bitig”ida ham zikr etilgan ma’no istifoda qilingan (DTS,370). Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida bu so‘zning “xon qarorgohi, saroy”

(MK,I,145), “shahar” semalari borligi ko‘rsatib o‘tilgan: *beg bir erig ordulandï* – bek bir yerni o‘ziga shahar (MK,I,291). Shu bilan birga, “Devon”da uning toponim va antroponim sifatida qo‘llanishi ham tilga olingan. Ya’ni: *ordu* - Balasog‘un yaqinidagi bir shahar; *ordu bašï* - shohlar xizmatidagilarning ismi (MK,I,145). Eski o‘zbek tilida mazkur kalima qarorgoh, qo‘shin, askar turadigan lagerga nisbatan qo‘llangan (ANATIL,III,611). “Boburnoma” asarida “xon qarorgohi, saroy”, “qo‘shin tushgan joy, lager”, “shahar”, “joy nomi”, “kishi ismi” kabi semalarda kelgan (BN,73,79,98,106,335). Professor Qosimjon Sodiqovning e’tiroficha, *ordu* so‘zi bugun kunda ayrim otlarda uchrab turadi. Jumladan, hozirda Pokistonning davlat tili bo‘lgan *urdu tili* eski o‘zbek tilidagi *ordu* kalimasidandir. Bu atama boburiylar zamonida “o‘rda tili, saroy tili” degan ma’noni anglatib, keyinchalik butun bir xalqning yozma adabiy tiliga aylangan. Mirzo G‘olib ana shu tilda ijod qilgan. Yoki Toshkent shahrining qoq o‘rtasida *O‘rda* degan joy bor. Qachonlardir bu yerda xon o‘rdasi joylashgan edi, *O‘rda* oti o‘shandan qolgan.

“Azob chekmoq, qiynalmoq” ma’nosidagi **ämgä-** fe’lidan yasalgan **ämgäk** so‘zi Kul tigin bitigida mehnat, qiyinchilikka nisbatan ishlatil- gan: *On oq bodun ämgäk körti* – O‘n o‘q xalqi qiyinchilik ko‘rdi (KTb,19). Turfon vodiysida topilgan manbalar matni, X asr yodgorligi sanalgan “Oltun yoruq”da ayni shakl va ma’noda ko‘zga tashlanadi (DTS,172). Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida bu atama **emgäk** fonetik shaklida berilgan: *emgäk ekindä qalmas* - mehnat bo‘sh ketmaydi (MK,I,134). Shu bilan birga, bu kalima “Devon”da “yurak burug‘i, ich ketish” ma’nosidagi **emgäk tolğağ** (MK,II,333) juft so‘zining shakllanishiga asos bo‘lgan. “Qisasi Rabg‘uziy” va “Mahbub- ul-qulub” asarlarida ham ayni semada uchraydi: *Emgäkdin alarğa ārām yoq* (ANATIL,III,563). Atama keyingi davr manbalarida qayd etilmasa-da, hozirda Janubiy Xorazm, Qipchoq, Xonqa, Mang‘it shevalarida **əmgək/emgək (**mehnat, qiyinchilik) tarzida uchraydi: *əmgək chəkmək* (O‘XSHL,29). Kul tigin bitigida tahlilga tortilgan so‘zning **is** sinonimi ham istifoda etilgan: *Bunča isig küčüg bärtükgärü saqïnmatï* – shuncha mehnatini, kuchini sarf etganini andisha qilmay (KTb,10).

Turfon matnlarida “yo‘qsil, bechora odam” (DTS,147) ma’nosida ishlatilgan **čïğay** Kul tigin bitigtoshida **čïğany** shaklida ikki semani ifodalash uchun xizmat qilgan: “kambag‘al, qashshoq”: *yoq čïğany bodunuğ qop qoburtdïm* – yo‘q, qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg‘azdim (KTb,10); *čïğanyïğ bay qïltï* – kambag‘alni boy qildi (KTb,16). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida *čïğay* “yo‘qsil, bechora odam”, “kambag‘allik” ma’nolarida kelgan: *Qamuğ ezgü esiz čïğay baylïqïm bayatdïn körür men* - ko‘rgan hamma yaxshilik va

yomonliklarimni, faqirlik va boyligimni tangridan deb bilaman (DTS,147). “Devonu lug‘otit turk”da *čïğan* va *čïğay* fonetik shakllari istifoda etilgan: turklar kambag‘alni *čïğay* desalar, arg‘ular *čïğan* deydilar (MK,I,67); *Köŋül kimiŋ bolsa qalï, Qïlsa küčün bolmas anï toq bay* – ko‘ngli och, yo‘qsul bo‘lgan kishini kuch bilan to‘q, boy qilish mumkin emas (MK,III,257). *Čïğay*ning XIV asr va eski o‘zbek tilida iste’molda bo‘lganini Rabg‘uziy (QR,128v21) va Alisher Navoiy asarlaridan bilib olish mumkin:

Tindurur bayu čïğaynnï hākimi ravšan zamir,
Yarutur ābād ilä vayrānanï mehri munir (ANATIL,III,472).

Törü leksemasi Kul tigin yodnomasida “rasm-rusum”, “tartib-qoida”, “hokimiyat” semalarini ifodalagan: …*türük bodunïn älin törüsin tuta bärmis* - turk xalqining davlatini, rasm-rusumini tutib turgan [lar] (KTb,1); ...*ačum apam törüsinčä yaratmïs* – ota-bobolarim qonun-qoidalari bo‘yicha tashkil qilibdi (KTb,13); ...*qağan älin törüsin anča qazğantï* - xoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qozondi (KTb,31). Bilga hoqon bitigtoshi, Turfon matnlari va «Oltun yoruq» yodgorligida “urf-odat”, “tartib-qoida”, “to‘y bazmi” ma’nolarida kelgan: *Türgäs qağanïŋ qïzïn ärtäŋü uluğ törün oğlïma alïp bärtim* – Turgash xoqonning qizini katta to‘y qilib og‘lima olib berdim (DTS,581). Yusuf Xos Hojib “qonun-qoida” ma’nosini atamaning **törä** varianti hamda **törä toqa**, **törü toqa** so‘zlariga yuklagan (DTS,580). “Devonu lug‘otit turk”da *törü* “rasm, odat”, “insof, adolat” semalarini anglatgan: *äl qalïp törü qalmas* – mamlakat tashlanadi-yu, odat tashlanmaydi (MK,III,240); *Küč aldïn kirsä, törü tüŋlüktän čïqar* – zulm eshikdan kirsa, insof, adolat tuynukdan chiqadi (MK,II, 25). Rabg‘uziy qissasi tilida esa *törä* fonetik shakli «urf-odat», «qonun-qoida» semalarini bildirgan: *Bu qonuq tutmaq töräsini xalqqa qoδğan İbrāhim* (QR,37v14*); Aydi: elčini öldürmäk pādšāhlar töräsi ermäs* (QR,230r20). Bu leksemaning “Xazoyinul - maoniy” devonida kuzatilishi uning eski o‘zbek tilida ham istifoda etilganini ko‘rsatadi:

Törä birlä baš urub tut xanğa,
Sarqutïn ber meni besāmānğa (ANATIL,III,270). Hozirda mazkur so‘z *ko‘chma ma’noda* **to‘ra** *(ra*smiyatchi), **to‘ralarcha** (rasmiyatparastlarga xos ravish-da), **to‘rachilik** (ishga rasmiyatchilik bilan qarash) kabi atamalar tarkibida saqlanib qolgan (O‘TIL,IV,258).

Kul tigin bitigtoshida o‘zak, tomir, asl **kök** deb yuritilgan: *Idi oqsïz kök türük anča olurur ärmis* – xo‘jayinsiz (hech kimga tobe bo‘lmay), tonobsiz (cheklan-magan yerga ega bo‘lib), asl turk shu tarzda yashar ekan (KTb,3). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida kalimaning “o‘zak, ildiz”, “asos” semalari

mavjudligini ko‘ramiz: *bular erdi din ham šari’at köki* (DTS,312). Kezi kelganda aytish kerakki, mazkur dostonda **kök yïldïz** juft so‘zi “o‘zak, ildiz” ma’nosida. [Рустамий А., 2022] qo‘llangan o‘rinlar ham ko‘zga tashlanadi. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, *kök* o‘g‘uz va qipchoqlar tilida ko‘chma ma’noda kelib chiqish, nasl nasabni ifodalagan: *köküŋ kim* – asling kim, qaysi qabiladansan, demakdir (MK, II,328). Akademik Alibek Rustamov to‘g‘ri uqtirib o‘tganidek, *kök türük* birikmasidagi *kök*ni “havo rang” deb tushunish keng tarqalgan, lekin “erkin” deb tushunish ham bor. Haqiqatda esa bu yerdagi *kök* “o‘zak, tomir” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, *kök türük*dan murod turkiy xalqlarning o‘zagini tashkil qiluvchi o‘zgarmagan turklardirBugungi kunda o‘rganilayotgan so‘z *Ko‘kan, Ko‘kanoy, Ko‘ki* singari kishi ismlarining asos qismini tashkil etadi (O‘I,192).

Darhaqiqat, run yozuv yodgorliklarida qo‘llangan leksik birliklarni tahlil qilish ko‘hna so‘zlarning qo‘llanish doirasi, ma’no qo‘lamini aniqlash, qadimiy atamalarni tiklash barobarida bugungi globallashuv davrida chetdan kirib kelayotgan o‘zlashmalarning o‘zbekcha muqobillarini topishda katta o‘rin tutadi. Qolaversa, ko‘k turk yozuvi obidalari turkiy tillar tarixiy leksikologiyasini yaratishda, bu tillar uchun qadimda mushtarak bo‘lgan xususiyatlarni belgilashda, ularning keyingi taraqqiyot bosqichlarini yoritishda, uni chuqur ilmiy tahlil qilishda qimmatli manbadir.

Shartli qisqartmalar

DTS – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969.

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV. Э.Фозилов таҳрири остида. -Т.: Фан, 1983-85.

G – Сайфи Сарайи. Гулистан бит –турки // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIVвека. I-II. –Т.: Фан, 1966-1971.

KTb – Алийбег Рустамий. Сайланма/2-жилд/Туркий тил махзани/ - Тошкент: Zilol buloq, 2022.

MK – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. –Т.: Фан, 1960-1963.

O‘I – Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

O‘XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.

QR – Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. Kisasul-Enbiya. II. Dizin. Aysu Ata. – Ankara, 1997.

SSTTN – Будагов Л. З. Сравнительный словар туреско-татарских наречий. Т. И-ИИ. –Санкпетербург, 1869-1872.

Tafsir – Бороков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XII-XIII ВВ.- М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: ФАН, 1983. –Б. 3.

2. Бартольд В.В. Сочинения. Т.II. Ч. I. –М., 1963. –С. 604; Баскаков А.Н. Тюркимы-социальная терминология в «Слове о полку Игореве». Turkologica. К 70 летию акад. А.Н. Кононова. –М., 1976. –С. 226.

3. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2007. –Б. 34. Қаранг: Менгес К. Восточные элементы в «Слове о полку Игореве». –Л., 1979. –С. 110-111; Баскаков А.Н. Тюркизмы-социальная терминология в «Слове о полку Игореве». Turkologica. К 70 летию акад. А.Н. Кононова. –М., 1976. –С. 225; Немет Ю. К вопросу об аварах. –В кн. «Turcologica». –Л., 1976. –С. 299.

4. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 181. Қаранг: Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуфий лексикасининг систем тадқиқи. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. –Тошкент, 2021; Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. –Фарғона, 2021.

5. Рустамий А. Сайланма/2-жилд/ Туркий тил махзани/ - Тошкент:Zilol buloq, 2022. –Б.144.

6. Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 178.

“BOBURNOMA”NING QOZOQCHA TARJIMASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Muhammadiyeva Dilafro‘z Axtamovna
d.muhammadiyeva@mail.ru
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110597

Annotatsiya. “Boburnoma” yaratilgan davrdan boshlab turli davrlarda yashab, turfa tillarda so‘zlashgan sharqshunoslar diqqatini o‘ziga tortib kelgan va bir necha asrlar davomida kitobxonlarning sevimli kitobiga aylanib ulgurgan. Bobur shunoslikda bitta tadqiqotda “Boburnoma”ning turkiy tillardagi barcha tarjimalari o‘zbekcha nashr bilan qiyosiy o‘rganilgan ish yo‘q. Ammo bir qancha ilmiy ishlarda ayrim ma’lumotlar uchraydi. O‘zga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni o‘zaro qiyoslab o‘rganish orqali ilmiy qimmatini belgilash o‘zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini o‘rganish nuqtayi-nazaridan ham muhimdir. Ushbu maqolada ana shu jihatga, “Boburnoma”ning sharq xalqlarida o‘rganilishi, ularning tarjimalaridagi o‘ziga xosliklar haqida so‘z yuritiladi. “Boburnoma”ning tarjimalari haqida yaxlit, mukammal tadqiqot olib borilmagan. Ammo bir necha tadqiqot ishlarida ayrim ma’lumotlar uchraydi. O‘zga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni o‘zaro qiyoslab o‘rganish orqali asarning ilmiy qimmatini belgilash o‘zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Zero, «Boburnoma» dunyo sharqshunoslari yakdillik bilan qayd etganlaridek, insoniyat madaniyatiga qo‘shilgan katta ulush hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, “Бабырнама”, “Vekayi”, memuar, tadqiqot, tarjima, asliyat, qo‘lyozma, nusxa, tarjimon, sharqshunos, qozoqcha, ibora, maqol.*

Abstract. From the day of its creation, “Boburnoma” has gone through various times, it has always attracted the attention of orientalists from different countries and for several centuries it continues to be a handbook for readers. There is not any research work in studying of Bobur’s oeuvre on comparing translations of “Boburnoma” into turkish languages with translations into Uzbek. Only in some scientific works certain information may be found. To determine the literacy of translations into other languages, to establish scientific significance through their comparison is an important aspect for the study of the literary and cultural ties of the

Uzbek people with other peoples. Namely these aspects are researched in this article: the study of the “Boburnoma” by European peoples and the specifics in their translations. There hasn't been any comprehensive, detailed research about the translations of “Baburnama”. But, some information is found in several researches. Determining the quality of translations into other languages, defining the scientific value of the work through their comparative study are also important in terms of studying the literary and cultural relations of the Uzbek people with other nations of the world. After all, as unanimously noted by world orientalists, the “Baburnama” is a great contribution to human's culture

Keywords: *“Boburnoma”, “Babырnama”, memoir, research, translation, original version, manuscript, copy, translator, kazakh, idiom, proverb.*

“Boburnoma” jahon adabiyotining nodir durdonasi hisoblanadi. U o‘zining tarjimalari bilan barcha xalqlar adabiyotiga bemisl hissa qo‘shgan. Asar dunyo tillariga tarjima qilinishining tarixiy va tadrijiy jarayonlarini ko‘rib chiqish asnosida, tarjimonlarning asliyatni qayta tiklash jarayonida neqadar mashaqqatli va sharafli yo‘lni bosib o‘tganligini ko‘rish mumkin. Buning natijasi o‘laroq bugungi “Boburnoma”ning jahon yuzini ko‘rishi uchun yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hozirda “Boburnoma” va uning tarjimasiga tegishli bo‘lgan tarixiy hujjatlar dunyoning 23 kutubxonasining noyob mulki hisoblanishi ham asar salohiyatining nechog‘lik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

“Boburnoma”ning tarjimalari haqida yaxlit, mukammal tadqiqot olib borilmagan. Ammo bir necha tadqiqot ishlarida ayrim ma’lumotlar uchraydi. O‘zga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni o‘zaro qiyoslab o‘rganish orqali asarning ilmiy qimmatini belgilash o‘zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Zero, “Boburnoma” dunyo sharqshunoslari yakdillik bilan qayd etganlaridek, insoniyat madaniyatiga qo‘shilgan katta ulush hisoblanadi.

Bugun dunyoda globallashuv jarayoni kechayotgan bir paytda tarjimaning nafaqat amaliy, balki nazariy ahamiyati ham yanada ortib bormoqda. Har qanday tarjimaning asosiy vazifasi asl tilda bildirilgan kommunikativ maqsadni tarjima tilida to‘la va aniq ifoda etishdan iborat. Lekin uning aksariyat mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan, tarjimaning barcha turlariga xos universal ta’rif yoki qolipi mavjud emas. U yoki bu asar (matn) tarjimasiga bir paytning o‘zida yoki turli davrlarda bir nechta tarjimon qayta qo‘l urishi mumkin. Ushbu jarayonda tarjima asari sayqallashib, takomillashib boradi. Ana shunday tarjimalar sirasiga

“Boburnoma”ning turkcha ozarbayjoncha va qozoqcha tarjimalarını ham keltirish mumkin.

“Boburnoma” qozoq tiliga birinchi bor Bayuzaq Qojabekulы tomonidan 1990-yilda “Babырnama” nomi bilan tarjima qilinadi. Bu tarjima o‘zbekcha tanqidiy matn va ruscha tarjima asosida qisqartirilgan holda bosilgan. Keyingi 1993-yilda to‘liq tarjima shaklida nashr etilgan, ammo ism ko‘rsatkichlari va geografik nomlar xaritasi tushirib qoldirilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif Bobur va uning hayoti, “Boburnoma”ning badiiyati va tarkibiy qismlari haqida batafsil ma’lumot beradi.

Qozoqcha tarjimada voqealar juda kichik-kichik mavzularga bo‘linib berilgan. “Boburnoma”dagi aforizmlar, g‘azallardan parchalarni Orazaqыn Asqar qozoqchaga tarjima qilgan. Nashrni kuzatish mobaynida paremiyalarning o‘girilishidagi o‘ziga xoslikni aniqladik. Muallif maqollarni so‘zma-so‘z o‘girmaydi, hozirgi qozoqchada mavjud bo‘lgan ekvivalentini qo‘llash yo‘lidan boradi. Masalan, G‘ofil az injo ronda va az onjo monda (G‘ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan) matali (b.64.) shunday o‘girilgan: *Тоқал ешкі құдайдан муйіз сураймын деп, құлағынан айрылыпты* (б. 77.). Yoki, “Inonmag‘il do‘stungg‘a, somon tiqar po‘stungg‘a” maqoli (b.76.) *“Жау жоқ деме, жар астында”* (б.99.) deb tarjima qilingan.

E’tibor bersak, ikkinchi maqolning muqobili aynan Bobur aytmoqchi bo‘lgan fikrni ifodalamagan. Chunki Bobur do‘stining xoinligini ta’kidlamoqchi, qozoqchada esa atrofning xatarlarga to‘la ekanligiga urg‘u qaratilgan. Holbuki, tarjimon asliyatda berilgan maqollarning tarjima tilida mavjud muqobillarini izlashi, ularni saralashi hamda muqobili mavjud bo‘lmaganlarini esa qisqa va lo‘nda izohlar orqali ifodalashi lozim.

Misollar:

Qopudag‘ini qopmasa, qarig‘uncha qayg‘urur (b.74) – *Өз аяғымен келіп, қолымызға түскелі тұрған жау еш шығынсыз, жылыстап кетті.(95*), Korhoro bavaqt boyad just, Kori bevaqt sust boshad sust (b.74) – *Дер кезінде бітken іс пайдалысы, Күні өткен соң болмайды жай-мәнісі (95),* Uzrash batar az gunoh (b.78) – *Оның ақталғаны қылмыстан да жаман (102),* Lazzati may mast donad, hushyoron chi haz (b.108.) –*Мас біледі шараптың тәтті дәмін, Татпағанды демейді ол шат қыламын емес жаман егер.*

Ko‘rinadiki, tarjimon maqollarni tarjima qilish jarayonida o‘z tilida mavjud bo‘lgan ekvivalentini qo‘llash metodidan foydalangan, biroq tanlangan bu metod o‘zini u qadar oqlamagan. Buning oqibatida, “Boburnoma”ning asl ifoda uslubi

buzilgan, tasviriylik aks etmagan. Bu holatni gap tuzilishlarining o‘zgartirilganligida ham ko‘rish mumkin.

“Boburnoma” ikkinchi bor qozog‘istonlik professor Islom Jemeney tomonidan 2022-yilda Olmaotadagi “Nurli olam” nashriyotida chop etilgan Mazkur tarjima afg‘onistonlik olim Hidayatulla Hidoyat tomonidan 2008-yilda Mozori Sharifdagi “Ulug‘bek” nashriyotida chop etilgan “Boburnoma”ning qo‘lyozma nashriga asoslangan va to‘g‘ridan to‘g‘ri ushbu qo‘lyozma nusxadan qozoq tiliga tarjima qilingan.

Professor I.Jemeney tomonidan amalga oshirilgan “Boburnoma” tarjimasi “Muqaddima” (3-4), Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ma’lumotlar(5-10), “Boburnoma”da qozoqlar haqida” (10-18) “Boburnoma”da turkiy so‘zlar”(18-20) va “Boburnoma” lug‘ati(20-23) hamda “Boburnoma” - Farg‘ona voqealari (23-132), Kobul voqealari (133-268), Hindiston voqealari (269-404), Ismlar ko‘rsatgich jadvali(405-427) va o‘rin-joy ko‘rsatgichlari(428-439) shuningdek, adabiyotlar ro‘yxatidan(439-443) tarkib topgan.

Tarjimaning aniq va mukammal bo‘lishida tarjima tilining grammatik qurilishi, unda muvofiq til birliklarining mavjud ekanligi yoki emasligi, tilning obyektiv borliqni ifoda eta olish imkoniyatlarining miqyosi bir xil ekanligi yoxud bir xil emasligi kabi omillar qatorida tarjimonning mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda, tarjimon nafaqat asliyat, tarjima tillarining grammatik qurilishi, leksik boyligini, balki o‘sha tillarda gapiruvchi xalqlar tarixi, urf-odatlari, an’analari, til birliklarining funksional jihatlari haqida ham mukammal bilimlarga ega bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2002. “Бобурнома”. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Бобурнома”. 2008. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К. Муллахўжаевалар табдил қилган. – Тошкент .
3. Бабир Захир ад-дин Мухаммед. “Бабырнама”. 1993. Қазақша сөйлеткен Байузақ Кожабекұлы. – Алматы.
4. Зәһиреддин Мұхаммед Бабыр. Бабырнама: 2022. Аударма – Алматы: “Нұрлы Әлем”.
5. Mesut ŞEN, Gazi Zahirüddin Muhammed Babür. Babürname, Giriş-Metin (Kabil ve Hindistan bölümleri) – Açıklamalı Dizin. – İstanbul, 1993. (Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, basılmamış doktora tezi).

“QUTADG‘U BILIG” VA “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI TABOBATGA DOIR TERMINLAR TASNIFI

Xolmuradova Mushtariy Faxrutdin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mushtariy.xolmuradova@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110616

Annotatsiya. Maqolada “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk” asaridagi tibbiy terminlar tahlil qilingan. Tibbiyotga doir tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar izohlangan. Asarlardagi tibbiy terminlar, tibbiyotga doir mulohazalarning hozirgi kunga munosabati, ahamiyati yoritilgan. Tibbiyotga doir leksemalar: tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomlari, dori nomlari, kasallik nomlari, dori-darmon nomlari, shifobaxsh taom nomlari kabi turkumlarga bo‘linib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *issiqlik, sovuqlik, em (davo), emchi (tabib), urag‘un (achchiq dori), tarangbin (yaproqda paydo bo‘ladigan shira, surgi dori sifatida foydalaniladi), ma’jun (opium, dorilar aralashmasidan iborat pasta), temperament, jismoniy tarbiya.*

Abstract. The article analyzes the medical terms in "Kutadgu Bilig" and "Devonu Lugotit Turk". Lexical units representing medical concepts are explained. The medical terms in the works, the relevance and significance of medical considerations to the present day are highlighted. Medical lexemes: names of persons engaged in medical activities, names of drugs, names of diseases, names of medicines, names of medicinal food were analyzed.

Keywords: *heat, coldness, medicine, healer, uragun, tarangbin, ma’jun, temperament, physical education.*

Xinjyang tibbiyot universiteti (Xinjiang Medical Universty) olimlari “The origins of Uyghur medicine: Debetes and perspectives” (Uyg‘ur tibbiyotining kelib chiqishi: munozaralar va istiqbollar) mavzusida maqola e’lon qildilar. Maqolada uyg‘ur tibbiyotining kelib chiqish ko‘p asrlik tarixga borib taqalishi, uning shakllanishida “Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlarining o‘rni haqida muhim fikrlar bayon etilgan [Abdukadir A, 2015: 226]

Asarlar matnida tibbiyot bilan mashg‘ul shaxs otlari o‘z aksini topgan. Masalan, **otači “tabib, davolovchi”** ma'nosini bildirgan. Asarda tabiblarga nisbatan **emči** termini ham qo‘llangan. Ot so‘zi em bilan birgalikda qo‘llanib, “giyoh,

dorivor o‘simlik” tushunchalarini bildirgan [DTS, 373]. Mahmud Koshg‘ariyda ot so‘zining 1) “o‘t, o‘simlik”; 2) “hayvonlar yeydigan har turli o‘t, xashak”; 3) “dori, davo”; 4) “og‘u, zahar” ma’nolari qayd etilgan [DLT, I, 71]. Bundan tashqari, “tabib” ma'nosidagi atasağun so‘zi ham keng iste'molda bo‘lgan. Buning ma'nosi “sog‘lik beruvchi, sog‘lik ato qiluvchi”dir [DLT, I: 114].

Qutadg‘u bilig”da dorishunos, dorivor giyohlardan dori tayyorlovchi *iδišči* shaxs oti bilan anglashilgan. Asarda turli dori nomlari va ularning qanday kasalliklarga qarshi qo‘llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan: *Qamuğ türlüg otlar iδişçi tutar* [QBN, 2887]. “Ҳамма турли дориларни шаробдор (доришунос) сақлайди (ҳозирлайди)” [QBN, 2448].

Urağun – achchiq ta'mga ega bo‘lgan dori, zahar:

Beδük bir biçäkig yelikdä tutar

Solındın urağun oŋındın şäkär [QBN, 772]. “Qo‘lida ulkan bir pichoq tutgan, So‘l tomonida – urag‘un (bir xil dori), o‘ngida esa shakar (sharbat)” [QBN, 757].

“Qadimgi turkiy til” lug‘atida urağun “название одного из индийских лекарств, горький напиток” tarzida izohlangan [DTS, 614]. R. Arat bu dorini “Hindistandan gelen bir ilâç” deb izohlaydi “Devoni lug‘otit turk”da urağun-kasallarga qo‘llaniladigan hindcha bir dori [DLT, I: 156].

Ötrüm – surgi dori. “Qutadg‘u bilig”da ta'kidlanishicha, Oyto‘ldi kasallikka chalinganda tabiblar unga qon oldirishni tavsiya qilishgan. Ayrim tabiblar surgi dori – ötrüm ichishni maslahat berganlar:

Qayu aydı ötrüm içürgü keräk,

Özin qatmış emdi boşutğu keräk [QBN, 1059]. “Ba'zilari aytdilar: curgi ichirish lozim, ichi qotibdi, endi ichni yumshatish kerak”[QBN, 1045].

Çurnı (churni) – surgi dori, turklar tomonidan qo‘llaniladi:

Qamuğ türlüg otlar iδişçi tutar

Güvariş ya ma’cun ya çurnı qatar [QBN, 2887].

“Hamma turli dorilarni sharobdor saqlaydi, Guvorish yo ma'jun, yo churni aralashtiradi (hozirlaydi)”[QBN, 2448].Turk tabiblari tomonidan yasaladigan surgi dori čurnï deb atalgan [DLT, I: 408].

Egit-yaradan, shuningdek, ko‘z tegishidan saqlash uchun bolalarning yuziga surtiladigan bir dori. Bu dori za'faronga bir qancha giyohlar qo‘shib tayyorlanadi.

Egir- igir//iyir. Qorin og‘rig‘ini davolash uchun qo‘llanadigan o‘simlik. “Devonu lug‘otit turk”da bu bilan bog‘liq bir maqol keltirilgan: *Ekir bolsa er ölmäs*-kishi yonida bu dori bo‘lsa, o‘lmaydi. Bu maqol har ishga oldin hozirlanish kerak, degan ma'noda qo‘llanadi [DLT, I: 88].

Atğaq Qorinda sariq suv yig‘ilish kasalligi. Sariq rangdagi bir turli o‘simlik ham shunday ataladi. Qayg‘udan rangi sarg‘aygan kishilarga nisbatan ham atğaq deyiladi [DLT, I: 141].

Bars. Bars so‘zi aslida zoonim sifatida “yo‘lbars” ma'nosini anglatadi. Lekin “Devonda shunday kasallik turi ham bars deb ataladi. Chivin, pashsha chaqishidan yoki eshak yem boshlanishida terida paydo bo‘ladigan paysa, shish shunday nomlanadi: *anïŋ eti bars boldï* –uning eti paysa bo‘ldi, shishdi.

Asarda kasalliklarga shifo bo‘ladigan bir qancha tosh nomlari ham keltirilgan. Jumladan, *qoš toshi*-davolovchi tosh.Turklarda shunday hikmatli so‘z keltirilgan: *kimiŋ bilä qaš bolsa, yašïn yaqmas*- qosh toshi kimda bo‘lsa, unga chaqmoq zarar bermaydi. Chunki u toshning tabiati shunday. Hattoki u toshni bo‘zga o‘rab o‘tga tashlansa, bo‘z ham, tosh ham kuymaydi. Bu sinalgandir. Tashna odam og‘ziga qo‘ysa, tashnalikdan kutuladi. U bir oq, tiniq toshdir, odamlar uni uzukka ko‘z qilib tikadilar [DLT, III, 28].*Urumday*-zaharning zararini yo‘qotish uchun ishlatiladigan tosh [DLT, I, 174].

Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg‘ariy qadimgi Gretsiya va O‘rta Osiyoning mashhur olimlari kabi olamni to‘rt unsurdan – o‘t, suv, havo va tuproq yoki issiq, sovuq, ho‘l va quruqdan iborat, degan falsafiy qarashni ilgari suradi. U insonning sihati, yoshi, ovqatlanishi va jismoniy tarbiyasi haqida ham qimmatli mulohazalar bildiradi. Kishi yoshiga qarab harakat qilmog‘i, ovqat turlarini tanlamog‘i, o‘z organizmini suv, jismoniy tarbiya bilan chiniqtirib bormog‘i lozimligini, bu bilan kasalliklarning oldini olishi mumkinligini, bemor o‘z kasalini dori bilangina emas, balki parhez tutish bilan ham davolashga intilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Asarda qo‘llangan tadu so‘zi “mijoz” tushunchasini ifoda etadi. Yusuf Xos Hojib inson mijozining juda katta ahamiyatga ega ekanligi, har bir kishi o‘z mijoziga qarab ovqatlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi o‘z mijozi qandayligini aniq bilishi kerak [QBN, 4621].

Muallif qirq yil yashab o‘z mijozini bilmagan insonni hayvonga qiyos qiladi. Isig va soğıq so‘zlari inson mijozi bilan bog‘liq bo‘lgan “issiqlik” va “sovuqlik” tushunchalarini ifoda etadi. Muallif inson “issiqlik” va “sovuqlik” tushunchalarining mohiyatini bilishi kerakligi, issiqligi oshganda sovuqlikni oshiradigan, va aksincha, sovuqlik oshganda issiqlikni ko‘taradigan taomlarni tanovvul qilishi lozimligini aytgan:

Isig artsa terkin soğıq iç özä

Soğıq artar ersä isigin tüzä [QBN, 4622]. “Issiqlik oshsa, darhol o‘zing sovuqlik ichib yengillash, Sovuqlik oshadigan bo‘lsa, issiqlik bilan tuzat” [QBN, 4518].

Yusuf Xos Hojib quruq sovuqlik (quruq issiqlik) yoki ho‘l sovuqlik (ho‘l issiqlik) kabi turlarga ajratadi. Inson o‘z mijozi qandayligini aniq bilmagan taqdirda issiqlik yoki sovuqlik o‘rtasidagi bir me'yorga amal qilishi lozimligini aytadi.

Asarda mijozning inson yoshiga bog‘liqligi, bu ikki jihatning tush ko‘rishga ham ta'siri borligi aytilgan. Yil fasli bahor bo‘lsa, ya'ni odam yosh bo‘lsa, tushida barcha narsani qizil ko‘rsa, yerni kulrang ko‘rsa, uning qoni oshgan bo‘ladi. U kishi tegishli miqdorda qon oldirishi kerak. Yil fasli yoz bo‘lsa, ya'ni tush ko‘ruvchi yigit bo‘lsa, tushida sariq, ol yo za'faron, arg‘uvon (ranglar) ko‘rsa, safrosi kuchaygan bo‘ladi. Yil fasli kuz bo‘lsa, ya'ni odam o‘rta yosh bo‘lsa, tushida qora narsa ko‘rsa, tog‘ yo quduq, kavak ko‘rsa savdosi kuchaygan bo‘ladi. Dori ichib miyasini tozalashi kerak bo‘ladi. Agar yil fasli qish bo‘lsa, ya'ni tush ko‘ruvchi kishi qari bo‘lsa, oqar suv yoki muz, qor, jala tushiga kirsa, uning balg‘ami kuchaygan bo‘ladi. Bunday kishiga issiqlik yedirish va dori-darmon yetkazish kerak.

Bugungi kunda zamonaviy tabobatda ovqatni sovuq holda tanovvul qilish, issiq holatda yemaslik, taomni mayda chaynab yeyish salomatlik omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu fikr XI asrdayoq Yusuf Xos Hojib tomonidan o‘rtaga tashlangan:

Negü alsa tişla uşaq tançula

Işig aşnı urmä sen ağsıŋ bilä [QBN, 4601]. “Nima olsang tishla, maydalab chayna, Sen issiq oshni og‘zing bilan puflama”[QBN, 4497]. Baytdagi uşaq “mayda” tançula “maydalamoq” tushunchalarini ifodalagan.

Yusuf Xos Hojib insondagi barcha dard tomoqdan kiradi, shuning uchun ham tomoqni, ya'ni nafsni ehtiyot qilish kerak, deydi. Shuning uchun ham kishi ovqatni me'yorida yeyish kerakligini ta'kidlagan. Dardu kasallikdan qochadigan, sihat-salomatlik istagan inson “oz” deb atalgan dorini iste'mol qilishi, farog‘at yoki osoyishtalik tilasa, “til” deb atalgan go‘shtni yeyishi kerakligi tabobat borasidagi muhim ma'lumotlardan biri sanaladi.

“Devonu lug‘otit turk”da ham inson organizmiga shifo bo‘ladigan taom nomlari keltirilgan. Jumladan, Qatiq bilan sutning aralashtirilib tayyorlangan *ibrük* degan taom ichi qotgan odamga surgi dori sifatida beriladi. Xamirni no‘xatday maydalab, kesib tayyorlanadigan ugra oshining bir turi *sarmačuq* deyiladi. Buni kasal va kasalga o‘xshashlar ichishadi. Ko‘pincha davo ovqat sifatida qo‘llaniladi (DLT, I, 480).

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk” asarlaridagi tibbiyotga doir ma’lumotlar O‘rta Osiyodagi tabobat rivoji, dori ko‘rinishlari, davo turlari haqida ma’lumot beradi. Bu asarni nafaqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik sohasiga oid, balki tibbiyotga oid qimmatli fikrlar jamlangan noyob qomusiy asar sifatida o‘rganishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukadir A., Dubrovin D., Amat N., Liu V., Hashim A., Aikemu A., Mamtimin B., Halmurat U. The origins of Uyghur medicine: Debetes and perspectives.-Sciens Direct. Journal of traditional Chinese Medical Sciences (2015). 2, 217e226.

2. Abdurahmonov G‘. To‘xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadg‘u bilig. I,II,III,IV,V jildlar. -Toshkent: Jahon print, 2011.

3. Абу Али ибн Сино.Тиб қонунлари .V китоб, 1993.

4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). -Тошкент ,1963.

5. ДТС - Древнетюркский словарь.-Л. :Наука,1969.

6. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи.-Тошкент:Ўқитувчи,1976.

7. Resid Rahmeti Arat. Kutadgu bilig (index). -Istanbul, 1979.

8. To‘xliyev B. O‘zbek adabiyoti..-Toshkent: O‘qituvchi , 2000.B.134.

9. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов.-Тошкент: Фан,1972.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V жилдлар. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

MAHMUD IBN ALI AS-SAROYINING “NAHJUL FARODIS” ASARINING O‘RGANILISHI

Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna
F.f.f.d. (PhD), dots.
Jizzax davlat pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110665

Annotatsiya. Har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o‘rganishning yagona ilmiy yo‘li birlamchi manbalarga asoslanish va yozma yodgorliklar tilini qiyoslash asosida ikki oradagi yaqinlik, farq va yangiliklarni aniqlashdir. Shunday noyob asarlardan biri XIV asr turkiy nasri namunalaridan biri Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) (1357-1358) asaridir. Mazkur maqolada eski o‘zbek adabiy tilining nodir namunasi bo‘lgan “Nahjul Farodis” asari, uning yaratilishi, asarning bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxalari va qo‘lyozma nusxalar ustida olib borilgan tadqiqotlar xususida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili tarixi, eski o‘zbek adabiy tili, turkiy tillar, Oltin O‘rda, Mahmud ibn Ali as-Saroyi, “Nahjul farodis”, Xorazm, Istanbul nusxasi, Qozon nusxasi, Sankt-Peterburg nusxasi, turkologiya.*

Abstract. The only scientific way to study any language phenomenon historically is to identify similarities, differences and innovations between the two based on primary sources and comparing the language of written monuments. One of such unique works is “Nahjul Farodis” (“The Open Way of Paradise”) (1357-1358) by Mahmud ibn Ali al-Sarayi, one of the samples of Turkish prose of the 14th century. This article provides detailed information about the work “Nakhul Farodis”, a rare example of the old Uzbek literary language, its creation, the manuscript copies of the work that have reached us and the research conducted on the manuscript copies.

Keywords: *History of the Uzbek language, Old Uzbek literary language, Turkic languages, Oltin O‘rda, Mahmud ibn Ali al-Saroy, "Nahjul Faradis", Khorezm, Istanbul copy, Kazan copy, St. Petersburg copy, Turkology.*

Har bir xalqning, millatning milliy qadriyati, dunyoqarashi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar, jumladan, adabiy-tarixiy manbalarda o‘z ifodasini topgan. Shu bois bugunga qadar keng jamoatchilikka notanish bo‘lgan durdona asarlarning qo‘lyozma nusxalarini tadqiq etish, ularning ilmiy, ma’rifiy, axloqiy-ma’naviy

qiymatini belgilash, badiiy jihatlarini yoritish, til xususiyatlarini o‘rganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Tarixiy-badiiy manbalar tilini tadqiq etish mumtoz asarlarning mazmun-mohiyatini, ilmiy-amaliy qiymatini belgilashda ahamiyatlidir. Shu bilan bir qatorda asar yaratilgan davr tilining fonetik, leksik, grammatik tizimiga xos taraqqiyot jarayonini kuzatish imkonini yaratadi.

Turkiy xalqlar va turkiy tillar tarixida XIII – XIV asrlar o‘ziga xos va murakkab davrni tashkil etadi. Bu hol ayni davr yozuv yodgorliklarida ham aks etgan [14;7]. Markaziy Osiyo va Oltin O‘rda hududida XIII – XIV asrlarda yaratilgan adabiy asarlar til jihatidan ham birmuncha murakkab bo‘lib, bir-biridan farq qiladi. Chunki bu asarlar tilining asosini, bir tomondan, oldingi davrlar turkiy adabiy til an’analari tashkil etsa, ikkinchi tomondan, mazkur asarlarda shu hududda yashagan turkiy xalqlarning til xususiyatlari ancha keng o‘rin olgan.

Ma’lumki, turkiy xalqlar boy madaniyat va san’at yaratgan hamda dunyo madaniyati xazinasiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan xalqlardan biridir [21;3].

Turkiy xalqlarning boy adabiy merosiga tegishli ayrim durdonalar hanuzgacha nafis qo‘lyozma holida turli davlatlarning kutubxonalarida saqlanib kelmoqda [14;3]. Mana shunday nodir asarlardan biri Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asaridir.

Mazkur asar hijriy 759- (milodiy 1357-1358) yilda yaratilgan, yozilgan joyi aniq emas. Hozirda asarning bir necha qo‘lyozma nusxasi fanga ma’lum. Mazkur noyob qo‘lyozmalar ayni paytda Qozon (2 ta nusxa), Sankt-Peterburg (2 ta nusxa) hamda Istanbul (1 ta nusxa) shaharlarida saqlanadi. Qozondagi nusxalardan biri 6026 inventar raqami bilan Qozon davlat kutubxonasida saqlanadi. Ushbu qo‘lyozmaning kotibi ham, ko‘chirilgan vaqti ham noma’lum. E.N.Najipning taxmin qilishishicha, bu nusxa XVII asrda ko‘chirilgan [14;12]. Ikkinchi nusxa Qozon davlat pedagogika institutining Tatar adabiyoti kabinetida saqlanadi. Mazkur nusxa hijriy 1185- (milodiy 1771-1772) yilda Fayzullo Jafar o‘g‘li tomonidan uning o‘qituvchisi Salimjon mullo Do‘stmuhammad o‘g‘li uchun ko‘chirilgan [14;60-61]. Sankt-Peterburgda saqlanuvchi har ikki nusxa ham Sharqshunoslik institutida 316, B2590 inventar raqami bilan saqlanadi.

“Nahjul farodis”ning Sankt-Peterburg hamda Qozonda saqlanayotgan nusxalari turli nuqsonlardan holi emas. E.N.Najipning fikriga ko‘ra, bu nusxalar asar muallifini aniqlashga yordam beradi. Mazkur qo‘lyozmalardan matnshunoslik sohasida foydalanish mumkin [9;61-61].

Asarning Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida 879-inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxasi hijriy 761- (milodiy 1360) yilda Muhammad bin Muhammad bin Xusrav al Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan. Mazkur nusxa asarning mavjud qo‘lyozma nusxalari ichida eng qadimgi varianti va eng mukammali sanaladi. Ushbu nusxa so‘zlarga diakretik belgilar (harakatlar) qo‘yilgani bilan ayniqsa xarakterlidir [14;12].

Istanbul nusxasi haqida Ahmad Zaki Validiyning maqolasida ma’lumot berilgan [13;331-345]. Keyinchalik bu nusxaning faksimelisi Y.Eckman tomonidan nashr qilindi [10;1-458]. Qo‘lyozmaning qog‘ozi, orfografiyasi, diakretik belgilarining xarakteri va boshqa xususiyatlariga asoslanib, Zaki Validiy ushbu nusxa Xorazmda ko‘chirilgan, degan xulosaga kelgan. Uning ta’kidlashicha, nusxa ko‘chiruvchining nomi (... al Xorazmiy) ham bu fikrni tasdiqlaydi [14;12].

Ma’lum bo‘lishicha, yuqorida ko‘rsatilganlardan tashqari asarning yana bir necha qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lgan. Bulardan biri Yalta Sharq muzeyining 1928-yildagi Qrimga ekspeditsiya vaqtida topilgan nusxadir. Bu nusxani muzeyning ilmiy xodimi Yaqub Kamol o‘rgangan [16;62]. Uning ma’lumotiga ko‘ra, bu nusxa hijriy 792- (milodiy 1390-) yilda Qosim bin Muhammad degan shaxs tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, asarning eng qadimgi nusxalaridan biri bo‘lgan [16;8]. Keyinchalik bu nusxa yo‘qolgan [9;58].

“Nahjul farodis” asari xususida ilk marta 1885-yilda tatar olimi Shahobiddin Marjoniy ma’lumot bergan [17;15-16]. Asarning ba’zi til xususiyatlari E.Fozilov tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, unda yodnomada qo‘llangan ba’zi so‘zlar izohlangan [22]. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan B.Yafarov tomonidan o‘rganilgan [23].

“Nahjul farodis”ning yozilgan joyi aniq emas. Asarning qadimgi qo‘lyozma nusxalaridan biri hisoblangan Istanbul nusxasining Xorazmda ko‘chirilgani, asarda qayd qilingan shaxslarning O‘rta Osiyolik ekani kabi faktlarni hisobga olib, Zaki Validiy asar Xorazmda yozilgan degan xulosaga kelgan. M.F.Ko‘prulzoda Zaki Validiyning fikriga qo‘shilgani holda, asar muallifi Mahmud aslida Kardar shahridan bo‘lib, keyinchalik Saroy shahrida yashab ijod etgan bo‘lishi mumkin, degan fikrni aytadi. Asar muallifi kardarlik bo‘lishi mumkin, degan fikr Yakub Kamol tomonidan ham aytilgan [16;11]. Shuningdek, mazkur asar xususida A.Ubaydullo, A.Rahim [1], F.Ko‘pruli [2], H.Tavfiq, H.Ehson va H.Ali[4], A.N.Samoylovich [18], Q.Burslan [8], Ali F. Qoramono‘g‘li [2] kabilarning ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Akademik E.Fozilov asardagi ayrim so‘zlarning ma’nosini izohlaydi [22]. Professorlar N.Rahmonov va H.Boltaboyevlar tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari”ning 1-jildida ham asardan

parchalar keltirilgan [19;272-284]. Matnshunos olim O.Jo‘raboyevning “Matnning matnosti sirlari” nomli monografiyasida “Nahjul farodis” asari mundarijasi va matni haqida muhim ma’lumotlar berilgan [15;12-27].

Asar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar orasiga Yanosh Eckmanning ilmiy izlanishlari alohida o‘rin tutadi. Olim asarning Istanbul Yangijome’ kutubxonasida saqlanayotgan diakretik belgili unikal qo‘lyozmasini faksimel holda nashrga tayyorladi [6]. Ammo asar transliteratsiyasini nashrga tayyorlash ishini nihoyasiga yetkazolmay vafot etgan [6]. Buni S.Tezgan va H.Zulfiqor davom ettirib, yakuniga yetkazadilar [11]. Shu tariqa “Nahjul farodis” asari to‘lig‘icha dunyo yuzini ko‘radi va asar yuzasidan olib boriluvchi tadqiqotlarning deyarli hammasi shu faksimel va matn yuzasidan amalga oshgan va bu jarayon hanuz davom etmoqda [7].

“Nahjul farodis” asari diniy-axloqiy, ilmiy-badiiy asar bolib, jami to‘rt bobdan tashkil topgan, har bir bob esa o‘n fasldan iborat. Avvalgi bob Payg‘ambar Muhammad sallollohu alayhi vasallamning fazilatlari bayoniga bag‘ishlangan, ikkinchi bobda halifalar, ahli bayt hamda to‘rt imom fazilatlari bayon etilgan, keyingi bob Alloh taologa manzur bo‘lgan amallarning bayoni xususida, so‘nggi to‘rtinchi bob esa Haq taolodan yiroqlashtiruvchi yovuz amallar bayonini o‘z ichiga olgan.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, XIV asr yodgorligi sanalmish Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul farodis” asari mazmunini yosh avlodlarga aslidagidek yetkazish, asar so‘z boyligini turkiy tilning mumtoz nasr namunasi sifatida tadqiq etish, asardagi eski o‘zbek tiliga xos leksik-semantik, tarixiy-etimologik jihatlarni o‘rganish, shuningdek, asar tilining o‘ziga xosligini asoslash, mazmun-mohiyati, ilmiy-amaliy qiymatini belgilash, muallifning so‘z qo‘llash mahoratini yoritishda, ayniqsa, muhim bo‘lib, bugungi kun o‘zbek tilshunosligi oldida turgan asosiy vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азиз Убайдулло, Али Раҳим. Татар адабиёти тарихи. – Қозон. 1924
2. Ali Fehmi Kamanoglu. Nehcul-feradis’in dil hususiyetleri, I. Turk dili ve edebiyati dergesi XVI, – Istanbul, 1968;
3. Fuad Koprulu. Turk Edebiyati Tarihi. – Istanbul. 1926
4. Hifzi Tevfik, Hamamizade Ihzan, Hasan Ali, Turk edebiyati namuneleri, cilt I. Istanbul, 1926.

5. Janos Eekmann. Bolmasa kalimesine dair – Turk dili arastirmalari yilligi, Belleten. – Ankara, 1954

6. Janos Eekmann. Nehjul-feradis I. Tipkibasim. – Ankara, 1956

7. Kenjayev Z.O. Didactic features of the novel “Nahjul-farodis”. Erpa International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5, 2020

8. Kivamettin Burslan. Nehcul-feradis’ten derlenenturkce sozler. Turkiyat mecmuasi IV, 1934. – Istanbul, 1934.

9. Наджип Э.Н. О памятники XIV века «Нахдж ал Фарадис» и его языке. – «Советская тюркология», 1971, №6, с.60-61.

10. Nehjul fradis. I. Tipkibasim. Önsözun jazan Jănas Eckmann. Ankara, 1956. B. 458.

11. Nehjul-feradis I metin, II tipkibasim.Turk dil kurumi yayinlari: 518. – Ankara, 1995.

12. Nehcul-feradis’in dil hususiyetleri, II. Turk dili ve edebiyati dergesi XVII, – Istanbul, 1969; Nehcul-feradis’in dil hususiyetleri, III. Metn. Turk dili ve edebiyati dergesi XIX, – Istanbul, 1971

13. Validi A.Z.Hvarazemda yazilmiş eski Turkçe eserler. – “Turkiyet mecmuasi”. Cild II, 1926, ss. 331-345

14. XII –XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир: Фозилов Э.И. – Т., Фан, 1986. 12-бет.

15. Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. (Мумтоз битиклар ва Абдулла Қаҳҳор асарлари таҳлили асосида) Монография. “TAMADDUN” Тошкент, 2017.

16. Кемаль Якуб. Тюрко-татарская рукопись XIV века «Нехжу-ль-ферадис». Крымское государсвенной издательство, - 1930, - С.62.

17. Маржоний Ш. Китоби мустафодил-ахбор фий аҳволи Қозон ва Булғор. – I. – Қозон, 1885. 15-16-бетлар.

18. Самойлович А.Н. Cuci ulusi veya altin Ordu Edebi Dili/Belletin, seri 1, по 12, 1935

19. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд. (Энг қадимги даврдан XIV асргача.) – Тошкент: Фан, 2003. 272-284-бетлар.

20. Фазылов Э. И. 1) Староузбекский язык. Хорезмейские памятники XIV века. АДД. Ташкент, 1967; 2) Староузбекский язык. Хорезмейские памятники XIV века. Том I-II. Ташкент. 1966; 1971; Яфаров Б.А. Литература камско-волжских булгар X-XIV вв. И рукопись “Нахдж ал-фарадис”. Канд.дисс. Казань, 1949

21. Фозилов Э. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Т., Фан, 1973. 3-бет.

22. Фозылов Э. Эски ўзбек тили. XIV аср Хоразм ёдномалари. 2 томлик. – Тошкент: Фан, 1966-1971.

23. Яфаров Б.А. Литература камско-волжских булгар X-XIV вв. И рукопись “Нахдж ал-фарадис”. Канд.дисс. Казань, 1949

24. Xo‘janiyazova Sh.S. “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida qo‘llangan tub turkiy leksemalar paradigmasi / “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro-ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020.

QA= UMUMTURKIY ASOSI ETIMOLOGIYASIGA DOIR MULOHAZALAR

Kamola Rixsiyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, PhD
krikhsiyeva85@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110694

Annotatsiya. O‘zbek tili leksik tarkibi va grammatik vositalari shu tilning boyligi hisoblanadi. O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi juda uzoq davrlardan beri leksik semantik hamda shakliy tuzilishiga ko‘ra ma’lum o‘zgarishlarga uchrab bugungi holatga kelgan. O‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishini bilish uchun so‘zlarni tarixiy etimologik jihatdan o‘rganib, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur. Ushbu maqolada ***qa=*** umumturkiy asosidan yasalgan leksemalar etimologiyasi tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *umumturkiy asos, genezis, tub so‘z, o‘z qatlam, ma’no o‘zgarishlari, etimologiya.*

Annotation. The lexical composition and grammatical means of the Uzbek language are the richness of this language. Since very long periods, the vocabulary of the Uzbek language has undergone certain changes due to its lexical semantic and formative structure. In order to know the historical formation of the lexicon of the Uzbek language, it is necessary to study the words historically etymologically and divide them into etymological layers. This article analyzes the etymology of lexemes made from the basis of qa= all-turkic.

Keywords: *universal basis, genesis, root word, own layer, changes in meaning, etymology.*

Turkologiyada leksemalar struktur-grammatik va ma’no o‘zgarishlari jihatidan tahlil qilingan. Qirg‘iz tilshunosi B.M.Yunusaliyev o‘zakni morfologik qismlarga bo‘linmaydigan va buyum haqidagi aniq tushunchani yoki harakat-holatni ifodalash uchun xizmat kiluvchi tovushlar kompleksi sifatida tavsiflagan [Юнусалиев, 1959]. Olim turkiy so‘zlar o‘zaklari bir tovush yoki tovushlar jamligidan iborat bo‘lishi, turkiy so‘z-o‘zaklarining fonetik tarkibi necha tovushdan iborat bo‘lishi uchun chegara yo‘qligini yozadi. U o‘z monografiyasida ularning bir tovushdan tortib yetti tovushgacha bo‘lgan turini tahlil qiladi.

O‘zbek tili leksik tarkibi va grammatik vositalari shu tilning boyligi hisoblanadi va bularning barchasi birdaniga paydo bo‘lgan emas. O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi juda uzoq davrlardan beri leksik semantik hamda shakliy tuzilishiga ko‘ra ma’lum o‘zgarishlarga uchrab bugungi holatga kelgan.

Bizga ma’lumki, har qanday tilning lug‘at tarkibi faqat o‘z qatlam so‘zlaridan iborat bo‘lmaydi. Unga boshqa tillardagi so‘z va vositalar ham o‘tishi mumkin.

Qadimgi turkiy til davri leksikasi turkiy so‘zlar va qadimgi sankskrit, so‘g‘d, xitoycha o‘zlashmalardan tashkil topgan bo‘lsa, keyinchalik eski o‘zbek tili lug‘at tarkibiga fors-tojik, arab, rus tillaridan so‘zlar o‘tib o‘zlashdi va o‘zbek tilining lug‘at tarkibi boyidi.

O‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishini bilish uchun so‘zlarni tarixiy etimologik jihatdan o‘rganib, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur.

O‘zbek tili O‘rta Osiyodagi qadimiy xalqlarning turkiy tillar tizimidagi tillardan biri bo‘lib, uning lug‘at tarkibi ham qadimiydir.

O‘zbek tili leksikologiyasining tarixiy etimologik shakllanishini tahlil qilishda dastlab o‘zbek tilining qardosh tillar bilan aloqasi, so‘ngra qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqasi aniqlanadi. Shu tartibda tillarning o‘zaro ta’siri ham ko‘rib o‘tiladi.

Turkiy tillar boyligining shunday qatlami ham borki, u shu turkiy xalqlar bir jamoa bo‘lib yashaganligi va shu jamoa birlashuvida, o‘zaro munosabatida sabab ekanligi, qanday doirada aloqada bo‘lganlarini bildiruvchi detallarni ko‘rsatib beradi [Миртожиев, 2017].

Turkiy tub so‘zlar turkiy tillarga xos alohida xususiyatlarni, uning taraqqiyot yo‘lini aks ettiradi, turkiy xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoitlari, urf-odatlari va madaniyati haqida ma’lumot beradi. Shuning uchun ham o‘z qatlamga oid birliklarni ajratish, ularni o‘rganish, etimologiyasini, semantik taraqqiyotini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Agglyutinativ til guruhiga kiruvchi turkiy tillarda o‘zak mustaqil qo‘llana oladi hamda yasama so‘z tarkibida o‘z shaklini saqlaydi, deyarli birlamchi semantik xususiyatini yo‘qotmaydi.

Turkiy tub so‘zlar, deyarli, hamma vaqt K+V+K (*ko‘k, bor, kel, tur, qol, tosh, qop*) fonetik tarkibga va kamdan-kam K+V+K+K fonetik strukturasiga ega (bu fonetik strukturada keladigan taqlid so‘zlar o‘z qatlamga xos: *milt-milt, yilt-yilt, ort, yirt*). K+V va V+K fonetik tarkibga ega bo‘lgan o‘zak morfemalar ham diaxronik jihatdan K +V +K fonetik tarkibga ega ekanligi aniqlangan. K+V+K tarkibli so‘zlar ayrim hollarda tub so‘z sanalmay, yasama so‘z hisoblanadi. Bularning hammasi ham ma’lum qonuniyatga asoslanadi.

N.A.Baskakov ta’biricha, turkiy tillardagi o‘zak morfema K+V+K fonetik tarkibiga ega bo‘ladi. Chunki, bu grammatik struktura turkiy tillarga xos taqlidiy-tasviriy va undov so‘zlardan verbalizasiyaga ko‘ra yuzaga keladi. Odatda, turkiy xalqlar taqlid-tasvir va undovlarni, aytilganiday, K+V+K holidagi uch tovush bilan tasavvur etadi. O‘zak morfema bilan bog‘liq so‘z hosil qilinar ekan, shu uch tovush o‘z ifodasini topadi. Taqlidiy-tasviriy va undov so‘zlar verbalizasiyasi, odatda, ko‘proq kuzatiladi. Shu taqlid-tasvir va undovlar harakat va holatga asoslanadi. Bu

harakat-holat bildiruvchi so‘zlar va undovlar ba’zan davomiy yoki takroriylikni ko‘rsatadi. Davomiylik yoki takroriylik verbal o‘zak ketidan a yoki i tovushini orttirish orqali ifodalanadi. Bu tovushlar, ya’ni ergash morfemalar bilan kontakt beriladi. Masalan: ...*qav+ > qaviq* kabi [Миртожиев, 2017].

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi ***qa=*** asosi ham, xuddi yuqorida keltirilgan modellarga mos tarzda, turkiy o‘zak hisoblanadi. ***Qa=*** asosidan yasalgan leksemalar ham turkiy asoslardan turkiy qatlamga oid affikslar qo‘shish natijasida yuzaga kelgan lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Hozirda biz *qoplon, qopqon, qovurg‘a, qovushmoq* kabi leksemalarda uning asosini *qop* sifatida ajratamiz. Lekin ba’zi olimlar bu haqda boshqa qarashga ham ega. X.G.Nigmatov *qa=* asosli *qala* so‘zi Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”ida mavjud ekanini qayd qiladi. Bunday asosli so‘zlar boshqa manbalarda uchramasligini ta’kidlaydi [Нигматов, 1974:39].

qa= “Devonu lug‘oti turk”da mustaqil holda qayd etilgan. Lug‘atda uch xil ma’nodagi *qa=* asosi qayd etilgan:

qa –I idish, qop. Lekin bu so‘z, asosan, suyuq narsalar idishiga qo‘llanadi. Chunonchi, bu so‘z juft holda qaqacha tarzida qo‘llanadi, qop-qanor, qop-qopchiq demakdir.

qa –II yuqorilamoq, ko‘tarilmoq

qa –III mahkam ushlamoq, tutmoq (DLT, III, 114).

“Devonu lug‘otit turk”da *qa=* asosli 25 ta so‘z qayd etilgan. Bu so‘zlardan oltitasi harakat-holatni bildiradi:

qapsadi: aning tegra kishi qapsadi. Uning atorofini odamlar qopladi (DLT, III, 149);

qamadi: ko‘z qamadi. Quyosh tig‘idan ko‘zi qamashdi (DLT, III, 144).

qamadi: anin tishi qamadi. Nordon yoki g‘o‘r meva eyishdan uning tishi qamashdi (DLT, III, 144);

qapulg‘an: Bu nen ol qapug‘da qapulg‘an. Bu narsa eshikda va boshqada doim suqiladi (DLT, I, 237).

Narsa-buyum, mahsulot otlari:

qacha–qop, xalta. Shundan olinib, *qaqacha* ham deyiladi. Ba’zan qisqartirib, qacha tarzida ham talaffuz qiladilar (DLT, III, 127)

qova – turkiy yuganlarda bo‘ladigan ot burniga tegib turadigan qayish. (DLT, III, 127)

qovuq – har bir ichi bo‘sh narsa. Bu so‘zning qowuq shakli ham bor. (DLT, III, 89)

qavuq – siydik qopi. Bu so‘zning *qawuq* shakli ham bor. (DLT, III, 89)

qavuq – tariq qipig‘i. (DLT, III, 89)

qap –I mesh, sanach. (DLT, III, 80)

qap –II g‘ilof, jild. Har bir ustki o‘rovga ham qap deyiladi. (DLT, III, 80)

qap –III ona qornida bola o‘ralib turgan parda, xalta. Agar bola shu parda bilan tug‘ilsa, qutlug‘ deb fol qilinadi. Uni *qaplig‘ o‘g‘ul* deb ataladi. (DLT, III, 80)

qapug‘ – eshik. Ol qapug‘ yapindi –u eshikni bir o‘zi berkitdi. (DLT, III, 45)*;*

qabaqliq – qovoq o‘sadigan joy, qovoqzor. (DLT, I, 231)

qog‘urmach – qovurilgan bug‘doy. (DLT, I, 227)

qopchuq – qopchiq. Egarning ustiga kiygiziladigan yopuq. (DLT, I,221)

qapchaq – suv (ariq) tarmoqlarining bir-biriga birlashadigan, to‘qnashadigan joyi. (DLT, I, 219-bet)*;*

qapg‘a – qopqa, darvoza. (DLT, I, 200-bet)

qobiq – “chopon qavish” deb qayd etilgan (DLT, I, 193-bet). *Qobiq* so‘zi izohga ko‘ra harakat nomi shaklida berilgan. Harakat nomi shakli aslida fe’l turkumiga mansub bo‘ladi. Ammo so‘zning shakliga asoslanib (*-ik*–ot yasovchi qo‘shimcha) uni “qaviq”, ya’ni “qavilgan joy” ma’nosida ot turkumiga, o‘rin-joy otiga mansub, deb hisobladik.

Ikkita so‘z belgi-xususiyat bildiradi:

qapa – har bir baland narsa. *Qapay o‘glo‘g o‘q* – Pati baland o‘q. (DLT, III, 118)

qabig‘lig‘ –bokira qiz; *qabig‘lig‘ qiz* – uyda o‘tirgan, kuyovga chiqmagan qiz (DLT, I, 228).

Bittasi olmosh turkumiga mansub: *qamug‘* – hamma. Bitta so‘z ravish turkumiga mansub: *qap*– ol mening birla uya qap oldi. U men bilan bir qorindan tug‘ilgandek yaqin. (DLT, III, 80).

Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotida *qa*= asosi ikki yo‘nalishdagi semantik jarayonni ifoda etadi: harakat yo‘nalishi va narsa-buyum, ashyo.

Ma’lum davrlarda *qa*= mustaqil so‘z sifatida baholangan. *Qa*= asosli leksemalar haqida so‘z borganda uning harakat-holat bildiruvchi tarixiy asosidan shakllanganini ta’kidlash joiz. Harakat ifodalovchi *qa*= o‘zak morfemasi hozirda mustaqil qo‘llanmaydi.

Etimologik tahlillar bu o‘zak morfemalar semantikasida aloqadorlik mavjudligini, ularning bir asosdan shakllanganini ko‘rsatadi.

Qa= o‘zak morfemasidagi semantik taraqqiyotni ifodalash uchun turkiy tillardagi omonimlar shakllanishiga murojaat qilamiz. Ma’lumki, o‘zbek tilidagi omonimlar uch xil usulda yuzaga keladi:

1. Tarixan har xil so‘zlarning bir xil grafik shaklda ifoda etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Masalan, o‘t (olov), o‘t (o‘simlik), o‘t (harakat), o‘t (tana a’zosi) omonimlarining tarixiy shakllari unlilar ifodasiga ko‘ra farqlanadi.

2.Boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarning o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan bir xil shakl hosil qilishi natijasida omonimlar hosil bo‘ladi: *bog‘- bog‘, tok-tok, tort-tort, soya-soya.*

3. Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishning yo‘qolishi natijasida omonimlar shakllanadi: *dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig‘in)* [Xolmanova, 2013:54]. Masalan, kun so‘zi, bir tomondan, quyoshni, ikkinchi tomondan, sutkaning ma’lum qismi – kunduzi, uchinchi tomondan esa, sutkaning o‘zini, to‘rtinchidan, tirikchilikni bildiradi. Shuningdek, *oy* so‘zi ham turli ma’noga ega.

Omonimlar shakllanishining uchinchi usuli ko‘p uchraydi. A.Rustamov “Devonu lug‘ot-it turkda” keltirilgan *qaq* omonim xususiyatli so‘zning ma’nolarini tahlil qilib bergan. Asarda *qaq*ning *qaq I* –danak, mag‘iz; *qaq II* –et, har bir qotgan narsa; *qaq III* –asl, tomir ma’nolari qayd etilgan [Рустамов, 1976:146].

Harakat yo‘nalishidagi *qa=* o‘zak morfemasi va narsa-buyum, ashyo ma’nosidagi *qa=* o‘zak morfemasi uchinchi usul bilan, ya’ni so‘z tarkibidagi semantik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, u hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan omonim asos sanaladi: ***qa***=(harakat) – ***qa=***(narsa-buyum).

Turkiy tillarda omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisa – qadimgi turkiy til so‘zlariga xos turkum sinkretizmi o‘z ifodasini topgan. E.V.Sevortyan tomonidan “fe’l-ot asoslar” deb nomlangan bu hodisa turkiy tillarning boshlang‘ich taraqqiyot bosqichlarida bir bo‘g‘inli leksik asosning ayni bir lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgani holda ism sifatida ham, fe’l sifatida ham ishlatilishini ifoda etadi. E.V.Sevortyan o‘z qarashlarida “fe’l-ot omonimligi”, “fe’l-ot omoformalar” terminlarini qo‘llagan. Shu bilan bir qatorda, bu hodisani “leksik-morfologik sinkretizm” deb qarash to‘g‘riroq ekanligini e’tirof etgan [Севортян, 1974:32-40]. Hozirgi o‘zbek tilidagi *yoz, tut, shish, to‘y* kabi so‘zlarda turkum sinkretizmi xususiyatlari namoyon bo‘ladi. ***Qa=*** asosi semantikasida ham turkum sinkretizmi hodisasi kuzatiladi. Fe’l asosdan ot asosning shakllanganini ko‘rish mumkin.

Qa= asosli birliklar qadimgi turkiy tildan boshlab hozirgi davrga qadar iste’molda bo‘lib kelmoqda. Bu so‘z va uning ishtirokidagi lingvistik birliklar qadimgi turkiy tildan hozirgi davrgacha bo‘lgan semantik tarkibini, semalarini qiyosiy planda o‘rganish so‘z strukturasi va semantikasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2015.
2. Xolmanova Z. Hozirgi o`zbek tili. – Toshkent: Sano-standart, 2013.
3. Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017.

4. Нигматов Х.Г. О глагольных корнях типа огс и сг по материалам словаря Махмуда Кашгарского // Советская тюркология//1974. – №3.

5. Рустамов А. Махмуд Кашгарский о словах с звуковой оболочкой *qaq* //Turcologica// К семидесятилетию академика А. Н. Кононова издательство «Наука» Ленинградское отделение. –Л., 1976.

6. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). М.:Наука.1974.

7. Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикология. Фонетика. Графика. Орфография. Морфология. Фахри Камол таҳрири остида. – Тошкент:Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1967.

8. Юнусалиев Б. М.Киргизская лексикология. Часть 1. – Фрунзе, 1959.

L.BUDAGOVNING “СРАВНИТЕЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ ТУРЕЦКО-ТАТАРСКИХ НАРЕЧИЙ” LUG‘ATIDA CHIG‘ATOYCHA NARSA-BUYUM NOMLARI

Mahliyoxon Tuxtasinova Shavkatjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi
E-mail: mahliyo.shavkatjonovna@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6849-0603
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110706

Annotatsiya. Maqolada Lazar Zaharovich Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atidan o‘rin olgan chig‘atoychaga doir maishiy leksemalardan namunalar keltirilgan. Leksemalarning etimologiyasi tarixiy manbalarda, xususan, tarixiy lug‘atlarda qayd etilgan ma’nolariga qiyoslangan holda tahlil qilingan. Shuningdek, leksemalar ma’nosi yanada tushunarli bo‘lishi uchun Alisher Navoiy asarlaridan leksemalarga aloqador parchalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: *chig‘atoycha, lug‘at, bork, büräk, bürkamäk, irnäk.*

Abstract. The article presents examples of household lexemes in Djagatai from the dictionary "Sravnitelnyy slovar turetsko-tatarskikh narechiy" by Lazar Zaharovich Budagov. The etymology of lexemes is analyzed in comparison with their meanings recorded in historical sources, in particular, in historical dictionaries. Also, in order to make the meaning of lexemes more understandable, excerpts related to lexemes from the works of Alisher Navoi are presented.
Keywords: *Djagatai lexemes, dictionary, bork, büräk, bürkamäk, irnäk.*

L.Z.Budagovning asosiy ilmiy asarlari ro‘yxatida ikki jilddan iborat “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, со включением употребительнейших слов арабских и персидских и с переводом на русский язык” alohida o‘rin tutadi. XIX asrning ulkan turkiy lug‘atlaridan biri bo‘lgan ushbu asarni tuzish uchun boy tilga oid va ekstrolingvistik materiallar muallif tomonidan bir qancha manbalardan misqollab yig‘ib chiqilgan. Lug‘atga ko‘plab sharqiy xalqlar tilidagi faol so‘zlar kiritilgan. Shu bois ularni qiyoslash jarayonida xalqlarning yozma yodgorliklari, turkiy tillardagi so‘zlashuv va tarjima lug‘atlari

hamda adabiy merosiga oid asarlar matnlaridan foydalanilgan [Tuxtasinova, 2023:402].

Tarixdan ma’lumki, qadimgi davrlarda ustki kiyim, asosan, daraxt yaproqlaridan, oyoq kiyim esa yog‘och materiallardan tayyorlanib, kiyilgan. M. Asomiddinovaning keltirishicha, kishining tanasi va boshini to‘la yoki qisman berkitib turuvchi ust-boshdir. U yumshoq, badanga qattiq botmaydigan, teri yoki o‘simlikning ishlangan yoki ishlanmagan materialidan tayyorlanadi. Uning shakli kishining tana tuzilishiga muvofiq bo‘ladi. O‘z vazifasiga ko‘ra, kiyim-odamning tanasini atrof muhitning ko‘ngilsiz ta’siridan himoya qilish zaruriyati natijasida kelib chiqqan. Uning boshqa narsalardan prinsipial farqi shakl va materialidan emas, balki doimo biror ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq holda qo‘llanish xarakteridadir [Асомиддинова, 1981:9].

Lug‘atda mavjud chig‘atoy tiliga oid leksemalar mavzu guruhlariga ajratilgan holda tadqiq etilgan [Tuxtasinova, 2022: 65-88]. Kiyim asosan mato va teridan tayyorlanib, inson badani va tana a’zolarini yopish, tashqi muhit ta’siridan saqlashga xizmat qiladi. Inson kundalik hayotida har xil narsa-buyumga ehtiyoji katta. Tilshunoslikda maishiy leksika sohasiga oid bir qancha tadqiqot ishlar olib borilgan [11-15]. L. Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida ham ayni guruhga oid bir qancha chig‘atoycha leksemalar qayd etilgan:

ارتمق، يرتْمق) ارْتماغ *irtmäγ* (*irtmäq, yirtmäq* - fe’llaridan) – “eski ko‘ylak (kiyilaverib eskirib ketgan kiyim, ko‘ylak)”, اَرْتْماق *ärtmäq* – “to‘rva, hurjun”, آرْقاوْ *ärqav* – “arqoq - matoning moki yordamida ko‘ndalang to‘qiladigan ipi”, بوُدایْ *büdäy* – “o‘zbeklar zodagonlari kiyimi”, بورگامك ,بُورَك ، بوُرْك *bork, büräk, bürkamäk* – “shapka, xamirli yegulik (perashki)”, بُوزَرْ (بيز) *büzär* (biz) – “bigiz”, بوزغونچ *büzγunč* – “qizil rang olish uchun ishlatiladigan siyoh yong‘og‘ining turi”, دگله = تَكَلَه *täkalä* , دگله- *dägalä* – “ustki kalta kiyim turi (nimchaga o‘xshash), unga tillado‘zlik asosida tilla ip bilan tikilgan”, تَكَنَه *täkanä* – “ayollarning boshidagi ro‘moli”, تلْغاك *tälγak* – ko‘ylak turi”, دُپْقو *düpqu* – “1) tikuvchilar oyog‘ini qo‘yib oladigan taxta bo‘lagi; 2) lochinlarni burgalardan xalos etish uchun davolovchi bo‘yoq”, دگاه *degelä* – “ba’zan tillo bilan bezatiladigan kalta ustki ko‘ylak”, لچك *leček* – “ayollarning yelkaga tushiriladigan bosh yopinchig‘i”.

L.Budagov lug‘atida “bosh kiyim” ma’noli leksemalar qatori “xamirli yegulik (perashki)”ni ifoda etuvchi بورگامك ,بُورَك ، بوُرْك *bork, büräk, bürkamäk* (BD, I, 277) leksemasi qayd etilgan. E. V. Sevortyan lug‘atida 1) yungli shapka, qalpoq, bosh kiyim; 2) bosh uchun yopinchiq, ro‘mol; 3) burqa (ESTYA, II, 221) kabi semalari

keltirilgan, “xamirli yegulik” ma’nosi haqida fikr yuritilmagan. Yuqorida qayd etilgan ma’nolar (bosh va tana uchun) “yopqich” semasi atrofida birlashishi ko‘zga tashlanadi.

Ushbu umumiy ma’nodan kelib chiqib, *бө:рик ~ бө:рүк ~ бөрик ~ бүрик* hamda *бөрк ~ бүрк* otlashgan fe’l affiksi *-(ɑ)ķ* yordamida *бөрү- ~ бүрү-* fe’lidan yasalgan. M.Koshg‘ariyda *bürün* - “yopinmoq”, “o‘ranmoq”, eski turkiy manbalarda *büri-, bürü-* “qoplamoq”, “o‘ramoq”, “yopmoq” ma’nosida keladi. Masalan, “Yusuf ve Zeliha”da (XIII asr) *yüzünü büri dive üzre otur “yuzingni yop va tuyaga o‘tir”*tarzida ayni ma’noda qo‘llangan.

L. Budagov بوروك ، بۇرْك *börk, börk* leksemasini بورْمك (ö), بُرمك ، بوريمك, (tur.) بورومق– “yopmoq”, “qoplamoq”, “egallab olmoq” (ESTYA, II, 223) fe’li bilan bog‘liqligini qayd etadi.

Bo‘rk “bosh kiyimning bir turi”, “qalpoq” – *Bosh omon bo‘lsa, bo‘rk topiladi* (Maqol). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “qopla-”, “yop-” ma’nosini anglatgan *börü-* fe’lidan (Devon, II, 164) *–q* qo‘shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, II, 222); keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan (PDP, 373; Devon, I, 333); o‘zbek tilida *ö* unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: *börü- + k = börük > börk > bork* (O‘TEL, 77.). Bosh kiyimlarining oltoy xalqlari tarixida o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan. Bosh kiyimlar ko‘chmanchi aholi o‘rtasida quyoshdan, sovuqdan, qordan, yomg‘irdan va shamoldan himoyalash vositasi sifatida qo‘llanilgan. Ular janglarda qalqon vazifasini o‘tagan [Усмонова, 2008:197].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *bo‘rk* “oshlangan qorako‘l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, telpak” ma’nosini ifodalaydi: Boshsiz bo‘rk bo‘lmas, Toysiz – turk (maqol). Bu leksema oilaviy yoki ichki janjal, nizolarni tashqariga chiqarmaslik kerakligini ifodalovchi iboralar tarkibida ham qo‘llangan: *Bosh yorilsa, bo‘rk ostida (yoki ichida); Bo‘rk ol desa, bosh (yoki kalla) olmoq.*

Bundan tashqari O‘TIL(I, 417)da “buyurilgandan ortiq jazolash, haddan oshirish” ma’nosini o‘zida aks ettiruvchi ibora ham mavjud: *“Bo‘rk ol desa, bosh olib keladigan dovyurak yigit eding-ku! Nima bo‘ldi?” (Uyg‘un, Asarlar)*.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, bu leksema “bosh kiyim” ma’nosida turli davrlarda qo‘llangan, hozirgi kunda arxaiklashgan leksemalardan hisoblanadi.

Maishiy leksemalar tarkibiga kiruvchi narsa-buyum nomlari ham lug‘atda keng o‘rin egallagan: ايرْناكْ *irnäk* – “qirra, cheti”, تُوكوسْ *toküš* – “suyuqlikni tozalash uchun ishlatiladigan filtr”, تونان *tünän* – “shox-shabbalardan mash’ala”, تونْگُراغو *tüŋräyu* – “qo‘ng‘iroqcha”, چِرْمْ *čirm* – “uchqun (olov uchquni)”, چَسْ=چاج

čäs=čäj – “arpa yoki sulining maydalangandan keyin qoladigan mayda somoni; maydalangan arpa yoki sulining uyumi”, چُوغ *čüy* – “cho‘g‘, yonayotgan ko‘mir”, كوبك ، كوبوك ، كوبك ، كوپوك*kübük, küpük* – “ko‘pik” kabi.

Lug‘atda chig‘atoycha ايرْناڭ *irnäk* leksemasi “qirra, cheti” ma’nosiga egaligi qayd etilgan. “Narsa chetining tugash qismi”, “narsaning uchli tugash qismi” ma’nolarini (O‘TEL, 551) ifodalovchi qirra leksemasi o‘rnida qadimgi turkiy tilda ايرْناڭ *irnäk* leksemasi ishlatilgan. “Biror narsaning qirrasi” ma’nosi (RSL, I, 1468,1469) *ерне-* fe’liga *-к* affiksini qo‘shish orqali yasalgan *ернек* leksemasi vositasida ifodalangan V. Sevortyan leksemaning *ирне-* -chegaralamoq”, “o‘rab chiqmoq” fe’lidan kelib chiqganligini ta’kidlar ekan, *ерңек ~ ернек* – metaforik ma’noda qo‘llanilgan *ерин* “lab”, “lablar” so‘ziga taqlid-kichraytirish affiksi *-ғақ/-қақ* yoki *-(a)қ/-(e)к* larni qo‘shish orqali yasalgan, shu o‘rinda *ерин* shaklining o‘zi ham “idishning labi, cheti” ma’nosini anglatishi mumkinligini e’tirof etishni joiz deb biladi (ESTYA, I, 301). Eski o‘zbek adabiy tilida leksemaning metaforik ma’noda qo‘llanishini Alisher Navoiy ijodida ko‘rish mumkin. “Xazoyin ul-maoniy” da *ern* – “lab”ni ifodalagan:

Jánnï ul nav’ki tan árzu etkäy bïhad,
Ruhbaxš erningä jánimnïŋ erür hasrati köp (ANATIL, III, 567)

“Lison ut-tayr”dagi baytda *lab* hamda *ern* leksemalarining sinonimik qatorni voqelantirgani yaqqol namoyon bo‘ladi:

Nuši labdïn kám olurda harzakiš,
Ul čayondïn ernigä sančildï nïš (ANATIL, III, 567)

ايرْناڭ *irnäk* leksemasini L. Budagov “qirra, cheti” (I, 191) ma’nolarini ifodalovchi chig‘atoycha birlik sifatida qayd etadi. *Qirra* leksemasining etimologik tahlilida bu so‘z asli “chet”, “zih” ma’nosini anglatgan *qir* so‘zidan kuchaytirish (“eng”) ma’nosini ifodalovchi *–ä* qo‘shimchasi bilan hosil qilingani; qo‘shimcha qo‘shilganidan keyin *r* undoshi qatlangani aytiladi: *qir + ä > qirrä* (O‘TEL, 551).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “qirra” leksemasi “chet, zih, qir” ma’nosi bilan birga “narsalarning ensiz yoki o‘tkir qirg‘og‘i”ni ham ifoda etadi. Leksema metaforik jihatdan “narsalarning mohiyatini belgilovchi xususiyat, tomon”ini yuzaga chiqarishda qo‘llanadi: *kechagina oddiy ko‘ringan narsalar bugun negadir boshqa fazilati, boshqacha bir qirrasi bilan namoyon bo‘lar edi* (N. Fozilov, Diydor).

Davrlar o‘tishi bilan leksemaning ma’no kengayishi yuzaga kelganini “geometrik jismni o‘rovchi ikki tekislikning kesishuv chizig‘i; qovurg‘a” ma’nosini qirra anglatishi va matematik termin sifatida qo‘llanishi ham tasdiqlaydi:

piramidaning qirrasi. “O‘tkir qirrali burun” hamda “burni shunday yigit”ga (O‘TIL, 300) nisbatan “qirra burun” birikmasi qo‘llanadi.

Demak, leksemalar qadimdan to hozirgi kunimizga qadar tilimizda sodir bo‘lgan fonetik, leksik, grammatik, uslubiy kabi jarayonlarni aks ettirish asnosida tilning rivojlanishi qay tarzda kechganligini ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Асомиддинова М. 1981. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан.
2. Будагов, Л. 1869. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – Санкт-Петербург. I том.
3. Фозилов, Э.И. 1983-1985. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. – Тошкент: Фан.
4. Madvaliyev A. tahriri ostida. 2020. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
5. Mahmud Koshg‘ariy. 1963. Devonu lug‘otit turk. Toshkent.
6. Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет.
7. Севортян Э. 1974. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М: Наука.
8. Tuxtasinova M. Bobur asarlarining L.Budagov lug‘atida aks etishi. “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari to‘plami. – Toshkent, 2023. –B. 401-405.
9. Tuxtasinova M. L. Z. Budagov lug‘atida eski o‘zbek adabiy tili harbiy istilohlarining izohlanishi // Golden Scripts. –Toshkent, 2022, vol 4. –B. 65-88.
10. Усмонова Ш. Олтой тилларида бош кийим номлари // International Journal of Central Asian Studies. Korea, 2008. № 12.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

11. Усмонова Ш. Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент 2011.
12. Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западнокыпчакская группа). – М: Наука, 1975.
13. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981.
14. Шукурова Г. “Девону луғотит турк”да кийим-кечак қисмлари номлари // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2004. № 3. – Б. 43-49.
15. Шукурова Г. “Девону луғотит турк”да устки кийимни ифодаловчи лексемалар парадигмаси // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент, 2008. – Б. 16-20.

ALISHER NAVOIY IJODIDA QO‘SHIQ TERMININING SINONIMLARI

To‘lg‘anoy Mamatqulova,
O‘zDSMI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: mohimmamatqulova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110737

Annotatsiya. Maqolada qo‘shiqchlik san’ati janrlaridan biri bo‘lgan qo‘shiq terminining Alisher Navoiy asarlarida turkiy, forsiy va arabiy shakllarini adabiy, tarixiy manbalarda qanday ishlatilganligi yoritib berilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy birgina ***qo‘shiq*** termini emas, unga ma’nodosh bo‘lgan terminlarni affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasab, mahorat bilan foydalanganini misollar mobaynida guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *qo‘shiq, terminologiya, asar, vazn, she’r, etimologiya, tahlil, qasida.*

Annotation. The article describes how the term song, one of the genres of singing art, was used in literary, historical sources in the work of Alisher Navoi in Turkish, Persian and Arabic forms. On the examples, we also see that Alisher Navoi skillfully used not only the term song, but also related terms in the ways of affixation and composition.

Key words: *song, terminology, work, weight, poem, etymology, analysis, poem.*

Amir Temur va temuriylar davrini mubolag‘asiz, nafaqat, o‘zbek xalqining, balki butkul yaqin va o‘rta sharq elatlarining musiqa san’atlari uchun jadal ravnaq topgan, kamolot cho‘qqisiga erishgan, chinakam uyg‘onish davri bo‘lgan deyish mumkin. Bu davrning qo‘shiqchilik san’ati haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Boburning “Boburnoma” hamda Alisher Navoiyning so‘z durlari sochilgan barcha turdagi asarlariga murojaat qilishimiz o‘rinli bo‘ladi. Ularda Hirot aktyorlari, raqqoslar, sozanda, xonanda hamda qo‘g‘irchoqbozlar, haqida bir talay misralar uchraydi. Ya’ni o‘sha davrda **ayolg‘u, alxon, go‘yandalig‘, dasotin, surud, talolo, o‘lang, qo‘shuq, lahn, yirla, tarona** kabi atamalar xalq qo‘shiqchilik san’atining turlarini ko‘rsatuvchi atamalar sifatida iste’molda bo‘lgan. Xususan, “Temur tuzuklari”da ham “o‘n birinchi toifa, har toifa hunarmandlardan o‘z davlatxonamga keltirib, ularga o‘rdada o‘rin berdim, ular safar va tayyorgarliklarda lashkar hojatlarini hozir va muhayyo qildilar” [1, 77-b] deyilganda turli san’at egalari ham nazarda tutilgan.

Temuriylar va boburiylar hukmronligi davrida honanda va sozandalar o‘sha davrning har bitta tantanalarining doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o‘tmas edi. Bu esa, o‘z navbatida, musiqaning boshqa san’atlar qatoridan muhim o‘rin egallashini ta’minladi.

O‘rta asrlar an’anasi shahar aholisining kasb-koriga ko‘ra aholida jamoa (mahalla) bo‘lib yashashni taqozo etgan. Xalq ichida tanilgan san’atkorlar hokimlar farmoniga ko‘ra yoki o‘ziga qulaylik yaratish maqsadida kasbdoshlari bilan jamoa bo‘lib yashashni afzal ko‘rar edilar. Shunga binoan “xonandalar mavzesi”, “sozandalar mahallasi”, “bastakorlar ko‘chasi” joriy etilgan. Bu kasb sohiblarining alohida obro‘ va nufuzga sazovor bo‘lganlari atrofida, maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar shakllangan. [2,36-b]. Ayniqsa, XV asrda qo‘shiqchilik yo‘nalishida qo‘llanilgan hech bir so‘z yo‘qki, Navoiy asarlarida uchramasa. Musiqa ustozini hammadan ustun qo‘yib, “ustozlar ustozi” deb ulug‘langan Alisher Navoiy san’at sohasiga befarq emasligini asarlarida “navo” taxallusi bilan ijod qilganidan bilsak bo‘ladi. Navoiy asarlarida tilga olingan qo‘shiqchilik sohasiga oid terminlarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida **qo‘shiq terminining sinonimlari**ga *ayolg‘u, alxon, go‘yandalig‘, dasotin, surud, talolo, o‘lang, qo‘shuq, lahn, yirla, tarona* kabi aynan qo‘shiqning o‘z ma’nosini bildiruvchi terminlarni misol keltirishimiz mumkin.

Ayolg‘u (arab.) o‘lan, ashula, kuy, qo‘shiq ma’nolarida uchraydi:

Holimg‘a hajr bazmi aro tortsam surud,
Bor navha maddi telba ko‘ngling ayolg‘usi [3,597-b].

Bu o‘rinda qo‘shiqchilikka oid termin bir emas, ikki marotaba qo‘llanmoqda. Biri **ayolg‘u** bo‘lsa, ikkinchi termin **surud**. Yuqoridagi terminlar har ikkisi ham aynan qo‘shiq ma’nosida qo‘llaniladi. Hazrati Alisher Navoiyning qalami naqadar o‘tkir ekanligiga shundan guvoh bo‘lamizki, yozuvchi bir ma’noli ikki terminni, aniqroq qilib aytganda, ikki tilli terminni (arab va fors) ushbu misralarda juda katta mahorat bilan qo‘llagani tahsinga sazovor.

Surud (fors.) qo‘shiq, ashula:

Men dog‘i bu maynikim suzubmen,
Turkona surud anga tuzubmen. [4,97-b].

Quyidagi termin Alisher Navoiy asarlarida qo‘shiq ma’nosida qo‘llanilsa, “Farhangi zaboni tojiki” lug‘atida “insonning honishi, ashula” deyilgan. Bundan tashqari lug‘atda surud terminining *surudan, saroidan, suroidan* degan sinonimlari ham keltirilgan. [5,1566-b]

Alxon (arab.) kuy, ohang, navo, qo‘shiq

…andalib xush navosi nubuvvat bayoni bila va risolat **nag‘mai alxoni** bila **surud** ko‘rguzur [6,4-b] ushbu o‘rinda nag‘ma, alxon va surud so‘zlari qo‘shiqchilikka oid sinonim terminlar sifatida qo‘llanilmoqda. Yuqoridagi misoldan Alisher Navoiyning so‘z boyligi benihoya keng va mo‘l ekanligini terminlarni bilib olsak bo‘ladi.

…ba’zi mahalda rangin **alxon** va **tarannum** bila andoq ado qilur erdikim, aksar majlis xuzzorig‘a nasridin xabar va nazmidin asar voqe bo‘lib, riqqatlar dast berur erdi [6,534-b]. misolimizda esa, *alxon* termini tarannnum terminiga sinonim so‘zlar bo‘lib kelmoqda.

Quyidagi alxon termini nafaqat Alisher Navoiyda qo‘llanilgan bundan tashqari Abdurahmon Jomiy va Sa’diy Sheroziy asarlarida ham aks etgan.

Go‘yandalig‘(fors+o‘zb.) “qo‘shiqchilik, qissago‘ylik”.

Ul dag‘i barchasig‘a… ne’matlar tortib sozandalig‘ va go‘yandalig‘ buyurubdur [7,535-b]. Go‘yanda termini forsiy termin hisoblanib, unga (+lik) ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida so‘z hosil bo‘lgan.

O‘lang (turkiy) ashula, o‘lan:

Shamar suvlar bo‘lub oina ohang,

O‘lang aylab ayon ul ko‘zguda zang [8,50-b].

O‘lang termini turkiy termin, hozirgi davrga kelib o‘lan(g) varianti ko‘p qo‘llaniladi. O‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analarini yaqqol ko‘rsatib beruvchi termin hisoblanadi. Xalq ijodi janri asosan, childirma jo‘rligida yoki jo‘rsiz ijro etiladi. Hazrati Alisher Navoiyda esa aynan qo‘shiq ma’nosida qo‘llaniladi.

Qo‘shuq (turkiy) qo‘shiq

Anglamayin so‘zda tuyuq bahrini,

Qaysi tuyuq, balki qo‘shuq bahrini [9,46-b].

…so‘z mayidan oldimda chuqur daryo paydo bo‘lsa-yu, qo‘limda qayiqsimon ajoyib jom bilan har lahzada shu jomni to‘ldirib olib, gulrang bodadan sipqorib tursam, turkiy ohangga qo‘limni o‘ynatib, “hay tulugim, hay tulum!” deb kuylasam; birov menga hamovozlik qilolmas ekan, loaqal qo‘shiq aytib, quvvatlab tursa [9,50-b]. Demak, Alisher Navoiy dastlab, qo‘shiq terminini “Hayrat ul abror” asarining XV bobida qo‘llaganligi ma’lum bo‘ldi. Mutafakkirimizdan oldin esa qo‘shiq termini qo‘shiqchilik an’analaridan keyin, ilk bor X-XI asrlarda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” asarida “**қошуғ**” (she’r, qasida, qo‘shiq) ma’nosida qo‘llangan. Ma’lumki, bugungi kunda forscha va arabcha bo‘lgan

ayolg‘u, dasotin, talolo kabi so‘zlar iste’moldan batamom chiqib ketgan. Qo‘shiq esa asli turkiy so‘z bo‘lganligi uchun ham saqlanib qolgan bo‘lsa, ajab emas. Bu termin bizdan boshqa turkiy xalqlarda ham quyidagicha qo‘llanmoqda: turkmanlarda “**aýdym**”, qozoqlarda “**өлең**”, qirg‘izlarda “**ыр**”, tatarlarda “**җыр**” kabi. Qo‘shiq termini qirg‘iz va tatarlar millatlarida ham turkiy termin sifatida saqlanib qolgan, chunki Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” asarida aynan mana shu **ыр** va **жыр** terminlari uchraydi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” asarida **dasotin** so‘zini qo‘llaydi. “Farhangi zaboni tojiki”da **daston** forscha *nag‘ma, lahn, navo, maqom* ma’nosini bildiruvchi termin deb aytib o‘tilgan. Alisher Navoiy asarlari tilining 4 tomlik izohli lug‘atida esa ushbu terminni **daston** shakli uchramaydi. Lekin dasotin va daston termini ma’no jihatdan bir xil.

Dasotin (fors.) dostonlar; qo‘shiq, nag‘ma:
Navo ichra ming lahnsozing qani
Dasotini xotirnavozing qani [8, 243-b]

Alisher Navoiy asarlari tilining 4 tomlik izohli lug‘atida **yirla** (t.) – ashula, qo‘shiq aytmoq, kuylamoq ma’nosida o‘qiymiz. Q. Sodiqov o‘zining Ilk va o‘rta asrlar turkiy matnlarning nomlari kitobida Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida **йыр-ыр** shaklida qo‘llanadi: **ол йыр кошди** - u she’r yozdi (ya’ni ashula to‘qidi) [10,22-b] Alisher Navoiy esa Farhod va Shirinda ushbu terminni quyidagicha qo‘llaydi va izohlaydi:
Ketur, soqiy, chekib **yirlar** uchun un,
Manga to‘ydin ulush evur jomi gulgun [11,143-b].

Bundan tashqari Navoiy qo‘shiq terminini quydagi ma’nolarini ham izohlab o‘tadi:

Talolo (fors.) kuy, ohang, qo‘shiq; qiyqiriq, hayqiriq:
Arig‘ning ikki yonidin alolo,
Nishot ahli tuzub firno talolo. [11,124-b].
Lahn (arab.) ashula; navo, ohang:
Chekti oncha lahn aro dilkash navo
Kim simoin vaxshu tayr aylab havo [12, 196-b].

Tarona (fors.) ashula, kuy, ohang:

Va tog‘ jonibidin jo‘yi Navro‘ziy o‘tarkim, sadosi g‘ulg‘ulasidin labtashnalar qulog‘ig‘a mujdai obi hayot taronasi yetar [13,170].

2. Qo‘shiqchi so‘zini anglatuvchi tushunchalarga ayolg‘uvchi, go‘yanda, yirlag‘uvchi, lahnpardoz, mutrib, navogo‘, navozanda, navosoz, nag‘magar,

nag‘manavozliq, nag‘mapardoz, nag‘masoz, saroyanda, tarannumgar, xonanda, xunyogar, xunyogarlig‘, san’atgariy, san’atsoz, san’atfosh, soz kabilar misol bo‘la oladi. Alisher Navoiyning musiqaga, qo‘shiqchi va sozandalarga bo‘lgan ehtiromi juda yuksak bo‘lgan allomaning o‘zi **ud** va **qonun** kabi cholg‘u asboblarini shu davrda hammadan yaxshi chalishishini Xondamir “Xulosatul axbor” asarida ta’kidlab o‘tadi. “Mahbub ul qulub” asarining “Mutrib va mug‘anniylar zikrida” qismida “Mutribi tarab afzo va mug‘anniyi g‘amzido – ikkalasiga xolu dard ahli jon qilurlar fido” ya’ni “shodlik keltiruvchi xonanda, g‘amni tarqatuvchi sozandaga dardu hol axli (dard – oshiqlik, hol – ishq tufayli behud bo‘lish) uchun jon fido qiladi”[38-b] deb musiqaning odamlar ruhiga kuchli ta’siri to‘g‘risida ham qimmatli fikrlar bayon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Temur va temuriylar davrida qo‘shiqchilikning barcha turlari taraqqiy topgan, yaxshi tanilgan, keng yoyilgan. Iste’molda bo‘lgan terminlarning aksari arabcha, ayrimlari forscha va oz qismi turkiy bo‘lgan, terminlar affiksatsiya (ayolg‘uchi) va kompozitsiya (lahnpardoz) usulida yasalgan, arab va fors tilidan o‘zlashgan bu terminlar iste’moldan batamom chiqib ketgan, saqlanib qolganlari ham terminlik xususiyatini yo‘qotgan (talolo, dasotin, nag‘ma, nag‘am kabi). Keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek qo‘shiqchilik terminologiyasining XIV – XV asrlardagi holatini o‘rganishda Alisher Navoiy asarlari muhim manba bo‘lib xizmat qilgan va turkiy, forsiy va arabiy tillar uchun tuganmas meros bo‘lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur A. Temur tuzuklari. – T.: Ijod-press, 2019.
2. To‘xtasin G‘ofurbekov Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1996.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.3,6. Xazoyin ul-maoniy. – T.: Fan, 1998.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.7. Layli va Majnun. – T.: Fan, 1991.
5. Farhangi zaboni tojiki. – M.: 1969.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.14. Muhokamatul-lug‘atayn. – T.: Fan, 1998.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.15. Holati Pahlavon Muhammad. – T.: Fan, 1999.

8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.11. Saddi Iskandariy. – T.: Fan, 1993.

9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.7. Hayrat ul-abror. – T.: Fan, 1991.

10. Q. Sodiqov. Ilk va o‘rta asrlar turkiy matnlarning nomlari Sharq. 2001.

11. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.8. Farhod va Shirin. – T.: Fan, 1991.

12. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.12. Lison ut-tayr. – T.: Fan, 1996.

13. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.13.Vaqfiya. – T.: Fan, 1992.

14. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.14. Mahbub ul-qulub. – T.: Fan, 1998.

15. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.13. Majolis un-nafois. – T.: Fan, 1997.

16. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.10. Sab’ai sayyor. – T.: Fan, 1992.

17. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.17. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. – T.: Fan, 2001.

18. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.17. Tarixi anbiyo va hukamo. – T.: Fan, 2001.

19. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.19. Holoti Pahlavon Muhammad. – T.: Fan, 2001.

20. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.17. Mezon ul-avzon. – T.: Fan, 2001.

21. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.15. Xamsat ul-mutahayyirin. – T.: Fan, 1999.

22. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.: T.17. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan, 2001.

23. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. – T.: Fan, 1983. I – IV tom.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARINING OZARBAYJONDA MUSTAQILLIKDAN KEYINGI DAVRDA O‘RGANILISHI

Ahmadjonova Maftuna Alijon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-bosqich tayanch doktaranti
maftuna.ahmadjonova96@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110764

Annotatsiya. Maqolada “Devonu lug‘otit turk” asaridagi onomastika, antroponimika, etnonimika va toponimika, dialektologiyaga oid dalillar hamda adabiy manbalar ozarbayjon tili va adabiyotiga qiyoslangan holda o‘rganilgan. Onomastik leksikaning shakllanishida ko‘plab lingvistik va ekstralingvistik omillarning roli Ozarbayjonda yozilgan bir qator onomastikaga oid maqolalar va dissertatsiyalarni o‘rganish orqali aniqlandi. Maqolada Ozarbayjon olimlarining devondagi shomanizmga oid qarashlari, asarda ishtirok etgan eng qiziq toponimlar (Qishloq terminlari, Ko‘l atamasi ishtirokidagi toponimlar), geografik nomlar yig‘ish, ularning kelib chiqishini oydinlashtirish, bir qator sabablar tufayli nomlarni almashtirilish sabablari, ularning ma’nosini aniqlash ushbu maqolada oldinda turgan vazifalardan biridir. Maqolada asarda keltirilgan taxalluslar, shaxs otlari, etnonimlarning tarixiy taraqqiyoti haqida so‘z yuritiladi, bosqichlari oydinlashtiriladi, etimologik tahlil qilinadi, ma’nolari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: *tadqiqot, maqola, onomastika, toponimika, shamanism*.

Annotation. In this article, onamastics, anthroponymy, ethnonymics and toponymy, evidences of dialectology and literary sources in the work are studied in comparison with Azerbaijani language and literature. The role of many linguistic and extralinguistic factors in the formation of the onomastic lexicon was determined by studying a number of onomastic articles and dissertations written in Azerbaijan. In the article, the views of Azerbaijani scientists on shamanism in Devan, the most interesting toponyms (village terms, toponyms with the lake term), collection of geographical names, clarification of their origin, reasons for changing names due to a number of reasons, clarification of their meaning and detection is one of the tasks ahead in this paper. The article talks about the historical development of the nicknames, personal names, ethnonyms presented in the work, explains their stages, etymological analysis, comments on their meaning.

Key words: *"Devonu lugotit turk", research, article, onamastics, toponymy, shamanism*

Bugungi kunda Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va “Devonu lug‘otit turk”ning xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilishi, asarning turli tarjimalari qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, yangidan-yangi tadqiqotlarga katta ehtiyoj bor. Shu ma'noda asar bo‘yicha Ozarbayjonda amalga oshirilgan ishlarni o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Mahmud Koshg‘ariy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish borasida Ozarbayjonda anchagina ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa Ramiz Askarning “Devon”ni ozarbayjon va rus tiliga qilgan tarjimalari hamda asar bo‘yicha tadqiqotlari mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi [Asker Ramız, 2009:33].

Ramiz Askarning qayd etishicha, ozarbayjoncha tarjimada Besim Atalay, S. Mutallibov nashrlaridagi hamda asarning qo‘lyozmasi va bosma nusxasidagi so‘zlar qiyoslab chiqilgan, imlo, so‘z ma'nosi va tarjimalardagi farqlar izohlangan. 1-jildda muqaddima, har bir jildda so‘z boshi, izohlar berilgan. 2-jildning oxirida “Devon”ning qisqacha grammatikasi, 3-jildda esa asarning manbasi haqida ma'lumot keltirilgan. Tarjima Tevfik Xo‘jayev tahriridan chiqqan. 2006-yilda “Devon”ning rus tilidagi uchinchi to‘la tarjimasini Ramiz Askar amalga oshirgan.

Ozarbayjonda devonni o‘rganilishi mustaqillik yillarida ancha salmoqli bo‘ldi. Bir qancha monografiyalar, dissertatsiyalar va maqolalar yozildi. Ayniqsa “Devonu lug‘otit turk”ning onomastikasiga e’tibor qaratildi. Tarixiy onomastik leksika saqlanib qolgan qomusiy manbalar “Devonu lug‘otit turk” asari eng ishonchli hisoblanadi. Ushbu qomusiy lug‘at nafaqat madaniy tariximiz, balki turkiy tillar tarixi uchun ham bebaho va muhim manbadir.

Kazimov Jahid Ismayil o‘g‘lining “Tarixi onamastik leksikada shomanizm izlari” maqolasida keltirilgan devondagi shamanizmga oid qarashlarini keltirib o‘tamiz:

“Devon”ning onomastik leksikasi haqidagi kuzatishlarimiz ko‘plab tadqiqot yo‘nalishlariga ega. Ana shunday nuqtalardan biri – “Devon”dagi shamanizmga oid onomastik leksikadir. O‘sha nomlardagi shamanizm qoldiqlarini aniqlash, ularning ma’nosini aniqlash ushbu maqolada oldinda turgan vazifalardan biridir. Ruh va sehrgarlikka ishonadigan xalqlarda (asosan shimoliy xalqlarda) “shaman” so‘zining ma’nosi sehrgar ma’nolarini bildiradi. Shamanlar qo‘shiq aytish va daf chalish orqali odamlarning kasalliklarini davolaydilar, ularni muvaffaqiyatli ov bilan ta'minlaydilar va hokazo. Bu so‘zdan olingan “shamanizm” ba’zi shimoliy xalqlar –

O‘rta Osiyo, Indoneziya, Amerika, Afrika xalqlarida ruhlarga sig‘inish va sehrdan iborat din shaklidir. Shamaniy tasavvurlar shamanlik afsonalaridan oziqlanganga o‘xshaydi. Shaman afsonalaridan ko‘rinib turibdiki, shaman bo‘ladigan odamni albis emizadi. Bu emizish marosim-mifologik xususiyatga ega. Bu bilan shaman yangi maqomga ega bo‘ladi, ruhlar bilan aloqa o‘rnatadi, ularni ko‘radi va tashrifi davomida ular bilan suhbatlashadi. Oddiy odam maqomidan shamanlik maqomiga o‘tish marosimida, sut ichish orqali shaman bo‘lishga tayyorlanayotgan odam ruhlar olamining sir-asrorlaridan xabardor bo‘lib, yangi bosqichga qadam qo‘yadi. Bir qator shaman rivoyatlarida shaman tog‘ ruhi (bu obraz ko‘pincha ayol sifatida tasavvur qilinadi va mifologik ona majmuasiga kiradi), ba’zan esa to‘satdan paydo bo‘ladigan ayol tomonidan oziqlanadi...” [Kazimov, 2006:311-317].

“Shaman folkloridan bu ma'lumki, har bir shaman bo‘lgan shaxs o‘zini ruhlarning ruhiy o‘g‘li deb ataydi. Tarixiy sharoitlar bir qator turkiy urug‘lar tomonidan shamanizmni qabul qilishga olib keldi, biroq shamanizm qadimgi turklarning mutloq ko‘pchiligining haqiqiy e’tiqodlari bilan bog‘liq emas edi. Shamanizm - mo‘g‘ullarning e'tiqodi. Nisbatan yaqin vaqtgacha qadimgi turkiy e'tiqod shamanizm hisoblangan. Ammo so‘nggi paytlarda tarixchi olimlar – Ibrohim Gafaso‘g‘li, M. Eliade va boshqalar qadimgi turkiy e’tiqodning shomanizmga aloqasi yo‘qligini isbotladilar” **[**Rəfiq Özdək, 1992]**.**

“Devon”da shomonlik haqidagi so‘zlar ko‘p. Buning sababini turk olimi Abdulqodir Inan oydinlashtiradi: “M.Koshg‘ariy ushbu asarni yozish arafasida 1041-yilda musulmon turklar bilan yabaku va basmil turklari o‘rtasidagi urushda qatnashgan turk faxriylarini ko‘rib, ular bilan suhbatlashdi. Faxriylar haqidagi dostonlar bilan uchrashgan, o‘sha faxriylar unga mo‘g‘ullarning e’tiqodi bo‘lgan shomanizm va unga aloqador so‘zlar haqida ko‘p gapirib berishgan. M. Koshg‘ariy musulmon turklarning eski shamanlik qoldiqlaridan olingan so‘zlarni izohlar ekan, shaman turkidek gapiradi. Ba’zan qolgan e’tiqodni ifodalovchi so‘z va atamalarni tushunganda, shoman “turklar shunday ishonadi”, “bu e’tiqod juda keng tarqalgan” [Kazimov, 2006:311-317].

Kazimov ushbu maqolasida “Devon”dagi toponimlar haqida ham juda qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

“*Kamlanči toponimi*. Toponimning boshlang‘ich komponentida shaman, kam-g‘am so‘zi o‘z izini saqlab qolgan. Muallif “Devon”ning 3-jildida bu toponimning “kam” qismi ruhoniy, shomon ma’nosida qo‘llanganini qayd etadi va quyidagi izohni beradi: *Kamlanči*-ikki kichikning nomi. Ikki okuze yaqinidagi shaharlar. Lekin ulug‘ turkolog o‘sha toponimning ma’nosini bir butun sifatida

ochib bermaydi. Bizning fikrimizcha, *Kamlanči* toponimi deganda shomanlar, ruhoniylar urf-odat, marosim va marosimlarni bajaradigan joy deb tushunish kerak. “Devon”dagi eng qiziq toponimlardan biri *Ötüken*dir. Bu toponimga shamanizm izlari singib ketgan. Shamanik va yarim shamanik matnlar bu xudoga bo‘lgan buyuk ishonchni tasvirlaydi. M. Koshg‘ariy ham *Ötüken* o‘sha davrda tatarlar yashagan hududlar tarkibiga kirganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, mo‘g‘ullar etnogenezida muhim o‘rin tutgan o‘tuken qabilasining nomi “hukmron ayolning mamlakati, hududi”, “sajda qiladigan joy, ziyoratgoh”, “turklarning muqaddas tog‘i” ma’nolarini bildiradi. *Ötüken* nomi joy so‘zi bilan birga ishlatiladi. *Ötüken* afsonasining ma’nosi yaratgan ota, yaratgan xon deb talqin qilinadi (L.Potapov, M.Seyidov). Bu afsonaviy fazilatlari tufayli u himoyachi, to‘kinlik va baxt-saodat beruvchi edi. Hozirgi tuvin tilida bir oz fonetik o‘zgarishlar bilan kuzatilgan *Ötüken* geografik atamasi qoplangan tog‘ tizmasi, qator tog‘lar ma’nosini bildiradi. Ushbu tog‘lar tizmasi Yuqori Yenisey hududida joylashgan bo‘lib, qadimgi turklar muqaddas deb hisoblagan va sajda qilgan e'tiqod nuqtalaridan biri edi. Qizig‘i shundaki, bu nom nafaqat mo‘g‘ullarning etnogenezi, balki diniy urf-odat va an'analarning mo‘g‘ullar bilan bog‘liqligi haqida fundamental ma'lumot berishi mumkin. Devondagi Abaki nomida shamanizm izlarini uchratish mumkin. Abaki - kichik hududning nomi. Bu hududda (bog‘ va bog‘larda) odamga o‘xshagan narsa qilingan bo‘lib, u hosilni yashirish va qo‘rquv uyg‘otish uchun qilingan. Hozir ham Ozarbayjonning ko‘plab viloyatlarida dala va bog‘larda bu shamanlik g‘oyalari saqlanib qolgan” [Kazimov, 2006:311-317].

“Toponimik birliklarga oid atamalar. “Devon”dagi toponimik birliklarga qishloq, ko‘l, daryo, vodiy va boshqalar kiradi. Geografik atamalar ham ishtirok etadi.

Qishloq terminlari ishtirok etgan toponimlar: Čimkend - Chim nomida “qishloq” geografik atamasi qo‘llangan. Inčkend - Xudoning la'nati, Pecheli ismli odamga ergashganlar shahri. Ordukend – Qashg‘ar shahrining boshqa nomi. O‘zkend - Farg‘ona shahrining boshqa nomi. Bu toponimning “Özčent\\Özčend” variantlari “Devon”da ham uchraydi. Semerkand\\Semizkend - mashhur shahar nomi; Tünkend - turkiy mamlakatdagi shahar nomi; Udhu kend - shahar nomi; Yarkend - shahar nomi; Yenkend - shahar nomi.

Ko‘l atamasi ishtirokidagi toponimlar. Siding köl - Kočngar boshi yaqinidagi ko‘l nomi, Yulduz ko‘l - Kuče, Kindut va Uyg‘urlar chegarasidagi ko‘l nomi, Korüng köl – Qashg‘ar yaqinidagi ko‘l nomi”.

Tarixiy onomastika masalalari juda murakkab, aniq va uyushgan tizimdan dalolat beradi. Bu onomastika o‘z davri uchun shakllanish va ishlab chiqishning maxsus qoidalariga ega. Bu qonuniyatlarni o‘rganish ko‘plab masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. “Devon” tarixiy onomastik birliklarning buyuk xazinasi; ko‘pgina olimlarning bu borada tadqiqot olib borishini yetarli deb bo‘lmaydi. Besim Atalay ta’kidlaganidek, “Devon” ustida vaqti-vaqti bilan yuzlab tadqiqotchilar ish olib boradi va har bir tadqiqotchi yangi ma’lumotlar kashf qiladi.

Devon bo‘yicha salmoqli ish olib borgan olimlardan biri Kazimov Jahid Ismayil o‘g‘lining “Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida onomastik leksika” nomli nomzodlik dissertatsiyasi 2009-yil Baku shahrida himoya qilindi. Monografiya 11-asr tarixiy onomastik lug‘atiga bag‘ishlangan. Asarda xalq, qabila va joy nomlari faktlar asosida tarixiy-tilshunoslik nuqtai nazaridan tushuntirilib, tahlil qilingan.

Asarda XI asrda onomastik birliklarning mazmuni va kelib chiqishi qabila va qabila tarixining turli bosqichlarida tarixiy-xronologik vaziyatlarni yuzaga keltirgan bog`lanish va sabablar o`rganilgan. Amaliy nuqtai nazardan, asardan tarixiy onomastik (antroponimik va toponimik) lug‘atlar tayyorlashda foydalanish mumkin. Tarixiy onomastika bo‘yicha maxsus kurslar, dastur, darslik va darslarni o‘qitishda ishning ahamiyati va qiymati shubhasizdir” [Kazimov, 2009:6-7].

“Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni”da onomastika masalalari alohida o‘rin tutadi. Masalan, janoblarni “xamir” deyishadi, chunki o‘g‘uzlar “amir” deb ayta olmaydilar. Alifboni x ga almashtiradilar va aytadilar. “Otamiz turk yerlarini Samanog‘ullardan sotib olgan janob, ismi Xamir Tekin” [Dilaçar, 1995:17].

“Devon”da berilgan dunyo xaritasida hudud toponimlari aks ettirilgani uchun katta ahamiyatga ega. Bu o‘rta asrlarning birinchi turk xaritasi eng aniq xaritalardan biri. Xaritada keltirilgan “Erzi-Ozarobodgan” nomi Ozarbayjonning hozirgi geografik joylashuvi va qo‘shni chegaralari joylashuviga juda yaqin qilib chizilgani o‘z aksini topdi. Ushbu xarita ming yil oldingi davr uchun ideal deb hisoblash mumkin” [Mahmud Kaşğari, 2006: 23].

“Devon”da berilgan taxalluslar, etnonimlarning tarixiy taraqqiyoti haqida so‘z yuritiladi, bosqichlari oydinlashtiriladi, etimologik tahlil qilinadi, ma’nolari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra “Devon”da 110 nafar shaxs nomi ishlatilganligi aniqlangan. Ulardan beshtasi ayol ismlari (Altun Tarim, Süreyya va boshqalar). Ko‘pchilik erkaklar ismlari tavsiflovchi xarakterga ega: Azak, Atish, Utush, Burslan va hokazo. Asarda bolalar ismlarini ham uchratish

mumkin: Chag‘ri Tagin, Chag‘ri Tikish va boshqalar. Lug‘atda qul nomlari ham vaqti-vaqti bilan qo‘llanadi: Ay, Ayas, Alp Tig‘in, Kumush Tig‘in, Kutlug Tig‘in, Kuch Tagin, Suli (Sulaymon) kabilar. Bu yerda berilgan “Tigin” so‘zi aslida “qul” degan ma’noni bildiradi. Ayas nomining ma’nosi esa [DLT, 1, 123] “yuzi yorug‘ qul” ma’nosini bildiradi” [Kazimov, 2009:9-10].

Toponimlar kishilar tafakkurining mahsuli, shaxs materiali va ma'naviy hayotini har tomonlama ko‘rsatadi. Sivilizatsiyalarning o‘zgarishi toponimlar bilan birga keladi. Ularning qadimgi turkiy toponimlari alohida qabila birlashmalariga xos bo‘lgan moddiy va ma’naviy madaniyat dunyoqarashini aks ettiradi. “Devon”da 180 tagacha toponim ishlatilgan. “Devon”dagi bu toponimik birliklarning leksik-semantik va etimologik talqini Mahmud Koshg‘ariyning buyuk toponimist ekanligini yana bir karra isbotlaydi[Kazimov, 2009:9-10].

A.Jafaro‘g‘li Mahmud Koshg‘ariyni “Birinchi turk toponimisti” deb ataganligi bejiz emas. Chunki aynan Koshg‘ariy birinchi marta qadimgi turklarning hududiy nomlarining har birini diqqat bilan o‘rgangan, ularning nomlanishi sabablari, ayni paytda semantik va kelib chiqishi landshaftini ochib berdi.

“Turkiy kelib chiqishi joy nomlarining (toponimlarning) katta qismi sofligi bilan farqlanadi. Masalan: Oltun Xon, Oy ko‘l, Toshkent, Suvloq, Katun sini, Oq cho‘l, Issiq ko‘l, Terli dengiz, Bakirlig, Bulgar, Suvar va boshqalar. Arab va fors tillaridan kelib chiqqan joy nomlari (toponimlari): Nishobur, Xarzam, Farg‘ona, Buxoro, Cherxon, Sayram, Yaman, Yechuch-Machuch va va boshqalar. Qoraxoniy turklarining joy nomlari leksik-semantik nuqtai nazardan turli guruhlarga ajratish mumkin: Qabila nomlaridan tashkil topgan joy nomlari: Abul, Aramut, Argu, bolgar, igdish, edish, turk, qumuk, minlak, kifchak, suvar, kenchek, tangut va boshqalar. Shaxs nomlaridan tashkil topgan joy nomlari: Shu, Barman, Barsgan, Kaz oyni, Kashmir, Nishobur va boshqalar” [Kazimov, 2009:12-13].

“Devon”da 96 ta shahar nomi haqida ma’lumot berilgan. Bu nomlar qadimgi turklarda shahar madaniyatining rivojlanish an’analarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mahmud Koshg‘ariy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish borasida Ozarbayjonda ham anchagina ishlar amalga oshirildi. Ozorbayjonda devonni o‘rganilishi mustaqillik yillarida ancha salmoqli bo‘ldi. Bir qancha monografiyalar, dissertatsiyalar va maqolalar yozildi. Ayniqsa “Devonu lug‘otit turk”ning onomastikasiga e’tibor qaratildi. Tarixiy onomastik leksika saqlanib qolgan qomusiy manbalar ichida “Devonu lug‘otit turk” asari eng ishonchli hisoblanadi. Ushbu qomusiy lug‘at nafaqat madaniy tariximiz, balki turkiy tillar tarixi uchun ham bebaho va muhim manbadir. Onomastik leksikaning tarixiy-

semasiologik tadqiqi natijasida qadimgi turkiy antroponimika, etnonimika va toponimikaning tuzilish-semantik va tipologik jihatlari 11-asrga mansub. Onomastik leksikaning shakllanishida ko‘plab lingvistik va ekstralingvistik omillarning roli aniqlandi. Keyinchalik Ozarbayjonda “Devon”dagi frazeologik birliklar, o‘tgan zamon shaklining ifodalanishi, Mahmud Koshg‘ariy qiyosiy metodining ahamiyati va boshqa mavzudagi tadqiqotlar yaratildi, dissertatsiyalar himoya qilindi.

Ayniqsa Ramiz Askarning “Devon”ni ozarbayjon va rus tiliga qilgan tarjimalari hamda asar bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotlari mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asker Ramız. Divanü Lügat-it-Türk İstatistikleri // 2. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Bilgi Şöleni Bildirileri. Kaşgarlı Mahmud ve Dönemi. 28-30 Mayıs 2008, – Ankara: 2009. s. 33-44.

2. Əsgərov N.Ə. Bəzi hidronimlərin leksik-semantik xüsusiyyətləri. AOP, Bakı, 1986, s. 211- 213.

3. C.KAZIMOV -MAHMUD KAŞĞARLININ «DİVANÜ LÜĞAT-İT-TÜRK» ƏSƏRİNDƏ ONOMASTİK LEKSİKA. Avtorefirat Baku 2009. S 12-13

4. C.Kazimov. TARİXİ ONOMASTİK LEKSİKADA ŞAMANİZMİN İZLƏRİ (MAHMUD KAŞĞARLININ «DİVANÜ LUĞAT-İT-TÜRK» LÜĞƏTİ ƏSASINDA). Tədqiqlər - 3. Bakı, 2006, c. 311-317.

5. C.Kazimov. MAHMUD KAŞĞARLININ «DİVAN»INDA ONOMASTİK TERMİNLƏR. AMEA Terminologiya Komissiyası. Terminologiya məsələləri. Bakı, “Elm”, 2007, səh.: 159-164.

6. Kaşğari Mahmud. Divanü lüğat-it-türk. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan Ramiz Əskər. – Bakı: Ozan, 2006, I cild, s. 512; II cild, s. 400; III cild, s. 400; IV cild (indeks), s. 752.

7. Dilaçar A. Kutadğu Bilig İncelemesi. TDK, Ankara, 1995, s. 17; Mahmud Kaşğari.

8. Divanü lüğat-it-türk. Dörd cilddə, I, Bakı, «Ozan», 2006, s. 16.

9. Mahmud Kaşğari. Divanü lüğat-it-türk. Dörd cilddə, I, Bakı, «Ozan», 2006, s. 23

10. Rəfiq Özdək. Türkün qızıl kitabı. Birinci kitab, Bakı, Yazıçı, 1992

11. google.com

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI BADIIYLIKNI TA’MINLOVCHI LINGVISTIK VOSITALAR

Odilova Dilobar Shavkatjon qizi,
dilobarodilova@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110777

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan lingvistik vositalar xususida so‘z yuritilgan. Asarda keltirilgan o‘xshatish, ko‘chim, aforizm, maqol-matallarning asar badiiyligini ta’minlashdagi o‘rni alohida ta’kidlangan. Bundan tashqari, asardagi omonim, sinonim, antonim so‘zlar hamda parafrazalarning betakror namunalari tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik vositalar, o‘xshatish, ko‘chim, aforizm, maqol-matal, etimologiya, adib mahorati, badiiylik.*

Abstract. This article talks about the linguistic tools used in Yusuf Xos Hojib's work “Kutadgu bilig” and emphasizes the role of similes, similes, aphorisms, proverbs in the work in ensuring the artistry of the work. In addition, attention is paid to the analysis of unique examples of homonyms, synonyms, antonyms and paraphrases in the work.

Key words: *linguistic tools, simile, metaphor, aphorism, proverb, etymology, literary skill, artistry.*

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari badiiy uslubining o‘ziga xosligi, obrazlar xilma-xilligi, bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Muallif asar badiiyligini ta’minlashda turli xildagi lingvistik vositalardan mohirona foydalangan. Buning isbotini asarni nasriy tarjima qilgan olim Boqijon To‘xliyevning quyidagi fikrlaridan ham bilsak bo‘ladi: “Qutadg‘u bilig” sahifalarini varaqlar ekansiz, goh moziyning ko‘z ilg‘amas sarhadlariga, goh Yusuf Xos Hojib davri ziddiyatlariga, goh turkiylarning qadim bahodir o‘gloni Alp Er To‘nga, ulug‘ Firdavsiyning “Shohnoma” si qahramonlari davriga borib qolgandek bo‘lasiz. Asarda shoir fikri go‘zal obrazlar, hayotiy o‘xshatish va lo‘nda istioralar, ta’sirchan tamsil hamda mo‘jaz ramzlar bilan ziynatlangan. Yusuf Xos Hojib so‘z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik his etadi” [To‘xliyev, 1990:11].

O‘xshatish, metafora va metonimiya hodisalari asarning badiiy ifodasini oshirishga, fikrni aniq ifodalashga, adibning so‘z qo‘llashdagi mahoratini yoritishga

xizmat qilgan. Ayniqsa, zoonimlar asosidagi o‘xshatish va ko‘chimlar kitobxon e’tiborini tortadi. Bo‘ri, ayiq, ot, arslon, qoplon, chayon, baliq, qo‘y, ilon, it, lochin, ukki, zag‘izg‘on, quzg‘un, oqqush kabi hayvon va qushlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Asardagi zoonim asosidagi metaforalar shirinsuxanlik, erkalash tasvirini yaratish vositasi sifatida ham talqin qilingan. Turkiy xalqlar lingvomadaniyatida “qo‘zichog‘im”, “toychog‘im”, “bo‘talog‘im” kabi hissiyot va ta’sirchanlikka boy bo‘lgan metaforalar qo‘llanilib kelingan. Asarning turli o‘rinlarida “qo‘zi”, “qo‘zichog‘im” kabi erkalashni ifodalovchi baytlarga duch kelamiz. Xalqimiz qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanganligi sababli turli xil hayvonlar bilan munosabatda bo‘lib kelgan hamda kundalik hayotda hayvon nomlari orqali yaqin insonlarini erkalatishgan. Bunday murojaatlarni qadimgi mumtoz adabiyot namunalarida ham uchratishimiz mumkin.

Yayiq ermäs ersä bu davlat özi
Na edgu neŋ erdi bu qut ey qözi
Bu davlat o‘zi bevafo-beqaror bo‘lmasa edi,
Baxt-davlat qanday yaxshi narsa bo‘lar edi, ***ey qo‘zi*** [Qutadg‘u bilig,1971:437].

Asarda muallif tasavvurini, dunyoqarashini, o‘ziga xos uslubini namoyon qiluvchi vositalardan biri o‘xshatish san’ati hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib o‘xshatishlar orqali tilimizning jozibasini, so‘z boyligini, ta’sirchanligini o‘zida mujassam etgan betakror satrlar yaratgan. Jumladan, quyidagi baytda muallif keksalikning belgisi bo‘lgan soch oqarishini qush rangiga mengzaydi.

Sočim bo‘ldi šunqor tusidek oqiš,
Soqol yozgi maysa – qurir boyaqiš. [Qutadg‘u bilig,1971:703].

Ma’lumki, shunqor yirtqich qushlar sirasiga kiradi. Ko‘chma ma’noda mard, jasoratli, botir shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ammo, yuqoridagi baytda yozuvchi uning boshqa bir qirrasi, rang belgisiga ko‘ra qiyoslashni amalga oshiradi. Bu o‘xshatish esa biz uchun yangilik sifatida kashf qilinadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sochni shunqor tusiga o‘xshatishda “oqlik” semasi asos bo‘lgan.

Sewiglini sewmäz keδik teg qaçar
qaçığılıqa yapçur aδaqın quçar.
Davlat kiyik kabi, u kishidan qochadi,
Agar u kelib qolsa, mahkam tut, tizginlab ol. [Qutadg‘u bilig,1971:119].

Kiyik chaqqonligi va serharakatliligi bilan boshqa hayvonlardan ajralib turadi. Bu baytda shoir insonga davlat, boylik, omad har doim ham birdek berilavermasligini nazarda tutgan. Qo‘lga davlat kelganda uni mahkam tutishlik,

undan to‘g‘ri maqsadda foydalanish kerakligi uqtiriladi. Davlatning kiyikka o‘xshatilishida “chaqqonlik”, “serharakatlilik” semalari asos bo‘lgan.

Bundan tashqari, Yusuf Xos Hojib asar badiiyligini oshirishda omonim, sinonim va antonim so‘zlardan ham keng foydalangan. Omonim so‘zlar tahlili turkiy tillarga xos omonimiya hodisasi xususiyatlarini yoritish, tajnis san’ati, so‘z o‘yini namunalarini o‘rganishda ahamiyatga molik jihatlardan biri hisoblanadi. Asardagi omonimiya hodisasi asar badiiyatini mukammallashtirishda, adib tafakkurining o‘ziga xos yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Doston matnida qo‘llangan ***at*** so‘zi “ism, nom; unvon; hayvon nomi; harakat; ma’nolarida omonimlik hosil qilgan. *Anasinda tuysa atansa ati, musafir bolub mundi odlak ati – Onasidan tug‘ilib, unga ot qo‘yilgach, u musofir bo‘lib davron (falak) otini minadi.* Baytning birinchi misrasidagi at so‘zi “ism va nom” ni anglatsa, ikkinchi misradagi at so‘zi *“hayvon”* ma’nosida kelgan [Xolmurodova, 2019:99].

“Qutadg‘u bilig” dagi antonimlar muallif fikrini yanada aniqroq, tushunarliroq chiqishini ta’minlagan. Shu bilan birga, ziddiyatli holatlarda, asar qahramonlari nutqidagi qarama-qarshi fikrlarni ifodalash usullarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Yusuf Xos Hojib asarda bir baytda ikki-uch antonim so‘zlar juftligini qo‘llagan va obrazli ta’sirchanlikka erishgan. Turkolog olim H.Dadaboyev ham bu haqida shunday deydi: “Yusuf Xos Hojib asarda badiiy nutqning ifodaliligi, emotsionalligi, ta’sirchanligini oshirishda antonimlardan mohirona foydalangan. Bir-birini inkor etuvchi, semantik paradigmaning turli qutblarda joylashgan tushunchalar antonimlar yordamida qarama-qarshi qo‘yiladi. Natijada, matnning badiiy-estetik qiymati kuchayadi”. [Dadaboyev, 2013:92]

Halol hamda haromni aniq farqlaydigan bo‘lsa,
Yaroqli, yaroqsizni ajrata bilsa. [Qutadg‘u bilig,1971:439].

Yuqoridagi baytda *halol va harom* hamda *yaroqli va yaroqsiz* so‘zlari antonim juftlikni hosil qilgan. Ushbu bayt “Xazinabon qanday bo‘lishi kerakligi” bobidan olingan bo‘lib, xazinachi o‘z faoliyati davomida qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak ekanligi zid ma’noli so‘zlar orqali o‘rinli ifodalangan.

Asardagi sinonimlar ma’noni kuchaytirish, o‘rinsiz takrorni oldini olish hamda ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Muallif bir ma’noni turli so‘zlar orqali ifodalab, semantik bo‘yoqdorlikni yuzaga keltirgan.

Xushfe’l, muloyim, mehribon, ko‘ngil kishini
Ko‘rmoq istasang, kel, buni ko‘r, taskin top.
Yuz ko‘rki chiroyli, xulqi xush bo‘lishi kerak,

Xushro‘y, kelishgan, tili va dili to‘g‘ri bo‘lishi kerak. [Qutadg‘u bilig,1971:453].

“Qutadg‘u bilig” asarida adib ko‘plab barqaror birikmalardan ham foydalanib, turkiy tilning qanchalar boy til ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Asar ustida izlanish olib borgan M. Xolmurodovaning tahliliga ko‘ra “Qutadg‘u bilig” dagi aforizmlar muayyan tajribaga asoslanishi, ijtimoiy turmush tarzidagi voqelikka aloqador bo‘lishi bilan maqollarga o‘xshaydi, ammo ijodkorning individual yondashuvi bilan ulardan farq qiladi [Xolmurodova, 2019].

Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa,
O‘lim kelib tugatmaguncha o‘z tarzini o‘zgartirmaydi.
Qorinda vujud bo‘lgan qiliq, odam
Qora yer qatida ketadi, ey tetik. [Qutadg‘u bilig,1971:204].

Baytda ifodalangan g‘oya bugungi kundagi “Sut bilan kirgan jon bilan chiqar”, “Bukrini go‘r tuzatadi” maqoliga to‘g‘ri keladi. Bu aforizm psixologik, genetik asosga ega bo‘lib, inson tabiati, ruhiyatining murakkabligi bilan belgilanadi. Inson olami ichki dunyosi sonsiz kechinmalar, tuyg‘ular jamlanmasi sifatida bir qator belgilarga ega bo‘lib, ular nasldan naslga o‘tadi. Shu bois inson tabiati, ruhiyatini, fe’l-atvorini tabiiy, tug‘ma, o‘zgarmas belgilar hamda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadigan xususiyatlar tashkil etadi. Mazkur aforizmda inson tabiatining o‘zgarmas, tug‘ma belgilari, genetik qirralari nazarda tutilgan. Sut leksemasi “tug‘ilish”, va jon bilan chiqish “o‘lim” tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘zaro mantiqiy oppozitsiyani hosil qilib, ta’sirchanlikka xizmat qiladi. [Xolmurodova, 2019:90].

Bundan tashqari adib asarda xitob undovlari hamda xitob yuklamalaridan mohirona foydalangan. Bu esa o‘z navbatida asar tilining xalq tiliga uyg‘unlashganligi hamda xalqona uslub yaratganligi bilan tahsinga sazovordir. “Qutadg‘u bilig‘ asarida xitob uchun qo‘llanilgan quyidagi morfologik birliklarni ko‘ramiz:

1) ot, otlashgan so‘zlar, buyruq maylidagi fe’llarning oxiriga urg‘u (ø), / -a/ yuklamasi, /-i/ va /-m/ qo‘shimchalarini keltirish;

2) ot, otlashgan so‘zlardan oldin ey, ayo, yo undovlari, keyin esa urg‘u (o), / -a/ yuklamasi, /-i/ va /-m/ qo‘shimchalarini keltirish;

Ko‘rsatkichsiz, urg‘u bilan berilgan xitoblar matnda keng uchraydi:

Yanut berdi Ögdülmiş aydï elig
Tiläk keldi tuttï tegürdi elig.

Ma’nosi: *O‘gdulmish javob berib aytdi: Ey elig, tilak kelib hammaga qo‘lini uzatdi (hamma o‘z orzusiga erishdi.)*

Uçuz tutma erdemni ögren oğul,

Bu erdem yorïqï ürüŋ quş teg ol.

Ma’nosi: *Ey o‘g‘il, fazilatni qadrsiz deb o‘ylama, uni o‘rgan.* [Qutadg‘u bilig,1971:377].

Bu fazilatning yo‘rig‘i, xulqi oqqush kabidir. Egalik qo‘shimchalari ifodalangan narsaning qaysi shaxsga qarashli ekanini bildiruvchi, ismlarni egalik munosabatida bir-biriga bog‘lovchi qo‘shimchalardir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida -m egalik qo‘shimchasining xitob undovi sifatida qo‘llanilganini ko‘ramiz.
[Boltaboyev, 2020:114].

Bu barça asïğ sanï boldï begim,

Asïğ qïlğçïğ edgü tutğu begim.

Ma’nosi: *Bularning barchasi foyda singaridir, ey begim.*

Foyda beruvchini yaxshi tutish kerak, ey begim. [Qutadg‘u bilig,1971:636].

Xulosa qilib aytganda, asarning badiiy qiymatini ta’minlashda lingvistik birliklarning o‘ziga xos o‘rni bor. Asardagi ko‘chim, aforizm, maqol-matal, o‘xshatish, xitob undovlari kabi birliklar muallif tomonidan o‘ziga xos yo‘nalishda ifodalangan. Bundan tashqari, asarda omonim, sinonim, antonim so‘zlar hamda parafrazalarning betakror namunalariga duch kelamiz. Bu esa shoirning individual mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘. (2011). To‘xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadg‘u bilig. I, II, III, IV, V jildlar. –Toshkent: Jahon print, 2011. – 859 b.

2. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 320 б.

3. Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2008. – 248 б.

4. Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы “Кутадғу билик” Юсуфа Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук. –Алма-Ата, 1991. – 146 б.

5. Boltaboyev S. “Qutadg‘u bilig” da xitob yuklama va undovlari asosida o‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlarning etimologiyasi. Turkologiya xalqaro ilmiy jurnal. – Toshkent, 2020. – B. 114-121.

6. Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек тилида ўхшатишларнинг ифодаланиши // Лингвист IV. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 92- 100.

7. Tasleem Sh. “Qutadg‘u bilig” dostonining leksik-semantik o‘ziga xosliklari. – Toshkent, 2020. – B. 56.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.14.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.114.

10. Холмуродова М “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (Phd). дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 100.

11. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан.док.дисс…автореф. – Тошкент, 2015. – 46 б.

12. Шамсиддинова Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 1999. – 44 б.

13. www.natlib.uz.

14. www.ziyonet.uz.

15. www.researchgate.net.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI LEKSEMALARNING SEMANTIK MAYDON ASOSIDA TAHLILI

Azizova Nilufar Rajavaliyevna
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110790

Annotatsiya. Maqolada semantik maydon asosidagi tahlilning tizimli yondashuv sifatidagi ahamiyati ta’kidlangan. “Devonu lug‘otit turk”dagi leksemalarni tizimli ravishda semantik maydon asosida tadqiq etish soha leksikasi taraqqiyoti haqida muhim ma’lumot berishi, xalqning nomlash xususiyatlari, leksemalarda ifodalangan milliy-madaniy qadriyatlar, urf-odat, an’analarni aniqlash imkonini berishi qayd etilgan. Lug‘atdagi leksemalarning mikromaydon asosidagi tahlili keltirilgan. Shu asosda lug‘at leksikasining qomusiy xarakteri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *tizimli tahlil, semantik maydon, mikromaydon, leksema, milliy-madaniy qadriyatlar, non, sut, don mahsulotlari mikromaydoni, ideografik lug‘at.*

Abstract. The article emphasizes the importance of analyzing the semantic field as a systematic approach. It is noted that the study of the lexemes of “Devonu Lugotit Türk” on the basis of a systematic semantic field provides important information about the development of the vocabulary of the field, allows us to determine the peculiarities of the naming of the people, national and cultural values, customs and traditions expressed in the lexemes. A microfield analysis of the dictionary's lexemes is presented. On this basis, the encyclopedic nature of the vocabulary is revealed.

Key words: *system analysis, semantic field, microfield, lexeme, national cultural values, bread, milk, microfield of grain products, ideographic dictionary*.

Kirish. Tilni mazmuniy maydon asosida o‘rganish Sharq tilshunosligida juda qadimdan mavjud bo‘lib, ideografik lug‘atlar va qomusiy asarlar orqali shakllangan. Alifbo tartibida emas, balki mavzuiy guruhlar asosida tuzilgan lug‘atlar ideografik lug‘at sanaladi.

Leksemalarning semantik maydon asosidagi tahlili tizimli tahlilning bir ko‘rinishidir. Semalar sememalarning semantik maydonda joylashish mavqeyiga qarab arxisema, integral sema, differensial sema va potensial sema kabi tiplarga bo‘linadi va ular ierarxik tartibdagi o‘rpiga qarab turlicha vazifa bajaradi.

O‘zbek tilshunosligida mazmuniy maydon aspektida bajarilgan tadqiqotlar, asosan, hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan amalga oshirilgan. Lekin tarixiy

manbalar so‘z boyligini mazuniy va semantik maydon jihatidan o‘rganish nafaqat o‘zbek tilshunosligi, shuningdek, turkiyshunoslikning dolzarb masalalaridan biri ekanligi sir emas. “Devonu lug‘otit turk”da qayd etilgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalarni ilk bor mazmuniy maydon aspektida tahlil etish kelajakda shu turdagi tadqiqotlarning keng miqyosda amalga oshirilishiga muhim hissa qo‘shadi.

Asosiy qism. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari qomusiy hisoblanib, olimlar tomonidan turli ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etilgan bo‘lsa-da, izlanishlarning aksariyati ilmiy maqola va risolalar hisoblanadi. Olib borilgan statistik ma’lumotga ko‘ra, asar haqida 2011 yilga qadar turkologiyada bajarilgan izlanishlar soni 1779ta bo‘lib, shulardan 309 tasini o‘zbek tilida yozilgan maqolalar tashkil etadi [Xudoyberdiyev, 2011:7].

Tadqiqotlarda “Devonu lug‘otit turk”ning leksik xususiyatlari turkiy tillarning keng semantik imkoniyatlarini yoritishda muhimligi qayd etilgan [Dadaboyev, 1981;2017]. “Devonu lug‘otit turk” leksikasi turli yaxlit tizimni tashkil qilib, undagi leksemalar bir qator mikromaydonga birlashadi. Quyida ayrim mikromaydon leksemalari haqida to‘xtalamiz.

“Urf-odat” semali leksemalar mikromaydoni: ***ögräyük*** “urf-odat”, *törü* “rasm, odat”, *qonuq* “mehmon”, *qonuqluq* “ma’lum bir sathdan joy olmoq”, ***bičiš*** “mehmonlarga taqdim qilinuvchi shoyi gazlama”, *keliš-bariš* “borish-kelish”, *didim* “nikoh kechasi kelinga kiydiriladigan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bosh kiyimi, toj”, *didäk* “kelin ko‘chganda, yurganda begonalardan yashirinish uchun yopinadigan narsa”, *türkün* “qavm, qabila, ota-onaning uyi”,
yazïğčï “qudalar orasidagi xat-xabar tashib yuruvchi sovchilar”.

“Tibbiyot” mikromaydoni quyidagi leksemalarni oz ichiga oladi:

Davolash bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomlari: *emči, otačï, sağun* “tabib” *ot “*dori”, *sağun* “sog‘lomlik, mukammallik, poklik”, *enüčlämaq, em-säm* “davo” , *emlamoq;*

Dori nomlari: *o‘t, egit* “yaradan, shuningdek, ko‘z tegishidan saqlash uchun bolalarning yuziga surtiladigan bir dori”, *egir- igir//iyir* “qorin og‘rig‘ini davolash uchun qo‘llanadigan o‘simlik”, *ažrïq* “bir xil o‘simlik”, arabchasi *“sïl”, ïsrïq* “isiriq”; *ötrüm* “surgi dori”, *arqačuq* “og‘izning ichiga dori quyish uchun qo‘llanadigan ichi kovak bir asbob” (DLT, I, 162), *aŋduz* **“**yerdan qazib olinadigan o‘simlik ildizi”, ***urağun*** “kasallarga qo‘llaniladigan hindcha bir dori” (DLT, I, 156), *čurnï* **“**turk tabiblari tomonidan yasaladigan surgi dori”, *qoš* “davolovchi xususiyatiga ega bo‘lgan tosh

ağmuq “oq achchiqtosh” (DLT, I, 125), *urumday* “zaharning zararini yo‘qotish uchun ishlatiladigan tosh” (DLT, I, 174), *tafğač yudacï* “bargi savsan gulining barglariga o‘xshash, dori sifatida ishlatiladigan bir daraxt” (DLT, I, 423), *yaqïğ* “shish va shunga o‘xshash yaralar ustiga qo‘yiladigan dori” (DLT, III, 20).

“Qarindoshlik” mikromaydoni: *oguš* “qarindosh”, *yalïŋuq* “inson, odam”, *avurta* “enaga”, *aba* “ona”, *öz kiši* “yaqin kishi”, ***ton*** **“**birinchi tug‘ilgan to‘ng‘ich bolaga nisbatan, xoh o‘g‘il yoki qiz bo‘lsin, qo‘llanadigan atama”,
ïčqïm “hoqoniy turklarda katta aka (DLT, I, 95), *ača, ekä* “katta qiz (opa)”,

öksüz “yetim; nima qilarini bilmaydigan, chorasiz insonlarga nisbatan**”**, *egätlik qarabaš* “nikoh kechasi kelin va kuyovga xizmat qilishga buyurilgan xizmatchi”, *egät* **“**nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga vazifasini bajargan inson**”**, *qïz* **“** qimmatbaho narsa”, “cho‘ri”, “bo‘yi yetgan qiz”, “baxil odam”, *baldïz* “xotinning singlisi”, *yurğ* “xoninning o‘g‘il ukasi”, *ini* “erning kichik ukasi”, *ičï* “erning yoshi katta ukasi”, *baldïr oğul// baldïr qïz* “o‘gay o‘g‘il/qiz”, *qaŋsïq ata* “o‘gay ota”, *qaŋsïq oğul* “o‘gay o‘g‘il” (DLT, III, 393), yäznä “katta qiz qarindoshning eri” (DLT, III, 42), *ekäč* “yaqinligi bilan odamlarga xuddi o‘z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz” (DLT, I, 86), *ulïč* “bolalarni sevish, erkalash uchun ishlatiladigan murojaat shakli”, *ulïčïm* “o‘g‘ilcham, qarog‘im”, *atač oğul “*xuddi kattalardek o‘zini ulug‘sifat ko‘rsatuvchi bolaga nisbatan ishlatiladigan birikma” (DLT,I,86), *atač* “otaginam”, *anač* “ona qiz, ya'ni o‘zining ziyrakligi bilan hammaning onasidek hisoblanuvchi yosh qiz”, *ataqï* “otaginam, otajonim” ma’nosidagi mehribonlikni bildiruvchi murojaat shakli (DLT, I, 155). *analadï “*ona’ ma’nosidagi murojaat shakli (DLT, I, 302), *ekäladi* “o‘zidan katta opa yoki akaga nisbatan qo‘llanadigan so‘z (DLT, I, 302), *ökäladi “*nimaningdir kattasi deb atamoq” (DLT, I, 302).

“Devonu lug‘otit turk” tizim ichidagi tizimdir. Lug‘atdagi leksemalar tizimi yaxlit bir semantik maydonni tashkil etadi. Mazkur semantik maydon o‘z ichida bir qator mikromaydonlarni birlashtiradi. Masalan, “Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan “oziq-ovqat” mikromaydoni o‘z ichida quyidagicha guruhlanadi:

1) non mahsulotlari mikromaydoni: *ebäk* “non” (bolalar tilida), *ebmäk* “yag‘mo, tuxsi va ba'zi o‘g‘uz va qipchoqlarda non”, *etmäk // ätmäk* “xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choqda pishiriladigan yegulik”, *quyma* “yog‘li non” [5, 188], *qara etmäk* “pishgan go‘sht ustiga un, yog‘, shakar solinib, bir-biriga aralashtirib tayyorlanadigan non”, *qaqurğan* “xamirga moy qo‘shib tandirda va o‘choqda pishiriladigan non” [DLT, 473], *büškäl* “lochira, yupqa non”, *büskäč “* yupqa non nomi” [DLT, 422], *ïcbïrï* “kulda pishirilib, yoqqa to‘g‘rab, ustiga shakar sepib

yeyiladigan non” [DLT, 159], *kavšak* “qo‘rda pishirilgan non” [5, 416], *qatma* “yog‘da pishiriladigan qat-qat non yoki qatlama” [DLT, 408], *kömäč* “o‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non”, *yuğa* “qat-qat non” [DLT, 34], *samduy* “issiq, sovuqlikda o‘rtacha bo‘lgan, tabiatga yoqadigan taom nomi” [DLT, 258].

2) taom nomlari mikromaydoni: *tutmač* “Iskandar Zulqarnaynga bog‘liq holda ta’riflangan ovqat”, *yazuq et* “ko‘klamda yeyiladigan go‘sht”, *öz* “yog‘”, *özlüg aš* “yog‘lik osh, yog‘lik taom” (DLT, I, 80), *yir* “yog‘”(DLT, I, 313), *sağyağ* “yog‘”, *qoğurmač* “qovrilib tayyorlanadigan ovqat nomi”, qovrilgan bug‘doy (DLT, 1, 454), *arï yağï* “asal”,
uwa “guruchni qaynatib, so‘ng sovuq suv solinib, keyin suvini to‘kib, shakar solinadigan, sovuqlik uchun yeyiladigan taom (DLT, I, 116), *tub* “bug‘doyni suvda qaynatib, arpa xamiri bilan aralashtirib, bir idishga solinib, namatga o‘rab, issiq bir joyga qo‘yib tayyorlanadigan ovqat” (DLT, I, 308), *buxsï* “bug‘doy qaynatilib, unga bodom mag‘zi qo‘shilib xumchaga solinadi, ustiga arpa suvi quyiladi va shu holda qo‘yib achitiladigan taom”, *suqtu* “jigar, go‘sht va turli dorivorlar bilan to‘ldirilib, ichaklarga solinib, keyin qaynatib yeyiladigan go‘shtli ovqat” (DLT, I, 394), *türmäk* “tuxum va go‘shtdan tayyorlanadigan ovqat” (DLT, I, 441), *awzurï* “bug‘doy va arpa uni bilan aralashtirib qilinadigan ovqat” (DLT, I, 162), *küršäk* “tariq, qo‘noqlarning mag‘zini ayirib, suv yoki sutga qaynatib, so‘ng ustiga yog‘ quyib yeyiladigan ovqat nomi” (DLT, I, 443), *bulğama* “yog‘i ham yo‘q, mazasi ham yo‘q yovg‘on osh”, *yürgämäč* “qorin va ingichka ichak ichiga solinib, qizdirilib yoki qaynatilib yeyiladigan ovqat” (DLT, III,64), *qïyma ügrä* “bir xil xamirli ovqat nomi, uni chumchuqlar tili kabi yupqa va qing‘ir qilib kesiladi” (DLT, III,188). Yog‘ “charvi” (DLT, III, 175). Bu so‘z asli “moy ajrat-” ma'nosidagi ya- fe’liga –q qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (ESTY,IV, 59).

3) ichimlik nomlari mikromaydoni: *mandu* “Turklarda uchraydigan sirkaning nomi” (DLT, I, 397), *begni* **“**Arpa, bug‘doy va tariqdan tayyorlangan ichimlik**”** (DLT, I, 408), *bor* “bo‘za”. Sanoch-meshlarga solib, achitib ichiladigan yilqi suti *qïmïz* deb atalgan. Bu so‘z asli “mavjlanmoq, to‘lqinlanmoq” ma'nosidagi *qum-* fe'liga *–(u)z* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan (O‘TEL, I, 547). O‘zbek tilining izohli lug‘atida qimizga quyidagicha ta'rif berilgan: biya sutidan maxsus idishlarda bijg‘itish yo‘li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik (O‘TIL, V, 292).

4) sut mahsulotlari nomini bildiruvchi mikromaydon: *užïtma* “suzma” (DLT, I, 161), *yuğurt* “qatiq, yogurt” (DLT, I, 191), *ibrük* “qatiq bilan sutni aralashtirib hosil qilingan suyuqlik” (DLT, I, 126), *ikdük* “sut va qatiqdan ishlangan, suzmaga

o‘xshash, yeyiladigan ovqat” (DLT, I, 130), *tağna* “suzma bilan aralashtirib, tutmoch oshiga qo‘shiladigan bir turli sassiq kavrak ildizi” (DLT, I, 408).

5) don mahsulotlari nomi mikromaydoni: *tarïğ* “tariq”, *ükür “tariq”, ašlïq* “bug‘doy”, *ögür*, yağ ögüri “kunjut”, *suruš* “doni qotmasdan burun olib, qovrilib yeyiladigan bug‘doy nomi”, *arpağan* “boshog‘i bo‘lsa ham, doni bo‘lmaydigan bug‘doy” [DLT, 157], *burčaq* “loviya” [DLT, 433], *tarmaz* “bodring” [DLT, 426], *yağmur* “sholg‘om”, *yağaq* “yong‘oq” [DLT, 36], *yigdä* “jiyda” [DLT, 37], *awya* “behi” [DLT, 137], *amšuy* “bir xil sariq olxo‘ri” [DLT, 138], *seŋläč* “findiq yong‘og‘i kattaligidagi bir turli shirin olma” [DLT,] *yïmïrtğa* “gulkaram, bodring” [DLT, 439].

6) meva va sabzavot nomlari mikromaydoni: *surmusaq/samursaq* “sarimsoq piyoz”, *armut* “murut”, *soğun// soğan* “piyoz”, yemiš “mevalar, asosan, daraxt mevasi, ya’ni ho‘l meva”.

Xulosa. “Devonu lug‘otit turk” leksikasini semantik maydon asosida tizimlashtirish soha leksemalarini aniqlashda, xalqning nomlash xususiyatlarini tahlil qilishda, milliy-madaniy qadriyatlarning tilda aks etish darajasini yoritishda ahamiyatlidir.

“Devonu lug‘otit turk”da aks etgan eski turkiy tilga xos ijtimoiy hayotni anglatuvchi leksemalar insonlar ongida o‘sha davrda yashagan qadimgi turkiy xalqlarning yashash tarzi, urf-odat va an'analari haqida ma'lum bir tasavvur uyg‘otadi.

Dunyoning turli qismlarida yashovchi xalqlarning ijtimoiy hayoti, yashash tarzi, urf-odati o‘sha xalqlarning joylashish o‘rni, geografik omillari nafaqat uning tiliga, balki dunyoqarashi va xarakter xususiyatiga ham bog‘liq. Masalan, qaysidir mintaqada yashovchi xalq doimiy urushlarni, bosqinchiliklarni ko‘rib doimiy ravishda himoyalangan bo‘lsa, o‘sha xalq uchun betaraflik va yakkalanish oliy qadriyat hisoblanadi. Ya'ni doimiy urushlarni ko‘rgan xalqning genida, dunyoqarashida odamlardan qo‘rquv, ishonmaslik va shubhalanish natijasida inson xarakterida yakkalanish xususiyati namoyon bo‘ladi. Keyinchalik bu xususiyat guruh shaxsiyatiga aylanadi. Boshqa bir mintaqada yashovchi xalqda to‘qnashuvlar kam bo‘lgan, ovqat va ichimlik mo‘l, yurti tinch, shu sababli ham, uning xalqi mehmondo‘st bo‘ladi. U xalqda tabiiy ehtiyojlardan tashqari san'at va madaniyat yuksak darajada rivojlangan bo‘ladi. Madaniyat esa asta-sekin xalq ko‘rinishiga kelib, kengayib, qadriyatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Дадабаев Ҳ. Военная лексика в староузбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981.

2.Дадабаев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари.– Тошкент: ТДШИ, 2017.

3.DLT – Девону луғотит турк I. –Тошкент, 1960.

ESTY –Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. −М.: Наука, 1974−1989.

4.Худойбердиев Ж. Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва “Девону луғотит турк” бўйича яратилган асарлар кўрсаткичи. –Тошкент:Академнашр, 2011. −160 б.

5.O‘TEL –Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент, 2000.

6. O‘TIL –Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006–2008.

HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” MASNAVIYSIDA O‘ZLASHMA QO‘SHIMCHALAR YORDAMIDA YASALGAN LEKSEMALAR IFODASI

Tashmatova Nilufar Choriyevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
“Masofaviy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
tashmatovanilufar10@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110832

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida ifodalangan o‘zlashma qatlamga oid affikslar tasnif va tahlil etilgan. Har bir til so‘z yasash, uni yangi ma’nolarda qo‘llash kabi ichki imkoniyatlaridan tashqari, tashqi omillar ta’sirida, ya’ni boshqa tillardan lisoniy birliklarni qabul qilish orqali ham rivojlanib, boyib boradi. Masnaviy leksikasida ham o‘zlashma affikslar orqali hosil qilingan yasama leksemalar kam miqdorda bo‘lsada ifodalangan.

kalit so‘zlar: *turkiy so‘z, so‘z yasash usullari, o‘zlashma so‘z, o‘zlashma affiks, leksema, masnaviy, prefiks.*

Annotation. In this article, the classification and analysis of affixes related to the process of conversion in the "Gulshan ul-Asror" epic poem by Haydar Khwarazmi, one of the prominent representatives of our outstanding literature who lived and created at the end of the 14th and the beginning of the 15th centuries in Khwarazm, have been presented. Each language word, besides internal possibilities such as word formation and its use in new meanings, also develops and expands under the influence of external factors, that is, by accepting linguistic elements from other languages, through lexical unity. Although the number of derived lexemes created through conversion using affixes in the epic lexicon is relatively small, it is emphasized that they exist.

Keywords: *turkish word, methods of word formation, derivative word, derivational affix, lexeme, poetic, prefix.*

Tilshunoslikda muayyan tilga xos so‘z yasash usullari bilan so‘z yasovchi vositalar yordamida yangi so‘zlar hosil qilish til leksikasining boyishidagi eng yetakchi yo‘llardan biri sifatida talqin qilinadi. Ichki resurslar asosida so‘z

yasashasosantilning o‘ziga xos so‘z yasash usullariga tayangan holda so‘z yasovchi vositalar ko‘magida amalga oshadi[6].

Har bir til so‘z yasashuni yangi ma’nolarda qo‘llash kabi ichki imkoniyatlaridan tashqaritashqi omillar ta’siridaya’ni boshqa tillardan lisoniy birliklarni qabul qilish orqali ham rivojlanibboyib boradi. Albattabu jarayon muayyan til qonuniyatlari asosida amalga oshadi.Jahonda hech bir til yo‘qkiuning lug‘ati faqat o‘z so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lsin. Boshqa tillardan olingan so‘zlar yo o‘sha tilda o‘z shaklini qanday bo‘lsashundayligicha saqlaydi yoki uning leksik tizimitabiatigrammatik qurilishiso‘z yasalishi va imlo qoidalariga uyg‘unlashadi[7].

O‘zbek adabiy tili tarkibidagi so‘zlar tarixiy shakllanishi jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo‘lmaybalki fors-tojikarabmo‘g‘ulrus tillaridanshuningdekuyg‘ur tili orqali xitoy tilidan kirib kelgan leksemalardan iborat. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichiga nazar solsakmazkur so‘zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar bois o‘zlashganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalanfors-tojikcha istilohlar o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashabbir-biri bilan ijtimoiy va madaniy munosabatda bo‘lib kelganligi natijasidaarab leksemalari esaasosankitobiy til va fors-tojik tilishuningdekqisman og‘zaki nutq orqali kirib kelgan.

Bundan tashqarifors-tojik tilidan kirgan ba-be-na-ham-dam- kor- -goh-xoh-parast-ona-purush-gir-soz- band-pazir-vor kabi prefiks va affikslar arabcha va fors-tojikcha so‘zlardan yangi leksemalar hosil qilgan. Biroq bunday o‘zlashmalar juda kamchilikniya’ni 59 tani tashkil etadi

1) be-no- prefiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlarni hosil qiladi bejoh-“martabasiz”<joh-“martaba”bechoravor-“chorasiz holat savdoda singan” <chora-“imkon”besabr nosabr-“sabrsiz”<sabr-“chidam” beusul-“usulsiz” <usul-“usul yo‘nalish”bema’rifat-“ma’rifatsizilmsiz” <ma’rifat-“ilm savod”benazir-“naziri yo‘qtengi yo‘q”<nazir-“o‘xshash”behijob-“pardasiz”<hijob-“parda”beqaror-“qarorsiz”<qaror-“xulosa hukm” besafo-“sofemas”<safo-“yorug‘- lik ravshanlik pok sof” bevosita-“vositasiz”<vosit-“o‘rta o‘rtadagi”bemalol-“malolsiz xijolatsiz”<malol-“og‘rinishnorozi- lik” beranj-“ranjimasdan ranjsiz”<ranj-“mashaqqatqiynalish” beqiyos-“behad behisob cheksiz”<qiyos-“solishtirisho‘xshatishandozao‘lchov” bexabar-“xabarsiz ma’lumotga yega yemas”<xabar-“axborotma’lumot”besipoh-“askarsiz qo‘shinsiz”<sipoh-“qo‘shin

[6] Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси.-Т. Фан2004.-Б.99.
[7] Турсунов У.Ўринбоев Б.Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи.-Т. Ўқитувчи1995.-Б.34.

askar” nomurod-“nochor noiloj<murod-“tilak istak maqsad”noumed-“umidsiz” <umed-“orzu istak”bedast-“qo‘lsiz”<dast-“qo‘l”;

2) -gohxoh- affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar takyagoh-“suyanchiqko‘mak beruvchi” <takya-“ suyanchiqyostiq”uzrxoh-“uzr so‘rashafv so‘rash”<uzr-“kechirim bahona sabab”dastgoh-“uskuna ish quroli” <dast-“qo‘l”taxtgoh-“taxt qurilgan joy podsho yashaydigan shaharpodsho saroyi”<taxt-“podshohning marosimlarda o‘tiradigan maxsus o‘rindig‘i”dardxoh-“dard uyi qayg‘u maskani” <dard-“kasallik og‘riqkulfat”borgoh- “podshoh saroyiqasrpodshoh qabulxonasi”<bor-“ijozat ruxsat izn”;

3) ham- prifiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar hamqadam-“doim birga yuruvchi”<qadam-“oyoq bosimi”hamsoya-“qo‘shnisoyadosh” <soya-“soyako‘lanka”hamnafas-“birga”<nafas-“nafas havo”hamdast-“qo‘ldosh orqadosh birga ishlovchi”<dast-“qo‘l” hamdam-“birga”<dam-“vaqt”hamsabaq-“birga o‘quvchi birga o‘qigan”<cabaq-“hamtabaq-“tovoqdosh bir idishda ovqatlanish”<tabaq-“tovoq ovqat solinadigan idish”hamnishast-“ birga o‘ltiruvchihamsuhbat”<nishast-“o‘tirish cho‘kish” ham- xirqa -“xirqadosh”<xirqa-“shayx va darveshlarning maxsus ust kiyimijanda”hamog‘ush-“quchoqlashgan”<og‘ush-“quchoq”;

4) -ona affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar shohona-“shohonashohlar kabi”<shoh-“shohhukmdor”harifona-“sherikchilikulfatchilik”<harif-“sherik birga ishlovchi ulfat” turkona-“turkiychaturklarnikidek”<turk-“turkiylar” ;

5) dam- prifiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar damsozim-“har vaqt birga bo‘luvchiulfatdo‘st suhbatdosh”<soz-“vaqt”

6) -parast affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar farog‘atparast-“farog‘atga intiluvchi”<farog‘at-“yaxshi yashash rohat”

7) -purush affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar javharpurush-“javhar sotuvchi”<javhar-“qimmatbaho tosh”

8) -gir affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar iqlimgir-“barcha iqlimni zabt etgan (jahongir)”<iqlim-“mintaqa”

9) -soz affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar korsoz (7B-9 Sikkau xutba otidin sarfarozFathu zafar himmatina korsoz.)-“zamonasoz” <kor-“yumush ish”

10) -pazir affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar xizmatpazir-“xizmatga shay”<xizmat-“xizmat yumush”dilpazir-“ ko‘ngilga yoquvchiyoqimli” <dil-“ko‘ngil”

11) -band affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar naqshband-“naqshlijozibali”<naqsh-“naqsh”chashmband-“chachvon chimmat”<chashm-“ko‘z”;

12)-kor affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar parhezkor-“parhezli”<parhez-“parhez”rostkor-“rost so‘zlovchi”<rost-“to‘g‘ri”;

13) -vor affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar murdavor-“murdaga o‘xshasho‘likka o‘xshash”<murda- “o‘lik”umidvor-“umid qilmoq”<umid-“orzu umid”mardvor-“mardlarcha”<mard-“jasur botir”;

14) -kash affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar talabkash-“talab qilish talab qiluvchi”<talab-“so‘rash istash xohish mayl”

15) -dor affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar mevador-“sermeva mevasi ko‘p”<meva-“daraxtning hosili”nigohdor-“boqishli”< nigoh-“boqish qarash”zaxmdor-“yarador”<zaxm-“yara jarohat”;

16) -gor affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar talabgor-“istovchi so‘rovchi”<talab-“so‘rash istash xohish”;

17) -nok affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar dardnok-“dardli xasta”<dard-“kasallik xastalik og‘riq”;

18)-mand affiksi orqali hosil bo‘lgan leksemalar xiradmand- “aqlli dono”<xirad-“aql fikr zehn”sudmand-“foydali naf’li”<sud-“foyda naf’”;

Asar leksikasini o‘rganish mobaynida shu narsa ayon bo‘ldikimasnaviy tilida o‘zlashma lisoniy birliklardan yangi so‘zlar hosil qilishda sifat yasovchi be- va no-prefikslari faol ishtirok etgan. Bu esa o‘z navbatida ushbu qo‘shimchalarning XIV-XV asrlarda sermahsul affikslardan bo‘lganligini ko‘rsatadi. Demakleksik sathning shakllanishi va boyib borish jarayonini kuzatishdao‘zga tillarning turkiy tillarjumladano‘zbek tili rivojida tutgan o‘rnini aniqlashdatildan tashqari – ekstralingvistik omillarni to‘g‘ri belgilashda ko‘hna yodnomalar til xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Haydar Xorazmiy. “Gulshan ul-asror” (Mahzan ul-asror) qo‘lyozmasi. O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37.

2. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан.-Т.: Ўзбекистон, 1994, 1994.

3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.-Т.:Фан, 1985.

4. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили.2-қисм.-Т.:Тошкент давлат педагогика университети,2004.

5. Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси.-Т.: Фан, 2004.

6. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. -Т.: Фан, 1959.

7. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши.-Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.

8. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи.-Т.: Ўқитувчи, 1995.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARIDA MEVA NOMLARINING IFODALANISHI

Muhsinjonova Shirinoy Asliddin qizi,
Muhsinjonovashirinoy27@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110841

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida qo‘llangan meva nomlari hamda ularning lingvistik tadqiqi tahlilga tortilgan. Bundan tashqari, meva nomlarini ifodalovchi leksemalarning etimologiyasi xususida ham so‘z yuritilib, ularning boshqa asarlarda qay ko‘rinish kasb etganligi borasidagi fikrlar ham maqola mazmunidan o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit-turk”, meva nomlari, lingvistik tahlil, etimologiya, qiyosiy tahlil.*

Abstract. This article analyzes the fruit names used in Mahmud Koshgari's "Devonu Lugotit-Turk" and their linguistic research. In addition, the etymology of the lexemes representing the names of fruits is discussed, and the opinions about their appearance in other works are also included in the content of the article.

Keywords: *Mahmud Koshgari, "Devonu Lugotit-Turk", fruit names, linguistic analysis, etymology, comparative analysis.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish orqali tilga tarixiy yondashuv asosida so‘zlarning mazmuniy, madaniy hamda vazifaviy jihatlarini ochib berish mumkin. Asar turkiy so‘zlarning yirik bazasi hisoblanib, har bir leksik ifoda eski turkiy tilda mavjud atamalarning o‘sha davr nuqtayi nazaridan yoritilishida yordam beradi. Ushbu asarni o‘rgangan olimlardan biri S. Rustamora aytganidek: “*Devonu lug‘otit-turk”da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolarning nomlari, urug‘, qabilalarning nomlari, faxriy unvonlar, turli lavozimlarning nomlari, oziq-ovqat, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlarning nomlari, jug‘rofiy atamalar, shaharlar, turli kasalliklar nomlari, anatomik atamalar, metallar va minerallarning nomlari, harbiy atamalar va ma’muriy vazifalarga oid atamalar bor. Turli tarixiy va afsonaviy qahramonlarning nomlari, bolalarning o‘yin va ermaklari va boshqalarga xos atamalarga boyligi bilan hozir zamon kishisiga XI asrda yashagan turklarning*

hayot tarzi haqida ma’lumot beruvchi yagona manba hisoblanadi [Rustamora, 1996:124]”.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida oziq-ovqat mahsulotlariga doir leksemalar ishtirok etgan bo‘lib, xususan, meva mahsulotlariga oid nomlar miqdoran salmoqli. *Yemiš* leksemasi hozirgi o‘zbek tilidagi *meva* so‘zining eski turkiy tildagi ma’nodoshi hisoblanadi. Bundan tashqari, *yemiš [Koshg‘ariy, 2017:327]* so‘zi umumiylikdan xususiylik tomon yondashilgan holda “daraxt mevasi”, ya’ni “ho‘l meva” ma’nosini ham kasb etgan.

“Devon” orqali eski turkiy tilda qo‘llangan xilma-xil meva nomlari bilan tanishishimiz mumkin. Jumladan, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanuvchi *jiyda* mevasi eski turkiy tilda *yigdā* yoki *yigtā* tarzida ifodalangan. Koshg‘ariy bu haqida asarning grammatika qismida ma’lumot beradi: “*Jiydani turklar yigdā desalar, o‘g‘uzlar yigtā deydilar*”.

Erük ham “Devon”da o‘z aksini topgan leksema hisoblanib, unga quyidagicha ta’rif berilgan: *“*shaftoli, o‘rik, olxo‘ri mevalarining umumiy nomi, ular biror sifati bilan bir-biridan farq qiladi”. Ko‘rinib turibdiki, *erük* termini uch meva nomini anglatgan, ya’ni: shaftoli; o‘rik; olxo‘ri.

Ushbu so‘z bugungi kunga qadar biroz shakli o‘zgargan holda yetib kelgan, ya’ni: *erük>o‘rik*. Ammo mazmunda ham biroz o‘zgarish mavjud, ya’ni eski turkiy tilda *eruk* leksemasi uch meva nomining umumiy ko‘rinishini anglatgan (shaftoli, o‘rik, olxo‘ri) bo‘lsa, hozirgi kunga kelib mazmunda torayish yuzaga kelgan, ya’ni faqat *o‘rik* leksemasini ifodalashda davom etmoqda. Shuni ham qayd etish lozimki, lug‘atshunos *erük* termini yordamida uch meva nomining umumiy jihatini aytib o‘tgan bo‘lsa, ularga ma’lum sifatlovchilar berish orqali fitonimlardagi mazmunni farqlashga erishgan, xususan: *tülüg erük [Koshg‘ariy, 2017:41]* – shaftoli; *sarıγ erük [Koshg‘ariy, 2017:41]*– o‘rik; *qara erük [Koshg‘ariy, 2017:41]* – olxo‘ri.

“Devon”da shaftoli mevasining turfa navlari ham birma-bir qayd etib o‘tiladi, ya’ni uning nashvati, olmurut navi *armut [Koshg‘ariy, 2017:79]* leksemasi yordamida aks ettiriladi. Ushbu fitonim etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning o‘rta qipchoq qabilalariga oid ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Fors tilida ham bu leksema mavjud bo‘lib, u *armud* yoki *amrud* kabi ko‘rinishlarga ega ekanligi manbalarga qayd etiladi. Ba’zi ilmiy adabiyotlarga tayangan holda qayd etishimiz mumkinki, ushbu fitonimning ko‘plik shakli eski turkiy tilda *armut* shaklida qo‘llangan. Tushum kelishigidagi formasi esa *armudu* hisoblanadi.

*Amšuy [Koshg‘ariy, 2017:59]*yoki *limkān [Koshg‘ariy, 2017:176]*terminlari olxo‘rining sariq turiga nisbatan qo‘llangan. *Üzüm(16; b43)* leksemasi “Devonu

lug‘otit-turk” asarida ham xuddi shu ko‘rinishda ishlatilgan. Uzum daraxti esa *üzüm yı̈ʏaçı̈ [Koshg‘ariy, 2017:326]* birikmasi tarzida namoyon bo‘lgan. Ushbu so‘z etimologiyasini tadqiq qiladigan bo‘lsak, uning kelib chiqishi qadimgi turkiy tilga borib taqaladi hamda uning bu davrdagi ko‘rinishi *yurum* ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Uyg‘ur tilida ham aynan *uzum* ko‘rinishi qo‘llaniladi. “Devon”da uzumning g‘o‘rasiga nisbatan esa *talqa [Koshg‘ariy, 2017:176]* fitonimi ishlatilgan. Mevaning qora navi esa *mašı̈çı̈ üzüm [Koshg‘ariy, 2017:145]* deb nomlangan.

Yava yoki *yawa* fitonimi nutqda keng iste’molda bo‘lgan tursus mevasining nomiga nisbatan qo‘llanilgan. Behi mevasi asarda *awı̈ya [Koshg‘ariy, 2017:58]* fitonimi yordamida anglashilgan, turkiy xalqlar orasidagi ba’zi shevalarda ham aynan shu so‘z amalda ekanligi qayd etiladi. Behining nordon turi Koshg‘ariy tomonidan *awya* leksemasi bilan yuritilgan hamda muallif bu leksemani quyidagi jumla yordamida dalillagan: *açı̈ʏ awya tı̈šı̈ʏ qamattı̈* - nordon behi va boshqa narsalar tishini qamashtirdi”.

Mahmud Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, *olma* leksemasi eski turkiy tilda ikki xil ko‘rinish kasb etgan, bu holat qaysi turkiy xalqlar nutqida qo‘llanilishiga asoslangan, ya’ni o‘g‘uz tilida ushbu leksema *alma* deb yuritilsa, turk tilida *almı̈la[Koshg‘ariy, 2017:26])* tarzida ifodalangan. Demak, bugungi kunda nutqimizda faol qo‘llanilayotgan *olma* leksemasi o‘g‘uz tilida qo‘llangan bo‘lib, ba’zi o‘zgarishlar asosida bizga qadar yetib kelgan:*alma>olma*. Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham ushbu meva nomi *olma* ko‘rinishiga ega bo‘lgan: “*Barcha yemishlar uch turlidir: birlari olma, nokdek usti yeyilar urug‘i yeyilmas*”. Alisher Navoiy asarlarida ham *olma* shakli faol qo‘llanilgan:

Olmani sundi nigorim, «ol» dedi,
«Olma birla bu ko‘ngulni ol» dedi.
So‘rdum ersa olmasining rangini
«Ne so‘rarsen, olma rangi ol» dedi.

Bundan tashqari, “Devon”da olma turlariga oid nomlar ham qo‘llanilishi bilan ahamiyatlidir, xususan, uning qirmizak, qirmizga o‘xshagan nordon navi *qı̈mı̈z almı̈la[Koshg‘ariy, 2017:147]* funduq yong‘og‘i kattaligicha keladigan, shirin hamda oq, qizil tusga ega olma asarda *senkāçı̈[Koshg‘ariy, 2017:181]* termini bilan yuritilgan. Koshg‘ariy tomonidan olma fitonimi ishtirok etgan maqol ham aks etgan: *Atası̈ açı̈ʏ almı̈la yesā, oʏlı̈ŋı̈n tı̈šı̈ qamar* – otasi achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar.

Hozirgi *yong‘oq* leksemasi eski turkiy tilda *yaʏaq[Koshg‘ariy, 2017:452]*tarzida qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu fitonim ham “Devon” so‘z boyligidan

bevosita o‘rin olgan hamda muallif tomonidan bu so‘z ishtirokidagi gap ham keltirilgan: *yaɤaq anʹŋ̓ tʹilʹn aɤnattʹi* – yong‘oq yeyish uning tilini chaqa qildi, hatto so‘zlashi qiyin bo‘ldi, tutildi. Yong‘oq daraxti esa *yaɤaq yʹiɤaçʹi [Koshg‘ariy, 2017:326]* birikmasi bilan anglashilgan. Boburning “Boburnoma” asarida bu fitonim *yong‘oq* ko‘rinishida qayd ettilgan: “*Tog‘lari tamom Kofiristondur (hozirda Nuriston). Tog‘larida noju (qarag‘ay) va chilg‘o‘za (kedr) va balut (dub) va yong‘oq yog‘ochlari bisyor bo‘lur, o‘simliklari serob*...”.

Armut fitonimi “Devon”da “nok” ma’nosini ifodalagani ta’kidlangan: *yʹiɤaç armutladʹi* – nashvati nok daraxti meva tugdi. Qiziqarli jihati shundaki, asarda “shaftoli” mevasi ma’nosi ham aynan shu fitonim bilan nomlangan. Tut daraxtiga nisbatan asarda *üẑmā̄ [Koshg‘ariy, 2017:65]* leksemasi qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida lakuna holatiga ega, ya’ni tushunchasi mavjud bo‘lgan nomlar ham lug‘atda mavjud. Bu tushuncha *yimšā̄n [Koshg‘ariy, 2017:336]* deb nomlanib, uning izohi quyidagichadir: qipchoq o‘lkalarida pishib yetiladigan sahro mevasining nomi. Hozirgi o‘zbek tilida bu fitonimning aynan ifodasi mavjud emas. Chilonjiyda mevasi “Devon”da *çʹiʹpʹiqan[Koshg‘ariy, 2017:179]*deb yuritilgan.

Qarluq tiliga mansub umumiy ma’noda “quritilgan meva”, xususiy ma’noda esa “o‘rik, uzum va shu kabi mevalarning quritilgani”ga nisbatan *çaxšaq [Koshg‘ariy, 2017:186]* fitonimi ishlatilgan. Bundan tashqari, ayni ma’noni ifodalash uchun *qaq[Koshg‘ariy, 2017:128]*fitonimidan foydalanilgan.

“Devon”dan o‘rin olgan meva nomlari(jadval asosida).

Açʹiɤ awya tʹišʹiɤ qamattʹi	*Nordon behi va boshqa narsalar tishini qamashtirdi*
Alma	*Olma(o‘g‘uzlar tilida)*
Almʹıla	*Olma(turklar tilida)*
Amšuy /limkā̄n	*Olxo‘rining sariq turi*
Armut	*Shaftolining nashvati, olmurut navi. Nok.*
Atasʹi açʹiɤ almʹıla yesā̄, oɤlʹiŋ̓ʹin tʹišʹi qamar	*Otasi achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar*
Awʹiya	*Behi*
Awya	*Behining nordon turi*
Çʹiʹpʹiqan	*Chilonjiyda*
Erük	*Shaftoli.* *O‘rik.* *Olxo‘ri.*

Maš̆ć̆ üzüm	*Uzumning bir xil qora navi*
Qaq	*o‘rik, uzum va shu kabi mevalarning quritilgani*
Qara erük	*Olxo‘ri*
Qı́mı́z almı́la	*Olmaning qimizak, qimizga o‘xshagan nordon navi*
Sarı́ı erük	*O‘rik*
Senkäć	*Funduq yong‘og‘i kattaligicha keladigan, shirin va oq tusga ega bo‘lgan olma*
Talqa	*Uzumning g‘o‘rasi*
Tülüg erük	*Shaftoli*
Üẑmä	*Tut daraxti*
Üzüm	*Uzum*
Üzüm yı́ıaçı́	*Uzum daraxti*
Yaıaq	*Yong‘oq*
Yaıaq anı́ŋ tı́lı́n aınattı́	*Yong‘oq yeyish uning tilini chaqa qildi*
Yaıaq yı́ıaçı́	*Yong‘oq daraxti*
Yava/yawa	*Tursus mevasi nomi*
Yemiš̆	*Meva*
Yemiš̆	*Daraxt mevasi.* *Ho‘l meva.*
Yigdä	*Jiyda(turklar tilida)*
Yigtä	*Jiyda(o‘g‘uzlar tilida)*
Yimš̆än	*qipchoq o‘lkalarida pishib yetiladigan sahro mevasining nomi*
Yı́ıaç armutladı́	*Nashvati nok daraxti meva tugdi*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтабоев Ҳ., Дадабоев Ҳ. Девону луғотит турк, I,II,III жилдлар. – Тошкент: 2006-2008.

2. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко – татарских наречий. I, .СПБ, 1969, II. СПБ.

3. Воҳидов Эркин. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.

4. Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Дадабаев Ҳ., Насыров И., Ҳусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990.
6. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит-турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент: ТДШИ, 2017. - Б. 133.
7. Содиқов Қ. Девону луғотит турк. – Тошкент, 2017.

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILIDAGI VAQT KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TARAQQIYOTI

Mamarajabova Iroda
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110853

Annotatsiya. Maqolada vaqt konsepti kishilik jamiyati tarixidagi eng qadimgi madaniy kodlardan biri sifatida qayd etilib, uning shakllanishidagi omillar keltirilgan. Har bir tilda vaqt konseptini ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi ta'kidlangan, o‘zbek tilidagi vaqt konseptli leksik vositalarning struktur-semantik taraqqiyoti, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati yoritilgan. Vaqt konseptli ayrim leksemalar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida shakliy va mazmun jihatidan o‘zgarishlarga uchragan. Eski o‘zbek adabiy tilida vaqt konseptli o‘zlashma leksemalar faol qo‘llangan. Forscha-arabcha o‘zlashmalardan ichki imkoniyatlar asosida vaqt konseptini ifodalovchi yasalmalar yuzaga kelgan. Eski o‘zbek adabiy tili davridagi vaqt konsepli leksemalarning aksariyati hozirgi o‘zbe k adabiy tilida qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv lingvistika, konsept, vaqt konsepti, madaniy kod, tarixiy taraqqiyot, diniy omil, madaniy omil.*

Abstract. The article notes the concept of time as one of the oldest cultural codes in the history of human society, and provides the factors of its formation. The peculiarities of linguistic means expressing the concept of time in each language are emphasized, the structural and semantic development of lexical means with the concept of time in the Uzbek language, and their connection with the modern Uzbek literary language are highlighted. During the historical development of the Uzbek language, some lexemes with the concept of time have undergone changes in form and content. In the old Uzbek literary language, borrowed lexemes with the concept of time were actively used. As a result of Perso-Arabic assimilations based on internal possibilities, derivative words were created representing the concept of "time". Most lexemes with the concept of time from the period of the old Uzbek literary language are used in the modern Uzbek literary language.

Key words: *cognitive linguistics, concept, concept time, cultural code, historical development, religious factor, cultural factor.*

Kognitiv lingvistikada vaqtning harakat metaforalari o‘rganilgan. Dastlabki ishlar, shu jumladan Klark (1973), Lakoff va Jonson (1980) vaqtni harakatlanuvchi obyekt metaforasi sifatida aniqlash uchun asos yaratdi, keyinchalik harakatlanuvchi

odamlarga (klassik misol, biz Rojdestvoga yaqinlashamiz) va harakat qilish vaqtiga (Rojdestvo yaqinlashmoqda) bo‘lindi. Bu farq bizning vaqtni kelajakdan bizga qarab, so‘ngra bizdan o‘tmishga (harakatlanuvchi vaqt) harakatlanuvchi obyekt sifatida yoki biz o‘tmishdan kelajakka o‘tadigan narsa sifatida massa yoki yo‘l sifatida idrok etish qobiliyatini aks ettiradi (o‘z-o‘zidan harakatlanadi) [Chugunova, 2009:23]. Tadqiqotlarda tilning makon va zamon tushunchalarini ifodalash xususiyatlari yoritilgan [Karasik, 2013]. O‘zbek tilshunosligida vaqt semali birliklar M.Hakimova tomonidan tahlil qilingan [Hakimova,2004]. Vaqt ma’noli abstrakt nomlar o‘rganilgan [Hakimova, 2019].

Kognitiv tilshunoslikda metafora va metonimiya nazariyasi asosan odamlarning kundalik hayotda metafora va metonimiya haqidagi fikrlash tarzini tahlil qiladi. Vaqt dunyo va hayotdagi turli hodisalar mavjudligining uzluksiz ketma-ketligini, taraqqiyot va ketma-ketlikni ifodalovchi, o‘tmishdan kelib chiqib, hozirgi zamondan o‘tib, zamonga yo‘naltirilgan qaytarilmas ketma-ketlikdir.

Turli o‘lchamdagi tarkibiy miqdor sifatida vaqt hodisalar ketma-ketligini, davomiyligini va ular orasidagi intervallarni tasvirlash uchun ishlatiladi, ayniqsa, vaqt tushunchasi material miqdorini o‘lchashda alohida ahamiyatga ega. Vaqt bu uch o‘lchovli bo‘shliq, uzunlik, kenglik va balandlik, fazo esa to‘rtinchi o‘lchov deb ataladi. Fizika va boshqa fanlarda vaqt asosiy o‘lchovdir, ya’ni u boshqa o‘lchovlar bilan ifodalanmaydi, chunki boshqalar tezlik va kuch kabi fundamental o‘lchovlar bilan ifodalanadi (xususan, bu holda, keyingi asosiy o‘lchovlar vaqt va makon deb ataladi). Fanda zarur va mumkin bo‘lgan operativ ta'rifdan foydalaniladi o‘lchash uchun ishlatiladigan va tanlangan o‘lchov birligiga ega bo‘lgan vaqt. Faylasuflar orasida vaqt haqidagi ikki xil qarash mavjud.

Birinchisiga ko‘ra, vaqt koinot tuzilishining asosiy qismi, hodisalar ketma-ketligining o‘lchovidir. Bu Isaak Nyuton realistik nuqtai nazari, shuning uchun u Nyuton vaqti deb ham ataladi. Qarama-qarshi nuqtai nazarga ko‘ra, vaqt aqliy tuzilmaning asosiy qismidir (fazo va raqamlar bilan birga), uning yordamida odamlar hodisalarni tartibga soladi va taqqoslaydi. Gotfrid Leybnits va Immanuil Kant an'anasi bo‘lgan bu ikkinchi qarashga ko‘ra, vaqt o‘tuvchi, oqayotgan substansiyaga tegishli emas yoki hodisalar uchun idish bo‘la oladi va o‘zini o‘lchab bo‘lmaydi. Texnologlar va olimlar davriy vaqtni o‘lchash bilan shug‘ullanishgan va astronomiya asosiy tadqiqot obyekti bo‘lgan. Davriy hodisalar va davriy harakatlar uzoq vaqtdan beri standart vaqt birliklari sifatida ishlatilgan.

Vaqt insoniyat tarixidagi madaniy kodlardan biri bo‘lib, uning shakllanishi, kishilik jamiyati ongida yuzaga kelishi lisoniy ong shakllangan eng qadimgi

davrlarga borib taqaladi. Vaqt masalasiga doir tadqiqotlar, falsafa, mantiq ilmiga oid izlanishlarni tahlil qilish natijasida vaqt konseptining shakllanishidagi quyidagi omillarni ajratdik:

1. **Diniy omil.** Insoniyat tarixining ilk bosqichlaridayoq vaqtni yuzaga kelishi, baholanishi, uning ko‘rinishlarini tahlil qilish ilohiylashtirilgan. Sharq ilmida vaqt talqinlarining ilmiy asoslari va amaliy tahlillari Qur’on oyatlarida ko‘zga tashlanadi. G‘arb ilmi vaqtni ilohiylashtirib, alohida ma'budlarga bog‘lagan.

2.**Dunyoviy omil.** Tabiat fanlari, fizika, aniq fanlarning rivojlanishi vaqtning analizi, sintezi, vaqt me'yorlari, vaqt o‘lchamlari va vaqtni bildiruvchi o‘lchov so‘zlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Vaqtni osmon jismlari harakatiga bog‘lash astronomiya ilmining shakllanishiga zamin yaratdi. Burjlar, quyosh, oy kalendarlari haqidagi qarashlar yuzaga keldi. Bu jarayon til birliklarida hozir ham saqlanib qolgan bo‘lib, oy holatiga asoslangan nomlarda ham burjlar nomlanishida ko‘zga tashlanadi. Vaqtning siklli, chiziqli ko‘rinishlariga doir fikrlar aynan shu omilga asoslangan.

3. **Makon va vaqt birligi omili.** Makon hamda vaqt yaxlitlikda olib qaralgan va hamma narsaning mavjudligi uchun asos sifatida tavsiflangan. Narsa-buyumlar makonda o‘z shakl va sifatlarini namoyon qiladi, hodisalar esa vaqt ichida sodir bo‘ladi, davom etadi. eng qadimgi falsafiy an'analarga ko‘ra makon va vaqt bir-biriga uzviy bog‘liq ikki dunyo sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda odamlarning aksariyat hollarda vaqtni makon tajribasi orqali tushunishlari qayd etilgan.

4.**Madaniy omil.** Vaqt mavhum hodisa bo‘lib, uni xalqlar turlicha reallashtirishga harakat qilganlar. Vaqtning aniq narsa-buyum, voqea-hodisa, kuzatish mumkin bo‘lgan jarayonga qiyoslanishi barcha xalqlarda kuzatiladi va shu jihatdan universallik hosil qiladi. Ammo qaysi narsa-buyum, tabiat hodisasi yoki ashyoga qiyoslash, tasavvur qilish madaniyatlarning o‘ziga xos yondashuvini va bahosini belgilaydi.

5.**Shaxs omili.** Inson vaqtni tasavvur qilar va baholar ekan, uni o‘ziga xos tarzda idrok qiladi va baholaydi. Vaqt konsepti shakllanishidagi shaxs omili buyuk mutafakkirlar ijodi, bahosi, hikmatli so‘zlarida o‘z ifodasini topadi. Bu omila bevosita madaniyat omiliga bog‘liq, lekin shaxs idroki, tafakkur darajasi, dunyoqarashi jihatidan farqli belgilarni hosil qiladi.

Vaqt konsepti har bir tilning o‘ziga xos lingvistik vositalari bilan ifoda etiladi. Shulardan eng faoli leksik vositalardir. Xususan, ozbek tilida vaqt konseptini ifodalovchi 300ga yaqin leksik birlik mavjud bolib, ular tilning taraqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Eski o‘zbek adabiy tilidagi *vaqtsïz* “bevaqt, bemavrid”, *vaqtxüš* “xursandlik, xushvaqt”, *dahr* “zamon, davr; dunyo, olam”, *zamonlıγ* “paytlik, fursatlik”, *čarx* “davr, zamon”, *abad* “cheksizlik, davomiylik, nihoyasizlik, so‘nggi yo‘q zamon, yo‘qlik” *barmahal* “barvaqt, o‘z vaqtida, tez”, *čoq// čoğ* “davr, zamon; vaqt, fursat, dam”, *abušqa* “qariya, keksa”, *sobiqan* “ilgari, burun”, *bargrez* “qarilik, *fartut* qari, juda qari, *abob* yoshlik, yigitlik, abobiy yoshlikka xos, *šayba* qarilik, keksalik, *ab* kecha, tun, *abiston* kecha qorong‘uligi, qorong‘u tun, *abona* kechasi, kechalik, *zuhr* kunning o‘rta vaqti, *zuhur* namoyon bo‘lish, paydo bo‘lish, *o‘liq vaqti* g‘alla (oshliq) yig‘ini davri, *zavol vaqti* kunning botish payti, *arqun* chegarasi aniq zamon, *kelgu* kelasi zamon, *kelig* kelasi zamon, *tun aqom* kechqurun, *tunakun* o‘tgan kuni, *govgum* namozi digar va namozi shom orasidagi vaqt, *subh* tong, tong payti, *subhgah//subhgoh* subh payti, tong chog‘i, tongotar payti, *subh savbi* tong to‘ni, tongning qoramtir pardasi, tong otish payti, *subh jöybari* tong daryosi; yorug‘liq: *subhhez* tong, yorug‘lik keltiruvchi; quyosh, oftob, *falaq* tong yorug‘ligi, subhidam, *abado* doimo, hamisha, *avvalan* “birinchidan, dastlab, boshdan, avvalda, dastlabki vaqtda:, *avvalin* oldingi, avvalin va oxirgi-oldingi va so‘nggi; boshlanish va tugallanish, *avvaliyat* ilgarilik, birinchilik; azaliy borliq”:, *sobiqan*“ilgari, burun”:, *bamdadan* “tong, ertalab, sahar”, *taŋla* “toŋda, ertalab; ertaga”, *taŋlağı* “ertangi”, *taŋlalıq* “ertalik, ertangi kunga tegishli”, *odina* ”juma kuni” leksik birliklari hozirgi kunga kelib arxaiklashgan.

“Vaqt” konseptini ifodalovchi *avvalaqam* kechqurun, tun boshlanish payti, *zulhijja* hijriy yilning o‘n ikkinchi oyi, *a:bon* hijriy yilning sakkizinchi oyi, *zulqa:da* hijriy yil hisobidagi o‘n birinchi oy, *daha* bir daha-o‘n kun (dekada) kabi leksik birliklar hozirda so‘zlashuv nutqi va ayrim shevalarda qo‘llanadi.

Doimği//doyimği, “doimgi”, *haftaliq* “yetti kunlik muddat” kabi leksemalar fonetik, morfonolik o‘zgarishlar bilan ishlatiladi.

Semantik: vaqt, vaqtlïğ “muddatlik, paytlik, fursatlik, ko‘p yillik”, *kechalik* “bir kunlik muddat”ni

Paškol “yomg‘ir mavsumi” *pos* kechaning bir qismi kechaning sakkizdan biri *Pahr* bir kecha kunduzning sakkizdan biri, uch soatli vaqt, *Giriy/gari* 22 minut 10 sekundga teng keladigan vaqt o‘lchovi

Davr, davron zamona falak, taqdir”: *abadiy* “doimiy, hamishalik”: *doimiy – bardavom* “doimiy, doimo; *barqaror* “turg‘un, qat’iy, qaror topgan; doimiy”: *bevaqt* “bemahal, bemavrid” *chilla:* “qirq kunlik muddat”ni bildiradi: *sobit* “sobit, barqaror”: *muhlat* “muhlat, fursat”, *avval* “birinchi, ilk, boshlang‘ich, ibtido, bosh”, *avvalgi barvaqt* “erta”: *soat* arabcha “o‘lchovli, 60 daqiqalik vaqt”, *hafta, toŋ tun*

“kecha” *ibtido* “boshlanish”, *lahza* “dam”, “qisqa muddat” *charx* “aylanish”, “davr”: *kecha* “kechqurun, tun”, *azal, azaliy, qadim, qadimiy* leksemalari hozirda aynan qo‘llanadi.

Eski o‘zbek adabiy tilidagi “vaqt” konseptli leksemalarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabati

Eski o‘zbek tildagi leksemalar	Arxaiklashgan leksemalar	Fonetik o‘zgarishga uchragan	Semantik o‘zgarishga uchragan	Ayni shakl va ma’nolarda qo‘llanadigan
83	53	3	3	24

Davr falak, taqdir”: *abadiy* “doimiy, hamishalik”: *doimiy – bardavom* “doimiy, doimo; *barqaror* “turg‘un, qat’iy, qaror topgan; doimiy”: *bevaqt* “bemahal, bemavrid” *chilla:* “qirq kunlik muddat”ni bildiradi: *sobit* “sobit, barqaror”: *muhlat* “muhlat, fursat”, *avval* “birinchi, ilk, boshlang‘ich, ibtido, bosh”, *avvalgi barvaqt* “erta”: *soat* arabcha “o‘lchovli, 60 daqiqalik vaqt”, *hafta, toη tun* “kecha” *ibtido* “boshlanish”, *lahza* “dam”, “qisqa muddat” *charx* “aylanish, davr: *kecha* “kechqurun, tun”, *azal, azaliy, qadim, qadimiy* leksemalari hozirda aynan qo‘llanadi.

Eski o‘zbek tilidagi *avvalaqšam, daha* leksemalari Samarqand, Qashqadaryo qipchoq guruhi shevalarida faoldir.

Eski o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llangan “vaqt” konseptli leksemalar XVII – XIX asr manbalarida ham kuzatiladi:

Čarx “aylanish”, “davr”: *Rutbayi johi charxdin ötubon,*
öylakim, mehri sarbaland bölur [Ogahiy, 2019:27].

Eski o‘zbek adabiy tilidagi “vaqt” konseptli ayrim leksemalar hozirgi o‘zbek tilida semantik jihatdan farqli ravishda qo‘llanadi. Masalan, *vaqt* leksemasi “zamon, davr; payt, umr, fursat” ma'nolarida faol qo‘llangani kuzatildi. Bu leksema quyidagi ma'nolarda qo‘llangan: 1) “muddat” ma'nosini ifodalagan: *Bir lahza ötgandin söηra xud söz ayturning vaqti ötti* (Xamsatul-mutahayyirin, 155-24);

2) “umr” ma’nosida kelgan:

Navoiy, vaqtni toatqa yo išratqa sarf etkim,
Soğinsam örtanurman tiyra ötkargan zamonimdin (Xazoyinul-maoniy, 1b-511);

3) “muddat, muayyan vaqt” ma'nosini anglatgan: *Har kun iki vaqt edi yiğilmoq* (Layli va Majnun, 94b7); 4) “fasl, mavsum” ma'nosida kelgan:

To qišda sovuğ tabğa matlub bölğay,

To ayš sovuğ vaqtda marğub ölgay (Hayratul-abror, 190-15) [Navoiy, 1983:368].

Eski o‘zbek adabiy tilidagi “vaqt” konseptli leksemalarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabati

Eski o‘zbek tildagi leksemalar	Arxaiklashgan leksemalar	Fonetik o‘zgarishga uchragan	Semantik o‘zgarishga uchragan	Ayni shakl va ma’nolarda qo‘llanadigan
83	53	3	3	24

Vaqt hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi (O‘TIL, 1, 448). *Vaqt* temporal leksemasining semantik doirasi hozirgi o‘zbek adabiy tiliga kelib kengaygani kuzatiladi. Bu esa leksemaning ma'lum muddatlardan so‘ng lesemalarning, xususan, o‘zlashma leksemalarning yangi ma'no hosil qila borishini ko‘rsatadi. O‘z navbatida ayrim semalarning iste'moldan chiqishi yoki kam kuzatilishini ham ko‘rsatadi. Eski o‘zbek adabiy tili davrida *vaqt* leksemasining “umr” semasi hozirda kam ishlatiladi.

Eski o‘zbek adabiy tilida *vaqt* leksemasidan yasalgan *vaqtlïğ, vaqtsïz- vaqtxush* lug‘aviy birliklari “vaqt” konseptining turli qirralarini ifodalashga xizmat qilgan:

Vaqtlïğ “muddatlik, paytlik, fursatlik, ko‘p yillik” ma'nolarida qo‘llangan: *Bu faqirning muncha vaqtlïğ sa’y va emgagini va uzun yillar tortgan riyozatingni nafsi šum havosi va fe’li mazmum muqtazosi bila zoe qilding* (Munshaot, 155).

Vaqtsiz “bevaqt, bemavrid” ma'nosini ifodalagan: [Riyokor mashoyixlar] *mahalsiz sayhasi bağoyat sovuq, andoqki vaqtsiz un tortqan tovuq* (Xamsatul-mutahayyirin, 699).[Navoiy,1983:368].

“Xursandlik, vaqtixush, vaqtichog‘, xushvaqt” ma’nosi *vaqtxush* leksik vositasi orqali ifodalangan: *Shayx bir bayt öquğach imomqa vaqtxush bölib, vajd yuzlanib simo turdi* (Xamsatul-mutahayyirin, 699) [Navoiy, 1983: 368].

Eski turkiy til davrida “vaqt” ifodalovchi so‘zlarning aksariyati turkiy qatlamga oid bo‘lib, bu davr manbalarida ayrim arabcha so‘zlarning uchrashi shu tilga doir o‘zlashma qatlamning kirib kelish jarayoni haqida ma’lumot beradi.

“Vaqt” konseptini ifodalovchi forscha-tojikcha so‘zlarning eski turkiy til davrida faol emasligi kuzatildi. Eroniy xalqlar turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan bo‘lsa-da, bu tilga oid xususiyatlar o‘zbek tilida ko‘p uchrashiga qaramasdan, “vaqt” konseptini ifodalovchi forscha-tojikcha so‘zlar, deyarli uchramaydi. Buni turkiy leksemalarning eski turkiy til davrida faolligi bilan izohlash mumkin.

Eski o‘zbek tili davrida forscha-tojikcha so‘zlar bilan bir qatorda arabcha so‘zlarning faol qo‘llanishi, turkiy leksemalarning kam iste’molda bo‘lganligi kuzatildi. Bu holat eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tili lug‘at boyligidan keng o‘rin olganligini ko‘rsatadi.

Eski o‘zbek tili davrida “vaqt” bildiruvchi turkiy so‘zlar iste’moldan chiqa boshlagan. Bu xususiyat XX asarlar boshlariga qadar bo‘lgan manbalarda aks etgan.

XX asr boshlarida rus tili orqali rus va rus-baynalmilal so‘zlari kirib kelgan. Turkiy oy nomlari, ayrim arabcha nomlar shevalarda saqlanib qolgan.

“Vaqt” konsepti leksik-grammatik sathda otlar, olmoshlar, fe’llar, ravishlar, modal so‘zlar, bog‘lovchilar, ko‘makchilar, yuklamalar orqali ifodalangan. Undov va taqlid so‘zlar “vaqt” konseptini turli struktur-semantik xususiyatlar orqali aks ettiradi.

Tarixiy “vaqt” semali birliklarning turkumlar aro tadqiqi dastlab, payt otlari, ravish so‘z turkumi, keyin sifat va yordamchilar hamda fe’l so‘z turkumlarida faol kuzatilishi aniqlandi.

“Vaqt” leksemasining semalarini “narsa”, “harakat”, “davomiylik”, “o‘lchanuvchan”, “ketma-ketlik”, “fasl, kunlardagi almashinuv” kabilar tashkil etadi.

Vaqt ma’noli temporal maydon birliklarining har biri turli darajalarda matn shakllantirish imkoniyatlariga ega.

Payt-zamon ma’nosini ifodalovchi vositalar bir necha funksiyalari bilan matn shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Matndagi vaqt kontiniumi – voqea-hodisalarning izchil, xronologik ketma-ketligini bildiradi; matndagi voqealarning vaqtini bildiradi: fe’l zamon formalari voqea-hodisalarning umumiy o‘tgan, hozirgi, kelasi zamonga tegishliligini anglatsa, “vaqt” ma’noli leksemalar aniq muddatni belgilaydi. Fe’lning zamon shakllari ko‘chma ma’noda qo‘llanganda, atov gapli matn turlarida “zamon” tushunchasi vaqt ifodalovchi leksik birliklar orqali anglashiladi.

“Vaqt” semasining tarixiy ko‘rinishlarini o‘rganish orqali, turkiy til taraqqiyotining turli davrlaridagi til aspektlarining bir -biriga munosabati, fonetik farq va o‘zgaruvchanlik, leksemalarnig ma’no kengayishi va torayishi, leksemalarning morfemik qayta tuzilishga ta’siri, “vaqt” semali birliklarning paradigma hosil qilshi va morfemik bo‘linishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент, 1983.

Карасик В. И. Языковая матрица культуры / Науч. -исслед. лаб. «Аксиол. лингвистика». – М.: Гнозис, 2013. – 319 с.

2.Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Гулшани давлат. –Тошкент, 2019.

3. Чугунова С.А. Экспериментальное исследование концептуализации времени с позиций корпореального подхода. –М., 2009.

4.Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Филол. фан. номз. …д и с с. – Фарғона, 2004. – 136 б.

5.Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. док.-ри (DSc), д и с с. – Тошкент, 2019. – 230 б.

6. Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчили формалар // Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 1988. — №. — Б. 47- 51; Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Филол. фан. номз...дисс.— Фарғона, 2004. — 136 б.

7.Sayfullayeva va b. Hozirgi ozbek adabiy tili. —Toshkent, 2010; Эрматов Ф. Хронология ва метрология. —Термиз, 2017;Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филол. фан. д-ри (DSc) ...дисс. автореф. —Тошкент, 2020. —71 б.; Болтақулова Г. Инглиз ва ўзбек тилларида темпораллик ва унинг дейктик хусусиятларининг қиёсий-функционал тадқиқи. Филол. фан. б. фалс.д-ри (PhD)...дисс. автореф. —Тошкент, 2019. —22 б.

8. Аюпова С.Б. Категории пространства и времени в языковой художественной картине мира (на материале художемтвенной прозы И.С.Тургенева). Автореф. дисс…д-ра филол. наук.—Уфа, 2012. —С.34.

9. Морковкин В.В. Словарь структурных слов русского языка (в соавторстве). — М., 1997.Словарь сочетаемости слов русского языка (в соавторстве). 3 издания, 2002.

10. Кошевая Инна Георгиевна. Проблемы языкознания и теории английского языка. Грамматический строй современного английского языка. Теоретический курс. – М.: Либрокомг. 2019. – С. 178

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” VA XORAZM O‘ZBEK O‘G‘UZLARI LEKSIKASINING QIYOSIY TAHLILI

Aralova Lobar Akbar qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
tayanch doktorant
akbarovalobar833@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110853

Annotatsiya. Xorazm shevalari leksikasining negizini asl turkiy tillarga xos bo‘lgan qatlam tashkil qiladi. Ma’lumki, qadimgi turkiy til manbasi bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk” asaridagi leksemalar o‘g‘uz shevalarida eng ko‘p saqlanib qolgan. Shu bois, mazkur maqolada asar leksikasining Xorazm o‘g‘uz lahjasiga munosabati tadqiq etildi. O‘g‘uzcha so‘zlarning ma’nosidagi o‘zgarishlar, ularning etimologiyasi haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: *o‘g‘uz, qadimgi turkiy til, sheva, fonetik o‘zgarish, semantik o‘zgarishlar, til tarixi.*

Annotation. The basis of the lexicon of Khorezm dialects is the layer charasterestic of the original Turkic languages. It is known that lexemes from the work “Divan Lughat al-turk” which is the source of the ancient Turkic language, have been preserved most in the dialects of the Oghuz group. Therefore, in this article, the relationship of the lexicon of the work to the Khorezm Oghuz dialect was studied. Changes in the meaning of Oghuz words and their etymology were discussed.

Key words: *Oghuz, ancient Turkic language, dialect, phonetic change, semantic changes, language history.*

Muayyan jamiyat yoki davlat hayotidagi evrilish-o‘zgarishlar, eng avvalo, tilning lug‘at zaxirasida aks etadi, ya’ni jamiyat va til, umuman xalq va til o‘rtasidagi izomorfizm aynan lug‘atda o‘zining bevosita va konkret tajassumini topadi [Маҳмудов, 2017:27].

Yillar davomida jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar uning leksik qatlamiga ham ta’sir etmay qolmaydi. Natijada tillardagi ba’zi so‘zlar eski qatlam so‘zlariga aylanishi, iste’moldan chiqishi yoki yangi leksema bilan almashinishi mumkin. “Til doim harakatda, u doim o‘zgarib turadi. Tilning barcha qatlamlari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) yillar davomida kengayib, takomillashib

boradi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalar yangi lisoniy birliklar ko‘rinishida qo‘shilishi mumkin. Yoki yillar davomida foydalanilgan birliklar vaqt o‘tib eskirishi, iste’moldan chiqishi mumkin. Bu tabiiy ko‘rsatkich, tilga xos xususiyat sifatida baholanadi” [Юсупова, 2021:55]. Bunday semantik o‘zgarishlarni tadqiq qilish til tarixi va uning rivoji to‘g‘risida muhim xulosalar berish imkonini beradi. H.Dadaboyev aytganidek, “turkiy (o‘zbek) tilining shakllanish va rivojlanish dinamikasini o‘zida ro‘y-rost aks ettirgan ko‘hna yodgorliklar til xususiyatlari, ularda in’ikosini topgan turfa fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik jarayonlarni anglamay, ularning mohiyatini tushunmay turib, hozirgi o‘zbek adabiy tilining statik holati to‘g‘risida biror jo‘yali mulohaza yuritish amri mahol” [Дадабоев, 2019:267].

“Devonu lug‘otit turk” asarida izohlangan aksariyat so‘zlar hozirgi kunda o‘zbek tilining lahja va shevalarida asl holida yoki ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanmoqda. Jumladan, Xorazm shevalari leksikasida hozirgi adabiy tilimizda uchramaydigan, lekin qadimgi yozma yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan ayrim so‘zlar ishlatiladi: **arïğ** (toza); **a:siğ** (foyda); **aru** (chiroyli); **qat –** qavat (xona, bo‘lma).

Shuningdek, **mənzəmək, gizləmək, yaqtu** kabi ko‘pgina so‘zlar klassik adabiy tilimizda uchraydi. Ba’zi bir misollarni keltiramiz:

Yaqtu – yorug‘:

Iki yoqtu guhar olamga bergan,

Muhabbat ganjini odamg‘a bergan (“Muhabbatnoma”).

Asïğ – foyda:

Ki men dur tishlaring hajridin o‘ldim, ne asig‘ gar charx,

Nujum ashkini yog‘dirsa boshimga o‘ylakim jola.

Arïğ – pok:

Ko‘ngli ko‘z qonidin arïğ gar bo‘lur ermish yuzi,

Oshiqe kim ko‘zu ko‘ngli har g‘arazdin pok emish. (Alisher Navoiy. “Kulliyot”, Toshkent, Il’in tipografiyasi, 1899-yil, 65 va 123-betlar) [Абдуллаев, 1961:139].

“Devonu lug‘otit turk” asari leksikasining Xorazm o‘g‘uz lahjasiga munosabatini o‘rganar ekanmiz, tilning leksik sathida davrlar o‘tishi bilan turli xil o‘zgarishlar sodir bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Devonu lug‘otit turk” asarida **quv** so‘zining **quğu** fonetik variantini uchratamiz. B.Abdushukurovning ko‘rsatishicha, bu termin dastlab O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida uchragan: *er quğu qušqa soquštï* – er oqqush bilan to‘qnash keldi [ДТС, 464]. XIV asrga doir turkiy manbalarda **qu, qavu** [ХШ,28б3], **ququ** [ХШ,73а20] shakllari ko‘zga tashlanadi:

Havā üzrä berür šunqarğa qunï [Мн,290б5]. Jamoliddin Turkiyning “Kitob ul-bulg‘at” risolasida **quv** shakli qayd etilgan [Абдушукуров, 2018:34]. Hozirda Xorazm o‘g‘uz shevasida **quv** [ЎХШЛ, 1971:165] o‘zining tub ma’nosida qo‘llanilib kelinmoqda. Bu termin klassik adabiy tilimizda ham xuddi shu ma’noda uchraydi:

Havo uzra berur shunqorg‘a quvni,

To‘lin oydek qilur bir qatra suvni (“Muhabbatnoma”) [Абдуллаев, 1961:139].

Ekinzorlarga zarar keltiruvchi, to‘g‘ri qanotlilar turkumiga mansub hasharot – chigirtka leksemasi “Devonu lug‘otit turk”da **čəgürkä** tarzida kelgan va Mahmud Koshg‘ariy ushbu so‘zni o‘g‘uzcha ekanligini aytib o‘tgan. “Turklar bu so‘zni uning uchmasdan oldingi holiga qo‘llaydilar. Ko‘p bolalar va askarlar shunga o‘xshatiladi: *čəgürkä tak su* – chigirtkadek ko‘p askar [ДЛТ, I, 317]. Bu so‘z Xorazm o‘g‘uzchasida **chəvurtkə** tarzida talaffuz qilinadi [Абдуллаев, 1961:117].

“**Susğaq** – suv va suv kabi narsalarni botirib oladigan asbob. Qarluq, qipchoq va butun ko‘chmanchilar tilida shunday” [ДЛТ, I, 437]. Hozirgi kunda Urganch, Xiva, Xonqa hududlarida **susaq**, Hazoraspda esa **su:saq** kabi fonetik variantlari iste’molda faol ishlatiladi. Ushbu leksema **“cho‘mich”** ma’nosini bildiradi: *kəmpir itni susaq vilən qarsəttirib urïptï* (Xiva) [ЎХШЛ, 1971:242].

O‘zbek adabiy tilida “suruv – poda; “mol podasi” ma’nosida qo‘llaniladi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli **sürüg** tarzida [ДС, 518] talaffuz qilingan; keyinroq so‘z oxiridagi **g** undoshi **k** undoshiga, undan keyin **k** undoshi **v** undoshiga almashgan; o‘zbek tilida **ü** unlilarining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: **sürüg** > **sürük** > **sürüv** > **suruv** [ЎТЭЛ, 309]. “Devon”da “**sürük** – har qanday hayvon to‘dasi”ga nisabatan ishlatilgan [ДЛТ, I, 370]. Navoiyning asarlarida **suruk** so‘zi odamlar to‘dasiga ham qo‘llanadi. Navoiy o‘z asarlarini yana ham yaxshi yoza olishiga vaqti yo‘qligini yozganda shu so‘zni qo‘llagan:

Bir suruk, albatta, qo‘yib ketmayin,

Toki burun ikki suruk yetmayin.

(Bir to‘da odamlar ketmasdan oldin, albatta, ikkinchi to‘da yetib kelar, vaqt shuncha tang edi) [ДЛТ, I, 370].

Hozirgi kunda ushbu so‘zning Qashqadaryo qarluq tarmog‘ida “**sürüg** – guruh, to‘da”, Xorazm janubiy o‘g‘uz shevasida **“sürik / süri”** ko‘rinishlari mavjud (ЎХШЛ, 1971:244). Xorazm hududida ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1. To‘da, to‘p: *өyimizə buyun bir suri me:malla gəldi*; 2. Qo‘y podasi: *kəmpir gechchisini birchopanni surisinə qoship qoyganəkən* [Абдуллаев, 1961:84]. Ko‘rinib turibdiki,

hozirgi kunda ushbu so‘zning har ikki ma’nosi tilimizda keng iste’foda etib kelinmoqda.

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atidagi ma’lum bir so‘zning o‘zak ma’nosi hozirgi sheva so‘zlari tarkibida saqlanib qolganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “**küpig / köbik** – chopon qavish”, “*ol ton kübidi:* u iyim tikdi (matodan ikki qatlam qilib, orasiga paxta qo‘yib (tikdi)” [ДЛТ, I, 387]. O‘zbek qarluq shevalarida va Xorazm o‘g‘uzchasida “**guppi** – qisqa paxtalik chopon” ma’nosini bildiradi [ЎХШЛ, 1971:71].

“**Sariğ** – sariq, hamma narsaning sariqligi [ДЛТ, III, 355]. Ma’lumki, o‘zbek adabiy tilida sariq, qipchoq va o‘g‘uz shevalarida **sari** deb ishlatiladigan bu so‘z Buxoro qarluq tarmoqlarida **sarig‘** ko‘rinishida eski turkchaga yaqin qo‘llaniladi.

Biror buyumning o‘tkirligini ifodalash uchun qadimgi turkiy tilda **“yitig”** atamasi qo‘llangan. **Jitig** – o‘tkir, qayralgan. *Jitig bičäk* – o‘tkir pichoq: qilich va qilichga o‘xshash o‘tkir narsalarning hammasiga ham bu so‘z qo‘llanadi [ДЛТ, III, 25]. Xorazm o‘g‘uz shevasida “**yitti** – g‘oyat, juda” ma’nosida ishlatiladi. [ЎХШЛ, 1971:71]. G‘.Boboyorovning ta’kidlashicha, Buxoro o‘g‘uzlarining Qorako‘l shevasida “**ittik**-o‘tkir”, Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz tumanidagi Ammog‘on qishlog‘ining qarluq shevasida “**ittik** – o‘tkir (tig‘ va qalampir haqida)”, Qirg‘izistondagi O‘sh o‘zbek qarluqchasida bu so‘z “o‘tkir, keskir” ma’nosida ishlatiladi [ЎХШЛ, 1971:133; Жўраев 1969, 134] [8]. Qashqadaryo viloyati qipchoq lahjasida “**itik** – o‘tkir tig‘li, keskir (pichoq)” ko‘rinishida saqlanib qolgan [Нафасов, 2011: 126].

“**Qag‘un** - qovun” [ДЛТ, I, 388]. Janubiy Qozog‘istondagi Turkiston-Chimkent shaharlari oralig‘ining qarluq – o‘g‘uz aralash Iqon qishlog‘i o‘zbek shevasida **“qag‘:un”** qovun ko‘rinishidadir (ЎХШЛ, 1971:158).

“**Temän:** *temän yignä***:** katta nina” [ДЛТ, I, 381]. Bugungi kunda bu so‘z qirg‘izcha va turkmancha “**temen**”, qozoqchada “**teben**” ko‘rinishida saqlanib qolgan [Eratala, 2019:1774]. Bu so‘z o‘zbek tilining ko‘proq qipchoq va qisman qarluq shevalarida **“tebänä”** (“tövänä”, “tögänä”, “tebän-iynä”), o‘zbek o‘g‘uzchasida esa **“tämän”** kabi ko‘rinishlarga ega [ЎХШЛ, 1971:255; Абдуллаев, 1961:86].

Narsa-buyumlarning yo‘qolishiga nisbatan qadimgi turkiy tilda **“jitük”** atamasi qo‘llanilgan. “Devon”da shunday izohlangan: *jitüklig anasï qojun ačar* – narsasini yo‘qotgan (odam) onasining qo‘ynini ham ochar, qaraydi. Ya’ni narsa yo‘qotgan kishi bunga haqli, bunda uzli, demakdir [ДЛТ, III, 25]. Hozirgi kunda

Xiva aholisi nutqida **yitirmək**, Buxoro hududida **yitmoq, yitirmoq** kabi so‘zlar xuddi shu ma’noda ishlatiladi [ЎХШЛ, 1971:133].

“**Yandaq tikän** – yantoq tikan” [ДЛТ, III, 248]. O‘zbek adabiy tili va shevalarida “yantaq, yantaq-tikan” so‘zlari shu ma’noda ko‘rinsa-da, ayrim qishloqlarda “yantaq shäkäri” so‘zi uchrab, “Devon”dagi *“yantaq chekäri”*ga uyg‘un keladi. O‘zbek Xorazm o‘g‘uzchasida esa bu so‘z “Devon”dagi kabi o‘zining “yandaq” ko‘rinishini saqlab qolgan [Абдуллаев, 1961:51].

Demak, eski turkiy tilda qo‘llangan ba’zi so‘zlar sheva vakillari nutqida ma’lum jihatdan ma’no o‘zgarishlariga uchragan. Bunda ayrim so‘zlar ma’nosi o‘zgarmagan holda faqat fonetik o‘zgarishga uchragan, ba’zilarining ma’nosi kengaygan yoki toraygan. Bu, albatta, til taraqqiyotida tilning leksik sathida sodir bo‘ladigan hodisalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, so‘z ma’no qurilishidagi o‘zgarishlarni tadqiq etish o‘zbek xalq shevalarida qo‘llanishda bo‘lgan leksemalarning ma’no taraqqiyotini yoritishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qiyosiy tahlillar natijasida ba’zi so‘zlarning ma’no taraqqiyotida yuz bergan o‘zgarishlar va ularning sabablari, ba’zilarining esa etimologiyasi aniq namoyon bo‘ladi.

Shartli qisqartmalar:

ДЛТ – Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.

ДТС – Древнетиюркский словарь. –Л.: Наука, 1969.

Жамолиддин Туркий – Файзуллаева Ш.А. Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булғат ал-муштақ фи луғат ат –турк ва-л қифчақ” Джамалад – Дина ат-Турки: Дисс.канд. филол.наук. – Ташкент, 1969.

Мн – Хорезми. Муҳаббат-наме//Фазылов Э.Страузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II. –Ташкент: ФАН, 1966-1971.

Тафсир – Бороков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XII-XIII ВВ.- М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963.

ЎТЭЛ – Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.

ЎХШЛ – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.

ХШ – Кутб. Хосров и Ширин // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. Ташкент: ФАН, 1966-1971.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eratala Sevda Özen. “Terzilik Terimleri Bağlaminda Divan-ü Lûgat-it-Türk’te Alet Adlari”, Akademik Tarih va Düşünce Dergisi 6 (3). 2019.

2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Ўзакадемнашр, 1961.

3. Дадабоев Ҳ. Кўҳна обидалар сўз бойлигини атрофлича тадқиқ етиш – ўзбек тилшунослигининг долзарб масаласи // “Ўзбек тили тараққиёти ва халқаро ҳамкорлик масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Тошкент, 2019.

4. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1969.

5. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017.

6. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. –Тошкент: Муҳаррир, 2011.

7. Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD)…дисс. –Фарғона, 2021.

8. https://goldenscripts.navoiyuni.uz/index.php/goldenscripts/article/view/9

VII SHU’BA. TERMINOLOGIYA

TERMINOLOGIK MODERNIZATSIYALASHUVNI VUJUDGA KELTIRUVCHI AYRIM OMILLAR XUSUSIDA

Mahkamova Durdona Ne’matovna,
ToshDO‘TAU,
Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrasi
katta o‘qituvchisi
durdonamahkamova7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110532

Annotatsiya. Mazkur maqolada modernizatsiyalashuv jarayoni va uning terminologik tizimda voqelanishiga doir fikrlar berilgan. Xususan, o‘zbek va xorijiy olimlarning terminologik modernizatsiyaga doir qarashlari keltirilib, ularga munosabat bildiriladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida aniqlangan modernizatsiya omillari ko‘rsatiladi. Ko‘rsatilgan sakkiz omilning har biri ta’riflanib, tahlil va xulosalar o‘zbek terminologik tizimiga oid misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, modernizatsiyalashuv, terminologik tizim, terminologik tizim modernizatsiyalashuvi, sohalar integratsiyasi, shaxs omili*

Annotation. This article presents thoughts on the process of modernization and its realization in the terminological system. In particular, the views of Uzbek and foreign scientists on terminological modernization are presented and the reaction to them is expressed. Also, the factors of modernization identified within the research are shown. Each of the mentioned eight factors is defined, and the analysis and conclusions are proved with examples of the Uzbek terminological system.

Key words: *term, terminology, modernization, terminological system, terminological system modernization, integration of fields, personality factor*.

Tizimning yangi birliklar bilan boyishi, terminlar semantikasidagi o‘zgarishlar, termin yasashda yangi konstruksiyalarning paydo bo‘lishi kabi hodisalar terminologik tizim modernizatsiyalashuvini belgilaydi. O‘zbek tilidagi lingvistik adabiyotlarda “modernizatsiyalashuv” termini qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, mohiyatan unga aynan mos keluvchi qarashlar, tamoyillar terminologik tadqiqotlarning deyarli barchasida mavjud. Xususan, tilshunos Azim Hojiyev bu borada quyidagilarni qayd etgan: “Har qanday milliy til lug‘at sistemasining,

shuningdek, terminologik sistemasining rivojlanishida, takomillashuvida ikki narsaga to‘g‘ri amal qilish bu boradagi ishlarning muvaffaqiyatli, ijobiy natijalar bilan yakunlanishini ta’minlaydi: 1) tilning rivojlanishida amal qiladigan qonuniyatlar asosida ish ko‘rish; 2)terminga qo‘yiladigan talabdan kelib chiqib ish ko‘rish.”[Hojiyev,2008]

Aslida modernizatsiyalashuv doimiy jarayon bo‘lib, termin sifatida o‘z ichiga “yangilanish”,“o‘zgarish”, “takomillashish”, “zamonaviylashish” kabi qator ma’nolarni qamrab oladi. Lingvistik nuqtai nazardan modernizatsiya jarayonini o‘rganish tadqiqotchini hodisani keng qamrovda ko‘zdan kechirishga undaydi: sotsiolingvistik hodisa sifatida modernizatsiyani til siyosati, endogloss va ekzogloss vaziyatlar bilan bog‘liqlikda o‘rganish, sof lingvistik hodisa sifatida tizimli jarayon shuningdek, qator yasalish usullari, omillarini hosil qiluvchi sifatida tahlil etishni talab qiladi. Har qanday holda ham modernizatsiya jarayoni mavjud va u lingvistik hosilalarga ega.

Til taraqqiyoti bir tomondan yangi atov birliklari, so‘zlar(neologizmlar) hisobiga amalga oshsa, boshqa tomondan tilning boyishi mavjud birliklarning qayta nomlanishi(yangilanishi) hisobiga yuzaga chiqadi. Mavjud referentlarning yangilanishi lug‘at tarkibining ma'lum bir kichik qisminigina egallab, bevosita konseptlarga aloqador hisoblanadi va konsept tarkibida (garchi yangilangan, qayta nomlangan bo‘lsa-da) qat'iy o‘zgarishsiz qoladi. Birinchi jarayon ko‘plab lingvistik tadqiqotlar ob'ekti bo‘lib hisoblangan, biroq ikkinchi holatda modernizatsiya jarayoni bor va u hamisha tilda mavjud bo‘lsa-da, hanuz o‘zining tizimli ta'rifini topmagan. [Shemchuk,2006]

Ta’kidlanganidek, terminlar leksik sathning doimiy o‘zgarishga moyil (dinamik) birliklari bo‘lgani bois terminologik modernizatsiyalashuvning qaysi omillar hisobiga yuzaga kelishini aniqlash tizimning aniq, kamchiliklardan holi ravishda shakllanishini ta’minlaydi.[Mahkamova,2023]

Terminologik tizimdagi o‘zgarish va yangilanishlarni kuzatar ekanmiz, bunga sabab bo‘luvchi quyidagi omillarni belgiladik:

1. Til siyosati. Ma’lumki, til siyosati o‘z ichiga qator masalalar: davlat tili, adabiy til, ta’lim tili, muloqot tili, til ta’limi kabilarni qamrab oladi. Terminlar esa bu masalalarning barchasiga uzviy aloqador. Har qanday davlatda terminologiya masalalari, avvalo, til siyosati orqali boshqariladi va tartibga solinadi. Mamlakatning til siyosatidagi o‘zgarishlar ko‘p hollarda ijtimoiy soha fanlari terminologik tizimlarida aks etadi.

2. Zamonaviy texnologiyalarning (soha, fan yoki kasb-hunarga) kirib kelishi. Mazkur omil terminologik tizimlarda mavjud asbob –uskuna, qurilma nomini bildiruvchi semantik guruhlar tarkibining keygayishi yoki yangilanishiga sabab bo‘ladi. XX asr terminologiyasi yangi texnologiyalarni bildiruvchi terminlar(va tushunchalar) bilan kengaygan bo‘lsa, ushbu tushunchalarning taraqqiy etgan variantlari XXI asr terminologik tizimlarining yangilanishini ta’minlamoqda. *avtomat korobka (Avtomatik uzatmalar qutisi (avtomat uzatma qutisi, avtomatik uzatma*); *disketa-disk-USB, modem; EHM(elektron hisoblash mashinasi)-kompyuter,*

3. Zamonaviy soha, fan yoki kasb-hunarning kirib kelishi. Soha, fan yoki kasb-hunarning kirib kelishi ma’lum bir tilning terminologiyasini yangilaydi ya’ni lug‘at sathi yangi terminlar, yasalish konstruksiyalariga ega yangi terminologik tizim bilan boyiydi. Ayni paytda bu holat terminologiyada ham yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanmoqda. Bu o‘z navbatida shu tizim termin va atamalarini tartibga solish masalasini yuzaga keltiryapti. Mas., ruscha ekvivalenti ommalashgan *dostavka* ning *kuryerlik xizmati, yetkazib berish xizmati, eltuv xizmati* kabi muqobillari bor. Ularni tartibga solishda tabiiyki terminologik tamoyillar va adabiy til me’yorlariga muvofiq yondashiladi. Bunda xizmat nomi asosida yasaluvchi terminlarni ham hisobga olish lozim. Mas., shu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomini bildiruvchi termin uchun yuqoridagilardan quyidagi hosilalarni yasash mumkin: *kuryerlik xizmati-kuryer, yetkazib berish xizmati-yetkazib beruvchi, eltuv xizmati-eltuvchi. Kuryer* o‘z qatlam so‘zi bo‘magani bois mazkur terminni qabul qilish baxsli, biroq *yetkazib beruvchi* va *eltuvchi* terminlari masalasida bir to‘xtamga kelish mumkin. Terminologiyaning aniqlik tamoyiliga ko‘ra ikki shakl ham talabga javob beradi, lekin qisqalik(tejamlilik) tamoyiliga ko‘ra bu holatda bir komponentli shakl tanlanadi. Shunga asosan *eltuv xizmati*(faoliyat nomini anglatuvchi termin) va *eltuvchi* (eltuv faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs) terminlarini qabul qilish va ommalashtirish, shu bilan birga mazkur soha terminlarini yuqoridagi asos terminlar negizida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ayni paytda o‘zbek terminologiyasi *SMM(Social Media Marketing)- Ijtimoiy tarmoq marketingi, PR(public relations)* kabi zamonaviy sohalar terminlari bilan boyib bormoqda. Qayd etilganidek,bu terminologik modernizatsiyalashuvni yuzaga keltiradi va terminologlar bilan bir qatorda soha vakillarining ham oldiga tilning sofligi va jozibadorligini saqlash bilan bog‘liq katta vazifalarni yuklaydi.

4. **Soha(fan)lar integrallashuvi.** XXI asr ilm-fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri integral fan va sohalarning ko‘payishidir. Ayni paytda ularga xos terminologik tizimlar ham semantik, struktur va yasalishi jihatidan e’tiborga molik. Ikki fanning birikuvidan hosil bo‘lgan yangi fanning predmeti, obyekti ham integral xarakterga ega bo‘ladi va bu jihat terminologik tizimda aks etadi. Xususan, bugungi kun tilshunosligi ham antroposentrik paradigmada ish ko‘ruvchi *psixolingvistika, neyrolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, kriminolingvistika, kulturolingvistika* kabi ko‘plab integral fanlarga ega. Ularning har birida o‘ziga xos terminologik tizim mavjud. Mazkur sohalar terminlarini hosil qilishda ham ayrim terminologik talablarga amal qilish lozim. Masalan, soha nomini bildiruvchi termin ko‘pincha bir komponentli, qo‘shma so‘z shaklida bo‘ladi: *sotsiolingvistika – sotsiologiya + lingvistika.* Shu o‘rinda bu ikki soha integrallashuvini bildiruvchi *lingvosotsiologiya* termini ham bor. Farqi shundaki, 1-si *(sotsiolingvistika)* ijtimoiy(sotsial) hodisalar, xususan, tilning ijtimoiylashuvini lingvistik nazariyalar (tilshunoslik qonuniyatlari)asosida o‘rganib, o‘zining markaziy obyekti –til haqida xulosa beradi. 2-si (*lingvosotsiologiya)* esa tilni ijtimoiy hodisalardan biri sifatida sotsiologik nazariyalar (tilshunoslik qonuniyatlari)asosida o‘rganib, o‘zining markaziy obyekti –jamiyat haqida xulosa beradi. O‘z o‘rnida, ikkala sohaning xulosalari, kuzatishlari bir –biri uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Keltirilgan tamoyil *kriminolingvistika* va *lingvokriminalistika*, *kulturolingvistika* va *lingvokulturologiya* kabi soha nomini bildiruvchi terminlar guruhiga ham taalluqli.

5. **Soha yoki ilm-fanda tizim, yondashuv, qarashlarning o‘zgarishi.** Ma’lum bir tizimda kechuvchi o‘zgarishlar, avvalo, terminologik tizimda aks etadi va uning modernizatsiyalashuviga sabab bo‘ladi. Masalan, oliy ta’lim tizimini isloh qilish va zamonaviy talablar asosida tashkil qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimida 2021-yildan tyutorlik faoliyati yo‘lga qo‘yildi va sohada *tyutor* termini qo‘llana boshladi. Unga qadar sohada bu faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi shaxsni bildiruvchi *kurator, kurs rahbari, murabbiy* terminlari qo‘llangan.

6. **Shaxs omili.** Jamiyatda, fanda lisoniy shaxs darajasiga ko‘tarilgan shaxslar tomonidan biror tushunchaning qayta nomlanishi, yangi tushunchaning kiritilishi, narsa-buyum, hodisaning ixtiro qilinishi va nomlanishi terminologiyaning shaxs omili asosida modernizatsiyalashuviga sabab bo‘ladi. Bu omil ta’sirini aniq fanlar terminologik tizimlarida*(volt,amper)*, tabiiy fanlar, xususan, tibbiyot terminlarida yaqqol ko‘rish mumkin*(parkinson, alsgeymer,turett sindromi).* Sanalganlar fanda

lisoniy shaxs darajasiga ko‘tarilgan shaxslarning terminologiyaga ta’siriga misol hisoblanadi. Shuningdek, jamiyatda yuqori maqomga ega lisoniy shaxslar nutqidagi ayrim leksik birliklar soha terminologiyasiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

7. **Ma’lum bir ijtimoiy tushunchaning ommalashuvi.** Shunday tushunchalar borki, ular ma’lum bir nom ostida jamiyatga kirib keladi, turli jabhalarda tilga olinadi va keskin ommalashadi. Natijada ilm-fanning turli sohalariga tegishli terminologik tizimlarda shu tushuncha asosiga qurilgan yangi terminlar paydo bo‘ladi. XXI asr terminologiyasining shu omil asosida modernizatsiyalashuviga *gender* tushunchasini misol qilish mumkin. O‘tgan asrning 70-yillarida fanga kirib kelgan mazkur tushuncha bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasidagi bir qancha terminologik tizimlarda mavjud. Masalan, tilshunoslikda: *genderolingvistika, nutqning gender variativligi*; sotsiologiya, huquqshunoslik, siyosatshunoslikda: *gender yondashuv, gender tengsizlik, gender tenglik, gender assimetriya* ; psixologiyada: *gender moslashuv(adaptatsiya)*; pedagogikada: *gender tarbiya.*

8. **Shakliy omil.** Mazkur omil terminologiyada so‘nggi o‘n yillikda jadallashdi. Bu omil terminologik tizimni so‘z emas, balki shakl bilan boyitishni anglatadi. Mazkur omilni aniqlangan shakllarga asosan ikkiga: **lingvistik shakliy omil** va **simvolik omil**ga ajratish mumkin. Lingvistik omil –terminologiyaga tushuncha bilan abbreviaturaning bir paytda kirib kelishi va abbreviatura termin sifatida ommalashishini bildiradi. Buni *IT, PR, SMM* kabi termin-abbreviaturalarda ko‘rish mumkin. [Mahkamova,2023]

Shakliy omilning ikkinchi turi simvolik omil bo‘lib, bunda termin va tushunchaning ramziy belgisi parallel qo‘llanish asosida tushuniladi, matnda simvol termin o‘rnida qo‘llanib tushunchani ifodalay oladi. Masalan, pandemiya sababli *koronavirus* termini va uning ramziy ifodasi(simvol) ☸ ommalashdi. Reklama matnlarida, dori va tibbiyot vositalari yorliqlariga kasallik nomini anglatuvchi terminni so‘z shaklida yozmasdan simvol tasvirini berish holatlari ko‘paydi.

Termin va uning ramziy ifodasi parallel qo‘llanishda bo‘lgan yana bir termin *geolokatsiya*dir(*geojoylashuv,geopozitsiya*) - 📍. So‘nggi yillarda taksi va eltuv xizmatining rivojlanishi harbiy-strategik terminologiyadagina faol qo‘llangan *geolokatsiya(geojoylashuv,geopozitsiya*) terminining umumiste’moldagi termin-so‘zga aylanishiga sabab bo‘ldi. E’tiborlisi, termin va simvol parallel qo‘llanib, tejamlilik tamoyili ta’sirida terminning matnlarda ham simvol vositasida ifodalanishi ommalashmoqda.

Ko‘rilganidek, jamiyatda yuz beruvchi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning har biri terminologik tizimga ta’sir etadi. Ular natijasida terminologik tizimlar rivojlanadi, taraqqiy topadi, yangi birliklar bilan boyiydi. Terminologiyaning modernizatsiyalashuvini ta’minlovchi mazkur omillarni aniqlash, xususiyatlarini belgilash, tizimning turli nuqsonlardan holi, proporsional dinamikada takomillashishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M. Matnlarga avtomatik qayta ishlov beruvchi dasturlarning lingvistik ta’minoti manbalari // “O‘zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli” ilmiy maqolalar to‘plami, TDO‘TAU,Toshkent, 2017.
2. Abjalova M., Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 85-89.
3. Ҳожиев А. Ўзбек терминологиясининг ҳозирги ҳолати ва уни такомиллаштириш чора-тадбирлари //Атамашунослик –касбий тафаккурни шакллантиришда, фан ва таълимни ривожлантиришда. –Тошкент, 2008
4. Шемчук Ю.М. Модернизация существуюшей лексики современного немецкого языка : автореф. д.ф.н. –Москва, 2006.
5. Mahkamova D.N. Modernizatsiyaga lingvistik yondashuv.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 2023
https://oriens.uz/journal/article/modernizatsiyaga-lingvistik-yondashuv
6. Mahkamova D.N. Terminological models in scientific text.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 2023//
https://oriens.uz/journal/article/terminological-models-in-scientific-text

O‘ZBEK TILI DIPLOMATIK TERMINLARINING SEMANTIK TAHLILI

Ravshanova Nozima
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti
Amaliy filologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110551

Annotatsiya. Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tili soha terminologiyasi oldida turgan katta muammolardan biri terminlarni tizimlashtirish, soha vakillari terminlarning ma’nolarini yanada aniqlashtirishdan iborat. Mazkur ilmiy maqolada diplomatik terminlarning ma’noviy guruhlari, semantik guruhlanishi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Diplomatiya, semantik guruh, konsullik, veto, adolat prinsipi, rasmiy va ish tillari.*

Kirish. Diplomatiya – davlatlarning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyat hisoblanadi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Diplomatiya]

Ma’lumki, har bir tilda soha terminologiyasi oldida juda katta vazifalar turadi. Soha terminologlari terminlarni aniqlashtirishi, terminlar o‘rtasidagi sinonimlik, antonimlik, omonimlik hodisalari, graduonimiya, partonomiya hodisalarini tadqiq qilish kerak.

Aytish joizki, diplomatik atamalar asosan lotin, ingliz, fransuz tillarida yaratilgan yoki vositachi til sifatida ingliz va fransuz tillari orqali o‘zlashtirilgan [3; 216-223]. Terminlarning chet tililardan o‘zlashtirilishi ularning mazmunini aniq, qisqa va izchil ochib berishni talab qiladi. Bu esa terminlarning soha vakillari va o‘rganuvchilarga yanada tushunarli bo‘lishida yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida diplomatic terminlarni yig’ish, ma’nolarini aniqlashtirishda R.Alimardonov “Inglizcha-o‘zbekcha-ruscha siyosiy va diplomatic atamalarning qisqacha lug’ati”, I.U.Shamsimuhammedov “O‘zbek tili diplomatic terminlarining izohli lug’ati” orqali o‘zbek tilining diplomatiya sohaviy terminologiyasini shakllantirish, o‘rganish va taqqoslashga katta xissa qo‘shishgan. Ushbu soha doirasida birqancha maqolalarda chet tilidan o‘zlashgan terminlar tahlili, terminlar tizimidagi semantic munosabatlar va xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek M.Ismailovaning “ Diplomatik terminlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘ziga xos xususiyatlari” maqolasida terminlarni turli tasniflarga bo‘lish orqali o‘ziga xos xususiyatlari ochib bergan hamda ingliz tilidagi terminlardan umumadabiy tilida foydalanish to‘g’riroq bo‘lishi haqida fikr yuritgan. Yana bir

tadqiqotchi N.Aminova o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida “ingliz va o‘zbek tillaridagi diplomatic birliklarning lingvomadaniy aspektlarini o‘rgangan.

Tahlil. O‘zbek tilining diplomatiya sohaviy terminologiyasida erishilgan natijalarni yanada mustahkamlash tadqiq etish maqsadida, terminlarni 11 ta manoviy guruhga birlashtirdik.

Konsullik terminlari: BMT taraqqiyot dasturi, favqulodda elchixona, bojxona imtiyozlari, vakolatxona,akklomatsiya, veto

Akklamatsiya - (lot. acclamatio - ajablanish)diplomatic faoliyatda ovoz berish jarayonisiz qaror qabul qilish hisoblanadi. Qarorning qabul qilish tartibi esa ishtirokchilarning qarorga munosabati, qarsaklar turli mulohazalar bilan belgilanadi**.** O‘tkazilgan jarayonning rasmiy bayonnomasida qaror “akklomatsiya” yo‘li bilan qabul quilindi shaklida beriladi.

Veto - qonun chiqaruvchilarning qarorini to‘xtatish yoki bekor qilish hisoblanib, taqiqlash, man qilish kabi ifodalarda ham ishlatiladi.

Xalqaro huquqqa oid diplomatik terminlar: boshpana, adolat prinsipi, vakolatlar, viza, gumanitar huquq, davlat immuniteti

Adolat prinsipi davlatlararo diplomatik munosabatlarda foydalaniladi, unda davlatlararo xalqaro muammolar xalqaro huquqqa doir qoidalarga rioya qilgan holda davlatlarning manfaatlarini himoya qiladi. Adolat prinsipiga ko‘ra mojarolar tinchlik yo‘li bilan hal qilinadi.

Vakolatlar - Xalqaro munosabatlarda, diplomatik jarayonda ishtirok etuvchi mutaxassisning davlat, hukumat yoki rasmiy idora nomidan diplomatic faoliyatni amalga oshirishi, muzokaralar olip borishi, shartnoma va bitimlarni imzolashi va vakilning huquqlari ko‘rsatilgan hujjat. Ushbu hujjatning vakolatlar matnida diplomatic faoliyatni olib boruvchi vakilning to‘liq ism-familyasi yoziladi. Unga berilgan vakolatlar to‘liq ko‘rsatiladi hamda tashqi ishlar vaziri yoki muovini imzosi qo‘yilib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Diplomatik siyosiy atamalar: Blok, genosid, intervensiya, koalitsiya, sanksiya, embargo

Blok - birgalikda harakat qilish, ma’lum maqsadlarga erishish uchun tuzilgan davlatlar, partiyalar, harakatlar yig’indisi

Koalitsiya - (lot. coalitio - birlashma) ma’lum bir maqsadga erishish uchun bir necha shaxslarning yoki guruhlarning ixtiyoriy birlashmasi.

Shaxsga tegishli atamalar: legat, status, ekspatriasiya, emigrant, qochoqlar

Legat - qadimiy davlatlarda rim-katolik cherkovi vakili. Legatning har qanday huquqlari, maqomi o’zi yashayotgan davlat tomonidan belgilanadi va legatlar ularga amal qilishi kerak.

Ekspatriatsiya (lot. yex - dan - va patria - vatan, yurt) Shaxsning fuqoroligi mavjud bo’lgan, yashab kelayotgan mamlakatidan vaqtinchalik yoki butunlay chiqarib yuborilishi. Bu holat shaxslarning fuqoroligini bekor qilish bilan ham belgilanadi. Xalqaro termin sifatida esa shaxsning o’z xohishiga ko’ra fuqoroligini bekor qilishni so’raganlik tushuniladi.

Diplomatik jarayon atamalari: denaturalizatsiya, diplomatik kasallik, impichment, inauguratsiya

Denaturalizatsiya - chet ellikni, fuqaroligi yo‘q shaxsni davlat fuqaroligiga qabul qilishni bekor qilish. Bunday qarorning qabul qilinishiga shaxsning o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotni soxtalashtirishi sabab bo‘ladi. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik to‘g‘risidagi qonunida belgilab qo’yilgan.

Diplomatik kasallik - diplomat, vakil, siyosiy kishi yoki muzokaralar qatnashuvchilarida biror marosim yoki majlisda qatnashmaslik zarurati paydo bo‘lganda tashkilotchilarni ranjitmaslik uchun aytiladigan bahona. Bunday uzr so‘rash diplomatik kasallik deb ataladi

Diplomatik-lingvistik atamalar: rasmiy va ish tillari

Rasmiy va ish tillari - xalqaro tashkilotlarda ish olib boriluvchi tillardan xalqaro konferensiyalar, xalqaro uchrashuvlar, xalqaro kelishuvlarda foydalaniladi.. Rasmiy tillar - konferensiya yoki tashkilotning asosiy tashkiliy qismlar, organlarida muhokama Qilinadigan va rasmiy hujjatlari: bayonnomalari qarorlarlari, aktlarida rasmiylashtiriladigan tillar. Masalan Birlashgan Millatlar Tashkilotida ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari rasmiy va ish yuritadigan tillari hisoblanadi

Madaniy-diplomatik atamalar: diplomatik etiket, Salyut, taziya, xalqaro ehtirom, seremonial,

Diplomatik etiket – odob-axloq qoidalari, diplomatlar, rasmiy vakillar, mansabdor shaxslarning turli rasmiy uchrashuvlar, muzokaralar, konferensiyalar, tadbirlarda o‘zlarini odob-axloq doirasida tutish majmuasidir. Etiket xulq, turmush, muomala madaniyati va boshqalar bilan bog‘liq qonun-qoida va normalarni o‘z ichiga oladi.

Ta’ziya - mamlakat boshiga tushgan falokat: davlat rahbari, hukumat rahbari va boshqa ko‘zga ko‘ringan rahbar arbobning vafoti, katta yo‘qotishlarga, o‘limlarga olib kelgan tabiiy ofat, halokat munosabati bilan bildirilgan rasmiy hamdardlik. Bunday munosabat bilan ta’ziyanomalar yuboriladi (telegramma, xat, noma).

Davlat rahbari vafot etganda, yozma ta’ziyanomadan tashqari, aza (shu jumladan diniy) marosimida ishtirok etish uchun maxsus yuborilgan xorijiy davlatlar vakillari (hay’atlar) ham bo‘ladilar.

Diplomatik lavozimlarga oid atamalar: dipkuryer, bosh konsul, bo‘lim konsul, vakil, vitsa-konsul, davlat kotibi

Dipkuryer (diplomatik kuryer) - tashuvchi, diplomatlar, rasmiy vakillar, davlat idoralari, tashkilotlar orasida bir -biriga yuboriladigan xat-xabarni yetkazib beruvchi maxsus shaxs.

Shtat konsuli - bu yuborayotgan davlatning fuqarosi bo‘lgan va davlat xizmatida ishlaydigan mansabdor shaxs. U doimiy ravishda maosh oladi va konsullik funksiyalarini bajarishdan tashqari hech qanday daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanmasligi lozim.

Davlatlarga tegishli atamalar: buyuk davlatlar, davlatlar bloke(ittifoqi)

Buyuk davlatlar - xalqaro munosabatlarda yetakchi ro‘l o‘ynaydigan, tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni saqlashga alohida mas’ul davlatlarga nisbatan qo‘llanadigan termin. Xalqaro huquqda davlatlarning katta-kichikligi, siyosiy ta’siri, harbiy va iqtisodiy qudratidan qat’i nazar teng ekani prinsipiga qaramay, xalqaro amaliyotda ko‘pdan beri buyuk davlatlarning o‘ziga xos roli tan olib kelinadi.

Davlatlar bloki - xalqaro birlashma**,** davlatlarning ma’lum maqsadlar yuzasidan xalqaro birlashuvi. Odatda, harbiy-siyosiy maqsadda xalqaro birlashma tuziladi.

Diplomatik hujjatlarga tegishli atamalar: bayonat, autentik matn, bildirish xati, birtomonlama akt, verbal nota

Autentik matn - grek tilidan olingan bo‘lib, asl, asl manbadan olingan degan manoni anglatadi. Xalqaro hujjatlar, shartnomalar qaysi tilda tayyorlangan bo‘lsa, ular asliy matn hisoblandi. Agar xalqaro hujjatlar bir nechta tilda tayyorlansa, ularning yakunlovchi qismida, barcha qismlar asl matn ekanligi, bir xil kuchga ega ekanligi belgilab qo‘yiladi.

Tarixiy diplomatik tushunchalar: eksterritoriallik, diplomatik protokol, protokol marosimlar.

Protokol marosimlar - diplomatik protokol va uning qoidalari bu diplomatik xizmatning butun majmuasi bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan va rivojlangan tarixiy kategoriyalar hisoblanadi.

Ular qandaydir shaxslarning qarorlari va xohish-irodalari natijasida paydo bo‘lmagan va rivojlanayotgani yo‘q, balki muvaffaqiyatli diplomatik amaliyotni amalga oshirish uchun zarur shart sifatida paydo bo‘lgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, diplomatiya sohaviy atamalarning umumiyligi, ma’nosi tor berilganligi, hajm jihatdan kengligi va neologizmlarning paydo bo‘lishi soha vakillariga qiyinchilik tug’diradi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan semantik guruhlar asosida diplomatic terminlar lugatini tadqiq etish va yanada mukammallashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dadaboyev X. O‘zbek terminologiyasi.Toshkent.2019
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Diplomatiya
3. Саидов Х.А. Дипломатическая терминология и ее особенности в разносистемных языках. // Вестник университета права, бизнеса и политики 1-2 Худжанд, 2012. №3 (51). - С.216-223.
4. U.Shamsimuhammedov. O‘zbek tili diplomatik terminlari izohli lug’ati.
5. Abjalova M. Matnlarga avtomatik qayta ishlov beruvchi dasturlarning lingvistik ta’minoti manbalari // “O‘zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli” ilmiy maqolalar to‘plami, TDO‘TAU,Toshkent, 2017.
6. Abjalova M., Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 85-89.

XALQARO HUQUQIY TERMINLARNING O‘ZBEK YURIDIK TILIGA O‘ZLASHISH USULLARI

Isaqova Munisa
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110569

Annotatasiya. Maqolada huquqiy terminologik sistemaning tarkibiy qismi hisoblangan xalqaro yuridik terminlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ularning miliy yuridik tilga o‘zlashishida asos vazifasini bajaruvchi omillar tahlil qilinadi va o‘zlashish usullari misollar yordamida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *yuridik termin, xalqaro huquq, terminologiya, so‘z o‘zlashtirish, kalkalash, semantik kalka, frazeologik kalka.*

XXI asr davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimi insoniyat boy tajribasining barcha ijobiy tomonlarini sintezi bilan xarakterlanadi. Ushbu tajribalar barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyot uchun eng maqbul shart-sharoitlarning demokratik davlat va fuqarolik jamiyati vujudga keltirishini tasdiqlaydi. Har qanday davlatning miliy huquqiy tizimi boshqa milliy huquqiy tizimlar va xalqaro huquq bilan bog‘lamasdan o‘rganib bo‘lmaydi. Bunday huquqiy “uchburchak” umumiy huquqiy hudud sifatida xizmat qiladi. Unda turli normativ-huquqiy hujjatlar o‘zaro ta’sirda bo‘ladi, to‘qnashadi va birgalikda faoliyat ko‘rsatadi.A.M.Vasilev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Huquq nazariyasi kategoriyalari va ularning tizimli rivojlanishi bilan bir qatorda dialektik va amaliy huquqiy mantiq darajasida faoliyat yurita olish ko‘p jihatdan huquqiy bilimlarning amaliy ta’siriga bog‘liq” [Василев, 1976: 13]. Yildan yilga bu hamkorlik yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar o‘rtasida bunday aloqalarning kengayib borishi bilan tillararo so‘z o‘zlashtirish jarayoni ham kuchayadi Yuqorida ta’kidlaganimizdek tilning leksik tarkibi sof leksik qatlam va boshqa tillardan o‘zlashgan qatlam asosida shakllanadi. Dunyo tillari orasida birorta ham til yo‘qki, unda ozmi ko‘pmi o‘zlashgan so‘z uchramasin yoki “ma’lum darajada aralashgan bo‘lmasin” [Berdiyorov , Xo‘jayev , Yo‘ldoshev, 1990:37.] Uzoq o‘tmishga nazar tashlansa, chet so‘zlar o‘zga tillarga asosan og‘zaki muomala yo‘li bilan (chunki yozuv hali yuzaga kelmagan) o‘tganligini ko‘ramiz. Og‘zaki muomala esa yaqin qo‘shnichilik natijasida xalqlarning bir hududdan boshqa bir hududga ko‘chishi qolaversa, savdo-sotiq ishlarida muloqotga kirishish jarayonida yuz bergan. Bu so‘z o‘zlashuv sabablarini bir tomondan xarakterlasa, ikkinchi tomoni esa xalqlar ruhiyati bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda esa O‘zbek tili huquq sohasida o‘zlashgan qatlam alohida

o‘rin egallaydi. Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish xalqalar o‘rtasida kechadigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning tabiiy natijasi sifatida o‘zini namoyon qiladi..

So‘z o‘zlashishining asosiy manbai sifatida kishilar o‘rtasidagi og‘zaki aloqalar va rasmiy hujjat yozishmalarining standartlar asosida shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj natijasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Huquqiy sohada yangi tushunchalarning qo‘llanilishi esa xalqaro munosabatlarda diplomatiл xizmatchilar o‘rtasida og‘zaki suhbatlar, turli davlatlaro va tashkilotlar o‘rtasidagi rasmiy va norasmiy bitimlar asosida yuzaga keladi. O‘zbek tili lug‘ati tarkibining boyishi va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, har bir soha terminologiyasida bo‘lgani singari yuridik terminologiyaning salmoqli qismi ham chetdan so‘z o‘zlashish ta’sirida to‘lib boradi va mukammalashadi. O‘zbek tiliga boshqa tillar ta’siri ikki muhim hodisada ko‘zga tashlanadi.

1) o‘zbek tiliga chet tilidan kirgan so‘zlarni qabul qilishda;

2) chet tiliga oid so‘zlarni o‘zbek tiliga moslashtirishda.

So‘zlarning bir tildan ikkinchi bir tilga o‘tishi va o‘zlashishi nisbatan murakkab jarayon hisoblanib, ijtimoiy –tarixiy va murakkab lingvistik sharoit bilan bog‘liq hodisadir. Tildan tilga so‘z o‘zlashishi uchun avvalo real sharoit bo‘lishi lozim. O‘zbek tili o‘tmishda bir qator qardosh bo‘lmagan boshqa sistemadagi tillar bilan ham aloqada bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbek tili o‘z rivojining milliy til va ijtimoiy millat tili davriga kelib rus tili bilan aloqa va hamkorlikka kirishdi. Bu jarayon esa o‘z navbatida yuqorida aytib o‘tilgan til leksikasining ona tilimizga kirib kelishi va millatning so‘zlashuv nutqiga singib borishiga sabab bo‘ldi.

Xalqaro va milliy huquqiy tizimlarning o‘zaro ta’siri muammosini o‘rganishning predmet bazasini va tegishli konseptual apparati aniq belgilanmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Biroq, yuridik adabiyotlarda “huquqiy tizim” toifasining mazmuni tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta’riflangan bo‘lib, bu nafaqat alohida olimlarning ushbu muammoga individual yondashuvi bilan izohlash mumkin. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan 80-yillarning oxirigacha bo‘lgan ilmiy ishlarda xalqaro va milliy huquq doirasini ajratish borasida aniq chiziq tortildi deyish mumkin. Bundan tashqari xalqaro huquqshunoslarning ishlarida qoida tariqasida xalqaro huquq tizimi va ichki huquq o‘rtasida hech qanday chiziq farqlar yaqqol berilmagan, faqatgina ekvivalent sifatida tegishli tushunchalar ko‘rsatib o‘tilgan. Shunga qaramay o‘sha davrda ham universal davrning asosiy parametrlarini, shu jumladan nafaqat xalqaro huquqni, balki uning subyektlarini, ular o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni, xalqaro huquqni amalga oshirish shakllari va

usullarini aniqlashga e’tibor qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan D.I.Feldmen xalqaro huquqiy tartibga solishning universal konsepsiyasi, I.I.Lukashuk davlatlararo xalqaro tizim nazariyasi kabi masalalarni tadqiq qilgan. Hozirgi vaqtda xalqaro tashkilotlat normativ manbalarni model qonunlarni kiritish orqali kengaytirishning zaruriyati sezilarli darajada o‘sdi. Bularning barchasi zamonaviy dunyoda xalqaro va milliy huquqning o‘rni va ahamiyati haqida umumiy fikrga kelish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va istiqbolining asosiy parametrlarini aniqlash maqsadida xalqaro huquqshunoslar va huquq fanlari vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni faollashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi. O‘zbek qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha faol ish olib borilayotgan hozirgi davrda davlatning ichki va xalqaro huquqiy tartiboti metodlarini qo‘llash talab qilinadi. Bugungi kunda qonunchilikning har qanday bo‘limi xalqaro shartnomalar bilan aloqadorlikka ega. O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga faol kirib bormoqda, xorijiy mamalakatlar bilan xalqaro aloqalarni mustahkamlab shartnomaviy va diplomatik aloqalarni kengaytirmoqda. Bu jarayon esa o‘z navbatida normativ-huquqiy hujjatlar tuzishda ma’lum bir standartlarga amal qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etishda normativ huquqiy hujjatlarning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan atamalardan to‘g‘ri foydalana bilish muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda G.G‘ulomova milliy qonunchiligimizning nufuzi va qadr-qimmatini oshirish, o‘zbek xalqinining huquqiy madaniyatini yanada shakllantirish uchun ma’lum bir maqsadga qaratilgan tadbirlarni belgilab olish kerakligini ta’kidlaydi. Bunday vazifalarning eng asosiylari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi.

-o‘zbek yuridik terminologiyasining yagona standartlarini yaratish;

-xalqaro siyosiy-huquqiy terminlarni yaratishda milliy xususiyatlarni hisobga olish;

-jahon andozalariga muvofiq, xalqaro yuridik terminlarni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish;

-qonun loyihalarini ishlab chiquvchi ishchi guruhlar tarkibiga huquqshunoslar bilan bir qatorda, filologlarni ham albatta jalb qilish [G‘ulomova, 2004: 25]

Yuridik terminlar standartlari qonunni to‘g‘ri tushunish, uni amalga to‘g‘ri tadbiq qilish uchun zarur bo‘lsa terminlar bo‘yicha yo‘riqnomalar esa terminlar birligining bo‘lishini ta’minlaydi. Xalqaro huquqiy terminlardan foydalanishda milliy til xususiyatlari va qonunchilik talablarining o‘ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur. Xalqaro yuridik terminlarni dunyo xalqlari qanday ishlatayotgan bo‘lsa biz ham shunday ishlatishimiz lozim. Huquq sohasiga boshqa tillardan

terminlar kirib kelishi yoki ichki imkoniyatlar asosida yangi huquqiy terminlarning yasalishi natijasida ham o‘zbek tili leksik qatlami boyib bormoqda, shuningdek yangi huquqiy tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, huquqiy sohada keyingi paytda *milliy-huquqiy tizim, lingvistik ekspertiza, filologik ekspertiza, qonun ustunligi* kabi yuridik terminlar til tizimiga kirib keldi. Bundan tashqari xorijiy so‘zlarni o‘zgartirishsiz aslicha qabul qilinish holati ham nisbatan ommalashgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, yuridik sohaga mansub leksik qatlam ham til leksikasi umumiy qonuniyatlari asosida rivojlanib boradi. O‘zbek yuridik tilida qo‘llaniladigan so‘zlar ham milliy tilning sof terminlari va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan terminlardan tashkil topadi. Xalqaro yuridik tilda qo‘llanilayotgan ko‘pgina so‘z va terminlar milliy yuridik tilga kirib boradi va aksincha milliy yuridik tildagi ayrim so‘z va terminlar xalqaro huquqqa o‘tadi. Professor Sh.Ko‘chimovning ta’kidlashicha hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy yuridik terminlarini quyidagi tillarga oid so‘zlar tashkil qiladi[Ko‘chimov, 2003: 120]. Masalan:

Lotin tilidan o‘zlashgan xalaro yuridik terminlar*: konstitutsiya, integratsiya, diktatura, kodeks, manifest;*

Fransuz tilidan o‘zlashgan xalqaro yuridik terminlar*: suverinitet, diplomatiya parlament, order, dekret, attashe, ministr;*

Nemis tilidan o‘zlashgan xalqaro yuridik terminlar*:adyutant, veksel, abonent;*

Ingliz tilidan o‘zlashgan xalqaro yuridik terminlar*: monopoliya, monarxiya, gegemon, demokratiya;*

Yunon tilidan o‘zlashgan xalqaro yuridik terminlar*: amnistiya, anarxiya, protocol, apartid;*

Arab tilidan o‘zlashgan xalqaro yuridik terminlar: *alkogolizm, adat, algorifm.*

Xalqaro huquq sohasiga oid so‘z o‘zlashtirish bir necha usul bilan amalga oshadi. Ulardan quyidagilarni tahlil qilamiz.

1. So‘zni o‘zgarishsiz qabul qilish. Bunday usulda so‘z o‘zlashtirganda qabul qilinayotgan leksik birlik na fonetik, na grammatik o‘zgarishga uchraydi.

2. Kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish

a)Semantik kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish

b)Frazeologik kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish devalyatsiya (qog‘oz pullarni bekor qilish)

Bulardan birinchisi milliy yuridik tilimizda eng mahsuldor usul hisoblanib, soha lterminologiyasining asosiy qismini tashkil qiladi. Misol tariqasida “Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”[Mahmudov, Ko‘chimov, Sharipova, 2021]ni tahlilga tortilganida lug‘atga kiritilgan asosiy terminlarning o‘zbek tilidagi

muqobili berilgan: avans (bo‘nak), agent(vakil), avtor(muallif), arenda(ijra) va boshqalar. Lekin ayrim terminlar hech qanday o‘zgarishsiz qabul qilingan va aslicha kiritilgan. Misol tariqasida: *attashe, balans, banditizm, bankrot, birja, deputat, diktatura, demokratiya, parlament* va boshqalar. Ikkinchi usul kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish Boshqa til materialidan qismma-qism nusxa olish bilan yasalgan so‘zga kalka deyiladi. Kalkalashda so‘z o‘zlashtiruvchi so‘zning ma’nosi va morfemik tuzilishi saqlanadi, ammo bu morfemik tuzilish o‘zlashtirilayotgan tilning materiali bilan to‘ldiriladi. Semantik kalkada nusxa olish prinsipi saqlanadi. Bir tildagi so‘zga uning boshqa tildagi ekvivalenti qidirib topiladi va shu o‘zlashtirilayotgan leksik ma’no yuklanadi. X.Dadaboyev semantik kalkalash usuli haqida o‘z qarashlarini bayon qilib quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi. “Semantik kalka (metaforalashish)da kelib chiqishi jihatidan chet tiliga xos bo‘lgan yangi ma’noni o‘zbek tili lug‘ati tarkibida ishlatib kelinayotgan so‘z o‘zlashtiradi” [Dadaboyev, 2019:120] Misollarga murojaat qilinganda yuqorida keltirilgan lug‘atda bunday birliklar o‘zbek tilidagi ma’noviy jihatdan yaqin bo‘lgan birliklar bilan birga kalkalash usuli orqali o‘zlashtirilganligi namoyon bo‘ladi. Shunday so‘zlar qatoriga appelyatsiya(norozilik arizasi), immigrant (muhojir), instansiya (bosqich), gomeseksualist (besoqolbozlik). Frazeologik kalka chet tilidagi birikmani qismlarga bo‘lib, so‘zma so‘z tarjima qilishdir. Bu usulda termin o‘zlashtirish huquqiy terminologiyada biroz boshqacha holatda ham uchraydi. Ya’ni o‘zlashtirilayotgan birlik qismlarga ajratilgan holatda har biri alohida tarjima yoli bilan yoki tarkibidagi ma’lum so‘zlar o‘z holaticha o‘zlashadi. Masalan алтернат(xalqaro shartnomaning matnini navbat bilan imzolash), вербалная нота (verbal nota), гаагский трибунал (gaga tribunali) вагнера закона (vagner qonuni), курьер дипломатический (diplomatik kuryer) va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, so‘z o‘zlashtirish huquqiy sohada ham faol qo‘llaniladigan jarayon bo‘lib, qonunchilik uslubida matnning aniq tushunilishini ta’minlaydi. Boshqa soha terminologiyasidan farqli ravishda yuridik terminlar tarkibida xalqaro terminelementlar mavjud leksemalar midqor jihatidan yuqoridir. Buning asosiy sababi, milliy yuridik tilda yaratilgan normativ qonun hujjatlarining jahon hamjamiyati standartlariga mos bo‘lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyorov x, Xo‘jayev T, Yo‘ldoshev B. “Umumiy tilshunoslik” –T. 1990..
2. Dadaboyev H.O‘zbek terminologiyasi . –T. 2019.

3. Mahmudov N. , Ko‘chimov Sh, Sharipova N. “Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” –T. 2021

4. Ko‘chimov Sh. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. –T.2013

5. Васиьев А М Правовые категории. Методологические аспекты разработки системы категорий теории права. –М.1976.

6. Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди диссертацияси. – Т. 2004

ATAMASHUNOSLIK TIZIMIDA TEXNIK TERMINLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Bazarova Umida Mamurjanovna
PhD, dotsent
Navoi davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti
O‘zbek va chet tillar kafedrasi mudiri
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110955

Annotasiya. Ushbu ilmiy maqolada atamashunoslik tizimida texnik atamalariining asosiy xususiyatlarini o‘rganish masalasi muhokama qilinadi. Maqolada texnik atamalarining mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan asosiy xususiyatlar, atama mazmunining amaliy faoliyati bilan bog‘liqligi isbotlangan. Umumiy atamalarning xususiyatlari ham texnik atamaning muhim xususiyatlariga qarashli aniqlik darajasi, funktsional faoliyati, sun‘iylik darajasi, umumiylik darajasi, kognitivlikni bildiradi.

Kalit so‘zlar: *asosiy xususiyatlar, aniqlik darajasi, umumiylik jihatlar, terminologiyalik xususiyatlar, texnik atamalari tushunchasi, kognitivlik*

Abstract. This scientific article discusses the issue of studying the main features of technical terms in the terminology system. The main features necessary for understanding the essence of technical terms and the connection between the content of the term and practical activity are proved in the article. The characteristics of general terms also refer to the level of accuracy, functional activity, level of artificiality, level of generality, and cognitiveness related to the important features of the technical term.

Keywords: *basic features, level of accuracy, commonalities, terminological features, understanding of technical terms, cognitive*

Texnik atamalarining atamashunoslikdagi o‘rnini takomillashtirish hamda tilshunoslikdagi alohida sohasi sifatida rivojlanishi atamashunoslikdagi tizimning, fan, texnika, kasbiy faoliyat, terminologik birliklar majmuini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Har bir tilning terminologiyasi jamiyat kasbiy-texnik faoliyatining barcha sohalariga oid maxsus tushunchalarning nomlarini birlashtiradi. Texnik atamalarining shakllanishi hamisha o‘ziga xosdir. Buning sababi esa atamashunoslikning tarkibiy qismi bo‘lgan va mohiyatini belgilab beruvchi adabiy tillar, fanlar, ishlab chiqarish tarmoqlari, ijtimoiy tafakkurning kelib chiqishidadir.

Agar atamashunoslikning shakllanishi va rivojlanishini hisobga oladigan bo‘lsak, u til taraqqiyotining turli bosqichlarida turli olimlar tomonidan fan va madaniyat tilini takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab sa‘y-harakatlardan iborat ekanligini ta‘kidlash lozim.

O‘z navbatida terminologiyaning rivojlanishi lug‘atlar guruhi jihatdan ilmiy tushunishga turtki bo‘ladi. Tilshunos olimlar terminologiyaning yaratilishida ishtirok etib, tilshunoslikning yangi sohalari – terminologiyani o‘zlashtirdilar.

O‘zbek tilida ilmiy-texnik terminologiyaning shakllanishi ham chuqur tarixga ega bo‘lib, u XX asrlarga borib taqaladi va o‘zbek xalqi tarixida turli ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq tarixiy manblar mavjud. O‘zbek terminologik tizimining keyingi shakllanishi va rivojlanishi ilk o‘rta asrlarning atoqli olimlari Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Forobiy va boshqalarning nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning asarlarida turli soha terminologiyasi boshlangan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda atamashunoslikning ilm-fan, texnika, ishlab chiqarishdagi rivoji o‘zbek, ingliz va rus tillarida bo‘lishi yuqori darajada rivojlangan nominatsiyalar tizimini ifodalaydi.

O‘zbek va xorijiy tillardagi terminologiyani tahlil qilish natijasida, uning shakllanish manbalari, jabhalari va individual turdagi atamalar va integral terminologik tizimlarning paydo bo‘lish vaqti nuqtai nazaridan qanchalik murakkab ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lamiz.

Terminologiyaning shakllanish tarixi fan tili tarixi bilan uzviy bog‘liqdir, chunki fan tili tarixiy tushunchadir. O‘zbek ilmiy fan tilining shakllanishi 20-asrlarga to‘g‘ri keladi. O‘zbek zaminida fan tilining rivojlanishining kelib chiqishi tarixiy borib taqaladi. Ko‘pgina ilmiy atamalarning shakllanishi shu davrga to‘g‘ri keladi, chunki aynan shu tarixiy davrda mamlakatimizda ko‘plab texnik fanlar rivojlandi, bilim va amaliy faoliyatning yangi yo‘nalishlari uchun mutaxassislar tayyorlandi, o‘quv qo‘llanmalari va maxsus lug‘atlar tuzildi.

Fan tili o‘z taraqqiyotida sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirgan va bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar umumiy adabiy tilning o‘zida sodir bo‘layotgan jarayonlar, shu asosda fan tili shakllangan, shuningdek, turli tarixiy davrlardagi fan taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy fan tili, shubhasiz, o‘z shakllanishining dastlabki davrlaridagi fan tilidan sezilarli farqga ega.

Fan tilini rivojlantirishning umumiy jarayonlari maxsus nomlarning shakllanishini ta‘minlaydigan maxsus nominativ fondning shakllanishiga, semantik jihatdan ixtisoslashgan so‘z yasalish vositalarining rivojlanishiga, ular yordamida asosiy toifalarning nomlari, izohlari yaratiladi, ilmiy matnlarga mantiqiy jihatdan eng mos keladigan morfologik va sintaktik vositalar tanlanadi.

O‘zbek terminologik tizimining shakllanishi uzoq tarixga ega bo‘lib, u ichki va tashqi omillar ta‘sirida turli davrlarda o‘zbek tilining shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Turli terminologik tizimlarni shakllantirish muammolari bo‘yicha maxsus manba va adabiyotlarni o‘rganishda, texnik fanlarning funktsional xususiyatlarini baholash nuqtai nazaridan, texnik atamalarining faol shakllanishi dolzarb bo‘lib qoldi.

XX asrda fan va texnika sohasidagi sezilarli yutuqlar, ko‘plab ilmiy fanlarning kontseptual apparatini tubdan qayta qurish, yangi bilim sohalarining paydo bo‘lishi yangi kontseptsiyalarning paydo bo‘lishiga olib keldi, bu ularning texnik terminologiyalarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi va terminologik portlash" deb nomlangan maxsus birliklarning ommaviy ravishda paydo bo‘lishiga olib keldi.

Terminologik maktabning asoschisi D.S.Lottening fikricha, ilmiy-texnik terminologiyani tartibga solish bo‘yicha ishlar uning muhim kamchiliklari: ko‘p ma‘nolilik, sinonimiya, noaniqlik, qat‘iy belgilangan ma‘noga ega bo‘lmagan atamalarning mavjudligi, chet tilidagi atamalarning haddan tashqari yuklanishi, atamalarni yasashda tizimlilikning yo‘qligi kabilarni bartaraf etish uchun zarurdir.

Texnik terminologiyaning markaziy masalalaridan biri texnik ilmiy texnik atama maqomini aniqlash muammosidir. Terminologiya "zamonaviy ilmiy fan bo‘lib, uning predmeti atamalar va terminologik tizimlar". Fanda ilmiy-texnik atamaning munosabati haqida ikki xil qarash mavjud bo‘lib, ularning foydalanish jihatdan farqlanadi.

Ba‘zi texnik soha olimlari bu atamalarni yakka holda, aniqlik, izchillik, kontekstdan mustaqillik va hissiy betaraflikka ega bo‘lgan ideal belgi deb hisoblashadi. Ko‘pgina olimlarning ta‘kidlashicha, tillardagi texnik atama va so‘z o‘rtasidagi munosabat muammosi terminologiya bo‘yicha tadqiqotlarda eng ko‘p muhokama qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday atama o‘zining "tabiiyligi" ma‘lumotlar bilan belgilanadigan doimiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, ma‘lum bir tabiiy tilga mansubligi, kelib chiqishi, sintagmatik va paradigmatik munosabatlarga kirish qobiliyati, maxsus tushuncha bilan bog‘liqligi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’zamjonovna Y. S. et al. Internetga oid atamalarni ingliz tilidan rus va o‘zbek tillariga tarjima qilish xususiyatlari //Miasto Przyszłości. – 2022. – T–. 252-254b.
2. Abjalova M., Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 85-89.
3. Bazarova U.M. Kon-Metallurgiya Atamalarining Tillardagi Izohining Lingvistik Xususiyatlari //Journal of Innovation in Education and Social Research. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 45-47.
4. Akobirov S.F, Til va terminologik, T., O'zbekiston. 1968y. 22 -23 betlar
5. Hasanov E. Terminologiyaning o’ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyati //Наука и технология в современном мире. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 18-21.
6. Лотте Д.С. Некоторые принципиальные вопросы отбора построения

научно-технических терминов // Изв. АН. Отделение техн. наук., 1940, №7-С 79-98.

7. Abjalova M. Matnlarga avtomatik qayta ishlov beruvchi dasturlarning lingvistik ta’minoti manbalari // “O‘zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli” ilmiy maqolalar to‘plami, TDO‘TAU,Toshkent, 2017.

DAVLAT BOSHQARUVIDAGI QO‘SHMA TERMINLAR TASNIFI

G‘aniyeva Lobar Sa’dulla qizi
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
ganiyevalobar29@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110604

Annotatsiya. Maqolada terminlarning struktur-grammatik jihatlariga doir nazariyalar yoritildi. Davlat boshqaruvidagi qo‘shma terminlarning tarkibiga ko‘ra tasnifi berildi. Komponentlari munosabatiga ko‘ra tiplari keltirildi. Xalqaro terminelementlar asosida shakllangan davlat boshqaruvi terminlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *termin, terminologiya, termin strukturasi, qo‘shma termin, komponent, gibrid termin.*

Abstract. In the article, the theories about the structural and grammatical aspects of the terms were covered. The classification of joint terms in state administration was given according to their composition. The types are presented according to their components. State management terms formed on the basis of international term elements were analyzed.

Key words: *term, terminology, term structure, compound term, component, hybrid terms.*

Terminshunoslik tilshunoslikning sohalaridan biri bo‘lganligi sababli uning obyekti hisoblangan terminlar mohiyatan, tuzilishi, tarkibi nuqtai nazaridan lingvistik qonuniyatlar asosida shakllangan. Terminologiyada terminlar tarkibi, struktur-grammatik qurilishi jihatidan turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Terminlar ham lingvistik vosita hisoblanib, murakkab tushunchalarni ixcham shaklda ifoda etish uchun muhim. Bugungi kunga qadar terminlarning strukturasi, tarkibiy tuzilishi atroflicha tadqiq etilmoqda. O‘zbek tili bank-moliya terminlarining struktur jihati o‘rganilganda terminlar tuzilishi jihatidan bir komponentli tub va yasama, ikki komponentli, uch komponentli, to‘tr va undan ortiq komponentli shaklda tasnif amalga oshirilgan. Diplomatik terminlarning struktur tadqiqida esa hosil bo‘lish, shakllanish, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak yasalish jarayoni inobatga olingan. Biz esa ishimizda ikki yondashuvni ham hisobga olib, terminlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini umumlashtirgan holda tahlil qildik. Davlat boshqaruvi terminlari tuzilishi jihatidan sodda, qo‘shma va birikmali shakllarga ega.

O‘zbek tili leksikasining eng boy, eng harakatchan va o‘ta o‘zgaruvchan qatlamlaridan biri bo‘lgan terminlarning bosh vazifasi tushuncha mohiyatini, mazmunini to‘laqonli anglatishdir. Termin tushuncha mohiyatini qanchalik aniq va to‘liq ifodalasa, u shakl jihatdan murakkab, ya’ni bir necha komponentli qo‘shma terminlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi[Madvaliyev A., 2021: 14]. Demak, bu terminlar tizimiga tegishli nazariy qarash deb hisoblasak, davlat boshqaruviga oid terminlar ham bundan mustasno emas. Ilm-fan va taraqqiyotning yangicha ko‘rinishda shiddat bilan rivojlanishi terminologik tizimga ta’sir etmasdan qolmaydi. Bu jarayon yangicha terminlarning shakllantirilishiga va o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lmoqda. Til tizimidagi terminologik sistemaning takomillashish, rivojlanish va yangilanish bosqichlarini ilmiy asoslash uchun ham qo‘shma terminlarni, ularning strukturasini va tarkibiy qismlarini o‘rganish muhim. Qo‘shma terminlar yagona strukturaga va semantik birlikka ega bo‘ladi. G.O.Vinokurning yozishicha: “Qo‘shma so‘zlar faqatgina yangi so‘zlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun emas, balki, ko‘proq, haqiqatan ham ikki tushunchani bir so‘z orqali ifoda etish zarurati bo‘lgani uchun ham zarurdir” [Vinokur G.O., 1939: 49]. Aytishimiz mumkinki, qo‘shma terminlar tushunchani aniq va mukammal ifoda etishi muhim. So‘ngi paytlarda barcha terminologik sistemalarda bo‘lgani kabi davlat boshqaruvida ham qo‘shma terminlarning yangi modellari shakllangan. Bularning aksariyat qismi yangi tushunchalarni ifodalaydi. Davlat boshqaruviga oid qo‘shma terminlarning tarkibi va tuzilishidan kelib chiqib ularni uch tipda tadqiq etishni ma’qul topdik. Ya’ni komponentlari o‘zbekcha, arabcha va fors-tojikcha so‘zlarning birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma terminlar, gibrid terminlar, ya’ni komponentlari ruscha-baynalminal, yoki xalqaro terminelementlardan tarkib topgan terminlar .

Afv etish termini sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning (mahkumning) iltimosnomasiga binoan uning gunohini kechirish ma’nosini izohlab, amnistiya termini bilan sinonim hisoblanadi [Madvaliyev A., 2020: 9]. *Afv etmoq* termini xonliklar, amirliklar davridan iste’molda bo‘lib, bugungi kunga qadar o‘zining semasini yo‘qotmagan va strukturasida ham o‘zgarishga uchramagan, bir qoshiq qonidan kechmoq iborasi bilan sinonimlik hosil qilgan. Afv faqat podsho tomonidan berilgan. Bugungi kunda afv etish ya’ni amnistiya faqat prezident qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

O‘zbek tili davlat boshqaruvida fors tilidan o‘zlashgan *noma* so‘zi asosida hosil qilingan bir qancha xat-hujjatlarni ifodalavchi terminlar mavjud.

Axborotnoma axborot(arab tilidan o‘zlashgan, xabar so‘zining ko‘pligini ifodalaydi) va noma (forsiydan o‘zlashgan, qo‘shma so‘zlar tarkibida xat mazmunini anglatadi) so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan, ish, voqea, hodisa haqida yozma xabar berish xati mazmunini iste’foda etadi.

Bayonnoma arabiy va forsiy til birliklarining birikuvidan hosil bo‘lib, boshqaruvga doir yig‘ilishlar, kengashlar va boshqa shu kabi anjumanlarning borishini va ular qabul qilgan qarorlarni siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat [Madvaliyev A., 2020: 31].

Da’vatnoma yozma taklif, ya’ni biror g‘oyaviy-ma’naviy maslakka yoki ish-harakatga da’vat etuvchi, undovchi varaqa bo‘lib, [Madvaliyev A., 2020: 48] bunday varaqalar mustaqillikdan so‘ng diniy ekstrimizmni targ‘ib qiluvchilar tomonidan rasmiy hukumatga qarshi harakatlarni vujudga keltirish uchun tarqatilgan. Arabiy va forsiy til birliklarining birikuvidan hosil bo‘lgan.

Dalolatnoma biror bir faoliyatda sodir bo‘lgan voqea-hodisa yoki holatni tasdiqlash, yoki unga guvohlik berish maqsadida bir necha shaxslar tomonidan muayyan shaklda tuzilgan rasmiy hujjat [Madvaliyev A., 2020:44].

Ma’lumotnoma Kishilarning turmushi va ish faoliyatiga doir voqea,hodisa va holatlarni aks ettirib, tasdiqlab beradigan va talab qilinadigan joylarga taqdim etiladigan rasmiy hujjat [Madvaliyev A., 2020: 146].

Keltirilgan terminlar struktur jihatdan bir xil, yani ot+ot turkumidagi so‘zlarning qo‘shilib, bir tushunchani anglatadigan terminni hosil qilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz kerakki, manbalarda qo‘shma terminlar komponentlari munosabatiga ko‘ra ikki turga taqsimlanadi [Dadaboyev,2020:90].

1. Aniqlovchi+aniqlanmish tipidagi qo‘shma terminlar ikki yoki undan ortiq ism turkumli so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘ladi va yaxlit bitta tushuncha ifodalaydi.

2. To‘ldiruvchi+to‘ldirilmish tipidagi qo‘shma terminlar birikmali terminlarning semantik o‘zgarishlar bilan elipsis hodisasiga uchrashi oqibatida hosil bo‘lgan terminlardir. [Dadaboyev H.,2020:90]

Birinchi tipdagi qo‘shma terminlar davlat boshqaruvida juda ko‘p uchraydi. Masalan, *daxlsizlik huquqi, ijtimoiy himoya, ma’naviy zarar, ma’lumotlar bazasi, majburiy ta’lim, jinoyat kodeksi* kabi; keltirilgan terminlar garchi ajratib yozilsada, shuningdek, tarkibidagi komponentlari o‘zlari anglatgan semalarini saqlab qolgan bo‘lsada ikki tushuncha anglatuvchi so‘z birikib yangi va umumiy tushuncha anglatib qo‘shma terminni hosil qilmoqda.

Tilshunos olim Ko‘chimov Sh. “Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy nazariy muammolari” xususida tadqiqotida qonunlar tili, undagi terminlarning o‘rinli yoki o‘rinli emasligi, yuridik terminlardagi ayrim nomuvofiqliklar haqida to‘xtalib o‘tadi. Davlat boshqaruvining asosi bo‘lgan Konstitutsiyaning matnida Yevropa tillaridan o‘zlashgan bir qancha terminlarning o‘zbekcha muqobili (*tizim, tarkib, fuqaro, uyushma, tuman, dastur, qo‘mita, vazirlik, taftish, viloyat, mafkura, hujjat, faxriy, kafolat, madhiya, guruh, vazirlik, an’ana, jamg‘arma, iqtisodiyot*) berilganligini ijobiy baholab, Konstitutsiya tiliga ijodiy yondashilganligini bu esa ayni muddao ekanligini ta’kidlaydi. [Ko‘chimov,2004:156] Shuningdek, qomusimizda hammasi bo‘lib 5421 ta ishlatilgan so‘zdan 43 tasi xalqaro baynalminal termin (*Konstitutsiya, demakratiya, advokatura, koopirativ, moliya, material, amnistiya, medal, orden, diplomatik, akkreditatsiya, smeta, parlament, denonsatsiya, ratifikatsiya, prokuror, komissiya, byudjet, kredit, valyuta, strategik, deputat, okrug, suveren, senzura, yuridik, pensiya, bank, telefon, norma subekt, normative, institut, sud, partiya, prezident, referendum, gerb, organ, prinsip*) degan ma’lumotni ham keltirib o‘tadi. Demak, aytishimiz mumkinki, davlat boshqaruvining asosi hisoblangan Konstitutsiyada, asosan, o‘zbekcha arabcha va forscha so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma terminlar ko‘p uchraydi. Masalan, *muxtor vakil, fuqarolik burchi, milliy totuvlik, ijtimoiy adolat, davlat tili, yagona fuqarolik, shaxsiy huquq, yashash huquqi…*

Kasaba uyushmasi tashkilot nomini ifodalovchi termin bo‘lib, ishchi, xizmatchilarning manfaatlarini himoya qiladi. Kasaba [aniqlovchi]+uyushmasi [aniqlanmish], ot+ot birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma termin .

Fuqarolik burchi termini davlatning fuqarosi tomonidan fuqaro sifatida bajarish lozim bo‘lgan vazifalarni nazarda tutadi. Fuqarolik burchi komponenlariga ko‘ra aniqlovchi+aniqlanmish bo‘lib, fuqaro arabcha faqir so‘zining ko‘pligi, burch esa turkiy so‘z hisoblanadi. Bu kabi qo‘shma terminlar davlat boshqaruvi sohasida talaygina. Ammo unutmaslik kerakki, komponenti xalqaro terminelementlardan iborat bo‘lgan gibrit terminlar ham katta qismni tashkil qiladi.

Gibrid terminlar kommunikativ birlik sifatida o‘zbek tilida XX asr o‘rtalaridan faollashgan. Bizga ma’lumki, gibrid terminlar qo‘shma terminlar ichida alohida ajralib turadi. Uning lingvistik belgisi tarkibida xalqaro terminelementning mavjudligi bilan belgilanadi. Xalqaro terminelementlarni qo‘llash holati biron fan sohasida bir tipdagi tushunchalar uchun bir qolipli terminlar yaratish zarurati tufayli, yoki biron-bir sabab bilan milliy terminelementlardan aniq va qisqa termin yaratish mumkin bo‘lmaganlikdan kelib chiqadi. [Madvaliyev A., 2021: 15]

Shunga ko‘ra, davlat boshqaruvi sohasida ham xalqaro terminelementlar mavjud bo‘lgan bir qancha terminlar mavjud bo‘lib, ularning yaratilishiga ham bir qancha lingvistik sabablari bor. Shuningdek, ingliz tilshunosi V.Flud “Terminlar. Ularning strukturasi va ma’nosi” lug‘atida 1150 ga yaqin (ingliz tili uchun) shunday xalqaro terminelementlarni keltirsa, N.V.Yushmanov “Xalqaro terminologiya elementlari” lug‘at-ma’lumotnomasida 1100 dan ortiq (rus tili uchun) terminelementlarni jamlaydi.[Yushmanov,1939:3]Terminshunos olimlarning qarashlariga ko‘ra agar xalqaro qo‘shma terminning har bir komponenti o‘zbek tilida mustaqil termin yoki terminelement sifatida qo‘llansa, shuningdek, birinchi qismi xalqaro terminelementlardan yoki mustaqil qo‘llanuvchi atributiv elementning qisqartmasidan, ikkinchi qismi esa mustaqil termindan tuzilgan bo‘lsa bunday terminlar o‘zbek tilida qo‘shma termin sifatida qabul qilinishi kerak[Madvaliyev A., 2021: 15].

Demak, aytishimiz mumkinki, termin tarkibida xalqaro terminelement faqat leksemadan iborat bo‘lmay qisqartma element (prepozitiv) va morfemalardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Bu kabi xalqaro terminelementlar mavjud terminlarning qo‘shma termin sifatida qabul qilinishiga sabab esa, ularning ma’lum tushuncha tashishi va ifodalashida deb mulohaza qilishimiz mumkin. Ya’ni gibrit qo‘shma terminlar turli tillarga mansub til birliklaridan hosil bo‘lib, davlat boshqaruvi sohasida xalqaro terminelementlar va o‘zbekcha so‘zlarning qo‘shilishidan yasalgan. Bugungi kunda davlat boshqaruvining bank-moliya tarmog‘ida *makroiqtisodiyot, mikroqarz* kabi terminlarga ko‘p duch kelamiz. Ko‘rinib turibdiki, makro va mikro yunon tilidagi birlik bo‘lib, gibrid termin hosil qilishda ishtirok etmoqda. *Politologiya, megapolis, premier-mininstr, professional armiya, prerogativa* kabi bir qancha gibrid terminlarni keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvidagi qo‘shma terminlarning asosiy qismi ajratib yoziladi. Shu bilan birga, to‘ldiruvchi+to‘ldirilmish tipidagi qo‘shma terminlarga nisbatan aniqlovchi+aniqlanmish tipidagilar ko‘p qismni tashkil qiladi. Davlat boshqaruvi sohasidagi terminlarning katta qismini tashkil qilgan gibrid terminlar klassik tillar hisoblangan yunon va lotin, shuningdek, fransuz, ingliz, rus tillariga oid birliklarning o‘zaro kombinatsiyasidan hosil bo‘lgan. Unutmaslik kerakki, qo‘shma terminlarning ildizi birikmali terminlar hisoblanadi. Shuning uchun ba’zida birikmalimi yoki qo‘shma terminmi degan ikkilanishlarga duch kelamiz. Qo‘shma terminlar komponentlari bilan birga bir tushuncha mohiyatini izohlaydi va umumiy bitta so‘roqqa javob bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии \\ труды МИФЛИ. Т.В. – М., 1939. –С.49.

2. Dadaboyev H., O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim. 2020. – B. 90.

3. Кучимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил) Ф.ф.д...дисс. – Тошкент: 2004. – Б. 156.

4. Mavlanov S.D. O‘zbek tili diplomatik terminlari. Fil.f.b. fal.dok. Diss. – T. 2023.

5. Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Халқаро терминелеменлар ва термин ижодкорлиги. –Т.: 2021 //Ўзбек тили ва адабиёти. № 2. –Б. 15.

6. Madvaliyev A.[va boshq] Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. – T: 2020. “Sahhof”, –B 9

7. Xolmanova Z.T. Tilshunoslik nazariyasi. –T. 2019. –B. 163-164.

8. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Фил.ф.б. фал.док. Дисс. –Т. 2020.

9. Юшманов Н.В. Элементы международной терминологии. Словарь-справочник. –М.: «Наука»,1968. –С. 3-4.

10. Abjalova M., Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 85-89.

HINDIY TILIDA कारक ‘kaarak’, परसर्ग ‘parsarg’, विभक्ति ‘vibhakti’ TERMINLARINING AYRIM JIHATLARI

Raxmatjonova Kamola Abdumutal qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrasi
katta o‘qituvchisi
e-mail: kamolarahmatjonova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110622

Аннотация. Mazkur maqolada hindiy tiliga xos कारक ‘kaarak’, परसर्ग ‘parsarg’, विभक्ति ‘vibhakti’ grammatik terminlarining o‘zbek tilida qo‘llashdagi ayrim jihatlari xususida so‘z boradi. Tanlangan terminlar misolida hindiy tilida grammatik atamalar bilan bog‘liq ayrim muammolar va ularning yechimlari ko‘rsatiladi. Mavzuni yoritishda ilmiy hamda uslubiy adabiyotlarga tayanildi.

Kalit so‘zlar: *grammatik kategoriya, kelishik, poslelog, vibhakti, parsarg, ko‘makchi.*

Annotation. This article talks about some aspects of the use of the Hindi grammatical terms कारक ‘kaarak’, परसर्ग ‘parsarg’, विभक्ति ‘vibhakti’in the Uzbek language. Some problems related to grammatical terms in Hindi and their solutions were shown on the example of selected terms. Scientific and methodical literature is used in writing the article.

Keywords: *grammatical category, case, poslelog, vibhakti, parsarg, auxiliary word.*

Xorijiy tildagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi muayyan tilga tarjima qilinganda, doim ham mos kelavermaydi. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda yoki tanlangan til imkoniyatlari doirasida so‘zning lug‘aviy ma’nosi o‘zgarib turadi. Bunday holatni tilshunoslik terminlarida ham kuzatish mumkin.

Ma’lumki, hindiy tili dunyodagi mavjud tillar orasida eng qadimiylaridan ekanligi bilan ajralib turadi. Grammatik terminlar borasida ham hindiy tili ancha ilg‘or. Bu tilda yozilgan tilhunoslik matnlarini o‘qish va tushunish oson emas. Chunki tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, hind tillarining rivojlanish bosqichi asosan uch davrga bo‘linadi: eng qadimgi (taxminan miloddan avvalgi XII asrdan boshlanadi), o‘rta (miloddan avvalgi 1-ming yillikning o‘rtalaridan) va yangi davr (milodiy X

asrdan keyin boshlangan). Ushbu davrlar hind tillarining dastlabki sintetik-flektiv holatidan asta-sekin fonetik-morfologik o‘zgarishlar natijasida analitik vositalarning, agglyutinativ tizimning paydo bo‘lishi bilan farqlanib turadi [3]. Shunga ko‘ra, hindiy tili tilshunoslik matnlarida asosan uch qatlamdagi terminlar, ya’ni sanskritcha, yangi hind-oriy tillariga xos hamda o‘zlashgan (asosan ingliz tilidan) grammatik terminlar qatlami farqlanadi.

Ma’lum bir tilning grammatik terminlarini ona tiliga tarjima qilib foydalanish murakkab jarayondir. Chunki bir tilda mavjud grammatik termin ikkinchi tilda aynan mos holatda uchramasligi mumkin. Biroq bu tanlangan til grammatikasida mazkur funksiyaviy vazifaning mavjud emasligidan dalolat bermaydi. Masalan, hindiy va o‘zbek tillarining grammatik qatlamida kelishik kategoriyasi mavjud. O‘zbek tilida mazkur termin ‘kelishik’ deyilsa, hindiy tilida कारक ‘kaarak’ deb yuritiladi. Bu grammatik kategoriya ikki tilda ham aynan bir funksional vazifani bajaradi, ya’ni kelishiklar muayyan belgilar vositasida gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Mashhur tilshunos olim J.Layonz ma’lumotiga binoan kelishik – otning grammatik kategoriyasi hisoblanib, mazkur ot narsa-predmet va hodisa bilan ifodalangan munosabatni anglatuvchi kategoriyaviy ma’noni bildiradi va shu bilan gapdagi boshqa so‘zlarga nisbatan munosabatini ifodalaydi [5].

Hind tilshunosi V.Prasadning fikricha, gapda ot va olmoshlarni boshqa so‘zlar bilan bog‘lovchi grammatik kategoriya – कारक ‘kaarak’ deyiladi, mazkur termin o‘zbek tilida vazifasiga ko‘ra aynan kelishikka mos keladi. Shuningdek, uning fikricha, ot yoki olmoshning fe’l bilan munosabatini ta’minlovchi grammatik kategoriya ham kelishikdir. Olimning ta’kidlashicha, hindiy tilida ot yoki olmoshning ने ‘ne’, को ‘ko’, से ‘se’ kabi posleloglar bilan birikkan holatda kelishi kelishik kategoriyasidir. Shunday posleloglar bilan kelgan so‘zlar boshqa so‘z bilan biriksa, so‘z birikmalari hosil bo‘ladi. ने ‘ne’, को ‘ko’, से ‘se’ kabi posleloglar turli kelishiklarga xosdir. Mazkur posleloglar ot yoki fe’llar bilan birikib, कारकपद ‘kaarakpad’ «kelishikli birikma» yoki क्रियापद ‘kriyaapad’ «fe’lli birikma» larni hosil qiladi. Bunday birikmalarsiz bironta jumlani tasavvur qilish mumkin emas. Masalan, रामचन्द्र जी ने ... समुद्र पर बन्दरों से पुल बंधवा दिया ‘Raamchandra jii ne … samudr par bandaroN se pul baNdhvaa diyaa’. «Ramchandar … dengizda maymunlardan ko‘prik yasattirdi».

Bu gapda रामचन्द्र जी ने ‘Raamchandra jii ne’ “Ramchandar (bosh kelishikda, gapdagi ish-harakat tugallangan zamonda)”, समुद्र पर ‘samudr par’ “dengizda”,

बन्दरों से ‘bandaroN se’ “maymunlardan” va पुल ‘pul’ “ko‘prik” otlarning turli xil ko‘rinishlari bo‘lib, mazkur otlar बंधवा दिया ‘baNdhvaa diyaa’ “yasattirdi” fe’li bilan bog‘langan [7].

Olim hindiy tilidagi kelishiklar sonini sakkizta deb ko‘rsatadi hamda kelishiklarni ifodalash uchun ot yoki olmoshlardan keyin maxsus belgilar qo‘yiladi, mana shu belgilar hindiy tili grammatikasida विभक्तियाँ ‘vibhaktiyaaN’ ishlatilishini ta’kidlaydi (bu yerda विभक्तियाँ ‘vibhaktiyaaN’ – विभक्ति [6] ‘vibhakti’ ning ko‘plik shaklidir).

Ba’zi hindshunos olimlar mazkur kelishik qo‘shimchalarini परसर्ग ‘parsarg’ deb ham yuritadilar, mazkur so‘zning lug‘aviy ma’nosi ingliz tilidagi predlog terminiga yanan mos tushadi. Yana bir hindshunos olim K. Vajpeyi “kelishik qo‘shimchalarini विभक्तियाँ ‘vibhaktiyaaN’ deb nomlash bizga an’anaga aylangan, uni परसर्ग ‘parsarg’ so‘zi bilan almashtirib qo‘llashdan ne naf?” degan fikrga qat’iy urg‘u beradi. Shu fikrlarga tayangan holda kelishik qo‘shimchalarini an’anaviy yo‘ldan borib , विभक्ति ‘vibhakti’ deb atash to‘g‘ri bo‘ladi, deydi. Fikrimizcha, mazkur terminning vazifaviy holaridan kelib chiqib, o‘zbek tilida izohlansa, kelishik shakllari yoki kelishik ma’nolarini ifodalovchi affiksal morfema deyish to‘g‘ri bo‘ladi [1].

Yana bir hind tilshunosi Harivansh Sinhga ko‘ra, hindiy tilida kelishik कारक ‘kaarak’, predlog परसर्ग ‘parsarg’ hamda qo‘shimcha विभक्ति ‘vibhakti’ o‘rtasida farq bor. Ammo ko‘pincha mazkur so‘zlarning ma’no munosabatida chalkashlik yuzaga keladi. Uning fikricha, विभक्ति ‘vibhakti’ termini sanskrit tilida affiksning bir turi sifatida ishlatilgan. Panini o‘z grammatikasida affikslarni ikkiga bo‘lgan: ot va sifatlar bilan ishlatiluvchi qo‘shimchalar va fe’llar bilan ishlatiluvchi qo‘shimchalar. Mazkur qo shimchalarni u umumiy tarzda विभक्ति ‘vibhakti’deb nomlagan. परसर्ग ‘parsarg’ predlog bo‘lib, u ancha zamonaviy termin hisoblanadi hamda gapda so‘zlarni bir-biriga bog’laydi. कारक ‘kaarak’ kelishik termini esa, gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan grammatik kategoriya nomidir [7].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, hindiy tilidagi kelishik kategoriyasini ifodalovchi shakllarning qanday nomlanishi hindshunos olimlar orasida ham bahs-munozaralidir. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek hindshunoslari o‘rtasidagi munozarali holatga olib kelishi tabiiy.

Demak, hindiy tili tilshunoslik terminlari orasida o‘zbek tilshunoslik terminlaridek turg‘un atamalar kam uchraydi. Hindiy tili hamon jadal rivojlanayapti va bu holat ekstrolingvistika bilan chambarchas bog‘liqdir. Natijada yangi terminlar muttasil kirib kelayapti. Shu bilan birga an’anaviy tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan qadimgi hind-oriy tillariga xos terminlar ham foydalanilayapti. Mazkur terminlardan foydalanilganda, xorijiy tilga tarjima qilinganda albatta yuqorida keltirilgan tarixiy jarayondan xabardor bo‘lgan xolda ularni qo‘llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati, T.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati A. Madvaliyev tahriri ostida, 2006-2008
3. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish, 1-3-qismlar, T., 2002-04
4. Жеребило Татьяна Васильевна Словарь лингвистических терминов, 2010
5. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику, пер.с.англ. – М., Наука, 1978
6. под редакцией В.М.Бескровный «Хинди-русский словарь», М., 1972
7. वासुदेवनन्दन प्रसाद – आधुनिक हिन्दी व्याकरण और रचना – भारती भवन, पटना, 2003

KONCHILIK TERMINOLOGIYASINING LUG‘ATLARDAGI TAHLILI

Sobirova Maftuna Jamolovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110640

Annotatsiya. Ushbu maqola lug‘atlarda ta'riflangan konchilik terminologiyasining tahliliga qaratilgan. Tog‘-kon sanoati ixtisoslashgan o‘ziga xos leksikaga ega murakkab sanoat bo‘lib, samarali muloqot uchun aniq va izchil terminologiyaga tayanadi. Biroq, lug‘atlar bo‘ylab kon atamalarining ta'riflaridagi nomuvofiqliklar va noaniqliklar sanoatda tushunish va muloqot qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Turli lug‘atlarda tog‘-kon terminologiyasini batafsil tahlil qilish orqali ushbu maqola umumiy jihatlar, farqlar va noaniqlik sohalarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, yakunda konchilik terminologiyasi va uning oqibatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *konchilik, standartlashtirilgan terminologiya, raqamli texnologiya, sanoat, qiyosiy tahlil, ruda. mining, standardized terminology, digital technology, industry, comparative analysis, ore.*

ANALYSIS OF MINING TERMINOLOGY IN DICTIONARIES

Abstract. This article provides a thorough examination of mining terminology as defined in dictionaries. Mining, being a complex industry with a specialized lexicon, relies heavily on clear and consistent terminology for effective communication. However, discrepancies and ambiguities in the definitions of mining terms across dictionaries can pose challenges to understanding and communication within the industry. Through a detailed analysis of mining terminology in various dictionaries, this article aims to identify commonalities, differences, and areas of ambiguity, ultimately contributing to a better understanding of mining terminology and its implications.

Keywords: *mining, standardized terminology, digital technology, industry, comparative analysis, ore.*

Kirish. Tog‘-kon sanoati ko‘plab jarayonlar, texnologiyalar va amaliyotlarni o‘z ichiga olgan hayotiy sanoatdir. Tog‘-kon sanoati sohasida samarali muloqot qilish uchun uning maxsus terminologiyasini umumiy tushunish muhim ahamiyatga ega. Lug‘atlar turli sohalarda qo‘llaniladigan atamalarning ta’riflari va tushuntirishlarini ta'minlovchi tilning ombori bo‘lib xizmat qiladi. Biroq lug‘atlarda

kon atamalarining to‘g‘riligi, izchilligi va to‘liqligi har doim ham kafolatlanavermaydi. Ushbu maqola lug‘atlarda konchilik terminologiyasini o‘rganish, nomuvofiqliklar, noaniqliklar va vaqt o‘tishi bilan ushbu ta'riflarning evolyutsiyasini yoritishga qaratilgan.

Konchilik terminologiyasining ahamiyati. Standartlashtirilgan terminologiya konchilik operatsiyalari, geologik tuzilmalar, uskunalar, xavfsizlik protokollari va atrof-muhit muammolari bilan bog‘liq muhim ma'lumotlarni yetkazishda aniqlik va izchillikni ta'minlaydi. Tog‘-kon atamalarining aniq bo‘lmasligi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi tushunmovchiliklarga, xatolarga va hatto baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin, bu lug‘atlarda aniq ta'riflarning muhimligini ta'kidlaydi. Tog‘-kon terminologiyasining ahamiyati uning tog‘-kon sanoatida aniq va standartlashtirilgan aloqani ta'minlash qobiliyatidadir. Tog‘-kon terminologiyasining muhimligining bir necha asosiy sabablari sifatida quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin: (1) Aniqlik va lo‘ndalik: qazib olish murakkab jarayonlar, texnikalar va materiallarni o‘z ichiga oladi. Standartlashtirilgan terminologiya sohadagi mutaxassislarning geologik tuzilmalar, qazib olish usullari va xavfsizlik protokollari kabi turli jihatlar haqida qisqa va aniq muloqot qilishlarini ta'minlaydi; (2) Xavfsizlik: qazib olish ishlari xavfli bo‘lishi mumkin, masalan, g‘orlar, gaz sizib chiqishi va kimyoviy ta'sir qilish kabi xavflar. Aniq terminologiya xavfsizlik tartib-qoidalari va ogohlantirishlar ishchilarga samarali yetkazilishiga yordam beradi, baxtsiz hodisalar va jarohatlar ehtimolini kamaytiradi; (3) Samaradorlik: konchilik kabi jadal rivojlanayotgan sanoatda samaradorlik va rentabellikni maksimal darajada oshirish uchun juda muhimdir. Standartlashtirilgan terminologiya muloqotni soddalashtiradi va tushunmovchiliklarning oldini oladi, vaqt va resurslarni tejaydi; (4) Normativ hujjatlarga muvofiqlik: Tog‘-kon operatsiyalari atrof-muhitni muhofaza qilish, ishchilar xavfsizligi va resurslarni boshqarish bo‘yicha ko‘plab qoidalar va standartlarga bo‘ysunadi. Izchil terminologiya aniq hisobot va hujjatlarni rasmiylashtirish orqali ushbu qoidalarga rioya qilishni ta'minlashga yordam beradi; (5) Fanlararo hamkorlik: Konchilik geologiya, muhandislik, atrof-muhit fanlari va iqtisodiyot kabi turli fanlar o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Standartlashtirilgan terminologiya turli sohalardagi mutaxassislarga samarali hamkorlik qilish imkonini beradi, fanlararo hamkorlikni va muammolarni hal qilishni kuchaytiradi; (6) Ta'lim: Tog‘-kon sanoatiga yangi kelganlar uchun maxsus atamalarni o‘rganish jarayonlar, uskunalar va xavfsizlik protokollarini tushunish uchun juda muhimdir. Standartlashtirilgan terminologiya ta'lim va o‘qitish dasturlarini osonlashtiradi va yangi ishchilarning tezroq malakali bo‘lishiga yordam

beradi; (7) Xalqaro aloqa: Tog‘-kon sanoati butun dunyo bo‘ylab joylashgan operatsiyalari, yetkazib beruvchilari va mijozlariga ega global sanoatdir. Standartlashtirilgan terminologiya til to‘siqlari bo‘ylab samarali muloqot va hamkorlikni ta’minlaydi, xalqaro savdo va hamkorlikni osonlashtiradi.

Konchilik terminologiyasini tahlil qilish. Turli lug‘atlar bo‘yicha tanlangan kon atamalarini tizimli tahlil qilish orqali ushbu bo‘lim berilgan ta'riflar va tavsiflarning nuanslarini o‘rganadi. Konchilik terminologiyasi sanoatning geologik, ekspluatatsion, xavfsizlik va ekologik jihatlariga taalluqliligiga qarab tasniflanadi. Qiyosiy tahlil ta’riflardagi o‘xshashlik farqlarni ochib beradi, leksikograflar o‘rtasida konsensus va noaniqlik sohalarini ajratib ko‘rsatadi. Keling buni konchilikdagi "ruda" atamasi misolida turli lug‘atlarda uning ta’rifini tizimli tahlil qilaylik.

Merriam-Webster: "u qazib olinadigan va ishlov beriladigan qimmatbaho tarkibiy qismni (masalan, metall) o‘z ichiga olgan tabiiy ravishda paydo bo‘lgan mineral".

Oksford inglizcha lug‘ati (OED): "Metal yoki qimmatbaho mineralni foydali qazib olish mumkin bo‘lgan tabiiy ravishda paydo bo‘lgan qattiq material".

Kembrij lug‘ati: "metall olinadigan tosh yoki tuproq".

Dictionary.com: "foyda bilan qazib olinishi mumkin bo‘lgan metall saqlovchi mineral yoki tosh yoki mahalliy metall".

Collins inglizcha lug‘ati: "tarkibida bir yoki bir nechta metallarni olish mumkin bo‘lgan mis yoki oltin kabi qimmatbaho metallar bo‘lgan jins".

Makmillan lug‘ati: "metall olinadigan tosh yoki tuproq".

Vikilug‘at: "Utilitar materiallarni o‘z ichiga olgan tog 'jinsi; birinchi navbatda, (tog‘ jinsini baholash va qazib olish taklifi paytida) qo‘shni minerallardan ajratish va ushbu materiallardan oshmaydigan xarajat bilan qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan metallar yoki qimmatbaho toshlar bo‘lgan tosh. "Hozirgi iqtisodiy qadriyatlar".

Britannica entsiklopediyasi: "Qazib olish, qayta ishlash va foyda bilan sotish mumkin bo‘lgan bir yoki bir nechta foydali qazilmalarning tabiiy yig‘indisi".

Ushbu ta'riflar izchil mavzuni ko‘rsatadi: ruda tabiiy ravishda paydo bo‘ladigan material, odatda tosh yoki mineral bo‘lib, tarkibida metallar yoki minerallar kabi qimmatli moddalar mavjud. Ushbu moddalarni qazib olishning rentabelligi ta'riflar davomida ta'kidlangan asosiy jihat bo‘lib, konchilik faoliyatida rudalarning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Konchilik terminologiyasining evolyutsiyasi. Tog‘-kon terminologiyasining evolyutsiyasi texnologiyadagi yutuqlarni, sanoat amaliyotidagi o‘zgarishlarni va madaniy va lingvistik kontekstlardagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Konchilik terminologiyasining tarixiy istiqbollari asosiy atamalarning kelib chiqishi va rivojlanishi, shuningdek, globallashuv va madaniyatlararo almashinuvlarning ta’siri haqida tushuncha beradi. Tog‘-kon terminologiyasining tarixiy yo‘nalishini tushunish uning dinamik sanoatdagi ahamiyati va moslashuvini tushunishimizni oshiradi.Tog‘-kon terminologiyasining evolyutsiyasi texnologiyadagi yutuqlarni, sanoat amaliyotidagi o‘zgarishlarni va vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishini aks ettiradi. Bu yerda kon terminologiyasi qanday rivojlanganligi haqida umumiy ma’lumot keltirdik:

Ilk terminologiya: Qadim zamonlarda tog‘-kon terminologiyasi ko‘pincha tavsiflovchi bo‘lib, ruda turlari (masalan, oltin, kumush, mis) va qazib olish usullari (masalan, yer usti, yer osti qazib olish) kabi asosiy elementlarga qaratilgan edi. Terminlar ko‘pincha tog‘-kon sanoati sodir bo‘lgan mintaqalar tillarida ildiz otgan.

Sanoat inqilobi: Sanoat inqilobi konchilik texnologiyasi va amaliyotida sezilarli yutuqlarga olib keldi. Bug 'bilan ishlaydigan mashinalar, portlatish uchun dinamit va mexanizatsiyalashgan qazib olish usullari kabi innovatsiyalarni tavsiflovchi yangi atamalar paydo bo‘ldi. Terminologiya ushbu yutuqlarni aks ettirish uchun yanada texnik va ixtisoslashgan bo‘ldi.

Ilmiy tushuncha: Geologiya va mineralogiya haqidagi ilmiy tushunchalar kengaygan sari, tog‘-kon terminologiyasi yanada aniqroq va standartlashtirildi. Ushbu o‘sib borayotgan bilimlar bazasini aks ettirish uchun geologik shakllanishlar, foydali qazilmalarni aniqlash va rudani qayta ishlash usullari bilan bog‘liq atamalar ishlab chiqilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish: XX asr oxiri va XXI asr boshlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xabardorlikning oshishi barqaror tog‘-kon amaliyotlari, melioratsiya va atrof-muhitga ta'sirni baholash bilan bog‘liq yangi terminologiyaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Sanoat leksikonida "atrof-muhitni boshqarish", "reabilitatsiya" va "ekotizim xizmatlari" kabi atamalar ko‘proq o‘rin oldi.

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish: Raqamli texnologiya va konchilikda avtomatlashtirishning yuksalishi ma’lumotlar tahlili, masofaviy monitoring va avtonom uskunalar bilan bog‘liq yangi terminologiyani joriy qildi. "Katta ma'lumotlar", "mashinalarni o‘rganish" va "avtonom yuk tashish tizimlari" kabi

atamalar konchilikning kelajagi haqidagi munozaralarning ajralmas qismiga aylandi.

Ijtimoiy mas'uliyat: Korporativ ijtimoiy mas'uliyatga (KSS) e'tiborning ortib borishi jamiyatni jalb qilish, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish va axloqiy manbalar bilan bog‘liq terminologiyaning qabul qilinishiga olib keldi. "Faoliyat qilish uchun ijtimoiy litsenziya", "jamoa munosabatlari" va "axloqiy ta'minot zanjiri" kabi atamalar barqaror va mas'uliyatli konchilik amaliyotiga e'tiborni aks ettiradi.

Globallashuv: tog‘-kon sanoatining globallashuvi bilan atamalar transmilliy kompaniyalar, xalqaro tartibga solish organlari va turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida muloqotni osonlashtirish uchun ko‘proq standartlashtirildi. Ingliz tili konchilik terminologiyasi uchun asosiy til sifatida paydo bo‘ldi, garchi mahalliy tillar va mintaqaviy lahjalar ma'lum hududlarda terminologiyaga hali ham ta'sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tog‘-kon terminologiyasining evolyutsiyasi texnologik yutuqlar, ilmiy kashfiyotlar, ekologik mulohazalar, ijtimoiy qadriyatlar va global tendentsiyalarni o‘z ichiga olgan sanoatning dinamik xususiyatini aks ettiradi. Tog‘-kon sanoati rivojlanishda davom etar ekan, uning terminologiyasi ham barqaror resurslarni rivojlantirishga intilishda yangi muammolar va imkoniyatlarga moslashadi.

Qiyinchiliklar va noaniqliklar. Konchilik terminologiyasini standartlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, muammolar va noaniqliklar saqlanib qolmoqda. Ushbu bo‘limda polisemiya, sinonimiya va terminologiyadagi mintaqaviy o‘zgarishlar kabi umumiy muammolar muhokama qilinadi. Tog‘-kon atamalarining noaniq ta'riflari va qarama-qarshi talqinlari tog‘-kon sanoatida aloqa va xavfsizlikka ta'siri bilan birga ko‘rib chiqiladi. Ushbu muammolarni hal qilish strategiyalari, jumladan, aniqroq ta'riflar va takomillashtirilgan terminologik izchillik zarurati o‘rganiladi.Jumkadan, konchilik terminologiyasini standartlashtirish quyidagi omillar tufayli ham qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin: (1) Sanoat xilma-xilligi: tog‘-kon sanoati qidiruv va qazib olishdan tortib, qayta ishlash va tashishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli faoliyatni o‘z ichiga oladi. Sanoatning turli tarmoqlari o‘zlarining o‘ziga xos ehtiyojlari va amaliyotlariga moslashtirilgan maxsus terminologiyadan foydalanishi mumkin, bu esa butun kengash bo‘ylab yagona standartlarni o‘rnatishni qiyinlashtiradi; (2) Mintaqaviy o‘zgarishlar: kon operatsiyalari noyob geologik tuzilmalar, me'yoriy-huquqiy bazalar va madaniy kontekstlarga ega bo‘lgan turli geografik mintaqalarda

amalga oshiriladi. Mahalliy tillar va lahjalar terminologiyaga ta'sir qilishi mumkin, bu esa terminologiyaning bir mintaqadan boshqasiga o‘zgarishiga olib keladi; (3) Texnologik yutuqlar: Tog‘-kon texnologiyasining jadal rivojlanishi tegishli atamalarni talab qiladigan yangi uskunalar, jarayonlar va texnikalarni joriy qiladi. Aniqlik va izchillikni ta'minlash bilan birga, ushbu yangiliklarni moslashtirish uchun terminologiyani standartlashtirish qiyin bo‘lishi mumkin, ayniqsa texnologiya rivojlanishda davom etmoqda; (4) Fanlararo tabiat: konchilik turli fanlar, jumladan geologiya, muhandislik, atrof-muhit fanlari, iqtisod, sog‘liq va xavfsizlik kabi sohalar o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Har bir fan o‘z terminologiyasiga ega bo‘lishi mumkin, bu terminologiyani fanlararo chegaralar bo‘ylab moslashtirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. (5) Eski atamalar: O‘rnatilgan kon terminologiyasi, hatto izchillik yoki ravshanlik bo‘lmasa ham, sanoat amaliyoti va hujjatlariga chuqur singib ketgan bo‘lishi mumkin. Eski terminologiyani zamonaviy standartlarga moslashtirish uchun qayta ko‘rib chiqish yoki yangilash sanoat manfaatdor tomonlarning qarshiligi yoki inertsiyasiga duch kelishi mumkin; (6) Madaniy va lingvistik omillar: Madaniy farqlar va lingvistik nuanslar standartlashtirilgan terminologiyani talqin qilish va qabul qilishga ta'sir qilishi mumkin, ayniqsa ko‘p millatli konchilik operatsiyalarida. Terminologiyani tillar va madaniyatlar bo‘ylab tarjima qilish, shu bilan birga aniqlik va ma'noni saqlab qolish muhim muammolarni keltirib chiqarishi mumkin; (7) Tartibga soluvchi talablar: Nazorat qiluvchi idoralar ko‘pincha atrof-muhit, sog‘liq va xavfsizlik va mehnat qoidalariga rioya qilishni ta'minlash uchun maxsus atamalardan foydalanadilar. Huquqiy majburiyatlarni bajarishda sanoat standartlari va me'yoriy talablar o‘rtasida terminologiyani uyg‘unlashtirish murakkab va vaqt talab qilishi mumkin; (8) Manfaatdor tomonlarning ishtiroki: Standartlashtirilgan terminologiya bo‘yicha konsensusga erishish sanoat manfaatdor tomonlari, jumladan tog‘-kon kompaniyalari, davlat idoralari, ilmiy doiralar va jamoatchilik vakillari o‘rtasida faol ishtirok etish va hamkorlikni talab qiladi. Terminologiya bo‘yicha kelishuvga erishish uchun turli istiqbollar va manfaatlarni muvozanatlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Ushbu maqolada lug‘atlarda tog‘-kon terminologiyasi har tomonlama tahlil qilinib, aniq, izchil va kontekstga mos ta'riflarning ahamiyati ko‘rsatilgan. Konchilik terminologiyasidagi umumiylik, farqlar va muammolarni aniqlash orqali ushbu tadqiqot kon sanoatining lingvistik landshaftini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Lug‘atlarda tog‘-kon terminologiyasining aniqligi va foydalanish imkoniyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan bo‘lib, leksikograflar, soha

mutaxassislari va manfaatdor tomonlar o‘rtasida doimiy hamkorlik zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu maqola kon terminologiyasining murakkabliklari va uning lug‘atlarda ifodalanishi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot konchilik atamalarini belgilashdagi nomuvofiqliklar, noaniqliklar va muammolarni hal qilish orqali tog‘-kon sanoatida aloqa, xavfsizlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Umuman olganda, konchilik terminologiyasi tog‘-kon sanoatida xavfsizlik, samaradorlik, muvofiqlik, hamkorlik va ta'limni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mutaxassislar uchun muloqot qilish va bilim almashish uchun umumiy tilni ta'minlash orqali standartlashtirilgan terminologiya mineral resurslarning barqaror va mas'uliyatli rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova A.A. Konchilik terminlarining kelib chiqish tarixi// “Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta’lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya-2023.

2. Abjalova M., Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 85-89.

3. Chen, S., Geluykens, R., & Choi, C. J. (2006). The importance of language in global teams: A linguistic perspective. Management International Review, 46(6), 679-696.

4. Dhir, K. S., & Savage, T. (2002). The value of a working language. International Journal of the Sociology of Language, 158, 1-36.

5. D.Y.Khakimova, Method of studying the mine-technical terminology of the French language. Science, research, development #13 Technics and technology Berlin.2019

6. Dilrabo Yuldashovna Khakimova, Composition of the mining vocabulary, sources of originand functional classification. International Scientific Journal. ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA, 2022

7. https://www.merriam-webster.com/thesaurus
8. https://www-oed-com.translate
9. https://dictionary.cambridge.org/
10. https://www.dictionary.com/
11. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english
12. https://en.wiktionary.org/wiki/Wiktionary
13. https://www.macmillanenglish.com/
14. https://www.britannica.com/

15. Abjalova M. Matnlarga avtomatik qayta ishlov beruvchi dasturlarning lingvistik ta’minoti manbalari // “O‘zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli” ilmiy maqolalar to‘plami, TDO‘TAU,Toshkent, 2017.

VIII SHU’BA. LINGVISTIK EKSPERTIZA

SHA’N, QADR-QIMMAT BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Jumanazar O‘rozov Norqizilovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110733

Annatatsiya. Ushbu maqolada inson sha’ni, qadr-qimmati bilan bog‘liq leksik birliklarning lingvistik ekspertizasi haqida so‘z yuritilgan. Haqorat, tahqirlash, obro‘sizlantirish, kamsitish kabi tushunchalarga alohida to‘xtalingan. Ularni tahlil qilishda lingvopragmatik hamda psixolingvistik tahlilning o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik ekspertiza, kamsitish, haqorat, obro‘sizlantirish, tahqirlash.*

Annotation. This article talks about the linguistic examination of lexical units related to human honor and dignity. Special attention was paid to concepts such as insult, humiliation, defamation, and discrimination. The role of linguo-pragmatic and psycholinguistic analysis is discussed in their analysis.

Keywords: *linguistic expertise, discrimination, insult, defamation, humiliation.*

So‘nggi yillarda sud-tergov jarayonlarida haqorat bilan bog‘liq murojaatlar soni keskin ortib bormoqda. Inson shaxsiyati, qadr-qimmati, obro‘siga tahdid soluvchi leksik birliklarning ko‘payishi natijasida haqoratning darajalarini farqlash masalasi ham paydo bo‘ldi. Shaxs obro‘siga putur yetkazish, shaxsiyatiga daxl qilish, sha’ni, qadr-qimmatini kamsitish mazmunidagi birliklar sirasida haqorat bilan bog‘liq murojaatlar soni kundan kunga oshib bormoqda.

Fuqarolik sudining inson sha’nini himoya qilish bo‘yicha ishlarida eng muhimi quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- haqorat mazmunidagi so‘zlarning semantikasi;
- haqorat mazmunidagi leksemalarning pragmatik va kontekstual xususiyatlari.

Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi kunda lingvistik ekspertiza obyektlaridan biri bo‘lgan turli tipdagi matnlar, xususan, shaxsiy yozishma, ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan xabar, ommaviy chiqish, og‘zaki murojaatlar orqali ifodalangan haqorat mazmunidagi leksemalarning asosiy va kontekstual ma’nosini aniqlashtirish, nutqiy vaziyatni baholash uchun lingvist, psixologlarga ehtiyoj kuchaymoqda. Aynan mana shunday holatlarda lingvistik ekspertizalar olib borilganda, lingvistik ekspertizaning asosiy vazifalari biri haqoratning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashdan iborat bo‘lib qoladi. Lekin bu vazifa mutaxassisdan lingvistik ekspertizaga oid bilimlarni taqozo etadi. Shu bois hozirda bu sohada amaliyotda bir qancha muammolar mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) inson shaxsiyati, qadr-qimmati, obro‘siga tahdid soluvchi leksik birliklarning leksik-semantik jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmaganligi;

2) inson shaxsiyati, qadr-qimmati, obro‘siga tahdid soluvchi leksik birliklarni baholashda ekspertlarga qo‘yiladigan savollarning maqsadli tizimlashtirilmaganligi;

3) inson shaxsiyati, qadr-qimmati, obro‘siga tahdid soluvchi leksik birliklar bo‘yicha lingvistik ekspertiza metodikasining o‘rganilmaganligi.

Haqorat, ya’ni boshqa shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ijtimoiy xavfli tajovuzdir. Jamoatchilik odob-axloqining talablari qo‘pollik, kamsitish, shaxsga nisbatan nafratlanish ko‘rinishlarining oldini olishdan iborat. Haqorat axloq nuqtayi nazaridan sha’n va qadr-qimmatni kamsitishning eng chidab bo‘lmas shaklidir [Агильдин В.В.,2010]. K.I.Brinev haqoratni zamonaviy huquqiy tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri sifatida baholaydi. Yuridik jihatdan haqorat deganda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitishdir [Бринев, К.И., 2008]. Sud protsessida munozarali matnda haqorat mavjudligi yoki yo‘qligi haqidagi savollarni hal qilish uchun tilshunos-mutaxassisning tadqiqotisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Sodir etilgan haqoratning ayrim xususiyatlarini lingvistik ekspertiza o‘tkazayotgan tilshunos nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish dolzarbdir.

Rus olimlaridan professor N.D.Golev shaxsni obro‘sizlantirish mazmunli birliklar bo‘yicha amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalarni tahlil qilar ekan, xulosalarning yetarlicha ishonchli emasligi, vaziyatni baholash metodlarining noaniq va izchil emasligi, bunda lingvistik tamoyil, mezonlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganlaigini dalillar bilan ko‘rsatadi. Albatta, bunday muammolar yaxshi bilim, malaka, shuningdek, “ilmiy-nazariy qurol”larga ega bo‘lgan lingvist-ekspertga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shuningdek, olim ekspert faoliyatini qonuniy va ishonchli tashkil etish uchun kodlangan normalarning dekodlanishini o‘z ichiga

olgan baza, tamoyil va terminologik asos bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi” [Golev N.D., 2002: 5–13]. I.A.Sterninning fikriga ko‘ra, lingvist-ekspert uchun muammoning lingvistik jihati muhim hisoblanib, bu haqorat holatlarida lingvistik ekspertiza o‘tkazishda asos vazifasini bajarib keladi. Tahlil natijasida tilshunos ma’lum bir leksik yoki frazeologik birlikning haqorat holatini aniqlay olishi uchun qanday obyektiv til xususiyatlari, semantik va funksional xususiyatlariga ega bo‘lishi kerakligini hal qiladi. So‘z qo‘llanishining axloqiy tahlili obyektiv leksik-semantik tahlilga asoslanishi kerak [Стернин, И. А., 2010].

G.V.Kusov haqorat mazmunidagi matnlar bo‘yicha olib boriladigan lingvistik tadqiq jarayonida uchta jihatni asoslab ko‘rsatadi:

1) muallifning nutq akti doirasida ko‘zlagan maqsadlarini tahlil qilish. Bunda texnik jihatlarga e’tibor qaratilmaydi. Nutq aktining maqsadli yo‘naltirilganligi inobatga olinadi;

2) haqoratga olib keladigan holat va usullarni tahlil qilish, xususan, haqorat qilish, masxaralash va bu holatning takrorlanish chastotasi;

3) etnik, psixologik, axloqiy jihatlarga bog‘liq ravishda haqorat xususiyatlari. Ushbu keltirilgan jihatlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, haqorat jamiyatdagi odamlarning xatti-harakatlari, bir so‘z bilan aytganda, o‘zaro kommunikativ faoliyatdagi axloq qoidalariga zid nomuvofiqliklarni tahlil qilish [Kusov G.V., 2004: 60-61].

Haqorat qilish qonunbuzarlik turlaridan biri bo‘lib, uning mavjudligi yoki yo‘qligi sud tomonidan hal qilinishi kerak, shuning uchun lingvist-ekspert, prokuror, tergovchi sudya vazifalarini bajarishga haqli emas. Lingvist-ekspert faoliyat sohasiga oldindan o‘ylash, aytilganlarning haqiqati yoki yolg‘onligini aniqlash kabi masalalarni hal etish kirmaydi. Barcha huquqiy va sud masalalari faqat sud tomonidan hal qilinadi, lingvist-ekspert faqat o‘z mustaqil tadqiqotini olib boradi va bahsli matnning mazmuni, uning haqoratli tabiati va unga havolasi bo‘yicha xulosa chiqaradi.

Haqorat, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini kamsitish to‘g‘risidagi da’voni ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha rus olimi I.A.Sternin haqorat faktini aniqlash uchun bahsli matnda quyidagi belgilar mavjud bo‘lishi kerak ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi:

1. Matnda shaxs haqida haqorat, ya’ni uni salbiy tavsiflovchi birliklar mavjudligi;
2. Ushbu birliklar shaxsning o‘ziga qaratilganligi;
3. Ushbu birliklar yakka shaxsga umumlashtiruvchi xarakteristika berishi;

4. Ushbu birliklar mazmunan shaxsni haraqorat qilishi;
5. Ushbu birliklar noadabiy til shakliga egaligi;

Haqorat omma oldida aytilgani (nashrlarda chop etilganligi, televizion chiqishlarda, mitingdagi, yig‘ilishdagi nutqda qayd qilinganligi, rasmiy tashkilotga yo‘naltirilgan rasmiy yozma murojaat yoki hujjatda ishlatilganligi va hokazo) [Стернин И.А., *2006: 339-353*].

Bu o‘rinda shuni aniqlashtirib olishimiz kerakki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida *haqorat, kamsitish, obro‘sizlantirish, sha’nga putur yetkazish* kabi birliklar bevosita inson shaxsiyatiga qarshi qaratilgan holatlar sifatida baholanadi. Xususan, shaxsiyatga tegmoq - muayyan shaxsni qadri, izzat-nafsi va boshqa jihatdan tahqirlovchi xatti-harakat qilmoq [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2020: 557] Tahqir qilmoq (yoki etmoq) – haqorat bo‘luvchi, xo‘rlik keltiruvchi gap-so‘z aytmoq, ish qilmoq, tahqirlash – tahqir qilmoq, xo‘rlamoq. Haqorat qilmoq – kimsa sha’niga haqoratli gap, so‘z aytmoq, haqorat bo‘ladigan ish, xatti-harakat qilmoq. Bu mazkur so‘zlarning umummadaniy tildagi ma’nolari hisoblanadi. Lekin ular yuridik matnda chuqur semantik ma’no kasb etadi. Shuning uchun mutaxassis yuqoridagi har ikki jihatdan kelib chiqqan xolda vaziyatni baholashi zarur.

Haqorat holatlari bo‘yicha o‘tkaziladigan lingvistik ekspertiza jarayonida lingvist-ekspert matn bo‘yicha savollarga javob topadi. Masalan, “ahmoq” so‘zining haqorat yoki haqorat emaslik faktini aniqlash maqsadida lingvist-ekspert oldiga qo‘yilgan savol tiplari, asosan, quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

“Suhbatda “ahmoq” so‘zi ishlatilganmi?”, “Matnda “ahmoq” haqida ma’lumot bormi?”, “Matnda g‘arazli maqsad bormi?”, “Matnning salbiy oqibati qanday?”, “Matnning haqorat yoki… emasligini semantik jihatdan asoslovchi lingvistik materiallar qaysi?” Lingvist-ekspert suhbatlarning mazmunini va ularning semantik yo‘nalishini belgilaydi, ammo dalillar bundan mustasno. Demak, lingvist-ekspert so‘zning, iboraning va ifodaning kontekstual ma’nosini faol nutqda va aniq foydalanish doirasida aniqlaydi.

Tilshunos T.S.Shahmatovaning e’tirof etishicha, haqorat (kommunikativ buzuqlik) so‘zlar zamonaviy ma’noda nutq xatti-harakatlarining quyidagi strategiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi:

1) og‘zaki kamsitish - nutqda irqiy, milliy, mulkiy yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘zining ustunligini ifodalash;

2) og‘zaki diskreditatsiya – obro‘ga putur yetkazish, kimningdir qadr-qimmatini pastga urish, ishonchni susaytirish. [Шахматова Т.С., 2013: 269]

Haqorat mazmunidagi leksemalarni professor B.O‘rinboyev ma’no ottenkasi va qo‘llanish doirasiga ko‘ra uch guruhga ajratadi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: e*zma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug‘ombir, latta* kabi;

b) kishining tashqi kamchiligini ko‘rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay, ko‘ppak, maymoq, ilonbosh, simyog‘och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo‘ng‘iz, mo‘ylov, kal, do‘rdoq, qiyshiq, qo‘tir* kabi;

v) so‘kish, koyish ma’nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag‘ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko‘r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, naxs, ko‘ppak, og‘moq (telbalanmoq), og‘zi katta (kibr-havoli), nazarga ilmaydi (mensimaslik)* kabilar [Sherboyeva G., 2017: 32].

Professor B. O‘rinboyevning mazkur fikrlariga ijodiy ergashgan holda, haqoratli mazmuniga ega bo‘lgan birliklarni mavzuiy guruhlarga bo‘lib chiqdik:

- So‘kinish – *iflos, qo‘tir, ahmoq, bezbet;*
- Ijtimoiy qoralovchi terminlar – *o‘g‘ri, fohisha, tovlamachi, firibgar, poraxo‘r, kolxoz, haromi, lo‘li;*
- Salbiy tarixga ega terminlar – *millatchi, qonxo‘r;*
- Biror kasb nomi bilan boshqa kasbni atash – shifokorni *jallod, qassob* deyish;
- Zoosemantik metaforalar – *mol, eshak, it, hayvon, cho‘chqa;*
- Odam fe’l-atvorini salbiy baholovchi terminlar – *ablah, yaramas, maraz, latta, lapashang, dovdir, itfe’l, jinni…*

Haqoratli so‘zlardan maqsadli ravishda foydalanish deganda ma’lum bir shaxsga nisbatan jamoat oldida uning obro‘-e’tiboriga nomunosib so‘zlarni qo‘llashdir.

Qonunchilikda haqorat, obro‘sizlantirish, sha’niga putur yetkazish kabi holatlarga nisbatan ma’muriy jazo chorasi qo‘llanadi. Ma’muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo‘lib, u ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o‘zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo‘llanadi.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, jazo har doim ham muammoning to‘la bartaraf etilishi omili bo‘lib xizmat qilmaydi. Ayniqsa, haqorat darajasini belgilash, uni qonuniy asoslash masalasi turgan bir vaqtda, bunday holatga qat’iy jazo tartibini sud hukmi orqaligina belgilash o‘rinsiz. Sababi huquqiy matnlar ham xuddi badiiy asarlarda bo‘lgani kabi o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi va u alohida qismlarga

ajraladi. Bunday matnlar nutq muallifining ruhiyati, maqsadi, estetik qarashini umumlashtirgan holda mutlaqo pragmatik dasturini aks ettiradi.

Ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilingan matnlar, SMS-xabarnomalar, shaxsiy yozishmalar, omma oldidagi chiqishlar ko‘rinishidagi ziddiyatli materillarni tahlil qilish va ularning salbiy (haqoratli) jihatini asoslash muammosi yuzaga keladi. Haqorat holatlarida materiallarni tekshirishda ifoda shaklining lingvistik belgilari, og‘zaki ravishda amalga oshirilgan kommunikativ faoliyatning semantik mazmuni va maqsadi aniqlanadi [Иванищева О.Н., 2016: 32].

Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, haqoratning huquqiy holatlarida eng muhim narsa haqoratli so‘zlarning ro‘yxati va tabiati, ularning tarkibiga qanday leksemalar kiradi, qaysi hollarda ular haqoratli bo‘lishi mumkin, qaysilarida esa yo‘q, tilshunos olim ma’lum ijtimoiy guruhlar nuqtayi nazaridan jargon-argo, so‘z-invektivlarga qanday munosabatda bo‘ladi kabi savollarga lingvokriminalist javob berishi kerak bo‘ladi.

Huquqni muhofaza qilish organlari bilan ishlash amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, lingvist mutaxassislar haqoratni aniqlash, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarga juda muhtoj. Shu nuqtayi nazardan, ba’zi lingvistik tadqiqotchilar lug‘at tuzishni taklif qilishadi, unda “invektivlik gradatsiyasini aks ettiruvchi leksikografik belgilarning yangi tizimi (haqoratli, qo‘pol haqorat semali, salbiy baho va boshqalar) ishlab chiqilishi kerak” [Голубева Е.В., 2016: 3].

Shubhasiz, bunday lug‘atni tuzish mumkin. Lekin bu leksema shakllarning kontekst va nutqiy vaziyatda bajarilishi mavhum bo‘lib qoladi. Bu lug‘at ham tilshunoslar, ham huquqshunoslar uchun zarur. Qiyinchilik har bir invektivga ko‘p sonli misollar keltirishda, ya’ni bir holatda so‘z haqorat bo‘lishi va boshqa bir vazifani bajarishi mumkin bo‘lgan aniq misollar kerak bo‘ladi. Xususan, quyidagi misollar bilan fikrimizni asoslashga harakat qilamiz.

Birinchi holat. *O‘qituvchi o‘quvchiga: Obbo chalasavod-e, Muxtorjon, bu nima sharmandalik. Qaragin-chi inshongda g‘ij-g‘ij xato*?

Ikkinchi holat. *Bu gapni o‘zingizga ham aytishim mumkin ,o‘rtoq mudir janobi oliylari, SIZ MUTLAQO CHALASAVODSIZ! Bunaqa xaromxur, poraxo‘r rahbar , gazanda cho‘chqa yo‘qolsin.!*

Uchinchi holat. Ona yosh bolasiga: *Voy cho‘chqa-ye hali shunaqa qiliqniyam o‘rgandingmi?*

Ko‘rinadiki, bir kontekstual vaziyatda haqorat semali birlik boshqa vaziyatda ayni shu semada qo‘llanmasligi mumkin. Yuqoridagi misolda *poraxo‘r, xaromxo‘r*

singari birliklarni haqorat yoki tuhmat holatlariga ko‘ra tekshirish lozim bo‘ladi. Shuningdek , bir kontekstual vaziyatda so‘zning haqorat yoki haqorat emasligini baholashda faqatgina taqdim etilgan matnning o‘zigina yetarli bo‘lmaydi. Balki og‘zaki tarzda bo‘lsa, uning audiosi ham taqdim etilishi ekspertga aniq xulosa chiqarishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, lingvist-ekspert aniqlashtirib berishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘lami juda keng.

Bizning fikrimizcha, aynan haqorat holatlarida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- haqoratning semantik mundarajasini aniqlash. Darajasini baholash;
- haqorat holatlarida masalaning yuridik va lingvistik jihatlarini asoslash.

Ko‘rinadiki, hozirda Respublikamizda sud-huquq tizimini takomillashtirishda, turli matnlarning kriminalistika bilan bog‘liq mohiyatini yoritishda, anonimlik holatlarini izchil asoslashda, turli jinoyatlarning oldini olishda lingvokriminalistikaning o‘rni juda yuqori.

Shu o‘rinda aytish joizki, lingvistik ekspertiza zamonaviy axborot jamiyatida eng ko‘p talab qilinadigan tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu ekspertiza, asosan, tilga oid nafrat va adovat, og‘zaki tajovuz, og‘zaki bezorilik, qo‘pol so‘z, so‘z erkinligini suiiste’mol qilish, qonun bilan qo‘riqlanadigan sha’n, qadr-qimmat, obro‘-e’tiborga tajovuz qilish bilan bog‘liq ishlarni hal qilishda tayinlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Агильдин В. В. Уголовно-правовая характеристика оскорбления [Электронный ресурс] / В. В. Агильдин. - 2010. - http://www.juristlib.ru/book_6442.html (05.05.2014).

2. Бринев, К. И. Судебная лингвистическая экспертиза по делам об оскорблении. Пределы компетенции лингвиста. Постановка проблемы [Электронный ресурс] / К.И.Бринев. - 2008. - http://siberia- expert.com/publ/3-1-0-33 (10.05.2014).

3. Golev N. D. Acute Problems of Forensic Linguistic Expertise [Aktual'nye problemy jurislingvisticheskoj jekspertizy]. Jurislingvistika-3: Problemy jurislingvisticheskoj jekspertizy – Trial Linguistic Expertise-3: Problems of Trial Linguistic Expertise. Barnaul, 2002. P.29. 5–13.

4. Голубева Е.В. Проблемы лингвокриминалистики в аспекте современности // Международный студенческий научный вестник. – 2016. – № 5-3.

5. Иванищева О.Н. Лингвистическая экспертиза по делу об оскорблении (на материале собственной лингвоэкспертной деятельности) Юрислингвистика №5 2016. – С. 32

6. Kusov G.V. Insultasan Illocutionary Linguocultural Concept [Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт]: PhD thesis. Krasnodar, 2004.p60-61

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.:2020

8. Стернин, И. А. Неприличная форма высказывания лингвокриминалистическом анализе текста [Электронный ресурс] / И. А. Стернин. 2010. http://konference.siberiaexpert.com/publ/konferencija_2010/doklad_s_obsuzhdeniem_na_sajte/sternin_i_a_neprilichnaja_forma_vys kazyvanija_v_lingvokriminalisticheskom_analize_teksta/2-1-0-23 (03.05.2014).

9. Стернин И.А Оскорбление и неприличная языковая форма как предмет лингвистической экспертизы (бытовое и юридическое понимание) *Опубликовано в: Антропотекст -1. Изд-во Томского университета, 2006.С.339-353*

10. Sherboyeva G. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so‘zlar. – Andijon, 2017. – b. 32.

11. Шахматова Т.С. Оскорбление как инструмент языкового насилия в речевых ситуатсиях институционального общения // УЧЕНЫЕ ЗАПИСКИ КАЗАНСКОГО УНИВЕРСИТЕТА. – Казань, 2013. – Б. 2 С. 269.

SHAXSIY YOZISHMALAR LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA METODOLOGIYA MASALASI

To‘rayeva Dildora Anvarovna
ToshDO‘TAU ning 2- guruh doktoranti (DSc)
dildoratorayeva9@gmail.com
https://orcid.org/0000-0002-2595 3516
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110814

Annotatsiya. Maqolada ilmiy tadqiq metodikasi, metodologiyasi va ularning lingvistik ekspertizadagi o‘rni va ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Shaxsiy yozishmalarning ma’noviy va shakliy turlariga muvofiq muayyan tahlil metodologiyasi asosida ekspertizaning amalga oshirilishi misollar orqali dalillangan. Og‘zaki va yozma nutqqa aloqador tadqiq metodologiyasining farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *metodika, metodologiya, shaxsiy yozishma, lingvistik ekspertiza, audioyozuv, videoyozuv, elektron va qo‘yozma matn.*

Аннотация. В статье рассматриваются методика, методология научных исследований, их место и значение в лингвистической экспертизе. Проведение экспертизы на основе конкретной методики анализа в соответствии с духовно-формальными типами личной переписки доказано на примерах. Выявлены отличия методики исследования в отношении устной и письменной речи.

Ключевые слова: *методология, методология, личная переписка, лингвистическая экспертиза, аудиозапись, видеозапись, электронный и рукописный текст.*

Annotation. The article focuses on the methodology, methodology of scientific research and their role and significance in linguistic expertise. The implementation of expertise on the basis of a specific methodology of analysis in accordance with the types of meaning and formality of personal correspondence has been evidenced by examples. Different aspects of the methodology of the study related to oral and written speech are revealed.

Keywords: *methodology, methodology, personal correspondence, linguistic expertise, audio recording, video recording, electronic and sheep text.*

XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, ko‘pgina xorijiy fan tarmoqlarida taraqqiyot cho‘qqisiga yetgan lingvistik ekspertologiya sohasi bugungi kunda

amaliy tilshunoslikning muayyan yo‘nalishi sifatida o‘zbek lingvistikasida ham o‘z o‘rniga ega bo‘la boshladi. Yozishmalar tahlilining lingvistik va huquqiy jihatlari mushtaraklikda jamiyatdagi sud jarayoni bilan aloqador qator masalalarga yechimiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbek tilidagi yozishmalarning lingvistik ekspertizasi ham muayyan metodologiya va metodlarni talab etadi. Ma’lumki, har qanday tadqiqot uch asosga ko‘ra amalga oshiriladi:

a) ilmiy tadqiq metodikasi;

b) ilmiy tadqiq metodologiyasi;

d) ilmiy tadqiq metodi.

Muayyan masala tadqiqida olimning masalani qanday tushunishi, uni yoritishdagi yondashuvi, tahlil va tajribalarni qay yo‘sinda amalga oshirishi kabi jarayonlar metodika tushunchasi ostida birlashadi. Har bir tadqiqotchi o‘ziga xos metodika, ya’ni masalani aniq va tushunari ochib berish usullariga ega. Bu ko‘pchilikda o‘xshash va takrorlanuvchan bo‘lishi mumkin. Ammo tadqiq metodologiyasi takrorlanmas, individual va kreativ tarzda namoyon bo‘ladi. Bu masalada olimlarning turlicha qarashlari mavjud. Metodologiya tadqiqotchiga narsada (ya’ni o‘rganish obyektida) nimalarni izlashi, topishi, izohlashi, ochib berishi lozimligini ko‘rsatib turadi. Bu uning yo‘lchi yulduzi, qayerga borishi va kelishi lozimligini ko‘rsatib turuvchi mayoq. [Ne’matov, 2020, 7] Demak, metodologiya tadqiqotchining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bir ilmiy asarda ikki-uchta metodologiyadan foydalanish mumkin emas. Inson bir vaqtning ozida ikki-uch yo‘ldan yurmagani singari tadqiq metodologiyasi ham yagona bo‘ladi. Olimlarning ta’kidlashicha, bu go‘yoki dinni qabul qilishga o‘xshaydi. Din insonning dunyoqarashi sifatida gavdalanar ekan, bir davrning o‘zida ikki-uch dinga e’tiqod va ixlos qilmagani singari tadqiq metodologiyasi ham bir yo‘nalishda amalga oshiriladi.

Sud lingvistik ekspertizasi metodologiyasi, metodikasi masalasida V.A.Mishlanov, Y.A.Belchikov, M.V.Gorbanevskiy, I.V.Jarkov, A.N.Baranov, I.B.Levontina, Y.A.Sorokina kabi olimlar tadqiqot olib borishgan. [Mishlanov, 2019; Belchikov, 2015; Baranov, 2017; Sorokina, 2016.] Sud lingvistik ekspertizasi tilshunoslik fanining bir sohasi bo‘lib, bu jarayonda tilga aloqador bo‘lgan nazariy va amaliy manbadan foydalaniladi. Lingvistik metodologiya muayyan obyektni o‘rganish, undagi yangilikni turli usul va vositalar orqali ochib berish haqidagi nazariyani o‘z ichiga oladi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o‘rganish obyektini aniqlaydi va tadqiqot ishi shakllantiradi;
- tadqiqot maqsadlarini belgilaydi; tadqiqot usullari va vositalarini ishlab chiqadi;

- tadqiqot natijalarining ko‘zlangan maqsadga muvofiqligini tekshiradi.

Boshqa fan tarmoqlari singari tilshunoslikda ham bilishning xususiy va umumiy ilmiy usullar farqlanadi. Bilishning umumiy empirik usullari sirasiga eksperiment turlarini o‘rganish, qiyosiy-taqqoslash tahlili, tadqiqot o‘tkazish, uni tekshirish va takroriy tarzda qo‘llab ko‘rish kabi jihatlarni sanab o‘tish mumkin. A.S.Arutyunovning tadqiqiga ko‘ra lingvistikada o‘z o‘rniga ega va nazariy jihatdan asoslangan, eng muhim umumiy usullar sirasiga quyidagilar kiradi: rasmiylashtirish, aksiomatik usul, gipotetik-deduktiv usul. Demak, tilshunoslikda bilishning umumiy usullari orasida tahlil, o‘rganish, tadqiq, umumiylashtirish, ideallashtirish, induksiya, analogiyani alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Zotan, ular lingvistikaga oid muayyan obyektni o‘rganishning ilmiy asosini ochib bera oladi. Yuqorida aytilganidek, tilshunoslikka aloqador nazariy bazaning o‘ziga xos xususiyatlari shu jarayonda namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda lingvistikaga oid xususiy usullarni ham sanab o‘tish lozim [Brinev, 2012]:

- komponental tahlil – gapning tarkibiy qismlarini o‘rganish tahlili. Ushbu usul orqali matn doirasida so‘zlarning semantik ifodasini o‘rganiladi. Bu esa muayyan tilning integral va differensial xususiyatlarini ajratib olishga, matn orqali ifodalanayotgan vazifalarini farqlashga imkon beradi;
- gaplarning to‘g‘ridan to‘g‘ri tahlili. Bunda matnning sintaktik tuzilishi o‘rganiladi, so‘zlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar tahlil qilinadi;
- transformatsion tahlil – jumlaning sintaktik tuzilishini aniqlash usuli bo‘lib, sodda va murakkab sintaktik qurilmalarning shakllanishini o‘rganishdan iboratdir;
- rekonstruksiya usuli – turli xil tillar orasidagi genetik jihatlarni aniqlash va ularning bir “bobo til”dagi umumiy asosini shakllantirishni o‘z ichiga oladi;
- nutqni tanqidiy tahlil qilish. Uning asosiy maqsadi tilni muayyan ijtimoiy amaliyotda qo‘llash prizmasidan foydalangan holda o‘rganishdir. Ya’ni bunda til birliklaridan foydalanishning muayyan vazifalari aniqlanadi.

Sud lingvistik ekspertizasida metodologiya masalasi tahlil turlariga bog‘liq. Ushbu ekspertiza jarayoni uchun muhim bo‘lgan yondashuvlar mavjud: an’anaviy, o‘zgartirilgan, analogik, kognitiv va sinov tarzidagi kabilar. [Arutyunova, 2019, 79.] An’anaviy yondashuv, ya’ni tekshiruv va tajribalardan o‘tgan usul ekspertlar hamjamiyati tomonidan keng qo‘llaniladi. Ular nutqiy hosilalarni leksik, ya’ni semantik, etimologik, stilistik tahlil qilish usullarini o‘z ichiga oladi. Ushbu usullar haqorat, kamsituvchi, ishchanlik qobiliyatiga ta’sir etuvchi, sha’n va obro‘ga putur yetkazuvchi birliklarni aniqlashda samarali natijalar bermoqda.

O‘zgartiruvchi (modifikatsion) yondashuv sud lingvistik ekspertizasida leksikografik bazani aniqlash va tahlil qilishda qo‘llanadi. Bu orqali madaniyatlararo jinoyatga sabab bo‘luvchi nafrat va adovatni keltirib chiqaruvchi birliklarni aniqlashda qo‘l keladi. Muayyan til doirasida sub-madaniyatga aloqador birliklar: jargon, vulgarizm, varvarizmlarni aniqlash va tizimlashtirishga imkon beradi.

Lingvistik ekspertizada analogik yondashuv ham ahamiyati sanaladi. *Analogiya (yun. analogia — muvofiqlik, aynanlik, o‘xshashlik)* — 1) falsafada predmet va hodisalarda biror xususiyatning o‘xshashligi. Mantiqda ushbu yondashuv yordamida ikki predmetning qandaydir bir xususiyati o‘xshasa, boshqa jihatlari ham o‘xshashligi haqida xulosa chiqariladi. Chiqarilgan xulosaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilish uchun uni amaliyotda tekshirib va sinab ko‘rish lozim; 2) huquq sohasida biror tayin harakat qonunda bevosita ko‘rsatilmagan holda shunga o‘xshash hodisani ko‘zda tutadigan huquqiy normani mazkur harakatga tatbiq etish. Huquqning ayrim tarmoqlarida, jumladan fuqarolik huquqida biror xil da’vo to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sud shunga o‘xshash munosabatlarni ko‘zda tutadigan boshqa qonunni qo‘llaydi. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Analogiya] Ushbu usul orqali nutqda, masalan, nafratga aloqador bo‘lgan turli ko‘rinishlarni farqlash mumkin. Bunda bir mazmunga aloqador turli shakliy ifodalarni aniqlash, farqlash, tahlil qilish masalasi ustuvor sanaladi. Yuridik jihatdan esa turli xil nutqiy harakatlarning tahlili bir tizim asosida amalga oshirilishi, ulardagi umumiylik jihatiga ko‘ra biror hukmni berish mumkinligi ko‘zda tutiladi.

Lingvistik ekspertizada sinov yondashuvida bir martalik amalga oshirilgan nutqiy harakatlarning avtorizatsiyasini belgilash maqsadi ko‘zlanadi. Bunda uslubiy qo‘llanmalar va qator usullardan foydalaniladi.

Kognitiv yondashuv esa bir qator sud lingvistik ekspertizalarida qo‘llaniladi. Bu semantik, sintaktik modifikatsiya belgilarini aniqlashga imkon beradigan elementlarni belgilashni o‘z ichiga oladi. [Belchikov, 2015, 29.] Yuqoridagi sanab o‘tilgan yondashuvlarning asosi quyidagilardir: matnning tarkibi, xabarning mavjudligi va xabardan ko‘zlangan maqsad. Shularni tekshirish maqsadida ekspertiza yondashuvlaridan foydalaniladi. Masalan, ekstremizmga aloqador matnning tahlilida an’anaviy yondashuvdan foydalanish mumkin. Bunday matnlarda uchta belgini aniqlash muhim: mavzu, baholash, maqsad. Bular matn mavzusi, emotsional ta’siri va ko‘zlangan maqsad bilan bog‘liqdir. Tahlil jarayonida birinchi element orqali “nutqda kim, nima haqida gapiradi?” savoliga javob beriladi. Ikkinchi element orqali u yoki bu hodisa ijtimoiy guruh yoki muayyan shaxs tomonidan “qanday baholanadi?” savoliga javob ebriladi. Bu orqali so‘zlovchining

matn mazmuniga munosabatini aniqlash mumkin. Uchinchi element esa nutqiy maqsadni ochib beradi, yoinki nutqiy axborot “nima uchun” bajarilayotganiga javob beradi. Ekstremizmning namoyon bo‘lishini aniqlash maqsadida sud lingvistik ekspertizasiga qo‘yiladigan eng muhim uslubiy talablardan biri taqdim etilgan nutq materiallari lingvistik tahlilining yuqoridagi uch a’zoli tuzilishiga rioya qilishdir, chunki uchtadan kamida bittasini e’tiborsiz qoldirish jiddiy ekspert xatolariga olib keladi.

Lingvistik ekspertizada metodika, metod va metodologiya muayyan tizimda, yaxlit ravishda amalga oshiriladi. Har bir muammoli matn yoki anonim yozishmaning tahlilini kichik bir tadqiqot, deyish mumkin. Boisi huquqiy manfaatlarni himoyalash maqsadida amalga oshirilgan har bir lingvistik ekspertiza muayyan jamiyat a’zosi uchun taalluqli hamda foydadan holi emas. Shuning uchun ham lingvistik ekspertizani amalga oshirishda muayyan metod va metodologiyaga tayaniladi. Ular tahlil obyektining turi va mohiyatidan kelib chiqib amalga oshirilgani uchun har bir ekspertizada turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, yozma va og‘zaki nutq uchun aloqador bo‘lgan ekspertiza metodologiyasi o‘zgachadir. [Каганов, 2005, 272] Yozma matndagi qo‘lyozma, elektron bosma shakllardagi matnlarda ham tahlil metodologiyasi farqlanadi. Qo‘lyozma matnlarda yozuvning turi, harflarning shakliy xususiyatlari, yozuv qurolining turi va bosim kuchi kabi jihatlariga e’tibor qaratilsa, elektron bosma shakldagi yozuvlarga ko‘proq nutqiy ko‘nikmalar, lingvistik xatoliklar singari belgilari o‘rganiladi. Og‘zaki yozuvlar: audio va video yozishmalarda esa nutqdagi akustik-artikulatsion xususiyatlar, paralingvistik-ekstralingvistik vositalarni o‘rganish kabi tahlillar asos bo‘ladi. [Иванашко, 2017, 17] Lingvistik ekspertiza qilishdan maqsad ham metodologiyaning farqlilik xususiyatiga sabab bo‘ladi. Tahlil matn muallifini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, yondashuv shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, matndagi grammatik, sintaktik, fonetik, grafik belgilarning ijtimoiy va individual xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda so‘zlovchining shevasiga xos nutqiy birliklarini tahlil etish asosiy masalaga aylanadi. Ammo ekspertizadan maqsad matndagi shaxs manfaatlariga aloqador biror muammoli, konfliktli vaziyatni ochib berishga qaratilgan bo‘lsa, bunda yozishmadagi vulgarizm, kanselyarizm kabi so‘zlar, harflar, grammatik shakllarning so‘zlar semasidagi o‘ziga xosligi kabi jihatlarini ochib berishga aloqador usul va metodikadan foydalanish mumkin. Masalan, so‘z va qo‘shimchalarni qisqartirib qo‘llash matndagi muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu psixologiya bilan aloqador bo‘lib, insonning ruhiy vaziyati inobatga olinadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, so‘zlarni qisqartirishning

yangi shakllarining paydo bo‘lishining sabablaridan biri nutq jarayonida so‘zlovchining haddan tashqari tezlashib ketishi oqibati sanaladi.[Allaberdiyeva, 2023,14] Masalan: wanna – want to, gotta – have got to, lemme – let me, kinda – kind of, gonna – going to, gent – gentleman, mike – microphone. Bu kabi belgilar ham matn mazmunida o‘z ahamiyatiga ega. Zotan, qisqartmaning yuzaga kelishi ikki vaziyatga aloqador sanaladi: so‘zlovchiga xos bo‘lgan individual xususiyat yoki yozuv ijrochisining nutqiy vaziyati. Har ikki holatdan birini aniqlash uchun ham muayyan metodologiya talab etiladi. Qisqartmalarning aynan qaysi so‘z, qo‘shimchalarda sodir bo‘lishi, ulardagi kontekstual mohiyatning qay darajada yuzaga chiqishi, so‘zlovchi nutqiy maqsadiga qay yo‘sinda ta’sir etishi kabi masalalar aniqlash maqsadida matn o‘rganiladi. Bu ham lingvist-ekspertning muayyan metodologiyasi, tadqiq yondashuvlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allaberdiyeva S.T. Fonatsion paralingvistik vositalar va ingliz tilidan o‘zbek tiliga og‘zaki tarjima jarayoni qo‘llanilishi. INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION. SJIF 2023:5.305, ISSN 2181-371X, VOLUME 2 ISSUE 14.

2. Арутюнов А. С. Методология производства судебной лингвистической экспертизы с целью установления проявлений экстремизма. РАСКРЫТИЕ И РАССЛЕДОВАНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, ОБЩЕСТВО И ПРАВО, 2019. № 2, (68).

3. Баранов А.Н., Грунченко О.М., Левонтина И.Б. Лингвистическое исследование текстов для выявления в них призывов к осуществлению экстремистской деятельности. М., 2017;

4. Бельчиков Ю.А., Горбаневский М.В., Жарков И.В. Методические рекомендации по вопросам лингвистической экспертизы спорных текстов СМИ: сб. материалов. М., 2015. – с. 29.

5. Бринев К. И. Методологические проблемы лингвистической экспертизы: определение сущности экстремизма / определение понятия «Социальная группа», Вестник КемГУ № 2 (50) 2012.

6. Иванашко Ю.П. Лингвистическая экспертиза звучащей речи: сборник учебно-методических материалов для направления подготовки 45.04.03. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2017. – С.

7. Каганов А.Ш. Криминалистическая экспертиза звукозаписей. – М.: Изд-во «Юрлитинформ», 2005. – 272 с.

8. Леонтьев А.А. Прикладная психолингвистика речевого общения и массовой коммуникации / под ред. А.С. Маркосян, Д.А. Леонтьева, Ю.А. Сорокина. М., 2016;

9. Мишланов В.А., Салимовский В.А. К теоретическим основаниям судебной лингвистики: Сибирская ассоциация лингвистов-экспертов. URL: http://www.siberia-expert.com/ publ/satti/stati/4-1-0-195 (дата обращения: 18.03.2019);

10. Ne’matov H.G., Mengliyev B.R., Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. Monografiya – Toshkent, 2020. – b. 103.

11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Analogiya

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI SHAXSIYAT TIPOLOGIYASI TADQIQI

Abdurayimova Durdona Samat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
abdurayimovadurdona21@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11110827

Annotatsiya. Shaxsiyat tipologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, Shaxsiyat tipologiyasi modellari, Ijtimoiy tarmoqdagi matnlar asosida shaxsiyatni o‘rganish, har bir shaxsiyat turning o‘ziga xos lingvistik naqshlarini tadqiq qilingan olimlar, Ijtimoiy tarmoqdagi matnlarni tadqiq etishning ahamiyatlari haqida nazariy fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Shaxsiyat tipologiyasi, PEN, DISK, MBTI, OCEAN, model, ijtimoiy tarmoq*

Annotation. Studies on personality typology, models of personality typology, personality study based on texts on social networks, scientists who have studied the specific linguistic patterns of each personality type, and the importance of studying texts on social networks have been theoretically discussed.

Key words: *Personality typology, PEN, DISK, MBTI, OCEAN, model, social network*

Shaxsiyat psixologiyasi biologik va atrof-muhit omillaridan kelib chiqadigan xatti-harakatlardagi farqlarni keltirib chiqaradigan tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Shaxs atamasi lotincha “persona” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u qadimgi yunon o‘yinlarida aktyorlar kiygan niqoblarga ishora qiladi va u odatda shaxsning jamoat qiyofasiga ishora qiladi [Cervone, Pervin, 2013]. Shaxslarning o‘ziga xosligi ularning shaxsiyatlarida akslanadi. Dastlabki davrlarda shaxslarning o‘ziga xos jihatlarini Geppokrat temperament shaklida tadqiq etgan, keyinchalik Ibn Sino mijoz deya talqin etgan. I. Pavlov ham shaxslarning bosh miya faoliyatini tadqiq etib, insonlarni 4 turga ajratgan bo‘lsa, Eysnek PEN (Psixotizm, Ekstraversiya va Nevrotizm) super omillar nazariyasini ilgari suradi. Keyingi davrlarda Shaxsiyat tipologiyasi tushunchasi vujudga keldi. Shaxsiyat tipologiyasi bo‘yicha juda ham ko‘plab ilmiy qarashlar vujudga keldi, ularning barchasi temperamentga xos xususiyatlar asosida shakllantirilgan. Shaxsiyat tipologiyasi tadqiqida bir qancha psixologik modellar taklif etilgan. Masalan, Katta beshlik (BF) muqobili sifatida OCEAN, modeli ham deb yuritiladi. Myers-Briggs turi

ko‘rsatkichi(MBTI) va DISK modeli kabilar. Quyida 3 ta model haqida qisqacha ma’lumot beramiz.

1-jadval.

Katta beshlik (BF) modeli		
Ochiqlik (Openness)	Aqlli, qiziquvchan va xayolparast.	Yuqori didli va ijodkor shaxslar.
Vijdonlilik (Conscientiousness)	Mas’ulyatli, uyushgan qat’iy.	Ishonchli, tirishqoq va muvaffaqiyatga intiladigan shaxslar.
Ekstraversiya (Extraversion)	Ochiq ko‘ngil, do‘stona, qat’iyatli	Bu tip samimiy, quvnoq bo‘lib, motivatsiyani ijtimoiy hayotdan oladilar.
Muvofiqlik (Agreeableness)	Hamkorlik qiluvchi, yordam beruvchi, tarbiyalovchi.	Bu tip vakillari boshqalarga qaraganda umidli va ishonchli bo‘lgan uyg‘unlik bor.
Nevrotizm (Neuroticism)	Xavotirli, ishonchsiz, sezgir.	Bu tip sinovchan, asabiy va qarama-qarshi his-tuyg‘ularga duch kelishadi

Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiyatni tasniflash uchun asosan OCEAN modelidan foydalanilmoqda.

Bu model Karl Junning modeli asosida yaratilgan. Bu model shaxsiyatning 16 turi asoslangan. (INTJ, INTP, ENTJ, ENTP, INFJ, INFP, ENFJ, ENFP, ISTJ, ISFJ, ESTJ, ESFJ, ISTP, ISFP, ESTP va ESFP). Bu turlarining har biri shaxs psixologiyasining o‘ziga xos naqshlarini ko‘rsatadi.

2-jadval.

MBTI modeli	
1	Introvert (I) yoki Extrovert (E) shaxsning bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi.
2	Sezgi- Intuition (N) yoki Sensing-sezish (S) insonning dunyoni qanday ko‘rishini va ma'lumotni qayta ishlashni ko‘rsatadi.
3	Fikrlash- Thinking (T) yoki his qilish- Feeling (F) shaxsning qanday qaror qabul qilishini va his-tuyg‘ularini qanday yengishini ko‘rsatadi.
4	Hukm qilish- Judging (J) yoki Idrok qilish-Perceivin (P) insonning ishga, qaror qabul qilishga va rejalashtirishga bo‘lgan yondashuvini aks ettiradi.

DISK modelining asl nazariyasi Uilyam Moulton Marstonning ishi bilan boshlangan bo‘lsa-da, Viley 40 yildan ortiq vaqt davomida DISKni tadqiq qiladi va tahlil qildi. DISC asosi birinchi marta Uilyam Moulton Marston tomonidan 1928-yilda yozilgan “Oddiy odamlarning his-tuyg‘ulari” kitobida tasvirlangan. Marston to‘rtta “asosiy his-tuyg‘ular” deb atagan narsani va ular bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarni aniqladi [7]. Shaxsiyatni tadqiq etish ijtimoiy tarmoq rivojlanishi bilan virtual olamga ham tatbiq etilib, shaxslarning tipologiyasi, ya’ni o‘ziga xos xususiyatlari asosida ma’lum bir tip vakili ekanini ijtimoiy tarmoq vakillarining og‘zaki yoki yozma matnlari orqali o‘rganish etish kuchaydi.

Bundan tashqari, shaxsiyat ko‘p jihatdan nisbatan barqaror narsa sifatida qaraladi[Corr, Matthews, 2009: 53]. Tarmoqdagi odamlarning lingvistik xulq-atvor modellari har xil va psixologik nuqtayi nazardan tasniflanishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, haqiqiy shaxs va onlayn yoki virtual shaxs har xil bo‘lishi mumkin, chunki inson o‘zini eng yaxshi qobiliyatlari (narsissizm) bilan cheksiz odamlar doirasiga ko‘rsatishi mumkin [Bendiukov, 2019: 54]. Har bir holatda nisbiylik mavjud bo‘lgani singari ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiyatni tadqiq etish ham nisbiylik nazariyasiga asoslanadi. Ijtimoiy tarmoqlar ishlay boshlagan dastlabki paytda insonlarda shaxsiyatini oshkor qilish yoki uni boricha ko‘rsatmaslikka intilishgan bo‘lgan, hozirda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ongli va ongsiz ravishda matlar orqali o‘z shaxsiyatlarini ifodalashmoqda. Ijtimoiy tarmoqda insonlar o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlaridan tashqari, kundalik hayotini ham bo‘lishmoqda. Shaxslarning butun xatti-harakatlari ularning o‘ziga xosligini akslantiruvchi oyna bo‘lib, ularni bashorat qilishga katta hissa qo‘shadi.

Hozirgi vaqtda tarmoq saytlarining ko‘plab tadqiqotchilari asosan foydalanuvchilarning demografiyasi, motivatsiyasi, samaradorligi, hayotdan qoniqish darajasi va boshqalarga e’tibor berishadi. Ammo ijtimoiy tarmoqlar tobora ommalashib borayotgani sababli, foydalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari kabi barqaror psixologik xususiyatlarni o‘rganish muhimdir. odamlarning muloqot qilish va muloqot qilish uchun Internetdan qanday foydalanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin [Correa, Bachmann, Hinsley, Zuniga, 2013:41-61]. Internet orqali odamlar butun dunyo bilan muloqot qilishi, o‘zlari haqida ma’lumot bermasalar ham nutqlaridagi lingvistik va ekstralingvistik vositalar yordamida ularni yanada chuqurroq tadqiq etishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar asosida shaxsiyat tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlarda lingvistik tahlil shaxsning psixologik portretini aniqlashga va maxsus algoritmlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Masalan,

Tvitter suhbatlarida hissiy barqarorlikning roli [Celli, Rossi, 2012: 10-17] maqolasida shaxsiyat turlari ichida o‘xshash xususiyatli shaxslar bir-biri bilan muloqot qilishga moyil ekanligini va muloqot uzoqroq davom etishi aniqlangan bo‘lsa, ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari bo‘yicha shaxsiy xususiyatlar va kognitiv qobiliyatlarni tashxislash modellariga tushuntirish mumkin bo‘lgan sun’iy intellekt usullarini qo‘llash [8] maqolasida shaxsiyat tipologiyasi algoritmlari ishlab chiqilib sun’iy intellekt uchun tatbiq etilgan. Psycho-linguistic features of personality behavioral patterns in instagram [Obvintseva , Yukhmina, 2021: 79-89] ilmiy maqolada shaxsiyatlarning lingvistik naqshlarida bir-biridan farqli jihatlari mavjud ekanligi, ya’ni ular so‘zlarni qo‘llash sonida, frazalar, neologizmlar, metaforalar kabi bir qancha lingvistik belgilar bilan farqlanishi tadqiq etilgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, shaxsiyatning o‘ziga xosligi ularning lingvistik va ekstralingvistik naqshlarida o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga, shaxsiyat tipologiyasini ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar(yozma, og‘zaki) asosida tadqiq etish psixolingvistik ekspertizadan tashqari, onlayn savdo, maslahat, marketing sohalari uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sun’iy intellektlar uchun shaxsiyatlar tipologiyasi algoritmlari yaratilishi texnologiya sohasida ham tub burilishlarga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bendiukov, M. A. (2019). Psychology of social networks: between frustration and addiction. Modern media in the context of information technologies. 2019. –P. 54-58. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_44031880_85908334.pdf

2. N. Obvintseva., E.Yukhmina. Psycho-linguistic features of personality behavioral patterns in instagram. Selection and peer-review under responsibility of the Organizing Committee of the conference. 2021. –P. 79-89. https://doi.org/10.15405/epsbs.2021.06.04.10

3. Cervone, D., Pervin, L. A. Personality: Theory and research. Danvers, MA: John Wiley ., Sons. 2013. –P. 365.

4. Celli, F., Rossi, L. The role of emotional stability in Twitter conversations. In Proceedings of the Workshop on Semantic Analysis in Social Media Association for Computational Linguistics, Stroudsburg, PA, USA. 2012. –P.10-17.

5. Correa, T., Bachmann, I., Hinsley, A. W., De Zuniga, H. G. . Personality and social media use. In Organizations and social networking: Utilizing social media

to engage consumers. IGI Global. 2013. –P. 41-61. https://doi.org/10.4018/978-1-4666-4062-9.ch003

6. Corr.P. J., Matthews, G. The cambridge handbook of personality psychology. Cambridge University Press Cambridge. 2009. –P. 53-62. https://doi.org/10.1017/CBO9780511596544

7. https://www.discprofile.com/what-is-disc/research-reliability-and-validity [2023. 11. 12].

8. https://doi.org/10.1038/s41598-024-56080-8 [2024. 12. 03].

IX SHU'BA. TIL TA'LIMI

UDK 37.81.13

THE WAYS TO MAKE LEARNING ENGLISH MORE INTERESTING

Yagyaeva E.B.
senior English teacher
elvina.yagyayeva@ferpi.uz

Dehqonova Xurshidabonu
Student of FerPI, 123-23 El (TACG) QXMT

https://doi.org/10.5281/zenodo.11111060

Abstract. The article reveals the issue of effective teaching English that concerns the majority of scholar of the field. Due to the rapid development of technologies and their application to the process it is going to make teaching-learning English be more interesting and productive.

Keywords: *enthusiasm, productive skills, communicative competence, meaningful conversations, numerous strategies, diverse technological options.*

In recent times, there has been a noticeable rise in students' enthusiasm for foreign languages. Over the last two decades, educators have increasingly emphasized the development of spoken language skills. Foreign language curricula now prioritize productive skills, particularly emphasizing communicative competence. The ability of students to participate in meaningful conversations in the target language is now recognized as a crucial, if not the most significant, objective of language education. This change in focus has led to a heightened demand for instructional materials that facilitate controlled interactive speaking practice beyond the traditional classroom setting [2].

Enhancing the appeal of English instruction is crucial, focusing on discovering methods to render the subject more captivating for learners. In the absence of active involvement, the likelihood of significant learning diminishes. Numerous strategies exist to augment the subject's interest, emphasizing the importance of identifying approaches that suit both the educator and students. Initiating this process, consider the following suggestions:

1. Integrate real-life instances: Facilitating comprehension is easier when students can relate the material to their own experiences. Incorporating real-life examples into lessons can substantially enhance engagement.

2. Foster interactivity: Sustaining student interest involves creating interactive lessons, spanning from group collaborations to participation in various activities.

3. Utilize technology: Leveraging technology proves effective in captivating students and injecting an element of enjoyment into the learning process. Explore the diverse technological options available for classroom integration.

4. Embrace creativity: Encourage inventive teaching approaches without hesitation. A creative approach to presenting material significantly increases the likelihood of student engagement.

These are just a few ideas to get you started. If you can find ways to make English more interesting for your students, you'll be well on your way to teaching it effectively. If you want to share your language and culture with students who are eager and enthusiastic about learning, you should consider becoming an ESL teacher. True, it isn't as simple as it appears, but you can become an ESL teacher with a little practice and some time. Making your ESL lessons relevant to your students is one of the most important aspects of the ESL curriculum. Preparing material for each level of ESL is critical to ensuring that you meet the needs of the learners. Reading, discussion, writing, and pronunciation are some of the most important skills to learn in English as a Second Language. It is just as important to plan a lesson as it is to teach it. When selecting material for your lesson, you must consider how your students are learning to become better at English. You can teach students how to develop sounds in their speech so that when speaking in English abroad or in a business presentation, they understand them. You can begin planning for a successful PPP project by developing a clear strategy. Your students will have a greater say in how you plan to spend their time. So, as you can see, your students gradually begin to leave the nest. Reading lessons should not test students in any way. It is beneficial for students to participate in activities related to reading. It is possible to develop a few ESL skills as you progress. There are numerous excellent ESL lesson plans available for ESL teachers to use. Students in the ESL program want to develop the skills necessary to communicate effectively in English. Students will be given the opportunity to express their opinion on the topic of celebrity in this discussion lesson. This fun activity encourages students to develop their English vocabulary while also improving their English expression. It is common for English learners' writing skills to fall through the cracks in ESL classes. Allowing your students to hone their writing skills will help them improve their communication skills. In addition to asking questions, they can comment on online discussions. They can Tweet and update Facebook statuses using it. During language

classes, students must demonstrate their ability to speak a foreign language. Although some ESL students may find it difficult to pronounce words, you should continue to work with them to ensure they understand what they are saying. This resource can be used to create your own pronunciation lessons, depending on your individual requirements. Turn to page 17 of the pronunciation resource to learn the words R and L and use these examples in your presentation. Students should come up with their own English tongue twisters for the stage. It is even possible to divide the class into two groups and have them compete using team-based points to correctly sound off each tongue twister [3].

CLT, or **Collaborative Language Teaching**, is an emerging method of language teaching. This type of teaching method is the most popular in the world for English language teaching. The course is primarily designed to help students hone their language skills in the real world by putting them in situations that will help them use them. It is critical to prepare any language for its success. In order to succeed in learning a language, such as English, you must be familiar with grammar, sentence structure, and proper word pronunciation. There are numerous ways to teach English to a child that will provide a solid foundation for learning the language. The following are ten different ways to teach English. One of the most popular methods of English instruction is the **communicative language teaching** (CLT). Students are able to communicate effectively in the real world by utilizing real-time scenarios. The silent method of English teaching focuses on the student's learning over the teacher's. A strong emphasis is placed on listening and speaking abilities in this method. The total physical response (TPR) concept entails using language objects as instructions. Suggestopedia is a method of learning English that incorporates art and music. The Cooperative Language Learning (CLL) program aims to make it easy for shy and timid learners to feel at ease when learning English. The CLL program focuses on students as a whole in order to provide an **English education**. A cooperative learning environment is fostered in the classroom by small groups of students collaborating. The structural method employs traditional methods such as direct methods and grammar translations to effectively teach English.

When teaching a new language, words and phrases must be drilled and repeated. In the classroom, it is critical to discover new resources that will aid in the stimulation of original ideas. It is important to engage students in learning a new language; here are some of the top language teaching books that will provide you with new ideas and allow you to learn a new language in a whole new way. Students who are proficient in pronunciation are better able to communicate clearly and confidently

in the target language. It is critical to develop a soundproof listening skill in order to understand and speak properly. When you introduce the sounds of an alphabet to a student, he or she will benefit from the content of the following **English lessons**. Students can understand the sound system of a target language thanks to phonics being included in the curriculum. The program not only improves key language skills like reading, listening, and speaking, but it also helps with other **fundamental language skills**. Successful teaching requires patience and perseverance. When you teach English, you can't help but feel extremely fortunate.

There are many things that need to be covered when teaching English as a second language. The basics include grammar, vocabulary, and sentence structure. However, there are also other important aspects of the language such as culture and idioms. It is important to tailor the lessons to the needs of the students.

Teaching English to a beginner can frighten new TEFL teachers. Students who are relatively new to English are referred to as beginners. Family names, household objects, and basic adjectives are some of the most important vocabulary words that a beginner should learn. It is possible for Advanced Advanced English students to communicate and fine tune their language skills in a simple manner. Students all over the world come to study with this group of students [3]. The use of props will benefit beginners in every way. Props and realia (real-life objects) can be used to teach vocabulary, serve as the foundation for an activity or game, or serve as a test. A role-playing game is one of the best ways for adult beginners to learn about real-world situations. The new Micro-credential course in Games and Activities for the Online Classroom (Young Learners) from Bridge offers many useful ideas for teaching English to children using technology. It's not uncommon for children to find anything funny and silly to play with, such as action words, animals, and even silly objects. You can use these ESL songs and activities to motivate your students.

Experienced language teachers know that individual learners have distinct sets of personality characteristics which determine their talents, abilities, and preferences in language learning: some learners are «quick», some are thoughtful, some love to work independently, others requires explanations, guidance, and constant attention from the teacher. That's why we must use the most effective teaching methods and aids at our disposal. Role-plays, language skills, projects, video situations, games, activities can greatly widen our horizons of creativity within the suggested methods. Nowadays the whole English Language Teaching community is entering a new stage of interactive learning by means of new technologies.

References:

1. Ismailov A.A. Interaktiv multimediali electron darslik. Ilk bosqich. T.2009;
2. Abdullayeva N.I., the way of teaching english using interesting activities, role palys and language skills during english classes, "Теория и практика современной науки" №4(34) 2018;
3. http://www.wikihow.com/Improve-Your-Language-Skills-Through-Reading,- Writing,-Listening-and-Speaking.

MUOMALA ETIKETIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMIJGA TA’SIRI

Yusufova Dilrabo Yusuf qizi,
dilsururi@mail.ru
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111119

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogning muloqot jarayonida axloqiy-me’yoriy talablarga rioya etishiga xizmat qiluvchi muomala etiketiga to‘xtalingan. Lug‘atlarda keltirilgan izohlarga e’tibor qaratilgan. Mutaxassis va olimlarning tavsiyalari keltirilib, muallifning dars jarayonlaridagi kuzatishlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy fikrlari bilan to‘ldirilgan.

Kalit so‘zlar: *muloqot, muomala, etiket, imij, pedagog, assimetrik, ta’lim oluvchi.*

Abstract. This article focuses on the behavior etiquette that serves the pedagogue to comply with ethical and normative requirements in the process of communication. Emphasis is placed on comments in dictionaries. The recommendations of experts and scientists are given, and the author's personal opinions based on his observations of the lesson processes are given.

Key words: *communication, behavior, etiquette, image, pedagogue, asymmetric, learner.*

Har birimiz har kuni, hech bo‘lmasa, bitta yangi narsa o‘rganamiz. Bu o‘zi yashayotgan olamni yaxshi bilish va o‘zgalar olamidan xabardor bo‘lish imkonini beradi. O‘rganish yashashning asosidir. Odamlar faqat shu tarzda atrof bilan muloqot o‘rnatadi. Insonlar bir-biri bilan aloqa qilmasdan, o‘zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatmasdan yashashi mumkin emas.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri – ***muomala etiketi***. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog‘lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois, muomala odobi

o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe’llilik singari axloqiy me’yorlarida namoyon qiladi. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi, deb e’lon qilingan bugungi kunda muloqot madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.

Notiqlik san’ati sirlarini o‘rganish va o‘z fikrini bayon qilishda muomala etiketlariga amal qilish, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zaruriyatdir. Zero, kasblar orasida pedagoglar muloqot etiketiga amal qilishi va uni namoyon etishida eng oldingi o‘rinlarda turishi maqsadga muvofiq.

Muloqot jarayonida muomala etiketlariga rioya qilish muhim omillardan biri hisoblanadi. Biz bugun so‘z yuritmoqchi bo‘lgan mavzuga ham aniqlik kiritish uchun, avvalo, ***muomala*** va ***etiket*** so‘zlarining mohiyatini tushunib olishimiz zarur. ***Muomala*** so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida 3 ta izoh keltirilgan. Lug‘atga asosan *[a. o‘zaro munosabat, aloqa*] 1. Kishilar bilan munosabat, so‘zlashuv, shunday munosabat yo‘sini: *Yaxshi muomala. Dag‘al muomala. 2.* Ish, xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan aloqa. 3. iqt. Mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash (tovar xo‘jaligi uchun xos) [6:274]. Demak, mazkur izohlarga e’tibor qaratib shunday xulosaga kelish mumkinki, muomala ikki tomonlamali muloqot jarayoni va unda ma’lum bir chegaralar mavjud emas.

Etiket so‘zi esa *[fr. etiquette — odob-axloq; marosim tartibi]* biror jamiyatda, ijtimoiy guruh va sh.k. da qabul qilingan o‘zaro muomala, odob-axloq; marosim tartibi, qoidalari. Saroy ahliga xos etiket. Diplomatik etiket” [7:74], deb ta’riflanadi. Fikrimizcha, etiket so‘zi qaysi so‘zdan keyin yoki oldin ishlatilsa ham o‘sha so‘zga chegara qo‘yib beradi. Ya’ni “muomala” cheksiz muloqot jarayoni bo‘lishi mumkin, lekin “muomala etiketi” bu qolipga solingan, madaniyat asosiga qurilgan muloqotni nazarda tutadi.

Etiket kundalik hayotda, ishda, o‘qishda, ko‘chada, mehmondorchilkda turli rasmiy tadbirlarda o‘zini tutishni o‘rgatadi. U kishi mavqeyini, imijini ko‘taradi va barqaror ushlab turishga yordam beradi. Umuman, etiket yaxshi turmush tarzini ta’minlaydi, chunki o‘zaro muloqot o‘rnatmay turib, hech kim mavjud bo‘la olmaydi. Muloqot esa etiket asosini tashkil etadi [2:7].

Muloqot qilishda etiketlarga amal qilish esa suhbatning sermazmun kechishini ta’minlaydi. Buning uchun esa, avvalo, etiket qoidalarini mukammal bilish va unga amal qilish zarurdir.

Ayniqsa, pedagog kasbida muomala etiketiga rioya qilish ta’lim oluvchilar orasida aloqa o‘rnatish, hurmat ma’nosini ifodalash, muloqot uchun ijobiy

emotsional vaziyat yaratish va ularga ta’sir qilish kabi bir qator kommunikativ funksiyalarga egaligi bilan ham xarakterlanadi.

Pedagog va ta’lim oluvchi bir-biri bilan assimetrik muloqot munosabatlari shaklida suhbat olib boradi. Assimetrik munosabatli muloqot bu - muloqotning biror komponenti ustunligida shakllangan muloqot shakli. Uning asosiy belgisi komponentlarning biri ikkinchisidan muayyan xususiyatlariga ko‘ra ustunligidir. Ya’ni suhbatning so‘zlovchi yoki tinglovchi bosimida amalga oshishidir [4].

Rus olimi professor Q.D.Ushinskiy ta’kidlashicha, o‘qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko‘rsatadigan ma’naviy oyinasi ijtimoiy qimmatga ega bo‘lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda namoyon bo‘ladi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim tarkibiy qismi o‘qituvchining xarakteri va his-tuyg‘ularida, uning o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish usulida namoyon bo‘luvchi pedagogik-psixologik takt (odob, axloq) xususiyatlarini qo‘llashdir [5:43].

Chex olimi Y.A.Komenskiy ham o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqodini shakllantiruvchi pedagog eng yaxshisidir [5:41].

Darhaqiqat, rus olimi Q.D.Ushinskiy va chex olimi Y.A.Komenskiy ham o‘z fikrlarini pedagogning so‘z qo‘llash mahoratiga e’tibor berishga undagan. Fikrimizcha, ayniqsa, muomala etiketi(muloqot odobi) mana shu vazifalarni bajarayotgan paytda pedagogga eng yaxshi hamroh bo‘la olishiga ishonchimiz komil.

Dastlab, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi muomala etiketini ***salomlashish odobi*** bilan boshlasak. O‘zbek muloqot xulqida, asosan, salomlashishning qisqa ko‘rinishlari ko‘proq qo‘llaniladi. “Assalomu alaykum”, “Salomaleykum”, “Salom” tarzida salomlashish shular jumlasidandir. Bulardan “Assalomu alaykum” deya salom berish har tomonlama eng to‘g‘ri salomlashish hisoblanadi. Aslida “Assalomu alaykum” ham salomlashishning qisqa ko‘rinishidir. Bu so‘z o‘zbek tiliga arab tilidan kirgan bo‘lib, uning eng mukammali “Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu” shaklida aytilib, “Sizlarning ustingizga tinchlik-salomatlik, Allohning marhamati va barokatlari yog‘ilsin” degan ma`noni anglatadi [3:2].

Kuzatishlarimiz davomida, ayrim o‘qituvchilar auditoriyaga kirganidan so‘ng ta’lim oluvchilarning birinchi salom berishlarini kutib turishlariga guvoh bo‘lganmiz. Aslida etiketga ko‘ra, kamchilik ko‘pchilikka salom berishi lozim. Mana shunday etiket qoidalariga rioya etmaslik pedagogik imijga putur yetishiga sabab bo‘ladi yoki aksi birinchi salom berib, auditoriyaga kirgan o‘qituvchini hamma sergaklik va xushkayfiyat bilan kutib oladi.

Keyingi bosqichimizda ***tinglash etiketlari*** haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Ma’lumki, nutq insonni tabiatdagi boshqa jonzotlardan farqlab, ulug‘lab turadigan ijtimoiy hodisadir. Faqat insonlargagina xos bo‘lgan bu muhim xususiyat esa bevosita tinglash bilan bog‘liqdir. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ta’kidlanishicha, inson eshitish qobiliyati mavjudligi uchungina gapira oladi [1].

Yuqorida pedagog va ta’lim oluvchi assimetrik munosabatli muloqot doirasida munosabatga kirishishini aytib o‘tgan edik. Bunda pedagog ta’lim oluvchidan kasbiy tomondan ustun hisoblanadi. Dars jarayonlarida yangi mavzu bayoni bo‘layotganda ta’lim oluvchi pedagogni diqqat bilan eshitsa, ikki tomon ham o‘z vazifasini to‘g‘ri bajaradi. Agar savollar bo‘lsa, qo‘lini ko‘targan holda murojaat qilishi, pedagog esa “marhamat” deb savolini berishga ruxsat bermaguncha o‘quvchi o‘z savolini berishga shoshilmasligi lozim. Yangi dars bayoni tugagach o‘qituvchi “tushunmaganlar bo‘lsa, marhamat” yoki “savollar bo‘lsa, eshitaman”, degan jumlasidan keyin ta’lim oluvchi ham savollarini berishi mumkin. Bunda pedagog ham eshitish etiketlariga rioya qilishi darkor. “Shu oddiy narsani ham tushunmadingmi?” yoki “buni yuqorida aytib o‘tdim” deya ta’lim oluvchining gapini bo‘lmasligi, oxirigacha eshitishi va vaziyatga qarab javob berishi pedagogning imijiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, ta’lim oluvchilar turli xil psixologiyaga ega, hammasi ham birdek darsni tezkorlik bilan qabul qila olmaydi. Boz ustiga ta’lim oluvchining eshitmadim yoki tushunmadim, deyishi bir tomondan pedagogning ham kamchiligi hisoblanadi.

Biroq, muloqotda odob-axloq qoidalari va pedagogik aloqa madaniyati qoidalari to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llash muayyan qiyinchiliklarga olib keladi. Har xil mayda tushunmovchiliklar va janjallar, kundalik mojarolar, to‘satdan sodir bo‘ladigan kelishmovchilik o‘qituvchidan to‘g‘ri va samarali munosabat talab qiladi. Shunday sharoitda pedagoglarga muomala etiketini bilishlik va unga psixologik tomondan yondashish yaqindan yordam beradi.

Umuman olganda, muomala etiketi bu kishilarning nasihat qilmasdan va odob o‘rgatmasdan bir-biriga ta’siri, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi ekanligi diqqatga sazovordir. Shu sababli yoshlarimizda muomala etiketini shakllantirish

hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, pedagogning ta’siri juda ham katta. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala etiketini egallashdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent, 1986.
2. Muvaffaqiyat kaliti etiket. Yosh kuch sovg‘asi. 7-b.
3. Odilxon qori Yunusxon o‘g‘li. Salomlashish odobi. 2-b.
4. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –T, O‘qituvchi, 1992.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2011. 43-b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, G‘ofur G‘ulom, 2023. 274-b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, G‘ofur G‘ulom, 2023. 74-b.

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Yuldashev Farxod Karimbayevich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Umumiy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111135

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning muammo va yechimlari va ta’lim sifatini oshirishdagi omillar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *metod, xalqaro ta’lim standartlari, innovatsion metod, interaktiv usullar, guruhlarda ishlash, innovatsion texnologiya, ijodkorlik.*

Annotation. The article deals with the problems and solutions of teaching Uzbek language as a foreign language factors of improving quality of education.

Keywords: *method, international educational standards, innovative method, interactive methods, working in groups, innovative technology, creativity.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonida xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosidagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o‘quv-uslubiy, badiy adabiyotlar bilan ta’minlash, o‘zbek tilini o‘rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabi bir qancha vazifalar belgilangan edi. [Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 20.10.2020-yildagi PF-6084-son.]

Hozirgi kunda xorijiy davlatlarda o‘zbek tilini o‘ganishga bo‘lgan qiziqish borgan sayin ortib bormoqda. Janubiy Koreya, AQSH, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Turkiya kabi davlat fuqarolari katta qiziqish bilan o‘zbek tilini o‘rganishayotganlari tajribalarda ko‘rish mumkin. Bu jarayonni yanada rivojlantirish, xalqaro miqiyosida o‘zbek tili nufuzini oshirish va uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirishda, bu jarayonni samarali tashkil etishga bo‘lgan tadqiqotlar ko‘lamini oshirish zarur bo‘ladi. [Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021-yil 29-may.]

Bugungi kunda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishda ularni avval mavjud bo‘lganidek pedagogikaning ancha eskirib qolgan dasturlariga asoslanib o‘qitish emas, balki jahonning yetakchi davlatlari tajribalariga tayangan holda o‘qitish,

ta’lim jarayonida rivojlangan, samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda o‘zbek tilini xorijda o‘zbek tili sifatida o‘qitish sifatini yaxshilash va uning samarasi o‘laroq mamlakatimizni rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘sha oladigan, malakali kadrlarni, kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirish ta’lim dasturining asosiy mazmuniga aylandi.

O‘zbek tilini o‘qitishda interfaol ta’lim modelidan foydalanib tashkillashtirishi quyidagi xulosalarning asosli ekanini tasdiqlaydi:

1. Agar o‘qituvchi talabalarga ma’lum mavzu materiallarini o‘zlashtirishga o‘z shaxsiy tajribalari asosida yondashishga imkon berilsa, talab etiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar kerakli darajada o‘zlashtiriladi;

2. Agar o‘qituvchi talabalarning ta’lim olish vositalarini faol qo‘llab-quvvatlay olsa, ular juda yaxshi ta’lim oladilar.

3. Agar o‘quvchi, birinchidan, talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bilimlarni o‘zlashtirishining samarali vositalarini tanlay olsa, ikkinchidan, ularning fikri garchi o‘zining qarashlariga to‘g‘ri kelmasa-da, ularni inobatga olsa, talabalar o‘quv predmetlarni juda yaxshi o‘zlashtiradilar.

O‘zbek tilini xorijliklarga o‘qitish jarayonida interfaol jarayonning mavjud bo‘lishi o‘qituvchining “hukmronligi”ni inkor etibgina qolmay, talaba uchun o‘z bilimlari darajasini baholash, yutuq va kamchiliklarni aniqlashga ham imkon beradi. Interfaol jarayonning yana bir afzalligi-bu:

– talabalarda shaxsiy fikr-mulohazalarni bildirish;

– o‘z qarashlarini himoya qilish;

– o‘zgalarning fikrlarini tinglay olish, ularni umumlashtirish, bildirilayotgan fikrlar orasidan asosiy, muhim va haqiqatga yaqinlarini ajratish hamda xulosalash qobiliyatini ham rivojlantirish;

– interfaol metodlardan ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini oshirishdir. [To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T., 2010:184]

Buning natijasi o‘laroq, ta’lim-tarbiya jarayoniga mohirona, san’atkorona yondashib, ehtiyojiga moslab tashkillashtirish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishning muhim shartlaridan biridir.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir xorijlik o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bunday usullardan foydalangan holda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg’ulotga aylanadi. O‘zbek tilini xorijda o‘zbek tili sifatida o‘qitishda asosiy e’tibor

kommunikatsiyalarni rivojlantirish, muloqot qilish, aloqa jarayonida tilni o‘zlashtirishga qaratish kerak.

Bunda xorijlik o‘quvchilarda o‘zbek tiliga qiziqish qobiliyatini uyg’otish, nutqni, fikrlashni, rag’batlantiradigan vaziyatni yaratish va talaba istagan mavzu bo‘yicha gapirish, munozarada ishtirok etishi, tafsilotlarni aniqlashga yordam beradi. O‘zbek tilining xorijda o‘zbek tili sifatida o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rolli o‘yinlar talabalarda nutqni rag‘batlantirishda faollik oshadi, chunki talabalar o‘zlarini shu vaziyatda bo‘lganda biron bir narsani aytishi, so‘rashi, mavzu haqida bilim olishi bilan birga suhbatdosh bilan nimanidir baham ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi. Xorijlik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda multimedia, slayd-shou, audio-video materiallardan foydalanish va talabalarni mikroguruhlarga bo‘lib ishlash, hamda guruhlarda eshittirilgan audio-materialni muhokama qilish ham til o‘rganuvchilarda o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Darslarda o‘qitishning har xil usullarini qo‘llash talabalarda fanga bo‘lgan qiziqish ortadi va ularning faolligi ortadi va natijada o‘zlashtirish darajasi oshadi. [Muxitdinova X. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatish dasturi. Ilmiy-amaliy anjumani mteriallari. Toshkent, 2018]

Yana shuni ta`kidlash joizki, ayni paytda yaratilayotgan darsliklarda o`z davri uchun muhim bo`lgan yana bir qancha qulayliklar mavjudki, ular ham til o`rganuvchida til o`rganish ko`nikmasini faollashtiradi. Yangi yaratilayotgan darsliklardagi bu kabi o`zgarishlar, takomillashuvlar ta`lim oluvchilarni darsdan bezib qolmaslikka, dars jarayoniga qiziqishi va o`zbek tiliga hurmat e`tiborini shakllantirishga hizmat qiladi.

Albatta, bugungi kunda O`zbek tilini chet tili sifatida o`qitish ko`zda tutilgan yangi darsliklar til o`qitishning xalqaro standartlari asosida yaratilmoqda.

Bunda:

Nutqiy kompetensiyalar:

Aktiv – gapirish, yozish;

Passiv – o`qib tushunish, tinglab tushuish.

Leksik kompetensiyalar:

Grammatika;

Leksika – A1, A2, B1, B2 ko`rinishidagi sinflar kesimida taqsimlangan.

Til ta`limi juda murakkab jarayondir. Shu ma`noda til o`qituvchilari turli tomondan turlicha yondashib maksimal darajadagi natijaga erishishni, qanday qilib bo`lmasin milliy tilimizni jahonga yoyishda muayyan darajada hissa qo`shishni o`ziga maqsad qilib qo`ymog`i lozim.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, o‘zbek tilini xorijda o‘zbek tili sifatida o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining ko‘p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, talabalarda o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish va xalqaro ta’lim tajribasini o‘rganish va shu yo‘l bilan ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchi-talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘zbek tilini xorijda o‘zbek tili sifatida o‘qitishni samarali tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar, metodlar va usullardan foydalanish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 20.10.2020-yildagi PF-6084-son.

2. Ashurova D., Yuldashev Z. “Ta’lim tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini qo‘llash – zamon talablari”. Xalq ta’limi. – Toshkent: 2006.-№1. – B.16-17

3. Madaminov S.Q. “Chet tillarni o‘qitishda innovatsion metodlarning o‘rni va ularning uslubiy tahlili”. Samarqand: 2018.

4. Muslimova N.A., Usmonboyeva M.H., Turaev A.B. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. “Sano standart” nashriyoti, g – Toshkent: 2015. – 180-bet.

5. Raximov O.D., Turg‘unov O.M. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: 2012. 20-bet.

6. www.ares.uz.

KOREYS TILI VA UNING OLTOYSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Ashirbayeva Diloram Ravshanovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti v.b.
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
hengbok21@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111154

Annotatsiya. Mazkur maqola koreys tilining tarixiy ildizlariga, uning oltoyshunoslikda o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, jahon tilshunoslari va koreys tilshunoslari tomonidan keltirilgan nazariy qarashlari o‘z ifodasini topgan.
Kalit so‘zlar: *koreys tili, Xunminchonim, Hangil, Ural-Oltoy, Tungus-Manchjur.*

Аннатоция. Данная статья посвящена историческим корням корейского языка, его изучению в алтаистике, а также высказаны теоретические взгляды, представленные мировыми и корейскими лингвистами.
Ключевые слова: *корейский язык, Хунминчоным, Хангыль, Урало-Алтайский, Тунгусо-Манчжурский.*

Annotation. This article is devoted to the historical roots of the Korean language, its study in Altaic studies, and also expresses theoretical views presented by world and Korean linguists.
Key words: *Korean language, Xunminchonim, Hangil, Ural-Altai, Tungus-Manchu.*

Til jamiyatda paydo bo‘lganidan boshlab hamisha ijtimoiy harakterga ega bo‘lib, kishilarning ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan o‘zaro aloqa bog‘lash, fikr almashishga xizmat qiluvchi vositadir. Shu bilan bir qatorda u ham millatning ma’naviy qiyofasini ham o‘zligini ifoda etuvchi muhim ramzlardan biri, insoniyat tafakkurining bebaxo ko‘zgusi hamdir. Har bir tilning dunyoga kelish sabablari, shakllanish hamda taraqqiy etish tarixi bo‘lgani kabi, koreys tilining ham o‘ziga xos kelib chiqish tarixi va dialektikasi bor. Koreys tili boshqa tillarga nisbatan ancha keyingi davrlarda o‘rganila boshlandi. Koreys tilining

tarixiy negizlarini o‘rganishga xususan keyingi omillar sabab bo‘lgan. Ma’lumki, Koreya ko‘p asrlar davomida Xitoyning mustamlakasi bo‘lgan. Bu koreys tilining tarixiy negizlarini o‘rganishga bo‘lgan birinchi sabab bo‘lsa, ikkinchi muammo esa, XV asrgacha, ya’ni, to qirol Sedjon alifboni ixtiro qilgunga qadar, koreyslarning o‘z shaxsiy yozuvlari bo‘lmaganligidadir. [Алпатов, 1992:119-125]

Koreya Xitoyning 1,5 ming yildan ortiq mustamlakasi bo‘lgani bois ba’zi tadqiqotchilar, xususan, Edkins koreys tilini xitoy tilining bir ko‘rinishi deya ta’kidlagan. Ammo bunday fikrlash haqiqatga bir muncha to‘g‘ri kelmaydi. Koreys tili leksikasining 75% xitoy tilidan kirib kelgan so‘zlar tashkil qilsada, bu koreys tili o‘zining mavqeini yo‘qotgan degani emas. Bu yerda ikki variantni ko‘rishimiz mumkin: 1) koreys tili asosini sof koreys so‘zlari tashkil qiladi; 2) koreys tili o‘zining gap tuzilishi va grammatikasida o‘ziga xoslikni saqlab qolgan bo‘lib, unda sof koreys so‘zlari va o‘zlashgan so‘zlar qo‘llanilishi mumkin. [Джарылгасинова, 1962] Biron tilning so‘z tarkibi hali u tilning to‘liq tarkibini belgilab bermaydi. O‘zlashgan so‘zlar mazkur tilda qurilish ashyosi singari namoyon bo‘ladi. Koreyslar bir etnik guruhga mansub bo‘lib, bir tilda ya’ni, koreys tilida so‘zlashadilar. Ular mo‘g‘ul qabilalarining davomchilari hisoblananib, Koreya yarim oroliga bronza asrining neolit davrida ko‘chib borishgan va shu tariqa o‘troqlashishgan. Koreys tili Koreya Respublikasining davlat tili hisoblanib, Janubiy Koreyada “한국말” – [Hangukmal], Shimoliy Koreyada esa “조선말” – [Cho‘sonmal]-deb yuritiladi. Koreya aholisi 49 mln.dan ziyod bo‘lib, ulardan taxminan 530 ming nafari MDH davlatlarida istiqomat qiladi. Bu ko‘rsatkich esa chet elda istiqomat qiladigan koreyslarning 7,6% tashkil etadi.

Koreys tili eng qadimgi tillardan biridir. Lingvistik va etnografik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, koreys tili Ural-oltoy tillari oilasiga mansubdir. Bu oilaga turk, mo‘g‘ul, tibet, venger, o‘zbek, fin va boshqa tillar kiradi. Koreys yozma tili (alifbosi) Xangil (한글) 1443-yilda koreys olimlari guruhi tomonidan ixtiro qilingan. Bu guruhga Choson sulolasining to‘rtinchi qiroli - buyuk Sedjong rahbarlik qilgan. [고삭주,2004:406] U ziyoli qirol bo‘lib, zamondoshlari uni “Sharqiy mamlakatning Yao va Shuni” deb atashgan. Bu hukmdor davrida mamlakatning ko‘plab siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy

sohalari rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga erishdi. Alohida e’tibor ta’limga berilar edi. Xangil (birinchi nomi Xunmin Chonim - Xalqni o‘qitish uchun to‘g‘ri tovushlar) paydo bo‘lguncha *venyan*- xitoy tilining adabiy yozma turlaridan bo‘lgan Xanmun (한문) rasmiy yozma davlat tili vazifasini o‘tagan. Xitoy ierogliflarining katta miqdorini bilishni talab qilgani uchun bu tildan jamiyatning faqatgina oliy va o‘rta qatlamlari foydalanar edi. Bundan tashqari xitoy ierogliflarining koreyscha o‘qilishi xitoychaga muvofiq bo‘lmagan, ularni ishlatishda tartibsizlik mavjud bo‘lgan: yagona talaffuz me’yorlari mavjud bo‘lmaganligi sabab xitoy ierogliflari tartibsiz qo‘llangan va ularning talqini turlicha bo‘lgan. Koreys tilining o‘zi esa xalq og‘zaki tili maqomiga ega bo‘lib, muloqotning asosiy vazifasini bajargan. Ammo, bu tilda sodda va oson yozma shakl bo‘lmagan. O‘rta qatlam vakillari idu (koreys tili so‘zlari va grammatik konstruksiyalarini yozish uchun tanlangan ierogliflar tizimi) yozuvidan foydalanganlar. Ammo yozuvning bu turi koreys tilini yozuvda to‘liq ifoda eta olmagan, bundan tashqari u murakkab ham edi. Aholining turli guruhlari yozuvning ikki turidan foydalanganligi sabab vujudga kelgan noqulaylik va qirolning xitoy ierogliflarining o‘qilishi va talqinini tartibga solishga intilishi uni yozuvning yangi va unikal shaklini ishlab chiqishiga turtki bo‘ldi. Xunmin Chonim yoki Xangil aynan shu vazifani bajardi. 1446-yilda e’lon qilingan qirol buyrug‘ining Xunmin Chonimga kirish so‘zida buyuk qirol Sedjonning so‘zlari yozilgan: “Mamlakatimizda nutq tovushlari xitoydan farqli ravishda yozma belgilari bilan kerakli darajada ifodalanmaydi. Shuning uchun omi insonlar ichida o‘z fikrlarini yozma ravishda ifoda etmaydiganlar ko‘p. Aynan shu masala bo‘yicha qayg‘urib men 28 ta belgi yaratdim. Insonlar ularni oson egallashlarini va har kuni qulay ravishda foydalanishlarini istardim”. [김상대, 2001:284] Chon Indji yozgan Xunmin Chonimga so‘zboshida quyidagilar ta’kidlangan: “Xorij mamlakatlarining tillarida ham tovushlar bor, ammo ular uchun yozuv belgilari mavjud emas. Xitoy yozuvlarini o‘zlashtirib, ulardan foydalanishga o‘rgandilar. Ammo bu yumaloq joyga to‘rtburchakning moslashtirish kabidir”. [Джарылгасинова, 1979:182] Idu belgilari ma’lum tartibga ega emas, ular koreys nutqining mingdan bir ma’nosini ham bera olmaydi. Bu ikki hujjatda qirolni Xangilni yaratishga intilishini sabablari aks ettirilgan. [Kim Chun Sig, 207:175]

Koreys tili qadimgi tillardan hisoblanib, lingvistik va etnografik tadqiqotlar natijasida mazkur til ural-oltoy tillari guruhiga mansub ekanligi ma’lum bo‘ldi. Oltoy va ural tillarining o‘ziga xos yaqinliklari haqidagi taxmin (ural-oltoy tillari guruhi haqidagi gipoteza XVIII asrdan beri mavjud) nostratik nazariya asosida yuzaga keldi. Koreys tilining kelib chiqishi tarixiga nazar tashlasak, XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu tilning yapon tili bilan birgalikda oltoy tillari oilasi bilan o‘zaro aloqalari haqidagi g‘oya ilgari surila boshlangan. Koreys hamda g‘arb olimlarining sermashaqqat mahnatlari koreys tili va oltoy tillarining o‘zaro aloqadorlik g‘oyalariga ulkan hissa qo‘shdi. Koreys tili va oltoy tillarining aglyutinativ xususiyatga ega ekanligi esa mazkur g‘oyaning mazmun mohiyatini yanada chuqurlashishiga zamin yaratdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Koreys va yapon tillarining umumiy kelib chiqishi haqidagi nazariya garbda XIX-XX asrda yuzaga kelib, uning asoschisi N.Ya.Bichurin va P.Kafarov shu haqda toxtalib o‘tishgan. [14] Koreys va yapon tillarining tadqiq etilishi jarayonida mazkur tillarning leksika, grammatikasida umumiy jihatlar ko‘p ekanligi ma’lum bo‘ldi. Koreys tili tarixini o‘rganuvchi taniqli koreys tadqiqotchisi Li Gi Mun har ikki tildagi o‘zaro o‘xshash 200 dan ziyod so‘z va 15 dan ortiq qo‘shimchalar borligini isbotlab berdi.

Ammo, koreys tilining oltoy tillari oilasi bilan bog‘liqlik taraflari haqida so‘z yuritilganda, bu o‘z navbatida finn olimi G.Y.Ramstedt nomi bila bog‘liq. O‘tgan asrning 20-yillarida yapon tilining oltoy oilasi bilan bog‘liqlik masalasi ko‘tarilganda, ilk bor koreys tili ham mazkur masalaga jalb etilgan. Nisbatan keyinroq, ya’ni 30-yillar oxiriga kelib esa G.Y.Ramstedtning koreys tilining oltoy tillari oilasiga mansub ekanligi haqidagi mashhur maqolasi matbuot yuzini ko‘rdi.[4]

U 1919-1939 yillar mobaynida Yaponiyada o‘zining tadqiqot ishlarini olib borgan. U yerda koreyalik talabalar bilan muloqotda bo‘lib, koreys tiliga mehr qo‘ygan va uni o‘rgana boshlagan. Koreys tilini o‘rganishda yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan. Uning tadqiqotlari natijasida Koreys tilini etimologiyasini o‘rganish (1949) nomli kitobi chop etilib, ulkan muvaffaqiyat qozonadi. Mazkur kitobda asosan koreys tili va oltoy tillarining leksikasini qiyoslash orqali erishgan natijalari o‘rin egallagan. [Джарылгасинова, 1962]

Ramstedtdan so‘ng amerikalik tilshunos olim N.N.Poppe koreys tilining tuzilishida oltoy tillarining asoslari bor ekanligi g‘oyasini tom ma’noda me’ros qilib olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘zining “Oltoy lingvistikasiga kirish”

nomli kitobida Ramstedtning fikrlariga to‘liq qo‘shiladi hamda koreys tilini boshqa tillarga nisbatan tungus tillariga yaqinroq ekanligini va shu bilan birga oltoy tillari asosiga ega ekanligi fikrini aniq bayon qilgan. Aynan shu kitobida u o‘zining bir qancha fikrlarini namoyon qilib, unda oltoy tillariga nisbatan koreys tilining egallashi mumkin bo‘lgan 3 taxminiy variantni keltirgan: [남기심, 2001]

1) koreys tili tungus-manchjur, turk, mo‘g‘ul yoki boshqa oltoy tillari bilan o‘zaro aloqadorligi mavjud;

2) qadimgi koreys tili ham yagona oltoy tillari oilasi tizimi yuzaga kelmasdanoq shakllangan;

3) koreys tili o‘ziga qadimgi oltoy asoslarini singdirgan.

Rossiyada esa 1897-yilda Koreya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilgandan so‘ng, xususan Sankt-Peterburgda koreys tilini o‘rganish bo‘yicha katta maktab faoliyat ko‘rsatishni boshlagan. Mazkur tilshunoslik maktabi namoyondalaridan biri B.Ya.Vladimortsov o‘z faoliyati davomida shunday ma’lumotlar to‘plaganki, unda turk, mo‘g‘ul, tungus-manchjur va koreys tillarining kelib chiqishi, o‘zaro aloqadorligi haqida bayon qilingan va bu ko‘plab baxs-munozaralarga sabab bo‘lgan. 1927-yilga kelib esa, Ye.D.Polivanovninig “Koreys va oltoy tillarining o‘zaro aloqadorligiga doir” nomli maqolasi chop etilgan. Unda koreys tili va oltoy tillarining umumiy xarakteristikasi, xususan yuqorida keltirilgan til guruhlarining ham tipologik qirralari va shu bilan birgalikda koreys tili va oltoy tillarining o‘zaro mutanosibliklari haqida so‘z borgan. U mazkur maqolasida koreys tilini tungus-manchjur, mo‘g‘ul, turkiy-tatar tillari bilan o‘zaro yaqinlik aloqalarini ochib bergan. [권재일,2004]Polivanov keltirgan leksik materiallar nisbatan kam bo‘lsada, ammo faktlarning ilmiy tadqiq etilishi natijasida koreys tilining oltoy tillari oilasida egallashi kerak bo‘lgan munosib o‘rinni belgilab bergan. Xususan, koreys tili leksikasining asosida morfema tarkiblarining qisqarish etaplarini ko‘rsatib berdi. Bu hol esa, hozirgi zamon mo‘g‘ul tillari evolyutsiyasida ham namoyon bo’lmoqda. A.A.Xolodovich tomonidan tuzilgan ilk lug’at hozirgi kungacha tilshunoslarning asosiy quroli bo’lib kelmoqda. «Очерк грамматики корейского языка» kitobi koreys tilining morfologiyasi, fonetikasi hamda sintaktikasisini o’rganishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. Endi g‘arb oltoyshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u u 40-50 yillarga kelib G.Y.Ramstedt va N.N.Poppelarning xizmati bilan ancha yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan edi. G.Y.Ramstedt va N.N.Poppe tomonidan amalga

oshirilgan ishlardan biri bu turk-mo‘g‘ul hamda koreys tillaridagi fonetik mutanosibliklarni isbotlab berganliklaridadir. Har bir narsaning qarama-qarshi tarafi bo‘lgani kabi oltoyshunoslarning ham qarshi tarafdorlari bo‘lib, ular antioltoyshunoslar deb nomlangan. Bu esa o‘z navbatida G.Derfer va uning bir necha izdoshlari bilan nomi bilan bog‘liq. G.Derfer, A.Vovin, S.Georg, Yu.Yanxunen kabi bir qator tadqiqotchilar oltoy tillarining o‘zaro aloqadorligini asossiz deb hisoblaydilar. Bunday xulosaga kelishlariga sabab esa, oltoy tillaridagi so‘zlarning o‘zaro qiyoslanishidir. Turkiy, mo‘g‘ul, koreys va h.z. xalqlarning uzoq davrdan beri qardosh yashab kelishi, o‘zaro muloqot va munosabatda bo‘lishi, tabiiyki, biron tildan boshqasiga yangidan yangi so‘zlarning kirib kelishiga zamin yaratgan. Bu esa o‘z navbatida o‘zlashgan so‘zlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Demakki, mazkur xalqlar o‘zaro muloqot jarayonida qardosh xalqlarning leksikasiga duch kelishgan. Antioltoychilarning fikricha, til guruhlarining o‘zaro mutanosibliklari masalalari ko‘rib chiqilayotganda, an‘anaviy komparativistika me‘yorlaridan chetlashgan holda, ya’ni tilni asosiy, yadroviy va pereferik leksikalarga bo‘linishini shart deb bilganlar. Bu jarayon tabiiyki oltoyshunoslarning tadqiqot ishlariga anchagina qiyinchiliklar tug‘dirgan. Oltoy tillarini o‘rganishda so‘zdagi muvofiq fonemalarning fonologik tarkibini o‘rganishdek aspekt e‘tibordan chetda qolgan. Tadqiqotlar natijasida to‘plangan ko‘plab ma’lumotlar avval ta’kidlab otilmagan dalillarni, ya’ni so‘zning fonetik muvofiqligini, shuningdek arxaizmlarga qarab oltoy tillarining klassifikatsiyasini tuzishdek imkoniyatni yaratib berdi. Unga ko‘ra mo‘g‘ul, manchjur, turkiy, koreys, yapon tillarining fonologik tuzilishidagi o‘ziga xosliklar, arxaik so‘zlarning qo‘llanilishi bugungi kunga kelib, shu so‘zdagi mavjud unli va undoshlarning qay tarzda saqlanib qolinganligi yoki bo‘lmasa o‘zgarishga uchraganligini ko‘rish mumkin.

Koreyada ham koreys tilining oltoy tillari bilan muvofiqligini o‘rganish muhim masalalardan hisoblangan. Ushbu jarayon Koreya Yaponiyaning mustamlakachaligidan ozod bo‘lganidan keyin (15 avgust, 1945 yil), aniqrog‘i XX asrning 60 - yillaridan boshlangan. Mashhur koreys tilshunoslaridan biri Li Gi Mun o‘zining “Koreys tilining rivojlanish tarixidan” nomli kitobida koreys tili qadimgi Koreya hududlarida istiqomat qilgan qabilalar tili Puyo va Xan tillarini o‘zida mujassamlashtirganini alohida ta’kidlab o‘tgan. Qadimgi koreys tilini tom ma’noda ikkiga ajratish mumkin: shimoliy puyo hamda janubiy xan. Birinchi guruh tilida Manchjuriya, Shimoliy Koreya hududlarida istiqomat qilgan

qabilalar so‘zlashgan bo‘lsa, xan tilida Janubiy Koreyada istiqomat qilgan qabilalar so‘zlashgan. Ular keyinchalik uch xonlik davlati, ya’ni, Chinxan, Maxan, Pyonxan davlatlariga asos solishgan. Tilshunoslikda qiyosiy tahlil yoki qiyosiy tadqiqotlar bugungi kunda fanda (masalan solishtirish, qiyoslash) deyiladi. [Холодович, 1986: 8-20] O‘zbek va koreys tillari tarixan bir xil tillar oilasiga mansubdir. Ushbu masalaga bag‘ishlangan asarlar Aalto, Ko Song Mu, Poppe, Ramsted, Rosny va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan. So‘nggi yillarda o‘zbek va koreys tillarini qiyosiy o‘rganish sohasida maxsus ishlar ham mavjud. [Kim Jong Suk, 2005:570]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, koreys tili tarixi uzoq tarixiy jarayonni bosib o‘tgan. Uning rivojlanishida xitoy tilining o‘rni ham beqiyos. Bugungi kunda koreys yozuv tizimi Hangilning rasman qabul qilinishiga qadar koreys xalqi Idu, Xanmun kabi yozuv turlaridan foydalangan. Yozuvning Kugyol, Hyanchal kabi ko’rinishlari ham mavjud bo‘lib, har bir yozuv tizimi ma’lum bir vazifani (adabiyot na’munalarini yaratish yoki davlat tilida ish yuritish kabi) bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алпатов В. М. Лингвистическое наследие Н. Поппе // ВЯ. 1992, №3. Джарылгасинова Р.Ш. Когурёсцы. (Историко-этнографическое исследование). Автореф. дисс. … к. и. н. – М., 1962.

2. Джарылгасинова Р. Ш. Этногенез и этническая история корейцев («Стела Квангэтхо-вана») – М.,Наука, 1979 .

3. Трофименко О.А. Позиция корейского языка в классификации отдельных групп алтайских языков. // ВЯ. 1992, №3.

4. Холодович А.А. Материалы по грамматике корейского языка XV века. –М., 1986.

5. Чжун Сук-Бэ, Ю. В. Ванин, Пак Чон Хе, М. Н. Хан. Лекции по истории Кореи. – М.: Экслибриспресс, 1997.

6. 고석주. 현대한국조사의연구 I. - 서울: 한국문화사, 2004.

7. 김상대. 국어문법의대안적접근. - 서울: 국학자료원, 2001.

8. 남기심. 표준국어문법론. 2001. (Nam Gi Shim, “Adabiy til nazariy gramatikasi”).

9. 권재일, 한국어 통사론. 2004. (Kvon Che Il, “Koreys tili sintaksisi”)

10. 정기철. 문장의 기초. 2004. (Chon Gi Chhol, “Gap asosi”).

11. Kim Jong Suk, Pak Dong Ho. Koreys tili grammatikasi. 1 qism. –Seul, 2005.

12. Kim Chun Sig. Koreys tili grammatikasi. –Toshkent: KOICA, 2007.

13. https://pandia.ru/text/80/081/35286.php Доисторический период корейского языка. Систематический обзор корейского языка. Генеалогия и родственные связи корейского языка.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA FE’LLARNING BERILISHI

Maxmudova Zuhra Maqsud qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: maxmudova.zuhra@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111163

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillari izohli lug‘atlarining tarixi va taraqqiyot bosqichlari haqida ma’lumot keltirilgan. Shuningdek, har ikkala til izohli lug‘atlarida aynan fe’l so‘z turkumining berilish tartibi misollar bilan ko‘rsatilgan va ularning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari tipologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *fe’l, izohli lug‘at, bosh ma’no, sinonim, talaffuz*

Annotation. This article provides information about the history and the stages of development of the explanatory dictionaries of Uzbek and English languages. Also in this type of dictionaries of both languages, the order of giving the verb phrase is shown with examples. Their similarities and differences are analyzed typologically

Key words: *verb, explanatory dictionary, main meaning, synonym, pronunciation*

Kirish. Fe’l so‘z turkumi ko‘p bora murojaat qilingan va ustida ancha tadqiqot va tahlillar olib borilgan so‘z turkumi hisoblanadi. Jumladan so‘ngi yillarda fe’llarning ba’zi semantik guruhlari, valentlik ko‘rinishlari hamda semantik xossalari I.K.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, S.H.Muhamedova, M.K.Abuzalovalarning doktorlik va O‘.Sharipova, D.Abdullayeva, Z.U.Siddiqov, T.T.Musayev, G.A.Narimova, V.A.Karimjonova va boshqalarning nomzodlik ishlarida o‘rganib chiqilgan. [Кучкартаев, 1977:168]

Ingliz va o‘zbek tillaridagi fe’l va uning turlariga qiyosiy aspekt nuqtai nazaridan o‘zbek tilshunoslari J.B.Bo‘ronov, O‘.Q.Yusupov, A.S.Sodiqov, M.T.Irisqulov, R.Z.Muryasov, S.A.Xamzayev, G‘.K.Mirsanov, T.Ergashev, N.R.Karimova, A.Q.Po‘latovlar tomonidan munosabat ko‘rsatilgan. J.B.Bo‘ronov [Buranov, 1986:308] va boshqalarning izlanishlarida fe’l turlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarning aksariyati yoritib berilgan. S.A.Xamzayev ikkilamchi

predikativli qurilmalar (IPQ) tarkibidagi ayrim fe’llarning funksional semantik jihatlariga e’tibor qaratgan va ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini qiyosiy aspektda nazariy asoslab bergan. T.Ergashevning tadqiqotida kauzativlik kategoriyasining farqli tizimli tillarda ifodalanishi borasidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Ingliz tilidagi bog‘lovchi fe’llarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini aniqlash N.R.Karimova tomonidan, o‘zbek tilidagi fe’l shakllarining ingliz va rus tillardagi adekvat muqobillarini belgilash esa A.Q.Po‘latov tomonidan amalga oshirilgan.[Пўлатов, 2003: 404] Zero, leksikografik jihatdan fe’l so‘z turkumlari ingliz va o‘zbek tillarida doirasida tipologik aspektda yetarlicha o‘rganilmagan.

Bugungi kunda ingliz va o‘zbek tillarida fe’llarni tipologik aspektda o‘rganish va ekvivalentlarini topishda izohli lugatlarning o‘rni beqiyos. O‘zbek tilining ilgarigilaridan ko‘ra mukammalroq bo‘lgan ilk izohli lug‘ati O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida S.Akobirov, T.Aliqulov, A.Rustamov va boshq. tomonidan tayorlanib, M.Ma’rufov tahriri ostida nashr etilgan. Ushbu lug‘at o‘zida 60000 so‘z va so‘z birikmalarini qamrab olgan. Undan so‘ng bir necha marotaba to‘ldirilgan va qayta ishlangan ko‘rinishlari ham nashrdan chiqarildi. Ushbu yagona izohli lug‘at tarkibidan bir nechta sohalar doirasidagi izohli lug‘atlar ajratilgan. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” [til.gov.uz], “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” [til.gov.uz], “O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati” [til.gov.uz] va boshqalar shular jumlasidandir.

Ingliz tilidagi izohli lug‘atlarning tarixi esa bir necha yillar oldinga borib taqaladi. Jumladan, Noah Webster izohli lug‘ati 1872-yilda nashr etilgan, Kembrij lug‘ati esa 1584-yildan beri to‘ldirishlar bilan turli xildagi lug‘atlar chop etib kelmoqda. Ushbu lug‘atda korpus lug‘atdagi so‘zlar bilan birga 1,5 million so‘z mavjud. Shuningde, ingliz tili izohli lug‘atlarining o‘zbek tilidagi lug‘atlar kabi ma’lum so‘zlarning izohi, kelib chiqish tarixi, sinonimlari bilan birga, talaffuz ko‘rinishi ham berib boriladi. Albatta bu o‘quvchi yoki xorijlik til o‘rganuvchilar uchun qulaylik yaratadi.

Dastavval, o‘zbek tili izohli lug‘atida fe’llarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular quyidagi holatda beriladi:

BOTIRMOQ Botmoq fl. ort. n. *Gulnor chelakni loyqaroq suvga botirdi va ariq bo‘yiga olib qo‘ydi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Yuvosh bir burda nonni oldin choyga, keyin shakarga botirdi.* E. Raimov, Ajab qishloq. *Ro‘zimat ketmonni zo‘g‘atasigacha botirib urdi-yu, Sidiqjonga qaradi.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Payg‘omov piyoladagi konyakni qoldirmay simirdi, ko‘kpiyozni*

qatiqqa botirib, chaynadi. S. Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi. *Cho‘li bobo katta qoziq uchlarini yerga botirib, qo‘lini fotihaga ochdi*. Mirmuhsin, Me’mor.

Chiroyiga (yoki husniga) non botirib yermidim *Chiroyidan nima foyda; faqat chiroyiga uchamanmi? Chiroyga non botirib yeb bo‘lmas.* Maqol.

Husniga non botirib yermidim, demoqchisanda? O. Yoqubov, Uchrashuv.

Qonga botirmoq Qonga belamoq; qirgin qilmoq.

Gitlerchi kallakesarlar panjalarini oq soqol otalarning, oq sochli onalarning, baxtli bolalarning.. qonlariga botirib, ilgarilamoqda. Oybek, Quyosh qoraymas.

Qo‘lni qonga botirmoq Qotillik qilmoq, o‘ldirmoq.

[Yormat:]..Nima ish qildim?Gunohmi ? Savobmi ? Soqolim oqarganda, qo‘limni qonga botirdim. Oybek, Tanlangan asarlar. [Мирзаев, 2006: 89]

Yuqoridagi *botirmoq* so‘ziga nisbatan fe’lning nisbat shakllari bosh so‘z sifatida berilganda, birinchi navbatda, ana shu ma’no va vazifasi grammatik belgi bilan qayd etilgan. *Botirmoq* fe’li *botmoq* fe’lining orttirma nisbat shaklidagi ko‘rinishi hisoblanadi. Shuningdek, izohli lug‘atda turg‘un birikmalar misollar yordamida ilyustratsiya qilingan lekin, ularning hech biri uchun grammatik xarakteristika keltirilmagan. Tabiiyki, har qanday lug‘at xalq og‘zaki ijodi namunalari asnosidagi misollar bilan boy hisoblanadi. Aynan ushbu so‘z misolida maqol keltirilgani so‘zimizning yaqqol misoli bo‘ladi.

LAMENT *verb* [I or T]

UK /ləˈment/ **US** /ləˈment/

to express sadness and feeling sorry about something:

*The poem opens by lamenting **(over)** the death of a young man.*

My grandmother, as usual, lamented the decline in moral standards in today's society. The late lamented (= dead and remembered with love) Frank Giotto used to live here.

Synonyms

bemoan formal

bewail literary

LAMENT ***noun*** [C] formal

UK /ləˈment/ **US** /ləˈment/

a song, poem, or other piece of writing that expresses sadness about someone's death:

The whole play can be interpreted as a lament ***for*** *lost youth.*

Synonyms

dirge

elegy [dictionary.cambridge.org]

Ingliz tili izohli lug‘atidan olingan *lament* so‘zining izohida uning murakkab polisemantik so‘z sifatidagi ham ot ham fe’l so‘z turkumi doirasidagi ma’nolari keltirilgan. Shu bilan birga har bir ma’no misollar yordamida boyitilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atidan farqli o‘laroq, bunda har bir so‘z hamda so‘zning turkumlar doirasida o‘qilishi (pronunciation) qavs ichida yozma va audio ko‘rinishida Britaniya va Amerika tallafuz me’yorlari asosida berilgan. Shuningdek, bu misolda berilgan so‘zning har bir mustaqil ma’nosiga sinonimlar ham keltirilgan.

Shunisi ahamiyatliki, ingliz va o'zbek tili bir tilli izohli lug'atlari kabi tarjima lug'atlarida bu qadar mukammal darajadagi tarjima va sinonimlar hattoki, maqol va iboralar berilmagan.

Xulosa. Tadqiqotimiz obyektidagi har ikala ingliz va o‘zbek tillari ham leksik ko‘lami, so‘z boyligi bilan bemalol o‘zaro bellasha oladi. Har ikkala tilda ham har qanday fikrni bemalol, uslubga ko‘ra bo‘yoqdor yoki boshqa holatda ifodalash mumkin. Zero, ushbu tillar qardosh bo‘lmagan til oila vakillari bo‘lganliklaridan lug‘atlarda berilishida farqli holatlar uchrab turadi. Bu esa, tarjimon va til o‘rganuvchilarning mukammal darajada ziyrak va bilimdon bo‘lishlari kerakligini talab etadi. Shu bilan birga, yangi, yanada mukamallashtirilib bosmadan chiqariladigan lug'atlar yanada boyroq, keng doirada qo'llanilgan ko'rinishlarda ifodalanishi nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Ayniqsa, har bir so'z va uning ma'nolari yuzasidan keltirilgan misollar yanada ko'paytirilsa, bir necha vaziyat, turli xil kontekstda foydalanilgan gaplar berilsa, ham yangi til o'rganuvchilar ham doimiy foydalanuvchilar, tarjimonlar uchun foydadan holi bo'lmasdi, nazarimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buranov J.B, Yusupov U.K, Sadikov A.S, Iriskulov M.T. The Grammatical Structures of English, Uzbek and Russian. Part I. – T.: Ukituvchi, 1986. – 308 p.;

2. Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ). Дисс. … д-ра. филол. наук. – Т.: Фан, 1977. – 168 с

3. Мирзаев.Т (раҳбар) ва бошқ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз 16 ва сўз бирикмаси. Ж. 1. А—Д / Таҳрир ҳайъати;.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. — Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.—680 б.

4. Пўлатов А.Қ ва бошқалар. Дунёвий ўзбек тили. 1-жилд. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилларидаги кўринишлари. – Т., 2003. – 404 б.

Elektron manbalar:

5. (http://til.gov.uz/uz/literature/dict-and-encyclopedia/25)
6. (http://til.gov.uz/uz/literature/dict-and-encyclopedia/24)
7. (http://til.gov.uz/uz/literature/dict-and-encyclopedia/21)

X SHU’BA. SOTSIOLINGVISTIKA

РОЛЬ ПАРАЛИНГВИСТИКИ В ОБЩЕНИИ

Юлдашев Ф.К.
преподаватель Кафедра общего языкознания
Узбекский Государственные Университет мировых языков
yuldashevfarxod499@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111130

Аннотация. В статье представлена информация о том, насколько велика роль паралингвистики в возникновении фразеологизмов. Исследование статьи сосредоточено на содержании и сущности фразеологизмов, возникающих на основе экстралингвистических средств, образованных именно паралингвистическими средствами.

Ключевые слова: *экстралингвистика, паралингвистика, фразеологизм, афоризм, фразема компонента, лексема;*

Параязык (от греч. para – возле, вне) – явления и факторы, сопровождающие речь, но не являющиеся вербальным материалом: громкость, паузы, модуляции голоса, мимика, жесты, визуальный контакт между общающимися и т.п.; изучается паралингвистикой. [1, с. 113]

Параязык (по Вердербер) – «невербальные звуковые сигналы, оформляющие речь, - тональность, громкость голоса, темп речи, паузы и вздохи – являются богатым источником информации. «Параязык» имеет отношение не к тому, что именно сказано, а к тому, как это сказано. Наименее очевидным типом «параязыка» является молчание. С помощью молчания люди способны передавать такие чувства, как презрение, враждебность, вызов и строгость, но также уважение и доброе отношение». [2, с. 3]

Паралингвистика изучает мыслительные движения тела, такие как жесты, мимика, возникающие в речевой ситуации. Паралингвистика выполняет важную функцию в общении, общении. Если речь будет выражена слушателю без поддержки этих средств, мысль будет иметь меньшую силу воздействия. Сообщение, которое можно сказать, выглядит как сухая информация. Любая мысль должна обладать своей выразительностью, привлекательностью, востребованностью в общении. Именно такими аспектами паралингвистика образует, а также оживляет речь.

Как мы знаем, жесты возникли в развитии общества гораздо раньше, чем язык (речь). Даже жесты служили основным источником для того, чтобы человек мог говорить, выражать мысли. Точнее, жесты являются продуктом длительного жизненного опыта человека. Поэтому не будет переводчика жестов. Об этом В.Н. Гелия говорит: "хотя Паралингвистика служит для раскрытия значения слова, она также имеет свойство привлекать слушателя".

Судя по всему, жесты реализованы синхронно со значением слова. Соответственно, речь становится впечатляющей. Следовательно, эффективность речи ощущается не только с помощью изобразительных средств языка, но также с помощью паралингвистических средств, которые делают мысль привлекательной. Ведь всякое притяжение, впечатление, образность в речи возникает на основе движений. С другой стороны, паралингвистические инструменты также могут быть эффективными сами по себе.

В статье мы постараемся изучить формирование знаковых фразеологий и их смысловое содержание. Паралингвистика также очень близка к фразеологизму по образованию, структуре и сущности. Близость заключается в том, что паралингвистика также является нелинейным явлением, имеющим смысл на основе стагнации. Было бы целесообразно условно включить паралингвистические средства и в языковые феномены. Потому что они не имеют звуковой структуры, но имеют семантику значения и в то же время важны, поскольку они одинаково понятны владельцам языков.

Кроме того, жесты похожи на фразеологию в том, что они дают любой идее образ, образно-аффективное выражение.

Кстати, мы не можем сказать, что фразеология - это явление, резко отличающееся от паралингвистических средств, а точнее, от паралингвистики. Потому что при формировании фразеологии наряду с языковыми единицами часто наблюдается использование паралингвистических средств. Кто знает, может, интересующиеся этой областью ученые положат этому конец. Когда мы проанализировали литературу, имеющую отношение к нашей работе, насколько это было возможно, мы не смогли найти ни одного источника, который бы различал фразеологию и паралингвистические средства. Однако оказалось, что роль паралингвистики в возникновении фразеологии огромна. Поэтому в данной статье основное внимание уделяется содержанию и сущности фразеологизмов, сформированных на основе

экстралингвистических средств, образованных именно паралингвистическими средствами.

Таким образом, жесты также являются частью фразеологизмов, но их отношение к языку и речи, процесс выражения мысли и некоторые синтаксические особенности отличаются друг от друга. Соответственно, оба являются языковыми явлениями, которые необходимо изучать отдельно. В общем языкознании явление паралингвистики рассматривается как фразеологические афоризмы. Такое отношение соответствует характеру жестов. Однако не все они имеют форму фраз. Например, состав, приподнимающий брови, также является паралингвистическим инструментом. Первая часть соединения используется в первоначальном смысле, а вторая часть используется в переносном смысле. Фразовыми глаголами можно называть только жесты с такой структурой. Сравните: пожимает плечами, закатывает глаза, трясет головой, напрягает шею, хмурится.

Однако к фразеологическим сочетаниям нельзя добавлять такие жесты, как скручивание губ, прищуривание глаз, пожимание плечами, хмурый лоб, покачивание головой, покачивание головой. Потому что оба компонента слова в этих сочетаниях сохраняют свое первоначальное значение. Следует отметить, что эти жесты очень близки к фразам. Словосочетания - это свободные комбинации. Так как же отличить жесты от фраз? Во-первых, жесты - невербальные средства. С другой стороны, фразы полагаются на лексемы, а не на невербальные действия. Во-вторых, жесты могут стабилизироваться в соответствии с требованиями текста. Например, человек, который поскользнулся, имеет большой вес: он лежал на спине, чтобы избавиться от мух, качал головой, махал руками и пытался напугать его криком, потому что он был недостаточно силен. Комбинация покачивания головой и рукопожатия в данном примере - это жесты, используемые в контексте слова «вождение» (фразеологизируются в контексте). Фразы не имеют этой функции. Кажется, что паралингвистические приемы тоже очень близки к фразам. Однако разница в том, что фразы основаны на лексемах, основанных на мыслях, а жесты - на жестах, основанных на действиях.

Они основаны на метафорах. Например, вышли и старушки соседних домов, дожившие до определенного возраста (Чолпон. «Ночь и день»). Если только кто-то не вызвался придумать красивый шаблон? Ну, по крайней мере, я не пошел вниз, не объяснив сначала себя.

Значение фразеологии (фразеологическое значение) основано на переносном значении словесных компонентов словосочетания: лизать жир змеи - хитрость, перевернуть шубу - злость, а упавший в воду буханка хлеба - пуста.

Паралингвистические средства, то есть жесты, состоят в основном из действий и ситуаций. Вербально они даются только в литературных текстах. Это очень полезно для раскрытия характера главного героя. Они также заставляют читателя задуматься, наблюдать и наблюдать: «Он должен выйти сегодня, пойдёшь?» - сказал Усманов. - Да, - кивнул (У. Умарбеков). Кажется, что жесты в тексте заданы автором, а не языком главного героя. Это еще один аспект жестов.

Итак, жизненное пространство паралингвистики - диалогическая речь. Анализ исследований показывает, что жесты в основном состоят из слов и фраз, которые используются в буквальном смысле. Во фразеологии все компоненты слова основаны на переходах, а в жестах только одно слово имеет значение. Сравните: пожимает плечами, выщипывает брови, потирает руки. Таких жестов в нашем языке меньшинство. Но в любом случае жесты очень близки по структуре к фразеологизму.

В заключение, фразеология - это единицы языка, основанные на стабильной миграции, а жесты - это единицы речи, которые условно фразеологизируются на основе требований текста. Возникновение обоих происходит на основе экстралингвистических средств. В этом отношении они очень похожи.

Паралингвистические (около языковые) средства общения характеризуются двойственностью. С одной стороны, они позволяют экономить речевые средства. Обращаясь, допустим, к продавцу, мы, указывая на предмет, говорим: «Покажите, пожалуйста, вот эту чашечку», — и не тратим лишних слов на ее описание. С другой стороны, они компенсируют многое из того, что недоговорено словами, вскрывают подтекст, многозначность речи, ее стилистические оттенки, чувства, отношения и т. д. Действительно, суть такой, например, незаконченной фразы, как «Ну, знаете?!», можно понять только через интонацию, мимику, жесты говорящего.

Умение наблюдать и учитывать элементы неречевого поведения слушателей позволяет вносить коррективы в свое выступление, превращать монологическую речь в активный диалог со слушателями, «втягивать» их в процесс взаимостимуляции. Ведь тонус выступления во многом зависит от

реакции аудитории, от того, насколько она поддерживает или охлаждает выступающего. Поэтому и надо уметь видеть, чувствовать «дыхание» аудитории, чтобы регулировать ее поведение, что важно как для оратора, выступающего перед публикой, так и в простом разговоре.

Но следует помнить, что неречевые средства являются не самостоятельным, а вспомогательным средством коммуникации. Они подготавливают, сопровождают, комментируют, разъясняют речь, вскрывают ее глубинную суть. Поэтому прежде чем их использовать, надо знать, о чём говорить.

Список использованных литературы

1. Николаева Т.М. Паралингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.Н. Ярцевой. — М.: Советская энциклопедия, 1990. с. 113

2. Леонтьев А.А. Паралингвистика — статья из Большой советской энциклопедии. с. 3

3. Ахманова О.С. Параязык // Словарь лингвистических терминов. — Изд. 4-е, стереотипное. — М.: КомКнига, 2007. — 576 с.

4. Колшанский В. Паралингвистика. — М.: Наука, 1977.

5. Бгажноков Б.Х. Адыгский этикет. – Нальчик, Эльбрус, 1978

KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETIDA “SALOMLASHISH” VAZIYATINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI

Yusupova Gulchexra Alisherovna
ToshDSHU tayanch doktoranti
uzsejonguli@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111171

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys va o‘zbek nutqiy etiketlari sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilib, har ikkala tilning nutqiy etiket birliklaridagi differensiyalar ochib berildi. Shuningdek, til sohiblarining muayyan ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lgan nutqiy etiket birliklaridan foydalanishlarining me’yoriy hol ekanligi ko‘rsatib berildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, koreys va o‘zbek muloqotida nutqiy etiket birliklarining qo‘llanilish chastotasi va variativligi muloqot vaziyatiga hamda turli ijtimoiy omillarga bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: *nutqiy etiket, xushmuomalalik, iyerarxiya, jamiyat, chastota, variativlik, ijtimoiy omil, sotsiolingvistika.*

Аннотация. В данной статье исследуется речевой этикет корейского и узбекского языка с точки зрения социолингвистики, а также выявляются различия единиц речевого этикета обеих языков. Также было выявлено, что использование говорящими единиц речевого этикета, характерных для определенных социальных групп, является нормой. По результатам анализа установлено, что частота и вариативность употребления единиц речевого этикета в корейском и узбекском общении зависит от ситуации общения и различных социальных факторов.

Ключевые слова: *речевой этикет, вежливость, иерархия, социум, частота, вариативность, социальный фактор, социолингвистика.*

Annotation. This article examines the speech etiquette of the Korean and Uzbek languages from the point of view of sociolinguistics, and also identifies the differences in the units of speech etiquette of both languages. It was also revealed that the use by speakers of speech etiquette units characteristic of certain social groups is the norm. Based on the results of the analysis, it was established that the frequency and variability of the use of speech etiquette units in Korean and Uzbek communication depends on the communication situation and various social factors.

Key words: *speech etiquette, politeness, hierarchy, society, frequency, variability, social factor, sociolinguistics.*

Nutqiy etiket individual madaniyat, qadriyatlarga ko‘ra anglashiluvchi tushunchadir. Insonda nutqiy etiket atrof-muhit, oila va jamiyatdagi vaziyat hamda boshqa omillar ta’sirida bolalikdan shakllana boradi. Turli millatlarda nutqiy etiket shu millatning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lishi tabiiy. Nutqiy etiketning turli qirralari nafaqat tilshunoslar, balki sotsiolog va madaniyatshunoslar tomonidan o‘rganilgan, rang-barang konsepsiyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu masalaga qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki nutq etiketi davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biriga aylanmoqda. Tilshunoslikda nutqiy etiket turli aspektlarda o‘rganilgani uchun ham ushbu fenomenni tavsiflovchi, uning u yoki bu tomonlarini ta’kidlaydigan har xil ta’riflar mavjud [Turdiyeva, 2020:13].

Sotsiolog olim E.Goffman nutqiy etiket nazariyasiga “face – yuzni yo‘qotish”, “yuzni saqlab qolish” tushunchalarini kiritib, “yuz – bu o‘zimizni boshqalarga qanday ko‘rsatishimiz in’ikosidir” [Goffman, 1967:9-10] deb ta’rif bergan. Bu o‘rinda G‘arb tilshunosligidan ancha oldinroq Xitoy nutqiy etiketida juda qadim davrlardan beri davom etib kelayotgan va xitoyshunos olimlarning tadqiqotlarida [Васильев, 1976:52-82; Сорокин, 2001:11-14] muntazam ravishda o‘rganib kelingan, xitoyliklar muloqotining tavsiflovchi muhim xususiyatlaridan biri – “yuz” (面子 miàn zi) tushunchasini alohida ta’kidlash joizdir. “Ushbu tushuncha xitoy lingvomadaniyati vakili uchun o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini saqlab qolish, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaslik, shuningdek, boshqalar oldida “yuzini yo‘qotmaslik”, ya’ni “obro‘yini to‘kmaslikka” harakat qilishni anglatadi. Bundan xitoyliklarning muloqot uslubida “murosaga kelish” hamda “muvofiqlik” tushunchalarining ustuvorligi ayon bo‘ladi” [Shamsiyeva, 2023:46-47]. Bu o‘rinda Konfutsiy qadriyatlari va mafkurasi chuqur ildiz otgan koreys jamiyatida ham muloqot ishtirokchilarining imkon qadar “yuzni saqlab qolish”ga alohida e’tibor qaratishlarini ta’kidlash lozim.

Koreys tilshunoslarining ham nutqiy etiket borasidagi turli ta’rif va tasniflarini kuzatish mumkin. Binobarin, Jang Wonho (장원호) nutqiy etiketga shunday ta’rif beradi: “Nutqiy etiket bu – boshqa odamga e’tiborli bo‘lgan holda vaziyatga qarab ishlatilishi kerak bo‘lgan to‘g‘ri nutq, yuz ifodasi va gavdani tutishni anglatadi” [장원호, 2022:11].

Koreys tilshunosi Lee Seokju (이석주) nutqiy etiketni suhbatdoshga e’tiborli bo‘lish va o‘z so‘zlari va harakatlariga ehtiyot bo‘lish bilan bir qatorda, vaziyatga mos ravishda o‘ziga nisbatan kamtar iboralar va suhbatdoshga nisbatan hurmatni ifodalovchi iboralar sifatida ta’riflagan [이석주, 2009:9-28].

Jeong Minyeong (정민영)ga ko‘ra, koreys jamiyatida boshdan kechirilishi mumkin bo‘lgan turli xil mulohaza muhitlariga muvofiq rioya qilinishi kerak bo‘lgan xushmuomalalik bilan gapirish usullari nutqiy etiketdir. Nutqiy etiket birliklari sifatida esa har kuni salomlashganda va xayrlashganda ishlatish mumkin bo‘lgan kundalik hayotdagi xushmuomalalik so‘zlari, tug‘ilgan kun, Yangi yil bayramlari kabi maxsus vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat so‘zlari, murojaatlar, hurmat so‘zlarini tushunish mumkin [정민영, 2016:242].

O‘zbekona nutqiy odat masalalarini sotsiolingvistik yo‘nalishda atroflicha yoritib bergan olima Sh.Iskandarovaga ko‘ra, “nutqiy odat deyilganda, jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanishi zarur bo‘lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turg‘un muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlari tushuniladi” [Iskandarova, 1993:6].

Demak, kishilar muayyan tilda muloqot qilar ekan, ularning milliy xarakteri, mentaliteti, yashash tarzi, urf-odat va an’analari asosida har bir xalqning o‘ziga xos nutqiy etiket qoliplari yuzaga keladi. Ko‘rinadiki, nutqiy etiket qoliplarining shakllanish jarayoni ijtimoiy, madaniy omillarga bog‘liq bo‘lgani uchun ham har qanday millatning nutqiy faoliyati boshqa millat vakilining nutqiy faoliyati bilan o‘zaro qiyoslab o‘rganilganda, ulardagi xarakterli belgilar to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Shu bois ham mazkur maqolamizda koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarini o‘zaro qiyoslab ulardagi umumiy va o‘ziga xos, farqli jihatlarni ko‘rsatish maqsad qilib olingan.

Nutqiy etiket sohasi sotsiolingvistikaning predmetiga, binobarin, so‘zlovchilarning ijtimoiy rollari, muloqot xulqining ijtimoiy sharti, milliy xususiyatlari va h.k. masalalariga mos keladi. Demak, sotsiolingvistikaning nutqiy muomala etiketlari bilan bog‘liq nazariy xulosalaridan foydalanish – nutqiy etiketning vazifalari, uning ishlatilish o‘rinlari, umuman muloqot xulqining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘laqonli tushunishga yordam beradi.

Biz koreys va o‘zbek tilida salomlashish vaziyatida ishlatiladigan nutqiy etiket birliklarini o‘rganish maqsadida anketa-so‘rovnoma metodidan foydalandik.

So‘rovnoma metodi dastavval psixologiya ilmida vujudga kelgan. Psixologiyada so‘rovnoma metodini birinchi bo‘lib ingliz olimi F.Galton tadqiqotchilarda aqliy xislatlarning yuzaga kelishini o‘rganish maqsadida qo‘llagan. Keyinchalik xorijiy psixolog-olimlar S.Hall, A.Binet, G.M.Andreyeva, E.Noel tomonidan so‘rov o‘tkazishning amaliy texnologiyasi rivojlantirildi [Yuldashev, 2018:119].

Sotsiolingvistlar ma’lumot to‘plashda ko‘proq ***kuzatish*** va turli xil ***so‘rovnomalar***dan, shuningdek, ***yozma manbalarni umumilmiy tahlil*** metodidan foydalanadilar [Usmanova va boshq. 2014:73]. Sotsiolingvistikaga oid bir qator qo‘llanmalar mualliflari ma’lumotlar to‘plash usullari orasida so‘rovnoma usulini birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Ushbu usul sotsiologiyadan olingan bo‘lib, uni qo‘llashning barcha nozik tomonlari eng kichik detallarni ham hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, sotsiologik tadqiqotlarlarning deyarli 90 foizida so‘rovnoma usuli qo‘llaniladi [Shveyser va boshq. 1978: 179].

Anketa-so‘rovnoma usuli tilni egallashdagi ma’lum qonuniyatlarni aniqlashtirish va shu tilda so‘zlashuvchilarning u yoki bu muloqot sharoitlarida til qo‘llashlarini tekshirishga qaratilgan.

Demak, anketa so‘rovi o‘tkazish deganda insonlardan oldindan tayyorlangan so‘rovnomalar asosida ma’lum obyektiv faktlar, voqea, hodisa va shaxslar to‘g‘risida fikr olish jarayoni tushuniladi. Sodda qilib aytganda, anketa so‘rovi – anketa asosida suhbat qilishdir. Anketa so‘rovi yordamida respondentlardan o‘zlari guvohi bo‘lgan, eshitgan, ko‘rgan yoki mustaqil tushunchaga ega bo‘lgan ma’lum voqea yoki shaxs to‘g‘risida ma’lumot olish jarayonini tushunish mumkin.

Anketa so‘rovi respondentlarning soni bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:

– individual anketa so‘rovi (bitta respondent, ya’ni har bir fuqaro bilan alohida tartibda anketa so‘rovini o‘tkazish);

– guruhiy anketa so‘rovi (bir vaqtning o‘zida bir qancha (100 gacha) respondent bilan so‘rov o‘tkazish);

– ommaviy anketa so‘rovi (yuzdan oshiq respondentni anketa so‘roviga jalb qilish) [Yuldashev, 2018:120].

Tadqiqotimizda anketa-so‘rovnomasi 2023-yilning aprel-may oylarida GOOGLE internet sayti vositasida o‘tkazildi. Anketa-so‘rovnomasi koreys va o‘zbek tilida kundalik hayotda ishlatiladigan xushmuomalalikni ifodalovchi so‘zlarning turli vaziyatlarda qo‘llanish shakllarini aniqlash maqsadida tuzildi. Anketa-so‘rovnoma yopiq tipdagi savol (menyu savol) dan iborat.

Anketada so‘rovnomaning maqsadi, respondentning yoshi, jinsi, ish joyi haqidagi savollar bilan birga, har bir mavzuga ko‘ra, masalan, “Qanday

so‘zlar/ifodalar bilan salomlashasiz?” kabi savollar berilib, unga bir qancha javob variantlari keltirilgan. Bunda har bir respondent kundalik muloqotda eng sermahsul qo‘llaydigan o‘ziga ma’qul variantni belgilashi ko‘zda tutilgan.

Tadqiqotimizda anketa-so‘rovnomasiga Koreya Respublikasining Seul shahridan 140 nafar, O‘zbekiston Respublikasining Toshkent shahridan 140 nafar respondent jalb etildi. Respondentlarning ijtimoiy gender taqsimotiga ham e’tibor qaratish maqsadida 70 nafar erkak va 70 nafar ayol respondent jarayonda ishtirok etdi.

1-rasm

Anketa-so‘rovnomasida informantlar asosan to‘rtta: 20-29, 30-39, 40-49 va 50 yoshdan yuqori bo‘lgan yosh guruhlariga birlashtirildi (bunday guruhlarga birlashtirib tadqiqot o‘tkazish usulini A.A.Grebenyova, T.I.Yerofeeva va boshqa tilshunoslarning ishlarida ham ko‘rish mumkin).



2-rasm

Koreys va o‘zbek muloqotida nutqiy etiketlarning qo‘llanilish holatini aniqlash uchun koreys va o‘zbek respondentlari bilan anketa-so‘rovnomalari o‘tkazildi. Quyidagi jadavallarda koreys va o‘zbek tilida *yoshi kattalar* bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi berilgan va tahlilga

tortilgan. Anketa-so‘rovnomalarida ijtimoiy omil ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq 5 ta birlikdan ko‘p bo‘lgan holatlarda mazkur omil ahamiyatli deb hisoblandi.

Koreys tilidagi “Salomlashish” mavzuiy guruhida *yoshi kattalar* bilan muloqot qilish vaziyatida quyidagi nutqiy etiket birliklar tahlilga tortildi: 안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?] Assalomu alaykum! (rasmiy hurmat uslubi), 안녕하세요? [annyeonghaseyo?] Assalomu alaykum! (norasmiy hurmat uslubi), 안녕? [annyeong?] Salom! (do‘stona uslub), 오셨어요? [osyeosseoyo?] Assalomu alaykum! (so‘zma-so‘z: Keldingizmi?), (norasmiy hurmat uslubi, hurmat suffiksi bilan), 왔어요? [wasseoyo?] Assalomu alaykum! (Keldingizmi?) (norasmiy hurmat uslubi), 밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?] so‘zma-so‘z: Ovqatlandingizmi? (norasmiy hurmat uslubi), 식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?] so‘zma-so‘z: Ovqatlandingizmi? (norasmiy hurmat uslubi, “yemoq” fe’lining hurmat shakli), 하이 (하이염) [hai (haiyeom)] Salom! (ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z).

Koreys tilidagi anketa-so‘rovnomasi natijalari

나이가 많은 사람 – Yoshi kattalar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

1-jadval

Nutqiy etiket birliklar	Ijtimoiy omillar					
	Jins 140		Yosh 140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?]	42	29	18	19	17	17
안녕하세요? [annyeonghaseyo?]	35	45	26	18	19	17
안녕? [annyeong?]	0	0	0	0	0	0

오셨어요? [osyeosseoyo?]	7	8	4	4	3	4
왔어요? [wasseoyo?]	0	0	0	0	0	0
밥 먹었어요? [bap meogeosseoyo?]	0	0	0	0	0	0
식사하셨어요? [siksahasyeosseoyo?]	7	8	6	6	0	3
하이 (하이염) [hai (haiyeom)]	0	0	0	0	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	91	90	54	47	39	41
Variativlik	4	4	4	4	3	4

1-jadvalda erkaklardan 91 ta, ayollardan esa 90 ta javob oldik. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yosh bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 54/47/39/41. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki *yoshi kattalar* bilan muloqot jarayonida nutq etiketi birliklarini qo‘llash chastotasida “**yosh**” ijtimoiy omili ahamiyatlidir. Tahlil natijalaridan ayon bo‘ladiki, berilgan 8 turdagi salomlashish birligidan 4 tasi ham erkak, ham ayol informantlar tomonidan belgilangan. Yosh omiliga ko‘ra, “40-49” yoshdagi respondentlar tomonidan 3 xil javob belgilangan. *Yoshi kattalar* bilan salomlashishda 안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?] birligi 42 nafar erkak, 29 nafar ayol tomonidan ishoratlangan. Bu *yoshi kattalar* bilan salomlashish vaziyatida erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq rasmiy hurmat shaklidan foydalanishini ko‘rsatadi. Aksincha, *yoshi kattalar* bilan salomlashish vaziyatida ayollar norasmiy hurmat shaklidan foydalanadilar. Chunonchi 45 nafar ayol, 35 nafar erkak respondentning javobi buni dalillaganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilidagi anketa-so‘rovnomasi natijalari
Yoshi kattalar bilan salomlashishda qo‘llaniladigan nutqiy etiket birliklari chastotasi

2-jadval

	Ijtimoiy omillar

Nutqiy etiket birliklari	Jins 140		Yosh 140			
	Erkak 70	Ayol 70	20-29 35	30-39 35	40-49 35	50 dan yuqori 35
Assalomu alaykum	64	65	33	35	29	32
Salomalaykum	3	2	1	0	3	1
Salom	0	0	0	0	0	0
Xayrli tong	0	1	0	0	1	0
Yaxshimisiz?	15	10	7	2	10	6
Qalaysiz?	1	0	0	1	0	0
Salomatmisiz?	15	6	1	2	11	7
Ishlar qalay?	2	0	1	1	0	0
Chastotasi (ko‘p qo‘llanilishi)	100	84	43	41	54	46
Variativlik	6	5	5	5	5	4

2-jadvalda erkak respondentlarning 100 ta javobi va ayol respondentlarning 84 ta javobi tahlil qilingan. “20-29”/ “30-39”/ “40-49”/ “50 dan yuqori” yosh omili bo‘yicha javoblar quyidagicha taqsimlandi: 43/41/54/46. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, *yoshi kattalar* bilan muloqot jarayonida nutqiy etiket birliklarini qo‘llash chastotasida “**jins**” va “**yosh**” ijtimoiy omillari muhim ahamiyat kasb etadi. 2-jadvalda berilgan 8 ta birlikdan erkaklar – 6 ta, ayollar – 5 tasini belgilagan. “20-29”/ “30-39”/ “40-49” yoshlilar tomonidan 5 xil javob, “50 dan yuqorilar” esa 4 xil javob belgilagan. Mazkur guruhda *Assalomu alaykum* birligining ko‘p qo‘llanilishi, shuningdek, *Yaxshimisiz?/ Salomatmisiz?* birliklarining erkaklar va “40-49” yoshlilar tomonidan faol ishlatilishi aniqlandi.

Tahliliy natijalarimizdan xulasa o‘rnida shuni aytish mumkinki, koreys va o‘zbek muloqotida yoshi kattalar bilan salomlashishda nutqiy etiket birliklarini qo‘llash chastotasida “**jins**” va “**yosh**” ijtimoiy omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Koreys muloqotida erkaklar ko‘proq안녕하십니까? [annyeonghasimnikka?] rasmiy hurmat shaklidan, ayollar esa ko‘proq안녕하세요? [annyeonghaseyo?] norasmiy hurmat shaklidan foydalanadilar. O‘zbek muloqotida *Assalomu alaykum* birligidan ko‘p qo‘llaniladi. *Yaxshimisiz?/ Salomatmisiz?* birliklari ko‘proq erkaklar tomonidan ishlatiladi.

Koreys va o‘zbek nutqiy etiketida “Salomlashish” vaziyatidagi yosh omili jamiyatdagi iyerarxik munosabatlarga asoslanadi. Bu o‘rinda koreys jamiyatidagi iyerarxik munosabatlarning o‘zbek jamiyatiga nisbatan kuchli ekanligini ta’kidlash kerak. Insonning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, yoki maqomi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik ko‘p hurmatga sazovor bo‘ladi. Shuningdek, har ikki madaniyatda turli yoshdagilarning salomlashish munosabatida katta yoshli adresatning hurmatini saqlashning ustuvorligi kuzatiladi. Shu bois, kichiklar o‘zlaridan kattalarga salom berishda qo‘llagan ifodalari va xatti-harakatlarining axloqiy mezon asosida bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishadi.

Ko‘rinadiki, koreys va o‘zbek muloqotida nutqiy etiket birliklarining qo‘llanilish chastotasi va variativligi muloqot vaziyatiga hamda “jins” va “yosh” omillariga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goffman E. Interaction ritual: Essays in face-to-face behavior. – New York: Pantheon Books, 1967. – 270 p.

2. Shamsiyeva Sh. Madaniyatlararo muloqot (Xitoy va o‘zbek madaniyatlari misolida). – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2023. – 140 б.

3. Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Universitet, 2014. – 84 б.

4. Васильев Л.С. Особенности системы мышления, поведения и психологии в традиционном Китае // Китай: традиции и современность: Сборник научных статей. – М.: Наука, 1976. – С. 52-82.

5. Гребенёва А.А. Тематические группы этикетных формул приветствия, прощания, извинения в обучении русскому языку как иностранному // Классическое лингвистическое образование в современном мультикультурном пространстве: матер. междунар. науч. конф. – Пятигорск; Пятигорский гос. линг. у-т, 2004. – С. 363-368.

6. Ерофеева Т.И. Социолект: стратификационное исследование: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – СПб., 1994. – 356 с.

7. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993. – 27 б.

8. Сорокин Ю.А. Китайский психотип языковой личности / Ю.А. Сорокин // Филология и культура: Материалы III международной научной конференции 16-18 мая 2001 г./Отв. Ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2001. – С. 11-14.

9. Турдиева Ҳ.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. –167 б.

10. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Высшая школа, 1978. – 216 с.

11. Юлдашев С. Социологик тадқиқот методологияси. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 228 б.

12. 이석주. 한국 전통 사회와 언어 예절. 화법연구. 2009. 14, – P. 9-28.

13. 장원호. 만 5세 유아를 위한 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과.중앙대학교 대학원. 박사학위논문. 2022. – 408 p.

14. 정민영. 현대인의 언어 예절. 서울: 글누림출판사, 2016. – 242 p.

STILISTIK TADQIQOTLAR TARIXI (XX asr)

Saydaliyeva Mahliyo Ulug‘bek qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
Sezar2223@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111179

Annotatsiya: Ushbu maqola stilistikaning XX asrdagi rivojlanish jarayonlarini kuzatishga qaratilgan. Dastlabki stilistik bilimlar, uslubiy tahlillarning shakllanishidagi asosiy bosqichlarni, stilistlar va o‘zgaruvchan paradigmalarni ochib beradi. Tilshunoslik, adabiyot nazariyasi va madaniyat dinamikasining kesishuvlarini o‘rganib, til, uslub va ijtimoiy ta’sirlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sirni yoritishga, stilistikaning o‘tgan asrdagi boy tarixini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *stilistika, formalism, strukturalizm, adabiy tanqid.*

XX asrning birinchi choragida tilshunoslikda stilistikaning tilshunoslik tarmog‘i sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan ilmiy tadqiqotning o‘ziga xos sohalari paydo bo‘lgan edi. Bu sohalar tilshunoslikda rus formalizmi va praga maktabi strukturalizmi deb nomlanuvchi ikki o‘zaro bog‘liq tilshunoslik yo‘nalishlari edi. Viktor Shklovskiy va Boris Tomashevskiy rus formalizmi ta’limotiga asoslangan harakatning asosiy vakillari hisoblanadi. struktural maktabda esa Yan Mukarovskiy va Vilgem Matesius edi. Ikkala harakatni tom ma’noda o‘z tadqiqotlari orqali bog‘lagan olimlardan biri Roman Yakobson bo‘lim, tilshunos 1920-yilda Moskva doirasidan Praga guruhiga ko‘chib o‘tgan. Bu ikki maktabning ko‘pgina markaziy g‘oyalari zamonaviy stilistikada o‘z aksini topdi va bu sohalarni stilistikadagi ikkita eng mustahkam nazariy asos deyish mumkin. “Bu maktab vakillari tildagi she’riy funksiya tushunchasini diqqat markaziga qo‘ydi”[Simpson, 2005:50]. Stilistika lingvistik tarmoq sifatida butun jahon tilshunosligida 20-asr o‘rtalarida e’tirof va e’tibor qozona boshladi. Bu davr stilistikasining rivojlanishini Roman Yakobson va Tzvetan Todorov kabi olimlar faoliyatiga taqash mumkin. Rus-amerikalik tilshunos R.Yakobson til va uslubni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. U adabiy va adabiy bo‘lmagan matnlarni ajratish orqali stilistikaning asosi bo‘lgan uslub masalalarini boshlab bergan. O‘shandan beri stilistika rivojlanib, tilning uslub, adabiy effekt va nutq nuqtai nazaridan tahlil qilishga asosiy e’tiborni qaratadigan tilshunoslik sohasiga aylandi. Qolaversa, Roman Yakobson nafaqat taniqli tilshunos balki adabiyot nazariyotchisi ham edi. Olim she’riyatga alohida e’tibor berib, stilistikada adabiy asarlar tadqiqiga katta hissa qo‘shgan. Uning stilistikaga oid

asarlari she’riy tilning stilistik vositalarini tahlil qilish va qadrlashimizga ta’sir ko‘rsatdi. U “Lingvistika va poetika” maqolasida tilning poetik funksiya to‘g‘risida so‘z yuritadi va tilning poetik funksiyasi tushunchasini ilmiy hayotgha olib chiqadi. “Poetika asosiy e’tiborni nima so‘zni san’at darajasiga olib chiqadi? degan savolga javob berishga qaratadi. Shuningdek, huddi rassomchilik rasm tuzilishi haqidagi soha bo‘lganidek, poetika gap qurilishi muammolar bilan shug‘ullanadi. Gap qurilishi haqidagi umumiy bilimlar majmui lingvistika deb atalsa, poetika lingvistikaning bir qismi” deya sohaga izoh beradi[Jacobson, 1964: 353].

R.Yakobsonning stilistika sohasiga bag‘ishlangan eng asosiy g‘oyalaridan biri “tilning poetik vazifasi” haqidagi qarashlari. She’riyatda til avvalo estetik ta’sir vositasi ekanligiga e’tibor qaratadi. Poetik vazifa poetik asarning tovush, ritm, qurilish xususiyatlarini tadqiq orqali, asar estetikasini ochib beradi. Shu tariqa she’riyatda til o‘ziga xos badiiy asarga aylanadi. Olim poetik funksiya nima degan savolni mohiyati og‘zaki nutq bilan bog‘lanadi. o‘z oldiga qo‘yarkan, verbal suhbatlarda ishtirok etadigan omillarni sistemaga solib ularning poetik funksiyadagi ekvivalentlarini aniqlaydi.

Poetik funksiya millat adibining asarida qo‘llansa poetic so‘z funksiyasi vujudga keladi.

1.1-rasm.

R.Yakonsonning nasriy asar va og‘zaki nutqdan kutilgan funksiyani amalga oshiruvchi vositalarining ekvivalentlik grafigi[Jacobson, 1964: 353-357].





Poetik asarlarda inson shaxsi emas, hissiyotlari birinchi qavatda turadi. Yozuvchilar o‘z kechinmalarini she’r orqali tushuntirishga intilsa, ularni qay darajada idrok etish o‘quvchi shaxsiyatiga bog‘liq. Adabiy asar ortida turgan va anglash jarayoniga hissa qo‘shuvchi unsurlardan eng muhimlari deya asar mavzusi, o‘quvchining diqqatini tortish uchun bajariladigan murojaatlar hamda metatilni hisoblash mumkin. Asar o‘quvchisining e’tiborini tortish uchun qo‘llaniladigan ritorik so‘roq gaplar, undalmalar, stilistik vositalar murojaat hisoblanadi. R.Yakobson fikricha metatilni til haqidagi til deydi. Olim metatilga misol tariqasida quyidagi so‘roq gaplarni keltiradi:

1. Sizni anglamadim, nimani nazarda tutdingiz? (I don’t follow you what do you mean)

2. - The sophomore was plucked.
- But what is plucked?
- Plucked means the same as flunked.
- And flunked?
- To be flunked is to fail in an exam[Jacobson, 1964: 357].

R.Yakobsonning she’riy asarlar tili tadqiqiga estetik nuqtai nazardan yondashishi keying davr tilshunoslari, adabiyotshunoslari uchun tilning adabiyotda badiiy shakl sifatidagi rolini chuqurroq anglashiga hissa qo‘shdi. Qolaversa, uning g‘oyalari badiiy uslubning alohida stil sifatida o‘rganishida poydevor bo‘lib, keyingi davrlar she’riy an’analari, tilning adabiy tanqid hamda lingvistik tahlil kabi izlanish rivojiga ta’sir ko‘rsatdi.

Yana bir taniqli adabiyot nazariyasi namoyondalaridan biri Tzvetan Todorov. Bolgar-fransuz adabiyoti nazariyachisi va strukturalist T.Todorov butunjahon adabiy va stilistik bilimlar rivojiga katta hissa qo‘shgan. T.Todorovning strukturalistik va semiotik yondashuvlar asosida olib borgan tadqiqotlari adabiyot

va nutqda uslub, hikoya qilish janri (narrating) qanday ishlashini tushunishga yordam berdi. T.Todorovning kitoblaridan birini tarjima qilish davomida Richard Hovard olimga shunday ta’rif beradi: “Garchi “Janob Strukturalist” nomini olgan bo‘lsa ham, Todorov birinchi navbatda poetik olim, va keyin strukturalist edi. Uning strukturalistligi faqat poetik olim bo‘lish uchun xizmat qilgan. Olimning o‘zi uchun bu ikki so‘z teng ma’noga ega edi”[Todorov, 1975: 9]. Olimning she’riyatga bag‘ishlangan asarlari stilistikaning badiiy uslub rivojiga katta hissa qo‘shdi hamda badiiy san’atlarni yanaga kengroq tushunishga imkon yaratdi[Todorov, 1981]. Olim qator asarlar yaratib, ularda tilning badiiy qiymati va ahamiyatini ochib berishga harakat qilgan. T.Todorovning “Nasr poetikasi” nomli asari nasriy adabiyotning strukturaviy va stilistik elementlarini o‘rganadigan adabiyot nazariyasidagi muhim asardir. T.Todorov nasrning hikoya tuzilishini chuqur o‘rganadi, hikoyada ketma-ketlikning ahamiyatini va ularning o‘quvchi tajribasiga ta‘sirini o‘rganadi. U shuningdek, mualliflar ijodlarida qo‘llaydigan uslubiy va tizimli tanlovlarini o‘z ichiga olgan “nasriy sintaksis” (La grammaire du récit) tushunchasini muhokama qiladi [Todorov, 1971: 47-54]. T.Todorov “nasriy sintaksis” tushunchasini tahlil qilish orqali, nasr tilining tuzilishi she’riy tildan farqlanish fikrini ilgari suradi. Olimning fikrlaridan quyidagicha xulosa qilish mumkin, nasriy sintaksis jumlalarning ketma-ket va to‘g‘ri tartibda tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Bu sintaksis she’riyatda uchraydigan murakkabroq va ko‘pincha oddiy nutqda deyarli aks etmaydigan sintaktik tuzilmalardan farq qiladi. She’riy uslub sintaktik jihatdan gap bo‘laklarining erkin tarkibi bilan xarakterlanadi. Aslini olganda, prozaik sintaksis oddiy, she’riy bo‘lmagan matnda qo‘llaniladigan standart sintaksisdir. Faqat bu yozuvchining qay usulda gap qurilishini shakllantirishiga bog‘liq.

K.Hallidey til tuzilishi va funksiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rgangan, bu izlanish stilistikaning rivoji uchun o‘z davrining dolzarb masalalaridan biri edi. Tizimli funksional tilshunoslik til tuzilishi va funksiyasining matnlar ichida o‘zaro ta’sirini o‘rganib chiqib, uslubiy tanlovlar qanday amalga oshirilayotgani va ular adabiy va adabiy bo‘lmagan matnlarni talqin qilishga qanday hissa qo‘shishini tushunish uchun asos yaratgan. Ushbu yondashuv til va adabiyotdagi lingvistik elementlar va stilistik effektlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga yordam bergan. K.Hallidey o‘z ishlarida grammatik tanlov va ularning stilistik effektlari haqida to‘xtalib o‘tgan [https://fuoye.edu.ng/an-overview-of-communicative-functions-of-language-2]. Til tuzilishi yoki grammatikasi stilistikada muhim rol o‘ynaydi. Stilistik effektlarni yaratish uchun gap tuzilishi, fe’l zamoni va modallik kabi turli grammatik tanlovlardan foydalanish

mumkin. K.Hallideyning tuzilish (texture) va izchillik (coherence) haqidagi g‘oyalari stilistikaning rivojida alohida ahamiyatga ega. Tekstura bo‘laklar va jumlalarni tashkil qilish orqali matnlar qanday tuzilganligi bilan shug‘ullanadi. Izchillik esa matnning turli qismlaridagi lingvistik elementlarning qay darajada o‘zaro sintaksis-semantik bog‘layotganini o‘z ichiga oladi.

Ammo 1970-yillar oxiriga kelib ingliz tilshunosligida stilistikaga yangi nuqtai nazar paydo bo‘ldi. R.Yakobson g‘oyalarini rad etgan stilistik olim Stenli Eugene Fish boshqa olimlardan farqli ravishda adabiy tahlil va talqinda turlicha qarashlarga ega edi. “Fish Yakobsonning uslub haqidagi qarashini matnning o‘ziga xos xususiyati sifatida rad etadi va uslubni matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi tomonidan yaratilgan dinamik effekt sifatida ko‘radi. U stilistik effektlarni matnda emas, balki o‘qish faoliyatida topadi yoki o‘quvchiga yo‘naltirilgan stilistikani qo‘llab-quvvatlaydi, bunda o‘quvchining taxminlari va talqin qilish jarayonlarini o‘rganish birinchi o‘ringa chiqadi” [stylistic readers, 1996: 2]. Stenli Fishning adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidga bag‘ishlangan asari “Bu sinfda matn bormi?”[Fish, 1980]deb nomlanadi. Ushbu asarda S.Fish talqin g‘oyasini (interpretatsiya) va adabiy matnlarni tushunishda o‘quvchining rolini o‘rganadi. U obektiv adabiy tahlilning an’anaviy tushunchalariga qarshi chiqadi va matnning ma’nosi matnning o‘ziga xos emas, balki o‘quvchilar tomonidan ma’lum bir talqin qiluvchi jamoalar ichida tuzilganligini ta’kidlaydi. “Muallif matn orqali aynan nazarda turgan ma’noni biz hechqachon aslidek aytib bera olmaymiz”[havola], deydi yozuvchi. Bu fikr orqali stilistik tahlillarda yozuvchi emas aslida asar o‘quvchisi birinchi planga chiqishi kerakligi haqidagi fikrni yana bir bor qo‘llab quvvatlaydi. Haqiqatan ham boshqa inson ongini o‘qib bo‘lmaganidek, ma’noni aynan aslidek tushunish mumkin emas. Lekin bu asarlarni yozuvchi uslubi jihatdan tahlil qilishni cheklamasligi kerak. Yozuvchi nimanidir avvaldan hayol qiladi, o‘quvchidan kutadi, shu bilan o‘quvchi ham asarni o‘qish davomida matndagi signallar, ongdagi bilimlar, tahminlar orqali ma’noni tushunadi. S.Fishning qarashlari o‘quvchi stilistikasi nuqtai nazari ingliz tilshunosligida pedagogik stilistikani paydo bo‘lishiga olib keldi [stylistic readers, 1996: 5]. Pedagogik stilistika til va adabiyotni o‘qitishda o‘quvchilarning matnlarni tushunishini, tildan unumli foydalanish qobiliyatini oshirish maqsadida til, uslub va nutqni o‘rganishga qaratilgan yondashuvdir. U tilshunoslik va adabiy tahlil elementlarini o‘zida mujassam etgan holda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, izohlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Stilistika rivojidagi keyingi qadam tahlilda nutq aktlariga bo‘lgan e’tibor edi. Bu sohada birinchilardan bo‘lib tadqiqot [Mary, 1977] olib borgan tilshunoslardan biri

amerikalik Mary Louise Pratt hisoblanadi. Nutq aktlari-jamiyatning kommunikativ normalari asosida amalga oshiriladigan, maqsadli so‘z amaliyotidir. “Nutq aktlari aniq muhitda bajariladi va uning ishtirokchilari dunyo haqida umumiy g‘oyalarga ega. Nutq aktlari tuzilishida eng muhim qism illokutiv deb ataladi. Bu insonlararo munosabatni aks ettiradi va gapiruvchining qanday maqsadni ko‘zlaganini ko‘rsatadi” [Стилистический энциклопедический словарь русского языка / под ред. М.Н. Кожиной; члены редколлегии: Е. А . Баженова, М.П. Котюрова, А.П. С ковородников. – 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011.]. Nutq harakatlari deganda umumiy fikr bildirsak, bu odamlarning tildan foydalanganda bajaradigan harakatlari. Ular shunchaki ma’lumot uzatishdan tashqariga chiqadi va so‘zlovchini so‘rov, buyruq, va’da, savol berish, kechirim so‘rash yoki bayonotlar berish kabi turli funksiyalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Nutq aktlari kontekst va ijtimoiy omillarning til ma’nosiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limi bo‘lgan pragmatika sohasidagi fundamental tushunchadir.

Badiiy asar tili masalalari barcha tillar stilistikasining eng ko‘p tadqiq etilgan masalalaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilshunosligida bu masalalarga alohida urg‘u berilgan[Jacobson, 1964; Levin, 1966; Lodge, 1992; Toolan, 1996; Widdovson, 1951]. Jumladan, Simpson Paulning “Stilistika: O‘rganuvchilar uchun qo‘llanma” kitobida adabiy asarlardagi gaplarda ega kesimning kelish o‘rni va uning ahamiyati [Simpson, 2004: 18-29], qahramonlarning nutqi va fikri o‘rtasidagi farqni qanday aks ettirilishi [Simpson, 2004: 32] masalalari misollar bilan o‘rganilgan.

“Stilistika fani o‘quvchilariga Roman Yakobsondan torib bugungacha” nomli risola ingliz tilshunosligida stilistikaga oid 35 yillik asosiy nazariyalar, olimlar, stilistik yondashuvlar haqida ma’lumot beruvchi asardir. Formal stilistikadan boshlangan asar kognitiv stilistik tadqiqotlar tavsifi bilan yakunlangan. Asarning kognitiv stilistika qismida metafora, kinoya kabi badiiy tasviriy san’atlarning badiiy adabiyotda o‘quvchi tomonidan qanday talqin qilinishiga oid tadqiqotlar keltirilgan [Wilson, 1996].

Rus tilshunosligida stilistikaga oid tadqiqotlar 19-asrda boshlangan. Rus stilistikasining rivojlanishidagi asosiy qadamlardan biri A.Potebnya va uning shogirdlari rahbarligida stilistik maktabning yaratilishi edi. Bu maktab badiiy asarlarda, shuningdek, publitsistik va nutqning turli stillarida uslubiy tuzilish va xususiyatlarni faol o‘rgandi. Shuningdek, rus tilshunosligida “stilistika sohasi Charlz Ballining asarlari orqali shakllana boshlagan”[Trifomivich, 2013: 32]. Balli ijodi fransuz tilida bo‘lsa-da, uning g‘oyalari stilistikaning til sohasi sifatida rivojlanishiga, ayniqsa, rus tilshunosligiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Rus tilshunosligida

bir qator olimlar stilistika masalalarini umumiy ko‘lamda o‘rgangan. Rus tilshunosligida stilistikaga oid masalalarga funksional tomondan yondashish yetakchilik qilgan. Rus olimlari til va uslub masalalarini stilistikaning asosiga qo‘ygan. Quyidagi ta’rifni fikrimiz isbot sifatida keltirishni joiz ko‘rdik: “Stilistika-bu adabiy tilning turli uslublarda, nutq turlarida qo‘llanilishi va ma’lum bir adabiy tilning nutq uslublarida ifoda vositasidan qanday foydalanishi haqidagi fan” [Galperin, 1958: 7]. M.N.Kojina rus tilshunosligida stilistikaning asoslarini yaratgan tilshunoslar qatorida A.A.Potebnya, L.Sherba, A.M.Peshkovskova, L.P.Yakubinskovalarni sanab o‘tadi. Rus tili stilistikasini yanada rivojlanishida esa V.V.Vinogradova G.O.Vinokur, B.A.Larina kabi olimlarning hissasi katta ekanligini o‘z maqolasida aytib o‘tgan[Kojina, 1954: 9].

Ingliz tilshunosligida bo‘lgani kabi rus tilshunosligida ham stilistikaning rivojlanishi adabiyot nazariyasiga oid tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liq. V.Vinogradov bu sohadagi yetakchi nazariyashunos olimlardan hisoblanadi. Rus tilshunosligida uslubiy tadqiqotlarning rivojanishini G.O.Vinokurga taqash mumkin. G.Vinokur rus tilshunosligida birinchilardan bo‘lib “Zamonaviy amaliy stilistika endi poetika va ritorika uchun qo‘llanma bo‘la olmaydi, fanning doirasini kengaytirish kerak” [Vinokur, 1929: 335], degan fikrni olg‘a surgan. Rus tilshunosligida ham stilistik vositalar, bu vositalarning xususiyatlari, nutqdagi vazifalari, uslubni farqlashga qaratilgan qator nashrlar chop etilganiga qaramay, stilistikaning fan sifatida to‘liq shakllanishi 20-asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu borada qator olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Masalan, “tilshunoslikning maxsus sohasi sifatida stilistikadagi tushunchalar hamon noaniq”[Admoni, 1954: 93], “ushbu fanning predmetini nima tashkil etishi haqida aniq fikrlar kam” [Glaperin, 1954: 76] mulohazalari 20-asr o‘rtalarida ham stilistik nazariy bilimlarning to‘liq shakllanib ulgirmaganidan dalolat beradi. M.Kojina o‘sha davrdagi hal qilinishi kerak bo‘lgan stilistik masalalarni quyidagilar deb hisoblagan:

1. Stilistikaning obekti, predmeti, fanning leksikologiya, morfologiya kabi tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqasini aniqlash;
2. Til uslublarining mohiyati hamda til va nutq uslublarini farqlash;
3. Badiiy adabiyot tilining boshqa funksional uslublardagi o‘rni;
4. Ekspressiv uslub tadqiqi[Kojina, 1954: 13];

Bugungi kunga kelib turli tillar lingvistikasida yuqoridagi sanab o‘tilgan muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilganida qaramasdan, stilistik tadqiqotlarning jadal sur’atda davom etayotgani sohaning tadqiq etilishi kerak bo‘lgan masalalari talaygina ekanini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Admoni V.G., Silman T.I. Selection of Linguistic Means, "Questions of Linguistics" Volume 4. – Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1954. – P. 93

2. Fish S. Is There a Text in This Class? The Authority of Interpretive Communities. – United KingdoM: Harvard University Press, 1980.

3. Galperin I.R. Essays on the Stylistics of the English Language. – Moscow: Foreign Language Literature Publishing House, 1958. – P. 7

Levin S.R. Linguistic Structures in Poetry. Language, Vol. 42, No. 3, Part 1 (Sep., 1966);

4. Lodge D. The Art of Fiction. Illustrated from classic and modern texts. – London: Penguin Books, 1992;

5. Vinokur G.O. Language Culture. — 2nd ed., revised and enlarged. — Moscow: Federation, 1929. – P. 335

6. The stylistics Readers. From Roman Jacobson to the present. – Arnold, 1996. – P. 2

7. http://web.mit.edu/uricchio/Public/Documents/fish.pdf – P. 525

8. Toolan M. Language in Literature. – London: Routledge, 1996; Language, Discourse and Literature: An Introductory Reader in Discourse Stylistics. – United KingdoM: Taylor & Francis, 2003; (first published 1988)

9. Widdowson H.G.. Stylistics and the Teaching of Literature. – United Kingdom, Taylor & Francis, 2014. (1951);

10. Widdowson, H.G.. Stylistics and the Teaching of Literature. – United KingdoM: Taylor & Francis, 2014.

11. Wilson D, Sperber D. On verbal irony. Freeman D.C. According to my bond: King Lear and re-cognition. The stylistics Reader. From Roman Jakobson to the present. – Arnold, 1996. – P. 260-298

12. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963.

13. Виноградова В.Н. Стилистический аспект русского словообразования. – М.: Наука, 1984.

14. Винокур Г. О. Культура языка. — Изд. 2-е, испр. и доп. — М.: Федерация, 1929. – С. 335 с.

15. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. – С. 7

16. Гальперин И.Р. Речевые стили стилистические средства языка, “Вопросы языкознания” том 4. – М, 1954-1955. – Москва: Издательство академии наук СССР, 1954. – С. 76

17. Кожина М.Н. «О речевой системности научного стиля сравнительно с некоторыми другими» (1972), Гарбовский, Н.К. Сопоставительная стилистика профессиональной речи / Н.К. Гарбовский. – М.: МГУ, 1988.

18. Кожина М.Н. Пути развития стилистики русского языка во 2-ой половине XXв. “Вопросы языкознания” том 4. – Москва: Издательство академии наук СССР, 1954. – С. 9

19. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1993.

20. Кожина, М.Н. Стилистика русского языка / М.Н. Кожина, Л.Р. Дускаева, В.А. Салимовский и др. – М.: Флинта Наука, 2010.

21. Николаева Т.М. Очерки по исторической стилистике и словообразованию. – Казань: Изд-во КГУ, 2000.

22. Стилистический энциклопедический словарь русского языка / под ред. М.Н. Кожиной. – 2 изд., испр. и доп. – М.: Флинта Наука, 2006.

23. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974.

EKOTERMINLARNING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Nigmatullina Almira Shamsunovna
Far‘gona politexnika instituti,
O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kefedra katta o‘qituvchisi
almira.nigmatullina@ferpi.uz

Abdullaxadova Bibioysha Aduxamid qizi
KLT fakulteti, 74-23TT yo‘nalishi gurux talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11111194

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida terminologiyaning tizimli-tarkibiy, funksional-uslubiy va leksik-semantik xususiyatlarining boyitish yo‘llari o‘rganilib, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, tizim, ekoleksika, ekoterminlar,semantika, tushuncha, birliklar, atrof-muhit.*

Turli tizimlarga mansub tillardagi ekoleksikaning tadqiq etilishi shuni ham ko‘rsatdiki, undagi turli leksik-semantik guruhlarga mansub ekoso‘zlarning asosiy ma’nosiga qo‘shimcha yana konnotativ emosional baholash ma’nolari ham qo‘shilishi aniqlandi. Buni ekoso‘z va ekoterminlar ifodalaydigan tushunchalar insonning tabiat, atrof-muhitga nisbatan salbiy yoki ijobiy ta’siri natijasi deb izohlash mumkin. Shunga ko‘ra ekoleksika ikki katta leksik semantik guruhga (LSG) ga bo‘linadi:

1) ijobiy ma’noga ega ekologik birliklar;

2) salbiy ma’noga ega ekologik birliklar.

Birinchi guruhdagi ekoleksika, o‘z navbatida quyidagi mikroguruhlarga ajratiladi:

a) jobiy ma’noga ega fe’llar; b) tabiiy geografik nomlar; v) hayvonot va o‘simlik dunyosi terminlari; g) texnika va vositalar ifodalovchi ekoterminlar; d) ishchi xodimlar nomlari;

Ikkinchi guruhga mansub ekoleksemalar quyidagi mikroguruhlardan tashkil topgan:

a) salbiylik ma’nosini anglatuvchi fe’llar; b) ekologik halokatlar; v) ifloslikni keltirib chiqaruvchilar nomlari; g) inson faoliyatini anglatuvchi ekoso‘zlar.

Ekoleksikaning bunday LSG lari nafaqat rus va ingliz, balki o‘zbek tilida ham mavjud. Ularni tilshunoslik va unga yaqin toifadagi so‘zlarning tabiati va ulardagi

dinamik o‘zgarishlarni, ularning nutqda qo‘llanishi xususiyatlarini hamda uzluksiz ko‘payib borishi, taraqqiy etishi muammolarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi, ularni har tomonlama va chuqur talqin etishga xizmat qiladi. O‘zbek tili ekoleksikasi tarkibida salbiy mazmun va ma’noli so‘zlar ularga qarshi turgan ijobiy ma’noli ekoso‘zlarga nisbatan ko‘proq ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi. Bunday ekoleksemalarning miqdor jihatidan ko‘pligi va tinmay ko‘payib borayotganligi O‘zbekistondagi ekologik ahvolning murakkabligi va bu global ahamiyatga ega muammoni hal qilishga yetarli darajada e’tibor berilmayotganligi bilan izohlanadi. Bunday achinarli hol shu hududlar tili bo‘lgan o‘zbek tilida ham o‘z aksini topgan. Bu jarayonni umuman teskari tomonga burib yuborish faqat tilshunoslargagina bog‘liq emas. Bunda butun jamiyat mavjud ijtimoiy qudratini ushbu ezgu maqsad sari yo‘naltirmog‘i muhim. Yuqorida sanab o‘tilgan ekoleksikaning o‘zbek va ingliz tillaridagi LSG larini batafsil ko‘rib chiqamiz. Ijobiy ma’noga ega bo‘lgan ekoso‘zlar ingliz va o‘zbek tillarida keng tarqalgan. Ular besh turdagi kichik guruhlarga bo‘linadi.

Ijobiy ma’no anglatuvchi fe’llar, ya’ni insonning tabiatga nisbatan ijobiy munosabatini ifodalovchi fe’llar. Bunday so‘zlar salbiy ma’noli fe’llarga nisbatan ancha oz. Ingliz tilida bu mikroguruh 300 leksik birlik, rus tilida 400 ta leksik birlik, o‘zbek tilida700 leksik birlikni tashkil qiladi.

Bu biz tekshirayotgan barcha tillardagi so‘zlarning deyarli yarmini tashkil qiladi. Ular tarkibiga ko‘ra sodda, yasama va qo‘shma so‘zlardir. Ingliz til ida bunday so‘zlarning asosiy qismi prefiksal usulda yasalgan. Ular o‘zbek tilida suffiksal usulda hosil qilingan ekvivalentlarga ega. Masalan:

переадаптироваться – to readaptation, - қайта мослашмоқ, qayta moslashmoq, реорганизовать – to reorganize - қайта тузмоққayta tuzmoq va b .

Suffiksal fe’llar: eng faol suffikslar ingliz tilida: *-en, -ty, -ate, -ize – to purify, to liquidate, to harmonize, to freshen;*

Ular orasida qo‘shma so‘zlar ham mavjud va ular quyidagi modellarda o‘z ifodasini topadi: Ingliz tilida: la, -moq, -lashtir: tozalamoq, yo‘q qilmoq, uyg‘unlashtirmoq;

Ular orasida qo‘shma so‘zlar ham mavjud va ular quyidagi modellarda o‘z ifodasini topadi: Ingliz tilida:

Tub yoki sodda fe’llar ham rus va ingliz tillarida unchalik oz ham, ko‘p ham emas.

Ingliz tilida: *to purge, to protect, to limit; to litter; to mine; to purge; to preserve; to freeze; to clog;*

O‘zbek tilida: tozalamoq; himoyalamoq; cheklamoq; tartibsiz holda tashlamoq; kovlab qazib olmoq; tozalamoq; ehtiyot qilmoq; muzlamoq; ifloslantirmoq; qo‘riqlamoq;

Bunday toifadagi qo‘shma ekoso‘zlar barcha tillarda oz miqdorda uchraydi. Ijobiy ma’nodagi ekofe’llarning ko‘pchiligi so‘z birikmalari ko‘rinishida qo‘llanadi:

Ingliz tilida: *to fight pollution; to preserve ecosystems; to harmonize industry; to preserve woollands; to reduce pollution;*

O‘zbek tilida: *ifloslanishlarga qarshi kurash; ekotizimlarni ehtiyot qilish; sanoatni moslashtirmoq; o‘rmonli joylarni asrab avaylash; iflosliklarni kamaytirish;*

2) Tabiiy geografik tushunchalarni ifodalovchi ekoso‘zlar.

Bunday so‘zlar ham o‘zbek tilida ko‘p topiladi. Masalan:

O‘zbek tilida: tabiat; o‘rmon; ummon; daryo; ko‘l; qo‘ltiq; botqoqlik; qirg‘oq; basseyn; botqoq; tog‘ oralig‘i; bog‘; atrof; dovul; yer; botqoq; chakalakzor;

Shuningdek, ingliz tilining o‘zida ular juda ko‘p leksik birlikni tashkil etgan. Ular ham sodda, yasama va qo‘shma so‘zlardan iborat. Bunday so‘zlarning ko‘p qismi ingliz tilida sodda so‘zlar. Masalan: Ingliz tilida:nature; forest; ocean; river; lake; bay; bog; bank; basin; coast; arr; defile; garden; habitat;hurricane; land; morass; moor; mire; thicket; Ular orasida qo‘shma so‘zlar ham mavjud va ular quyidagi modellarda o‘z ifodasini topadi: Ingliz tilida:wild life; ecosystem; landscape; water-ratio; urban center; thick fog; plant ecology; marine life; float wood; droughty zone; derelict land; barren soil; waste land;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ломинина З. И. Эмотивность текстов по экологии: тенденции и гипотезы // Экономический вестник научных центров черноморского экономического сотрудничества (ЧЭС). Экология языка как прагматическая сущность. – Краснодар, 2004. – С. 45-48

2. Нелюбин Л. Л., Хухуни *Г. Т.* Наука о переводе (история и теория с древнейших времен до наших дней): учеб. пособ. – 2-е изд. – М.: Флнта, МПСИ, 2008. – 416

3. Попова З. Д., Стернин И. А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 189 с

4. Рецкер *Я. И.* Теория перевода и переводческая практика / Сост.: Д. И. Ермолович. – М.: Р.Валент, 2004. – 24

5. Almira N. Etymological Specificity of English-language Ecology Terms //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 4. – С. 530-535.

MUNDARIJA

I SHU’BA. NAZARIY TILSHUNOSLIK		
Ho Lim Song	O‘zbek tilshunosligida hozirgi uyg‘ur tiliga oid tadqiqotlarning o‘rni	6
Karimov S., Rashidova U. Suvonova D.	O‘zbek tilida frazemalarning uslubiy tavsifi masalalari	11
Zaripov R.	O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalari tadqiqi istiqbollari	18
O‘razova I.	Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi	24
G‘oyibov U.	Frazeologik birliklar haqida umumiy qarashlar va ularning nazariy asoslari	30
Ruziyeva N.	Nasriy matnlarlarda metaforalarning o‘rganilishiga doir	38
Rafiqjonova M.	Tilshunoslikda antonimiya masalasi	47
Uzakova X.	Zamonaviy badiiy matnlardagi “sadoqat” konseptini ifodalovchi leksemalar tahlili	53
Hasamuddin Hamdard	Chig‘atoy tilining afg‘oniston o‘zbek adabiyotiga ta’siri	61
Umirzoqova N.	Ingliz va o‘zbek tillaridagi ibora hamda maqollar tarkibidagi o‘lchov so‘zlar tahlili	68
Qobilova M.	O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida sotsial semali so‘zlarning struktur tasnifi	72
Islomova Sh.	Dialektal sinonim frazemalarning stilistik xususiyatlari	76
Isayeva M.	O‘zbek tilining qipchoq shevasi vakillari nutqida singarmonizm	80
II SHU’BA. PSIXOLINGVISTIKA		
Azimova I.	O‘zbek tilidagi Broka afaziyasida fe’llar bilan bog‘liq qiyinchiliklarning namoyon bo‘lishi	87
Shahobiddinova Sh.	Neyropsixolingvistika fan sifatida	96
Ibraximova I.	Til va identiklik munosabati tadqiqida psixologik yondashuvning ahamiyati xususida	99
Sadikova G.	The role of summarizing as a cognitive reading strategy in second language acquisition	103
Худайбердиева С.	Психолингвистический анализ речи пожилых людей в Южной Корее	109

Saidaxmedova O.	Bola nutqida undosh tovushlarning o‘zlashtirilishi (chet tili misolidagi tadqiqotlar asosida)	113
Mukhamadiyev A.	Linguistic aggression as a type of emotional response	118
Qambarova L.	Nutq jarayonining ikki tomonlama oqim modeli tadqiqi	123
III SHU’BA. KORPUS LINGVISTIKASI		
Abjalova M., Adilova M.	Tabiiy tilni qayta ishlashda so‘z turkumlarini teglash ahamiyati va zarurati	128
Xonnazarov E.	-a (-y) zamon shakli va uni korpusda annotatsiyalash	134
Abjalova M., Quriyozova Sh.	Korpus lingvistikasi terminlarining shakliy strukturasi tahlili	141
Abdurahmonova N., Xudoyberganova T.	Xorazm shevalari korpusini yaratishning zaruriy asoslari	147
G‘ulomova N.	Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari	152
Abdurahmanova S.	O‘zbek korpus lingvistikasi shakllanishi va taraqqiyoti	160
Jo‘rayev Sh.	Xorijiy tillarni o‘qitishda va o‘rganishda korpus lingvistikasining ahamiyati	165
Raximbayev M.	Ogahiy “Ta’vizu-l-oshiqin” devonining matn korpusini shakillantirishning lingvistik va dasturiy asoslari	169
Bekmuradova I.	Slenglarni avtomatik teglashda lug‘atga asoslagan yondashuv	174
Nurboyeva M.	Korpus lingvistikasida frazeologik polisemiyani modellashtirish masalalari	179
IV SHU’BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASI		
Mahkamova D.	Sinonimayzer imkoniyatlari va uning ahamiyati	184
Sunatov J. Rustamov R. Dustmurodova M.	Kompyuter lingvistikasida fonetik tahlil jarayoni	191
V SHU’BA. KOGNITIV TILSHUNOSLIK		

Ko‘chimova Sh.	Nutq va tilning umumnazariy asoslari	196
Hakimova M.	O‘zbek tilida kognitiv metaforalarda milliy tafakkurning aks etishi	200
Bozorova S.	“Ot” komponentli turk maqollarida zoonimlar	206
Abduraxmanova M.	O‘zbek va turk tillaridagi omonimlar tadqiqi	214
Orifova M.	Primqul Qodirovning “Erk’’ qissasida qo‘llangan ayrim “ko‘z” komponentli iboralarning semantik tahlili	220
Abdullayeva O.	Halima Xudoyberdiyevaning “Saylanma”sida qo‘llangan ayrim frazeologizmlarning semantikasi haqida ba’zi mulohazalar	225
Musurmankulova Sh.	O‘zbek va turk tillaridagi ko‘ngil komponentli frazemalar tahlili	230
Valiyeva M.	Ikkilamchi nominatsiya lingvistik tadqiqot obyekti sifatida	236
Uzakova X.	“Sadoqat” konseptining lingvokognitiv asoslari va xorijda o‘rganilishi	241
Yuldosheva V.	O‘zbek va nemis tillarida tanani ifodalovchi evfemalarning ma’noviy nomuvofiqlik holatlari	248
Bektoshev M., Jamolitdinova D.	Lingvomadaniy aspektda “yumor” tushunchasi	253
Хурсанов Н.	Дискурсивная интерпретация метафор в английской драме: когнитивно-прагматическая характеристика	258
Abruyeva Z.	O‘zbek tilidagi ayrim murojaat shakllarining semantik taraqqiyotida aks etgan kognitiv xususiyatlar	265
Xaydarova X	Taqlid so‘zlarga beriladigan illyustrativ misollarning xalq og‘zaki ijodidan tanlanishi (o‘zbek tilining izohli lug‘atlari misolida)	270
Xasanova M.	“qora ko‘zlar” romanida qo‘llangan “ko‘z” komponentli iboralarning leksik - semantik xususiyatlari	275
Jurakulova H.	O‘xshatishlardagi lingvomadaniy ifoda	279
Mamarajabova O.	Erkin Vohidovning frazeologizmlardan ijodiy foydalanish mahorati (bosh komponentli iboralar misolida)	284

VI SHU’BA. TIL TARIXI		
Dadaboyev H.	“Boburnoma” lug‘at tarkibida arxaizmlarning o‘rni	287
Abdushukuruv B.	Kultigin bitigida qo‘llangan ba’zi so‘zlarning ma’no ko‘lami	295
Muhammadiyeva D.	“Boburnoma”ning qozoqcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	304
Xolmurodova M.	“Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk”dagi tabobatga doir terminlar tasnifi	308
Abduvaliyeva D.	Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul Farodis” asarining o‘rganilishi	313
Rixsiyeva K.	qa= umumturkiy asosi etimologiyasiga doir mulohazalar	319
Tuxtasinova M.	L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida chig‘atoycha narsa-buyum nomlari	325
Mamatqulova T.	Alisher Navoiy ijodida qo‘shiq terminining sinonimlari	330
Ahmadjonova M.	“Devonu lug‘otit turk” asarining Ozarbayjonda mustaqillikdan keyingi davrda o‘rganilishi	336
Odilova D.	Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi badiiylikni ta’minlovchi lingvistik vositalar	343
Azizova N.	“Devonu lug‘otit turk”dagi leksemalarning semantik maydon asosida tahlili	349
Tashmatova N.	Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida o‘zlashma qo‘shimchalar yordamida yasalgan leksemalar ifodasi	355
Muhsinjonova Sh.	Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida meva nomlarinining ifodalanishi	360
Mamarajabova I.	Eski o‘zbek adabiy tilidagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti	366
Aralova L.	“Devonu lug‘otit turk” va Xorazm o‘zbek o‘g‘uzlari leksikasining qiyosiy tahlili	374
VII SHU’BA. TERMINOLOGIYA		

Mahkamova D.	Terminologik modernizatsiyalashuvni vujudga keltiruvchi ayrim omillar xususida	380
Ravshanova N.	O‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik tahlili	386
Isaqova M.	Xalqaro huquqiy terminlarning o‘zbek yuridik tiliga o‘zlashish usullari	391
Bazarova U.	Atamashunoslik tizimida texnik terminlarning asosiy xususiyatlari	397
G‘aniyeva L.	Davlat boshqaruvidagi qo‘shma terminlar tasnifi	401
Raxmatjonova K.	Hindiy tilida कारक ‘kaarak’, परसर्ग ‘parsarg’, विभक्ति ‘vibhakti’ terminlarining ayrim jihatlari	407
Sobirova M.	Konchilik terminologiyasining lug‘atlardagi tahlili	411
VIII SHU’BA. LINGVISTIK EKSPERTIZA		
O‘rozov J.	Sha’n, qadr-qimmat bilan bog‘liq leksik birliklarning lingvistik ekspertizasi	419
To‘rayeva D.	Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasida metodologiya masalasi	427
Abdurayimova D.	Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiyat tipologiyasi tadqiqi	434
IX SHU’BA. TIL TA’LIMI		
Yagyaeva E., Dehqonova X.	The ways to make learning english more interesting	439
Yusufova D.	Muomala etiketidan foydalanishning pedagogik imijga ta’siri	444
Yuldoshev F.	O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning muammo va yechimlari	449
Ashirbayeva D.	Koreys tili va uni oltoyshunoslikda o‘rganilishi	453
Maxmudova Z.	O‘zbek va ingliz tili izohli lug‘atlarida fe’llarning berilishi	460

X SHU’BA. SOTSIOLINGVISTIKA

Юлдашев Ф.	Роль паралингвистики в общении	466
Yusupova G.	Koreys va o‘zbek nutqiy etiketida “salomlashish” vaziyatining sotsiolingvistik aspekti	471
Saydaliyeva M.	Stilistik tadqiqotlar tarixi (XX asr)	481
Nigmatullina A. Abdullaxadova B	Ekoterminlarning semantik va funksional xususiyatlari	490